RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI
IJTIMOIY-MA’NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

ZJV5401

Ma’naviy tarbiya va targ‘ibotning zamonaviy texnologiyalari hamda ta’sirchan usullari

ZJV5401

Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari

TOSHKENT
«AFZALZODA BOOKS»
2023

ZJV5401

UO‘K: 821.512.133.06(091)
KBK: 84(5O‘)87

Ma’naviy tarbiya va targ‘ibotning zamonaviy texnologiyalari hamda ta’sirchan usullari: respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent: «AFZALZODA BOOKS» nashriyoti, 2023. – 576-bet.

Ushbu to‘plamda “Ma’naviy tarbiya va targ‘ibotning zamonaviy texnologiyalari hamda ta’sirchan usullari” mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasiga yuborilgan ilmiy maqolalar jamlangan. To‘plam O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan «2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili»da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI»ning 220-bandini ijrosini ta’minlash maqsadida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tomonidan tayyorlandi. Kitob siyosatshunoslik, sotsiologiya, falsafa, ma’naviyat sohasi mutaxassislari, ilmiy tadqiqotchilar, magistr va bakalavr talabalar hamda keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:
Olimjon Davlatov,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

To‘plab, nashrga tayyorlovchilar:
M.Kaxarova, I.Suvonov, S.G‘ofurov, M.Musayev, Sh.To‘rayev, Sh.Axrorova, B.Qodirov, K.To‘rayev, A.Madraximov, X.Serobov, L.Eshonkulov

So‘zboshi muallifi:
Minhojiddin Hojimatov,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari, senator

ISBN 978-9943-9217-1-9

ZJV5401

SO‘ZBOSHI

Insoniyat shiddat bilan o‘zgarib borayotgan ushbu dolg‘ali davrda ma’naviy tayanchlarga har qachongidan ham ko‘proq ehtiyoj sezmoqda. Makkorlik – fazilat, oqko‘ngillik – uyat sanalayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida insof, adolat, vijdon va halollik haqida gapirish erish bo‘lib tuyulayotir. Manfaat barcha munosabatlarning bosh mezoni va o‘lchoviga aylanayotgan bir paytda kishilarning o‘zaro munosabatidan xalqaro munosabatlarga dovur keng quloch yozgan moddiyatparastlik asoratini ketkazish faqat ziyolilargina emas, balki butun bashariyat ma’naviy qadriyatlar, odamiylik mezonlari haqida teranroq mulohaza qilishga, ezgulik va yovuzlik kurashida sobitroq bo‘lishga undamoqda.

Axborot va texnologiyalar asridagi mislsiz taraqqiyot, ilmfan va texnika yutuqlari kishilik jamiyatining moddiy farovonligini ta’minlash barobarida ma’naviy qashshoqlik, ruhiy yemirilishga sabab bo‘layotgani shunchaki balandparvoz gaplar emas. Farzand ota-onasining nasihatidan ko‘ra, virtual dunyodagi but va sanamlariga ko‘proq ishonayotgani, asrlar davomida insonning ziyonati hisoblangan axloq va odob majmui bugungi kunda shaxs erkinligiga tajovuz o‘laroq baholanayotgani, loqaydlik – o‘zgalarning hayotiga daxl qilmaslik madaniyati sifatida taqdim etilayotgani ma’naviy-ruhiy maydonda har doimgidan ham ko‘proq va jiddiyroq faoliyat olib borishimizga undaydi.

Ochig‘ini aytish kerak, ne-ne ezgu niyatlar bilan faoliyati yo‘lga qo‘yilgan ma’naviyat sohasi istiqlol davrida jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotga o‘zining katta hissasini qo‘shdi. O‘tgan davr mobaynida mazkur sohada yetarlicha tajriba to‘plandi, odamlarning ongu tafakkurini zarpechakdek chirmab olgan mutelik va leninparast-

lik g‘oyalariga qattiq zarba berildi. Bir zamonlar hayotimizni usiz tasavvur etolmaganimiz – kommunistik mafkura haqida faqat mavhum tushunchalar soyasi qoldi. Lekin bu bilan xotirjamlikka berilib bo‘lmaydi. Biz yot g‘oya va mafkuralarga qarshi “ma’naviyat” so‘zini shunchalik ko‘p ishlatdikki, oqibatda xalqimizni ushbu olijanob so‘zning o‘zidan ham bezdirib yubordik.

Zamon o‘zgardi. Yangi avlod tarix arsasiga o‘zining talablari, o‘z haqiqatlari bilan qadam qo‘ymoqda. Yoshlikning bosh xislati – inkordan iborat. Yaxshimi-yomonmi, oldingi avlodning barcha qilmishlarini inkor etib, dialektik taraqqiyotga sabab bo‘luvchi “inkorni-inkor qonuni” o‘z so‘zini ayta boshlagan davr bu. Shunday nozik va ayni chog‘da nihoyatda muhim bir pallada ma’naviy qadriyatlarimiz, tarix sahnasida o‘zligimizni ko‘rsatib, borlig‘imizni ta’minlab beruvchi asriy ildizlarimizga murojaat qilish, ma’naviy barhayot sarchashmalarimizdan oziqlanib, yangi zamon nafasidan kuch olgan holda shiddat bilan taraqqiyparvar xalqlarning oldingi safidan joy olish uchun yangicha yondashuv va uslublarni taqozo qilmoqda.

Yangi avlodni ma’naviyat so‘zini qo‘llamasdan ma’naviy muammolar haqida bildirish, Vatan so‘zini qo‘llamasdan, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, hayotiy va jonli misollar bilan hayotning eng asosiy masalalari to‘g‘risida tafakkur etishga undash bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biridir. Shuning uchun, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti zamonaviy targ‘ibot texnologiyalarining eng muhim masalalari haqida respublikamizdagi ko‘zga ko‘ringan olimlari va yosh tadqiqotchilarning taklif va tavsiyalarini muhokama etish maqsadida navbatdagi ilmiy-amaliy konferensiyani o‘tkazmoqda.

Mazkur konferensiya Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan vazifalarning ijrosi yo‘lida amalga oshirilayotgani bilan ham alohida ahamiyatga ega. Chunki taraqqiyotning mohiyati va ahamiyati, umidbaxsh islohotlarning jarayoni, rivojlanishda insonning ma’naviy omili kabi

masalalarni oydinlashtirish eng avvalo to‘g‘ri va manzilli tashkil etilgan targ‘ibot bilan chambarchas bog‘liq. Umid qilamizki, konferensiyada o‘rtaga tashlangan taklif va mulohazalar amaliyotga ko‘chib, targ‘ibot ishlarimizning yangi sifat bosqichiga ko‘tarilishiga xizmat qiladi.

Minhojiddin Hojimatov,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat
markazi rahbari, senator

ZJV5401

I. SHO‘BA MA’NAVIY TARBIYANING SAMARALI VA TA’SIRCHAN USULLARI

MA’NAVIY VA MODDIY HAYOTNING UYG‘UNLIGI – TARAQQIYOTNING ASOSIY DRAYVERI

Furqat JO‘RAQULOV, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbarining birinchi o‘rinbosari, siyosiy fanlar doktori

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 26-yanvar kuni O‘zbekistonning 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasini belgilash hamda uni joriy yilda amalga oshirish masalalari muhokamasi yuzasidan videoselektor yitilishida davlatimiz rahbari tomonidan mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligiga erishish masalalari yuzasidan mulohazali takliflar o‘rtaga tashlandi.

Ayniqsa, ma’naviyat masalalari yana bir marta o‘rtaga tashlandiki, jamiyatimizda ma’naviyat va moddiy hayot uyg‘un ravishda olib borilishi va borilayotganligi o‘z tasdig‘ini topdi. “Kimki ma’naviyat masalasi – bu faqat Ma’naviyat va ma’rifat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi deb o‘ylasa, xato qiladi”, – deb ta’kidladi davlatimiz rahbari. Zero, ma’naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustahkam bo‘lsa, xalqimiz ham, davlatimiz ham shunchalik kuchli bo‘ladi.

Strategiyaning ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish yo‘nalishi bo‘yicha Prezidentimiz bir qator vazifalarning ahamiyatini alohida qayd etdi. Xususan, mavjud 12 mingdan ziyod kutubxonalar imkoniyatlaridan samarali foydalanib, kitobxonlikni ommalashtirish, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadigan axoli sonini 33 foizga yetkazish, mamlakatimizda Olimpiya va Paralimpiya harakatini yanada rivojlantirish kabi vazifalarni

ZJV5401

ta’kidlab o‘tdi. Bu vazifalar yangi O‘zbekistonda ma’rifatli jamiyat qurishdek ezgu maqsadni amalga oshirishning tagzamini hisoblanadi.

Albatta, Prezidentimiz ma’naviyat masalasiga bejiz e’tiborni kuchaytirayotgani va jon koyitayotgani yo‘q. Avvalo, jahonda globallashuv jarayonlari kuchayib, yangi tahdid va xatarlar tobora ko‘payib bormoqda. Bunday murakkab va tahdikali vaziyat sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Xususan, oila, mahalla va ta’lim muassasalarida yoshlar tarbiyasi, jamiyatdagi uyushmagan yoshlar bilan maqsadli, g‘oyaviy-tarbiyaviy hamda mafkuraviy ishlarning yuzaki tarzda olib borilayotgani, jinoyatchilik, radikal ruhdagi harakatlarga adashib qo‘shilib qolish, milliy qadriyatlarga e’tiborsizlik, erta turmush qurish, oilaviy ajrimlar kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini kuchaytirish har doimgidan ham muhim vazifaga aylanib bormoqda. Ayniqsa, milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarga qarshi g‘oyaviy-mafkuraviy xavf va xatarlar tobora ortib bormoqda. Oqibatda, faqat o‘zini o‘ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste’molchilik kayfiyati turli yo‘llar bilan aholi, ayniqsa, yoshlar ongiga ustomonlik bilan singdirilmoqda. Achinarlisi shundaki, bunday g‘oyaviy kurash natijasida ayrim yoshlarda azaliy qadriyatlarga nisbatan bepisandlik va bokimandalik kayfiyati paydo bo‘layotir.

Ikkinchidan, terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiberjinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi oshib bormoqda. Ba’zi hududlarda atayin beqarorlik yuzaga keltirilib, norozilik kayfiyati avj oldirilmoqda. Davlatimiz xavfsizligini ta’minlashning asosi – mamlakatimiz yoshlari. Yoshlar – bizning tayanchimiz, ertangi kundan umidimiz, savob ishlarimizning davomchilari, deb ko‘p gapiramiz. Nafaqat xavfsizligimiz, balki davlatimizning kelajakdagi barqaror taraqqiyoti ham yoshlarimiz dunyoqarashi qanday shakllanishiga bevosita bog‘liqdir. Imoratning poydevori qanchalik

baquvvat bo‘lsa, u shunchalik umrboqiy turadi. Mamlakatimiz poydevori, shubhasiz, axolining 60 foizdan ko‘prog‘ini tashkil etgan yoshlardir.

Shu sababdan ham bugun dunyoda kechayotgan murakkab jarayonlarni tahlil qilishda ularga, avvalo, ma’naviyat ko‘zi bilan qarash, hayotimizga kirib kelayotgan, axloqimizga, mentalitetimizga zid g‘oyalarni aniqlash, axoli turli qatlamlariga ta’sirini o‘rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga mos kelmaydigan jihatlarini ochib berish va tabiiyki, zarur choralar ko‘rish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xo‘sh, mentalitetimizga zid g‘oyalar, axborot xurujlari qayerdan kirib kelyapti? Odamlarni hokimiyatdan norozi bo‘lishga chorlayotgan, qildan qiyiq qidirishga intilayotgan kuchlar qanday ish ko‘ryapti? Axir tuppa-tuzuk barqaror davlatlarni beqarorlashtirib, boshi berk ko‘chaga kiritgan, “inson huquqlari va demokratiya” niqobi ostida xonavayron qilganlar internet va ijtimoiy tarmoqdardan foydalanmadimi? Shuning uchun internet tarmog‘ida axborot xavfsizligini ta’minlash masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ya’ni global axborot makoniga teran ko‘z bilan qarasak, unda mavjud barcha ma’lumotni ham foydali va beziyon deb bo‘lmaydi. Bunday tahlikali vaziyatda xushyor va ogoh bo‘lib, xalqimizning tinchligi, mamlakatimiz manfaatlarini o‘ylab yashash zarur. Shu bois loqaydlik va beparvolik eng katta xavf ekanini, bugun uchrayotgan ijtimoiy muammolarni kamaytirish uchun mutlaqo yangicha ta’sirchan usul va yondashuvlar talab etilayotgani, bunda nuroniylar tajribasi, hayotda halol mehnati, fidoyiligi bilan boshqalarga namuna bo‘la oladigan jonkuyar fuqarolarga tayanishimiz hamda jamoatchilik nazoratini sifat bosqichiga ko‘tarish juda muhim.

Bir haqiqatni anglashimiz kerak, bundan buyog‘iga internetni cheklab qo‘yish yoki axborot olishni taqiqlash bilan muammo hal bo‘lmaydi. Shunday ekan, bu boradagi bizning muhim strategik vazifamiz tashqi va ichki axborotlarni tahlil qila oladigan, barqaror mafkuraviy immunitetga ega yoshlar qatlamini shakllantirishdan iborat bo‘lmog‘i lozim.

Siyosatda “Sen uxlaganingda dushmaning uyg‘oq bo‘ladi” degan gap bor yoki Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “Yoshlarning bo‘sh vaqti – dushmanning ish vaqti”. Shuning uchun ham ma’naviy jihatdan g‘ofil bo‘lishlikka hech kimning haqqi yo‘q. Loqaydlikni bas qilish, mudroq holatdan uyg‘onish kerak. Buning uchun esa, avvalo, ilm sari harakat qilish, oila, bog‘cha, maktab, oliy ta’lim, mahalla, mutasaddi hamda jamoat tashkilotlari tizimli ravishda hamkorlikda ish olib borishi zarur. Ana shunda ta’lim-tarbiyada uzilish, ma’naviyatda bo‘shliq yuzaga kelmaydi. Bir so‘z bilan aytganda, yigit-qizlarimizning ma’naviyatini 30 yoshgacha to‘g‘ri shakllantirib olsak, barqaror taraqqiyotimizni kafolatlagan bo‘lamiz. Chunki ma’rifatli jamiyatning tub negizini ma’naviyatli yoshlar tashkil etishi lozimligini unutmasligimiz kerak.

“Tarbiyada tanaffus bo‘lmaydi”, deydi xalqimiz. Shu bois ma’naviy-ma’rifiy ishlarning yagona tizimini yaratish, xususan, o‘g‘il-qizlarni bolaligidanoq bilimli va fazilatli etib tarbiyalash, buning uchun maktabgacha ta’lim muassasalariga uslubiy yordam ko‘rsatish muhim. Shuningdek, maktablar, o‘rta maxsus va oliy ta’lim dargohlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini kuchaytirish davr taqozosi. Yaqindagina Prezidentimiz tashabbusi bilan barcha oliygoh hamda ularning filiallarida yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor lavozimining joriy etilishi sohadagi ishlar samaradorligini oshirishga, sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Agar ma’nan va ruhan sog‘lom, oqni qoradan, yaxshini yomondan ajrata biladigan, bu murakkab hayotning pastu baland ko‘chalaridan to‘g‘ri yo‘lni adashmay topa olishga qodir bo‘lgan ma’naviy yetuk avlodni tarbiyalab yetishtirish vazifasi uddalansa, fikri tiniq, e’tiqodi sog‘lom bolalarning sohta oqimlarga ergashishi, pana-pastqamlarda pisib yotgan har xil chalasavod, johil odamlar tuzog‘iga ilinishiga barham beriladi.

Muhim vazifalardan yana biri, bu – el-yurt taqdiriga loqayd, ish uslubida mahalliychilikka, urug‘-aymoqchilikka, tanish-bilishchilikka yo‘l qo‘yadigan sayoz rahbarlar bilan

murosasiz bo‘lishdir. Bu illatlar alohida bir mamlakatda bugun yoki kecha paydo bo‘lgan emas. Ular hamma joyda va hamma vaqt ijtimoiy adolatning buzilishiga, halollik va vijdoniylik ildizlarining sustlashishiga, oshkoralik qolib, imi-jimida ish bitirishga sabab bo‘ladi. Shu bois ma’naviy kemtiklar to‘ldirilsa, bunday nomaqbul holatlarga barham berish oson kechadi.

Albatta, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya uzviyligini ta’minlashda oila, ta’lim muassasalari, mahallaning o‘rni beqiyos. Ta’lim-tarbiya uchun faqat mutasaddilar mas’ul, desak, qattiq yanglishamiz. Shu Vatan, shu yurt, shu yoshlar bizniki, ertaga kelajagimiz porloq bo‘lishini istasak, bugun harakatni boshlashimiz kerak. Yurt taqdiriga loqaydlik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas’uliyatsizlik kabi illatlarga barham berish uchun hamkorlikda harakat qilishimiz lozim. Davlat tuzumini ichidan yemiradigan, ijtimoiy barqarorlik kushandasi bo‘lgan korrupsiya balosiga qarshi, byurokratiyaning har qanday ko‘rinishlariga, odamlarni mensimaslik, mahalliychilik va guruhbozlik illatlariga qarshi keskin kurash olib borish samaradorligi ham ma’naviy tarbiyaga boglik. Zero, oldimizda turgan ulug‘ maqsad – uchinchi Renessansga poydevor qo‘yish va uni barpo etish, avvalo, xalqimizning tafakkurini yuksaltirishdan hamda ma’rifatli yoshlar qatlamini shakllantirishdan boshlanadi.

Buning uchun ta’limning barcha bosqichida millati, irqi, dini, jinsi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, yagona maqsadga, ya’ni shu aziz Vatan meniki, uning taraqqiyotiga hissa qo‘shish mening yuksak fuqarolik burchimdir, degan tamoyilga asoslangan ma’naviyatli yoshlarni ulg‘aytirishga e’tibor kuchaytirilmog‘i lozim.

Shu o‘rinda yana bir masalaga to‘htalmasak bo‘lmas. U ham bo‘lsa, keyingi paytlarda ayrim davralarda kishining kundalik hayoti, faoliyatida moddiy va ma’naviy asoslar birbiriga nisbatan qanday o‘rin tutishi, ularning qaysi biri ustuvorlik kasb etishi haqida turli-tuman, ba’zan esa ziddiyatli fikr va qarashlar aytilmoqda. Afsuski, moddiy ehtiyojlarni

insonning ruhiy olamiga qarama-qarshi qo‘yish, ularning birini ustun deb bilgan holda, tiriklikning asosiy maqsadi sifatida qabul qilish qandaydir biryoqlama qarash ifodasi, desak, xato bo‘lmaydi. Qolaversa, bu masalaga bunday keskin yondashuv, xususan, odamning ruhiy dunyosini mensimaslik, uni ikkilamchi o‘ringa qo‘yish oxir-oqibatda jamiyat hayotida inqirozga olib kelishi muqarrar ekanini tarix ko‘p marotaba isbotlagan. Qisqacha aytganda, inson – o‘z timsolida ham moddiy, ham ma’naviy hususiyat va alomatlarni mujassam etgan noyob hilqat. Shuning uchun ham uning ichki dunyosi, unga ato etilgan fazilat va hislatlarni oxirigacha anglash, tushunishning o‘zi o‘ta murakkab bir masala. Mana shunday qarash va fikrlarni umumlashtirib, insonga xos orzu-intilishlarni ro‘yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy olamni bamisoli parvoz kilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslash mumkin. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, qachonki ana shu ikki muhim omil o‘zaro uyg‘unlashsa, tom ma’nodagi qush qanotga aylansa, shundagina inson, davlat va jamiyat hayotida o‘sish-o‘zgarish, yuksalish jarayonlari sodir bo‘ladi.

O‘zbekistonda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab xalqimizning asrlar davomida intilib kelgan orzu-maqsadlari va zamon talablarini, dunyoviy taraqqiyot mezonlarini hisobga olgan hodda, jamiyat hayotida ana shu ikki omilning uyg‘un tarzda rivojlanishiga alohida e’tibor qaratildi. Mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatini, iqtisodiy-ijtimoiy yangilanish jarayonlarini aynan shu asosda tashkil etishga ustuvor ahamiyat berildi. Shu o‘rinda ba’zi bir ilmiy doira vakillarining jamiyatda oldin moddiy hayotni, keyin ma’naviy masalalarni o‘ylash kerak, degan mazmundagi fikrlari mutlaqo xato bo‘lib, yangi jamiyat, yangi hayot qurish jarayonida faqat zarar yetkazishi mumkinligini bugun hayotning o‘zi har qadamda tasdiqdab bermoqda.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bozor munosabatlariga o‘tish davrida jamiyat a’zolarining o‘z salohiyati va iste’dodini ruyobga chiqarishi uchun ularga, birinchi galda, teng

imkoniyatlar va erkinlik muhitini, ham qonuniy, ham amaliy shart-sharoitlarni yaratishga zo‘r berildi. Oddiy qilib aytganda, kuch-g‘ayrat bilan birga, bilim va tajribasi, aql-idroki, kasb malakasi yetarli bo‘lgan, qonunlarni, o‘z haq-xuquqlari va majburiyatlarini yaxshi bilgan odamgina tadbirkorlik yoki fermerlik bilan shug‘ullanishi, o‘z hususiy ishini oqilona va samarali tashkil etishi mumkin.

Ko‘rinib turibdiki, moddiy va ma’naviy hayot tamoyillari bir-birini inkor etmaydi, aksincha, o‘zaro bog‘lanib, bir-birini to‘ldiradi. Yuksak taraqqiyotga erishishni orzu qiladigan har bir inson va jamiyat o‘z hayotini aynan ana shunday uzviy bog‘liqlik asosida qurgan va rivojlantirgan taqdirdagina ijobiy natijalarga erisha oladi. Ana shu haqiqatdan kelib chiqqan holda, iqtisodiy o‘nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining ma’naviy poklanish, ma’naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg‘un ravishda rivojlanib borishi doimo davlatimiz va jamiyatimizning e’tibor markazida. Aynan moddiyat va ma’naviyat uyg‘unligi tufayli tadbirkorlar, mulkdorlar o‘zini va oilasini boqishga, shu bilan birga, orttirgan daromadi hisobidan o‘z yaqinlari hamda muhtoj insonlarga beg‘araz yordam ko‘rsatish, el-yurt uchun xizmat qiladigan maktab, shifoxona, madaniyat va sport maskanlari barpo etish, kerak bo‘lsa, davlat va jamiyat zimmasidagi ko‘pgina vazifalarni amalga oshirishga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.

Bunday insonlar yurtimizda tinchlik, osoyishtalik hamda barqarorlikni saqlash va himoyalash, ertangi istiqbolimizni qurish yo‘lida astoydil jon kuydirib mehnat qiladi. Bularning barchasi ma’naviy qadriyatlarimiz, urf-odat va an’analarimizdan oziqlangan iqtisodiy taraqqiyot yo‘li jamiyatimiz hayotiga qanday ijobiy ta’sir ko‘rsatayotganining yorqin ifodasidir. Eng muhimi, yurtimizda moddiy va ma’naviy jarayonlarning o‘zaro mutanosib tarzda rivojlantirilayotgani siyosiy-ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning mustahkam garovi bo‘lib xizmat qiladi.

O‘ZBEKISTONDA YOSHLARNI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Umidulla SATTAROV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning ustuvor yo‘nalishlari haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada mamlakatimizda yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish borasidagi fikrlar yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: O‘zbekiston, yoshlar, ijtimoiy, e’tibor, g‘amxo‘rlik, “Yoshlar balansi”, “Yoshlar daftari”, “Yoshlar portali”.

Globallashuv sharoitida dunyo miqyosida tobora avj olib borayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy sohalardagi o‘zgarishlar yoshlar siyosati bo‘yicha teran fikrlashni taqozo etmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda jahonda vujudga kelayotgan tahlikali vaziyat yoshlar tarbiyasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatayotganligini anglash qiyin emas.

Hozirda dunyoning aksariyat davlatlarida yoshlar siyosati borasida vujudga kelayotgan bu muammolarni o‘rganish qanchalik muhim ekanligni namoyon etmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda yangi O‘zbekistonni barpo etishdek ulug‘vor maqsadga erishish yo‘lida yurtimiz tayanchi bo‘lgan azmu shijoatli yoshlarga e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularga barcha sohalarda o‘z iqtidori va salohiyatini to‘liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Bu haqda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab yurtimizda yoshlar haqida e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga

davlat siyosatining eng asosiy va ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qarab kelinmoqda” - deya ta’kidlaydi. Zero, bugungi tezkor rivojlanayotgan globallashuv sharoiti yoshlar siyosati masalasida alohida e’tibor qaratish vazifasini kun tartibiga qo‘ymoqda.

Hozirgi globallashuv davri va zamon talabi intellektual salohiyatli, kreativ fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash borasida teran fikrlashni taqozo etmoqda. Shu boisdan yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning ustuvor yo‘nalishlari sifatida e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, bu borada mamlakatimizda umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim muassasalarini tamomlab, mustaqil hayotga qadam qo‘yayotgan yigit-qizlarni munosib ish manbai bilan ta’minlash, ularga zamonaviy kasb-hunarlar, IT-texnologiyalarni o‘rgatish, tadbirkorlikka keng jalb etish, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda keyingi yillarda yoshlarga oid 150 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ularning maqsadi yoshlar muammolarini o‘rganish va ularni hal etish masalasiga qaratilgan. Bu borada 3 ta ustuvor yo‘nalish belgilanib, yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan:

Yoshlarning bandligini ta’minlash yo‘nalishida:

Yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida “Yoshlar balansi”ni shakllantirish, yoshlar to‘g‘risidagi zarur ma’lumotlarni “Yoshlar daftari” va “Yoshlar portali” elektron platformalariga kiritib borish, ular bilan samarali ish tashkil qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada, mahallalardagi yoshlar yetakchilari tomonidan 14-30 yoshdagi 9,1 mln nafar “Yoshlar balansi” shakllantiril-

di. Balans asosida ishsiz va ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar bilan manzilli ishlash yo‘lga qo‘yildi.

Mahallalarda yetakchilar faoliyat boshlagach, “Yoshlar daftari” tizimi yil davomida o‘zgarib turadigan platformaga aylandi. Endi faqat yil boshidagi xatlov bilan cheklanib qolmasdan, yetakchilar tomonidan yil davomida aniqlangan ishsiz va ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar daftarga kiritilib, yordam ko‘rsatilmoqda.

Bu yilning o‘tgan davrida 249 ming nafar yigit-qizlar “Yoshlar daftari”ga kiritilib, ularning 201 ming nafarini (81 foiz) ijtimoiy-iqtisodiy muammolari hal etildi. Ushbu maqsadda daftar jamg‘armalaridan 345 mlrd. so‘m mablag‘ sarflandi.

“Yoshlar balansi” va “Yoshlar daftari” tizimi raqamlashtirilib, 11 ta vazirlik va idoralarning 27 ta axborot tizimlari bilan integratsiya qilindi.

Bu bizga haqiqiy ishsiz va ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni aniqlash va ular bilan manzilli ishlash imkoniyatini yaratib berdi.

Masalan, ishsiz yosh mehnat quroli yoki asbob-uskuna so‘rab elektron tizim orqali murojaat qilganda platforma uni haqiqatda ishsiz va ijtimoiy himoyaga muhtoj ekanligini avtomatik tarzda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi axborot tizimlaridan tekshiradi. Xuddi shunday, kontrakt to‘lovi so‘ragan talaba haqidagi ma’lumotlar Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining axborot tizimi va Iqtisodiyot va moliya vazirligining “Yagona ijtimoiy himoya reestri” tizimi orqali tasdiqlanib, yordam ko‘rsatilmoqda.

Shuningdek, yoshlar murojaatlari ijrosini tizimli nazorat qilish maqsadida “yoshlardaftari.uz” elektron platformasi, “1093” qisqa raqamli koll-markazi va ijtimoiy tarmoqlar orqali onlayn ariza berish imkoniyati yaratildi.

O‘tgan yildan bugunga qadar, 397 ming 857 nafar yoshlar “Yoshlar daftari”ga qabul qilingan bo‘lib, 350 ming 880 nafar yoshlarga amaliy yodamlar ko‘rsatilgan.

4 foizi (13 290 ta) – tadbirkorlik va imtiyozli kredit olish;

20 foizi (72 030 ta) – talabalarning o‘qishi uchun shartnoma to‘lovlari;

14 foizi (46 581 ta) – ijtimoiy himoya (davolanish, moddiy yordam kabi);

17 foizi (59 064 ta) – bandlik, ishga joylashish.

45 foizi (159 915 ta) – boshqa masalalarda.

Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish yo‘nalishida:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Mazkur yig‘ilishda davlat rahbari ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi.

Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Madaniyat va turizm vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Yoshlar ittifoqi bilan hamkorlikda mahallalarda ommaviy sport, kitobxonlik, madaniyat va san’at, shaxmat-shashka, “Zakovat”, kibersport bo‘yicha mahalladan boshlanadigan 5 bosqichli “Besh tashabbus olimpiadasi” yo‘lga qo‘yildi. Olimpiadaning birinchi mavsumida 6,2 mln nafar yoshlar ishtirok etdi.

Shu bilan birga, vazirlik va idoralar tomonidan yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning iqtidorlarini namoyish etishga qaratilgan turli loyiha va tanlovlar o‘tkazilmoqda.

Lekin, vazirlik va tashkilotlar tomonidan tashkil etilayotgan loyiha va tanlovlarga yoshlar bexabarligi sababli kengroq jalb etilmay qolmoqda.

Shu sababli, mutasaddi vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda loyiha va tanlovlarning yillik kalendar-rejasini ishlab

chiqib, “Yoshlar portali” elektron platformasida onlayn joylashtirib borish amaliyotini joriy etish lozim.

Yoshlarning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashini qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida:

Zamonaviy bilim olish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb-hunar egallash istagida bo‘lgan yoshlarning ta’lim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratish, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodning intellektual hamda kasbiy mahoratini rivojlantirishga bo‘lgan intilishlarini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash borasida bir qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Jumladan, Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan hamkorlikda to‘lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan 27 ming 300 nafar talaba-yoshlarga o‘tgan o‘quv yilida 293 mlrd. so‘m imtiyozli ta’lim kreditlari berildi.

Shuningdek, 2021-2022 yillarda “Talabaga madad” loyihasi asosida “Yoshlar daftari”ga kiritilgan 45 ming 200 nafar talaba-yoshlarga 143 mlrd. so‘m kontrakt mablag‘lari to‘lab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalqaro imtihon tizimlari bo‘yicha yuqori ball (daraja) to‘plagan yoshlarga imtihon topshirish xarajatlarini to‘liq qoplab berish tartibini joriy etish to‘g‘risida” 2021-yil

13-apreldagi 209-son qarori asosida joriy yil 1-may holatiga ko‘ra chet tillarida muvaffaqiyatli imtihon topshirgan 15 ming 478 nafar yoshlarga 26,7 mlrd. so‘m imtihon topshirish xarajatlari qoplab berildi.

Bu orqali “El-yurt umidi” jamg‘armasining bo‘lajak stipendiatlari, xorijiy tillarni mukammal biladigan davlat xizmatchilari bazasi shakllantirilmoqda.

Qolaversa, “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida o‘quv kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan 3,8 ming nafar yoshlarga kompyuter xaridlari uchun 25 mlrd. so‘m iste’mol kreditlari ajratildi va ularning foiz to‘lovlari uchun 2 mlrd. so‘m yo‘naltirildi.

Vikipediya internet tarmog‘ida o‘zbek tilidagi kontentlarni ko‘paytirish, O‘zbekiston tarixi, adabiyoti, qadriyatlari, allomalari haqidagi maqolalar kiritish maqsadida “Viki-stipendiya” loyihasi yo‘lga qo‘yildi. Bugunga qadar, o‘zbekcha Vikipediyada yaratilgan maqolalar soni so‘nggi 4 oy davomida 140 mingdan 237 mingga yetdi, dunyo bo‘yicha 62-o‘rindan 44-o‘ringa ko‘tarildi.

Yoshlarni ilm-fanga jalb qilish va ularni ota-bobolarimizga hurmat ruhida tarbiyalash maqsadida ma’rifatparvar jadid allomalari va ularning ilmiy merosi haqida “Jadidlar” rukni ostida 8 ta kitobdan iborat to‘plam nashr qilindi. Kitoblar 184 ming nusxada chop etilib, barcha ta’lim muassasalari, mahallalar, vazirlik, idora va tashkilotlar kutubxonalariga yetkazib berildi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar bilan ishlash, “Yoshlar daftari”ni yuritish, bu orqali yoshlarning muammolarini manzilli va tizimli hal etishda hali oldinda ko‘plab vazifalar turibdi. Zero, yoshlarning jamiyat taraqqiyotidagi faoliyatlariga keng yo‘l ochish va ularni siyosiy va iqtisodiy islohotlar jarayonlarining faol ishtirokchisi, islohotlarga ishonch, demokratik qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, barcha yurtdoshlarimizdan teran fikrlashni taqozo etadi.

JAMIYAT YUKSALISHI YOKI TANAZZULGA YUZ TUTISHIDA FARZAND MA'NAVIY-PSIXOLOGIK TARBIYASIGA E'TIBORNING ZARURATI MASALALARI

Akramova Feruza Akmalovna,
Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti, "Umumiy psixologiya" kafedrasi v.b. professori psixologiya fanlari doktori, dotsent

Annotatsiya. Maqolada jamiyat yuksalishi yoki tanazzulga yuz tutishida farzand ma'naviy-psixologik tarbiyasiga e'tiborning zarurati masalalari tahlil etilgan.

Tayanch so'zi: tarbiya, ma'naviyat, ma'rifat, oila, jamiyat, ta'lim, qadriyat, qarindoshlik, manfaat.

"Hayotimizda ko'p narsani orqaga surish mumkin. Faqat farzand tarbiyasini emas. Farzand tarbiyasiga aloqador masalalarni ertaga qoldirish mumkin emas. Axir ular hozir yashayaptilar!".

Gabrielyan Mitchell

Oila - jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, unda er-xotinlik, ota-onalik, farzandlarning va tug'ishganlarning o'zaro shaxsiy qarindoshlik va mulkiy maqsadlari, manfaatlari va huquqlari bilan bog'liq munosabatlar mujassamlashgandir. Farzand esa - oila tayanchi, insoniy jamiyatning kelajagidir.

Oila - bu bir kunlik, bir yillik emas, balki bir umrlik makondirki, bu makonda har kun, har soatda qanchadan-qancha voqea-hodisalar, yangidan-yangi tashvishu quvonchlar sodir bo'lib turadi. Bu voqealar orasida farzand – oilani mustahkamlovchi, oila a'zolarini jipslashtiruvchi oliy mo''jiza. Ota-onaning bir-birlariga samimiy munosabati, o'zaro hurmati farzandlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir qilgani kabi ularning

nojo‘ya hatti-harakatlari, betakallufligi oiladagi o‘zaro munosabatlarning buzilishiga, farzandlar tarbiyasida bo‘shliqning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Farzand o‘z uyida kuzatgan ma’naviy muhitdan nusxa oladi: “Oiladagi ma’naviy muhit va tarbiya tufayli bola yo mehribon va rahmdil, yoki xudbin va bag’ritosh” bo‘lib o‘sadi. Farzand tarbiyasi haqida fikr bildirilganda ma’rifatparvar shaxs Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” degan chuqur ma’noli fikrlari e’tiborga molikdir. Shunga qaramay, odamni tashvishga soladigan, bir qarashda ahamiyatsizdek tuyiladigan, oqibati esa tanazzulga, johillikka olib boradigan bir omil - oilada farzand tarbiyasiga e’tiborsizlikdir: chunki u o‘z navbatida jamiyat ma’naviy tanazzulining asosi desak mubolag’a bo‘lmaydi.

Ma’lumki, tarbiyaning aniq retsepti yo‘q. Ba’zi ota-onalar muloyimlik, og’ir-bosiqlik bilan, kimdir qattiqqo‘llik, tahdid bilan bolani to‘g’ri yo‘lga solishga harakat qiladi. Nazarimizda ota-onaning vazifasi bolaga faqat nima qilish lozimligini anglatish emas, nima yaxshiyu, nima yomonligini bildirishni ham taqozo qiladi. Farzandi nimaga qiziqadi, qanday muammolari bor, do‘stlari kimlar? Bu haqda har-bir ota-ona har kuni farzandi bilan suhbatlashish uchun vaqt ajratishi, unga sirdosh bo‘lishi va hamisha shaxsiy namuna ko‘rsatishi zarurligini bilishi kerak.

Oilaviy tarbiyada qo‘llaniladigan qo‘pollik, andishasizlik, haqorat, do‘q-po‘pisa va jismoniy jazolash singari usullardan foydalanish ko‘pincha bolalar va o‘smirlar psixologiyasiga ta’sir etib, ularda oila muhitiga nisbatan ijtimoiy psixologik dezadaptatsiyalanish jarayoni amalga oshadi.

Oilada ayrim ota-onalar farzandlari tarbiyasida qo‘llayotgan usullarning qay biri to‘g’ri, qay biri noto‘g’ri ekanligi haqida esa o‘ylab ham ko‘rmaydilar. O‘zlaricha tarbiyada qattiqqo‘llik muhim deb hisoblashadi, farzandlari biron bir yomon ish qilib qo‘ysa, uni qattiq jazolash, taqiqlash va uydan chiqarmay qo‘yish usullari orqali tarbiyalamoqchi bo‘lishadi.

ZJV5401

ZJV5401

Farzandlari ularga yoqadigan ishga qo‘l ursa, maqtovga erk berib mukofotlashadi. Natijada o‘zlari bilmagan holda farzandlari tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishadi. Shuning uchun ota-ona eng avvalo oilada farzand tarbiyasiga oid nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lishi lozimdir.

Kuzatishlarimizga qaraganda, oila muhitida ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlarda me’yor buzilishi ko‘zga tashlanadi. Jumladan, ota-onalar ba’zan farzandlariga o‘ta darajada mehr ko‘rsatish, keragidan ortiq mehr qo‘yish, istagan narsasini muhayyo qilishga intilish kuzatiladi. Bir qarashda, hammasi to‘g’ri, bolasiga g’amxo‘rlik qilish ota-onaning burchi, deyish mumkin. Ming afsuski, bunday munosabat bolalarda manmanlik, birovlarni mensimaslik, tayyorga-ayyorlik, mehnatning qadriga yetmaslik, sabr-toqatsizlik kabi salbiy xislatlar salbiy xislatlarning shakllanishiga olib keladi. Bunday ruhda tarbiyalangan farzand muammoli vaziyatlarda mustaqil fikr yuritish, muayyan qarorlarga kelish borasida ham qiyinchiliklarga uchraydi. Qolaversa, o‘z tenqurlari bilan kelisha olmaslik, do‘stlari doirasining torligi sabab ko‘pincha yakkalanib qolish, natijada ayrim noqis ishlarga qo‘l urishi, turli oqimlarga, jinoyat ko‘chasiga kirib qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. (E’tibor bersangiz, giyohvandlar, turli oqimlar ko‘p xollarda o‘ziga to‘q oilalarning farzandlarini nishonga olishadi).

Bugungi kunda o‘zbek oilasida mavjud bo‘lgan tarbiyadagi nuqsonlardan yana biri ota-onalarning rad etish, taqiqlash, ruxsat etmaslik asosidagi tarbiyalash usulidir. Bu xildagi tarbiya usulida bolalarning xoxish-istagi, o‘y-xayollari, orzu va intilishlari inobatga olinmaydi. Erki cheklanadi. Bunday tarbiya usulida bolalar o‘z fikr-mulohazalarini ochiq bayon etolmaydigan, mustaqil qaror chiqara olmaydigan, muayyan vaziyatlarga o‘z nuqtayi nazarini bildira olmaydigan jur’atsiz bo‘lib ulg’ayadi. Jur’atsiz, tobe, tortinchoq bolada faollik va o‘z-o‘ziga ishonch hissi yetishmaydi. Bunday bolalar butun umr davomida birovlarga tobe bo‘lib yashash, birovlarning gap–so‘zlariga tez uchishga moyillik shakllanib, natijada ular

aldovlar, ko‘zbuyamachiliklar, ta’magirliklar qurboniga aylanishadi, birovlarning ta’siri, qistovi yoki majburlashi oqibatida turli xil qonunbuzarliklarga duchor bo‘lishi mumkin.

Ulug’lardan biri «Nobop farzand ortiqcha barmoqqa o‘xshaydi, kesib tashlasang og’ritadi. Kesmasang, har joyda izza qilib, yuzingni yerga qaratadi», - degan ekan. Aslida hech kim ona qornidan o‘g’ri yoki jinoyatchi bo‘lib tug’ilmaydi. Yoshlarni tarbiyalash bobida qayerda, qachon, qanday xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslikni bilish ota-onalar, kattalarning zimmasidagi eng mas’uliyatli vazifadir.

Ota-ona o‘z farzandining kelajagi uchun javobgar sifatida uning yetuk barkamol inson bo‘lib yetishida asosiy rolni bajaradi. Shuning uchun har bir ota-ona farzandining nigohida o‘z menini yarata olishi kerak. Farzand ota-onasi haqida o‘ylaganda o‘z so‘zida turadigan, qat’iyatli, har qanday vaziyatda maslakdosh bo‘ladigan, xushfe’l inson ko‘z oldiga kelsin. Buyruq, do‘q-po‘pisa, oiladagilarga nisbatan tez–tez bildirilib turilgan norozilik, samimiy muloqotga putur yetkazadi: shu o‘rinda bir mulohaza, “hech qachon farzandlaringiz oldida birovlarning kamchiligini aytib kamsitib yomonlamang, garchand u shunga arzisa-da; negaki, farzandingizning tasavvuri sizning fikringiz asosida shakllanadi”.

Qadimdan, onalar bola tarbiyasida otaning obro‘sidan foydalanishgan (u davrlarda onalar asosan uyda uy yumushlari bilan band bo‘lganlar, oilaning iqtisodiy vazifasi, oilani moddiy ta’minlash erkaklar zimmasida bo‘lgan...). Agar ota farzandini, asosan o‘g’lini biron nojo‘ya ishi uchun jazolasa, onaning aralashishi joiz emas. Psixologlarning ta’kidlashlaricha, bu xatti-harakat pedagogik ahamiyatga ega. Chunki, agar ota farzandini jazolaganda ona uni himoya qilsa, bolada o‘z hulq-atvori, xatolariga tanqidiy qarash shakllanmaydi. O‘zini asossiz jazolangan hisoblaydi va bora-bora ota-onasini pisand qilmay qo‘yadi.

Oilada otaning obro‘si avvalo, ayolga bog’liq. Erini hurmat qilmagan ona bolalarini otasiga hurmat ruhida tarbiyalay olmaydi. Oilada ota mavqeyining kuchsizlanishi – bu katta ijti-

moiy fojeadir, chunki otalik bilan birga oila boshqaruvining barcha ichki va tashqi tizimi, o‘zini idora qila bilish va mukammal intizomga bo‘lgan intilish ham yo‘qoladi.

Haqiqatan ham bolaning kelajakda qanday inson bo‘lib yetishishi ko‘proq ota-onasi va o‘z oilasiga hamda unda tarkib topgan muhitga bog’liq. Ma’rifatparvar shaxs Abdurauf Fitrat oila taqdirida yurt va xalq baxtini nekbinlik bilan ko‘radi, u: “Qaerda oila munosabati kuchli intizom va tartibga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo‘ladi”, - deb yozadi. Chunki, yaxshi tarbiyalangan inson hayotni falokatga, halokatga, jaholatga olib bormaydi, balki aksincha, saodatga, ma’rifatga, baxtga eltadi. Qatrada quyosh aks etganidek, bolada ota-onaning ma’naviy qiyofasi ham aks etadi. Zero Hadisda, “Hech bir ota o‘z farzandiga xulqu odobdan buyukroq meros bera olmaydi”, - deyiladi.

Biz oilada farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik qilsak, ma’naviy tarbiya va ahloqning mazmun mohiyati, uning inson, xalq, millat uchun ayanchli oqibatlari to‘g’risida aholi orasida keng ko‘lamdagi maqsadli va manzilli profilaktika tadbirlarni olib borishimiz maqsadga muvofiqdir. Zero, buyuk vatandoshimiz Imom G’azzoliy aytganidek: “Bolalar ota-onalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqshu tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi. Agar yaxshilikka o‘rgatilsa, shu bilan o‘sadi va dunyoyu oxiratda saodatga erishadi. Uning savobiga ota-onasi ham, har bir muallimu ustozlari ham sherik bo‘ladilar. Agar yomonlikka odatlantirilsa, hayvonlardek o‘z holiga tashlab qo‘yilsa, oxir-oqibat halok bo‘ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo‘lganlarning gardaniga tushadi”.

Tarbiya masalalariga e’tiborsiz qaralgan vaziyatda yuzaga keladigan ko‘ngilsizliklar ham, u keltirib chiqaradigan zararli oqibatlar ham barchamizni ogohlikka da’vat qilmog’i lozim. Ammo bugun qaysidir davrada shu haqda fikr bildirilsa aksariyat ota-onalarda: “Hozir zamon judda qiyin bo‘lyapti, tirikchilik uchun yugurmasang bo‘lmasa!”, “Nima qilay bolalarim

yeyman, ichaman deydi, kiyim kechagini aytmaysizmi, bizga oson emas...", "Ha endi o'zi omon bo'lsa, tarbiyasi bir gap bo'lar..." deb javob berishadi.

Afsuski, mana shunday beparvolik, e'tiborsizlikning ortida butun bir millatning ma'naviy tanazzulga yuz tutishi yoddan chiqadi.

Demak bugungi kunda ota-onalar ko'proq farzandini boqish haqida o'ylashlari bilan birga uni tarbiyalash usullarini puxta o'zlashtirmog'i lozim, chunki farzand ta'lim-tarbiyasiga qaratilgan niyatlar – ulkan niyatlardir, ular kelajakka qo'yilgan sarmoyadir.

Pedagogika fanlari doktori, professor M.Quronov o'zining "Bugungi har bir ota-ona pedagog bo'lishi kerak" deb nomlangan maqolasida bugungi ota-onalarning farzand tarbiyalashdagi ta'sirchan metodlar to'g'risida quyidagilarni ta'kidlaydi: farzand tarbiyasidagi eng ta'sircha metod bu- o'rgatish metodi bo'lib, unga tushuntirish, suhbat, ko'rsatish, aytish, namuna usullari kiradi. Bu metodning qadr-qimmatini esa pedagog olim ikki misolni keltirish orqali isbotlaydi: 1) Payg'ambarimiz (s.a.v.) aytadilar: "Albatta, kishining farzandiga odob o'rgatmog'i bir o'lcham narsani sadaqa qilmog'idan ko'ra yaxshiroqdir"; 2) Bu usulning XXI asrdagi mohiyati pedagogik hikmatda yaqqol ko'rinadi: "Ma'naviyat tarbiyaning eng ta'sirchan quroli ekan, undan oqilona foydalanish, bolalarimizni vatanparvarlik, rostgo'ylik, haqsevarlikka o'rgatish kerak bo'ladi...

Demak, mazkur maqolada farzandning tarbiyasiga e'tibor ko'rsatsak, jamiyatimizni ma'naviy yuksalishiga erishishimiz uchun zamin yaratishimiz yoki aksincha, agar farzandning tarbiyasiga e'tibor bermasak tanazzulga yuz tutishimiz muqarrarligi asoslandi.

Pirovard natijada yurt kelajagi, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlar-yoshlarning qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq ravishda uyg'unlashuvida aks etadi. Shu sababli har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur, shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, yoshlarni mustaqil va keng fikrlash qobiliyati-

ga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi deb qabul qilishimiz kerak.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, oilada farzand tarbiyasi - oila baxti, farzandlarning tarbiyali yetuk inson bo‘lib yetishidagi ota–onaning sa’y harakati hisoblanadi. Oiladagi farzand tarbiyasi uning kelajakda kim bo‘lib yetishishida muhim o‘rin tutadi. Demak, bola oilada jamiyatning qiyofasini ko‘radi, bo‘lajak fuqaroning tabiati, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi hamda shunga ko‘ra kamol topib boradi.

Farzandlarni ilm-fan va ta’lim-tarbiya asosida voyaga yetkazish maqsadga muvofiq bo‘lishi o‘z o‘rnida tarbiya esa ma’naviyat bilan chambarchas bog’liqdir. Zero, yoshlar ta’lim-tarbiyasida esa ma’naviy tarbiya katta ahamiyatga ega, bu esa farzandlarni ma’nan, ruhan sog’lom, o‘z tarixiga, Vataniga, ota-bobolariga, o‘z milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan qaraydigan barkamol bo‘lib o‘sib unishining asosidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: «O‘zbekiston», 2018. – 592 b.

2. Avloniy A. “Turkiy Guliston yohud axloq” -T.: O‘qituvchi, 1992. 160 b.

3. Karimova V.M., Akramova F.A., Lutfullayeva N.X. Psixologiya: Nopedagogik va nopsixologik oliy o‘quv yurtlari uchun DARSLIK. – T.: TDIU «Talaba», 2010. – 308 b.

4. Munavvarov A.Q. Pedagogika. – T.: “O‘qituvchi”, 2006. 162-bet.

5. Saifnazarova F. O‘zbek oilasi: ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlar. Monografiya. – T.: «YURIST-MEDIA MARKAZI» nashriyoti, 2007. – 128b.

6. Oila psixologiyasi. Shoumarov G.B. taxriri ostida. – T.: 2010, -272 b.

7. Hadis. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991. 121-bet.

ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA TARBIYA MASALASI

Amridinova Dilrabo Tursunovna,
Toshkent amaliy fanlar universiteti, Fasafa fanlari doktori (DSc), professor

Annotasiya: Ushbu maqolada jadid Abdulla Avloniyning pedagogik va ijtimoiy-falsafiy qarashlari tahlil qilingan. Abdulla Avloniy milliy uyg‘onish va ta’lim-tarbiya masalalariga, maktablar uchun darsliklar yaratish va jamiyatni iqtisodiy yuksaltirish uchun yoshlarga zamonaviy bilimlar berishning hozirgi kundagi ahamiyati yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: Jadid, Abdulla Avloniy, jadid-ma’rifatparvarlar, ijtimoiy-falsafiy qarashlar, yoshlar, ilm-fan, yangi usuldagi maktablar, tarbiya.

Jahonda ro‘y berayotgan bugungi globallashuv jarayonida inson ongi va tafakkurini egallashga bo‘lgan urinishlar tobora kuchayib bormoqda. Bu birinchi navbatda, iymon-e’tiqodi va axloqiy fazilatlari yuksak, milliy mas’uliyat tuyg‘usi qalbida chuqur ildiz otgan ma’naviy barkamol fuqarolarni tarbiyalash, ikkinchidan, tarixiy xotirani rivojlantirish lozimligini ko‘rsatmoqda. Vujudga kelgan ma’naviy-axloqiy ongning o‘zgarishi oqibatida yosh avlodni mafkuraviy, g‘oyaviy jihatdan himoya qilishda ulug‘ ajdodlarimizning boy ma’naviy merosi, an’analari, ma’rifati, yuksak bilim, kasb-hunar va axloqiy yetuklikka intilish kabi xislatlarini davom ettirishni davrning o‘zi talab qilmoqda.

Necha yuz yillik tarix va madaniyatimiz, milliy o‘zligimizning ajralmas kismiga aylanib ketgan mukaddas dinimizni asrash, ajdodlarimizning bebaho manaviy-marifiy merosini o‘rganish va targ‘ib etish biz uchun doimiy kun tartibida turadigan muhim masala bo‘lib qolmoqda. [1. 229]

Yangi O‘zbekiston milliy taraqqiyotini ta’minlash va munosib tadbirkor, bilimdon avlodni tarbiyalashda jadid mutafakkirlarining ma’naviy merosi yangicha falsafiy tafakkur tarzi shakllanishiga ilmiy –metodologik jihatdan xizmat qildi.

Turkiston jadid namoyandalari tomonidan XX asrning boshlarida tashkil etilgan yangi usuldagi maktablarda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni o‘zida mujassamlashtirgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, zamonaviy texnik vositalar, ko‘rgazmali qurollardan samarali foydalanadigan va zamon talablariga to‘la javob beradigan pedagoglar ta’lim bera boshlashdi.

Davlatimiz rahbarning yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, kitoblarni keng targ‘ib qilish bo‘yicha ishlarini tizimli tashkil etish borasidagi tashabbusi jumladan, A.Avloniy faoliyatida ham keng aks etgan. Farzandlarimizning ma’naviyatini yuksaltirishda Avloniy asrlari o‘ziga xos rag‘bat vazifasini o‘tashi mumkin. Avloniy ma’rifat yo‘lida ko‘p ishlar qilgan. Uning asarlarida, ayniqsa, odob-axloqqa bag‘ishlangan asarlari yetakchi o‘rinni egallagan.

Avloniy ijodi bir qator an’anaviy axloqiy tushunchalarni ma’rifiy insonparvarlik ruhida izohlashga urinish bilan tavsiflanadi. Abdulla Avloniyning axloqiy ma’rifatparvarlik faoliyati shunday sharoitda yuzaga keldiki, etika, axloq masalalari uning asarlarida yetakchi o‘rin egallaydi. O‘z davrining ayrim muhim ijtimoiy muammolarini axloqiy tushunchalar yordamida asoslashga intilish jadid Avloniy falsafiy-ma’rifiy ijodiyotining muhim xususiyatlaridan birini tashkil etadi.

Buning uchun endi ushbu maktablarning nazariy asoslarini yaratish, yangi zamonaviy o‘qitish usullarini ishlab chiqish va ulardan yosh avlod o‘qituvchilarini bahramand qilish kerak edi. Mana shunday buyuk vazifani ado etish zamonasining ulug‘ mutafakkirlari Abdulla Avloniy zimmasiga tushdi. Abdulla Avloniy – shoir, yozuvchi, dramaturg, publisist. Shu bilan birga, pedagogik faoliyat ham uning hayotida muhim sahifani tashkil etadi. U faoliyatining ilk bosqichidan to umrining so‘nggi damlarigacha o‘qituvchilik qildi, pedagogika fanining ham nazariy, ham amaliy masalalari bilan

muttasil shug‘ullandi, darsliklar yaratdi. Aytish mumkinki, u musulmon sharqi mumtoz pedagogikasining katta bilimdoni, shu bilan birga, XX asr zamonaviy o‘zbek pedagogikasining asoschisi, o‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi fanining tamal toshini qo‘ygan mutafakkirdir. U faoliyati davomida ko‘plab zamonaviy pedagoglarni, metodist olimlarni tarbiyalab yetishtirdi.

Tarbiya har doim ham muhim masala bo‘lib kelgan. Ta’limdan maqsad ham aslida tarbiyadir. Abdulla Avloniy «Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir» deb aytgan. Buyuk ma’rifatparvar va ta’lim-tarbiya fidoyisi Abdulla Avloniyning bu so‘zlari o‘z vaqtida naqadar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko‘ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Abdulla Avloniy o‘zi tashkil qilgan maktabda bolalar diqqatini asosiy fanlar jug‘rofiya, tarix, adabiyot, til, hisob, handasa, hikmat (fizika) kabi fanlarga qaratgan.

Abdulla Avloniyning ta’lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o‘zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘langan. Uning boy pedagogik merosi milliy maktab, milliy pedagogikani rivojlantirishda metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham adibning 1909-1917 yillar davomida maxsus maktab bolalari uchun yozilgan o‘ndan ortiq kitobi maydonga keldi. Uning «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Turkiy guliston yoxud axloq», «Maktab gulistoni» singari darsliklari, «Adabiyot yoxud milliy she’rlar» to‘plami bir necha bor qayta bosilib chiqdi va Turkistonning juda ko‘p yangi usul maktablari uchun qo‘llanma bo‘lib xizmat etdi. «Muallim afandilar va adabiyot muhiblari banim bu asari nochizonalarimni iltifotsiz qoldurmadilar. Turkistonning eng mashhur muallimlari dars jadvalina kiritub, maydoni ta’lima qo‘ydilar»,-deb yozgan edi Avloniy mamnuniyat bilan.[2.] Ma’lum sabablarga ko‘ra, bosilmay qolgan «Uchinchi muallim», «Maktab jo‘g‘rofiyasi», «Hisob masalalari» singari darslik kitoblari haqida ham adib-

ZJV5401

ning zamondoshlari juda iliq fikrlarni aytadilar.

Ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning qayd etishicha, odam yoshlik yillaridan ya'ni bolaligidan yaxshi tarbiya olib, yuqori ma'naviy fazilatlarga sohibi bo'lib, yomon xulqlardan saqlanib ulg'aygan bo'lsa, baxtiyorlikda umrguzaronlik qiladi, o'zining oilasi va xalqi, millatining qolaversa Vatanining baxtu iqboliga katta hissa qo'shadi. Xususan, axloqi buzuq, tarbiyasiz o'sgan kishi, Allohdan qolaversa jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarni nazar pisand qilmaydigan va qo'rqmaydigan hatto, shariatga ham amal qilmaydigan, ota-ona, mahalla, el-yurt, muallim-u ustozlar pand-u nasihatlariga quloq solmaydigan, nafsiga erk berib, har qanday yomon buzuq ishlardan qaytmaydigan, ochko'zlik va pastkashliklardan qaytmaydigan, madaniyat va ma'naviyatdan bebexra bo'lib tarbiyalangan bo'lsa, ushbu kimsalar, eng avvalo, otasi bilan onasi, qolaversa, davlatning, jamiyatning ham kushandasidir.

Abdulla Avloniy asarlarining barchasida o'quvchilarni tinimsiz ilm egallashga, bilim olishga chaqiradi. Ilm egallash esa o'zidan-o'zi bo'lmaydi, albatta. U har bir kishidan muayyan layoqat va qobiliyatni talab qiladi. Chunonchi, sinchkovlik, har bir narsaga ibrat nazari bilan qaray olish, sa'y g'ayrat, shijoat kabilar shunday sifatlar jumlasiga kiradi. «Inson ibrat nazari ila boqub, dunyo kitobidan o'z qadr-hissasini bilib olmagi lozimdur, - deb yozadi Avloniy. - Shuning uchun aql sohiblari, fatonat egalari o'zlariga foydasi bo'lsa-bo'lmasa, sinchiklab qarag'on narsalaridan bir hissa olmay qo'ymaslar». [2.]

Avloniy o'zining "Turkiy Guliston..." asarida yozadiki, jamiyatning axloqiy poklanishi inson shuurida hayotning barcha qiymat o'lchovlarini tubdan o'zgartiradi. Natijada ilm-fan, dunyoviy bilim yetakchi ijtimoiy kuchlardan biriga aylanadi. Avloniyning quyidagi so'zlarini aynan shu ma'noda tushunmoq lozim:

Ilm ila olam musaxxar bo'ldi, biz johil hanuz,
Xobi g'aflat boshimizga yetsa ham g'ofil hanuz.

Ochmayin ibrat ko‘shzin biz uyquga moyil hanuz,
Ilmi hikmatlarga bizlar bo‘lmadik qobil hanuz. [2.34]

She’rini virdi zabon qilmakdin boshqa choramiz yo‘q, - degan u maqolaning oxirida.

Ma’rifatparvar Abdulla Avloniy ham yoshlarni aqliy kamoloti haqida qayg‘urish insonparvarona qurilgan jamiyatning muhim vazifalaridan asosiysi bo‘lishi lozimligini uqtiradi. [3.17]

Shu sababli, Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans g‘oyasini farzandlarimiz ongiga aynan bolalik davridan, bog‘chadan va maktabdan boshlab singdirishimiz zarur. Buning uchun tarixni, ajdodlarimiz merosini, dunyo tajribasini, turli xalqlarning yutuq va kamchiliklarini atroflicha o‘rganish kerak. [1.229]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2021 yil, 464 bet

2. Avloniy A. “Turkiy Guliston...”. Tanlangan asarlar. 2- jild. – T.: Ma’naviyat, 2006. 97 b.

3. Begali Qosimov, Shuhrat Rizaev. Abdulla Avloniy (1878-1934) // https://ziyouz.uz/

4. Pardaeva K. Uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayonida Abdulla Avloniy asarlaridan foydalanish samaradorligi// «Abdulla Avloniyning ilmiy pedagogik qarashlari» mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya materiallari (10 iyul’ 2020 yil) – Toshkent.: TDPU, 2020. –B.119

5. Amridinova D.T. Abdulla Avloniy ilmiy merosida ta’lim-tarbiya masalalari.// “Ma’naviyatshunoslikning dolzarb muammolari” mavzusida respublika ilmiy anjumani. GulDU. 2022 y. 7-8 sentyabr

MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING OILA VA FARZAND TARBIYASIGA DOIR QARASHLARIDAN FOYDALANISH

Bilolova Zamira Baxtiyarovna,
Alfraganus universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi v.b. dotsenti, psixologiya fanlari PhD

Annotatsiya: mazkur maqolada ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda sharq mutafakkirlarining oila va farzand tarbiyasiga doir qarashlaridan foydalanish masalalari ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: Avesto, bitik, oila, ma'naviyat, ma'rifat, qadriyat, fazilat.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, muqaddas "Avesto"dan boshlab, buyuk ajdodlarimiz Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy asarlarida insonda yuksak axloqiy fazilatlarni kamol toptirishda milliy qadriyatlar ta'sirini tarbiyaga singdirish masalasi asosiy o'rinni egallagan.

Ma'lumki, oila o'zida ko'p asrlik o'zbek millatiga xos bo'lgan ma'naviy qadriyatlarimizni, an'analarimizni, udumlarimizni, rasm-rusumlarimizni, ma'naviy, madaniy merosimizni saqlab, qadrlab kelgan. Oilada shakllangan o'zbek millatiga xos bo'lgan muomala madaniyati, mehr-oqibat, muruvvat, andisha va or-nomus kabi odob-axloqqa oid his tuyg'ular nafaqat tarbiya vazifasini o'taydi, balki insoniy qadriyatlarni, fazilatlarni namoyon bo'lishida, komil insonni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Oilada ota-onaning tinch-totuvligi va o'zaro mehr-muhabbati ularning dunyoqarashi, ma'naviy saviyasi, qiziqishi, e'tiqodi, jamiyatdagi mavqyei, husn-latofati, qalblarining moyilligiga bog'liqdir. Zero, bunday oilada tarbiyalangan farzandlar go'zallikka ishtiyoqmand, ruhiy tetik, bag'ri butun, hayotga qiziquvchan, tashabbuskor, tinch-totuv oilaviy hayot kechirishga tayyor bo'lib o'sadilar.

Ota-bobolardan xalqimizga meros qolgan tarbiya tamoyil va qoidalari milliy xarakterning eng muhim jihati hisoblanadi. Ushbu mezonlarni tarbiya jarayonida yosh avlod ongida shakllantirish, ular ruhiyatini xalq durdonalari bilan boyitish, milliy qadriyatlardan oqilona foydalanishga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

Komil insonda yoqimlilik, ko'rkamlilik, jozibadorlik, hurmatga sazovorlik, ulug'sifatlik, o'ziga xoslik, yetuklik, jiddiylik, madaniylik, odoblilik kabi xislatlar namoyon bo'ladi. Bunday sifatlarga esa inson faqat tarbiya orqaligina erishgan. Insonning aqlu idroki, xulq-atvori, odobi, milliy qadriyatlar va fazilatlarga qay darajada ega bo'lishi uni o'rab atrof-muhitiga, uning yon atrofidagi shaxslarga, yuz berayotgan narsa va hodisalarni qanday qabul qilishi va teran, erkin baholashiga ham bog'liq. Shunday ekan oilada, ta'lim tizimida, mahallada yoshlarni ma'naviy dunyoqarashini mustahkamlashda milliy qadriyatlarga oid boy ma'naviy merosimizdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

"Avesto"dagi "Ezgu o'y – ezgu fikr – ezgu amal" tizimi bo'yicha fikr yurita olishlikni amalga oshirish; "Qur'oni Karim", "Hadisi Sharif"lardagi ma'naviy, ma'rifiy manbalar bo'yicha yoshlar ongiga ruhiy poklikning mezonlari va tamoyillarini singdirish; Abu Nasr Farobiyning fozil odamlar haqidagi ta'limoti asosidagi ta'lim-tarbiyani amalga oshirish; Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali Ibn Sinolarning pedagogik va falsafiy qarashlari asosidagi ta'lim-tarbiyani tashkil etish; Yusuf Hos Hojib va Ahmad Yugnakiy asarlarida tasvirlangan benuqson insonlar haqidagi ta'limotlari asosidagi ta'lim-tarbiya; Alisher Navoiyning adolatli jamiyat va komil inson ta'limoti asosidagi ta'lim-tarbiyalari orqali amalga oshirish mumkin.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Alisher Navoiyning "Odamiy ersang, demagil odami, Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami" degan satrlariga urg'u berib unda qanchalik chuqur hayotiy hikmat, falsafa bor. Ya'ni, bu dunyoda insonlarning dardu tashvishlarini o'ylab yashash-odamiylikning eng oliy mezoni-

dir, xalqning g‘amidan uzoq bo‘lgan insonni odam qatoriga qo‘shib bo‘lmaydi, deganlari bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Demak, etibor markazida inson shaxsini kamol toptirish masalasi turgan bugungi kunda milliy va ma’naviy qadriyatlarni qadrlab, ularni tarbiya jarayonlari orqali yoshlar ongiga singdirishga barchamiz mas’uliyat bilan yondoshishimiz zarur hamda allomalardan bizga meros qolgan axloqiy, ma’naviy, madaniy qadriyatlarni bilish, o‘rganish va hayotda qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Zardushtiylikning qadimiy kitobi – «Avesto»da oila muqaddas dargoh ekanligi, oila barqarorligida er va xotinning teng mas’ulligi, farzand tarbiyasi to‘g‘risidagi fikrlar bayon etilgan. Oilaning tinch va farovon bo‘lishi nimalarga bog‘liq ekanligi haqida esa: «Porso, inson uy tiklab, olovga, oilasiga, xotin va farzandlariga o‘rin ajratib bersa, uyida noz-ne’matlari muhayyo bo‘lib, xotin va farzandlari farovon yashasa, uyida e’tiqod, sobit olovi alangali, boshqa narsalari ham mo‘l-ko‘l bo‘lsa, o‘sha manzil muhtaramdir», - deb yozilgan.

Mazkur manbaada ko‘rsatilishicha, oilada ota yetakchi bo‘lgani ma’qul. Shuningdek, unda ifodalangan oila va oilaviy munosabatlarga hamma rioya etishi lozim bo‘lgan. Eng ahamiyatli jihati shundaki, unda er-xotinni o‘zaro sodiq, g‘amho‘r, mehribon bo‘lishlari lozimligi va ayolning xaq-xuquqi himoya qilish o‘sha davrda ham qonun darajasiga ko‘tarilganligi ma’lumdir.

O‘g‘il bolalarga kurash tushish, otga suvlik solish, uni egarlash, mol boqish, tuya-otlarni parvarishlash, ularni boshqara olish va yirtqich hayvonlardan himoya qilish uchun 50 dan ortiq harbiy qurol ishlata olish malakasini egallash majburiy bo‘lgan. Yigitlarga chavandozlik va 32 xil harbiy hunar o‘rgatilgan.

Qiz bolalarni tarbiyasiga alohida e’tibor berilgan. Qiz bolalarning ip yigirish, liboslar tikish, o‘g‘il bolalar bilan kurash tushish, chavandozlik, qilichbozlik, suvda suzish, kamondan o‘q uzish kabi jismoniy-harbiy malakani egallashi majburiy bo‘lgan. So‘ngra oqsoqol boshchiligida jamoa oldida maxsus

imtihondan o‘tkazilgan. Qizlarga «kadbonu» ya’ni, «uy bekasi», yigitlar esa, «kad xudo» – «oila boshlig‘i» bo‘lish huquqi berilgan.

Abu Nasr Forobiyning «Baxt-saodatga erishuv haqida» asarida shunday yozadi: «Inson o‘z mablag‘ini to‘g‘ri sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg‘anchiqlik qilish xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka yetaklaydi»

Bundan ko‘rinadiki, o‘tmish mutafakkiri maktab va oila sharoitlarida bolalarning iqtisodiy tafakkurini kengaytirish, ularni tejamkorlikka, ishbilarmonlikka, iqtisodiy hisob-kitobga o‘rgatishni hayotiy tajriba asosida amalga oshirish lozimligiga e’tibor qaratgan. Uning fikricha, oila a’zolarining birbirlariga samimiy munosabatlari, mehru-oqibatlari oiladagi odamlarning baxtini tashkil qiladi, har bir ota-onaning o‘z farzandlari uchun birlamchi ustoz, yo‘l ko‘rsatuvchi ekanligi va aynan ular bolada ta’lim-tarbiyaga kerakli tayyorgarlik holatini shakllantirish ta’siriga egadirlar.

Abu Ali Ibn Sino bolani tarbiyalash - ota-onaning asosiy maqsadi va vazifasi ekanligini uqtiradi. Bu borada o‘z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo‘lgan ota-onalargina tarbiyachi bo‘lishi mumkin ekanligini asoslab beradi. Farzand axloqiy tarbiyasida eng muhim qoida sifatida bolaning nafsoniyatiga, g‘ururiga tegmagan holda, yakkama-yakka suhbat tarzida unga nasixat qilish samarali ekanligini maslahat beradi.

Shu o‘rinda alloma Yusuf Xos Hojibning – «Kishi uchun juda kerakli bo‘lgan ikki a’zo bor: biri til, boshqasi – yurak. Til so‘z uchun, yurak, ko‘ngil esa shu so‘zdan lazzatlanishi uchun berilgan”, - degan fikrni keltirish ayni muddao bo‘lib, ota-onalarni va yoshlarni go‘zal, chiroyli so‘zlaydigan, ma’naviy barkamol, odob va ilm egasi bo‘lishlarida allomalar o‘giti, milliy fazilatlarga yo‘g‘rilgan axloqiy qadriyatlardan ko‘proq foydalanish va hayotda qo‘llash vaqti keldi, deb o‘ylaymiz.

Yusuf Xos Xojib fikricha har bir kishi jamiyatga munosib bo‘lib kamol topmog‘i kerak. Buning uchun u tug‘ilgan kundan bolab zarur tarbiyani olmog‘i lozim. U qobil farzandning

tarbiyasi haqida fikr yuritar ekan ular tarbiyasini nihoyatda erta boshlanmog‘i shart ekanligini va shundagina ularning noo‘rin xatti-harakatlariga berilishining oldi olish mumkinligini ta’kidlaydi.

Mirzo Ulug‘bekning oila muhiti sog‘lom avlodni yetishtirish haqidagi fikrlari shundan iboratki, alloma uqtirishicha, bolaning bilim olishiga bo‘lgan qiziqish, xavasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o‘rinni egallaydi. Oilada ota-onalarni o‘qimishli ota-onalar etib shakllanishiga e’tibor berish, ularning o‘z farzandlariga bo‘ladigan ibrat namunasining ta’siri haqiqiy inson bo‘lib kamol topishiga mustahkam zamin yaratishiga alohida e’tibor berishlari lozim ekanligini uqtiradi.

Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e’tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning yetuk shaxs bo‘lib o‘sishiga ishonadi. Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarurligi, tarbiya orqaligina insonga xos yaxshi odat va fazilatlarni hosil qilish mumkin ekanligini tavsiya etadi. Mutafakkir odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa kishilarning bir-birlariga bo‘lgan ruxiy ma’naviy ta’sirlari natijasida tarkib topadi deb hisoblaydi, farzandning voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligi uqtiradi.

Voiz Al-Koshifiy yozuvlarida esa insonni ta’lim–tarbiya orqali nafaqat qayta tarbiyalash, balki aqliy qobiliyatini o‘stirish mumkin ekanligini ta’kidlaydi. Uning pedagogik qarashlarida bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stirish masalasiga alohida e’tibor berilgan bo‘lib, ota–onalar va muallimlardan bu masalaga alohida ahamiyat berishlarini talab etadi. Bu masalada oilaviy hamda tashqi muhit muhim o‘rin tutishi, bolaning to‘g‘ri so‘zli, va’daga vafodor, yaxshi xulqli etib tarbiyalanishiga ta’sir ko‘rsatishini asoslab bergan.

Jaloliddin Davoniy ota-onaning bolani tarbiyalashdagi ahamiyatiga keng to‘xtalgan. Uning fikricha, oiladpagi farzand tarbiyasida ota ham, ona ham teng huquqli, teng ishtirok etishi bolaning yaxshi xulq-odob qoidalarini mas’ul deb ta’kidlaydi.

Sharq mumtoz adabiyotining buyuk namoyondalaridan biri Muslixiddin Sa'di Sheroziyning fikricha, oila, bolaning baxti, kelajagi uchun zamin yaratuvchidir. Oilada asosiy tayanch otadir va u ma'suliyatli tarbiyachidir. Ota o'z bolalarini tarbiyalashi, o'qitishi, hunarga o'rgatishi, jismonan chiniqtirishi kerak ekanligini ta'kidlanishi taxsinga loyiq. Uning pedagogik-psixologik qarashlarida bola qobiliyatli va kamqobiliyatli bo'lishi mumkin hamda qobiliyat o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Uning fikricha, bolaning rivojlanishi uchun uni tarbiyalash kerak, tarbiya bo'lmasa, boladagi qobiliyat so'nadi, tarbiyani 3 asosiy – aqliy, nafosat va jismoniy mehnat tarbiyasiga bo'ladi. Adib bolani tarbiyalash vazifasini ularning ota-onalari zimmasiga yuklash zarur ekanligini, ya'ni oilaviy tarbiyaga katta e'tibor beradi.

Ota-onalarga axloqiy tarbiyani bolaning yoshligidan boshlashni va xarakterini hisobga olgan holda olib borishni tavsiya etadi. Uning fikricha, bola shaxsining xarakteri shakllangach, axloqiy tarbiya bolaga ta'sir etmay qoladi.

Yuqorida keltirilgan tahlildan ko'rinadiki, SHARQ mutafakkirlarining oila va farzand tarbiyasiga doir ma'naviy qarashlari asrlar o'tsa-da, o'z ahamiyatini yo'qotmagan hamda ayniqsa, yoshlarni ijtimoiy munosabatlarga to'g'ri tayyorlash hamda tarbiyalash ishida eng zarur ma'naviy meros bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Raximov S. Abu Ali Ibn Sino ta'lim-tarbiya haqida. – T.: 1967. 61-bet.

2. Saifnazarova F. O'zbek oilasi: ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlar. Monografiya. – T.: «YURIST-MEDIA MARKAZI» nashriyoti, 2007. – 128b.

3. Oila psixologiyasi. Shoumarov G.B. taxriri ostida. – T.: 2000, -272 b.

4. Hadis. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991. 121-bet.

5. Qayumov A. Abu Rayhon Beruniy. – T.: 1987. 154-bet.

MA’NAVIY VA JISMONIY SOG‘LOMLIK MUSTAHKAM OILA GAROVI

Jumayev To‘lqin Xolmurodovich,
Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Toshkent Kimyo xalqaro universiteti “Ijtimoiy gumanitar fanlar” kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Mazkur maqolada vatanimiz ravnaqida hamda mustaqilligimiz abadiyligini saqlashda katta rol o‘ynaydigan yoshlarni ma’naviy va jismoniy jihatdan tarbiyalashning muhim jihatlari mavjud ilmiy ma’lumotlar tahlili asosida yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: Ma’naviy tarbiya, jismoniy tarbiya, millat, oila, mahalla, ommaviy madaniyat, jamiyat, milliy qadriyat, madaniyat, sport musobaqasi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2020 yil 18 fevraldagi PF-5938-son Farmoni natijasida mamlakatimizdagi oilalarning muammolarini hal qilish, farzandlar tarbiyasi, oilarning ijtimoiy ahvolinin yahshilash bilan shug‘ullanadigan «Oila» ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, «Mahalla va oila» ilmiy-tadqiqot institutining tashkil etilishi mavjud muammolarni kelib chiqish sabablari va ularni oqibatlarini o‘rganib kelishi har tomonlama o‘zining muhim ahamiyatiga ega hisoblanadi [1].

O‘sib kelayotgan avlodni Vatanga, yurtga, jamiyatga, oilaga sodiq farzand etib tarbiyalash, yurt ravnaqi, himoyasi yo‘lida ongli qaror qabul qilishga qodirlik ruhida balog‘atga yetkazish bugunning eng dolzarb muammosi va talabidir. Yoshlar davlat va millat istiqbolini belgilaydi. Kelajakni esa faqat bilimli, ham ma’nan ham jismonan sog‘lom farzandlar bilan-

gina qurish mumkin. Muhtaram Prezidentimiz "Jismoniy, ma'naviy, madaniy jihatdan sog'lom avlodsiz biz o'ylagan va rejalashtiraètgan katta marralarga erishib bo'lmaydi"deydilar. Yoshlarni sog'lom va bilimli qilib tarbiyalash barchaning oldida turgan eng ezgu maqsadga aylandi.

Sog'lom va ma'naviy boy, intellektual rivojlangan, axloqan yetuk, jismonan baquvvat avlodni, har tomonlama kamol topgan shaxsni tarbiyalash va voyaga yetkazish maqsadida 2010-yil "Barkamol avlod yili", 2016-yil "Sog'lom ona va bola yili" deb e'lon qilinishi, bugungi kunda sportga bo'layotgan talab va yaratilayotgan sharoitlar ham fikrimizning yaqqol isbotidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son qarori [2] ijrosini ta'minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qaror mazkur sohada olib borilayotgan ishlar hukumatimiz oldida asosiy masalalardan biri ekanligini o'zida ifodalaydi.

Jamiyatimizning asosi bo'lmish oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarni, ayniqsa yosh oilalarni huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish hamda qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish borasida ham olib borilayotgan barcha ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini oshirish, mustahkam, sog'lom oilani shakllantirishda mahallaning mavqeyini mustahkamlash va rolini kuchaytirishga doir aniq maqsadga yo'naltirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish maqsadida, shuningdek 2012-yil O'zbekiston Respublikasida «Mustahkam oila yili» deb e'lon qilinganligi davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ijobiy ishlarimizning davomiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Oila jamiyat asosini tashkil etadigan yoshlarni tarbiyalab beradigan ilk ijtimoiy institute ekan, oilaning ma'sulayati yanada ortib boraveradi. Yoshlarni ma'nan va jismonan etuk bo'lib tarbiya topishida nafaqat oilaning o'rnibalki boshqa ko'plab davlat va nodavlat tashkilotlarning ham bajarishi zarur bo'lgan vazifalar mavjud. Mazkur vazifalarga quyidagilarni kiritish hozirgi kunning dolzarb mavzusi hisoblanadi:

- «Oilada erkaklarning burchi va vazifalari», «Oilada ayollarning burchi va vazifalari» mavzularida milliy mentalitetimizga asoslanib, ilmiy-ommabop kitoblar yozish, ko'p nusxalarda chop etish va xalqqa yetkazish;

- Vatan tuyg'usini his etish, uni sajdagoh sifatida anglash axloqiy madaniyat me'yori sifatida namoyon etilishini tarannum ettirishi;

- Vatanni o'zlikni anglaydigan ijtimoiy makon sifatida his etishda oila mavqeyini oshirish, vatanparvarlik esa, ostonadan, oiladan boshlanishi haqida «Vatanparvar» gazetasi va shahar, viloyat, respublika teleradiokompaniyalarida alohida rukn tashkil etish [3].

Jamiyatning turli davrlarida oila masalasi olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Jumladan, sharq mutafakkirlari va davlat arboblari - Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Alisher Navoiy, Axmad Donish, Abay Sunanbayev, Rizouddin ibn Faxruddin, Abdurauf Fitrat va boshqa adiblarning asarlaridagi oila-nikox munosabatlari, oiladagi shaxslararo munosabatlar, ota-onaning vazifalari, farzandlar burchi borasida ibratli maslahat va o'gitlar bayon etilgan [4].

Milliy qadriyatlarimiz, an'analarimiz ichida bola odobi, xulqi, axloqi, tarbiyasiga doir urf-odatlar ayniqsa muhim o'ringa ega. Shu narsa ma'lumki, xalq va millat sof holda ko'rinishi bolalarda namoyon bo'ladi. Qachonki bolalarda milliylik bo'lmas ekan, bu millat o'limining boshlanishini bildiradi. Tarbiyada milliylik qancha ko'p saqlanib qolgan bo'lsa shu millat shuncha kuchli madaniyatga ega, ma'naviy boy hisoblanadi [5].

Ta’lim va tarbiyani bir biridan ajratib bo‘lmaydi,chunki ta’lim berilgan joyda tarbiya berilmas ekan, yoshlarimizda odob axloq, insoniy hislatlar o‘zni tutish, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ona tabiatga muhabbat ruhi shakllanmaydi.Bu esa vatanimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarimizni o‘z hayot yo‘llarini to‘g‘ri tanlashda, o‘qish va bo‘lg‘usi rejalari ustida ijod qilishida ham ma’nan ham aqlan kamol topishi orqali o‘z kelajak poydevorlarini mustahkamlab boradilar.

Ma’naviy tarbiya bilan bir vaqtda oilada va ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiyani bir varakayiga olib borilishi o‘zining ijobiy natijaga egaligi bilan ajralib turadi. Jismoniy tarbiya va sport – xalq madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, yoshlarnin jismoniy va axloqiy jihatdan mukammallashishini ta’minlashning asosidir. Yosh avlodni milliy g‘oya asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, shubhasiz, jismoniy va ruhiy salomatlikni mustahkamlash va himoya qilishini, sog‘lom turmush tarzi asoslarini shakllantirishni ham ko‘zda tutadi. Yoshlarda faol hayotiy pozitsiya, axloqiylik, ezgulik va insoniylik ideallarini tarbiyalash jarayonida jismoniy madaniyat va sport formalari, metod va vositalaridan foydalanish asosiy ustuvor omillardan biri bo‘lishi kerak [6].

Chungi hozirgi tezkor axborot xuruji va ommaviy madaniyatning yoshlarimiz ongiga ta’siri, tezkor rivojlanayotgan axborot texnologiyalari zamonida yoshlarimiz tarbiyasida salbiy holatlarni keltirib chiqarishini unutmaslik darkor.Ushbu salbiy ta’sirlarni kamaytirish maqsadida ta’lim tizimidagi islohatlar yanada takomillashib, mukammallashib bormoqda. Buni biz uzluksiz ta’lim tizimidagi ijobiy ishlardan yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek ta’lim tarbiya jarayonida ota -onalarimiz ham bu boradagi ishlarda farzandlari nazorati va tarbiyasi uchun o‘z ma’sulliklarini yanada ortirishlari kerak. Ota-onalar farzandlarini katta hayot ostonasiga tarbiyalashda vatanga, ona tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalashida o‘zlarining katta hissalarini qo‘shishi muhimligini unutmasliklari kerak.

Qachonki yoshlarimiz ma’nan va jismonan sog‘lom, vatanaga ona tabiatga shuningdek o‘zaro hurmat hamda mehr-muhabbat tuyg‘usi bilan voyaga etsa shuningdek, ilmga, kitobga chanqoq bo‘lib ulg‘ayishsa ular hech qachon yod g‘oyalar hamda ommaviy madaniyat ta’siriga tushib qolmaydilar. Yurtimiz kelajagi o‘shandagina ishonchli, istiqbolli farzandlarimiz qo‘lida ekanligiga ishonch hosil qilaolamiz. Ushbu ma’suliyatli va o‘ta sharafli yo‘lda nafaqat ota onalarmiz balki jamiyatimizning har bir vakili ma’sul va ko‘makdosh bo‘lishlari lozim.

O‘quvchilarda jismoniy tarbiya jarayoni orqali ularda axloqiy xulq-odoblar, irodani rivojlantiruvchi sifatlar: matonatlilik, qattiyatlilik, jasurlik, og‘ir-vazminlik, o‘zini tuta bilish ko‘nikmalari shakllantirib boradi. Yoshlar o‘rtasida tashkil etiladigan turli sport musobaqalarida raqibga, jamoadagi o‘rtog‘iga, hakamlarga maxsus munosabatlar shakllanib boradi. Sport etikasi sport faoliyati jarayonida belgilangan qoida va xulq-atvor qoidalariga amal qilish bilan bog‘langan bo‘lib, unda ushbu qoidalar mustahkamlanadi va kundalik hayot voqeyligiga tadbiq etilib boriladi. Og‘ir-vazminlik, kamtarlik, insonlarga, raqiblariga ham hurmatda bo‘lish, adolatsizlikka hamda sport kurashidagi g‘irrom vaziyatlarga, holatlarga chiday olmaslik, mehnatsevarlik, intizomlilik – bunday sifatlarni tarbiyalash barcha jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida hamisha alohida ahmiyatga ega bo‘lishi kerak. Inson turli-xil jismoniy mashqlarni egallashi va faol ishlata olishi orqali o‘zining jismoniy holati va tayyorgarligini yaxshilaydi, jismoniy jihatdan mukammallashib boradi. Jismoniy mukammallik shaxsning shunday jismoniy imkoniyatlari darajasini aks ettiradiki, qaysiki unga ular tabiiy kuchlarini to‘liq amalga oshirish imkoniyatini beradi, jamiyatga zarur bo‘lgan va unga kerakli bo‘lgan ijtimoiy-mehnat faoliyati turlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish, uning moslashuv imkoniyatlarini kuchaytirish va shu asosda ijtimoiy unumli o‘sishni ta’minlab beradi. [7].

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, agar millat o‘z farzandlarini ma’nan va jismonan tarbiyalamas ekan, ulrning

qalbiga ona vatanga muhabbat tuyg‘usini singdirmas ekan, ularda kitob o‘qishga rag‘batni shakllantirmas ekan, bunda millat ruhan hamda ma’nan jarlikka qarab qulab boradi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Arapbayeva D.K, Arapbeva V.K. “Sharq mutafakkirlarining oila va tarbiya haqidagi qarashlari”. Zamonaviy ta’lim/ sovremennoye obrozovaniye./ jurnali. 2015 y. 7-son.

2. Volkov G.N., Baubekova G.D. Etnopedagogika. T., Fan, 2000. B-38.

3. Zaripova F.A, Ganjiyev F.U. “O‘quvchi yoshlar tarbiyasida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati. Navoiy davlat pedagogika nstituti. «Science and Education» Scientific Journal November 2020 / Volume 1 Issue. B-45.

4. Najmidinova Karimaxon Usmonovna Toshkent “Adolat” 2016 “Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o‘rni” Toshkent “Adolat” 2016 B-205-207.

5.https://lex.uz/docs/4850317/O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab quvvatlash vazirligi huzuridagi «MAHALLA VA OILA» ilmiy – tadqiqot institutini tashkil etish to‘g‘risida.

6.https://lex.uz/docs/4676839/Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida

YOSHLAR MA'NAVIY MEROSINI SHAKLLANTIRISHDA TARIXIY TAFAKKURNING AHAMIYATI

Qambarov Abdujabbor Boxroliyevich,
Namangan davlat pedagogika instituti
katta o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar ma'naviy merosini shakllantirishda tarixiy tafakkurning ahamiyatiga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Tayanch so'zlar: tarixiy tafakkur, ma'naviy meros, jamiyat, manfaat, qadriyatlar, tarixiy tafakkur, mustaqillik, ma'naviyat.

Tarixdan boshlab, ma'naviy merosimizni o'rganish faqat ilmiy jihatdan katta ahamiyat kasb etibgina qolmay, ayni paytda, ijtimoiy-ma'naviy muammolarni hal etishda va insonning barkamol inson bo'lib shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar olimlari faoliyatini har tamonlama qo'llab quvvatlash lozimligini alohida ta'kidlab ko'rsatgan edi" [1.15]. Bu borada tabiiyki, ma'naviy – madaniy meros, ko'hna tarixiy qo'lyozmalar eng muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarda bunday jarayon "Ma'naviy-madaniy hayot ta'lim tarbiya, madaniy meros, tarixiy tajriba, diniy, axloqiy, ma'rifiy qarashlar, turmush tarzi, rang-barang munosabatlar, ilm-fan, xalq bayramlari, sayllari, tomoshalari va udumlari, san'at, adabiyot kabi sohalarni o'z ichiga qamrab oladi. Xalqning, millatning o'ziga xos etnik xususiyatlari, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi ham aslida ana shu ma'naviy – madaniy qadriyatlar bilan o'lchanadi."[2. 119.]

Bizning qadimiy va go‘zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini xalqaro jamoatchilik tamonidan e’tirof etilmoqda. Ajdodlarimiz tafakkuri bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlayotgan ming-minglab qo‘lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, siyosat, axloq, falsafa, me’morchilik, adabiyot, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning ma’naviy-moddiy boyliklarmizdir. Demak, shu bois, bunchalik katta merosga ega bo‘lgan xalq kamdan-kam topiladi.

Tarixiy tafakkur yoshlarning o‘zligini anglash, ma’naviy qadriyatlarmizni e’zozlash, milliy tiklanishga xizmat qiladi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Yoshlarni zamonaviy bilim va tajriba, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz”.[3. 11]

Butunlay yangi tarixiy sharoitlarda zamonaviy sivilizatsiyaning butunlay yangicha tafakkur, g‘oyatda insonparvar g‘oyalari asosida milliy uyg‘onishning, o‘zligini anglashning yangi davrida yashamoqdamiz. O‘tmishdan qolgan qadimiy yodgorliklarga bo‘lgan qiziqish xalqimiz tamonidan shunchaki bir xavas emas, balki ota makonga, ona-vatanga bo‘lgan mehr bilan o‘lchanadi va izohlanadi.

Xususan, “Boysun madaniy muhiti”, “Shashmaqom musiqasi”, “Navro‘z”, “Katta ashula”, “Askiya”, “Palov madaniyati va an’analari” nomzodlari insoniyat nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro‘yxatiga, Usmon Qur’oni, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar to‘plami, Xiva xonligi devonxonasi hujjatlari dunyo miqyosida e’tirof etilganiga yorqin misol bo‘la oladi.

Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimi yanada takomillashtirildi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistonga oid xorijdagi madaniy

ZJV5401

boyliklarni tadqiq etish markazi va O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etildi”.[4]

Jumladan, yaqin yillarda tayyorlangan o‘quv qo‘llanma va darsliklar, garchi milliy g‘oya ruhida tayyorlanayotgan bo‘lsada, ammo tez rivojlanib borayotgan yosh avlod ongini zabt eta olmayapti. Sababi, bugungi kun aksariyat yoshlarining birinchi navbatdagi orzusi yuqori ish haqi kafolatlangan ish joyi, iqtisodiy farovonlik, shohona hayotga yetishishga bo‘lgan urinishlari bunga to‘sqinlik qilmoqda. To‘g‘ri, bunday farovon hayotni hamma orzu qilishini tan olish kerak, lekin, ma’naviy qashshoqlik evaziga kelgan farovonlik insonda Chingiz Aytmatov tili bilan aytganda “manqurt”likni keltirib chiqaradi.

Ana shunday buyuk merosni o‘rganish orqali yoshlar ma’naviy qiyofasini shakllantirish mumkin. Shu ma’noda, bugun tarixiy-ma’naviy merosimiz to‘g‘risida yoshlarimizda bilim va tasavvurlarni hosil qilar ekanmiz, shu bilan birga ularning qalbida tariximiz va undan o‘tib kelayotgan madaniy merosimizga qanchalik haqqoniy, oqilona yondashsak, har birimizda unga nisbatan va shu merosni yaratgan insonlarga, shu meros bunyod bo‘lgan yurtga nisbatan faxr va g‘urur tuyg‘usi jo‘sh uradi. Yoshlarni ma’naviy turli hil ma’naviy tahdidlardan himoya qilish uchun ularning qalbi va ongi ila sog‘lom xayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlaro hurmat ehtirom tuyg‘usini bolalik paytidan boshlab shakllantirish, milliy qadriyatlarimiz madaniy merosimizga ilmiy asosda to‘g‘ri yondashib insonparvarlik, vatanparvarlik, taraqqiyparvarlik mezonlariga ko‘ra, milliylik, tarixiylik tamoyillari asosida asosida jamiyatimiz oldidagi burch, vazifalarni davr va zamonaviy taraqqiyot talablariga mos ravishda amalga oshirishni kuchaytirish zarur.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi./ “Xalq so‘zi”,2018 yil.29 dekabr,№271-272.(7229-7230).

2.Musayev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari.-T.: “O‘zbekiston”, 2007. -B.119.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqidan iqtiboslar. – Toshkent, “Tasvir” nashriyot uyi, 2021.-B.11.

4.https://xs.uz/uzkr/post/moddij-madanij-meros-obektlarini-muhofaza-qilish-sohasidagi-faoliyatni-tubdan-takomillashtirish-chora-tadbirlari-togrisida.

ZJV5401

ISLOM MANBALARI – MA'NAVIY TARBIYA OMILI

Mamatov Maxmut,
Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy – ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi, Shahrisabz davlat pedagogika instituti Sirtq bo'lim boshlig'i, falsafa fanlar nomzodi dotsent v.b.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Islom manbalari orqali ma'naviy tarbiyani yoshlar ongiga singdirish masalariga oid fikr va mulohazalar yuritilgan. Hamda milliy va diniy qadriyatlar orqali ma'naviy tarbiyani rivojlantirish jarayonlari tahlil etilgan.

Tayanch so'zlar: diniy, milliy, qadriyat,yoshlar, ma'naviyat, tarbiya, inson, do'stlik, kasbiy odob, muomala madaniyati, bag'rikenglik, taraqqiyot.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan buyon iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ta'lim va tarbiyaviy sohalarda xalq hayotini farovon qilish yo'lida o'lkan o'zgarishlar sodir bo'ldi. "Yangi O'zbekiston – xalqparvar davlat" shiori ostida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Shu asosda islom manbalari hamda milliy qadriyatlar va ma'naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati juda katta. Ayniqsa, madaniy merosimizni tiklash davlat siyosatidan munosib o'rin olib, ota-bobolarimiz yaratgan boyliklardan xalqimizni, jumladan yosh avlodni bahramand qilish, ma'naviyatini yuksaltirish yo'lida davlatimiz ko'rsatayotgan g'amxo'rlik doimo sezilib turibdi.

Islom manbalari bo'yicha diniy va ilmiy asarlar yaratgan alloma-olimlar, diniy manbalardagi axloq-odob, umuman ma'naviyatga xos ulamolarning fikrlarini tahlil qilishimizning sababi shundaki, yoshlar o'z ma'naviyatlari, ilmiy-falsafiy dunyoqarashlari uchun kerakli xulosalarni bu manbalardan o'zlari mustaqil fikr chiqara olsinlar. Prezidentimiz

Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek, “Islohatlarimiz xalqimizning kundalik hayotida o‘z ifodasini topishi, kutgan natijalarimizga erishish ko‘p jihatdan davlat boshqaruvidagi samaradorlikka bevosita bog‘liq”. [1]

«Mustaqil davlatimizning siyosatini belgilab olar ekanmiz, - degan edi Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov, - islom dinimizni albatta nazarda tutishimiz kerak. Negaki, din turmush tarzimizga,ma’naviy qadriyatlarimizga, kishilar ongiga o‘zining o‘chmas muhrini bosgan.... Dinga nisbatan ijobiy munosabat tashqi siyosatimizda, ayniqsa musulmon davlatlari bilan o‘zaro aloqalarimizni kengaytirishda katta ahamiyatga ega...».[2]

Islomda uning jahon dini maqomiga mos keladigan g‘oyat katta hajmli, teran mazmunli, keng qamrovli mo‘tabar manbalar mavjud. Bular, eng avvalo, xijriy I asrda, milodiy VII asrda nashr etilgan Qur’oni Karimdir. Bu muqaddas kitob jahonning eng yirik tillaridan barchasiga tarjima qilingan va millionlab nushalarda chop etilgan, hanuzgacha nashr etilmoqda. Bu mo‘tabar manbani atoqli islomshunos Alouddin Mansur o‘zbek tiliga izohli tarjima qilib, sharhlab, birinchi marta 1992 yil nashr etgan.

Islomning yana bir muqaddas manbai hadislardir. Yuzlab arab Markaziy Osiyolik muhaddislar to‘plagan, dunyodagi eng yirik xalqlar tillariga tarjima qilingan hadislar islomning g‘oyat boy, ko‘p qirrali manbai hisoblanadi.

Bizning respublikamizda eng ko‘p tarqalgan va o‘zbek tiliga tarjima qilingan hadislar hozircha faqat Ismoil Buxoriyning 4 jildli «Sahihi al-Buxoriy» to‘plamlari, Iso Termiziyning «Sahihi Termiziy» degan nomda G‘.G‘ulom nashriyoti 1993yil chop etgan majmuasidir. Yana Alovuddin Mansurning «Muhammad Payg‘ambarning qissasi. 5 Hadislar» nomli kitobi ham «Kamalak» nashriyotida 1991 yilda o‘zbek tilida bosib chiqarilgan. Islomning butun olamga mashhur bo‘lgan yana bir manbai shariat meyorlaridir. Mazkur manbalardan yoshlar ma’naviyati muammolariga doir nufuzli ta’limotu-o‘gitlardan foydalansh zarur.

Darhaqiqat, «Din odamzotni yomon yo‘lga boshlamaydi. Yana din bu dunyoning o‘tkinchi ekanini, ohiratini eslatib turadi. Odam bolasini hushyor bo‘lishga harom yo‘llardan uzoq yurishga, yaxshi bo‘lishga, yaxshi iz qoldirishga undab turadi. [3] Agar biz dinlar tarixiga nazar tashlasak, islomning ma’naviyatdagi o‘rnini bilmoqchi bo‘lsak, u holda buyuk allomalar hayoti bilan tanishsak, fikrimiz oydinlashadi. Endi avvalgi 70 yillik davrdagi dinga qarshi targ‘ibot tugatilib, mustaqillik sharofati bilan diniy e’tiqod va amallarga keng yo‘l ochildi; bunday bir vaqtda yoshlar uchun islom allomalarining hayot tarzini, ularning yozgan asrlarini o‘rganish g‘oyat qiziqarli va butunlay yangilik bo‘lib tuyuladi. Islom allomalari deganda, biz avvalo Muhammad Payg‘ambardan keyin bu dinni mustahkamlashda Nabiyning g‘oyalarini amalga oshirishda, jumladan uning hadislarini to‘plashda faol ishtirok etgan shaxslar, islom ulamolarini nazarda tutayapmiz. Bular haqida keyingi yil oralig‘ida bir qancha risolalar, majmualar nashr etildi. [4] Masalan, Sh.Boboxonov, A. Irisovning «Hadis ilmining peshvolari» risolasida islom dunyosining atoqli ulamolari an-Nasomiy, Dovud Sulaymon, Ismoil al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, ibn Mojja, al-Kazviniy, Hakim at-Termiziy va boshqa muhaddislar, ularning hadis to‘plash bo‘yicha olib borgan izlanishlari haqida qimmatli materiallar beradilar. Respublikamizning ko‘zga ko‘ringan taniqli sharqshunos, tarixchi, faylasuf, adabiyotshunos, tilshunos olimlari ishtirokida tayyorlangan «Buyuk siymolar, allomalar» kitobida Markaziy Osiyoning IX-XII asrlardagi madaniyati va uning eng yirik hamda mashhur vakillari Xorazmiy, Buxoriy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Zamaxshariy, Yassaviy, Kubro kabi olim va ulamolari haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan. Mualliflarning ushbu kitobining qimmati shundaki, shu vaqtgacha keng xalq ommasiga yaxshi tanish bo‘lmagan yoki shurolar mafkurasiga to‘g‘ri kelmagani uchun o‘rganilmay qolgan mutafakkirlar, ilohiyotchi va muhaddislar Marg‘iloniy, Buxoriy, Termiziy, Zamaxshariy, Yassaviy, Kubro, Naqshbandning hayoti va ijodlari haqida materiallar berilgan. Islom va bu

dinning tarixiga oid tadqiqotlar olib borgan Huzuriyning «Nur ul-Yaqin» asari payg‘ambarning hayoti haqida to‘liq ma’lumotlar bergan. Mazkur asar islom oliy bilim maskanida islom tarixini o‘rganishda eng mo‘tabar darslik sifatida foydalanilmoqda.

Rabg‘uziy «Qissai Rabg‘uziy» [5] asarida payg‘ambarlar haqida turli qissalar keltirgan. Unda payg‘ambarlashtirilgan shaxslar (Dovud, Sulaymon, Zulqarnayn) haqida ham qissalar bor. Bu asarning yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda o‘ynaydigan roli shundaki, kitobda insonlarni o‘zaro to‘g‘ri munosabatlarda bo‘lishga, bir-birlariga nisbatan jabru-zulm qilmaslikka, nohaq qon to‘kmaslikka, harom-xarish ishlarga berilmaslikka, sharm-hayoni yo‘qotmaslikka undovchi o‘gitlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Iso Termiziyning «Sahihi Termiziy» va «Shamoili Muhammadiya» asarlari payg‘ambarning qilgan ishlari, xulq-odoblari va yurish-turishlariga oid hadislarni o‘z ichiga olgan. Ushbu hadislar kishilarni gunohlardan, yomon odatlardan saqlanishga va o‘zida yaxshi fazilatlarni shakllantirishga da’vat etadi. Termiziyning « Sahihi Termiziy» kitobi haqida yana shuni aytish lozimki, bu asarni uzoq yillardan beri diniy sohada xizmat qilib kelayotgan, islom muammolarini yaxshi biladigan, taniqli din arbobi Abdug‘ani Abdullo arab tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Bu kitobga faqat tanlangan hadislar kiritilgan. Asar «Abu Iso Termiziy»ning faoliyatiga bag‘ishlangan maqola bilan boshlangan. Unda yoshlarning dunyoqarashlarini shakllantirish uchun ibratli rivoyatlar, jumladan Imom Termiziy yigirma yoshga yetganida Xuroson shayxlaridan Marvaziydan va boshqalardan bilim olgani, so‘ng 25-26 yoshlarida Iroqqa borib, bu yerdagi ulamolardan saboq olgani, so‘ng uzoq yillar hadis to‘plash bilan band bo‘lgani va eng muhimi, uning hayotida imom Buxoriy bilan bo‘lgan uchrashuv, u bilan birga bo‘lgan davrlarida hadislarning matni, hikmati, falsafasi haqida anchagina bilimlar olgani bayon etilgan. Ulug‘ muhaddis Imom Buxoriy o‘z shogirdi Imom Termiziyni maqtab kamtarlik bilan: «Sen mendan bahra top-

ganingdan ko‘ra men sendan ko‘proq bahra topdim»,- deydi. Bu Termiziyga berilgan katta baho edi.[6] Islom allomalaridan Imom Buxoriyning (810-870) ijodi ham yoshlarda ma’naviy barkamollikni shakllantirishda alohida o‘rin egallaydi. Ma’lumki, 1998 yil tavalludining 1225 yili nishonlangan yirik ilohiyotchi, muhaddis Al-Buxoriy hadislarni to‘plashda va tartibga solishda juda katta ishlarni bajargan. 600 mingga yaqin hadis to‘plab, undan 7250 tasini sahda, ya’ni ishonchli deb topgan.[7]

Ismoil Buxoriyning ma’naviy tomondan yoshlarga namuna bo‘ladigan faoliyat kechirganligini qayd qilish lozimdir. U yoshlik chog‘idanoq bilimga chanqoqligi, o‘n yoshlarida arab tilini, diniy manbalarni o‘rganishga va hadis kitoblarini o‘qishga, yodlashga qunt bilan kirishgani,buxorolik muhaddislar Al-Poykandiy (777 – 839), Al-Jufiy (vafoti – 843) va boshqalardan hadis haqidagi bilimlarni o‘rganib, ko‘p hadislarni yod olgani diqqatga molikdir.

Buxoriy 16 yoshlarida xaj safariga chiqqan. Safar davrida Balx, Basra, Kufa, Bag‘dod, Damashq, Misf, Makka, Madina kabi ko‘plab shaharlarda bo‘lib, mashhur muhaddislardan hadislarning siru-asrorlarini o‘rgangan. U g‘oyat iste’dodli, ziyrak, mulohazalari o‘tkir ulamo bo‘lgan. Rivoyat qilishlaricha, u qaysi bir kitobni qo‘liga olib, bir marta mutolaa qilsa, hammasi yod bo‘lib qolaverar ekan. Undan tashqari uning o‘zi hadisshunoslik peshvosi bo‘la turib, asrdoshlari, hammaslaklari, vaqti kelganda, hatto shogirdlaridan ham tortinmay bilim olganligi tarixiy manbalardan ma’lum.

Buxoriy 20 yoshlaridan e’tiboran kitob yoza boshlagan. Uning «Al-jome as- Sahih» va «Al-adab al-mufrad» dan tashqari yigirmaga yaqin kitoblari bo‘lib, ko‘plari bizgacha yetib kelmagan . U yozgan asarlarning bir qismi axloq-odob masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirishda, imonli, e’tiqodli bo‘lib yetishlari uchun g‘oyat muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, islom allomalari yozgan asarlar, esdalik va ko‘rsatmalari yoshlarning ma’naviyali, yetuk in-

son qilib tarbiyalashda, ularning ilmli, axloq-odobli, imon-e'tiqodli, vatanga sadoqatli, ota-onaga hurmatli, kamtarin va aqlli bo'lib yetishlarida muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishda ularga islom manbalari haqida ma'lumot berish bilan birga,ularda ifodalangan axloq-odob, jamiyatda o'zini tutish tartib-qoidalari, ma'naviyatga tegishli tomonlari bilan tanishtirish orqali tarbiyalash maqsadga muvofiqdir.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5843-son Farmoni

2. I.A.Karimov «Istiqlol va ma'naviyat» .T., «O'zbekiston»,1994, 15-bet.

3. Shu manba,15-bet.

4. Alisher Navoiy, Arbain Hadis (qirq xadis sharhi). T,. Yozuvchi, 1991.

5.«Qissasi Rabg'uziy» T., «Yozuvchi», 1990; Imom at-Termiziy. «Shamoili Muxammadiya» T., «Mexnat» ,1991;

6. Abu Iso Termiziy. « Sahihi Termiziy» (Tanlangan xadislar). T.,G'.G'ulom,1993.

7. Islom. Spravochnik. T., 78-bet.

ZJV5401

GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARNI G‘OYAVIY TARBIYALASH VA MAFKURAVIY IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Suvanov Ilhom Abdixalilovich,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti Ilmiy kotibi, falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv sharoitida yoshlarni g‘oyaviy tarbiyalash va ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalalari yoritilgan bo‘lib, bunda axborot tarqatish texnologiyalari imkoniyatlaridan yoshlarning ma’naviyati va bilim darajasini oshirishda maqsadli va oqilona foydalanish zarurligi tahlil etilgan.

Tayanch so‘zlar: globallashuv, axborot, ma’naviyat, mafkura, xavfsizlik taxdid, internet, axloqsizlik, xudbinlik, tubanlik, mafkuraviy immunitet, qadriyat, urf-odat, an’analarga hurmat.

Bugungi dunyoda ilmiy kashfiyotlar, ulkan texnikaviy imkoniyatlar, universal texnologiyalar, axborot tarqatishning globallashuvi, ya’ni, ularning butun yer yuzini egallab olish jarayoni shiddat bilan o‘sib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev bu borada quyidagi fikrlarni bildirgan: “XX asrning oxiri va XXI asrning boshlariga kelib insoniyat ko‘plab umumbashariy muammolarga duch keldi. Ushbu muammolar va ularning yechimlariga doir masalalar bugungi kunda nihoyatda dolzarb bo‘lib qolmoqda” [1.303;]. Bu esa, bizning ijtimoiy, siyosiy, demokratik jarayonlarga, ayniqsa, yoshlarimiz turmush tarzi va faoliyatiga alohida e’tibor qaratishimizni taqozo etadi.

Globallashuv davrida yoshlar orasida tolerantlik muhim rol o‘ynashi shubhasizdir. Chunki, bir tomondan, yoshlarning dunyoning turli hududlarida yashab, o‘zaro

ZJV5401

aloqa qilishga intilishlari hamda ularning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg‘ulari, fikr-mulohazalari, g‘oyalari va e’tiqodlariga nisbatan chidamlilik, ikkinchi tomondan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish, darslarda innovatsion uslublarni qo‘llash, o‘qituvchi va o‘quvchilarda turli g‘oyalar oqimini shakllantirish, pedagogik hamkorlik masalalari ta’lim jarayonida tolerantlikni ko‘zda tutadi. Aslida, tolerantlik o‘zbek xalqining mentalitetiga xos xususiyatlardan biridir.

Bugungi kunda yoshlarni g‘oyaviy tarbiyalash, ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, qadriyat, urf-odat, an’analarga hurmat uyg‘otishda ulug‘ mutafakkir-olimlarimiz samarali ijodining o‘rni beqiyos va yoshlar tarbiyasidagi roli kattadir.

Hattoki, ulug‘ mutafakkirlarimizdan Farobiy ham o‘zining falsafiy qarashlarida odamning tuzilishi, ruhiyati, moddiy va ma’naviy olamini o‘rganishga ahamiyat bergan. Abu Rayhon Beruniy bilim umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganishning kaliti ekanligini ta’kidlaydi. Ahmad Yugnakiy esa “Bilim haqida so‘zlayman, so‘zimga quloq sol, ilmli kishiga o‘zingni yaqin tut. Bilim bilan saodat yo‘li ochiladi, shunga ko‘ra ilmli bo‘l, baxt yo‘lini izla. Bilimli kishi (qimmat) baholi dinordir, ilmsiz johil kishi qimmatsiz yemishdir (mevadir)” deydi.

Etika va axloqiy tarbiya masalalarini falsafiy-pedagogik asosda yoritib berishga harakat qilgan, ayniqsa, oila tarbiyasida ota-onaning o‘rniga alohida to‘xtalgan Abu Ali ibn Sino insoniy munosabatlar, uning eng katta ma’naviy-ruhiy boyligi haqida o‘zining “Qush tili” asarida batafsil bayon etadi. Asarda insonlarga xos bo‘lgan xarakter hislatlari, ularning ijobiy va salbiy tomonlari yoritib berilgan. Masalan, ikkiyuzlamachilik, yolg‘onchilik, xoinlik kabi hislatlar qoralanadi, inson ustidan har qanday zo‘ravonliklar inkor etiladi.

Ibn Sino inson xulqlari haqida quyidagicha fikr bildiradi: “Xulqlarning barchasi o‘z tabiati bilan go‘zal, yomon xulq-atvorlarga esa keyin erishilgan bo‘ladi”.

Afsuski, jamiyatda uchrab turadigan salbiy holatlar – be-

farqlik, maqtanchoqlik, xushomadgo‘ylik, hasadgo‘ylik, manmanlik, haqiqatni mensimaslik, nosog‘lom tanish-bilishchilik, mahalliychilik, mansabparastlik va hokazolarning mavjudligi achinarli holat hisoblanadi. Bu haqida gapirar ekanmiz, ularni bartaraf etishning quyidagi yo‘llarini aytib o‘tish mumkin:

- jamiyatda erkin fikr va fikrlashlar, g‘oyalar xilma-xilligi, tanqid, o‘z-o‘zini tanqid muhitini yaratish;
- demokratiya va oshkoralik muhitini kuchaytirish;
- sog‘lom va erkin raqobat muhitini yaratish;
- jamiyatda ilm-ma’rifatning mavqeyini oshirishga erishish.

Shu o‘rinda mafkuraviy ta’sir va tahdidlar, hozirgi zamonda inson ongi va qalbi uchun kurash haqida gapirar ekanmiz, quyidagi tushunchalarning mazmun-mohiyatini yoritish zarur:

1. Mafkuraviy immunitet – shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g‘oyaviy ta’sirlardan himoyalashga xizmat qiluvchi tizim.

2. Mafkuraviy bo‘shliq – g‘oyaviy tarbiya olib borilmaslik, e’tibordan chetda qolish natijasida vujudga keladigan g‘oyasizlik, mafkuraviy vakuum holati.

3. Mafkuraviy profilaktika – zararli g‘oyalar kirib kelishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi.

4. Mafkuraviy tarbiya tizimi – tarbiyaning alohida tizimi bo‘lib, milliy g‘oyaning aholi, ayniqsa, yoshlar ongi va qalbiga chuqur singdirish mexanizmini nazarda tutadi.

Mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda mafkuraviy profilaktikaning o‘rni katta. Zero, u o‘z mohiyatiga ko‘ra, yot g‘oyalar kirib kelishining oldini olish va ularni yo‘qotishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini o‘z ichiga oladi. Demak, mafkuraviy profilaktika ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan xilma-xil g‘oyaviy-tarbiyaviy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy ishlar majmuini, bir so‘z bilan aytganda, bu sohada to‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim-tarbiya tizimini qamrab oladi. Yot g‘ayriinsoniy g‘oyalarning ko‘rinishlari:

- kosmopolitizm, buyuk davlatchilik shovinizmi;

- diniy ekstremizm va aqidaparastlik;
- irqchilik g‘oyasi;
- fashizm, neofashizm;
- agressiv millatchilik;
- separatizm;
- panislomizm;
- panturkizm;
- submadaniyat;
- ommaviy madaniyat va hokazolar.

Yoshlarning ongini zaharlab, ma’naviy jihatdan qaram etishga qaratilgan mafkuraviy harakatlarga qarshi samarali kurash olib borish lozim. Bu esa barchamizdan voqelikka ochiq ko‘z bilan, real va hushyor qarashni, jahonda va yonatrofimizda mavjud bo‘lgan, tobora kuchayib borayotgan ma’naviy tahdid va xatarlarni to‘g‘ri baholab, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarib yashashni talab etmoqda. Shu bois yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod ongida murakkab va tahlikali hayot haqida, uning shafqatsiz o‘yinlari to‘g‘risida biryoqlama va soxta tasavvur bo‘lmasligi kerak. Hozirgi vaqtda ko‘z o‘ngimizda dunyoning geosiyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o‘zgarishlar ro‘y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish har qachongidan ko‘ra muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shunday ekan, agar yoshlar axborot iste’moli madaniyatiga ega bo‘lsa, salbiy va noxolis axborotlar ta’siriga tushib qolmaydi, chunki ularda bunday axborotlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitet shakllangan bo‘ladi.

Bugungi kunda o‘quvchi-yoshlar qalbida milliy tafakkur, sog‘lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash, ularni ongli yashashga, o‘z fikriga ega bo‘lishga, turli ma’naviy tajovuzlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo‘lgan irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish talab qilinadi.

Internet tizimi orqali axborot almashuv, binobarin, g‘oyaviy ta’sir o‘tkazish imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda.

Aslida axborot sohasidagi globallashuv jamiyat, dunyoning barcha joylaridagi odamlarning o‘zaro muloqoti, ilm-fan va madaniy boyliklarni o‘zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratadigan jarayondir. Lekin axborot globallashuvining salbiy jihatlari borligini ham unutmasligimiz kerak. Biron-bir hudud yoki mamlakatda paydo bo‘layotgan g‘oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. Bunday vaziyatda o‘z mustaqil fikri, sobit e’tiqodi, mustahkam irodasi va dunyoqarashiga ega bo‘lmagan odam goh oshkora, goh pinhona ko‘rinishda namoyon bo‘layotgan mafkuraviy tazyiqlarga bardosh bera olmaydi.

Yoshlarning ongi va dunyoqarashini yot mazmundagi g‘oyalar bilan zaharlashga qaratilgan ma’lumotlar internet kontentining katta qismini tashkil etadi. Bugungi kunda turli ijtimoiy tarmoqlar, forumlar, tanishuv saytlarining faoliyat yuritishi yoshlarni o‘ziga jalb qilmoqda. Ayniqsa, mobil internetdan foydalanuvchilar auditoriyasining ortib borishi turli mazmundagi axborotlarni ochiq olishga keng imkoniyat yaratib bermoqda.

Ommaviy axborot kommunikatsiyalarining taraqqiyoti, ko‘lamiga ko‘ra, zamon bilan hamnafasdir. Yoshlarning aksariyati bo‘sh vaqtlarini, hattoki, ta’lim muassasalarida bo‘lish vaqtlarini ham internet klublarida o‘tkazmoqda. Natijada, internet ular uchun faqat o‘yinlar olamiga aylanib bormoqda.

Hozirgi kunda respublikamiz aholisining 62 foizdan ziyodini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etishini e’tiborga olsak [2.105;], internet va uning shakllari bo‘lgan – internet-televidenie, internet-radio, elektron pochta, onlayn-video, ijtimoiy tarmoqlar kabi ko‘plab axborot tarqatish texnologiyalari imkoniyatlaridan yoshlarning ma’naviyati va bilim darajasini oshirishda maqsadli va oqilona foydalanish zarurligi ayon bo‘ladi.

Axborot vositalari jadal rivojining hozirgi globallashuv

ZJV5401

sharoitida yoshlar tarbiyasiga o‘tkazayotgan salbiy ta’siridan ko‘z yuma olmaymiz. Ular quyidagilarda namoyon bo‘lmoqda:

birinchidan, axborot vositalarining yuksak rivojlanishi natijasida internet, uyali telefon, telekommunikatsiyalar va turli axborot nashrlarining kirib kelishi. Bu vositalar orqali taklif etilayotgan “qadriyatlar” ko‘p hollarda yoshlarni milliy qadriyatlarimizdan uzoqlashtirib qo‘ymoqda;

ikkinchidan, yoshlar orasida taqlidchilik, g‘arbona ideallarga ko‘r-ko‘rona ergashish kabi holatlar kuzatilmoqda. Bunda, xorijda keng tarqalgan kinofilmlar, moda, turli xil reklamalar orqali yoshlarning ongi qamrab olinayotganini sezish qiyin emas. Natijada, yoshlar o‘rtasida kitob o‘qishdan ko‘ra, kompyuter o‘yinlari oldida vaqt o‘tkazish odat tusiga kirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy texnologiyalarning tez sur’atlarda o‘sishiga qaramay, ba’zan odamlar ulardan oqilona foydalanish qanday kechishi kerakligini to‘liq anglab yetmaydi. Kompyuter va internetgacha bo‘lgan davrda o‘sib-ulg‘aygan ko‘plab ota-onalar va muallimlarning katta qismi, agar bola internetdan foydalana boshlasa, buning, albatta, foydasidan zarari ko‘proq, deb o‘ylaydi. Bolani kompyuter yoki internetdan chalg‘itish harakati zamirida aslida boshqa bir muammo, ya’ni kattalarning bu masalada nisbatan savodsiz ekani aniqlandi. Biroq agar ular o‘zlari avval texnologiyalar savodsizligi masalasiga jiddiyroq yondashib, uni bartaraf etishsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Negaki, savodsizlik masalasidan qochish orqali bolani texnologiyalardan ajratib qo‘yish to‘g‘ri emas. Buning ustiga yana bir jihat e’tiborga loyiq, aynan kattalarning tutgan yo‘lidan kelib chiqqan holda bolalarda kibernetik do‘stiga nisbatan munosabat shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashr. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – B.303.

2. Mo‘minov A. O‘zbekiston axborotlashgan jamiyat sari – T.: “Turon zamin ziyo”, 2013. – B. 105.

MA’NAVIY TARBIYA BORASIDA YETTITA TAKLIF

Bazarov Otabek Hasanboyevich,
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Millat g’amida aytilgan bir fikr

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakat ravnaqi va kelajagini o‘ylab, “Ta’lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo‘q,– degan fikrni aytdilar. Millat kelajagi g’amida aytilgan bu fikr barchamizni o‘ylatib qo‘ydi. Bu hayotiy haqiqatni eshitish, tan olish qanchalar qiyinligini har qanday ota-ona ham juda yaxshi his qilsa kerak. To‘g’rida, axir, ne-ne umidlar, orzuyu istaklar bilan o‘stirayotgan bolamiz bugun jinoyatchi degan tamg’ani olsa. Shu bolam bilan kelajagim yanada porloq bo‘ladi, og’irimni yengil qiladi, mashaqqatlarimni aritadi deb bor mehrimizni bergan bolamiz giyohvandlik yoki ichkilikbozlik botqoqiga botib tursa. Yoki million-million pul sarflab, baxtu saodat tilab ikki yoshni nikohdan o‘tkazsangu bir-ikki yilga ham bormay, yana birorta farzandni orttirib, uni tirik yetim qilib ajrashib ketsa. Vatanparvarlik ruhida tarbiyalayapmiz, yurtga sadoqatli bo‘ladi, yurtimizning Alpomishdek himoyachisiga aylansin, deb boqqan farzandimizni radikal va buzg’unchi oqimlar qatorida ko‘rsak.

Demak, olib borayotgan tarbiyaviy (ta’lim emas, aynan tarbiya haqida gap ketmoqda) ishlarimizda muammo bor. Bu borada natijadorlik, faoliyatimiz samaradorligi ko‘ngildagi ketmayapti. Muammolar hali to‘laligicha o‘z yechimini topganicha yo‘q, degan xulosaga kelish mumkin. Demak, yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiya yo‘nalishidagi faoliyatimizni taraqqiy ettirish masalasida bajarilishi zarur bo‘lgan ishlarimiz hali juda ko‘p.

Har bir sohaning taraqqiyoti shu sohada yuqori salohiyatga ega bo‘lgan, ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borayotgan kadrlarning mavjudligi va ularning amaliy ishlari natijalariga bog’liq. Ayni vaqtda bizning mamlakatimizda ham bu boradagi islohotlar jadal ravishda olib borilmoqda va izchillik bilan davom ettirilmoqda. Muntazam ravishda muammolar yechimiga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ijrosi bo‘yicha hisobotlar berib borilmoqda. Albatta, ta’lim-tarbiyaning katta qismini bola maktab davrida oladi. Shu ma’noda, maktablarda ta’lim sifatini oshirish, iqtidorli o‘quvchilar selektsiyasini amalga oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizning bir nechta hududida Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar ochildi hamda yana ko‘plab shunday ta’lim muassasalarini ochish rejalashtirilmoqda.

Yangi O‘zbekistonning Uchinchi Uyg’onish davrini nafaqat zamonaviy ta’lim olgan, balki yuksak axloqiy tarbiyaga ega bo‘lgan yoshlar bilangina birga qura olamiz. Shunday ekan, bizdan yosh avlodning ta’lim olishi bilan bir qatorda ularning tarbiyasi masalasini biror fursat bo‘lsa-da boy bermasligimiz talab etiladi.

Yana Prezidentimizning quyidagi so‘zlariga murojaat qilamiz. “Bizni o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog’liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talabalari bilan uyg’un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham ununmasin. Biz kimmiz, qanday ulug’ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qlishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya”.

Olimlar nima deydi?

Xo‘sh, tarbiya amaliyotidagi muammolarimiz boisi nimada? Tarix fanlari doktori, professor, O‘zbekistonda xiz-

mat ko‘rsatgan yoshlar murabbiyi Abduhalil Mavrulov o‘z chiqishlaridan birida “Yoshlar har bir shaxsning tarbiyasi qanday bo‘lishi lozimligi to‘g’risida kitob o‘qimaganmi, bu haqda ota-onalariyu ustozlaridan fikr eshitmaganmi?” degan savolni qo‘yadi. Javobni ham professorning o‘zi beradi: “Shubhasiz, o‘qiganlar, eshitganlar, biladilar. Xo‘sh, unda nega bu hol takror-takror qaytarilmoqda? Bizning fikrimizcha, buning sababi yoshlarning o‘zlarini o‘zlari boshqara olmasliklari, mustaqil tafakkurga ega emasligidir. Bunga ko‘pincha biz, yoshi kattalar ham sababchimiz. Biz kun davomida hamma bilan turli mavzularda gaplashamiz. Ammo farzandlarimiz bilanchi? Ko‘pchilik ota-onalar sutkadagi 24 soat ichida o‘z farzandi bilan 15-20 daqiqadan ortiq gaplashmaydi. Natijada, bolada ota-ona oldidagi mas’uliyat hissi kamayib boraveradi, nazoratning pasayishi unda soxta erkinlikni yuzaga keltiradi”. Shu o‘rinda aytib o‘tish joiz deb topgan bir masalaga to‘xtalmoqchimiz. Bu – hamisha tortishuvlarga sabab bo‘ladigan bolani tarbiyalash, ya’ni bolaning tarbiyasiz o‘stirilgani uchun aybdorni qidirish muammosi.

Tarbiya uchun kim javobgar? Bu savolni kimga berishingizga qarab, javoblar tuslanaveradi. Ota-onaga bersangiz – maktabni, maktabga bersangiz – mahallani, mahallaga bersangiz – ota-ona va maktabni aybdor sifatida ko‘rsatadilar. Aslida, haqiqatan ham, barchasining javobi to‘g’ri – tarbiyaga barcha birdek mas’ul. Biz esa bunga qo‘shimcha ravishda aytmoqchimizki, aslida tarbiya uchun eng birinchi mas’ul – bu ota-ona, ikkinchi pedagoglar va nihoyat uchinchi mahalla-ko‘y. Ana shu har uchala qatlamda ham mas’uliyat teppa teng bo‘lishi kerak. Agar mana shu majburiyatni, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olib, kunu tun bolaning porloq kelajagi uchun jon kuydirmas, davlat tomonidan yaratib berilayotgan imkoniyat va sharoitlardan unumli foydalanmas ekan, hech qachon bola o‘zidan o‘zi oqil va dono bo‘lib katta bo‘lib qolmaydi. Shu ma’noda, bola tarbiyasi masalasida birinchi va eng katta mas’uliyat ota-onaga yuklanadi.

Nima uchun pedagog tarbiyaga mas'ul? Chunki "pedagog" – "bola yetaklovchi" bo'lsa, pedagoglar xalqning yetaklovchisi, ha, yetakchisi emas, aynan tarbiya borasidagi yetaklovchisidir. Faqat ota-onaning o'zigagina ayb qo'yish – bu hech kimga ayb qo'ymaslik bilan barobar bo'lib qolmoqda. Chunki ota-onalarni tizimli boshqarishning imkoni yo'q. Ular xohlaysizmi, yo'qmi alohida xonadonlarda yashaydilar. Qolaversa, bolaga tarbiya berish u yoqda tursin, o'zi shundoq ham tarbiyaga muhtoj bo'lgan ota-onalarning farzandlari nima bo'ladi?

Ko'chada yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq nimadir voqea sodir bo'ldimi, demak, biz o'qituvchilar ham ongli ravishda o'zimizni aybdor deb his qilishimiz zarur. Ko'zasi bir ta'sirga dosh bermay singan kulol kabi. Chunki ko'za kulolning, ko'chada ketayotgan o'smir – bizning o'quvchimiz, tarbiyalanuvchimiz, ya'ni bizning pedagogik ishimiz natijasi – mahsuli, mahsuloti. Aslida har bir pedagog-o'qituvchi o'z ustida ishlab, vazifasiga sidqidildan yondashsa, bilim, malaka va ko'nikmalarini oshirib, tom ma'nodagi pedagogga aylansa, jamiyatda ma'naviyat va shaxsning axloqiy tarbiyasi bilan bog'liq qator muammolar o'z o'rnini yuksak ijobiy natijalarga bo'shatib beradi. Afsuski, bu borada hali ahvolimiz maqtangulik emas.

Pedagogika fanlari doktori, professor Muhammadjon Quronov qiziq bir holatni tasvirlagan edi. U kishining tahliliga ko'ra, biror joyda to'rtta odam yig'ilib, o'zaro suhbat boshlansa, suhbatdoshlarning kasbiga qarab, murojaat qilinar ekan. Masalan, shifokordan biror kasallikning davosi haqida so'ralsa, avtomobil ustasidan mashining ehtiyot qismlari to'g'risida va xokazo. Lekin nimagadir shu davrada o'qituvchi bo'lishiga qaramay, biror kishi undan bolaning tarbiyasi yoki bu boradagi muammolarning yechimi haqida so'ramas ekan. Ushbu ma'lumotni eshitgach, mazkur maqola muallifi ham har xil davralarni kuzatib yurdi. Professorning so'zi ayni haqiqat ekan. Sababini qidirdik. Sababi – o'qituvchilar bir davradagilarni o'ziga qaratadigan darajada notiq va bilimdon bo'lsada, kamtarlik qilib, pedagogik ma'rifatni ishga solmaydi. Atrofdagilarni bola tarbiyasiga qiziqtirib, uqtirishga istihola

qiladi. Yoki aksincha, tarbiya borasida bilimga ega bo‘lmagani uchun ham bu haqda gap ochilsa, mavzuni boshqa tomonga burishga harakat qiladi. Ko‘ryapsizmi? Bu o‘rinda muammo bolada yoki ota-onada emas, balki pedagog-o‘qituvchida bo‘lib chiqmoqda.

Demak, oldimizda turgan ustuvor vazifalardan biri bu – bo‘lajak pedagog o‘qituvchilarning tarbiya bo‘yicha bilimlarini oshirish, notiqlik mahoratini yanada kuchaytirish, nafaqat o‘quvchi va tinglovchiga, eng asosiysi, kim bo‘lishidan qat’i nazar, kasbiga sadoqatli, har bir bolaga tarbiya berishga mas’ul ekanini chuqur anglaydigan mutaxassis sifatida yetishtirishga e’tiborni kuchaytirishdan iborat bo‘lmog’i lozim ekan. Aks holda, Yurtboshimiz tomonidan bildirilayotgan xavotir barham topishi mahol bo‘lib qoladi.

Bir bolaga yetti qo‘shni ota-ona(mi?)

Xalqimiz “Bir bolaga yetti qo‘shni ota-ona”, “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” kabi hikmatli so‘zlarni bejiz aytmagan. Bola katta bo‘lib, shaxsga – jamiyatning tom ma’nodagi a’zosiga aylangach, o‘zida bor odatu fazilatlarni avvalo qayerda namoyish qiladi? Mahallada-mi?! Agar, xudo ko‘rsatmasin, bola o‘g’ri yoki giyohvand bo‘lsa, uning salbiy ta’siri oiladan keyin kimga tegadi? Atrofiga kimni sherik qilish ehtimoli yuqori? Shu mahalladagi tengdoshlari, o‘rtoqlari, qo‘ni-qo‘shnilar emasmi? Demak, ana shunday holatlarning oldini olish uchun mahalla ahli faqat o‘z bolasinigina emas, mahalladagi boshqa bolalarning tarbiyasi masalasida ham mas’ullikni his qilishlari zarur bo‘lar ekan. Bolaning begonasi bo‘lmaydi, degan gapni har birimiz o‘zimizga qoida qilib olishimiz zarur bo‘larkan.

Mahallamizda bir bola bo‘lar edi. Bolaligidanoq o‘g’rilikka o‘rgangan. Uning bu odati avvalo ota-onasiga, keyinchalik mahalladagilarga ma’lum bo‘ldi. Maktabga bormas, sumkasini qayergadir yashirib, dalada odamlargi yordam berib yurar edi. Sinf rahbari bola matabga kelmaganini ota-onasiga ay-

tish uchun sinfdoshlari bilan uning uyiga borganida ota-ona norozi bo‘lar edi. Mahalladagi odamlar ko‘maklashish o‘rniga, ota-onaning ustidan kulishar edi. O‘qituvchiga: “Bitta bolasini eplab ololmasa, nima qilib yuribdi farzand o‘stirib”, “E, maktabga borib olim bo‘larmidi, undan ko‘ra qo‘y olib bersin, boqib yuradi”, “Sizga zarurmi shuncha, birovning bolasini orqasidan yurish, kerak bo‘lsa o‘zi boqib, o‘zi tarbiyalab olsin” deyishar edi.

Oradan yillar o‘tdi. Bola yigitga aylandi. O‘sha gapirgan odamlarning uyidan juda ko‘p narsalarni o‘g’irladi. Lekin uni na birov qo‘lga tushirdi, na o‘g’irlatgan narsasini qaytarib oldi. Hatto boshqa mahalladagi odamlar biror nimani aniqlamoqchi bo‘lsalar, “Falonchi o‘g’rining ko‘chasi”, “Falonchi o‘g’rining otasi, onasi yoki ukasi”, “Falonchi o‘g’rining qo‘shnisi” deb mo‘ljal oladigan bo‘lishdi. Shunda ham biror bir faol chiqib, shu bolani o‘rtaga olib, tarbiyasi bilan shug’ullanaylik, demadi. Oxir oqibat bola o‘g’rilik oqibatida qamaldi. Qamoqda nima bo‘lgani noma’lum-ku, ammo mahallada uning o‘g’riligidan zarar ko‘rib, haligacha o‘rnini qoplay olmagan odamlar bor. Ota-onasi va oila a’zolari esa boshqa joyga ko‘chib ketib, gap-so‘zlardan qutulib qoldilar. Mana, bir bolaning tarbiyasizligi ota-onayu mahalla-ko‘yga qay darajada ta’sir qildi. Biz ana shunday noxushliklarning oldini olishimiz, jamiyatimizda kuchli ma’naviyatli insonlar safini oshirishning barcha choralarini ko‘rishimiz kerak. Bugungi kunda hurmatli Prezidentimiz boshchiliklarida axloqiy tarbiya yo‘nalishida olib borayotgan ishlarimizni yanada jadallashtirishimiz – yangi bosqichga olib chiqishimiz kerak.

Yetti taklif

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflarimizni o‘rtaga tashladik:

Birinchidan, “Uzluksiz ma’naviy tarbiya kontseptsiyasi”ni hayotga keng tatbiq etish, bu boradagi ishlarni muvofiq-

lashtirib borish maqsadida mamlakatimizda “Milliy tarbiya jamiyati”ni shakllantirish va unda milliy axloqiy tarbiyaning muammolariga birgalikda yechim topish, milliy va zamonaviy pedagogikaning ta’sirchan usullaridan uyg’un holda foydalanish tizimini takomillashtirib, amaliyotga joriy etish zarur. Zero, axloqiy tarbiya – inson ma’naviyatining o‘q ildizi hisoblanadi.

Ikkinchidan, tarbiya bo‘yicha juda ko‘p ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, ammo natijasini amaliyotga tabiq etish masalalari nazardan chetda qolmoqda. Bu haqiqatni ham tan olish vaqti keldi. Shu ma’noda, tarbiya mavzusida ilmiy tadqiqot olib borgan yosh olimlarning tadqiqot natijalari va xulosalarini, shuningdek, jahon xalqlarining axloqiy tarbiya metodikasi borasidagi ilg’or tajribalarini muayyan hudud misolida sinovdan o‘tkazish va haqiqatan ham yuqori samara bergan ilmiy xulosalarni, usul va uslublarni ommalashtirish, keyinchalik ta’lim-tarbiya tizimiga to‘liq joriy qilish tizimini yo‘lga qo‘yish lozim. Bu borada, jamoatchilik O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi va qarori asosida tashkil etilgan Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutidan juda katta natijalar kutmoqda, xalqimizning institutdan umidi katta.

Uchinchidan, umumta’lim maktablarining reytingini aniqlashda faqat bitiruvchilarning oliy ta’lim muassasalariga kirganligi ko‘rsatkichinigina emas, balki shunga qo‘shimcha ravishda maktab o‘quvchilarining tarbiyalanganlik darajasini ham inobatga olish zarur. Buni o‘quvchilar o‘rtasida psixologik test o‘tkazish orqali aniqlash mumkin. Albatta, mazkur amaliyot ham biz ko‘zlagan natijalar yo‘lida xizmat qiladi, deb hisoblaymiz. Aks holda, bilimli, ammo tarbiyasiz avlodni shakllantirishimiz, ma’naviy nuqtayi nazardan shu avlodni yo‘qotib qo‘yishimiz mumkin.

To‘rtinchidan, ta’lim-tarbiya masalasida sustkashlikka yo‘l qo‘ygan ota-onalarga jarima solish tizimini takomillashtirish, ularning mas’ulligini oshirish maqsadida mahallada “Tarbiya kengashi”, “Ota-onalar universiteti” faoliyatini kuchaytirish,

Beshinchidan, yoshlarning tarbiyalanganlik darajasini o‘lchab beradigan ijtimoiy so‘rovnomalar o‘tkazish tizimini joriy yilish kerak. Bunda mahallalardagi yoshlar bilan ishlash bo‘yicha mas’ullar yordamida mahallaning ijtimoiy-ma’naviy holatini aniqlash maqsadida o‘z hududida yashayotgan yoki ro‘yxatda turadigan barcha yoshlar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkaziladi. So‘rovnoma natijalari asosida qaysi mahallada muammoli yoshlar bo‘lsa, shu mahallaga tarbiyaviy masalalar bo‘yicha e’tibor kuchaytiriladi. Keyinchalik psixologlar yordamida muammoli mahallalarda ish olib borish mexanizmi ishlab chiqilib, yo‘lga qo‘yiladi.

Oltinchidan, mamlakatimizda ijtimoiy-ma’naviy muhitning barqarorligi va yanada sog’lom bo‘lishini ta’minlash maqsadida barcha kodekslarimizdagi axloq-odob va ma’naviyat bilan bog’liq masalalarni qayta ko‘rib chiqish hamda bugun zamon talablari asosida mustahkamlanishini ta’minlash lozim. Bunda har bir mas’ul shaxsning, barcha fuqarolarning axloqiy tarbiya bilan bog’liq bo‘lgan burch va majburiyatlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Va nihoyat, yettinchidan, zamonaviy targ’ibot vositasi bo‘lgan internet va ijtimoiy tarmoqlardan unumli foydalanishimiz juda ham zarur. Ya’ni yoshlar bilan ular ko‘proq yig’iladigan joyda ish olib borishimiz kerak. Ularni qiziqtiradigan mediamahsulotlar tayyorlab, tarqatishimiz kerak. Ular orqali turli illatlarni kasb qilgan yoshlarning hurmacha qiliqlarini emas, ta’lim va tarbiyada komillikka intilayotgan yosh fuqarolarimizning o‘rnak bo‘ladigan ishlarini ommalashtirishimiz, qayta-qayta targ’ib qilishimiz lozim. Zero, boshqa tengdoshlari ibrat olsinlar, havas qilsinlar, o‘zlari ham ularning qatoriga kirishga intilsinlar.

Har bir bolaga o‘zimizning farzandimiz deb qarab, uning tarbiyasi uchun har birimiz mas’ul va javobgar ekanimizni his qilishimiz va zimmamizda fuqarolik, farzandlik burchimiz deb bilishimiz, eng asosiysi, biz tarbiyada boshqalarga o‘rnak bo‘lishimiz lozim.

YOSHLAR TARBIYASI: MILLIY QADRIYAT VA MA'NAVIY XAVF-XATARLAR

Hojiyev Farhod Jumaboyevich,
"O'zbekiston 24" telekanalining bosh muharriri

Annotasiya: Milliy qadriyat va merosimizni asrab-avaylashda farzandlar tarbiyasi masalasi muhim o'rin tutadi. Ayni paytda qizlarimiz ijtimoiy tarmoqlarda alohida profillar ochib, pul topish ilinjida o'zini behayo xatti-harakatlari bilan ko'z-ko'z qilishi, axloqsiz suratlarini joylashtirishi an'anaga aylanib boryapti. Bu illat yanada chuqur ildiz otayotganligi jamoatchilikni, mas'ul idoralarni, ota-onalarni bezovta qilishi lozim. Bundan tashqari bolalariga milliy ma'naviyatimizga yot xorij multfilmlarini tamosha qilishiga keng sharoit yaratib berayotgan ota-onalar uning oqibatlarini tushunishi kerak. Ayrim ota-onalar bolalariga milliy o'zligimizga yot xorijiy davlatlarda ishlab chiqarilgan qo'g'irchoq, o'yinchoqlarni xarid qilib bermoqda. Millatning o'zligini saqlab qolish muhim masala. Maqolada bugun tarbiyalanayotgan yosh avlodda shakllanayotgan dunyoqarash uni belgilab berishilishi fakt va ma'lumotlar bilan asoslab berilgan.

Tayanch so'zlar: Millat, tarbiya, qizlar, ijtimoiy tarmoqlar, or-nomus, behayolik, qo'g'irchoqlar, o'yinchoqla, ota-ona, mas'uliyat, millat taqdiri .

Qiz bola tarbiyasi har bir o'zbek oilasi uchun or-nomus masalasidir. Qiz farzand yelkasida otasining, aka-ukalarining, millatning g'ururini, or va nomusini olib yuradi. Shu boisdan ham qizlarimiz hayo-ibosi, nazokatu odobi, andishasi, oqilaligi bilan ajralib turadi. Bu mas'uliyatni chuqur his qilgan ota-onalar qizlar tarbiyasida ta'bir joiz bo'lsa millatning ertangi taqdirini belgilaydigan hayot-mamot masalasi sifatida ham qarab keladi.

Odatda o‘zbek xonadonida tarbiyalanayotgan qizlarimizga milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz chuqur singdiriladi. Ularga diniy va dunyoviy bilimlar berib tarbiyalashga harakat qilinadi. Chunki qizlar ertaga bo‘lajak Ona yurt davomchilarini dunyoga keltiradi va tarbiyalaydi.

Zamonaviy texnologiyalarning oilaga, har bir inson hayotiga kirib kelayotganligi tarbiya masalasida ham yondashuvlarni o‘zgarishni hayot taqqozo qilmoqda. Dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari farzandlarimiz, xususan qizlarimiz tarbiyasiga o‘zining ta’sirini o‘tkazayapti. Ya’ni, o‘zga xalqlar madaniyati, hayot tarzi kirib kelmoqda. Biz bu madaniyatlar ichidan maqbul bo‘lganlarinigina qabul qilamiz. Masalan, hammamizga ma’lum Singapurda diplomi bor ayollar turmushga chiqsalar, davlatdan katta to‘yona, agar farzand ko‘rsalar boshqa o‘qimagan ayollarga nisbatan ko‘proq suyunchi pullarini oladi. Xo‘sh, nima uchun shunaqa? Chunki buyuk islohotchi Li Kuan Yu mamlakatning muaffaqiyati avvalom bor ilmli, ziyoli ayollar va onalarga bog‘liqligini tushunib yetgandi. Tarix ko‘rsatdiki, Li Kuan Yu yuz foiz xaq bo‘lib chiqdi.

Aqlli va ilmli ayol, ilmsiz, dunyoqarashi past ayollardan ko‘ra dunyoga, hayotga real ko‘z bilan baho bera oladi. Bunday ayollar zamonga tez moslashib, o‘z o‘rni va mavqeyini, eng muhimi ayollik nafosati, sha’ni, qadr-qimmatini mustaqil himoya qilish salohiyatiga ega bo‘ladi. Ular oilaviy munosabatlarda o‘z turmush o‘rtoqlariga, farzandlariga to‘g‘ri maslahatgo‘y bo‘lishi mumkin. O‘zining va oila a’zolarining sog‘lig‘iga katta e’tibor bera oladi. Kelajakda turmush o‘rtog‘ining katta yutuq va muvaffaqiyatlarga erishishda munosib hissa qo‘sha oladi. Muhimi, sog‘lom jamiyatni shakllantirishda ularning hissasi beqiyos.

Ma’lumki, o‘tmishda To‘maris, Barchinoy, Bibixonim, Nodirabegim kabi jamiyatga yuksak bilimi, tafakkuri bilan ta’sir o‘tkaza olgan, ibratli hayoti bilan millat donishmandlari, allomalarini voyaga yetkazgan, yurtni yog‘iydan himoya qila olgan dovyurak, oqila onalarimiz yashab o‘tkan. Bugun ham

jamiyatimiz ana shunday ayollarimizga, millat onalariga ehtiyoj sezilmoqda. Bu fikrni bejizga tilga olmadik.

Globallashuv avj olayotgan bugungi kunda milliy o‘zligimiz, milliy qadriyat va merosimizni asrab-avaylash, himoya qilishdek katta mas’uliyat turibdi. Buni xalqini, yurtini astoydil yaxshi ko‘radigan, vatanparvar, ma’rifatli yosh avlod uddalay oladi. Ularga bu ulug‘vor maqsad va intilishni millat tarbiyachilari bo‘lgan yurt onalari farzandlariga murg‘akligidayoq uqtirishi lozim.

Milliy tarbiya oiladan boshlanadi, mahalla va ta’lim tizimida davom ettiriladi. Afsuski, ayni paytda farzand tarbiyasida ayrim bo‘shliqlar, kamchiliklarimiz bisyor. Tashqaridan bo‘layotgan xurujlarning zararli ta’sirini sezayapmiz. “Ommaviy madaniyat” noqobidagi bu balolar farzandlarimiz, qizlarimiz tarbiyasini buzayapti. Zamonaviy dunyo talabi. Axborotlar asosan planshet yoki gajetlar orqali almashinayapti. Bu vositalardan deyarli barcha farzandlarimiz foydalanayapti. Hech kimdan kam bo‘lmasin deb, o‘zimizda bo‘lmasada bolalarimizga xarid qilib berayapmiz. Farzandlarimizning asosiy vaqti ushbu vositalarga ulangan ijtimoiy tarmoqlarda o‘tayapti. Axborotlar oqimi chek-chegarasiz, ular orasida, yoshlar ma’naviyatiga, tarbiyasiga, dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigani ko‘p. Foydalanuvchilar orasida qizlarimizning ham ko‘pligi bizni tashvishga soladi.

Bugun “Instagram”, “Tik-tok”, “Telegram” kabi ijtimoiy tarmoqlarda ko‘ngilochar dasturlarni ommalashgani hech kimga sir emas. Bu dasturlar yordamida qizlarimiz har xil noan’anaviy, ommani keng jalb qilishga qaratilgan beo‘xshov harakatli o‘yinlar va chiqishlarni amalga oshirayapdi. Ushbu dasturlar orqali axloqsizlikni targ‘ib etayapti. Milliy qadriyatlarimizga nisbatan bepisandlikni namoyish qilib, go‘yoki o‘zlaridan qahramon yasashga urinayapti. Maqsad, bu bemaza chiqishlar bilan obunachilar sonini oshirib, reklama asosida daromad olishga kirishib ketgan.

Afsuski, bu video chiqishlardagi ularning hatti-harakatlari, kiyinish odobi, video ostidagi yozuvi bizning milliy qadri-

yatlarimizga, urf-odatlarimizga, mentalitetimizga, or-nomus, ibo-hayo tushunchalariga umuman zid. Yoshlarimiz bunday hayosiz videolarni tamosha qilishni oddiy holga aylantirayapti. Ularga taqlid qilib undanda battarini o‘ylab topib, kim o‘zarga tushib borayotganligi kishida tashvish uyg‘otadi.

«O‘z obunachilarini kuldiraman», deb o‘zlarini har ko‘yga solayotgan, boshqalarga mazax bo‘lsada “layk” to‘plash uchun turli xil video va roliklar joylayotgan yosh ota-onalarni ko‘rganimizda tarbiya borasidagi kamchiliklar ko‘zga tashlanadi. Yosh ota-onalarning o‘zi tarbiyaga muhtoj.

Achinarlisi shuki, ota-onalar bunday bema’ni hazillarni farzandlari bilan birgalikda amalga oshirayapti. Farzand har doim birinchi navbatda o‘z ota-onasidan andoza oladi. Uning yurish-turishidan, muomalasidan o‘rnak oladi. Farzand kitob o‘qib o‘tirgan emas, balki kechayu-kunduz telefon bilan ovora bo‘lib o‘tirgan ota-onasini ko‘rib ulg‘ayadi. Qarabsizki, farzand real va virtual hayotni bir-biridan ajrata olmay, hayotda o‘z o‘rnini yo‘qotib qo‘yadi. Virtual hayotni tahdid sifatida qaraladigan tomonlaridan biri bu avlodlar orasidagi aloqalarning uzilib qolishidir. Bunday muhit kirib borgan xonadonlarda avlodlar yŗtasidagi munosabatlar kun sayin kamayib bormoqda. Bunday xonadonlarda ota-onalar va bolalar soatlab yonma-yon yŧtirishadi, ammo internetdan uzilib, bir-birlariga bir og‘iz gapirishga fursat topisholmaydi.

Bugungi kunda ota-ona va bolalar davra qurib yŧtirib, oilaviy va boshqa masalalarda shirin va ibratli suhbatlar quradigan xonadonlarni kamdan-kam uchratamiz. Endilikda, afsuski ota-ona va farzandlar yŗtasidagi munosabatlar sovub bormoqda. Bunga sabab qilib ijtimoiy tarmoqqa qaramlikni aytish mumkin. Nafaqat yosh avlod balki, katta yoshlilar ham bunday qaramlikka tushib qolishgani juda achinarli.

Ma’lumki, mul’tfilm bolalarni harxasha qilganda tinchlantirish va ma’lum vaqtga band qilib qo‘yish uchun ota-onalarga yordamchi bo‘ladi. Lekin rang-barang personajlardan tashkil topgan mulьtfilmlarning hammasi har xil ta’sir qilishi va bolaning tasavvuri noto‘g‘ri shakllanishiga, o‘zini to‘qima

qahramonlardek tutishiga olib kelishi mumkin. Masalan, televideniya va ijtimoiy tarmoqda 2009 yildan beri bolalarning sevimli «Qizaloq va maymoq»[1] multfilmini olaylik: mulьtfilmning bosh qahramoni Mashaning harxashalari, injiqliklari, yomon odatlari, mutaxassislarning fikricha bolaning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bola bunday harakatlarni odatiy holday qabul qiladi:

Mazkur multfilmda quloqsiz Masha ayiqni surobini to'g'rilaydigan xatti-harakatlar bajarishiga qaramay, jazosiz qolishi, bolada bu "odatiy hol" ekan, degan tushuncha shakllanishiga sababchi bo'lishi mumkin. Agar bolaga ota-onasi tomonidan multfilmlar bo'rtirilgan voqelik ekani, haqiqiy hayotda bunday harakatlar hech kim tomonidan rag'batlantirilmasligi tushuntirilmasa, bolaning, vaqt o'tishi bilan aytganni qilmay, chegaradan chiqishi mumkin bo'ladi.

Yoki quyidagi xorijda ishlab chiqarilgan «Vinks»[2] multfilьmini taxlil qilsak: Mazkur mulьtfilmdagi qahramonlarning ochiq-sochiq liboslari va tashqi ko'rinishi bola ongida yolg'on go'zallik standartlari shakllanishiga olib keladi. Bola va qizlar, o'zlarini bu ko'rinishlardagi qahramonlarniki kabi emasligidan o'zlaridan kamchilik qidira boshlaydi. Shuningdek, qahramonlarning kamtarlik va rahm-shafqat kabi xususiyatlar ustidan kulishi va uy ishlarini parilar o'rniga, ularning yordamchisi bajarishi ham bolaga ijobiy ta'sir qilmaydi.

«Maxluqlar maktabi»[3] mulьtfilm qahramonlarining o'qishga mensimasdan munosabatda bo'lishi hamda bema'ni(jargon) so'zlardan foydalanilishi mulьtfilmning katta kamchiligi hisoblanadi. Shuningdek, mazkur multfilm oilaviy qadriyatlar, kattalarga hurmat va do'stlik haqidagi tushunchalarni bolada noto'g'ri shakllanishiga sababchi bo'ladi. Yuqoridagi mulohazalarni «Monstr Xay», «Gubka Bob»[4] mulьtfilmlari haqida ham aytish mumkin.

Hammamizga ma'lumki, yoshlarning ma'naviy olamini bolalikdan boshlab ezgu g'oyalar asosida shakllantirish va kamol toptirishda qo'g'irchoq va o'yinchoqlarning o'rni beqiyos. O'yinchoqlar obrazi bolaning murg'ak tasavvuriga

bamisoli toshga o‘yilgan naqshdek muhrlanib, uning ongida bir umr saqlanib qoladi. Go‘dakning ulg‘ayib, kasb tanlashi, kelajakda qanday yo‘ldan borishi, o‘zining hayot tarzini qanday axloqiy-ma’naviy asoslarga qurishi ham, hech shubhasiz, uning bolalikda qanday o‘yinchoqlar bilan oshno bo‘lib o‘sgani bilan belgilanadi. Bolalar o‘yinchoqlari – bu xalq hayotini aks ettiruvchi, uning ma’naviy qadriyatlari va madaniy tajribasini asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga yetkazib beruvchi asosiy badiiy vositalardan biridir. Bugun mamlakatimizda yoshlar ta’lim-tarbiyasiga, ularning ma’nan va jismonan sog‘lom, barkamol bo‘lib ulg‘ayishlariga katta e’tibor qaratilmoqda. Ular sirasiga bolalar o‘yinchoqlariga bo‘lgan e’tibor ham kiradi. Sababi, bolalar o‘yinchoqlari xalq hayotini aks ettiruvchi, uning ma’naviy qadriyatlari va madaniy tajribasini asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga yetkazib beruvchi badiiy vositalardan biridir. Olamga o‘z nigohlari bilan boqayotgan, endigina dunyoni o‘rganayotgan go‘dak nigohi xorij qo‘g‘irchoqlariga tushganda, uning ochiq-sochiq kiyimdagi qomatini jajji qo‘llari bilan ushlaganda ong ostida begona g‘oya, yot unsurlar paydo bo‘la boshlaydi:

Bu esa o‘z-o‘zidan bola ruhiyatiga ta’sir qilib, o‘zi bilmagan holda g‘arbona uslubda ishlangan qo‘g‘irchoqlarga taqlid qilib kiyinishga, yurish-turish, pardoz-andozga ko‘nika boshlaydi. Xorijiy o‘yinchoqlar og‘ushida ulg‘aygan bola milliy g‘urur va milliy iftixor tuyg‘ularidan uzoq, aksincha, g‘arbona dunyoqarash va tarbiyaga moyil tarzda voyaga yetadi. Ravshanki, bunday tarbiya ertamiz egalarining kelajagiga soya soladi.

Bolalarning ilk taassurotidagi narsa bir umr yodidan chiqmaydi. Ilmiy xulosalarga ko‘ra, inson butun umri davomida oladigan barcha ma’lumotning 70 foizini besh yoshgacha qabul qilar ekan. Ilk hayotiy tasavvurlar, inson tafakkurida poydevor bo‘luvchi tushunchalar bolalar ongiga aynan shu paytda singadi. Demak, besh yoshgacha bo‘lgan bolalarning turli o‘yinchoqlardan olgan taassurotlari ham uzoq muddat ularning ongida saqlanib qoladi. Xorijda ishlab chiqarilgan,

bizning mentalitetimizga to‘g‘ri kelmaydigan qo‘g‘irchoq va o‘yinchoqlar bola ongi tafakkuriga salbiy ta’sir o‘tkazadi.

Ayniqsa, “Barbi” qo‘g‘irchoqlari haqida alohida to‘xtalib o‘tish joiz. Multfilmlarning namoyish etilishida televideniyani aybi bor. Biroq barbi qo‘g‘irchoqlarini ota-onalarning o‘zlari farzandlariga sotib olib berishmoqda. AQSHda 1959 yilda ixtiro qilingan, bir qarashda beozor ko‘rinadigan bu o‘yinchoqdan yopirilayotgan xatarni ota-onalar bilishmaydi. Barbining tarixi haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, uning muallifi amerikalik Rut Xandler sanaladi. Qo‘g‘irchoqlarni tadqiq qilgan professor M.Lord shunday yozadi: “Barbining ilk o‘tmishdoshi qo‘g‘irchoq Lillidir. Lilli birinchi marta 1952 yilning 24 iyulida paydo bo‘lgan va juda tez ommalashib ketgan. Unga prototip bo‘lgan yengiltak ayol - Lilli ikki narsani - ko‘ngilxushlik va pulni xush ko‘rar, puldor jazmanlarini tez-tez almashtirib turardi”. Hattoki g‘arblik ruhshunoslar ham Barbi qo‘g‘irchog‘i qizaloqlarda shaxs va jamiyatga zarar yetkazadigan xulq-atvorni shakllantirishi mumkinligidan jiddiy xavotirda. Qizchalarning ruhiyati o‘zgara boshlaydi, ularda bolalarga xos bo‘lmagan istig‘no, sovuqlik va erta ulg‘ayish belgilari namoyon bo‘ladi. Barbisini yasantirar ekan, murg‘ak qizaloq o‘z hayotiy maslagini tuza boshlaydi – u ham kimningdir qo‘lida qo‘g‘irchoq bo‘lishni xayol qiladi.

Avvallari qizchalar qo‘g‘irchog‘i bilan “qiz-ona” o‘yinini o‘ynardi. Qo‘g‘irchoq go‘dak ko‘rinishida bo‘lgani uchun murg‘ak qizaloqqa yaqin va tushunarli edi. Va u qizginani eng asosiy vazifaga – ona bo‘lishga tayyorlardi. Endi esa bu o‘yin butunlay o‘zgacha tus olayapti. Barbi qo‘g‘irchog‘i qizchalarni ona rolini o‘rgatmaydi. Bu yerda ota-ona bilishi shart bo‘lgan eng muhim jihat shuki, Barbiga enagalik qilish kerak emas, uni yasantirish kerak. Bolaligidanoq qizchalarga qandaydir o‘rtamiyona go‘zallik ideali singdirilishi oqibatida ular sal ulg‘aygach, o‘zlari o‘ynagan “sohibjamol”ga o‘xshashga intiladilar. O‘ta ozg‘in, ramaqijon, hurpaygan sochli Barbi qo‘g‘irchog‘i go‘yo zamonaviy manekenchi ayollarning qiyofasini masxara qilayotganday...

Hozirda, yurtimiz savdo peshtaxtalarida, afsuski, homilador qo‘g‘ir-choqlarni ham ko‘rishimiz mumkin. Bu kabi qo‘g‘irchoqlar bola psixologiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatibgina qolmay, bola tarbiyasini ham izdan chiqaradi. Bolalarda erta jinsiy hayot va erta nikoh g‘oyalarini targ‘ib qiladi.

Farzandlarimizga xalqimiz mentaliteti aks etgan, uning ma’naviy olamiga mos o‘yinchoq hamda qo‘g‘irchoqlarni sovg‘a qilaylik. Shunda uning ma’naviy dunyosi, umuman, kelajagi haqida o‘ylagan bo‘lamiz ...

Albatta, bugungi kunda mamlakatimizda chet el o‘yinchoqlaridan qolishmaydigan darajada milliy o‘yinchoq va qo‘g‘irchoqlar ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalari shakllandi va rivojlanib borayapti. Soha mutaxassislari, o‘yinchoq ishlab chiqarishda ko‘proq milliy-ma’naviy merosimizga, xalq og‘zaki ijodiga murojaat etishsa, millat qahramoniga aylangan tarixiy shaxslar siymolaridan keng foydalanilsa xalqimizning ezgu intilishlariga muvofiq bo‘ladi. Zero, qizlarimiz mini yubka kiygan “Barbi” bilan emas, uzun atlas ko‘ylakli Barchinoylar bilan do‘stlashsa, o‘g‘il bolalar o‘zimizda ishlab chiqarilayotgan avtomashinalar timsolidagi o‘yinchoqlarini o‘ynasa, haqiqiy millat qahramonlarini bilsa farzandlarimizda vatanparvarlik tuyg‘ulari yanada teranroq shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Zero, o‘zbekona milliy o‘zligimizni saqlab qolishimiz uchun uning oqibatlari bilan emas, aksincha uning kelib chiqish sabablarini chuqur o‘rganishimiz va zurur choralarni ko‘rish afzal.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. https://youtu.be/1Q0vHykrvTg
2. https://youtu.be/Y-GL317-sgw
3. https://youtu.be/1dMz65Ho1iI
4. https://youtu.be/axEE7wSXY78

MAXSUS MAKTAB O‘QUVCHILARIGA MA’NAVIY TARBIYANI TASHKIL ETISHNING PSIXOLOGIK MASALALARI

(ESHITISHDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR MISOLIDA)

M.Yu. Egamnazarov,
Jizzax davlat pedagogika unversiteti,
Umumiy psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi, p.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda o‘yin faoliyatini tashkillashtirish orqali og‘zaki nutqini rivojlantirish jarayoni yoritilgan, maxsus maktablarda darslarni tashkillashtirishda ham ijodiy faoliyatni yo‘lga qo‘yish va bolalarning o‘z-o‘zini baholashga yoram berishga qaratilgan tushunchalar yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar, o‘qitish tizimi, ijodiy faoliyat, hamkorlik, ta’lim tarbiya, mustaqil faoliyat, ta’lim, tarbiya, metodika.

Jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’iy nazar, har kimga ta’lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

“O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni 5-modda”.

Butun Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti statistikasiga ko‘ra, butun dunyo bo‘yicha bir milliardga yaqin odam turli darajadagi jismoniy, aqliy, emotsional, sensor, ruhiy buzulishlariga ega. Bu har yetti insondan biri yoki jami yer yuzi aholisining 15% demakdir.

Shular jumlasidan eng asosiysi bo‘lgan animal bolalardan eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bo‘lib. Bu anamalik holatlar tug‘ma va ortirma nuqsonlari mavjud. Bu nuqsonlilikning

ikki arajasi karlik va zaif eshituvchi nuqsonlilikka ajraladi. Shundan ko‘rinib turibdiki ularning nuqsonlilik darajalarni bartaraf etish metodikalari ham turli hollarda bartaraf etiladi.

Eshitishida kamchiligi bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish qonuniyatlarini

o‘rganish, eshitish idrokini rivojlantirish tizimini takomillashtirish, o‘z bitiruvchilarini ma‘lum bir kasb yo‘nalishi bo‘yicha mehnat qilishlariga erishish, o‘qitishning texnik vositalarini takomillashtirish, bog‘cha va maktab talimining uzluksizligini ta‘minlash, respublika bo‘yicha sog‘liqni saqlash hamda xalq ta‘limi tarmoqlari ishlarini muvofiqlashtirish, erta tashxis diagnozi muammolarini hal etishdan iboratdir.

Eshitishida kamchiligi bo‘lgan bolalar va kattalar uchun ta‘lim muassasalari,

uning bo‘g‘inlari birligi va vorisligi asosiga kiritilib, har bir bosqich o‘z vazifalarini o‘taydi va ayni paytda keyingisi bilan bog‘liq. Barcha muassasalar faoliyati asosida yagona maqsad bolalar rivojlanishidagi buzilishlarning oldini olish va korreksiyalash, shaxsni har tomonlama shakllantirish va hayotga, mehnatga tayyorlashdir. Bu umumiy maqsad butun ta‘lim tizimi va uning har bir bo‘g‘ini ishini yo‘naltiradi.

Maxsus maktab-internatlarining asosiy vazifasi - alohida yordamga muhtoj

bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash, bolaning bilish faoliyatidagi kamchiliklarini

bartaraf etish, undagi barcha a‘zolar funksiyalarini faol ravishda yaxshilash, ruhiy

jarayonlarni ijobiy tarkib toptirish, kamchiligi bor bolalarda Mustaqil Vatanimiz uchun eng zarur asosiy sifatlarni, barkamollikni hamda axloqiy odat va fazilatlarni shakllantirishdan iboratdir.

Maktab internat ancha uzoq tumanlarda yashovchi ota-onalar uchun bolalarini o‘qitish imkoniyatini taminlaydi.

Shu o‘rinda aytish lozimki eshitish nuqsonini bartaraf etishda asosan ijodiy faoliyat ayniqsa o‘yinli metod samarali dars hisoblanadi bu dars jarayonining quyidagi sifatlari ko‘rsatib o‘tiladi.

ZJV5401

- Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni mustaqil faoliyatni tashkillashtirish analiz jarayoni orqali sintez jarayoni ham rivojlanish samaradorligiga erishish.
- Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni ijtimoiylashuvining vajudga kelishi va moslashish jarayoni aniqligi yuzaga kelishi ko‘zda tutiladi.
- Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar mustaqil harakatlar orqali qarorlar qabul qilish hislatining paydo bo‘lishi kuatiladi.

O‘yin faoliyatini tashkillashtirish vazifalari unumli ma‘lum shartlarga rioya etilgandagina samarali xal etiladi va bunda asosiy metodikalar inobatga olinishi zarur.

O‘yin faoliyatini tashkil etishda samarasi tarbiyachi tamonidan har bir o‘quvchining ishi, yakka hususiyatlarini inobatga olinishiga bog’liq. Undan tashqari bu jarayonda quyidagicha yondashuv muhim xususiyatlar hisoblanadi.

O‘quvchilarni tayyor bilimlarni o‘rgatishdan tashqari ularni mustaqil, ijodiy bilishga, atrof-muhit orqali muomala madaniyatiga o‘rgatish, saqlangan nutq malakalarini oshirib borish o‘z fikrini to‘laqonli bayon etishga o‘rgatish, jamiyatga integrasiya qilish maktab internatlarining vazifasidir. Zero mustaqil va ijodiy fikrlashga ega bo‘lgan avlodgina O‘zbekiston taraqqiyotiga munosib xizmat qiladigan shaxs bo‘lib yetishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Po‘latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. T.: «Fan va texnologiyalar», 2014.

2. Nurkeldiyeva D.A., Chicherina Ya.Ye. Ilk, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni psixologik, pedagogik va logopediya tekshirish. T.: Yangi asr avlodi, 2007.

3. http:www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti.

4. World report on disability. World Bank. WHO; 2011: 261.

TALABALARDA KASBGA SADOQATNI SHAKLLANTIRISH

Dehqonov Anvajon Valijonovich, Namangan muhandislik-qurilish instituti Muhandislik kommunikasiyalari fakulteti dekani o‘rinbosari.
Jakbarov Odiljon Otamirzaevich, Namangan muhandislik-qurilish instituti 1-prorektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent

Annotasiya: Mazkur maqolada talabalarda kasbga sadoqat burchini shakllantirish uchun xizmat qiladigan zamonaviy usul va ko‘rsatmalar, pedagogik echimlar keltirilgan. Ushbu maqolada oliy ta’lim muassalarida tahsil olayotgan talabalarda kasbga sadoqat, burchga va Vatanga sadoqat tuyg‘ularini birgalikda shakllantirish va tobora rivojlantirishni ishlarini tashkil etishda e’tiborga qaratilishi foydali bo‘lgan fikrlar, ma’lumotlar va ko‘rsatmalar tavsiya sifatida keltirilgan.

Tayanch so‘zlar: oliy ta’lim, talaba-yoshlar, zamonaviy qadriyatlar, uzluksiz ta’lim, “Uchinchi renessans”, ta’limning globallashuvi.

“El dardiga darmon bo‘lmoq – ezgu vazifangizdir” .
(Amir Temur)

“Biz yagona bir maqsadni ko‘zda tutmoqdamiz ya’ni, O‘zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo‘lishi shart” deb ta’kidlagan edi Prezidentimiz parlamentga qilgan murojaatnomasida.

Bugungi tez o‘zgaruvchan iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy hayot talaba-yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda turli zamonaviy qadriyatlar bilan to‘yingan kasb ko‘nikmalarini hayotga tadbiq etishni va bu borada eng so‘nggi metodlardan keng foydalanishni taqozo qiladi.

Bilim qanchalik mustahkam bo‘lsa, talaba dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanadi va kamol topadi. Hozirgi kunda talaba-yoshlarning o‘zlari tanlagan kasblari uchun zarur bo‘lgan axborot, informatsion savodxonlik darajasi ta’lim samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Uzluksiz ta’lim tizimining oliy bo‘g‘ini bo‘lgan oliy ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan davlat talablari O‘zbekistonni rivojlantirish bo‘yicha 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan harakatlar strategiyasi hamda 2021-2026-yillarda hayotga tadbiq etib boriladigan O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar va g‘oyalarni amalga oshirish yuzasidan yildan yilga zamon bilan hamnafas oshib bormoqda. Chunonchi, oliy ta’lim muassasalari ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, ilm-fanning so‘nggi yutuqlarini amaliyotga joriy etish bilan birgalikda ijodkor, ijtimoiy faol (virtual olamda ham), yuksak ma’naviyatli, halol kasb-hunarli, ona Vatanga sadoqatli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ardoqlaydigan, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida o‘z burchi va javobgarligini his etadigan hamda huquqiy demokratik davlatga munosib vatandoshlar jamiyatining to‘laqonli a’zosi bo‘la oladigan shaxsni kamolga etkazish, bir so‘z bilan aytganda mamlakatimizda “Uchinchi renessansni” barpo etadigan avlodni etishtirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirishi lozim bo‘lmoqda.

Dunyoda shunday insonlar bo‘ladiki, kasb-korini ardoqlab, undan faxrlanib, uni hayotining mazmuni deb biladi. Kasbga sadoqat – Vatanga mehr, el-yurtga muhabbatdan paydo bo‘ladi. Ha, kasbni muqaddas bilib, uni ardoqlagan kishi el-yurt hurmatiga, mehriga sazovor bo‘ladi.

Talabalarda kasbiy qadriyatlarni rivojlantirishda yangi usullar, vositalar, shakllarni amalga oshirish, ularni boshqarish va nazorat qilish muhimdir. Bunga, albatta, kompleks yondashish, ayniqsa, dars, auditoriyadan tashqari ishlar jarayonida, shu bilan birga oila, mahalla hamkorligi asosida talaba shaxsida kasbni ulug‘lash, tanlangan kasbga sadoqat ruhini shakllantirish o‘z samarasini beradi.

Bugun ta’lim mazmuni tubdan isloh qilindi. Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq.

Tarbiya jarayonida talabalarning o‘zlari tanlagan kasbga nisbatan talabchanligini oshirish, turli muammolardan chalg‘imaydigan, mehnat mahsulidan quvona oladigan qilib tarbiyalashda vaziyatni real baholash orqali ularning faoliyatini pedagogik jihatdan to‘g‘ri uyushtirish g‘oyat muhimdir. O‘qituvchi dars jarayonida turli pedagogik vositalardan, masalan, vatanparvarlik, qat’iyatlilik, sabr va matonat bilan yondasha oladigan ta’lim usullari asosida yoshlarning ongidagi ilg‘or kuchlarga tayanib, ijodiy kamolotiga yordam berish natijasida darslarni tashkil etishlari lozim.

O‘qituvchi bilan talaba orasidagi munosabat erishilgan yutuqlardan zavqlanish, o‘quv faoliyatiga mas’uliyatli yondashish hamda o‘zaro hamkorlikda ijodiy faoliyatni yo‘lga qo‘yishga undashi kerak. Bu esa pedagogik ta’sirni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan o‘zaro aloqa vositasi – «ko‘prik»ni vujudga keltiradi.

Ta’kidlash joizki, kasbiy qadriyatlarni tizimli shakllantirishda ta’lim beruvchi muassasalar – maktabgacha ta’lim, maktablar, litsey, kasb-hunar kollejlari, texnikumlar, oliy ta’lim muassasalari faol ishtirok etmoqdalar. Bugungi kunda oliy ta’lim faoliyatini takomillashtirish bilan birga, ta’limni insonparvarlashtirish, ta’lim oluvchilarda yuqori ma’naviyat, madaniyat va tafakkurni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi.

Albatta, bu vazifalarni amalga oshirishda oliy ta’lim muassasasi talabalarida kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki talabalarda YAgona Vatan g‘oyasini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining asosiy omili bo‘lishi bilan birga, egallanishi lozim bo‘lgan kasbiy bilim, ko‘nikmalarni ham tizimli ravnaq toptirish mexanizmi hisoblanadi.

Bu vazifalarni amalga oshirish natijasida talabalar ongida yangicha fikrlash, milliy tafakkur, milliy mafkuraviy qarashlar, ma'naviy-axloqiy, kasbni sevish kabi xislatlar kamol topadi. Kasb tanlash va tanlangan kasbni qadriyat deb bilish birdaniga paydo bo'lmaydi. U paydo bo'lish, tarkib topish, rivojlanish va mustahkamlanish kabi dinamik bosqichlardan o'tadi.

"Uchinchi renessans"ni barpo etuvchi avlod ongida kasbiy qadriyatlarni rivojlantirishda quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

– davlatning iqtisodiy qudratini mustahkamlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiy faoliyat erkinligi, iqtisodiyotni ilg'or texnologiyalar asosida modernizatsiyalash orqali kasbiy bilimlarni muntazam oshirib borish;

– xalqning ma'naviy boyligi, uning intellektual salohiyati va professionalizmini oshirish orqali kasb mahoratini sayqallash;

– xalqning bunyodkorlik qobiliyatlaridan har tomonlama va to'la-to'kis foydalanish orqali o'z kasbiga bo'lgan mehr-muhabbatni oshirish;

– ma'naviy boy, intellektual va yuksak madaniyatli, axloqan hamda jismonan sog'lom yoshlarni tarbiyalash barobarida etuk salohiyatli kasb madaniyatiga ega bo'lgan shaxslarni etishtirish.

Bugungi kunda ta'limning globallashuvi, innovatsion texnologiyalarning joriy etilayotgani, ayni paytda keng ko'lamli axborotlar oqimi ta'lim mazmunini muntazam yangilab, takomillashtiribgina qolmasdan, yoshlarda kasbiy qadriyatlarni rivojlantirishda intensiv faoliyat olib borishni taqozo etadi.

Madaniy meros va yuksak badiiy, milliy an'analarni rivojlantirish, undan foydalanish, ijodiy amaliyot uslublarini joriy etish kasbga yo'naltirilayotgan har bir talaba-yoshni, ayniqsa, ulardagi qunt, chidam, qat'iyat, o'zi tanlagan kasbning falsafiy, psixologik qirralarini o'rganishi barobarida kelajak maqsadda siyosiy-g'oyaviy va estetik ruhda tarbiyalanishi uchun zamin yaratadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, kasb ko'nikmasini

shakllantirayotgan talaba quyidagilarga alohida e’tibor qaratishi lozim:

– go‘zallikni seza bilish va his qilish;

– kasb san’atiga doir bilimlar, badiiy, ilmiy asarlarni o‘rganish va ulardan bahra olish;

– izlanuvchanlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirish;

– kasb san’atiga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish;

– ijodkorlik va dunyoqarashni shakllantirish kabilardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. 2017-yil 22-dekabrdagi Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. https://www.xabar.uz/siyosat/prezident-shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlisga-murojaatnomasi.

2. Mirziyoyev Shavkat “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” kitobining 4-bobi “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”.

3. Toxiriyon A. Milliy-ma’naviy merosning yoshlar tarixiy ongini shakllantirishdagi ahamiyati. Zamonaviy ta’lim jurnali 2014/3.

ZJV5401

YOSHLARDA HAYOTIY MAQSADLARNI SHAKLLANTIRISH MASALASINING MA'NAVIY TARBIYA JARAYONIDAGI O'RNI

Karimov Sanjar Sindorqulovich,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlarda masofaviy ta'lim kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarning hayotiy maqsadlari va ularning shakllanish masalasining ma'naviy tarbiya jarayonidagi ahamoyati nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: maqsad, hayotiy maqsad, o'smirlik, yoshlar, shaxs, faollik, ijtimoiylashish, , globallashuv, mafkuraviy hurujlar.

Jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida "Yangi O'zbekiston" shiori ostida amalga oshirilayotgan islohatlar va yangilanishlar o'z o'rnida ta'lim-tarbiya sohalarida ham keng ko'lamli vazifalarni yuzaga chiqarmoqda. Ayniqsa, yosh avlodni zamon talablari va ruhiga mos barkamol shaxs qilib voyaga etkazishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

Ma'lumki, yoshlarning ijtimoiy qiyofasi juda ko'p omillar asosida takomiliga etadi. Bu omilar ichida ayniqsa yoshlarning hayotiy maqsadlari yo'naltiruvchi omil sifatida alohida ahamiyatga egadir. Negaki, inson faoliyatini hayotiy maqsadsiz tasavvur etish qiyin. Shu nuqtayi nazardan olib olib qaralganda, aholisining yarmidan ko'prog'i yoshlardan iborat [1.89] bo'lgan mamlakatimizda yoshlarni mustahkam hayotiy pozitsiya va hayotiy maqsadlarga ega faol shaxs qilib tarbiyalash ilm-ma'rifat sohalarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida yoshlarning hayotiy maqsadlari va faoliyatining umummilliy manfaatlar va jamiyatning maqsadlariga nechog'lik hamohang shakllanishi ijtimoiy taraqqiyotning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Yoshlar shaxs sifatida ijtimoiylashar ekan, o‘z hayotini ma’lum bir maqsad va mo‘ljal asosida tashkil qiladi, va faoliyat yuritadi. Yoshlarning jamiyatdagi o‘rni, mavqeyi va faolligining asosiy dedirminanti va yo‘naltiruvchi omili sifatida hayotiy maqsad tushunchasini o‘rganish shu jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarda hayotiy maqsad shakllantirishning falsafiy jihatlarini o‘rganish bo‘yicha fundamental tadqiqotlar amalga oshirilmaganligi mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borish zaruriyatini vujutga keltiradi va shu orqali yoshlarda hayotiy maqsadlarni tarbiyalashning zamonaviy uslublarini yaratish asnosida yoshlarning shahs sifatida shakllanishi va ijtimoiylashuvi jarayonlarini oqilona boshqarish imkonini beradi.

Umuman olganda, “hayotiy maqsad” kategoriyasi, uning strukturasi, yoshlarda hayotiy maqsadning shakllanish jarayoni, bunga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar va shart-sharoitlar masalasini o‘rganish quyidagi jihatlarga ko‘ra muhim hisoblanadi:

birinchidan, jamiyatimizda yuz berayotgan yangilanishlarga mos ravishda ilm-ma’rifat va g‘oyaviy sohada keng kulamli vazifalar yuzaga chiqmoqda. Ayniqsa, yosh avlodni yangi zamon talablariga mos fikrlaydigan, o‘zining aniq hayotiy pozitsiyasi va maqsadlariga ega kadrlar sifatida tarbiyalashga bo‘lgan ehtiyojning ortishi;

ikkinchidan, hayotiy maqsad tushunchasi, uning shaxs barkamolligi va faolligiga ta’siri masalalari falsafiy jihattan yaxlit o‘rganilmaganligi sababli, shaxs kamolotida hayotiy maqsadning o‘rnini asoslash va ushbu masaladagi yangi tadqiqotlar natejalarini yoshlar ijtimoiy qiyofasini shakllantirishga yo‘naltirish orqali bugungi kunning dolzarb tarbiyaviy vazifalarini hal qilishga yo‘naltirish zarurati;

uchunchidan, mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va mamlakatni modernizatsiyalash jarayonida islohotlar muvaffaqiyati bevosita alohida shaxsning hayotiy maqsadlarining umummilliy manfaatlar va jamiyatning maqsadlariga nechog‘lik hamohang shakllanishi bilan bog‘liq ekanligi;

to‘rtinchidan, shaxs ijtimoiylashuvi va ijtimoiy faollik jarayonida hayotiy maqsadning o‘rni, shuningdek, yoshlarda hayotiy maqsad shakllantirishning falsafiy jihatlarini o‘rganish bo‘yicha fundamental tadqiqotlar amalga oshirilmaganligi mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borish va hayotiy maqsadni tarbiyalash zamonaviy uslublarini yaratishni taqozo etmoqda.

“Hayotiy maqsad” tushunchasi hozirgi kunning ilmiy kontekstida keng qo‘llanuvchi tushunchalar qatorida bo‘lmasa ham, shaxs va jamiyat aloqalarini o‘rganuvchi ko‘plab ijtimoiy gumanitar fanlar sohasidagi tadqiqotlarda ushbu tushunchaga nisbatan o‘ziga hos yondashuvlarni topish mumkin. Quyida ularning ba’zilari bilan tanishamiz.

“Hayotiy maqsad inson o‘z hayotida ro‘y berishini hohlaydigan eng asosiy natijalar yoki voqealarni o‘z mazmuniga birlashtirgan va insonning mavjudligini asoslaydigan g‘oyani o‘z ichiga oladi [2,317]”. Ushbu yondashuvda shaxsning asosiy manfaatlarini aks ettiradigan keng ko‘lamli maqsadlarga hayotiy maqsadlar sifatida keltiriladi. Qisqa muddatli, oson erishiladigan maqsadlardan farqli o‘laroq, insonning hayotiy maqsadlari uzoq muddatli maqsadlardir. Ular insonning “hayot yo‘nalishini strategik rejalashtirish jarayonida shakllanadigan va ularni amalga oshirish bir necha o‘n yillar davom etishi ham mumkin”[3,336], albatta. Insonning faoliyati alohida mazmunli turli tuman operatsiyalar, harakatlar va urinishlarning yig‘indisi bo‘lgani kabi, hayotiy maqsadlar ham - o‘tkinchi va oraliq maqsadlar zanjirini to‘ldiradigan insonning eng umumiy, yakuniy maqsadlaridir. Aynan hayotiy maqsadlar shaxsni faoliyatga undovchi sabab hisoblanadi [4,65].

Hayotiy maqsadlar jamiyatdagi qadriyatlar va axloqiy ideallar kabi inson faoliyatining eng umumiy va yo‘naltiruvchi omillar qatorida shaxsning uzoq muddatli hayot dasturi sifatida shaxsning harakat qilish iqtidorini namoyon etuvchi omil [5,43] sifatida ko‘rib chiqiladi.

Bir qator tadqiqotlarda “hayotiy maqsadlar shaxsning uzoq muddatli o‘zini o‘zi dasturlashning tartibga soluvchi ro-

lini bajaradigan shaxsning motivatsion-maqsadli sohasining eng yuqori substruktsiyasi"[6] sifatida belgilangan.

Yuqorida hayotiy maqsadlarning muhim belgilari bo'yicha keltirilgan pozitsiyalarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

birinchidan, ular umumlashtiruvchi, pirovard, tub, uzoq muddatli, maqsadlardir;

ikkinchidan, ular mutlaq mazmun kasb etib, insonda undanda asosiyroq maqsad bo'lishi mumkin emas;

uchinchidan, ular qisqa va oraliq maqsadlarni amalga oshirish bilan bog'liq ketma-ket vazifalarning natijasi bo'lgan yakuniy maqsadni ifodalaydi;

to'rtinchidan, inson hayotidagi ko'plab qisqa, o'tkinchi va shaxsiy maqsadlarga ma'no va mazmun baxsh etadi.

Demak, hayotiy maqsad - inson o'z hayoti davomida amalga oshirishga intiladigan eng asosiy natejalarni birlashtiruvchi, inson faoliyatining yo'nalishi, mazmuni va uzoq muddatli mo'ljallarini belgilab beruvchi eng asosiy, tub, pirovard maqsaddir. Demak, shaxs faoliyatining eng uzoq muddatli muljallarini ifodalaydigan, hayotining mazmunini tashkil etadigan eng birinchi darajali maqsadlar hayotiy maqsadlar deyiladi.

Hayotiy maqsad-inson o'z hayoti davomida amalga oshirishga intiladigan eng asosiy maqsad ekan, inson faoliyati yo'nalishini belgilab beruvchi, uning hatti-harakatlari va intilishlarini yo'naltiruvchi, kelajagi va yuksalishini belgilovchi ma'naviy omildir.

Har bir shaxsda hayotiy maqsad turli ko'rinishda bo'ladi. U makon va zamonga bog'liq holda o'zgarib, takomillashib borishi mumkin. Eng muhimi, hayotiy maqsadning darajasi insonning ma'naviy saviyasini ham belgilaydi. Shaxs ma'naviy kamolotida hayotiy maqsadning o'rni ham aslida ana shu ichki bog'liklikdan kelib chiqadi.

Hayotiy maqsadlar shaxs faoliyatining regulyatori va detirminanti sifatida uning butun umri davomida ahamiyatli bo'lsada, ayniqsa yoshlik davri uchun alohida ahamiyatli hisoblanadi. Shaxs hayotining turli yosh bosqichlarida uni faoliyatni yo'naltiruvchi regulyatorlarning u yoki bu qismi ustu-

vorlik kasb etadi va shu yosh davri uchun o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Hususan, yuqori o‘spirinlik yoshidan boshlab, hayotiy maqsadlar shaxsning yo‘nalishini tavsiflovchi asosiy komponentga aylanadi va ustuvorlik kasb eta boshlaydi.

Boshqacha aytganda, o‘smirlik davrida hayot maqsadlari alohida ahamiyatga ega bo‘ladi, bunda inson o‘zining kasbiy rivojlanish yo‘nalishini belgilab, shaxsiy hayotini tartibga soladi.

Hulosa sifatida aytish mumkinki, har bir individ shaxs sifatida o‘z hayotini ma’lum bir maqsad va mo‘ljal asosida tashkil qilishi bilan ijtimoiylashadi. Maqsad va hayotiy mo‘ljalni amalga oshirish uchun kerakli vosita, tamoyil, usullar tanlanadi va bularning to‘g‘riligi va maqsadga muvofiqligi borasida o‘zicha ishonch hosil qilib boriladi. Shaxsning bunday hayotiy mo‘jal asosida ijtimoiy faoliyatga kirishishi uning jamiyatdagi ijtimoiy roli va u orqali ijtimoiy o‘rnini belgilab beradi. Zero, shaxs faoliyati uning hayotiy maqsadlari in’ikosidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev. Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent. “O‘zbekiston”. 2017.– 596 b.

2.Психология. Учебник для гуманитарных вузов / Под. Общ. Ред. Дружинина Г.В. Спб.: Питер, 2002. - 347 с

3.Гиппенрейтер Ю.Б. Введение в общую психологию. Курс лекций. М., 1996.-336 с

4. Сохан Л.В. Жизненный пут личности: - Киев: Наук, думка, 1987. – 277 с

5.Казакина М.Г. Сенностные ориентатсии школников и их формирование в коллективе: Учеб. пособие к спескурсу. - Л.: ЛГПИ, 1989. - 83 с.

6. Мартынюк И.О. Гуманизм жизненных селей сотсиалистической личности. – Автореф. дисс. канд. философ, наук 09.00.02 Киев, 1985. - 15 с.

MA’NAVIY TARBIYA SAMARADORLIGINI TA’MINLASHNING AYRIM JIHATLARI

Shermuhamedova Jamila Toshpo‘latovna, falsafa fanlari nomzodi, Respublika Manaviyat va marifat markazi “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati a’zosi

Mamlakatimizda Vataniga, xalqiga fidokor, mustaqil fikrlaydigan, masalalarni ongli ravishda mas’uliyat bilan hal qila oladigan, izlanuvchan, yangilikka intiluvchi sadoqatli avlodni voyaga yetkazishda qaratilgan qator tadbirlar tizimi ishlab chiqilgan. Islohotlarning taqdiri va samarasi uchun javobgar, yurtimizning ertangi kuni va istiqboli uchun fidoiy shaxslarni shakllantirish borasida ustuvor davlat siyosati yuritilmoqda. Ta’kidlash joizki, ushbu maqsadlarni amalga oshirish, Yangi O‘zbekiston sharoitida barkamol avlodni tarbiyalash, islohotlarda daxldorlik hissini kuchaytirishda ma’naviyat targ‘ibotchilarining roli beqiyosdir.

Ma’naviy tadbirlarni o‘tkazishdan asosiy maqsad, yoshlarni yuksak ma’naviy inson qilib tarbiyalashdan iborat bo‘lmog‘i lozim. Quyidagi tamoyillarni o‘zida mujassamlashtira olgan talabagina yuksak ma’naviy inson hisoblanadi: madaniy-ma’rifiy yuksaklik; iymon-e’tiqodning butligi; milliy axloq-odob normalariga to‘la rioya qilish; ilm-ma’rifatli bo‘lish; insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik; milliy qadriyatlarga muhabbat; fidoiylik, mardlik, jasurlik, tashabbuskorlik; poklanish; islom diniga e’tiqodlilik; vatan va xalq mustaqilligini doimiy ravishda himoya qilish va unga xizmat etish; ajdodlar va ularning merosiga chuqur hurmat va shu kabilar.

Ma’naviyat targ‘ibotchilariga qo‘yiladigan talablar quyidagilar: ma’naviy-ma’rifiy tarbiya ishlarini tashkil etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishi; o‘qitish jarayoni va tarbiyaning barkamol shaxs-

ni shakllantirishga yo‘naltirilganligini; ta’lim oluvchilarni huquqiy tarbiyalash va huquqbuzarlikni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar tashkil qila bilishni; ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mohiyatini bilishni; talabalar psixologiyasini bilishni; asosiy tushunchalar, qonunlar va modellar, ta’lim oluvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash usullari va vositalarini; ijtimoiy-gumanitar fanlar o‘rtasidagi aloqadorlik va hamkorlikni amalga oshirishni; o‘qitiladigan fanning mutaxassis shaxsini shakllantirishdagi umuminsoniy jihatlarini; talabalarni ma’naviy, axloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashda ta’lim muassasalari, jamoat tashkilotlarining burchlarini belgilab beruvchi me’yoriy hujjatlar bilan ishlashni; talabalarni tarbiyalash jarayonida psixologiya asoslarini bilishi va qo‘llay olishni; umuminsoniy qadriyatlar ustivorligi asosida ta’lim oluvchilarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishni; talabalarda vatanparvarlik, milliy g‘urur va o‘z-o‘zini anglash, o‘z xalqining va boshqa xalqlarning tarixiga, madaniyatiga va an’analariga hurmat, bilim va haqiqatga intilish, mehnatsevarlik, tadbirkorlik va qonunga bo‘ysunish hissiyotlarini shakllantirishni; ta’lim oluvchilarni estetik rivojlantirish, ularni ajdodlarimizning va jahon sivilizatsiyasining boy merosi bilan tanishtirishni; kelajagi buyuk davlatni qurishga yo‘naltirilgan fuqaroviy va ijodiy faollikni shakllantirishni; so‘zlash madaniyatini; ta’lim oluvchilarning ota-onalari bilan ishlash bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lishi shart.

Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning samaradorligini oshirishda ma’naviyat targ‘ibotchilari amal qilishi lozim bo‘lgan talablar mavjud. Ushbu talablarga rioya qilinsa, tadbir samaradorligi oshadi, ishtirokchilar tadbirdan mamnun bo‘ladi.

Ma’ruzachi mavzuda ko‘tarilgan muammoning kelib chiqish sabablari, uning bugungi holati haqida to‘liq tasavvur va tushunchaga ega bo‘lishi, mavzuni yoritishda mavjud faktlarni kerakli yo‘nalishda talqin eta olishi, iloji boricha auditoriya tushunmaydigan, umumiy, mavhum noaniq gaplardan qochishi kerak. Mavzu yuzasidan mavjud faktlarni tahlil qilishda davriylikka amal qilishi, agar auditoriya tushunmaydigan

ilmiy ifoda yo atama ishlatiladigan bo‘lsa, uni sharhlab, izohlab berishi kerak.

Tadbirni o‘tkazishdan oldin unga zarurat, ehtiyojning asoslanishi. Tadbir o‘tkazilishidan oldin tadbirni o‘tkazish zaruratini aniqlash lozim. Bu zarurat dunyoda ro‘y bergan ijtimoiy-siyosiy voqea yoki mamlakat miqyosidagi keng qamrovli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, yangi qonun va qarorlar, islohotlarning mazmun-mohiyati, odamlarni o‘ylantirayotgan dolzarb ijtimoiy muammolar bo‘yicha aholining ishonchli manbalardan aniq va atroflicha axborot hamda ma’lumotlar olishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Tadbirlar zaruratga qarab ro‘y bergan yoki ro‘y berishi kutilayotgan voqea va hodisaning g‘oyaviy jihatdan turlicha talqin etilishi, ular bo‘yicha ortiqcha mish-mishlar tarqalishining oldini olishni ko‘zlagan bo‘lishi kerak.

Qatnashchilar tarkibi to‘g‘risida oldindan ma’lumot olish targ‘ibotchiga tadbirda ko‘rilayotgan masala mohiyatini tushuntirishda mo‘ljal va yo‘nalishni to‘g‘ri belgilashga yordam beradi.

Tadbirning nomi to‘g‘ri tanlanishi eng asosiy talablardan hisoblanadi.

Tadbir belgilashda, avvalo, qatnashchilarning yoshi, kasbi, manfaatlariga mos, qiziqarli, ma’naviy-mafkuraviy, tarbiyaviy ruhdagi dolzarb masalani tanlab, uni sodda, aniq jalb qiladigan tarzda nomlash kerak.

Har bir tadbirga mavzu tanlaganda, albatta, qatnashchilarning yoshi, guruhi, kursi, ma’lumoti va manfaatlari e’tiborga olinadi. Tadbirni nomlashda o‘ta ilmiylik va rasmiylikdan, uzun jumlalar tuzishdan qochish kerak. Mavzu tanlashda ko‘proq kundalik hayotimizda ishlatiladigan so‘zlardan foydalanilsa, yaxshi samara beradi. Tadbir qatnashchilari har kuni ko‘radigan hayotiy misollar tanlanganda tadbir samaradorligi ortadi.

Tadbirning nomi kishilarni qiziqtiradigan, ruhlantiradigan bo‘lishi kerak. Mavzuni eshitgan, o‘qigan kishi tadbirda nimalar to‘g‘risida mulohazalar bildirilishi kerakligini anglashi va

unda bevosita daxldorlik hissi uyg‘onishi kerak. Shuning uchun tadbir haqidagi e’londa muhim fikrlardan ishtirokchilarni xabardor qilish zarur.

Tadbirning maqsadi, qatnashchilar bilishi zarur bo‘lgan asosiy fikrlar tezis shaklida aniq yozilishi kerak.

Tadbirda targ‘ibotchining oldiga qatnashchilarda yangi bilim va aniq tasavvurlarni paydo qilish, ularning dunyoqarashini kengaytirish, ogohlik va hushyorlik tuyg‘usini oshirish vazifasi qo‘yiladi. Tadbir davomida ma’ruzachi tomonidan izohlangan voqea-hodisa, yangilik yoki dolzarb muammoning o‘zlashtirilishi har bir ishtirokchida ichki safarbarlik, qat’iyat, mamlakatimizda bo‘layotgan o‘zgarish va islohotlarga ishonch, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini uyg‘otishi asosiy maqsad hisoblanadi. Shuning uchun tadbirda olg‘a suriladigan asosiy g‘oyalar oddiy dialog va muloqot, savol-javob shaklida rejalashtirilib, shu asosda suhbat olib borilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu yoshlarning tadbirga tayyorlanib kelishi, unda oddiy kuzatuvchi va tinglovchi bo‘lib emas, jonli muloqot ishtirokchisi sifatida faol ishtirok etishi muloqotning saviyasi yuqori bo‘lishiga xizmat qiladi.

Qatnashuvchi talabalarni toliqtirmaslik va zeriktirmaslik, ularning diqqatini doimiy jalb qilib, faollashtirib turish uchun hayotiy misollardan ko‘proq foydalanish kerak. Talabalarni qatorlarga, guruhlarga bo‘lib, ularga savol yoki qiziqarli topshiriqlar berish usulidan ham foydalanish mumkin.

Psixologlarning ma’lumotlariga qaraganda, qatnashchilarning diqqatini dastlabki olti daqiqa davomidagina jamlab tura olish mumkin. Bu vaqtdan keyin ularda dastlabki paytdagi e’tibor tarqala boshlaydi. Shuning uchun dastlabki olti daqiqa mobaynida qatnashchilar bilan faol muloqot o‘rnatishga erishish kerak. Ularning diqqatini jamlab tura olish uchun targ‘ibotchi ritorikaning qonuniyatlaridan, notiqlik mahorati sirlaridan xabardor bo‘lishi maqsadga muvofiq. Misollar keltirish uchun auditoriyaga murojaat qilish, kutilmagan savollar tashlash ham qatnashchilarning diqqatini jamlashga hissa qo‘shadi.

Shuningdek, faol ishtirokchilarni rag‘batlantirish uchun mukofot tashkil etish yaxshi samara beradi. Bunda qatnashchilarga ijobiy ma’nodagi bahslashish, musobaqalashish ruhi paydo bo‘ladi va bu tadbir samaradorligini oshiradi. Tinglovchilarda keyingi tadbirlarda ishtirok etish ishtiyoqini uyg‘otadi.

Notiq targ‘ibotchi va tashkilotchilar bilan qatnashchilar o‘rtasida muloqot va o‘zaro murojaat uchun qulay, samimiy muhit yaratishni ta’minlashi kerak. Qatnashuvchi talabalarning tadbir mavzusi va mundarijasini oldindan bilishi muloqotga alohida jonli ruh bag‘ishlaydi.

Auditoriya bilan targ‘ibotchi o‘rtasida samimiy munosabat o‘rnatilishi kerak. Tadbirga kelgan har bir qatnashuvchi o‘zining ham tinglanishini xohlaydi. Shuning uchun tadbir qatnashchilariga o‘z fikrlarini erkin bildirish imkonini berish kerak. Targ‘ibotchi har bir talaba tomonidan bildirilgan fikrni tadbir mavzusi va maqsadiga yo‘naltira olishi kerak. Aynan shu masalada notiqdan e’tiborlilik, ziyraklik hamda mavzuni chuqur o‘zlashtirish talab qilinadi. Auditoriya bilan muloqot o‘rnatish uchun rasmiyatchilikdan voz kechish, jonli muloqot usulini tanlash kerak. Agarda tadbir davomida quruq ma’ruza va rasmiyatchilikka berilib ketilsa, ishtirokchilarda mavzuga nisbatan befarqlik paydo bo‘lishi mumkin. Bunday holatlarning oldini olish uchun ma’ruzachi tadbirni samimiy, auditoriyaning ruhiyatini tushungan holda jonli muloqot shaklida olib borishi lozim.

Tadbirda mo‘ljallangan joy mavzuga mos jihozlansa, tadbirning samaradorligi oshadi. Jihozlashda milliylik va zamonaviylikka e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Tadbir samaradorligini oshiradigan eng asosiy jihatlardan biri ko‘rgazmali vositalardan unumli foydalanish hisoblanadi. Bugungi kunda kompyuter texnologiyalarini keng qo‘llash, tadbir boshlanishidan oldin ko‘tarilayotgan masala bilan bog‘liq shiorlar, tasviriy san’at namunalari, hikmatli so‘zlar, diagramma, xarita va rasmlar, slaydlarni unumli ishga solish kerak. Ana shunda tadbir samaradorligi ortadi.

Shu o‘rinda o‘rnak va namuna ko‘rsatish tamoyili muhimligini yodda tutish lozim. Talabalar odatda, ta’sirchan va taqlidchan bo‘ladilar. Ko‘rgan narsasini qiladilar, eshitgan so‘zlarini takrorlaydilar. Biroq, o‘sha ko‘rgan narsa va eshitgan so‘zlarining mohiyati bilan qiziqmaydilar. Ular ko‘proq ko‘rgan salbiy narsalariga o‘ch bo‘lishadi. Shuning uchun ma’naviyat targ‘ibotchilari va butun jamoa a’zolari ular oldida o‘ta ehtiyot bo‘lishlari shart.

Darhaqiqat, sharqona axloq, odob, vatanparvarlik, insonparvarlik, haqparvarlik, rostgo‘ylik, diyonat har tomonlama barkamol insonning ma’naviy qiyofasidir.

Inson, asosan, ikki yo‘l bilan tarbiyalanishi mumkin: ”...birovlarning bevosita ta’siri, ya’ni o‘rgatishi, shuningdek, donolar fikrlari, o‘gitlari va asarlarini o‘qish orqali, inson o‘zining fikrlashi, odamlar xatti-harakatidan, qilgan va qilayotgan ishlaridan tegishli xulosalar chiqarib olishi; eng qudratlisi – tafakkuri vositasida tarbiyalanishi mumkin”, - degan edi tarbiyashunos olim Safo Ochil. Komil insonni tarbiyalovchi omillarning ikkinchi bo‘g‘ini, inson qalbiga yo‘l hisoblanadi.

Shuning uchun yangilanayotgan jamiyatimizda sog‘lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma’naviyatini shakllantirish – ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yuksak darajaga ko‘tarish orqali amalga oshiriladi.

ZJV5401

MA'NAVIY TARBIYA OMILLARINI YUKSALTIRISHDA IMOM ABU MANSUR MOTURIDIY FALSAFIY MEROSINI O'RGANISHNING AHAMIYATI

Adashova Maxsuma Maxmudboyevna,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi
tayanch doktoranti

ZJV5401

Annotatsiya: Mazkur maqolada IX asrda Movarounnahr diyorida kalom ilmining yetuk mutakallimi bo'lgan Imom Abu Mansur Moturidiy falsafiy merosining shaxs ma'naviy tarbiyasini yuksaltirishdagi o'rni va ahamiyati yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: Imom Abu Mansur Moturidiy, ma'naviyat, ma'naviy tarbiya, aql, naql, ihtiyor erkinligi, shaxs etikasi, ruhiy poklanish.

Ma'naviy tarbiya – inson ruhiy olamining ajralmas qismi bo'lib, odamning shaxs sifatida kamol topishi hamda o'z-o'zini anglash jarayonida muhim xususiyatga ega bo'lgan axloqiy kategoriya hisoblanadi. Ma'naviy tarbiya uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, mazkur holat inson qalbida iymon, e'tiqod, mehr-muhabbat, mas'uliyat kabi tuyg'ularni shakllantirishda boshlang'ich axloqiy ta'sir ko'rsatish vositasi hisoblanadi. Tarbiya tushunchasi aslida ma'naviyat sohasiga tegishli atama bo'lgani sababli biz bu o'rinda asosan shaxs ma'naviyati masalasiga e'tibor qaratamiz. Shaxs ma'naviyati – insonning ruhiy va aqliy olami yig'indisidir. "Ma'naviyat-jamiyatning, millatning yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha"[1;111.]. "Ma'naviyat – insonlarning o'zaro munosabatlari, ularning hayotiy tajribalari davomida shakllangan va rivojlangan qadriyatlar tizimi. Inson ma'naviyatini o'zini shaxs sifatida anglagandan boshlab, umrining oxirigacha

shakllantiradi va rivojlantirib boradi. Insonning o‘z ma’naviyatini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoji cheksizdir. U insonning butun ongli faoliyati davomida shakllanadi, rivojlanadi”[2;255.]. Bugungi kunda ma’naviyat tushunchasiga dunyo olimlari tomonidan ko‘plab ta’riflar berilgan bo‘lib, ularning har birida shaxsning ruhiy jarayonini turlicha aks ettirish xolatlari uchraydi. Avvalo, aytishimiz lozimki, ma’naviyat – bu ruh tarbiyasi. Ma’naviyat – aql va qalb uyg‘unligi asosida insonni yomonlikdan yaxshilikni, yovuzlikdan ezgulikni ajratib olishga o‘rgatadigan hamda ruhni tarbiyalaydigan mezon. Ma’naviyat dastlab inson ruhida paydo bo‘lib, uning aql charxida sayqallanadi. Ma’naviyatning moddiylikka ta’siri insonning harakatlarida, tuyg‘ularida va hayotiy pozitsiyasida namoyon bo‘ladi. Ma’naviyat tushunchasi O‘zbekistonlik faylasuflardan M.Imomnazarov, X.Do‘stmuhammad, A.Erkayev, A.Ziyo, S.Mirvaliyev va boshqa olimlar tomonidan keng doirada o‘rganilgan bo‘lib, masalan, M.Imomnazarov ma’naviyat tushunchasiga quyidagicha ta’rif bergan: “Ma’naviyat inson qalbida aks etgan ilohiy nur. Oliy haqiqat nuridir. Shu sababli inson ko‘nglini “haqiqat asrorining ganjinasi” demishdirlar. Faqat inson qalbi o‘zida haqiqat nurini aks ettira olishi uchun unga sayqal bermoq zarur. Zero, sayqallanmagan ko‘ngilni xudbinlik zangi, g‘araz chirki egallab oladi va bunday inson ruhiyatida jaholat va zulmat ustunlik qila boshlaydi”[3;14]. “Inson o‘z ongi va tasavvurini kamolga yetkazgan sari, tabiat va jamiyat sir-asrorlarini tobora ko‘proq anglab yetgani sari qalbini, vujudini, ruhini va ongini takomil etib boradi. Ana shu tariqa olami jismoniy bilan olami ruhoniy o‘rtasida mushtaraklik, uyg‘unlik vujudga keladi. Chunki, barcha yomon narsalar bu uyg‘unlikning, odam fe’lining buzulishidan, dilning noo‘rin hahashalaridan, aqlning o‘smay qolishidan hosil bo‘ladi”[4;19.]. Demak, bu ta’rifdan tushunishimiz mumkinki, ma’naviyat tushunchasida ham ilohiylik ham insoniylik mujassam ekan, bu uyg‘unlikning pirovardida shaxs kamoloti yuzaga chiqadi. Shaxs ma’naviyatini shakllantirishning birin-

chi bosqichida insonni o‘zini o‘ziga tanitish jarayoni vujudga keladi. Ya’ni, u kim, nima maqsadda yaratildi, nima uchun aynan shu zamon va shu makonda paydo bo‘ldi, uning asosiy vazifalari nimalardan iborat kabi tushunchalar asta sekinlik bilan shakllanishdan rivojlanish bosqichi tomonga o‘zgarib boradi. Ma’naviyat uzluksiz harakatda kechadigan jarayon bo‘lib, uning samarasi yuksak bilim va axloqda namoyon bo‘ladi. Ma’naviyat – inson botinida ruhiy poklanish tomon qo‘yilgan birinchi qadam hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilar ma’naviyat bu Yaratuvchi ruhidan yaratilganlar uchun in’om qilingan ne’mat sifatida talqin qilinadi. Gegel va Berdyaev Yaratuvchini “Ruh” deb ataydi. Yaratuvchi insonning ichida ham emas, lekin undan tashqarida ham emas. M.Xaydegger uni ”hamma joyda mavjud “noborliqdir” deydi”[5;394.]. Ruh – mukammallik, yetuklik, butunlik va komillik ramzi hisoblanadi. Inson o‘zini ma’lum ma’noda chegaralanganligini ham aqlan ham ruhan anglay oladi. To‘g‘ri, insonning tafakkur tarzida buyuk yuksalishlar vaqti-vaqti bilan sodir bo‘lib turadi, ammo u ham muayyan chegarada o‘z nihoyasini topadi. Borliqdagi barcha narsalar inson uchun muvaqqat qilib yaratilgan. Shuning uchun ham inson muvaqqatlikdan abadiylik tomon intiladi. Bu esa ruhiy poklanish tomon harakatlanishda namoyon bo‘ladi. Inson borliqdagi nomukammalliklardan, tengsizlik va zo‘ravonlikdan, hasad va g‘azabdan, shumlik va ig‘vodan bezib, uning qalbi sokinlik, musaffolik, ezgulik va go‘zallik tomon odimlaydi. Bu uning ruhida kechayotgan ma’naviy poklanishda aks etadi. Natijada, Yaratuvchiga talpinish ma’naviy-ruhiy ehtiyojga aylanadi. Shu bois ham insoniylik va ilohiylik dealektik bog‘langan ma’naviy hodisa sanaladi. Mazkur jarayonni IX asrning buyuk mutakallimi Imom Abu Mansur Moturidiy o‘zining “Ta’vilot al – Qur’on” va “Kitob at-Tavhid” kabi falsafiy asarlarida ma’naviylik va moddiylik, insoniylik va ilohiylik bilan bog‘liq tushunchalarni bir-biriga bog‘liq hodisalar sifatida tahlil etadi. Imom Moturidiy o‘z asarlari orqali insoniyat yaratilishining falsafiy mohiyati, tav-

hid ilmi, borliqning insonga ta’siri, ruhiyat ilmi, inson kuch-qudratining ma’lum chegarasi, iroda erkinligi, dunyo va oxiratni anglash kabi masalalar to‘g‘risida Qur’oni karim oyatlariga asoslanib, ko‘plab ma’lumotlar taqdim etgan. Imom Abu Mansur Moturidiy shaxs ma’naviyati va unga ta’sir etuvchi omillar hamda ularning diniy-falsafiy jihatlarini bir qancha yo‘nalishlarga bo‘lib o‘rganadi. Masalan, Imom Moturidiy ijodida shaxs etikasi tahlili o‘ziga xos ko‘rinishda tavsiflangan. Imom Moturidiyning qarashlariga ko‘ra, “Narsalarning go‘zalligi yoki xunukligini shuningdek, foydali yoki zarar ekanligini umuman olganda, aql tamoyillari bilan tushunish mumkin. Biroq, aql birinchi urinishdayoq ularning barcha jihatlari va tafsilotlarini aniq va xolis baholay olmaydi. Buning uchun aqldan chuqur izlanish va mantiqiy tafakkur yuritish talab etiladi”[6;888.]. Shariatning bu boradagi bayonoti esa ta’kid va tasdiqdir. Shariat ham biror narsani yaxshiligi uchun buyurib, yomon va zararli bo‘lgani uchun uni harom qiladi. Din bu borada aql bilan birlashgan. Qolaversa, ma’naviy tuyg‘u insonga xos bo‘lib, u tabiatan axloqiy mavjudotdir. Ba’zi narsalarning go‘zalligi va ba’zi narsalarning xunukligi tabiatan aqlda aniq namoyon bo‘lganligi sababli, aql ularni idrok etadi, tahlil qiladi, muayyan harakatga undaydi yoki qaytaradi. Masalan, mavjud ne’matlarga shukr qilishning haqiqati, adolatning go‘zalligi, noshukurlikning xunukligi, zulm va yolg‘onning chirkin illat ekanligi va xokazo. Faqat aql oxiratda mukofot yoki jazolanadigan halol yoki harom amal qilish huquqiga ega emas, bu hokimiyat Allohnikidir. Demak, aql ilmi oxirat uchun jazo va ajr miqdorini belgilay olmaydi. Din esa amr qilinganlarni bajarganlarga ajr va’da qilgan, man etilganlarni esa jazo bilan tahdid qilgan. Imom Moturidiyning odob-axloq tushunchasida yana bir ta’kidlash lozim bo‘lgan jihat shundaki, u amaldan ko‘ra g‘oya, e’tiqod va to‘g‘ri bilimni birinchi o‘ringa qo‘yib, amalni taqliddan ko‘ra sog‘lom bilimga yo‘naltirib asoslaydi. Imom Moturidiyning fikricha, Allohni tanish va uning go‘zal sifatlarini bilish har bir inson

ZJV5401

uchun axloqiy farzdir. Chunki borliqni va uning yaratuvchisi haqidagi bilimlarni anglashning yagona yo‘li aqldir. Imom Abu Mansur Moturidiy o‘z asarlarida odamlarni o‘z imkoniyatlariga javobgar qilish kabi masala borasida ham ko‘plab fikrlar bildirgan. Xususan, allomaning fikr-mulohazalariga ko‘ra, dinda odamlar hech qachon qodir bo‘lmagan xatti-harakat uchun javobgar bo‘lmaydilar, ya’ni toqatidan ortig‘iga buyurilmaydilar. Islom dinida har qanday xatti-harakat uchun javobgar bo‘lishning asosiy sharti shundaki, buyurilgan yoki ta’qiqlangan narsa inson qila oladigan darajada bo‘lishi kerak. Shunga ko‘ra, yuklatiladigan vazifalar odamlarning imkoniyati sig‘dira oladigan va imkoniyati yetmaydigan xatti-harakatlar majmuiga bo‘linadi. Insonni o‘zi bajara olmaydigan ibodat yoki muayyan majburiyatga yo‘llash va natijada ular tomonidan xatti-harakatning lozim darajada bajarilmasligi hamda harakat suyektlarining qo‘lidan kelmaydigan ishlar uchun og‘irroq jazolash dinning mas’uliyat mantig‘iga mutlaqo ziddir. Alloh taolo insonlarga aql bilan yoki vahiy orqali nimani buyurgan bo‘lsa, ularni tushunish uchun imkoniyat eshiklarini ochib qo‘ygan. Imom Moturidiy ham o‘zidan avvalgi ulamolar singari ruh tarbiyasini shakllantirida ilmning o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidlagan. Ilm-ma’rifat ma’naviy barkamollikka yetaklovchi yo‘ldir. Mutakallim qarashlariga ko‘ra, ilmli bo‘lish tabiiy hislat emas. Ya’ni hech kim ona qornidan olim bo‘lib tug‘ilmaydi. Bu uzliksiz harakat va sabrni, riyozat chekishni taqozo etadi. “Imom Moturidiyning buyukliklari, siyratlarini anglashdagi eng katta manba – u kishining asarlaridir. Bu zotning ixlosu taqvolari, parhezkorliklari, sog‘lom aql va e’tiqoddagi darajalari, aqliy yetukliklari, fikriy ilg‘orliklarini u kishining asarlarini o‘rgangan odam darhol fahmlab oladi” [7;1]. Barcha davrlarda ham din insonlarni ma’naviy birlashuvini, maqsad-muddaolari mushtarakligini, orzu-umidlar yakdilligini ta’minlab beruvchi ruhiy vosita hisoblangan. Mana shu vosita davrlar o‘tsada, qanchadan-qancha siyosiy to‘qnashuvlar bo‘lsada, o‘zining ruhiy ta’sir etish

kuchini yo‘qotmagan. «Abu Mansur Moturidiy nafaqat qardosh o‘zbek xalqining, balki ummat rivojiga, muqaddas islomning gumanistik va ratsional asoslarini mustahkamlashga salmoqli hissa qo‘shgan barcha turkiy xalqlarning faxridir»[8;1.]. Darhaqiqat, buyuk allomaning falsafiy merosi, butun ilmiy faoliyati va mehnatlarining samarasi bugungi kunda ham jamiyat va unda yashovchi insonlarning ma’naviy qiyofasini yaxshilashga, ruhiy barkamollikka va yuksak falsafiy tafakkur egasi bo‘lishiga katta yordam beradi. Imom Abu Mansur Moturidiyning falsafiy merosi yoshlar ongining turli ko‘rinishdagi buzg‘unchi g‘oyalar bilan zaharlanishiga qarshi turishda hamda ularga qarshi kurashishda o‘ta dolzarb va muhim manba hisoblanadi. O‘z davrida mutlaqo ta’qiqlangan kalom falsafasi davrlar o‘tib, islom dini g‘oyalarining naqadar buyuk ekanligini, Qur’oni karim oyatlarining ilmiy mo‘‘jizalarini, bashariyat zimmasidagi ulug‘ majburiyatlarning asl mazmunini xijjalab yoritib berishga muvaffaq bo‘ldi. Uchinchi Rennesans davriga o‘tish arafasida turgan millat sifatida biz fikrlashdagi biqiqlik, kimgadir tobelik yoki qandaydir manfaatdorlikdan voz kechib, haqiqiy plyuralizm muhitini, ijodkorlik madaniyatini rivojlantirishimiz lozim. Chunki bizning genetikamizda buyuk daholarning sepib ketgan urug‘lari kun sayin nish urub bormoqda. Bir marta buyuk allomalarni dunyoga keltirgan, tarbiyalagan va ilm-fanning tamal toshini qo‘yishga loyiq qilib voyaga yetkazgan tuproq keyingi urunishlarda ham bu muqaddas vazifani a’lo darajada uddalay oladi. Imom Moturidiyga ko‘ra, odam o‘z xatti-harakatlari uchun mas’ul, ayni chog‘da, inson tafakkuri, aql idroki, salohiyati va imkoniyatlari ham nihoyatda kengdir. Alloma ta’limoti hidoyat yo‘lidan adashgan ba’zi buzg‘unchi guruhlarni fosh etishda bugun ham katta amaliy ahamiyatga egadir. Imom Moturidiy Qur’on va Sunna aqidalarini, uning talab va me’yorlarini ko‘r-ko‘rona emas, balki aqlan chuqur idrok etib o‘zlashtirishni, ularni g‘ayrimantiqiy, nooqilona qabul qilmaslikni o‘rgatadi. Ularni g‘arazli, noilmiy, o‘zboshimchalik

bilan talqin qilishni inkor etadi. Lekin u, ayni paytda, naqlni, ajdodlaridan kelayotgan rivoyatlar an'anasini inkor qilmaydi. Imom Moturidiyning insonda erkin tanlash imkoni borligi, u nima ish qilmasin, o'z ixtiyori bilan qilajagi, binobarin, u har bir yaxshi va yomon ishi, harakati, niyati uchun mas'ulligi to'g'risidagi fikri juda qimmatlidir. Bu fikr har qanday biryoqlamalikka, birovlar irodasiga, so'ziga ko'r-ko'rona itoat etib, nojo'ya ishlarga qo'l urishiga, insonning mutaassibga aylanishiga keskin qarshi chiqadi. "Taqdiri azal" tushunchasini Imom Moturidiy to'liq inkor etmasa-da, uni insonparvarlik nuqtayi nazaridan ancha yumshatadi, insonda takdir mas'ullik va imkoniyat sifatida yashirin, u o'z taqdirini o'zgartira olmaydi, ammo inson uning muayyan darajada va qanday yuzaga chiqishiga (to'liq yoki qisman) o'z xatti- harakati, xulq-atvori bilan ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblaydi. Demak, shuni ayta olishimiz mumkinki, Imom Moturidiy falsafiy merosi uzoq tarix qa'rida qolib ketgan, o'zining umrini yashab bo'lgan eski ta'limot emas, balki hamma zamonlarda ham insoniyat ruhiyatini oziqlantiruvchi noyob hikmatlar majmuasidir. Shunday ekan, islom dinining hayotbaxsh g'oyalarini anglash va ma'naviy kamolotga yetishishda Imom Moturidiy falsafiy merosini teranroq tushunishimiz lozimligini ko'rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Abu Mansur Moturidiy o'z davrining islomiy ilmlari sohasida eng yetuk bilim sohibi hisoblanib, musulmon dunyosi olimlari tomonidan tan olingan va hozirda ham turli diniy asarlarda zo'r ehtirom bilan tilga olinadi. Buyuk allomaning ma'naviy merosi bilan tanishar ekanmiz, uning bundan qariyb o'n ikki asr muqaddam ilgari surgan hayotbaxsh g'oyalarini bugungi kun uchun ham to'liq amalda qo'llashga munosib deb e'tirof etsak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo'rayev N. Vatan tuyg'usi. – T.: O'zbekiston. 1996, – B.111.

2. Falsafa qomusiy lug‘at. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”. –T.: 2004, –B.255.

3. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. – T. Sharq. 1998, – B. 14

4. Mahmudov T. Komillik asrorlari. – T.Adolat, 2006. – B.19

5. Хайдеггер М. Время и бытие. Статьи и выступления. – Москва: Республика. 1993. – 394.с.

6. Geniş bilgi için bkz. el-Mâturîdî, Te’vîlât, Topkapı Sarayı Müzesi Ktp., Medine Bölümü, Nu: 180, 796a; el-Mâturîdî, Te’vîlât, Hacı Selim Ağa Ktp., Nu: 40, v. 888b.

7. Hasanxon Yahyo Abdulmajid «Tavhid» risolasi ahli sunna aqiydasi bo‘yicha muhim manba (birinchi maqola). T.; 15.03.2020

8. Sonmez Kutlu. International Conference in Samarkand, dedicated to Imam Maturudi is important and useful. 04/03/2020.

ZJV5401

FOROBIY: AQL VA BAXT MASALASI

Eshpulatov Inoyat Saparovich,
BuxDU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiyning aql va baxt masalasiga oid qarashlari bayon qilingan.

Tayanch so'zlar: "Ikkinchi muallim" , "Fozil odamlar shahar", dixotomiya, ittihod, vujud, materiya va shakl, "komil inson".

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiyning musulmon madaniyatida tutgan o'rnidan unga berilgan "Ikkinchi muallim" faxriy unvoni ham dalolat beradi. Forobiyning jamiyatning mukammal tuzilishi haqidagi qarashlari bayon etilgan ijtimoiy-siyosiy risolalari muhim ahamiyatga ega. Farobiyning fikricha, barcha odamlarga ularning hamkorligi tufayli erishish mumkin bo'lgan komillikka intilish xosdir. Forobiy falsafaning amaliy qismi odamlar va shaxsning jamiyatdagi xulq-atvori bilan bevosita bog'liqligini aytatadi. Aynan atrof-muhitni, dunyoni bilish bilan birga hayot mazmunini, insonning undagi o'z o'rnini bilishi, shuningdek, o'z-o'zini bilish zarurati tug'iladi. "Falsafa" – insonga "Fozil odamlar shahar"ida "baxtli hayot kechirishi" uchun munosib sharoit yaratishni talab qiladi.

Forobiy o'z risolasida insonda tana a'zolaridan tashqari, aqlga ega ruhni ham ajratib ko'rsatib, inson kamolotining tavsifiga faol boshlanish - Faol aqlni kiritgan. Faqat Faol Aql orqali hukmdorlar aholining barcha qatlamlarini fazilatli va baxtli qilishga umid qilishlari mumkin bo'ladi. Forobiy nafaqat shaxs, balki ijtimoiy kamolot bilan ham shug'ullangan. Uning "Fozil odamlar shahr"i (Madina fozila) bunga yaqqol misoldir. Shunday qilib, Forobiy asarlari uning shaxs kamoloti va jamiyatning barcha fuqarolari kamoloti haqidagi qarash-

lari haqida tasavvurni shakllantiradi.

Forobiy chinakam saodatga inson faqat oxirat dunyoda erishishi mumkin, deb hisoblaydi. Saodat – bu mutlaq tushunchadagi yaxshilik, mutlaq yaxshilik esa mutlaq borliqdir.

Bunday narsaga Birinchi vujud egalik qiladi. Tana va ruhning ikkilanishini (dixotomiyasi) Forobiy juda aniq ko‘rsatib beradi: ruh to‘rtta birinchi unsurlardan tashkil topgan “qamoq”da azoblanadi va uning ozodlikka bo‘lgan yagona umidi donishmandlik (hikmat), ya’ni haqiqiy va to‘liq ilm hisoblanadi. Bu ilm olamning metafizik boshlanishi bilan ruhning “birlashishi”ga (ittihod) sabab bo‘ladi.

Haqiqiy baxt-saodatdan tashqari, soxta baxt ham bor. Bir tomondan bu odamlar baxt deb xato qabul qiladigan va u haqda hech qanday tasavvurga ega bo‘lmagan narsadir. Biroq, boshqa tomondan, bu haqiqiy baxtga erishishga yordam beradigan yerdagi hayotning o‘ziga xos tuzilishidir. Gap shundaki, haqiqiy saodat va ne’mat uchun foydali bo‘lgan hamma narsa ham yaxshilik va baxtdir Lekin u o‘z-o‘zidan emas, balki bu maqsadga xizmat qilgani uchun shundaydir.

“Baxt, Forobiyning so‘zlariga ko‘ra, o‘zida qudratli integratsiya qiluvchi kuchga ega. Sharqning Birinchi muallimi yozgan barcha narsa, uning turli bilim sohalariga oid ko‘plab risolalari yagona leytmotiv bilan singib ketgan bo‘lib, ular oliy ezgulik – insoniy saodatga intilish bilan uyg‘un bog‘langan. Baxt ezgulik, insonning maqsadi, barcha komillik tojini o‘zida mujassamlashtirgan Birinchi Zotga borib taqaladigan asosiy kategoriyalar orqali belgilanadi” [5. –B.14], “...baxtni axloqning asosi deb hisoblab bo‘lmaydi, chunki u yaxshilik va yomonlikni farqlashga befarqdir” [5. –B.12].

Biz faylasufning fikriga qisman qo‘shila olamiz, darhaqiqat, baxtli inson qandaydir rohat, halovat va xotirjamlik holatida bo‘ladi, ammo shu bilan birga, Farobiydagi «saodat» tushunchasi, bizningcha, tamoman boshqa narsa, chunki unda ideal, mukammal obraz mavjud. Komil inson darajasiga erisha olgan, “ilohiy” darajaga ko‘tarilgan odamgina ezgulikni

yovuzlikdan, axloqni axloqsizlikdan ajratib biladi, o‘zini baxtli deb hisoblay oladi; axloqiy qadriyatlarni farqlay olmaydigan kishilar uchun baxt xayoliy va haqiqiy emas.

“Fozil odamlar shahri kabi ontologik tarkibiy qism uchun baxtga alohida o‘rin ajratiladi. Fozil va johil odamlar shahri farqlanadigan mezon aynan baxt ekanligi juda ahamiyatlidir... Birinchi vujudga ontologik burilishni amalga oshirgan haqiqiy shahar nomukammallik zulmatida haqiqiy Ne’mat va ma’noning uchqunlarini ko‘ra olish imkonini beradi” [5. –B.24].

Shunday qilib, Forobiyning fozil odamlar shahri bu umumbashariy saodat jamiyatidir. Forobiyning ideal shahrida faylasuflar o‘ylagan barcha narsalar mavjud: Birinchi vujud, materiya va shakl, ongli ruh va uning holatlari, sifatlarining ta’rifi; odamlarni birlashishiga olib keladigan inson ehtiyojlarining tavsifi; fozil odamlar shahri va unga qarama-qarshi bo‘lgan johil va adashgan odamlar shahri tushunchalarining ta’rifi; shahar imomiga nasihatlar, shuning uchun ideal shahar bir vaqtning o‘zida juda haqiqiy, dunyoviy ishlarning ham tashkil etilishi ramzi sifatida aks ettiriladi.

Ibn Sino, Ibn Bojja, IbnTufayl, Ibn Rushdlar Forobiyga ergashib, inson muammosiga ratsionalistik, falsafiy yondashish zarurligini ta’kidlaganlar. Forobiy komil insonda adolat sifati bo‘lishi, uning “adolatni sevishi va adolatli bo‘lishi” zarur deb hisoblagan [1. –B.319].

Forobiyning aql va baxt muammosini hal etishi uning fazilatlar haqidagi tushunchasini belgilab beradi. Biroq, inson yaxshilik nima ekanligini qayerdan bilishi mumkin? Fazilatlarga, Forobiy fikricha, inson hayoti jarayonida ega bo‘ladi. Haqiqiy fazilat esa insonning komillikka erishish qobiliyati bilan bog‘liq.

Fazilatni o‘rganish mumkinmi? “Insonda ikki komillik xos – birinchi va oxirgi. Oxirgisiga biz bu hayotda emas, balki faqat oxirat hayotida erisha olamiz, bu bizning shu hayotimizda birinchi komillikka erishgandan keyingina bo‘ladi. Birinchi komillik bu insonning barcha fazilatlarning amallarini bajarishidir.

U harakat qilmasdan nafaqat fazilatga ega bo‘la oladi; inson kamoloti uning xatti-harakatlarni amalga oshirishidan iboratdir va u harakatlar sodir bo‘ladigan sifatlarni kasb etishga bog‘liq emas” [4. –B.23].

Bu yerda juda muhim bir jihat bor – fazilat faol bo‘lgandagina komillikka aylanadi. Forobiy fikricha, inson gunoh va yomonlik qilishga mahkum emas, balki u ezgulikka intilmaslik sharti bilan shunday bo‘ladi.

“Insonning kamoloti, unda fazilatlarning shakllanishi bu uning butun umri davom etadigan va o‘lim bilan tugaydigan jarayondir” [6. –B.86] .

Fazilatlar, Forobiyning fikriga ko‘ra, turli usullar bilan erishiladi: ta’lim berish, tarbiyalash, ishontirish. Ularning qo‘llanilishiga ko‘ra Forobiy odamlarni xalq, omma va olimlarga ajratadi. Olimlar ishonchli dalillar orqali fazilatlarni o‘zlashtiradigan tanlangan kishilardir, Forobiy fikricha, u haqiqiy ilmning yagona manbai hisoblanadi. Forobiy o‘rab turgan tevarak-atrofdagi voqelikning xulqning shakllanishiga ta’sirini etirof etib, insonga xos bo‘lgan ichki quvvatga e’tiborini qaratadi, ya’ni insonning iroda kuchini tan olishga asoslangan holda o‘zini-o‘zi shakllantirishini uqtiradi. “Inson erkinligi uchun faqat aql-idrokning o‘zi yetarli emas, kuchli iroda ham zarur. Sog‘lom fikrga va kuchli irodaga ega bo‘lgan inson shunga loyiq erkindir” [3. –B.92].

“Forobiy o‘zining baxt konsepsiyasini to‘g‘rilab, yana bir muhim - fazilat kategoriyasini kiritadi... fazilatni o‘rgatish mumkin, deb hisoblaydi Forobiy - va bu uning konsepsiyasida juda muhim o‘rin egallaydi” [7. –B.37-38].

Xulosa qilib aytganda, Forobiyda insonning kamolotga erishish imkoniyati insoniy fazilatlar g‘oyasi bilan bog‘liq. Shuni alohida ta’kidlash joizki, fazilat faqat faol bo‘lgandagina komillikka aylanadi... Forobiy insonlardan aynan fazilatlarni rivojlantirish orqali o‘zini kamol toptirishni talab qiladi” [2. –B.154]. Forobiy ta’limotida fazilat markaziy kategoriyalardan biri bo‘lib, u orqali har bir inson baxt va komillikka erisha oladi, biroq, mutafakkir inson tug‘ilgandanoq fazilatli bo‘la

olmaydi va inson o‘zida ijobiy sifatlarni rivojlantirish hamda tarbiyalash orqali o‘z hayoti davomida komillikka erishadi, deb hisoblaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ал-Фараби. Трактат о взглядах жителей добродетелного го-рода / Под ред. Касымжанова А.Х. – Алма-Ата: Жазушы, 1975. –Б.318–319.

2. Бурабаев М.С. Эстетические сенности ал-Фараби и современ-ный арабский Восток: опыт сравнителного анализа // Мир сенностей ал-Фараби и аксиология XXI века. – Кн. 2. – Алматы, 2006. – Б.154.

3. Дао-де-сзин. Книга пути и благодати. (Серия Антология мудро-сти). – М.: Эксмо, 2005. – Б.92.

4. Косиченко А.Г. Представление о сущности духовного у ал-Фараби в контексте средневековой мусулманской культуры // Мир сенностей ал-Фараби и аксиология XXI века. – Кн. 1. – Алматы, 2006. – Б. 23.

5. Соловева Г.Г.Учение ал-Фараби о счасте в контексте совре-менного аксиологического дискурса // Мир сенностей ал-Фараби и ак-сиология XXI века. – Кн. 2. – Алматы, 2006. –Б.14.

6. Сатыбекова С.К.Гуманизм ал-Фараби.– Алматы: Наука, 1975. – Б. 86.

7. Сейтахметова Н.Л. Проблема совершенного человека в фал-сафа, суфизме и кабалистике // Философия ал-Фараби и исламская ду-ховност. – Алматы, 2005. – Б.37-38.

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHINI SHAKLLANTIRISHDA UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYANING O'RNI

Aminov Otamurod Aktam o'g'li,
Samarqand Davlat Universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodda vatanparvarlikni shakllantirishga kuchli ta'sir etadigan ma'naviy muhit, uzliksiz ma'naviy tarbiyaning o'rni va ahamiyati xususida so'z yuritilib, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimi shuning bilan birgalikda mahalla va boshqa tuzilmalar kesimida ham ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish, aniqlangan muammolarni hal etish bo'yicha ilmiy asoslangan tarbiya texnologiyalari, takliflar hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch so'zlar: Texnologiya, taklif, tavsiya, ma'naviy muhit, konsepsiya, kompetensiya

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda yoshlar tarbiyasida ilm-fan, texnika va texnologiyalar bilan bir qatorda ularni ma'naviyatli va vatanparvarlik ruhida o'stirish yanada dolzarb muammo bo'lib qolayotganligi o'z isbotini topmoqda.

O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.

Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini

ZJV5401

to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” (1)

Vatanga sadoqat, burch va mas’uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so‘zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo‘lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Xo‘sh, bunday muammolarga bizda qanday yechimlar bor va qanday tashkiliy ishlarni qo‘llash orqali biz bu kabi kamchiliklarni bartaraf etishimiz mumkin?

Birinchidan, tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda avvalo, onaning homiladorlik davrini to‘g‘ri tashkil etish, go‘daklar va bolalarni ma’naviy tarbiyalash bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarni belgilash;

Ikkinchidan, homiladorlik davridan boshlab 30 yoshgacha davom etadigan uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-ona, tarbiyachi, o‘qituvchi, uzluksiz ta’lim muassasalari va mahalla jamoatchiligining o‘zaro samarali hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish;

Uchinchidan, bola tarbiyasida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish;

To‘rtinchidan, tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish;

Beshinchidan, ma’naviy tarbiyani shakllantirishda oila, mahalla va ta’lim muassasalari, shuningdek, ommaviy axbo-

rot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o‘rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo‘lga qo‘yish.

O‘z o‘rnida savol tug‘uladi: “Uzluksiz ma’naviy tarbiya” qanday tadbiq etiladi va qanday bosqichlarni o‘z ichiga oladi?

Shu o‘rinda aytish joizki, Prezidentimizning «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2019 yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori (2) qabul qilingan bo‘lib, ushbu qaror ijrosini ta’minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2019-yil 31-dekabrda VM-1059-sonli “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qilindi hamda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi” qabul qilindi.

“Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

birinchi bosqich – oilalarda (ikki davr asosida: birinchi davr – homila davri, ikkinchi davr – bola tug‘ilganidan 3 yoshgacha bo‘lgan davr);

ikkinchi bosqich – maktabgacha ta’lim 3 – 6 (7) yoshgacha bo‘lgan davr;

uchinchi bosqich – umumiy o‘rta ta’lim tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr – 7 (6) – 10 yosh boshlang‘ich sinf, ikkinchi davr – 11 – 17 yosh o‘rta va yuqori sinflar);

to‘rtinchi bosqich – ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar, shuningdek, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr – o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar – 17 – 30 yosh, ikkinchi davr – o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalarining o‘quvchi-talabalari 15 – 22 (24) yosh).”(3)

Shuningdek, maktab va ta’lim dargohlarida uzliksiz ma’naviy tarbiyani olib borish bilan bir qatorda, oila va mahalla muhitida ham bu masalaga chuqur qaralishi kerak.

Jumladan, Oiladagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash maqsadida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oiladagi nizoli holatlarni hal etishning huquqiy va pedagogik-psixologik asoslarini o'rgatish;

muloqot, o'yin turlari jarayonida predmetlar, namunaviy xulq, xatti-harakat qoidalari bilan tanishish, taqlid orqali kattalarning ma'naviy-axloqiy tajribasiga e'tibor qaratish;

o'zining va boshqalarning xatti-harakatlarini kuzatish, baho berishga o'rgatish;

ilk ma'naviy-tarbiyaviy motivlarni shakllantirish;

o'ziga-o'zi xizmat qilish, kundalik turmushda xavfsizlik ko'nikmalarini o'rgatish xususiyatlarni shakllantirish zarur.

Bunga oddiy misol sifatida, Yosh avlodda vatanparvarlikni shakllantirishga ta'sir etadigan qadriyatlar aslida azaldan mavjud: ularning qatoriga ona tili va adabiyot, milliy va diniy bayramlar, har xil milliy marosimlar, oilaparvarlik, bolajonlik, ota-ona, qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug', mahalla-ko'y, keksalarga xurmat, mehr-muruvvat, rahm-shavqat, halollik, poklik, iymon-e'tiqod kabilarni qo'shishimiz mumkin.

Natijada, yurtimizda ushbu mavzuda ishlab chiqilayotgan qonunlar, konsepsiyalar va barcha say-harakatlarni joriy qilinishi tarbiya sohasining ilg'or innovatsion texnologiyalar asosida takomillashuviga, yoshlarning Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'ri kenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi tayanch kompetensiyalar bilan mustaqil hayotga kirib borishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Oilalar, ta'lim muassasalari, mahallalar va korxonalarda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish layoqatiga ega bo'lgan yoshlarning ma'naviy kamol topishi uchun zarur bo'lgan innovatsion ijtimoiy-pedagogik sog'lom va barqaror muhit yaratiladi.

Jamiyatda jinoyatchilik, ekstremizm, terrorizm, korrupsiya, firibgarlik, ko'zbo'yamachilik, yolg'onchilik, egotsentrizm, axloqiy buzuqlik, oilaviy ajrimlar, mehr-oqibatning kamayis-

hi, «ommaviy madaniyat»ga ko‘r-ko‘rona taqlid, loqaydlik, begonalashuv, o‘zibo‘larchilik, farzand tarbiyasida mas’uliyatsizlik, oilaviy qadriyatlar inqirozi, el-yurt taqdiriga befarqlik kabi illatlar keskin kamayadi.

Yuqoridagi fikrlarga qo‘shimcha tarzda buyuk ma’rifatparvar, millat kuyunchagi bo‘lgan bobomiz Abdurauf Fitratning quyidagi fikrlari ayni mavzuga mosdir: “Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi yoki zaif bo‘lib xorlikka yuz tutishi, baxtsizlik yukini tortishi, e’tibordan qolib, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi ularning o‘z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog‘liqdir”.

Xullas, bugun yoshlarimizda inson va jamiyat uchun eng ulug‘ va mas’uliyatli xislatlardan biri bo‘lgan vatanparvarlik ruhini shakllantirishimiz lozim. Albatta, yoshlarimiz ham bunday keng ko‘lamli ijtimoiy va siyosiy ko‘maklarga javoban harakat qilishi, jamiyatimiz taraqqiyotida o‘z hissalarini qo‘shishi, jamiyatimizga munosib voris bo‘la olishlari, fan, sport, va boshqa sohalarda olamshumul va katta yutuqlarni qo‘lga kiritishlari talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2019-yil 31-dekabrda VM-1059-sonli “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida” [3]

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-sonli “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori

3. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent. “O‘zbekiston” 2017-y. 488 bet [1]

4. www.lex.uz [2]

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYA KONSEPSIYSINI AMALGA OSHIRISH

Nazaralıyev Omadbek,
Andijon viloyati adliya boshqarmasi Marhamat tuman adliya bo'limi Yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirishning dolzarb masalalari yoritilgan bo'lib, jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirish orqali vatanparvar, komil insonni tarbiyalash masalalari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: Tarbiya, ma'naviyat, ma'naviy tarbiya, uzluksiz ta'lim, uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi, maktabgacha ta'lim tashkiloti, axborot, maktabgacha yoshdagi bola, yosh avlod.

Buyuk Sharq mutafakkurlarining tarbiya masalasidagi qarashlarida tarbiya qancha erta boshlansa shuncha samarali bo'lishi ta'kidlangan. Uzluksiz ta'lim tizimining birinchi bo'g'ini sifatida maktabgacha ta'lim tizimida olib borilgan ma'naviy tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tizimini o'rni beqiyosdir.

Inson umri davomida oladigan axborotlarning 70 foizini 5-6 yoshgacha bo'lgan davrda olishi to'g'risidagi ilmiy xulosalardan kelib chiqib, bola tarbiyasida maktabgacha ta'lim tizimini o'rni va ahamiyatini chuqurroq anglab olish mumkin bo'ladi. Har qanday ma'naviy tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning bilimi ko'payibgina

qolmay, balki ma’naviy axloqiy sifatlarini qaror topishi ham tezlashadi. Shu bois ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo‘lmish ilmu ma’rifat ta’lim tarbiyani inson kamolati va millat rivojining eng asosiy sharti hamda garovi deb bilganlar. Ma’naviy tarbiya har qanday jamiyat va mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki uning o‘sishi va taraqqiyot uchun moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqarish to‘xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod ushbu boyliklarni yaratishda o‘z ajdodlaridan yuqori darajaga ko‘tarilmog‘i darkor.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son qarorida[1] “Jaholatga qarshi ma’rifat” g‘oyasi asosida jamiyatda uzluksiz ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va targ‘ibot-tashviqot ishlarini samarali tashkil etish belgilangan. Har bir millatning o‘z ma’naviyatini chuqur anglashi, ongini tarkibiy qismiga aylantirishi millatning kelajakka bo‘lgan ishonchining mustahkamlaydi. Yurtimizda ma’naviy-ma’rifiy muhitni yanada yaxshilash, ming yillar mobaynida uning bag‘rida sayqallanib kelayotgan ibratli an’ana va qadriyatlarni targ‘ibtashviq etish borasida ko‘plab tadbirlar tashkil etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida davlat rahbari “Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat” deb ta’kidladilar. Shuningdek yig‘ilishda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning yagona tizimini yaratish, xususan, o‘g‘il-qizlarni bolaligidanoq bilimli va fazilatli

etib tarbiyalash, buning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlariga metodik yordam ko'rsatish muhimligi ta'kidlandi.[2]

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son qarorida ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida, oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash belgilandi. Ma'lumki insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamga uning bo'y basti, ko'rinishi, kiyinishi, xatti harakati va boshqalar kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu intilishlari, his tuyg'ularini o'z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami ma'naviyatdir. Ma'naviyat, ma'rifat va madaniyat bilan bog'liq. Ma'naviyat odamlarda tap-tayyor xolda vujudga kelmaydi. Unga mustaqil o'qish, o'rganish, tajriba orttirish orqali erishiladi. Ma'naviyat qanchalik boyib borsa, jamiyat va millat shunchalik ravnaq topadi.

Milliy ma'naviyat, avvalo tarixdan boshlanadi. U bir kunda, bir yilda, balki, hatto bir asrda ham mukammal shakllanmaydi. O'rta Osiyo xalqlari tarixining ibtidosi asrlar qariga singib ketgan bo'lib, ular bosib o'tgan necha ming yillik ma'naviy kamolot pillapoyalarini aniqlash bugun uchun muhim muammodir. Ammo milliy ma'naviyatning tarixi bilan siyosiy, ijtimoiy, hatto madaniy hayot tarixi orasida muhim farqli jihatlar mavjud. Avvalo milliy ma'naviyat tarixi millatning ma'naviy takomili jarayoni bilan bog'liq. Millatning ma'naviy kamoloti zamonda, ya'ni butun tarixi davomida yuz beradi, ammo u ba'zan shiddat bilan yuksalib borsa, ba'zan esa ma'lum darajada tanazzulga yuz tutushi ham mumkin.

Shaxs ma'naviyati jamiyatda ijtimoiy hayotda shaxsning baxtli yashashi uchun to'g'ri fikrlash, so'z va amalning birligi, rost so'zlash, halol mehnat qilish, xush axloqqa ega bo'lishdan iboratdir. Shaxs ma'naviy darajasi uning kishilik jamiyatning yuksak axloqiy qadriyatlariga qay darajada rioya

qilib yashashi bilan belgilanadi. Axloq inson ma'naviyatining muhim mezonlaridan biri bo'lgani bois Shaxs ma'naviyati deganda, avvalambor, uning axloqan barkamolligi, o'z faoliyatida ma'naviy qadriyatlarga, chunonchi, adolat, go'zallik va ezgulik g'oyalariga tayanib ish ko'rishi nazarda tutiladi.

Mamlakatimizda yoshlarda Vatanga sadoqot, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr oqibatlilik, ma'suliyatlilik, bag'rikenlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalaikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish maqsadida 2019 yil 31-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son qarori qabul qilindi.[3]

Konsepsiyada ma'naviy tarbiyani dastlab ona qornidan boshlash ko'rsatilgan. Shu bilan birga qarorda ma'naviy tarbiyani shakllantirishda maktabgacha ta'lim tashkilotining amalga oshiradigan vazifalarga alohida e'tibor qaratilgan. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasida maktabgacha ta'lim tizimida ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda 3-7 yoshli bolalarga xos xususiyatlar, jumladan:

- o'z tuyg'ularini boshqarish ko'nikmalarining rivojlanishi;
- o'z xatti-harakatlarini axloqiy boshqarish ko'nikmalarini yuzaga kelishi;
- shaxsiy fazilatlar asoslarining paydo bo'lishi;
- ijtimoiy motivlar va milliy an'analarga qiziqishning paydo bo'lishi, o'zini namoyon qilishga intilish;
- muvaffaqiyatga erishish ehtiyojining tug'ilishi;

o'ziga o'zi baho berish, tevarak-atrofdagilarga ma'naviy-axloqiy munosabatning paydo bo'lishi;

- bola faoliyatining yetakchi turlari - muloqot, o'yinlar, mashg'ulotlar;
- nutq va uning asosida ma'naviyat asoslarining rivojlanishi inobatga olinadi.

Konsepsiyada tarbiyachilar va ota-onalar tomonidan ushbu yoshdagi bolalarga: asosiy faoliyat turlari jarayonida o'zini o'zi anglashga o'rgatish; muloqot, kuzatish va taqlid

orqali kattalarning ma'naviy-axloqiy tajribasini o'zlashtirish; o'zining va boshqalarning xulqiga baho berishga o'rgatish; faoliyat va syujetli-rolli o'yinlar orqali yangi motivlarni paydo qilish va mustahkamlash; ma'naviy-axloqiy ko'nikmalarni o'zlashtirish; kundalik turmushda xavfsizlik qoidalarini o'rgatish; kattalar, ularning mehnati, kasblar, turli kasb egalariga xos shaxsiy fazilatlar to'g'risida tushunchalar berish; o'yin, o'zaro munosabatlar, oiladagi munosabatlar, yaqin kishilarga g'amxo'rlik qilish ehtiyojining paydo bo'lishi orqali xarakter sifatlarini shakllantirib borish; bola tarbiyasida milliy tarbiya usullari va zamonaviy pedagoglarning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rgatish belgilandi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy tarbiyaning asosi tarbiyalanuvchilarda umuminsoniy va millatga xos ma'naviy, madaniy an'analar, qadriyatlar haqidagi dastlabgi ta'savvurlarni shakllantirishdir. Bu davrda bola qiziqishlarining to'planishi, qiziquvchanlikni ortishi bilan xarakterlanadi.

Inson o'z xatti-harakatlarini jamiyatning axloqiy talablariga ixtiyoriy ravishda topshirganda, ularning mazmuni va ahamiyatidan xabardor bo'lsa, axloqiy maqsadlarni qo'ya olsa va aniq sharoitlarga nisbatan yechimlarni ishlab chiqa olsa, o'z xatti-harakatlari va boshqalarning harakatlarini mustaqil baholay olsa, shaxsga aylanadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsining rivojlanishini hisobga olib, shuni ta'kidlash kerakki, uning shaxsiy rivojlanishi tug'ilgan paytdan boshlanadi.

Ularning rivojlanishi va maqsadga muvofiq tarbiya jarayonida bola kattalar yordamida jamiyatda qabul qilingan talablar, normalar va xulq-atvor qoidalari bilan tanishadi. Dastlabki bilim olish jarayonida ular tizimli va umumlashtirilgan g'oyalarni shakllantiradilar. Bilim va g'oyalar asosida bolada muayyan talab, axloqiy me'yor, sifatga bo'lgan munosabat rivojlanadi, bu esa egalik va zaruriyatning tashqi motivi paydo bo'lishini taqozo etadi [1.24]

Ma’lumki, maktabgacha yosh davri ijtimoiy ta’sirlarga nisbatan sezuvchanlikning ortishi bilan xarakterlanadi. Bola bu dunyoga kelib, hamma narsani: muloqot yo‘llari, xatti-harakatlari, munosabatlarini o‘ziga singdiradi, shu maqsadda o‘z kuzatishlari, yempirik xulosalari, kattalarga taqlid qilishlaridan foydalanadi. Va bularni o‘zida sinaydi shularga orqali harakat qilib, u oxir-oqibat inson jamiyatda hayotning asosiy normalarini o‘zlashtirish mumkin. [4.62]

Ma’naviy fazilatlarni shakllantirish maktabgacha yoshi eng qulay davr hisoblanadi. Bu davrda bola qiziqishlarining to‘planishi, qiziquvchanlikni ortishi bilan xarakterlanadi.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan talablar belgilab berildi.

“Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan” talablarda bolalarning beshta asosiy sohalarga bo‘lingan, bular jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ijtimoiy hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari, bilish jarayonining rivojlanishi, ijodiy rivojlanish. Davlat talablarining “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasining kichik sohalari bo‘lgan, “Men” konsepsiyasi, Hissiyotlar va ularni boshqarish, Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlari bilan muloqot, kichik sohalarida 5-6 yoshdagi bolalarning ijtimoiy hissiy rivojlanishi ko‘rsatilgan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ma’nayiy tarbiyani amalga oshirishda ushbu talablarni e’tiborga olish lozim.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nafaqat bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishga, balki bola shaxsini – xarakteri, irodasi, qobiliyatlari va qiziqishlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bola shaxsining rivojlanish darajasini ko‘rsatadigan mezonlardan biri. Bolaga ta’lim-tarbiya berish jarayonida shakllanadigan axloqiy normalar, e’tiqodlar, maqsadlar, his-tuyg‘ular, bolaning xulq-atvorida namoyon bo‘ladigan ma’naviy qarashlar, shuningdek bilimlar, e’tiqodlar va xulq-atvorning uyg‘unligi bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ- 4307-son qarori.LEX.UZ.

2. “Xalq so‘zi” gazetasi 2021 y 20 yanvar №13 son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son qarori.

4. Сидорова А Н. “Формирование духовно-нравственных основ личности ребенка старшего дошкольного возраста”диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук.Челябирск 2009. 24 стр.

5. С.А.Козлов, Т.А.Куликова «Дошкольная педагогика» Москва. «Академия» 2001. 62 стр.

ZJV5401

MA'NAVIY TARAQQIYOTNING TAYANCH NUQTASI – TARBIYADIR

Mutalipova Shahlo Pardaboyevna,
Jizzax viloyati Paxtakor tumani ixtisoslashtirilgan maktab o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson ma'naviy tarbiyasining ta'sirchan usuli sifatida go'zal xulq, odob-axloq va aql-zakovat yuksak ma'naviyatga eltuvchi yorug' yo'l sifatida yoritilgan.

Tayanch so'zlar: Ma'naviyat, ta'lim, tarbiya, ilm, ma'naviy immunitet, jismoniy oziq, ruhiy oziq, axloqsizlik, ijtimoiy tarmoq, milliy qadriyat, axloq, odob, dunyoqaras, qadriyat, jamiyat, ma'rifat, vatanparvar, insonparvar.

Insonning jamiyatdagi o'rni uning moddiy boyliklari bilan emas, balki yuksak ma'naviy qiyofasi bilan belgilanadi. Insonni inson ekanligini namoyon etuvchi, uni jami mavjudotlardan farqli ekanligini isbotlab turuvchi qudratli kuch – ma'naviyatdir.

Aslida ma'naviyat – insonni jamiki boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan eng baquvvat ma'naviy-ruhiy omil hisoblanadi.

Inson – tabiatning, barcha mavjudotning gultoji deyilganda uning ushbu xislati, ya'ni yuksak ma'naviyat egasi bo'la olish imkoniyati nazarda tutiladi. Bu imkonni boshqa jonzotlarda ko'rmaymiz. Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va quvvat bersa, ma'naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag'ishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta'minlanish bilan kifoyalanish – ongsiz va ruhsiz mahluqotlarga xos. Ma'naviyatga intilish esa ruh va ong egasi bo'lmish odamzotgagina xos fazilatdir. Ma'naviyat odamning aqliy va ruhiy olami majmui kabi murakkab ijtimoiy hodisadir. Ma'naviyat juda keng qamrovli tushuncha bo'lganligi uchun ham, yuqorida ta'kidlaganimizdek uni bir jumlada ifodalash nihoyatda mushkul.

Guvohi bo‘lganimizdek, bizga yot qarashlarni, millatimizga xos bo‘lmagan g‘oyalarni, bir so‘z bilan aytganda, ma’naviyatsizlikni, axloqsizlikni targ‘ib qilib chiqqan ayrim ayollarning «xurmacha qiliqlari» ijtimoiy tarmoqlarda ko‘plab e’tirozlarga sabab bo‘ldi. Bu birgina misol emas. Kundalik turmushda, ayniqsa, hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan ijtimoiy tarmoqlarda bu kabi «tasodifiy ko‘ngilsizliklar»ga ko‘p bora duch kelishimiz odatiy holga aylandi.

Abdulla Qodiriyning «O‘tgan kunlar» asarida uyat, uyatsiz degan ibora deyarli har bir sahifada ishlatilgan. Yuksak axloqiy, tarbiyaviy ahamiyatga egaligi uchun ham bu asar barchamiz uchun sevimli va qadrli milliy romanimizga aylandi. Har safar bu buyuk asarni qo‘lga olar ekanman, uyatsizlik, andishasizlik fojiaga olib kelishini yanada chuqur anglayman.

Bugun ayrim odamlar, ayniqsa, ko‘pchilik yoshlarning milliy qadriyatlarimizni yo‘qqa chiqarayotgan qarashlari, turmush tarzi dilimizga og‘riq soladi. Ana shundagina zamon shiddati, uning chang-g‘uborlarga to‘la shamoli ta’sirida keskin o‘zgarib ketgan ayrim kimsalarning ma’naviyatga naqadar ehtiyoji ortib borayotganini his etamiz.

Ma’naviyat tarkibiy qismlaridan eng muhimi – axloq va odobdir. Abu Nasr Forobiy «Daraxtning yetukligi uning mevasi bilan bo‘lganidek, insonning barcha xislatlari ham ahloqiy tarbiya bilan yakunlanadi».

Shu bois, insonda ma’naviy dunyoqarashning o‘sib borishi albatta, biz bot-bot ta’kidlaydigan oiladagi tarbiyaga borib taqaladi. Har qanday yuksalish yoki tanazzul tarbiya bilan bog‘liq ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz. Oilada sog‘lom muhit barqaror bo‘lmas ekan, farzandning yorug‘ kelajagiga umid bog‘lash noo‘rin. Ota va ona tarbiyada ibrat bo‘la olmagan oilada o‘sgan o‘g‘il-qizning ma’naviyati ham haminqadar bo‘lib borishi, shubhasiz.

Oiladagi bosh burch va majburiyat unutilgan, otaning ota sifatidagi o‘rni yo‘qolgan yoki ona tirikchilik ilinjida ko‘chadan ortmayotgan holatlarning uchrayotgani farzand tarbiyasiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Ana o‘shanda bizni

yuragimizga og‘riq solayotgan, ma’naviyatsizlik, tarbiyasizlik axloqsizlik, andishasizlik ildiz ota boshlaydi.

Xo‘sh, yechim qanday? Qachon biz bu kabi og‘riqli muammolarga batamom barham bera olamiz? Oilalardagi burch va majburiyat his etila boshlangandami? Unutib yuborayotgan urf-odat va an’analarimiz farovon umr kechirishning asosi ekanligini to‘liq anglab yetganimizdami? Qadriyatlar qadrlangan oilalardagina tarbiya ustun, ma’naviyat yuksak bo‘laveradi. Muhit sog‘lomligi farzand kamoli uchun zamin yaratadi.

Axloq haqida gap borganda, albatta uning muayyan tuzilmasi, unga asos bo‘lgan omillar, unsurlar to‘g‘risida to‘xtalmaslik mumkin emas. Axloq tuzilmasini, odatda, uch omil-asosdan iborat deb xisoblaydilar.

Bular-axloqiy anglash, axloqiy his etish, axloqiy munosabatlardir. Ba’zi mutaxassislar (chunonchi, mashxur rus axlokshunosi A.I. Titarenko) axloqning asosiy tushunchalarini (kategoriyalarini), axloqiy me’yorlar va tamoyillarni axloq – odobning bir butun qon tomiri tarzida takdim etadilar.

Shunday qilib, axloq tuzilmasi uch asosiy omilni: axloqiy anglash, axloqiy his etish va axloqiy munosabatlarni o‘z ichiga oladi.

Mazkur uch omil unsurning hech birisiz axloq tushunchasini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Boshqacha aytganda, axloqni inson ko‘zi oldida gavdalantiruvchi axloqiy munosabatlarning his etish va axloqiy anglashsiz yuzaga chiqishi, ya’ni mavjud bo‘lishi mumkin emas.

Axloq-odob qoidalarini anglasak, nima mumkinu, nima mumkin emas va qanday yashamoq kerak savollariga javob topa olamiz. Axloq – odob to‘g‘risida gapirganda axloqiy ong nimaligani ham bilish kerak. Axloqiy ong- kishilarning jamiyatdagi axloqiy hatti-harakatlari, yurish-turishlari, yashash qoidalari, tamoyillari, shuningdek ularning o‘zaro bir-birlariga hamda ijtimoiy guruhlarga, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini ifodalovchi qarashlari tasavvurlari, nazariyalarining jamidir.

Axloq-odob axloqiy qarashlarni bilish va anglash orqali shakllanadi. Axloqiy ong, axloq, odobning mazmuni, mohiyati, jamiyatdagi kishilar hayoti, faoliyati, taraqqiyotidagi o‘rni, ahamiyati to‘g‘risidagi qarashlar g‘oyalarning tizimidir.

Shubha yo‘qki, yaxshi tarbiya, go‘zal axloq, aql-zakovat yuksak ma’naviyatga eltuvchi yorug‘ yo‘lning boshlanishidir.

Ma’rifatli inson bilimlidir. Bilim insonning fazilatini ulug‘lovchi xususiyatlardan biridir. Bilim olish, ma’rifatli bo‘lish, insonlar turli sohalarda qiyinchillikka duch kelganda moddiy va ma’naviy jihatdan g‘alaba qilishi uchun zarur. Bilimsiz va ma’rifatsiz kishi himoyasizdir. Ma’rifat keng ma’noda odamlarga bilim berish, ko‘nikma va malaka hosil demakdir. U ma’naviyatni shakllantiruvchi, jamiyatning yaratuvchanlik, bunyodkorlik quvvatini oshiruvchi inson faoliyati sohasidir. Boshqacha aytganda ma’rifat jamiyatning ta’lim-tarbiyaga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan inson faoliyatini qamrab oluvchi tushunchadir.

Ma’naviyat har doim ma’rifat bilan ya’ni bilim bilan uyg‘un holda rivojlanib boradi. Har ikkalasining uyg‘unligiga erisha olsakkina yoshlarimizning ma’naviy barkamol, iymon e’tiqodli, vatanparvar, insonparvar, vijdonli, diyonatli, or-nomusli, halol va pok insonlar bo‘lib tarbiya topishlariga erisha olamiz.

Bu haqda Abu Hamid Muhammad G‘azzoliy quyidagi fikrlarni bildirgan edi: Gumroh kishilar «Ilm bo‘lgach, amalga hojat yo‘q qablida fikr qiladilar. Bunday fikrlar ilmning o‘zi bilan kifoyalanib, shariatni inkor etuvchilar e’tiqodi bo‘lib, ular uchun ilm hosil bo‘lsayu, amal bo‘lmasa. Bu kabi ilmdan foyda yo‘qligini bilishmaydi. Holbuki o‘qib o‘rgangan ilmga amal qilmagan kishining qiyomat kunidagi azobi ikki hissadir». Zaminimizda kamol topgan, el-yurtga tanilgan, ma’naviy barkamol, komil zotlar o‘zlarida ma’navyat va ma’rifatni yuksak darajada mujassam etgan allomalar bo‘lganlar. Ular ma’naviyat va ma’rifat chiroqlarini mash’alasingari yoqqanlar.

Yuksak ma’naviyat va ma’rifat tufayli Turon zamin yer yuzida shuhrat qozongan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, hozirgi davrda milliy kamolot yo‘lidan boshqa yo‘l yo‘q.

ZJV5407

Ma’naviyat va ma’rifat xalqimizning, millatimizning, Vatanimizning porloq kelajagi uchun suv va havodek zarur. Ma’naviyat va ma’rifatning o‘zaro birligi, uyg‘unligi, ma’naviy va ma’rifiy tarbiya ishlarimizni birga olib borish taraqqiyotimiz taqazosi. Ularni bir-biridan ajratgan holda olib borib bo‘lmaydi. Zero, ta’lim va tarbiya ishini uyg‘un holda olib borishni talab etadi, chunki inson qalbiga yo‘l avvalo ta’lim-tarbiyadan boshlanadi.

Buyuk ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘tgan asrning boshidayoq “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo‘lur”, degan haqqoniy fikrlar bilan Turkiston ahlining ongu shuurini uyg‘otishga da’vat etgani bejiz emas... Bu so‘zlarning qanchalik haqiqat ekanini bugungi yuksak tafakkur va texnologiyalar zamoni ham isbotlanmoqda”. Ma’naviyat va ma’rifat, uni egallash masalasiga yondashuvga hadislarda aytilgan “Bu dunyoni deb u dunyoni, oxiratni deb bu dunyoni unitmang” degan mazmundagi naqlini hech qachon esdan chiqarmasligimiz zarur. Chunki tarix va hayot tajribasi dunyoviy hamda diniy qadriyatlar, ilm-ma’rifat doimo bir-birini to‘ldirib, boyitib kelganligi bois kishilar ma’naviy kamolot cho‘qqilariga erishganligidan dalolat beradi.

Ma’naviy va ma’rifiy qashshoqlik bilan hech bir millat, u yashayotgan mamlakat hech qachon iqtisodiy va ijtimoiy–siyosiy taraqqiyotning yuksak cho‘qqilariga erisha olmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. I.A.Karimov, “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” T. “Ma’naviyat” 2008-y.

2. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. 2-jild (2021)

3. Abu Hamid Muhammad G‘azzoliy, “Ey, farzand” 2005 yil

4. Abu Nasr Forobiy, “Fozil odamlar shahri”. Yangi Asr Avlodi, 2016-y.

OILADA SOG‘LOM MA’NAVIY TARBIYA VA PSIXOLOGIK MUHITNI YAXSHILASHDA QADIMIY SAN’AT USULLARINING O‘RNI

Nargiza Rahmatullayeva,
Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi
Surxondaryo viloyat bo‘limi rahbari

Annotasiya: Maqolada oilada sog‘lom psixologik muhitning jamiyat barqarorligini ta’minlashda qadimiy san’at usullarining o‘rni, omillari o‘tkazilgan ijtimoiy-psixologik tadqiqot natijalari oila psixologiyasiga ta’siri asoslab berilgan.

BADASH TURLARI

Badash inson umrining doimiy yo‘ldoshi hisoblanib san’at turlari ichida insonning yuragiga chuqur kirib, uning ichki kechinmalarini, psixologiyasini aks ettirishga qodirdir. «Musiqa san’atning ifodali turi tizimiga kiradi. Musiqa ham voqea hodisalarni ifodali aks ettiradi. Ushbu tur ko‘rish orqali emas, balki eshitish vositasida idrok etiladi. Musiqa mavzui o‘z xususiyatiga ega bo‘lib, inson va voqelikdagi barcha tomonlami qamrab ololmaganligi uchun, eng avvalo, inson ichki ma’naviy dunyosini, uning tuyg‘u va kayfiyatini ifodalaydi. musiqa voqelikning his-tuyg‘uli qiyofasini yaratadi».

Inson kayfiyati, psixologiyasi murakkab hissiyot bo‘lib, u hech narsa bilan bog‘lanmagan. Kayfiyat umumlashgan xususiyatga, psixologiyaga ega bo‘lib, undan ikkilamchi tomonlar chiqarib tashlanadi va insonning voqelikka bo‘lgan tuyg‘u munosabatini belgilaydigan eng muhim tomonlari ajratib olinadi. Uning kuch-qudrati shundaki, u shodlanish, qayg‘urish, hayol surish, bardamlik, jasurlik, tushkunlik va shunga o‘xshash inson ruhiy holatlarini psixologiyasini xususiy va umumiy tarzda o‘zaro bog‘liqlikda, bir-biriga singib ketishida na-

moyish qila oladi.

Musiqa «til»i barcha qismlarning uzviy birligini, asar shaklini ifodalaydi. Ijrojining fikri, tuyg‘ulari, tasavvurlari eshituvchilarga musiqiy shakl orqali yetib boradi. Shu bois musiqa «til»ini egallashga, uning mazmun-mohiyatini anglashga, musiqadagi fikrlar, tuyg‘ular, kechinmalar boyligini o‘zlashtirishga keng yo‘l ochadi. O‘sib kelayotgan avlod uchun musiqiy tarbiyaning ahamiyatini nihoyatda buyuk ekanligini qadimiy mutafakkirlar alohida urg‘u bilan ta’kidlashgan. Kelajak jamiyat a’zosining insoniy va ijobiy fazilatlari aynan bolalikdan boshlab shakllana boradi. Aynan shu davrda musiqa ijobiy sifatlarni shakllantiruvchi vosita hisoblangan.

Bavdash ashula va raqs tarkibida o‘z ichiga olib, o‘ziga xos badiiy ifoda «til»iga ega bo‘lib, maxsus ishlab chiqilgan va tanlab olingan tovushlar ana shu «til»ning manbaidir. Albatta. musiqa shaxsni shakllantirishning, uning ijobiy fazilatlarining yo‘nalishlarini o‘z-o‘zidan belgilab bermaydi.

Bir necha ming yillik tarixga ega Sherobod tumanining musiqa ijrochiligini o‘rganish va uni ilmiy tahlil kilish maqsadida tuman qishloqlari bo‘ylab 1999 yildan buyon musiqiy folklor ekspedisiyasi uyushtirilib kelinmokda. 1970 yilda ko‘zga tashlanadigan musiqiy manzara boy va rang-barangdir. Aholining sevimli cholg‘ulari sifatida do‘mbira, chanqovuz, daf, nay, qamishnay, tor, rubob, dutor kabi cholg‘ular keng tarqalgan. Shuningdek, xalq ijodiyotida musiqashunos olimlar tomonidan tasnif etilgan ma’lum va turli vaziyat, sharoit bilan chegaralangan hamda erkin mavzuli qo‘shiq-aytimlar keng o‘rin olgan.

Ilmiy va tarixiy manbalarga asoslanib Badash musiqa san’atini o‘rganish jarayonida “Badash”ning 70 ga yaqin turlari mavjud bo‘lib, uning bizgacha 20ga yaqin turi saqlanib qolgan.

Xalq ijodiyotining noyob namunalaridan hisoblangan “Badash” ning mavjudligi tadqiqotimiz uchun yangilik bo‘ldi. “Badash” daf cholg‘usida chalinadigan doira usulli asardir. Ular bevosita kuy, ohang, usul bilan bog‘liq bo‘lganligi hamda,

asosan, ayollar tomonidan ijro etilganligi sababli ham faqatgina qizdirilgan daf cholg‘usida chalingan. Shu sababli ham badashlar deb atalgan. Biroq XX asrning ikkinchi yarmidan doira termini ko‘llanila boshlagan. Undan oldin so‘zlashuvda faqat badash so‘zi qo‘llanilgan. Sherobod tumanining Xatak qishlog‘ida yashovchi o‘zbek millatining qatag‘on urug‘iga mansub aholi musiqa ijodiyotida saqlanib qolgan. Ular juda qadimgi ajdodlarimizning ijod mahsuli bo‘lib, to‘y marosimlarida, turli tantana va an’analar hamda xalqning tarixan kadimgi bayramlari, shuningdek, ommaviy-oilaviy, diniy bayramlarda faqatgina ayollar tomonidan ijro etilgan. Badashlar xalqning urf odatlari, an’analari, yashash tarzi, sharoiti asosida juda qadimda yuzaga kelgan bo‘lib, o‘zlarining turli xarakter-xususiyatlari bilan izohlanadi. Ular raqs va teatr san’ati bilan o‘zaro bog‘liq holda rivojlangan. Badashlar asosan dapp (daf - doira) cholg‘usida ijro etilib, ba’zan angishvona, qoshiq va sopol idishlardan jo‘rovoz sifatida foydalanilgan.

Doira badashlarining 20 yaqin turi bugungi kunga qadar yetib kelgan. Ularning usul va ohanglari har dil bo‘lib, bir-biridan ritm o‘lchovi, ohang shakli, xarakter, mazmun va nomlanishi bilan farqlanadi. Umuman olganda, bu turkumning tartib raqami quyidagichadir:

1. “Katta badashi”.
2. “Kichik badashi”.
3. “Ko‘rishish badashi”.
4. “Araz badashi”.
5. “Yarash badashi”.
6. “Bijdonba badashi”.
7. “Shamol badashi”.
8. “Gijdala-gij badashi”
9. “Dap badashi”.
10. “O‘yin badashi”.
11. “Kitirka badashi”.
12. “Davra badashi”.
13. “Qasqon badash” va hokazo.

Xatak qishlog‘i dappchi ayollarining fikriga qaraganda,

70 ga yaqin yuqorida nomlari sanab o‘gilgan badash turlari mavjud bo‘lib, ular turlicha nomlangan va har xil usul hamda ohanglarda raqssiz, raqsli sahnalashtirilgan, ba’zan erkin ritmlarda chalingan.

Mazkur qishlokda turli marosimlar bilan bog‘liq an’analarda dapp ijrosida badashlar ijro etilgan. Misol uchun, yozgi marosimlarda “Araz badash” chalinadi. “Araz badashi” xalqning urf-odatlariga bog‘liq jarayonlarda o‘tkazilgan.

Bunda ham dappchilar ikki guruhga bo‘linib, qarama - qarshi tomondan chiqib kelishgan. Yonma-yon bo‘lganda birbirlarining dapplariga dapplarini qattiq urib va o‘z dapplari bilan yuzlarini pana qilib yashirib o‘tganlar.

“Araz badash” asosiy maqsadi arazlashib qolganlarni yarashtirib qo‘yishga xizmat qiladi

“Katta badash” doira badashlari orasida eng kattasi, murakkabi hamda ahamiyatlisidir. U ham faqatgina xalq urf-odatlariga bog‘liq bo‘libgina qolmay, balki xalq tantanalarida doimo birinchilardan bo‘lib ijro etilgan. “Katta badash” o‘ziga xos ohangdorligi va mazmundorligi bilan ajralib turadi. Uch qismdai iborat “Katta badash” ning ilk qismi kirish, asosiy qism va yakunlovchi qismlarga bo‘linadi. Ular turli o‘lchovlarda chalinadi. Asosiy qism ohanglari kirish va yakuniy qismlarga nisbatan ancha murakkab ohanglardan tashkil topgan bo‘lib, juda shiddatli ijro etilgan.

Endi badashlar orasidan o‘rin olgan va turli tantanalarda ko‘p ijro etiladigan “Bijdonba” badashiga e’tibor beraylik. Taxminiy ma’lumotlarga qaraganda, “Bijdonba”dagi “bij’» bo‘g‘ini daplardagi to‘xtash ma’nosida urilgan zarb “bij” bo‘g‘inidan olingan. Bij bo‘g‘ini esa qizdirilmay chalinadigan daplarda to‘xtash ma’nosida urilgan zarbdir. Bu badash asosan nikoh to‘ylarida chalingan. U mazmunan o‘yinga chorlovchi ohangdir.

“Doira badashlari ” 1948 yillarga qadar to‘y-tomoshalarda ijro etilib kelingan. Hatto badashlarsiz xalqning bayramlari o‘tmagan. To‘y yoki sayil deb eshitgan har bir ayol u yerga o‘z dappi bilan borgan. Badashlar hozir ham xalq bayramlari

ZJV5401

va boshqa an’analarda ijro etilib kelinmoqda. Bu esa o‘z navbatida Surxondaryo musiqa ijodiyotining tarixan boy merosga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Nikoh va oilaviy rishtalar bilan bog‘liq badashlar

ARAZ BADASH

Araz badash (ba’zan qudalar aytishuvi ham deyiladi).- Boshlovchi araz badashning paydo bo‘lishi haqida so‘zlab beradi. Qadimda ikki do‘st bo‘lgan ekan. Ikkovi bir vaqtda uylanishadi Bir yilda farzandlik bo‘lishadi. Biri qiz, yana biri o‘g‘il ko‘radi. Ikki do‘st yaxshi niyat qilib chaqaloqlarni unashtirib qo‘yishadi. Oradan yillar o‘tadi. Qiz bilan yigit 17 yoshga to‘ladi. Endi yigitiing otasi to‘y jo‘natamiz desa, qizning onasi “Qizimni bermayman”, deydi. O‘rtada janjal chiqadi. Oqibatda bo‘lg‘usi qudalar arazlashib qoladi. Shunda el-yurt oqsoqollari va ulamolar ularning o‘rtasiga tushib “yigit bilan qizning ko‘ngli birbiriga moyil-ku” deyishadi. Buni eshitgan qizning onasi el-xalqdan va qudalaridan kechirim so‘rabdi. Qudalar yarashibdilar tez orada yigit tomondan qizning uyiga to‘y jo‘natiladi.

Shunday qilib, araz badash arazlashib qolgan qudalarni yarashtirish lozimligini, bu ishda el oqsoqollari va jamoatchilik birdek mas’ul ekanlganni ifodalaydi. Araz badashda o‘n kishi bir tomonda, yana o‘ntasi boshqa tomonda turib doira chaladi.

Araz badashining ohangi 6 marta qaytariladi. Boru, boru, bijdibij ba’ ohangi kelgan vaqtda doirani tepaga ko‘tarib aylangirib chalishadi. Doira chalinayotgan vaqtda bir-birlari tomon yurib ularning joyini egallaydilar. So‘ngra yuqoridagi yo‘sinda uyin takrorlanadi. Bir kishi esa araz badashning qo‘shig‘ini aytadi.

Keling, do‘stlar, o‘ynaylik,
Quda tomon so‘zlaylik,
Kuyov-kelinni olib,

Sayil tomon jo‘naylik.
Adir tomon boraylik,
Tog‘ bag‘riga chiqaylik,
Lolazorni aylanib,
Kiyiklarga boylanib,
Shodu-xurram aylanib,
Uyimizga qaytaylik.

Boshlovchi araz badashning paydo bo‘lishi haqida so‘zlab beradi. Qadimda ikki do‘st bo‘lgan ekan. Ikkovi bir vaqtda uylanishadi. Bir yilda farzandlik bo‘lishadi. Biri qiz, yana biri o‘g‘il ko‘radi. Ikki do‘st yaxshi niyat qilib chaqaloqlarni unashtirib qo‘yishadi. Oradan yillar o‘tadi. Qiz bilan yigit 17 yoshga to‘ladi. Endi yigitning otasi to‘y jo‘natamiz desa, qizning onasi «qizimni bermayman», deydi. O‘rtada janjal chiqadi. Oqibatda bo‘lg‘usi qudalar arazlashib qoladi. Shunda el-yurt oqsoqollari va ulamolar ularning o‘rtasiga tushib «yigit bilan qizning ko‘ngli bir-biriga moyil-ku» deyishadi. Buni eshitgan qizning onasi el-xalqdan va qudalaridan kechirim so‘rabdi. Qudalar yarashibdilar. Shundan so‘ng yigit tomondan qizning uyiga to‘y jo‘natiladi.

Shunday qilib, araz badash arazlashib qolgan qudalarni yarashtirish lozimligini, bu ishda el oqsoqollari va jamoatchilik birdek mas’ul ekanligini ifodalaydi. Araz badashda o‘n kishi bir tomonda, yana o‘ntasi boshqa tomonda turib doira chaladi.

Araz badashning ohangi 6 marta qaytariladi. Doira chalinayotgan vaqtda doirachilar bir vaqtda bir-birlari tomon yurib ularning joyini egallaydilar. So‘ngra yuqoridagi yo‘sinda o‘yin takrorlanadi. Bir kishi esa, araz badashning qo‘shig‘ini aytadi.

“Araz badash”ning tarbiyaviy ta’siri, psixologiyasining eng muhim tomonlari musiqiy asarning g‘oyaviy mazmuniga bog‘liqdir. Yoshlarning musiqiy hamda shaxsiy xususiyatlarini shakllantirish barobarida ular ongiga bir-biriga bo‘lgan hurmat, mehr-oqibat rishtalarini bog‘lanishida ushbu musiqa

san'atining o'rni beqiyosdir. Musiqa kishiga har tomonlama ta'sir ko'rsatar ekan: kuy va uning musiqiy ifodasi kishining hissiyotiga, psixologiyasiga chuqur ta'sir qilib, unda har xil hislarni uyg'otadi, turlicha kayfiyatlarni hosil qiladi. qo'shiqning matni, g'oyaviy mazmuni faqat hissiyotga emas, balki tinglovchilarning psixologiyasiga ham ta'sir qilib, ularni hayajonlantiradi va fikrlashga majbur etadi. Kishilarda asarda aks etgan ma'naviy muammolarga nisbatan muayyan munosabat uyg'otadi. Bunday ta'sir g'oyat murakkab va kuchlidir.

Keling, do'stlar, o'ynaylik,
Quda tomon so'zlaylik,
Kuyov-kelinni olib
Sayil tomon jo'naylik.
Adir tomon boraylik,
Tog' bag'riga chiqaylik,
Lolazorni aylanib,
Kiyiklarga boylanib,
Shodu-xurram aylanib,
Uyimizga qaytaylik.

ZJV5401

YARASH BADASH

"Yarash badash" – araz badashdan keyin kuylanadigan badash. Vazifasi – odamlarni mehr-oqibatga, ahil-inoq yashashga chorlash. Yarash badashda ikki doirachi qo'llarini bir-birlarining qo'ltig'idan o'tkazib doirani chaladi. Ba'zan doiralarini bir-birlariga xuddi urishtirayotgandek qilib ko'rsatishadi. Gohida yarashganliklarining belgisi sifatida bir-biriga orqa tomondan yelka qo'yib doira chalishgan. Bir kishi qo'shiq aytgan. Badashning mazkur turini Xatakning Julga guzarida yashovchi aholi ijro etishgan. Ohangi («notasi») bizga qadar yetib kelmagan.

Badash bilimdonlarining fikriga ko'ra, badash san'atining favqulodda ulkan va ta'sirchan tarbiya vositasi bo'lganligini ham yaqqol kuzatish mumkin: masalan, badash orqali odam-

ZJV5401

larga mavsumiy ishlar o‘rgatib boriladi, mehnat qilish yo‘llari ko‘rsatiladi, kelgusida qiladigan ishlari eslatib turiladi, shuningdek, aholi o‘rtasidagi turli mojaro, urush-janjallarni qon to‘kmasdan, tinch yo‘l bilan hal etish vositalari aytib turiladi, deyishadi.

Biz so‘z bilan aytganda, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan ushbu san’at turi qadimdan yoshlarni, yosh oilalarning har tamonlama mehr-oqibat rishtalarini bog‘lanishida ularning psixologiyasiga ta’siri beqiyos bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda badash musiqa san’ati ham estetik tarbiyaning muhim omili sifatida shaxs shakllanishiga kuchli ta’sir etadi.

Ajdodlarimiz yaratgan badash kabi musiqa yo‘nalishlari bugun millat ma’naviyatining bebaho xazinasiga aylandi. Uni avaylab-asrash va kelajak avlodga yetkazishga barchamiz mas’ulmiz. Zero, milliy qadriyatlarini saqlab qolgan xalq o‘zligini ham saqlab qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Umarov I, Raxmonov X, Xudoyberdiyev E. Surxon voxasida etnik tarix va etnomadaniy jarayonlar (xatakilar urug‘i misolida). Toshkent, 2014.

2.Tursunov S, Umarov I, Pardayev T. va boshqalar. O‘zbekistonda toponimik nomlar va ularning tarixi. “Surxonnashr” nashriyoti, 2017.

ZJV5401

YOSHLARDA MA'NAVIY TARBIYANING TA'SIRCHAN USULINI AMALGA OSHIRISHDA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISH MASALALARI

Qayumova Shaxnoza Shoakbarovna,
Jizzax viloyati Paxtakor tumani ixtisoslashtirilgan maktabi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyoning glaballashuv sharoitida yoshlarni ma'naviy tarbiyalashning ta'sirchan usuli sifatida, psixolog faoliyatining o'rni va ahamiyati haqida yoritilgan bo'lib, asosan psixologik ta'sir etishda e'tiborga olinadigan holatlar yoritilgan.

Tayanch so'zlar: ma'naviyat, ta'sir etish, glaballashuv, ta'lim, tarbiya, psixologik ta'sir, psixolog faoliyati, ma'naviy immunitet, nazorat, jamiyat, milliylik, tahdidlar.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida xususan Xitoy xalq respublikasi, Yaponiya, Koreya va boshqa davlatlarda milliy anananalarni saqlab qolishga nisbatan harakatlar sezilarli darajada ko'zga tashlanmoqda va bundayin harakatlar davlat ustuvor siyosati darajasiga aylangan. Zero bundan ko'zlangan asosiy maqsad o'zlikni saqlab qolish va millatning kafolatli kelajagini taminlashga qaratilgan mezon sanaladi.

Yurtimizda ham milliylikni saqlab qolishga va qadriyatlarning tarbiyaviy tamoyillariga ahamiyati davlatimizning ustuvor ahamiyatiga aylangan. Hususan yaqin o'n yilliklarda bundayin harakatlar sezilarli darajada tus olib bormoqda, Buning yaqqol misoli sifatida yurtimizdagi ichki turizmning jadal rivojlanishi fikrimizning asosi bo'lib xizmat qiladi. Undan tashqari ta'lim muassasalarida yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash, dars jarayonida ta'lim va tarbiyani birgalikda olib borish davlat dasturiga kiritilganini aytishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 fevraldagi PF-27-son farmonida ham inson manfaatlari va sifatli

ta’lim tushunchalarini, undan tashqari inson manfaati eng avvolo ma’naviy va mafkuraviy immunitetni taminlash, tashkil etish masalalari, sifatli ta’limning asosi esa milliylikni saqlab qolgan holda mamlakatimiz, millatimiz kelajagini sifatli kafolatlash mehanizmini ko‘rishimiz mumkin.

Bugungi glaballashuv sharoitida chegara tanlamaydigan tahdidlarga qarshi tura oladigan yagona yo‘l yoshlarni ma’naviy tarbiyasi hisoblanadi va bu jarayonda millat ma’naviyatining o‘rni beqiyos. Sir emaski bugungi kunda dunyo miqyosida glaballashuv sharoitida ko‘plab tillarning o‘lik tilga aylanib borishi, millatlarning yo‘q bo‘lib ketishi, jamiyatda sun’iy tahlikani paydo qilish orqali millat jamiyatiga bosim o‘tkazishi, shaxslar o‘rtasida stress va depressiyani suniy paydo qilish orqali shaxsni manqurtga aylantirish va boshqa shunga o‘xshash ko‘zga ko‘rinmas xurujlar avj olib bormoqda.

Yurtimizda ham yuqorida keltirilgan ko‘zga ko‘rinmas xurujlar shamoli kezib yuribdi desak ayni haqiqat bo‘lar edi fikrimizning yaqqol misoli sifatida g‘arb madaniyatining sharq madaniyatiga ta’sirini aytishimiz mumkin.

Yuqoridagi tushunchalardan kelib chiqqan holda bundayin tahdidlarga qanday chora ko‘rishimiz mumkin O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarida asosiy g‘oya sifatida quyidagi fikrlarni keltirib o‘tgan edi “Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o‘sib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Biz bunday o‘tkir haqiqatni hech unutmasligimiz kerak” shunday ekan yoshlarning tarbiyasi muhum vazifa sanaladi. Yoshlarni tarbiyalashda asosan nimalarga e’tibor berish lozim bu o‘rinda asosan yoshlar ongiga ijobiy ta’sir etgan holda yondashish davr taqozosi sanaladi. Yoshlarni tarbiyalash asosan oila va ta’lim muassasalarida tashkil etar ekan, bu jarayonda psixolog faoliyatini tashkillashtirish va bu orqali yoshlarni psixologik jihatdan ta’sir etib, to‘g‘ri

yo‘lga yo‘naltirishning asosiy vositalardan biri sanaladi.

Psixologik ta’sir etish jarayoni va bolani o‘rganishda quyidagilarga e’tibor qaratish muhim sanaladi.

• Etnopsixologik holatini hisobga olish – bunda asosan bolaning yashab turgan atrof muhitning qay tarzda shakillanish omillarini inobatga olish. Biz bilamizki ijtimoiy shakillanish omili albatta bolaning psixik rivojlanish qonuniyatiga katta ta’sir etadi.

• Oilaviy munosabatlar tizimini (oila turlar, kam taminlanganligi yoki aksi, chin yoki chala yetim holati, oilada nechanchi farzand va shunga o‘xshagan holatlar) hisobga olish – tarbiyaning bosh omili va fundamental tizimi oila ekanligini esdan chiqarmaslik lozim bo‘ladi.

• Biologik va irsiy omillarning shaxs rivojiga ta’sirini inobatga olish – bu jarayonda avloddan avlodga o‘tuvchi xarakter xususiyatlari, kasalliklar, taqlidchanlik holatining ko‘chishi.

• Shaxsning jamoa bilan munosabat tizimini inobatga olish – shaxslar aro muloqoti, kammunikativ qobiliyatining qay darajada rivojlanganligi.

• O‘z-o‘zini baholash tizimini va men tushunchasini inobatga olish – bu jarayonda o‘zi haqidagi tasavvurlarning paydo bo‘lishi, shaxsning atrof olam haqidagi tasavvurlari, amalga oshirmoqchi bo‘lgan ishlar va orzulari, atrof olamning shaxsga bo‘lgan munosabati orqali paydo bo‘lgan munosabati.

• Shaxsning kattalar va kichiklarga bo‘lgan munosabatini hisobga olish.

Yetakchi psixolog tamonidan shaxsga ta’siri yuqoridagi asosnomalarga tayangan holda muloqot madaniyatini ishab chiqish va muloqot o‘rnatish biz ko‘zlagan natijaga erishishning samarali yo‘llaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Xullosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki bugungi yoshlarimizni ma’naviyatli etib tarbiyalash zamon va jamiyat talabidir va bu ma’naviyatli etib tarbiyalash bu shaxsga ijobiy ta’sir etishga bog‘liq holatdir. Bu jarayonda bevosita ta’sir etish borasida psixologiyaning o‘rni beqiyos sanaladi. Psixologiyani targ‘ib etish ko‘proq ta’lim va jamoatchilik tashkilot-

larida tashkil etilgan psixolog kadrlar va ularning salohiyat darajalariga bog‘liq hisoblanadi. Shu o‘rinda quyidagilarni inobatga olish muhim sanaladi.

1. Yoshlarda ma’naviy tarbiyaning ta’sirchan usulini amalga oshirishda psixolog kadrlar malakasini oshrishga qaratilgan dasturlarni zamon talablariga xos tarzda takomillashtirish.

2. Yoshlarda ma’naviy tarbiyaning ta’sirchan usulini amalga oshirishda ta’lim va jamoatchilik tashkilotlaridagi faoliyat yurutuvchi psixolog kadrlar vakolati va shtat qismini kengaytirish.

3. Yoshlarda ma’naviy tarbiyaning ta’sirchan usulini amalga oshirishda psixolog kadrlar o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarini takomillashtirish chora tadbirlarini ishlab chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. I.A.Karimov, “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” T. “Ma’naviyat” 2008-y. – 107 b.

2. Xoliqov A.A; Pedagogik mahorat: Pedagogika va psixologiya ta‘lim yo‘nalishining talabalari (o‘quvchilari) uchun darslik. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. T.: «Iqtisod-moliya», 2011. 432 b.

3. Egamnazarov M.Yu. Pedagogika va psixologiya ta‘lim yo‘nalishi talabalarida kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish. // Xalq ta‘limi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali – Toshkent, 2020. № 5. – B. 83-86.

ZJV5401

MA’NAVIY TARBIYA MILLAT VA JAMIYAT EHTIYOJI SIFATIDA TA’LIM MUASSASALARIDA TASHKIL ETISH MASALALARI

Ulugmuratov Sarvar Sulaymanovich,
Paxtakor tuman ixtisoslashtirilgan maktabining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Annotatsiya: Maqolada yoshlarning ma’naviy qiyofasini shakillantirishga oid masalalar, ma’naviy tarbiyani tashkil etishdagi ijtimoiy yo‘l yo‘riqlar va tavsiyalar, ma’naviy tarbiyaning bugungi globallashuv sharoitida dolzarb masalalari va ahamiyatliligi yoritilib o‘tilgan.

Tayanch so‘zlar: Ma’naviyat, ta’lim, tarbiya, mahalla, oila, ijtimoiy muhit, hamkorlik, ijodkorlik, tashkil etish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son farmonida ham inson manfaatlari va sifatli ta’lim tushunchalarini, undan tashqari inson manfaati eng avvalo, ma’naviy va mafkuraviy immunitetni ta’minlash masalasi keng ko‘lamda ko‘rsatib o‘tilgan.

Ma’naviy tarbiya bu jamiyat ehtiyoji, ma’naviy tarbiya millat ehtiyoji ekan bu tarbiyaning asosiy o‘chog‘i hisoblangan oila, mahalla va ta’lim muassasalari hisoblanadi va bu o‘z navbatida har uchala jamiyatni hamkorlikda ishlashga undaydi, o‘sib kelayotgan yoshlar jamiyat, yurt, millat kelajagi ekan va bu tizimga befarqlik, ayni damda kelajagimiz fojiasi sanaladi

Ta’lim muassasasida o‘quvchi yoshlarni Vatan kelajagi uchun barkamol shaxs etib tarbiyalash, milliy an’ana va urf-odatlarga bo‘lgan hurmatni yanada rivojlantirish, ularning turli xil diniy oqimlarga qo‘shilib ketishining oldini olish va hozirgi kunda dolzarb muammoga aylanib borayotgan “ommaviy madaniyat” ta’siriga tushib qolishlarining oldini olish maqsadida eng avvalambor, ota-onalar, mahalla fuqarolari yig‘inlari, ustoz-murabbiylar va eng asosiysi o‘quvchilarning o‘zlari bilan ishlash lozim.

Ma’naviy tarbiyani o‘quv muassasalarida tashkil etishda quyidagi tartibda olib borish maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

- Pedagog xodimlar o‘rtasida;

1. Ma’naviy savodxonlik-yoshlarni ta’lim jarayonida sharqona an’analarni singdirgan holda tashkil etish, zero ta’lim va tarbiya birdek olib borilishi asosiy maqsad sanaladi,

2. Shaxsiy namuna-bu jarayonda asosan kiyinish va o‘zini tutish masalalari yetakchilik qiladi, undan tashqari kichiklarga bo‘lgan izzatni saqlash madaniyati bu kichiklarning kattalarga bo‘lgan hurmatini ham oshiradi. Nafaqat ish faoliyati jarayonida balkim ijtimoiy jamiyatda ham o‘zini tuta olish holatiga e’tibor qaratish kerak bo‘ladi, o‘z kasbining yetuklik darajasi-akademik savodxonlik va o‘quvchilar bilan kommunikativ qobiliyat ko‘nikmalarining shakillanish darajasi sanaladi.

3. Kasbiy odob-axloq masalalari-o‘z kasbiga bo‘lgan sadoqatlilik, kasbiy e’tiqod, kasb borasidagi fikriy yetuklik va boshqa fazilatlarni o‘z ichiga qamrab oladi,

- O‘quvchilar o‘rtasida;

1. Ma’naviy savodxonlikni oshirishda dars jarayonida turli xil keyslardan foydalangan holda darsni tashkil etish orqali o‘quvchilarda ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish,

2. Bahs-munozaraga sabab bo‘la oladigan mavzu bo‘yicha o‘quvchilar bilan davra suhbatini tashkil etish va o‘quvchining shaxsiy qiziqish, qarashlarini inobatga olgan holda mulohazalar bankini tashkil etish,

3. Yoshga doir va o‘quvchilarning layoqatlilik darajalaridan kelib chiqqan holda darsdan tashqari vaqtlarda topshiriqlarni tashkil etish,

4. O‘quvchilar o‘rtasida milliy qadiriyatlarga asoslangan o‘yinlarni tashkil etish va dars vaqtida ham milliy an’analarga asoslangan qisqa vaqtga mo‘ljallangan harakatli o‘yinlarni tanaffus vaqtlariga joriy etish,

- Ota-onalar o‘rtasida;

1. O‘quvchilar tamonidan yo‘llangan yozma mulohazalarni tashkil etish va bu yozma mulohazalarda asosan ma’na-

ZJV5401

viyatni yoshlar ongiga singdirish masalasi bo‘yicha mulohazalardan iborat suhbatni tashkil etish,

2. Dars jarayoniga haftaning ikki kuniga ochiq eshiklar kuni darsini tashkil etish va ota-onalarni ushbu kunga jalb etish,

3. Maktab ma’muriyati tamonidan o‘tkaziladigan maktabning rivojlantirish masalalariga qaratilgan yig‘ilishlarda ota-onalarni ham jalb etish.

- Mahalla fuqarolari yig‘inlarida yashovchi fuqarolar o‘rtasida;

1. Ta’lim muassasasini rivojlantirish masalasiga qaratilgan mulohazalar, e’tirozlar va takliflar burchagini tashkil etish.

2. Mahalla faollari guruhini tashkil etib, bu jarayonda o‘quvchi yoshlarni va ota-onalarni o‘rganishga qaratilgan mulohaza va takliflarini o‘rganib chiqish.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda dunyoda sodir bo‘layotgan siyosiy vaziyatlar, globallashuv jarayonida yoshlar ongini shaklllantirish va yanada rivojlantirish zarur, chunki har xil turdagi diniy ekstremistik oqimlar, ommaviy madaniyat xuruji kuchayib borayotgan davrda milliylikni saqlagan holda dunyoga teran ko‘zlar bilan boqish lozim.

Yaxshi bilamizki, o‘quvchilar o‘rtasida olib borilayotgan targ‘ibot ishlari o‘zining samarasini beradi, ammo, halqda bir naql bor “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”. Shuning uchun ham ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi o‘quvchilarning ota-onalari o‘rtasida ham “Bola aziz, odobi undan aziz”, “Bola tarbiyasi”, “O‘quvchilar o‘rtasida kitoblarning o‘rni”, “Internetning salbiy oqibatlarining bola tarbiyasiga ta’siri”, “Ommaviy madaniyatning bola ongiga ta’siri”, “Diniy aqidaparastlik va terrorizm” va “O‘quvchilar o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish” kabi mavzularda targ‘ibot-tashviqot ishlarini ham olib borish lozim. Bu borada ta’lim muassasasining ota-onalar qo‘mitasi raisi bilan ham hamkorlikda ishlarni olib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yosh avlod tarbiyasida ota-onaning o‘rni qanchalik muhim bo‘lsa, tashqi muhit, ya’ni mahalla fuqarolari yig‘inining o‘rni

shunchalik daraja muhim ahamiyatni kasb etadi. Xususan, ota-bobolarimizning ibratli naqli bor, “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona”. Farzand tarbiyasi, ular ongida milliy g‘urur va iftixorni shakllantirish va rivojlantirish, Vatanga sadoqat, ota-onaga muxabbat, yaxshilik va ezgulikni o‘zgalardan darig‘ tutmaslik kabi ezgu g‘oyalarni singdirish avvalambor, oilada, maktabda va mahalla boshlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLARF RO‘YXATI:

1. I.A.Karimov, “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” T. “Ma’naviyat” 2008-yil 107-bet.

2. Xoliqov.A.A, Pedagogik mahorat: Pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishining talabalari (o‘quvchilari) uchun darslik. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. T.: «Iqtisod-moliya», 2011-yil. 432 bet.

3. Egamnazarov.M.Yu. “Pedagogika va psixologiya ta‘lim yo‘nalishi talabalarida kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish”. // Xalq ta‘limi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali – Toshkent, 2020-yil. № 5. – B. 83-86.

ZJV5401

ZJV5401

MA’RIFATLI JAMIYAT G‘OYASINING YOSHLAR ISTE’MOL MADANIYATINI YUKSALTIRISHDAGI STRATEGIK IMKONIYATLARI

Arziqulov Elboy Azim o‘g‘li,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda mamlakatimiz ziyolilari haqida ularning boy ma’naviy merosi, marifat dunyosidan bugungi kun yoshlarimizga ham yetkazish borasidagi fikr mulohazalar hamda ma’rifat davrining asosiy g‘oyasi to‘g‘ri ma’lumotga aql orqali erishish va bu to‘g‘ri ma’lumot bilan ijtimoiy hayotni tartibga solish mumkinligi hususida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Shuningdek, ilm-fan sohasidagi muhim o‘zgarishlar natijasida ma’rifatli jamiyatning shakillanishi xususida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Tayanch so‘zlar: Yoshlar, ma’rifat, g‘oya ta’lim, tarbiya, iste’mol, madaniyat, iqtisod, ma’naviyat, taraqqiyot,ilmiylik, progrissivlik, gumanizm.

ZJV5401

Kirish. Ma’rifatparvar ziyoli o‘z xalqi, o‘z yurtining milliy manfaatlariga xizmat qiladigan shaxs hisoblanadi. Bunday ma’rifatparvar ziyolilar xalqning g‘urur va iftixoridir. Tarixiy tadqiqotlardan ma’lum bo‘ladiki, XIV asr o‘rtalarida “bosqinchi” nomi bilan mashhur bo‘lgan Amir Temur o‘zi bosib olgan mamlakat ziyolilari haqida qayg‘uribgina qolmasdan, o‘z yurtining olimlari, yozuvchilari, shoirlari, me’morlarini bir joyda to‘plagan. Amir Temur bu ijodkor va ziyoli qatlamni Samarqandga olib kelib, vaqti kelganda ular bilan uchrashib, fikr almashgan. Asrlardan buyon har bir davlat, har bir davr ziyolilarga, ularning so‘zlariga, mavqeyiga katta ehtiyoj sezgan va hozir ham shunday. O‘zbek xalqi mentalitetida keksa-

larga, ustozlarga, ziyolilarga alohida munosabat, alohida hurmat bor. O‘zbek ziyolilarining beshigi boshida Navoiy, Bobur buyuk mutafakkir va olimlar turardi. Navoiyning butun ijodi komil inson izlashdan iborat bo‘lgan edi. Bobur she’riyati o‘zining yuksakligi bilangina emas, balki shaxsiyati bilan ham beqiyos namuna edi. Shu boisdan ham davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev: “Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, yoshlarning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalashdir” [1.] deb aytgan so‘zlari hamda, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning. “Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog‘liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko‘tarilishida ona yurtimizda tug‘ilib kamolga etgan ulug‘ allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi” degan so‘zlari negizida jamiyatni xususan, yoshlarni ma’rifatli qilish borasidagi juda ham ko‘p ma’nolar mujassamdir. [2.B.36]

Bunday misollar – xalqimiz tarixi va taqdirida beqiyos xizmat ko‘rsatgan, sharafli iz qoldirgan ziyolilarning savobli faoliyati haqida qancha-qancha faktlarni aytish mumkin. Biroq, eng muhim jihati shundaki, bu shaxslarning asosiy maqsadi olqish, maqtov, mukofot yoki moddiy manfaat umidi emas edi. Ular o‘z hayotlarining mazmunini xalq va millatga xizmat qilishdan topdilar. Ular o‘z millati va o‘zlari mansub bo‘lgan jamiyatning ma’naviy yuksalishi yo‘lida sidqidildan mehnat qildilar. Ularning har biri o‘z sohasida erishgan yutuqlarini insoniyatga milliy yutuq sifatida taqdim etdi. Ular xalq ziyolilarining mezoni va mukammal namunasi bo‘lgan, bugungi kunda ham intellektual faoliyatni tasniflashda ulug‘vor salaflarimiz xizmat namunasini asos qilib olishimiz kerak.

O‘z davrida hukmdorlar ham jamiyatda ziyolilar missiyasiga hamisha katta ahamiyat berib, ziyolilar, xalq va o‘z vatanini, fidokorona mehnatini qadrlab kelgan. Kerak bo‘lsa, ular

ZJV5401

bilan maslahatlashib, takliflarini qo‘llab-quvvatlagan, ishongan va tayangan. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, o‘tgan asr boshlarida nomlari va xizmatlari qatag‘onga uchragan, muhojirlikda yashagan bir qancha shaxslar, olimlar, davlat arboblari, shoir va yozuvchilar, san’atkorlar xotirasi qayta tiklandi.

O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda o‘ziga xos yutuqlari, barcha jabhalarni qamrab olgan taraqqiyoti, poytaxtimiz qatori viloyat va qishloqlarimizni ham xalqaro andozalar asosida modernizatsiya va obodonlashtirish bugungi kunning g‘ururli haqiqatidir. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turli xalqaro tadbirlarga mezbonlik qilish odatiy holga aylangan. Shu ma’noda, 2022 yili sentabr oyida Shanxay Hamkorlik Tashkilotining yig‘ilishi jahondagi eng nufuzli tadbirlardan biri bo‘ldi. Mazkur tadbir xalqimiz va davlatimizni yanada yaxshiroq e’tirof etish yo‘lida katta qadam bo‘lishi shubhasiz.

Hozir O‘zbekistonda o‘z Vatani, xalqi muammolari, tashvish va orzu-intilishlari uchun kurashga safarbar etilgan o‘n minglab ziyolilar bor. Ular respublikamizning bugungi ahvoliga xolis baho beradi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga xolis fikr bildiradi, yo‘l qo‘yilayotgan har qanday kamchilik va nuqsonlar haqida o‘z shaxsiy fikrini bildiradi. Ularning g‘oyalari, so‘zlari jamiyatimizda tinglanayotgani, hukumat o‘z faoliyatida doimo intellektual pozitsiyani asos qilib olgani quvonarlidir. Bugungi kunda “O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilga qadar ijtimoiy iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi loyihasi ishlab chiqilgan bo‘lib, unga ko‘ra, iqtisodiy o‘sish sur’ati o‘rtacha 6,4, kapital qo‘yilmalar 9,9, eksport 9,6 foizni tashkil etishi, ishsizlik darajasi 9,3 dan 5,2 foizga va inflyasiya 14,4 dan 4,3 foizga pasayishi kutilmoqda. Bundan tashqari, 2030 yilda kishi boshiga yalpi ichki mahsulot 4500 AQSh dollarini tashkil etishi prognoz qilinmoqda”[3.].

Nima uchun aql tushunchasi odamlarga yaqin? Zero, ziyoli xalqning ona tilida so‘zlashuvchi samimiy yurtdosh, qalami va tafakkurini milliy manfaatlarga qaratgan, yuksak milliy va insoniy qadriyatlarga ega ijodkor, sadoqat xazinasi kalitlarini

o‘z qo‘lida tutgan ijodkordir. Ziyoli o‘zining xolis faolligi, fidokorona xizmati bilan xalq ishonchidan olingan ishonchni oqlashi kerak. Bu jarayonda ma’rifatli jamiyatni barpo etish g‘oyasi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Iste’molning eski tildagi ma’nosi istihlak, “yo‘q qilma” so‘zidan kelib chiqqan. Shu munosabat bilan iste’mol, birinchi navbatda, kamaytirish faoliyati sifatida qaraladi. Ilgari iste’molni ta’riflashda eng muhim element ehtiyojlarni qondirish ekanligi ta’kidlangan edi. Islom dini nuqtayi nazaridan qaraganda, ehtiyoj tushunchasi asosan huquqiy asosda muhokama qilinadi, deyish mumkin. Islomda nima muhim va nimalarni keraksiz deb hisoblash mumkinligi masalasi qonun masalasi sifatida ko‘rilgan. Islom iste’mol qilishdan saqlanmoqchi bo‘lgan ikkinchi xulq tabzirdir. Bu molni behuda sochish demakdir. Qur’oni karimda “Qarindoshlar, miskinlar va yo‘lovchilarga haqlarini beringlar. Mollaringizni tabzir bilan sochmang. Chunki mubazzir (tashlovchi) shaytonlarning birodarlariga aylandi. Shayton esa Parvardigoriga juda noshukrdir”. Amr qilingan (Haj, 88/30). Islom dinining iste’mol haqidagi asosiy tamoyillariga shu tarzda to‘xtalib, uning atrof-muhit bilan aloqasiga baho berganimizda, avvalo, islom tafakkuriga ko‘ra, butun olamni Alloh yaratganligini ta’kidlashimiz kerak. Alloh taolo koinotni osmon, quyosh, oy va yulduzlar bilan; yerni gullar, daraxtlar va turli hayvonlar turlari bilan bezadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, olam o‘zining barcha boyligi va hayotiyligi bilan Allohning ishi va san’atidir. U hamma narsaning haqiqiy egasidir. Moddiy boylik bu “Dunyo uchun foydali, oxirat uchun bir pul”. Ana shu gap zamiridagi ishonch musulmonlarni har jihatdan ortda qolib, g‘ayridinlar oldida tiz cho‘ktirgan g‘oyadir. Bu shunchaki g‘oya emas, balki barcha amallarning mezondir. Qanday yashash, qanday o‘ylash, nimalarga qiziqish, nimalarga vaqt sarflashni aniqlab beradigan mezondir bu. Hamma musulmonlar bunga amal qilmaslar ehtimol (Qur’onni o‘qimagan musulmonlar ham oz emas), ammo g‘oyali, e’tiqodli, axloqning asosi, hayotning mazmuni din deb hisoblaydigan odam uchun shunday.

Musulmon inson umrni behuda sovurmasligi, oxirat g‘amini yeyishi kerak. Million odamga yaxshilik qilsangiz ham, agar iymoningiz bo‘lmasa, oxiratingizga sarmoya bo‘lmasa, bari bir pul. Shuning uchun ibodat qilish, hajga borib kelish, maktab emas, masjid qurish, xayriyani maktab muallimiga emas, madrasa mudarrisiga berish savob orttirishning qisqaroq yo‘lidir”[4.].

Ma’rifat davrining asosiy g‘oyasi shundan iboratki, to‘g‘ri ma’lumotga aql orqali erishish mumkin va bu to‘g‘ri ma’lumot bilan ijtimoiy hayotni tartibga solish mumkin. Boshqa tomondan, ilm-fan sohasidagi muhim o‘zgarishlar ham Ma’rifat davriga olib keladi va bu davrda juda shiddatli yangi ilmiy ishlanmalar qayd etiladi. 15-asrdan boshlab yuzaga kela boshlagan yangi kashfiyotlar va ixtirolar bu jarayonni tayyorladi va buning oxirida “qorong‘u davr” deb hisoblangan o‘rta asrlar tugadi. Tajriba va kuzatish bu davrda ongning tatbiq quroli sifatida ilmiy metod tamoyillari sifatida maydonga chiqdi va tabiiy fanlardagi muhim taraqqiyot manbasiga aylandi. Uyg‘onish va islohotlar bilan boshlangan bu taraqqiyot ma’rifat bilan o‘zining yuksak cho‘qqisiga chiqdi va bundan buyon zamonaviylik deb nomlangan jarayonning shakllanishini tayyorladi. Bu jarayon ma’rifatda o‘z ifodasini topgan fikrning tubdan o‘zgarishini anglatadi. Nyuton va Kopernik bilan butun olam-dunyo tushunchasi o‘zgardi va bu o‘zgaruvchan mentalitetning falsafiy fikri Dekart va Kant kabi nomlar bilan rivojlandi. Yevropadagi sanoat inqiloblari ham bu jarayonning moddiy asosini tashkil qiladi. Yangi va butunlay boshqacha ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda yashay boshlagan odamlar dunyoga yangicha fikrlash tarzi bilan boshqacha nigoh bilan qaray boshladilar. Natijada zamonaviy hayotning poydevori qo‘yildi. 1789 yilgi fransuz inqilobi asosida fransuz ma’rifatparvari hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatdi.

Ma’rifatli jamiyat qurishda iste’mol madaniyatini shakllantirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Mantiqiylik: Bu tamoyil har bir yoshlarning iste’mol madaniyatini shakllantirishda uning ongi har qanday yo‘l-yo‘riq-

ni ta’minlay oladigan darajada kuchli ekanligini va boshqa manba kerak emasligini anglatadi. Chunki aynan aql bozor munosabatlari sharotida iste’mol madaniyati yoshlarga to‘g‘ri fikrlash va to‘g‘ri harakatni beradi. Bunda aql isrofgarchilikka yo‘l qo‘yyadigan turli omillarni yo‘q qilib, jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy barqaror muhitni yuzaga keltiradi.

Ilmiylik: “Ma’rifatli kishi – adolat va haqiqatni izlovchi va uni topishda ilmni yo‘lboshchi qilib olgan shaxsdir” tamoyili yoshlarning iste’mol madaniyatini shakllantirishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ilm olam va jamiyat qonunlarini chuqur tushunishga yordam beradigan yagona bilim manbai, degan g‘oya ma’rifatparvarlikning o‘zgarmas tamoyilidir. Insoniyat taraqqiyotini ilm-fan va texnika taraqqiyoti bilan tenglashtirgan ma’rifatparvarlarning fikricha, inson ilm-fanda qanchalik rivojlangan bo‘lsa, shunchalik kuch-qudrat, baxt, tinchlik va farovonlikka ega bo‘ladi.

Progressivlik: Ma’rifatparvarlar fan va texnika taraqqiyoti bilan birga tarixda ham taraqqiyot borligini ta’kidladilar. Ularning fikricha, insoniyat tarixi chiziqli ravishda yaxshiroq, ya’ni qashshoqlikdan boylikkacha; oddiydan murakkabga; tabiatga qaramlikdan erkinlikka, qisqasi, har bir sohada ijobiy tomonga o‘tadi.

Gumanizm: ma’rifatparvarlar taraqqiyot inson uchun bo‘lishi kerak degan fikrga qo‘shiladilar. Odamlar tobora ko‘proq o‘zlari bo‘lishga harakat qilmoqdalar. U ijtimoiy mavjudot sifatida erkin va baxtli bo‘lishga imkon beradigan rivojlanishni davom ettiradigan gumanizmga kirdi. Endi hamma narsa ko‘proq odamlarni xursand qiladigan imkoniyatlar yaratishga qaratilgan. Jamiyat va davlat inson uchun, ya’ni shaxs uchun mavjud bo‘lib, uning insoniy yashashi uchun zarur imkoniyatlarni ta’minlashga majburdir. Degumanizatsiya xurujini kamaytiradigan eng yaxshi yo‘l turli millat, din, irq, madaniyat vakillari o‘rtasida muloqotning doimiy bo‘lib turishidir [5.].

Xulosa shuki, ma’rifatli jamiyat qurish g‘oyasini yoshlar ongiga sigdirish, yoshlarning iste’molchi sifatidagi qaramligi-

dan ishlab chiqaruvchi sof milliy ma'naviy qadryatlarimizning ertangi davomchisi sifatida tarbiyalash, hamda bu borada jamiyat va davlat tomonidan keng ko'lamli ishohotlardan ayni vaqtida foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'ylaymizki, ma'rifatli jamiyatni biz yoshlar hozirgi imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda albatta quramiz. Yangi O'zbekistonni nafaqat qayta qurish, balki, boy an'analarimizni, madaniy yodgorliklarimizni saqlab qolishga ham barchamiz birdek mas'ulmiz. Bu yo'lda biz yoshlar qo'lni – qo'lga berib, bor aqliy va ilmiy salohiyatimizni, shijoat-u matonatimizni ishga solib olg'a intilmog'imiz talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so'zlagan nutqi. (elektron manba) http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-prezidentishavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017.

2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008-yil. 36 b.

3. O'zbekistonda "Iste'mol savatchasi" qachon joriy etiladi? https://uza.uz/uz/posts/zbekistonda-istemol-savatchasi-achon-zhoriy-etiladi-22-07-2019.

4. https://khyuldoshev.wordpress.com/2020/12/13/oxiratparastlik/

5. https://khyuldoshev.wordpress.com/2022/04/06/degumanizatsiya/

TURKISTON JADID MA'RIFATPARVARLARI ASARLARIDA MA'NAVIY TARBIYANING SAMARALI USULLARI

Sevara Asanbaevna Kurbanova,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar" kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkistonning zamonaviy ma'rifatparvarlari ijodida ma'naviy tarbiyaning samarali usullari yoritilgan. Ma'naviy tarbiya tarix davomida ko'plab madaniyatlarning asosiy jihati bo'lib kelgan va Turkistonda u shaxs va jamiyat farovonligini oshirishda muhim rol o'ynagan. Maqolada Jadid ma'rifatparvarlar tomonidan ta'kidlangan ma'naviy tarbiyaning bir qancha samarali usullari, jumladan, o'z-o'zini anglash, tabiat bilan bog'lanish, jamiyat va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ma'naviy amaliyot, uzluksiz ta'lim va ta'lim yo'nalishlari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: ma'naviy tarbiya, Turkiston, Markaziy Osiyo, Jadid ma'rifatchilar, o'z-o'zini anglash, tabiat bilan bog'lash, jamoa va ijtimoiy yordam, ma'naviy amaliyot, uzluksiz ta'lim, shaxs farovonligi, jamiyat farovonligi, ichki xotirjamlik, ma'naviy yuksalish, ma'naviyat, daxldorlik, mazmunli hayot.

O'zbekiston markaziy mintaqasi bo'lmish Turkiston ma'naviy-ma'rifiy va ma'rifatning boy tarixiga ega. [1] Turkiston jadid ma'rifatparvarlari ijtimoiy farovonlikni oshirish vositasi sifatida ma'naviy tarbiyaga e'tibor qaratdilar. Ushbu maqolada biz yangi usul maktablarining tashkil topganligi va ushbu maktablarda jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim-tarbiyada, ayniqsa ma'naviy tarbiyaning samarali usullarini ko'rib chiqamiz [2].

Ma'naviy tarbiyaning samarali usullaridan, ma'naviy

ZJV5401

amaliyotda ishtirok etish, axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, jamiyat va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tuyg‘usini rivojlantirishdan iboratdir. Ma’naviy yuksalish va farovonlikka ko‘maklashish uchun turli madaniyatlar va ma’naviy an’analarni doimiy ravishda o‘rganish va o‘rgatish muhimdir. Jadidlar ma’naviy amaliyotni inson o‘z-o‘zini tashkil etishi, ruhiy sog‘lom bo‘lishi uchun zarur deb hisoblashadi. Inson o‘z fikrlari, his-tuyg‘ulari va faoliyatini tekshirib ko‘rish orqali o‘zining asl mohiyatini mantiqan anglashi, yaxshi fazilatlar sohibi bo‘lishi uchun ham ma’naviy amaliyatning usullaridan va yo‘nalishlaridan foydalanishi mumkin. [4.15-23]

So‘ngi yillarda Markaziy Osiyoda an’anaviy diniy e’tiqod va qadriyatlarni zamonaviy voqeliklar bilan uyg‘unlashtirishga intilayotgan, islom dinini bag‘rikeng va inklyuziv talqin qilishga intilayotgan yangi avlod islom targ‘ibotchilari va ulamolari yetishib chiqmoqda, dedi olim R.Rahmatullayev. Jadidlar ma’rifatli va osoyishta jamiyat barpo etishda ta’lim-tarbiya, ayniqsa, ma’naviy-axloqiy tarbiya muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidladilar. [5.32-38]

Ikkinchi samarali usul – inson va tabiat aloqadorligi. Jadid ma’rifatparvarlarining fikricha, tabiat qo‘ynida vaqt o‘tkazish insonlarga o‘z ichki dunyosi bilan bog‘lanishga, stress va tashvishlarni kamaytirishga, tinchlik va xotirjamlik tuyg‘usini rivojlantirishga yordam beradi. Ma’rifatparvarlar yoshlarni tabiat qo‘yniga, o‘rmonlar, tog‘lar yoki suv havzalari, sayohat qilish, lager yoki meditatsiya kabi tadbirlarda qatnashishga undaydi. Sultonov ta’kidlaganidek, barkamol shaxsni shakllantirish va ma’naviy salohiyatni yuksaltirishda ma’naviy madaniyatni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ma’naviy tarbiyaning samarali usullariga axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, dunyuqarash, boshqalarga mehr va rahm-shafqat ko‘rsatish kiradi. [6.88-93]

Ma’naviy tarbiyaning uchinchi samarali usuli – jamiyat va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati. Jadid Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida yoshlarninh ma’naviy-axloqiy jihatdan yuksalishida yakka holda erishib

bo‘lmasligi, jamiyatning qo‘llab-quvvatlashi va ko‘rsatmalariga amal qilishlari zarur deb hisoblashadi. Ular odamlarni ma’naviy guruhlarda qatnashishga, ma’ruzalar va seminarlarga, ma’naviyat o‘qituvchilari va yo‘lboshchilardan yo‘l-yo‘riq so‘rashga undaydi. Ma’naviy tarbiya maqsad, ma’no va ichki xotirjamlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, introspektsiyani mashq qilish va ruhiy etakchilar va murabbiylardan yo‘l-yo‘riq izlashni o‘z ichiga oladi. Ma’naviy tarbiyaning samarali usullari shaxslar va jamoalarga ma’naviy inqirozlarni yengib o‘tishga yordam beradi, uyg‘unlik va o‘zaro tushunishga yordam beradi [7].

To‘rtinchi samarali usul - ibodat, meditatsiya va diqqat kabi ruhiy amaliyotlarning ahamiyati. Ko‘pgina zamonaviy o‘qituvchilar ichki tinchlikni rivojlantirish, stress va tashvishlarni kamaytirish va umumiy farovonlikni yaxshilash uchun ruhiy amaliyotlarning afzalliklarini ta’kidlaydilar. Ular odamlarni kundalik ibodat yoki meditatsiya kabi muntazam ruhiy amaliyotlar bilan shug‘ullanishga undaydi va bu amaliyotlarni kundalik hayotlariga integratsiya qiladi. O‘zbekistonda insonparvarlik g‘oyasi ma’naviy tarbiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, shaxsda insonparvarlik qadriyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Ma’naviy tarbiya o‘z ichiga introspektsiya, bilim izlash, axloqiy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, mazmunli hayotga intilishni o‘z ichiga oladi. O‘zbek jamiyatida insonparvarlik asosi ham shundan iborat.[8.52-55].

Ma’naviy tarbiyaning beshinchi samarali usuli – tarbiya va tarbiyaning ahamiyati. Ko‘pgina zamonaviy o‘qituvchilar ma’naviy ta’lim umrbod davom etadigan jarayon va odamlar doimo ma’naviy tushunchalar va amaliyotlarni bilish va tushunishga intilishlari kerak, deb hisoblashadi. Ular odamlarni ma’naviy matnlarni o‘qishga, ma’ruzalar va seminarlarga qatnashishga, ma’naviyat o‘qituvchilari va murabbiylar bilan suhbatlashishga undaydi. [9]

O‘zbekistonda barqaror jamiyatni shakllantirishda ma’naviy tarbiya hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu barqaror rivojla-

nishga erishish uchun muhim bo‘lgan hurmat, rahm-shafqat va o‘zaro bog‘liqlik qadriyatlarini targ‘ib qiladi. Ma’naviy tarbiya odamlarda tabiatni chuqur anglash, inson farovonligi va atrof-muhit salomatligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tan olishga undaydi. Ma’naviy tarbiya orqali odamlarda atrof-muhitga nisbatan mas’uliyat hissi paydo bo‘lishi va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lida harakat qilishi mumkin. [10.40]

Xulosa qilib aytganda, Turkistonning zamonaviy pedagoglari ma’naviy-axloqiy tarbiyaning samarali usullarining shaxs va ijtimoiy farovonlikni oshirish muhimligini ta’kidlaydilar. Introspeksiya, tabiat bilan muloqot qilish, ijtimoiy va ijtimoiy yordam izlash, ma’naviy amaliyotlar bilan shug‘ullanish va doimiy o‘rganish va o‘rganish orqali odamlar ko‘proq ma’naviy ongga erishishlari va yanada to‘liq va mazmunli hayot kechirishlari mumkin. Bu ma’naviy tarbiya usullari quyidagilardan iborat. nafaqat Turkistonda, balki ma’naviy yuksalish va farovonlikka ko‘maklashish maqsadida dunyoning boshqa madaniyatlari va mintaqalarida ham qo‘llanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. -Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2021, 464 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga missiyasi, 2020-yil 24-yanvar. www.prezident.uz .

3. Maxmutova L. M. Hozirgi o‘zbek yozuvchilari ijodida ma’naviy tarbiya muammosi. “Konsepsiya” ilmiy-uslubiy elektron jurnali, 2018. 44, 13-17.

4. Nabiyev O. O‘zbekistonda milliy o‘zlikni anglashda ma’naviy tarbiyaning o‘rni. Osiyo ijtimoiy fanlari, 2020. 16(7), 15-23.

5. Rahmatullayev R. Barkamol shaxsni shakllantirishda ma'naviy tarbiyaning o'rni. "Ma'naviyat va madaniyat" jurnali, 2021. 1(1), 32-38.

6. Sultonov S. Barqaror jamiyatni shakllantirishda ma'naviy tarbiyaning o'rni. O'zbekiston Milliy universiteti axborotnomasi, 2020. 1(1), 88-93.

7. Radjabov Sh. Turkistonda jadidchilik (1905-1917). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyaga avtoreferatlar.-Leningrad, 193 b.

8. Xodjaev, A., & Xodjaeva, M. O'zbek jamiyatida insonparvarlikni shakllantirishda ma'naviy tarbiyaning ahamiyati. Fan va ta'lim, 2020. 3(3), 52-55.

9. Xolid, Adib. Musulmonlar madaniy islohoti siyosati: Markaziy Osiyoda jadidchilik. Berkli: Kaliforniya universiteti matbuoti. 1998 yil.

10. Amridinova D. T. Jadidchilik ta'limotida barkamol shaxs tushunchasining falsafiy-ijtimoiy mohiyati. Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferatining mazmuni. 2021. – 66 b.

11. Baldauf Ingeborg. Markaziy Osiyodagi jadidchilik islohotchilik va musulmon dunyosidagi modernizm doirasida\ 41-jild, 1-son. (2001 yil mart).

12. Sh.Mirziyoyev. Biz buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.

13. Amridinova D.T.Milliy falsafada komil inson tushunchasining evolyutsiyasi. Monografiya. - Toshkent: DUK "Navro'z" nashriyoti. 2020 yil. - 112 b.

MA'NAVIY TARBIYA – MILLIY MENTALITETDAGI MA'NAVIY YANGILANISHNING MUHIM OMILI

Qurbonov Tohir,
Qarshi davlat universiteti,
dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

"O'zbekiston taraqqiyotining bugungi jarayonlari milliy g'oya va ma'naviy yangilanish yo'nalishida ham jamiyat va davlatimiz rivojining yangi bosqichi boshlanganidan dalolat beradi".

Sh.M.MIRZIYOYEV

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, yangilanish va o'zgarishlarni yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish, yoshlarning bunday o'zgarishlarga ishtiroklarini faollashtirmoq uchun ularda ma'naviy tarbiya darajasini shakllantirish zarur. Chunki ma'naviy tarbiyasi yuksak darajada shakllangan shaxsgina o'z millatining maqsad va manfaatlari yo'lida xizmat qila oladi. Eng muhimi, yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlar, yashayotgan odamlar, ularning tafakkuri, mentaliteti, hayotga o'z atrofida yuz berayotgan barcha voqealarga bo'lgan munocabati o'zgarmoqda.

Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Biz - g'ururi, oriyati, ma'naviyati baland xalqmiz. Bu, hech shubhasiz, katta boylik. Ajdodlarimiz asrlar davomida asrab-avaylab kelgan bu boylikni yo'qotib qo'ysak, kelgusi avlodlar bizni aslo kechirmaydi. Aksincha - bu fazilatni xalqimizni, millatimizni birlashtiradigan eng kuchli tamoyilga aylanti-rishimiz kerak. Negaki, milliy g'ururi baland xalqning qadr-qimmati ham baland, ma'naviyati, irodasi kuchli bo'ladi. Bunday xalq bilan har qanday buyuk maqsadlarga yetish mumkin"[1].

ZJV5401

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bugungi taraqqiyotning mana shunday o‘ziga xos xususiyatlarini teran his etib, buyuk maqsadlar bilan yashayotgan xalqimizning intilishlariga mos keladigan 2022-2026 yillarda mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining eng muhim usutvor vazifalaridan bittasi sifatida ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish sifatida belgilab berdi.

Kishilar o‘zaro munosabatga kirishayotganda millatning mentaliteti, ahloqi va ma’naviy xususiyatlari o‘z ifodasini topgani singari, xalqaro munosabatlarda ham bunday xususiyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Xuddi shuning uchun ham, ma’naviy tiklanish negizida milliy mentalitetdagi o‘zgarishlar haqida tasavvurga ega bo‘lish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’naviy yangilanishning eng muhim ne’matlaridan biri bu – milliy qadriyatlarning tiklanishidir. Milliy qadriyatlar har bir kishining tili, tarixi, dini, adabiyoti, san’ati, rasm-rusumlari, urf-odatlari, bayramu-sayillari, boshqacha aytganda madaniy-ma’naviy merosi, insoniy fazilatlari, xislatlarining yig‘indisidir. Milliy qadriyatlar o‘sha millatga mansub har bir kishi tomonidan yaratilgan insoniylik, odamiylikka xos fazilatlar, xislatlar, xosiyatlarni, milliy madaniy meros xazinasiga qo‘shgan hissasini ifodalovchi ko‘rsatkichdir. Milliy qadriyatlar millatning ravnaqi yoki inqirozi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Boshqacha aytganimizda, milliy qadriyatlar millatning o‘tmishi va buguni bilan bog‘liq. Shuning uchun ham «milliy qadriyatlar millat rivojlanishi bilan rivojlanadi, inqirozga uchrashi bilan qadrsizlanadi. Shuning uchun ham millat o‘zining qadriyatlarini vujudga keltirib, ularning yangi-yangi qirralarini va jihatlarini sayqallashtirib, taraqqiyot jarayonida ta-komillashtirib turishi ma’nosida o‘z qadriyatlarining haqiqiy egasi, makon va zamondagi ilgarilanma harakatdan iborat o‘zgarishlar jarayonida ularni o‘tmishdan kelajakka tamon yetkazib boradigan eng asosiy obyektdir»[2].

Milliy qadriyatlar kishilar tarixiy birligini ta’minlaydigan etnik makonda shakllanadi va turli-tuman shakllarda namo-

yon bo‘ladi. Kishilarning ongi va faoliyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Odamlarning kundalik turmush tarzida, ularning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarida, manfaatlarida, qiziqishlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, milliy qadriyatlar bir joyda qotib qolmaydi, tarixiy taraqqiyot jarayonida o‘zgarib, takomillashib boradi. Yangicha mazmun va shaklga kiradi.

Ma’naviy yangilanishning eng muhim ne’matlaridan yana biri bu – milliy g‘ururdir. Milliy g‘urur deganda, o‘z millatining moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini chuqur anglab yetish, ona tili, dini, tarixi, madaniyati, adabiyoti va san’ati, urf-odatlari, rasm-rusumlari, bayramu-sayillaridan faxrlanish tushuniladi. Milliy g‘urur millatning vujudga kelishi, shakllanishi bilan paydo bo‘ladi va rivojlana boradi. Mil-latning vujudga kelishi va rivojlanishi bevosita Vatan ravnaqiga bog‘liq bo‘lganligi uchun milliy g‘urur taraqqiyoti va yuksalishi ham Vatan taraq-qiyotiga bog‘liqdir. Shuning uchun ham milliy g‘urur - Vatanga bo‘lgan sado-qat, mehr-muhabbat, bir so‘z bilan aytganda, vatanparvarlikda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Milliy g‘urur insonda mavjud bo‘lgan barcha qobiliyatlar, iste’dod-larni Vatan va millat manfaati uchun safarbar qilishga ichki stimul vazi-fasini bajaradi. Mamlakatimizda sodir bo‘ladigan yirik ijtimoiy o‘zga-rishlarni yanada jadallashtirish kishilardagi milliy g‘urur tuyg‘usi bilan bevosita bog‘liqdir. O‘z taqdirini mamlakat, xalq taqdiri bilan mustahkam bog‘lagan kishigina mustaqil davlatimiz manfaatini hammadan ko‘proq hi-moya qilishga qodir bo‘ladi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, mamlakat fu-qarolarining milliy g‘ururi qancha baland bo‘lsa, ularning jamiyat taraqqi-yotiga qo‘shadigan xissasi shuncha ko‘p bo‘ladi.

Milliy g‘ururi baland inson Vatan, millat, xalq, davlat, jamiyat manfaatini o‘z manfaatidan hamisha ustun quyadi. Xuddi shuning uchun ham milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish bugungi kundagi eng asosiy vazifalaridan biri sanaladi.

Ma’naviy yangilanishing eng muhim ne’matlaridan yana biri bu – milliy faxr, milliy iftixordir. Publitsistik adabiyotlarda «g‘urur», «faxr», «iftixor» tushunchalari biri-ikkinchisiga

o‘xshash tushunchalar deb ta’riflanadi. Aslida ularning mazmunan yaqinligi bo‘lsada, ayni bir paytda biri-ikkinchisidan ma’lum darajada farq qiladi. Ma’lumki, har bir fuqaro o‘z yutuqlaridan qoniqish hosil qilganidek, o‘z xalqi, o‘z Vatani, o‘z millati, o‘z qishlog‘i, o‘z tumani, o‘z viloyatining yutuqlaridan faxrlanadi. Faxrlanish milliy g‘ururning boshlanishi, qoniqish tuyg‘usi bo‘lsa, milliy iftixor milliy g‘ururning yuqori bosqichidir. Xuddi shuning uchun ham milliy iftixor millatni yaxlit ijtimoiy birlik ekanligini his qilishda namoyon bo‘ladi. Boshqacha aytganda, milliy iftixor ruhiy-ma’naviy fazilatdir. Milliy iftixor insonning ongi va faoliyatida o‘zi mansub bo‘lgan millatning madaniyati, tarixi, dini, tili, qadriyatlari qanchalik o‘rnashib olganligini ham ifodalaydi. Uning mustahkamligi milliy birdamlikda yaqqol ko‘rinadi.

Milliy iftixor fuqarolik tushunchasiga yaqin tushunchadir. Ma’lumki, fuqarolik kishini qaysi millatga mansubligini emas, balki muayyan mamlakatga, shaxs yashab turgan makonga bog‘liqligini ifodalovchi tushunchadir. Boshqacha aytganimizda, fuqarolik - shaxs bilan davlat o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Turli millatga mansub bo‘lgan bir mamlakat fuqarolari millatidan qat’iy nazar o‘z davlatining mustaqilligi, davlatning ramzlari (gerbi, bayrog‘i, madhiyasi, Konstitutsiyasi) bilan faxrlanadilar.

Ma’naviy yangilanishning eng muhim ne’matlariga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlardan biri faxrlanishdir. Faxrlanish milliy g‘ururning boshlanishidir. Milliy g‘urur insonparvarlik bilan uyg‘unlashib ketadi. O‘zbekona milliy g‘urur boshqa millatlar, elatlarning milliy g‘ururidan o‘zining insonparvarlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. O‘zbekning insonparvarligi keksalarga, ulug‘larga hurmat, yoshlarga mehr-shafqat, bechora, g‘arib, miskinlarga, yetimlarga xayr-saxovat, otaonaning ko‘ngliga qarab ish tutish, do‘stlarga, qarindosh-urug‘larga yaxshilik qilish, boshga tashvish tushganda g‘amxo‘r, madadkor bo‘lish, topganini yaxshilikka sarflash kabi milliy qadriyatlarimizda ravshanroq ko‘rinadi. Afsuski, xalqimiz-ning biz yuqorida sanab o‘tgan qadriyatlari hammaning turmush tarzidan keng o‘rin olgan deb bo‘lmaydi.

Bunday madaniy-ma'naviy merosdan bebahra bo'lib qolgan kishilar ham borki, ular xudbinligi, baxilligi, hasadgo'yligi, ochko'zligi, g'arazgo'yligi bilan o'zbek millatining obro'sini to'kadilar.

Albatta jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlarida ijtimoiy hodisalarga munosabat xilma-xil tarzda namoyon bo'ladi. Xususan, mustaqqilligimizning birinchi kunidan boshlab, hayotimizning barcha jabhalarida «ma'naviy yangilanish», «milliy qadriyatlar», «milliy g'urur», «milliy iftixor» kabi atamalar tez-tez ishlatiladigan bo'lib qoldi. Bu bejiz emas. Zotan, mustaqillik, ayni paytda, ma'naviy yangilanish hamdir. Uni esa mazkur tushunchalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Xullas, xalqimizning ma'naviy yangilanishi – ma'naviy tarbiyaning ahamiyat muhim omili ekanligini namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent. "O'zbekiston". 2021 yil. 298-bet.

2. Nazarov Q. Aksiologiya. Qadriyatlar falsafasi.- T.: 1998.- 56 b.

3. I.A. Karimov Ona yurtimiz baxti iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T:. - O'zbekiston, 2015. – 302 b.

4. Q.Xonazarov. Milliy mentalitet-taraqqiyot omili. //Muloqot.- 2000-, №3.-,B.

5. M.Bekmurodov. O'zbek mentaliteti. Toshkent. 2001.- 95 b.

6. Sh.Yusupov. Milliy mentalitet – taraqqiyot omili. Toshkent. 2016.

7. A.Erkayev. Ma'naviyat millat nishoni. T.: Ma'naviyat.1997.

8. M.Quronov. O'zbek xarakteri va milliy g'oya. T.: Ma'naviyat, 2005.

YOSHLAR TARBIYASIDAGI AYRIM SALBIY JIHATLAR

Mumtozabegim Maxamatkarimova Shermuhammad qizi, Andijon Iqtisodiyot-pedagogika universiteti "Boshlang'ich ta'lim" fakulteti 1-kurs 50-guruh talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlatimiz siyosati inson omiliga qaratilganligi bayon qilingan. Yoshlar tarbiyasidagi salbiy omillar milliy mentalitetimizga yotligi ko'rsatib berilgan. Kiyim tanlash va kiyish madaniyati yuzasidan tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar. Oliy ta'lim, zamonaviy metodlar, erkinlik, nomus, ota-ona mas'uliyati, jamoatchilik nazorati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oliy ma'lumotli raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga katta e'tibor bermoqda. Yildan yilga oliygohlarining, talabalarning soni ortib borishi fikrimiznining dalilidir. Oliy ta'lim muassasalari 2,5 barobar ko'payib, 198 taga yetdi, qamrov darajasi 9 foizdan 38 foizga oshdi [1].

O'zbekiston Respublikasinig 6 bo'lim, 155 moddadan iborat yangi Konstitutsiyasida ham ta'lim olish huquqi belgilab qo'yilgan [3]. Uni amalga oshirish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. O'quv mashg'ulotlari zamonaviy metodlar asosida qiziqarli tashkil etiladi. Universitetimizda undan tashqari turli mavzularda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazib boriladi. Kurs rahbarimiz universitetning ichki tartib-qoidalarini tushuntirish bilan birga, yaxshi o'qib el-yurtimizga foyda keltiradigan mutaxassis bo'lish to'g'risida nasihat qiladi. Bir-birimizga mehr-muhabbatli bo'lib, bir oila farzandlaridek ahil jamoa bo'lishimizni ta'kidlaydi. Natijada, talabalarning ilm olishi, faolligi, odob-axloqi, muomalasi, yurish-turishida sifat o'zgarishlari yuz bermoqda. Men ham butun viloyatlardan kelgan dugonalarim bilan o'rtoqlashib, o'zaro munosabatlarim do'stona davom etmoqda.

Shunday bo‘lsa-da, hamma erkinliklarning cheki borga o‘xshaydi. Masalan, shahar ko‘chalarida uzun sochini o‘rmasdan, yoziq holda orqasini paxmaytirib yurgan qizlar uchrab qolyapti. Uning ustiga ularning ro‘mol o‘ramaganligi milliy tarbiyamizga to‘g‘ri kelmaydi.

Shuningdek, ayrim qizlar badaniga yopishgan ko‘lak kiyishlari milliy mentalitetimizga zid. Ayniqsa, ikki qo‘llari bo‘y-basti bilan ochiq, tizzasini ko‘rsatib yurishlari nomussizlik. Onaxonlarimiz bularni sharmandalik deb hisoblab, ziynatlarini berkitib yurishgan. Ayrim qizlarga o‘xshab, shimlarni erkakcha usulda kiyishmagan.

Ayrim o‘zbek badiiy filmlarida tungi klublarda beo‘xshov raqsga tushayotgan yoshlarni ko‘rib, qalbimga umuman qabul qila olmayman. Hozirdan likkillab muqom qilayotgan, ichkilik va chekishning badbo‘y hidiga moslashib qolgan, begona bilan xufyona uchrashib shiringuftorlik qilayotgan yoshlar keyinchalik turmush o‘rtog‘iga sadoqatsiz bo‘lib qoladi.

Shunday ekan, uydan chiqayotgan qiz qanday ko‘rinishda ko‘chaga chiqayotganini kuzatib turgan oila kattalari yoqimsiz holatlarning oldini olishi zarur. Axir, farzand ota-onaga bo‘ysunadi-ku. Shuningdek, tog‘a, amma, aka va boshqalar gapini quloqqa olib, sochlarini yig‘ishtirib olsa, ro‘mol o‘rasa yoki do‘ppi kiysa, haqiqiy o‘zbek malikasiga aylanadi.

Kiyinishda risoladan chetga chiqib, tor futbolka kiygan qizlar o‘z qomatini ko‘z-ko‘z qilish bilan teng. Xorijdan kelgan mehmonlar milliy kiyimlarimizni havas qilayotgan bir paytda, ayrim qizlar “god var” – xudo jangi, “go and die” – borgin va halok bo‘lgin, “I am vith stupid – men axmoq bilan birgaman, “kiss me today” – meni bugun o‘pgin, “Don’t drink and drive just smoke and fly” – ichma va harakatlanma, faqat chekkin va parvoz qil, “I am sikk” – men kasalman, “king of pigs” – cho‘chqalar qiroli, “I am yores” – men senikiman, “stupid boy” – axmoq bola, “fiy” – pashsha, “shamelessa” – uyatsiz, “blakk and dirty” – qora va iflos degan yozuvlarni futbolkasida ko‘tarib yurishlari millatimiz sha’niga xiyonatdir [2]. Ba’zi futbolkalardagi “Amerika”, “London”, “Parij”, “Rossiya”

ZJV5401

yozuvlari bilan nimalarni reklama qilayotganligini tushuntirib qo‘yish zarur. Hayriyatki, bunday salbiy ko‘rinishdagi holatlar ozchilikni tashkil etadi. Agar ko‘payib ketsa, nima bo‘ladi? Kelgusi avlod o‘zbekligini unutadi. Milliy qadriyatlar o‘ladi. Jamiyat hayoti ayniydi.

Bugungi kunda Vatanimiz obod, shahar va qishloqlarimiz go‘zal bo‘lib bormoqda. Yoshlar o‘z iqtidor va qobiliyatlarini ishga solishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Judayam ko‘p yoshlarimiz kasb tanlash, hunar o‘rganish, halol mehnat qilish bilan band. Mahallalarda nuroniy ota va onaxonlarimiz jamiyatimizdagi noxush

xolatlarning oldini olish uchun jamoatchilik nazoratini amalga oshirmoqda. Umumxalq hasharlarini o‘tkazish, referendumda ishtirok etish, ommaviy bayramlar o‘tkazish, mahallada kam ta’minlangan, nuroniy, nogironlarga iftorlik berish, to‘y va marakalarda xizmat qilish, mahalla muammolarini birgalikda hal etish kabi ishlar ko‘zimizni quvontiradi.

Yuqoridagilardan quyidagicha xulosa qilish mumkin:

- davlatimizning siyosati odamlar manfaatlariga xizmat qilmoqda;
- yashash, o‘qish, ishlash va ixtiro qilish uchun barcha erkinliklar ta’minlangan;
- yoshlar tarbiyasida ayrim qusur va kamchiliklar bor;
- jamoatchilik nazorati orqali yoqimsiz holatlarning oldini olish imkoniyatlari yetarli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va xalqiga Murojaat. 20-dekabr 2022-yil.

2. Nizomova R. Kiyimingizdagi yozuvlar ne “deydi”? // “Xolis” gazetasi, Andijon, 20.05. 2015. 21-soni.

3. O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi (loyiha). 2023-yil.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI TARBIYASI

To‘rayev Kamolliddin,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya: Maqolada Temuriylar davrida tarbiya masalasi, qanday usullardan foydalanganligi va bugungi kundagi yosh avlodni tarbiyalash jarayonida transformatsiya qilishga oid fikr mulohazalar atroflicha yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar: Temuriylar davri, tarbiya, markazlashgan davlat, barkamol avlod, madrasa, mantiq va hisob darslari.

Ilm-u ma’rifat, ta’lim-tarbiya inson kamolotining va millat kelajagining asosiy manbasi hisoblanadi. Ma’rifatparvar shaxs Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo momot, yo najot - yo halokat, yo saodatdir - yo falokat masalasidir...”, - deb bejizga aytmagan.

Har bir tarixiy davrning o‘ziga xos tarbiya usullari va talablari bo‘lgan. Ayniqsa milliy tarbiya tizimida Amir Temur va temuriylar davri tarbiyasi muhim axamiyat kasb etadi. Chunki markazlashgan davlatni barpo etish, unung ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jihatdan rivojlanishini ta’minllashda ta’lim va tarbiya jarayoning o‘rni beqiyos bo‘lgan. Aniqiroq aytsak, shu davrdagi taraqqiyotning asosini Sohibqiron va Temuriylarning tarbiyasidan izlash lozim.

Manbalarda qayd etilishicha, Amir Temur tug‘ma qobiliyat, istidodga ega ekanligi, favqulotda qobiliyatlari 6-7 yoshlaridayoq namoyon bo‘lganligi ko‘rsatib o‘tilgan. Otasi keng mushohadali farzand bo‘lishini istaganligi sababli uni nufuzli davralardagi suhbatlarga o‘zi bilan birga olib borgan. Suhbat mavzusi ko‘p xollarda do‘tlik, mardlik, jasorat, insoniylik va unga zid bo‘lgan sotqinlik, xiyonat, ikkiyuzlamachilik va ulardan insonlarga yetadigan zarar-oqibatlari muhokama qilingan.

Amir Temur besh yoshga yetganda onasi va opasidan yozish va o‘qish sirlarini o‘rganadi, u yoshligidan qaysi ishga qo‘l urmasin ma’suliyat bilan yondashishini, o‘z burchi va vazifalarini yuqori darajada bajarishga harakat qilgan. Bolaligidan shakllangan bu fazilatlar esa uning kelgusida buyuk davlat arbobi, sarkarda, adolat himoyachisi bo‘lib yetishishiga asos bo‘lgan.

Tarixchi olim Bo‘riboy Axmedovning ta’kidlashicha Soxibqiron saroyidagi shaxzodalar 4 yoshdan boshlab o‘qitilgan, ularni dastlab xat-savodi chiqarilgan. 4-8 yoshida ularga maxsus qissaxonlar biriktirilgan. Ular Abu Muslim, Xazrat Aliga bag‘ishlangan qissalarni, payg‘ambarlarning jangnomalarini, xalq dostonlarini hikoya qilib bergan. E’tiborli jihati shundaki, tarbiyalanuvchi 4 yashar, qissaxonlar esa 10-12 yashar bo‘lgan. Qissaxonlik bolalarda mexr-oqibat, sadoqat tuyg‘ulari bilan birgalikda ularning xotirasini mustahkamlash va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilgan. Bolalarni 8 yoshidan boshlab madrasalarga berishgan. Madrasalarda diniy bilimlar bilan birgalikda dunyoviy bilimlar ham o‘rgatilgan. Bundan tashqari shahzodalar va malikalar musiqa, musiqashunoslik, sheriy nutq, aruz ilmini ham yetarlicha o‘rganishgan. Masalan, Mirzo Ulug‘bekning sher yozganligi, musiqaga bag‘ishlab beshta risola yozganligi ma’nbalarda qayt etilgan. Kuylarning ayrimlari harbiy tusda bo‘lib, nog‘ora va karnay vositasida ijro etilgan.

Temuriy shahzodalarga ov qilish maxsus o‘rgatilgan. Shaxzodalar ov qilish orqali chiniqtirilgan hamda jang qilish yo‘llari o‘rgatilgan. Ov qilish orqali qo‘shinning oziq-ovqat zahirasi to‘plangan Temuriy shahzodalarga harbiy ilm sirlari yetarlicha o‘rgatilgan. Maxsus tayorgarlikka ega bo‘lgan ustozlar tomonidan saboq berilgan. Qilichbozlik, ot minish, nayza uloqtirish, ot ustida chavgon o‘ynash, poyga qo‘yish, uloq chopish kabi o‘yinlar o‘rgatilgan. Bu jarayonlar shaxzodalarga 7-8 yoshda 12 yoshgacha o‘rgatilib, 12 yoshdan keyin davlat vazifalarini bajarishga, amirlarni tayinlash yo‘llari, ariza va shikoyatlarni eshitish, hukm chiqarish kabi masalalar

“Suluk ul-mulk” (podsholar uchun qo‘llanma) orqali o‘rgatilgan, muhimi - shaxzodalarga saroy odobi o‘rgatilgan. Ular 12 yoshga to‘lgandan keyin viloyatlar berilib, obro‘li bek yoki amirlar ularga otaliq etib tayinlangan. Amirlar, beklar, maliklar o‘z farzandlarini tarbiyalash jarayonida saroy tarbiyasidan o‘rgangan. Hunarmand va dehqonlar amirlar, beklar, qozilar oilasidagi bola tarbiyasini o‘zlariga ibrat qilib olishgan.

Qishloqlardagi masjidlar qoshidagi maktablarda bolalarni xatsovodi chiqarilgan, ularga mantiq va hisob darslari o‘tilgan. Hofiz, Bedil, Navoiy kabi ulug‘larning kitoblari o‘qitilgan. Oddiy xalqning farzandlari ota kasbi bo‘lgan kulolchilik, miskarlik, duradugorlik, chilangarlik kabi kasb-xunarlarni o‘rganishgan. Har bir guzarning o‘z temirchisi, bo‘zchisi, mahsido‘zi, etikdo‘zi, sartoroshi bo‘lgan. Bolalar otalari yordamida mol boqish sovda-sotiq va dexqonchilik sirlarini o‘rganishgan.

Amir Temur va temuriylar davrida qizlar tarbiyasiga ham alohida e’tibor berilgan. Malikalar biror-bir musiqa asbobini chalishni bilishi, she’r yozish va nafis san’atning ayrim turlarini egallashlari lozim bo‘lgan. Bibixonim, Gavxarshodbegim, Zebunisobegim, Gulbadanbegim kabi Temuriy malikalardagi zukkolik, tadbirkorlik, suxondonlik, musiqa ilmidan xabardor bo‘lish, she’r va tarixiy asarlar yozish, davlatni boshqarishda faol ishtirak etish kabi taxsinga loyiq fazilatlarni bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalashda tizimli ravishda foydalanish asosiy burchimizdir.

Amir Temur va temuriylar davri tarbiya usullarini ilmiy va amaliy jihatdan chuqur o‘rganilishi va unga oid uslubiy qo‘llanma tavsiyalar ishlab chiqish, ommobop risolalar tayyorlanishi, bu borada ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanishni davr taqozo etmoqda. Ushbu xayrli ishlar amalga oshirilsa, mamlakat kelajagining ravnaqini belgilab beraligan barkamol, ilmli, savodli avlodni tarbiyalashdek davlat buyurtmasi bajarilgan bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Temur tuzuklari. Forschadan X.Karomatov tarjimasi. Prof.B.Ahmedov tahriri ostida. G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. – T.,1999, 352-bet.

2. Xoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. T.: “O‘qituvchi”, 1996, 358 b.

3. G‘oyibov N. Amir Temur davri ma’naviyati. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2001. 32-bet.

ZJV5401

INSON KAMOLOTIDA MA'NAVIY TARBIYA MEZONLARI

Siddiqova Shoxida Isoqovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti, dotsent
Jizzax viloyat Ma'naviyat targ'ibotchilari jamiyati a'zosi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson kamolotida ma'naviy tarbiya mezonlari xususida fikr yuritiladi. Xususan, davlatimizda bugun yoshlar ta'lim va tarbiyasiga katta e'tibor qaratilayotgani davlat siyosatining dolzarb masalalaridan biriga aylangani hech birimizga sir emas. Agar kelajak avlod yoshligidanoq ta'limda saboqni har tomonlama mustahkam olsa, uning ertangi kuniga poydevor bo'lishi shubhasiz.

Tayanch so'zlar: tarbiya mezonlari, ilm-fan, adabiyot va san'at, madaniyat va ma'rifat, barkamol shaxs.

Mamlakatimizda mustaqillik davrida qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar, ilm-fan, adabiyot va san'at, madaniyat va ma'rifat bilan bog'liq sohalarda bo'layotgan o'zgarishlar, erishilgan yutuqlar ko'lamini, mustaqillik g'oyalarini yosh avlod shuuriga singdirish maqsadida ta'lim tizimiga alohida e'tibor kuchaytirildi. Ta'lim bilan birgalikda yosh avlodning tarbiyasiga ham alohida e'tibor qaratish lozimligi aytilmoqda. Negaki, tarbiyasida kamchiligi bo'lmagan bola jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarga loqayd bo'lmay o'zining mustaqil munosabatini bera oladi. Shunday ekan, Abdulla Avloniy ta'biri bilan aytganda, "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir".

Bugungi kunda yoshlar ta'lim va tarbiyasiga katta e'tibor qaratilayotgani davlat siyosatining dolzarb masalalaridan biriga aylangani hech birimizga sir emas.

ZJV5401

Agar kelajak avlod yoshligidanoq ta'limda ham ma'naviy, ham ma'rifiy saboqni mustahkam olsa, uning ertangi kuniga poydevor bo'lishi shubhasiz. Saboq esa oila, ustozlar orqali bola yuragiga jo bo'ladi. O'zbekistonimizda mustaqillik sharofati bilan barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirildi, kadrlar tayyorlashning milliy dasturi ishlab chiqildi va bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilib kelinmoqda. Ayniqsa, yurtimizda ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilib, kelajak yosh avlodni har jihatdan yetuk, barkamol shaxs qilib tarbiyalash borasida zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Bu borada buyuk mutafakkirimiz Alisher Navoiy quyidagi fikrlarini bejiz aytmagan: "Yosh bolani juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o'zida yaxshi odat va fazilatlar hosil qilishga yordam beradi".

Forobiy esa inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning muhimligini ta'kidlab, "Munosib inson bo'lish uchun insonda ikki xil imkoniyat: ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir..." deydi. Xuddi shu masalada Abu Ali ibn Sino oila tarbiyasida ota-onaning o'rniga alohida to'xtalib, "Bola tug'ilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo'yishi, so'ng uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak... Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa, oila baxtli bo'ladi" degan fikrni ilgari suradi [1].

Inson har tomonlama kamol topishi va farovonligi uchun shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlari va mexanizmlarini yaratish, ijtimoiy xulq-atvor andozalarini o'zgartirish, rezpublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi asosiy mezon hisoblanadi. Xalqning boy zamonaviy madaniyati, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiya sohasidagi yutuqlari asosida mutaxassislar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish esa yosh avlod tarbiyasida muhim omillardan sanaladi.

Barkamol inson tarbiyasi azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, jamiyatning muhim talabi va maqsadi, yurt ma'naviyatining uzviy qismi bo'lib kelgan. Bu g'oya nafaqat alohida

shaxslarning, balki butun xalqlarni yuksaklikka ko‘tarilishida sababchi bo‘lgan, bir maqsad ostida birlashtirgan. Komillikni orzu qilmagan, barkamol inson tarbiyasini xayoliga ham keltirmagan xalq hech qachon yuksalmaydi, kelajagi ham bo‘lmaydi. Shu bois mamlakatimizda bola tarbiyasi, uni barkamol inson qilib tarbiyalash muhim masalalardan biriga aylangan. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq. Zero, ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligi yoshlarda bilim egallash bilan birga vatanparvarlik, insonparvarlik, umuminsoniylik kabi qadriyatlarning shakllanishiga yaqindan yordam beradi.

Buyuk alloma A.Jomiy ham ta’lim-tarbiya masalalari xususida so‘z yuritar ekan, ijtimoiy tarbiyani tashkil etishga jiddiy e’tibor berishni maqsadga muvofiq deb topadi. Biroq tarbiya izchil va uzluksiz yo‘lga qo‘yilishiga erishishni muhim, ya’ni har qanday giyohni ham parvarishlash asosidagina undan yaxshi hosil olishni ko‘zlash mumkinligini, agarda insonga uning bolaligidanoq yaxshi tarbiya berilsa, u komil inson bo‘lib voyaga yetishiga ishonch bildirilishini ta’kidlaydi [2].

O‘zbekistonning buyuk kelajagini bunyod etish, asosan, bugungi yosh-avlodning zimmasida ekan, ularni bilimli, aqlzakovatli, har tomonlama yetuk, izlanuvchan etib shakllantirish hayot tajribasiga ega, qiyinchiliklarni boshidan o‘tkazgan yoshi ulug‘larimiz, qolaversa, ularning ta’lim-tarbiyasiga birdek mas’ul ota-onalar, o‘qituvchilarning asosiy vazifasi bo‘lib qolaveradi. Bu yo‘lda yosh-avlodga ta’lim-tarbiya olishlari uchun to‘liq shart-sharoit yaratish, ularning odob-axloq, ma’naviyat masalalariga katta e’tibor berilayotganligi bejiz emas, aslida. Bularning barchasi olib borilayotgan oqilona siyosat namunasidir.

Yosh avlodni kamolga yetkazishda u yashayotgan jamiyatdagi muhit, hayotiy tajriba, ta’lim-tarbiyaning ta’siri natijasida u o‘zlaridagi ijobiy va salbiy fazilatlarni namoyon qiladi. Buyuk allomalarimiz ham fikrimizning isboti sifatida ushbu

fikrlarni bildirishgan: “Inson tug‘ilganda kamolotli bo‘lib tug‘ilmaydi, ularning orasida aslida farq ham bo‘lmaydi, ularning xulqi, faoliyati o‘xshash bo‘ladi, keyinchalik esa o‘zgaradi. Yana inson go‘zal fazilatlarga ikki yo‘l – ta’lim va tarbiya yo‘li bilan erishish mumkinligini aytib o‘tishgan.

Inson kamolotga, komillikka yolg‘iz o‘zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo‘lishga, ularning munosabatlariga muhtojlik sezadi. Chunki har bir odam ham baxtni, ham narsa-hodisalarni o‘zicha bila olmaydi. Unga buning uchun o‘qituvchi lozim. Bunga ta’lim-tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali erishish mumkin. “Ta’lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat” – deb biladi Farobiy [3].

Ta’lim va tarbiya – birining o‘rnini biri to‘ldiruvchi ne’matlardir. Agarda ulardan biri, masalan, bolaning tarbiyasi bo‘lmay turib kuchli ta’limga ega bo‘lsa, bunday rivojlanish hech qanday samara bermaydi yoki aksincha. Shuning uchun bolani mukammal inson qilib tarbiyalashda ularning ham ta’lim, ham tarbiyalariga alohida e’tibor berishimiz, bilimli, ma’rifatli qilib o‘stirishda har ikkalasini ham hisobga olib ish yuritishimiz kerak.

Shu o‘rinda yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning fikrlarini keltirish ma’naviyatning o‘rni nechog‘lik muhimligini ko‘satadi: “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, ozligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan” [4].

Yosh avlod rivojlanishida ta’lim-tarbiyaning uyg‘unligiga erishish uchun ilk tarbiya o‘chog‘i hisoblangan oilaga e’tibor berishimiz lozim. Negaki, oila farzand tarbiyasida juda muhim rol o‘ynaydi. Bunda oilada ota ham, ona ham asosiy subyekt hisoblanadi. Shu bilan birga, ustozlarning o ‘rni ham beqiyosdir. Bilamizki, ustoz degan sharafli nomga sazovor bo‘lish har kimga ham nasib etmagan. Bu ulug‘ nomni olish uchun ko‘p yillar davomida murakkab sinovlardan o‘tish lozim bo‘lgan. Yuqorida fikrimizga isbot tariqasida, ustozlarning mashaqqatli mehnatlari samarasi o‘laroq, qadimda tabarruk bu zaminimizda Ahmad Yassaviy, al-Beruniy, al-Farobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy singari buyuk allomalar hamda Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Mahmud Tarobiy, Sohibqiron Amir Temur va temuriyzodalardek shaxslarni keltirsak, hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki bunday zotlar o‘z xalqining baxt-saodati, madaniyati, ravnaqi uchun jisman va ma’nan kurashganlar. Ayniqsa, ular yoshlarning bilim olishlari, kasb-hunar tanlashlari, tarbiyasiga katta e’tibor berganlar va hozirda ular buyuk insonlar deya e’tirof etilar, qoldirgan nodir durdonalari dasturulamal sifatida qadrlanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda jamiyatimizda ulkan, salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Respublikamizda bugun yoshlar ta’lim va tarbiyasiga katta e’tibor berilayotganligi, ayniqsa, bu davlat siyosatining dolzarb masalalaridan biriga aylanganligi hech qaysimizga sir emas.

Xususan, hayot yo‘llarida tayanch, yolg‘izlik paytlarda yo‘ldosh, baxtiyor daqiqalarda rahbar, bilim tongidagi nur, quyosh – go‘zal axloq, ma’naviyat hisoblanishini ilg‘ash qiyin emas.

Insonning qanday ekanligi, birinchi navbatda, uning fikrlashidan, dunyoqarashidan, axloqiy jihatdan pokligi bilan belgilanadi. Dunyoqarashi, fikrlashi sog‘lom odamni soxta g‘oyalarga, buzg‘unchi ishlarga ishontirib ham, aldab ham bo‘lmaydi. Sababi, ong-u tafakkur insonning fikrlash, o‘ylash, tahlil etish va xulosalar chiqarish qobiliyatini bildiradi.

Insonning dunyoqarashi qalb va ongdagi fikr va sezgilar asosida shakllanadi. Ammo hayotda o‘zining yovuz niyatlari bilan inson miyasini zaharlaydigan, to‘g‘ri yo‘ldan ozdiradigan, jaholat sari yetaklaydigan kuchlar hamon mavjud. Bunday yovuz kuchlarga, jaholatga qarshi faqat va faqat ma’rifat orqali go‘zal ma’naviyat orqali bas kelishimiz mumkin. Haqiqiy ma’rifatli, barkamol, ma’naviy-axloqiy inson atrofdagilari, butun xalq taqdiriga befarq bo‘lmagan holda ular uchun qayg‘uradi. Sunday ekan, O‘zbekistonda jamiyatni, ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish va uni har tomonlama rivojlantirish xalqning dunyoqarashi, ma’naviyati bilan bog‘liqdir.

Bugungi kunda rivojlanayotgan davlatimizga boshqa mamlakatlar bilan bemalol raqobatlasha oladigan intellektual salohiyat egasi bo‘lgan, ma’rifati yuksak shaxslar zarurdir. Bunday insonlar hech qachon jaholat ta’siriga berilmaydi. Ma’rifat inson ma’naviyatining cho‘qqisi bo‘lsa, jaholat uning aksi, inson zotining zavoli, kushandasidir. Xulosa qilib aytganda, ma’naviy-axloqiy negizlar mustaqil yosh avlodni tarbiyalashda asosiy omillardan biridir. Zero, ma’rifatga intilish – yuksak ma’naviyatga erishmoqqa poydevordir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. https://religions.uz/uz/news/detail?id=309
2. Husayn Voiz Koshifiy “Axloqi muhsiniy” asari., T.: 2017.
3. https://azkurs.org/
4. https://uza.uz/

II SHO‘BA: DUNYONING MAFKURAVIY MANZARASI. TARG‘IBOTNING YANGI TEXNOLOGIYALARI

POPULIZM – JAMIYAT IKKIGA BO‘LINISHINING ASOSIY OMILI

Hamid Sodiq,
“Fikrat” tahliliy guruhi eksperti, siyosatshunos

Biz axborot zamonida yashayapmiz. Industrial davr o‘z o‘rnini postindustrial davrga bo‘shatib berdi, mazkur davrni olimlar “informatsion zamon” ham deb nomlashgan. Informatsion epoxaga o‘tilishi bilan, bir necha o‘n yillar davomida hukmron bo‘lib kelgan monopoliyalar yemirila boshladi. Shunday monopoliyalardan biri bu ommaviy nutq, xalqqa murojaat va kontent hosil qilishga bo‘lgan monopoliya edi. XX-asrda totalitar va avtoritar rejimlarda, shu bilan birga demokratiyalarda ham ommaviy murojaatga nisbatan monopoliyalar bo‘lgan. Totalitar rejimlarda “mutloq haqiqatni” diktator gapirgan va boshqalarning muqobil haqiqatlarni ommaviy chiqishlar orqali gapirishga huquqi bo‘lmagan va bunday harakatlar qattiq jazolangan (masalan, 1924 – 1953 yillarda I.V.Stalinning nutqi “mutloq haqiqat” hisoblangan va h.k.).

XX asr demokratiyalarida esa bu monopoliyalar biroz “yumshoq” ko‘rinishda bo‘lib ular, kontentni saqlab turuvchi diskurs rahbarlari, ya’ni akademik qatlam (olimlar, professorlar, fan doktorlari va dotsentlar va.h.k.) bo‘lib ular haqiqatni bilganlar va auditoriga (ommaga) yetkazganlar. Ikkinchisi esa OAV lari egasi, ya’ni davlat. Davlat o‘zining siyosiy diskursi manfaatlari yo‘lida OAV larida cheklanmagan miqdorda ommaviy chiqishlar qilish va o‘zining “haqiqatini” ommaga yetkazish imkoniyati (monopoliyasi) ega bo‘lgan.

Informatsion davr (epoxa) o‘z hukmini o‘tkaza boshlagan-

ZJV5401

dan keyin, faqatgina davlat, diktator, avtokrat va korporatsiyalar hukmida bo‘lgan “katta megafon” geometrik progressiyada ko‘paydi va urchib ketdi. Oldin ommaviy murojaatga faqat diskurs egalari haqli va imkonli edilar, informatsion davrga kelib esa bunday imkoniyat, qo‘lida smartfoni yoki kompyuteri bor internet bilan ta’minlangan kishilarning barchasiga berildi.

Bu jarayon axborot olish manbalarining ortib ketishiga, olingan axborotni talqin qilish esa misli ko‘rilmagan miqdorda ortishiga sabab bo‘ldi. Bu shunday tarixiy evrilish davriki biz hali uning ahamiyati va o‘ziga xosliklarini to‘liq anglab yetmaganmiz.

Informatsion davrning tarixiy analogiyasi maxsus jihozlarda kitob bosishning vujudga kelish davri bilan bog‘lash mumkin. Iogann Gutenberg 1439-yilda kitob bosish stanogini ixtiro qildi, kitob ommaviy bosila boshlanishini shu davrning dindor qatlami “oxiri zamonning kelishi” deb baholashgan edi. Bu fikr va chaqiriqlar asossiz bo‘lmagan chunki, Gutenberg stanoklarida dastlab musiqa notalari va pornografik rasimlar ommaviy chop qilingan.

Shu bilan birga, Gutenberg ixtirosi markazlashgan din paradigmasini ham barbod qildi. Muqaddas kitoblar maxsus tayyorgarlik ko‘rgan xattot va mutaxassislar tamonidan ko‘chirilib ko‘paytirilgan, mazkur kitoblar esa juda kam va shu bilan birga juda qimmat bo‘lgan. Kitob ko‘chiriladigan joylar ma’rifat markazlari va kitob ko‘chirishga imkonli bo‘lganlar esa ilm (axborot) ning tabiiy monopolistlari bo‘lgan. Keng ommaning ushbu ma’lumotlarni olishga na imkoni na mablag‘i bo‘lgan. Gutenberg ixtirosi ommaga o‘zi xohlagan kitobni bosish imkonini berdi, o‘sha paytlari “bu stanoklarda chop etilgan kitoblar va materiallar yoshlarimizni buzadi” degan chaqiriqlar kun tartibida bo‘lgan.

Bundan keyin kitob bosishning jiddiy oqibatlari vujudga kela boshladi, xususan Injil misli ko‘rilmagan miqdorda turli tillarda chop etila boshladi, bu esa turli xil reformatsiyalarning boshlanishiga, yagona diniy markazlarning yemirilis-

higa va oxir oqibat milliy davlatlarning vujudshga kelishiga sabab bo‘ldi. Shunday qilib Gutenbergning ko‘chma harflarni terishga asoslangan ixtirosi eski davrni tugashi va yangi davr boshlanishiga sabab bo‘lgan edi.

Bugungi kunda ham yuqorida ta’riflangan voqealarni boshimizdan kechirmoqdamiz. Son-sanoqsiz axborot manbalari undan ham ko‘p faktlarning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Mana shu diskurs o‘zi bilan demokratlashuv, transporentlik va populizm kabi ijtimoiy-siyosiy hodisalarni o‘zi bilan sudrab keldi.

E’tibor bergan bo‘lsangiz insonlar bir birini yolg‘onda ayblaydi, ayniqsa bu siyosiy jarayonlarda juda ko‘p ko‘zga tashlanadi. Bu holatda masala kimning rostgo‘y yoki yolg‘onchiligida emas. Masala, faktlarning haddan tashqari ko‘pligida, mazkur faktlarni talqin qilish esa unda o‘nlab barobar ko‘pligidadir. Ijtimoiy makonda faktlar shu darajada ko‘pki, ulardan istalgan “haqiqat konsepsiyasini” yaratish mumkin. Bu esa ommaning juda katta qismiga haqiqatni aniqlashni murakkablashtiradi va insonlar oxir oqibat axborot tarqatuvchining to‘g‘ri so‘zligi yoki kazzobligiga emas, balki ma’ruzachi bilan ruhiy yaqinlik va birlikni qidirish va topishga asoslana boshlashadi. Ular fakt haqiqatini emas emotsiya haqiqatini izlaydi va “Haqiqatni bilish prinsipi” asosida emas, “Haqiqatni his qilish prinsipi” asosida birlashishni boshlashadi. Aynan mana shu emotsional holat insonlarni populist siyosatchilar oyoqlari ostiga to‘kilishiga sabab bo‘ladi. Populist siyosatchilarning auditorisi undan haqiqat, rotsionallik va faktlarni kutmaydi, ular o‘zlari his qilayotgan emotsiyalarni kutadi, bu esa yolg‘on va asossiz va’dalarga yo‘l ochib beradi.

Ma’lum bir tushuncha ilmiy doiradan ommaviy iste’molga kirganda o‘zining asosiy ildiz ma’nolarini yo‘qota boradi va mohiyat chegaralari yuvilib emotsional rang berilgan konnatatsiyaga ega bo‘ladi. (masalan, fundamentalizm tushunchasi Xristianlik dini bilan bog‘liq ilmiy termin hisoblanadi). Populizmni ommaviy tushunishda siyosatchining aslida bajarish imkoni bo‘lmagan vadalar bilan keskin chiqishlar qilishi,

go‘yoki xalq manfaatlarini ko‘zlab emotsional murojaatlari bilan bog‘lashadi. Aslida esa populizm o‘zining murakkab falsafiy, iqtisodi va huquqi asoslariga ega.

Dorbush Edvardsning ta’rifi bo‘yicha populistlar deb moddiy boyliklarni teng taqsimlashni va’da qilgan lekin makroiqtisodiyot talablarini bajarmagan so‘l siyosatchilar aytilgan.

Populizm bu mafkura emas, balki olamni ta’riflash usulidir. Bu tushuncha asosida korrupsiyalashgan elita va yagona tarkibli axloqli xalq yotadi. Populistlarning anglashicha xalq gomogen ya’ni bir tarkibli. Aynan xalqni gomogen deb bilish, xalqning tarkibidagi turli xil guruhlarning fikrlarining e’tiborga olinmasligiga sabab bo‘ladi. Bu esa populistlarning antiplyuralist ekanini ko‘rsatadi.

Populizmning ildizlari jamiyatning ikkiga bo‘linishiga asoslanadi unga ko‘ra jamiyat ikkita gomogen qism xalq va elitaga ajratiladi. Elitar qatlam (kosmopolitlar) kamchilikni tashkil qilsada xalqqa nisbatan juda katta huquq va imkoniyatlarga ega, xalq (bir tarkibli va aybsiz) esa elitadan bir necha o‘n baravar ko‘p bo‘lsada huquqlari kam va imkoniyatlarda cheklangan hisoblanadi. Populistlar aynana mana shu ikkita ahamiyatli guruhning o‘rtasida turib xalqni elitadan himoya qilish, resurslarni teng taqsimlashga imkonli bo‘lgan shaxs yoki partiya ko‘rinishida siyosiy sahnaga chiqadi. Bu joyda bir muhim jihatga e’tibor qaratish lozim, populistlar siyosiy jarayonlarga va xalqning oldida turgan muammolar yechimiga dixotomik (oq yoki qora) yondoshadi va xalqning oldidagi muammolarni faqat biz xal qilamiz degan da’vo bilan chiqishadi. Ularning nazlida o‘zi mansub bo‘lgan partiyadan tashqari barcha partiyalar elitaga, siyosiy estebleshmentga tegishli faqat ulargina xalqchil partiya ekanligi ta’kidlashadi. Populizmga ilmiy yondoshuvda ham biroz salbiy nazar borligini sezish mumkin, aslida populizm “xomiladorlikka” o‘xshagan narsa emas, bu hodisaga nisbatan “bor yoki yo‘q” ko‘rinishida qarab bo‘lmaydi. Siyosiy aktorlar faoliyatini kuzatadigan bo‘lsangiz ularning ritorikasida populizmning ayrim belgilarini kuzatish mumkin, shu bilan birga aniq ajralib

turadigan populist siyosatchilar va partiyalar ham bor.

Populizm o‘z maqsadiga qarab ikki yo‘nalishga ajratiladi bular o‘ng va so‘l populizmlardir. O‘ng populizm tub aholining manfaatlarini, antimigratsion g‘oyalarga sodiqligini bayroq qilishi bilan ajralib turadi. So‘l populistlar esa iqtisodiy demokratiya, ijtimoiy himoya va antiglabolizatsiya talablarini qo‘yishadi.

Populizm siyosiy rejimlar kesimida ham o‘zini turli xil tomonlardan ko‘rsatadi. Masalan, demokratiyalarga ichki populizm xos, chunki xalqqa yengilliklarni va’da qilayotgan populistlar hokimiyatga kelishning real imkoniyatlariga ega. Totalitar va avtoritar rejimlarda esa siyosiy hokimiyat bir kishi yoki partiyaning qo‘lida jamlanganligi sababli boshqa bir siyosat suyektiga nisbatan o‘zini qiyoslashning zarurati bo‘lmaydi, bunday davlatlarda “demokrat” ham “populist” ham diktatorning o‘zi bo‘ladi. Shu bilan birga totalitar va avtoritar rejimlarda tashqi populizm kuzatiladi, bunday davlatlardagi avtokrat tashqi “dushmanga” nisbatan populistlik qiladi, ya’ni “faqat men tashqi dushmandan himoya qilishim mumkin” degan g‘oya orqali harbiy harakatlar va o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazadi. Siyosiy amaliyotda “Diktator uchun tashqi dushman, ichki do‘stdir” degan tushuncha bo‘lib, bu avtoritar boshqaruvchilar tashqaridan topilgan va ko‘p xollarda bo‘rttirilgan dushman orqali o‘z hokimiyatini mustahkamlashini anglatadi.

Zamonaviy jamiyatlarda populizm siyosati o‘z imkoniyatlarini yo‘qotib borayotgan bo‘lsada, gegemon davlatlar tashqi siyosatda haliyam populizmdan foydalanishga harakat qilishmoqda. Tan olib aytish kerak, bizning jamiyatimizda bugun populizm yo‘q. Lekin populizmning tashqi ta’siri, ayni paytda, haliyam xatarligicha qolmoqda. Bunday holatda uning zararli oqibatlari haqida ilmiy jamoatchilik yetarlicha tadqiqotlar olib borishi, keng jamoatchilikka yetkazib berishi lozim bo‘ladi.

TURKIYA VA ISLOM: MA'NAVIYAT, QADRIYATLAR, ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Sarvarjon G'afurov,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i,
siyosiy fanlar doktori, professor

XXI asr boshida jahon hamjamiyatida dunyo siyosiy tartibini yangi realliklar bilan tubdan o'zgartirgan jiddiy siyosiy-ijtimoiy jarayonlar yuz berdi. Yaqin Sharq davlatlarida umumjahon siyosiy tizimiga ta'sir etishga qodir, global iqtisodiy taraqqiyot bosqichlarini belgilaydigan tendensiyalar kuzatildi.

Turkiya Yaqin Sharq mintaqasida joylashgan, 88 mln aholiga ega yirik davlat. Aholining 75 foizini (66 mln) turklar, 18 foizini (15 mln) kurdlar tashkil etsa, arab, grek, arman, tatar, yahudiy millatiga mansub elatlar ham mavjud. Turkiya aholisining 99,8 foizi islom diniga e'tiqod qiladi. 1982 yildagi Konstitutsiyaga ko'ra, Turkiya dunyoviy davlat hisoblanadi.

Turkiya geografik joylashuv nuqtayi nazaridan, Yaqin Sharq va Osiyo qit'asini Yevropa bilan bog'lab turuvchi ko'prik sifatida geostrategik mavqega ega. G'arb davlatlari uchun Turkiya – arab va islom dunyosini bufer zonasida joylashgan, islom dinining radikal ta'sirlaridan ixota qiluvchi, millionlab muhojirlarni o'zida tutib qoluvchi himoya to'sig'i. Arab va islom dunyosi uchun esa, Turkiya – musulmonlarning Yevropa chegara hududlaridagi avangardi, islom diyorlarining mustahkam chegara-qo'rg'oni.

Turkiya zamonaviy mintaqaviy va xalqaro siyosatda o'zigagina xos hassos yondashuvni olib bormoqda. Bir tomondan, Turkiyaning strategik hamkorlari, ijtimoiy hayotdagi "ommaviy madaniyat" va demokratiya targ'ibotchilari bo'lgan AQSh va Yevropa davlatlari bo'lsa, ikkinchi tarafdan, islom dini

mafkurasi asosida asriy qardoshlik, dindoshlik, mushtarak tarixiy o‘tmish va qadriyat rishtalari bilan bog‘langan islom dunyosi. Turkiya ana shu ikki mafkuraviy dunyo qarshisida turgan, o‘zaro muvozanatni tutishga uringan holda siyosat yuritish qobiliyatini ko‘rsatishga harakat qilayotgan, unikal davlatchilik fenomeniga ega mamlakat.

XXI asr boshida Turkiya jahon siyosati, global iqtisod, mintaqaviy va umumjahon xavfsizligi va barqaror taraqqiyotini ta’minlash tizimlarida o‘zining munosib mavqeyiga, ta’sir kuchiga ega bo‘lishdek salohiyatni namoyish eta oldi. Mamlakat o‘zining buyuk tarixiy merosi, ma’naviyati, ma’rifati, geostrategik va geografik mavqeyiga tayangan holda, mintaqaviy va global siyosatning faol ishtirokchisi, madaniyatning namunasi sifatidagi davlat maqomini egalladi.

Har yili turli mamlakatlardan millionlab sayyohlar Turkiyaga keladi. Mehmonlar uning boy tarixiy, madaniy o‘tmishi, tabiatining go‘zalligi, dengiz manzaralari, serxil taomlari va har bir dam oluvchiga ko‘rsatilayotgan ajoyib xizmat darajasiga chin dildan qoyil qolishadi. Shu bilan birgalikda, ushbu mamlakatning o‘ziga xos milliy an’analari, urf-odatlari, diniy qadriyatlari, islom dini bilan bog‘liq ma’naviy dunyosi va mafkurasi ham mavjud.

Turkiyada rasman din siyosatdan ajratilgan. Diniy e’tiqodni erkin tanlash qonunchilik darajasida har bir rezidentga kafolatlangan. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, diniy e’tiqod masalasini hokimiyatdan ajratish Turkiya Respublikasining shakllanish davrida, Mustafo Kamol Otaturk tomonidan 1928-yilda kiritilgan tegishli islohotlarni amalga oshirish davrida boshlangan. Dunyoviy davlat tamoyili asosiy prinsip sifatida Konstitutsiyaning maxsus bandlari bilan mustahkamlab qo‘yilgan.

Turkiyaning keyingi rivojlanish bosqichlarida turk siyosatchilari tomonidan hokimiyat institutlari diniy mafkuraga asoslangan yondashuvlarga bog‘liq bo‘lib qolmasligiga, dunyoviy rivojlanish prinsiplariga amal qilish ustuvor maqsad sifatida belgilandi. Huquqiy-me’yoriy hujjatlarda boshqa di-

niy konfessiyalarga bag‘rikenglik tamoyili fuqarolar uchun muhim xususiyat ekanligi belgilab qo‘yildi. Bugungi kunda turklar milliy tiklanish jarayonlarida ko‘proq diniy, milliy, ma’naviy qadriyatlarga murojaat etib, ular orqali zamonaviy hayotning turli sohalarida barqarorlikka erishishga harakat qilishmoqda.

Turkiyaning 99% aholisi islom diniga e’tiqod qiladi. Shundan 75% musulmon sunniylar, 20%i shia oqimiga (alaviylar) mansubdir. Mamlakatda musulmonlardan tashqari 0,2% xristianlar, yahudiylar (20 mingga yaqin kishi) ham istiqomat qiladi.

Xalqning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda Qur’on, tafsir, aqiyda ilmlarini o‘rganish, o‘rgatish, sunnat amallaridan namunalar, tarbiya haqidagi turli hadis va rivoyatlar asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish, diniy mazmundagi adabiyotlarni nashr ettirish kabi tadbirlarning muntazam amalga oshirib borilishi muhim rol o‘ynaydi. Shariat, diniy va huquqiy xulq-atvor qoidalari ta’lim jarayonlarining barcha bosqichlariga kiritilgan.

Yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish, millat, Vatan, oila, milliy g‘urur, milliy madaniyat va ma’rifat xislatlari yetishib kelayotgan avlodlarning yoshlik chog‘laridan singdirib borishga katta e’tibor qaratiladi. Bundan tashqari, turli millat va elatlarning urf-odatlari, huquqi, turli ijtimoiy ko‘rsatmalar, taniqli siyosiy va diniy arboblar va ajdodlarning hayoti, faoliyati va ijodi, xalq yozma va og‘zaki folklori namunalarini izchil o‘rganish va atroflicha o‘rgatish ham ma’naviy tarbiya sohasida ahamiyatli sanaladi.

Turkiyada oila masalasi jiddiy ijtimoiy tushunchalardan biri. Turklar uchun oila muqaddas, uni asrash, avaylash, himoya qilish sharaf hisoblanadi. Shunga qaramasdan, oxirgi yillarda yevropacha hayot tarzining ta’siri ostida yoshlarning oila qurish, yashash tarzi, ajralish muammolari bilan bog‘liq vaziyat keskin o‘zgarib borayotganligi tendensiyasi kuzatilmoqda. Mamlakatning shimoliy, g‘arbiy qismlarida shunday holat kuzatilayotgan bo‘lsa, janubiy taraflarda an’anaviy oila-

viy qadriyatlarga e'tibor yaxshi saqlanib qolingan.

So'nggi yillardagi mavjud siyosiy, ijtimoiy vaziyatni tahlil qilish orqali turklarning an'anaviy islom qadriyatlariga asoslangan jamiyatdan sezilarli darajada uzoqlashib borayotganligini anglash mumkin. Bu vaziyat mamlakatning progressiv iqtisodiy o'sishi, Yevropa standartlariga moslashishga intilish, yevropacha tamaddun tamoyillari ta'sir doirasining ortishi, ayollar huquqlari va mehnat faoliyatining kengayishi bilan bog'liq.

Turklarda vatan, xalq, millatparvarlik tushunchalarini singdirish boshlang'ich va o'rta ta'lim bosqichlaridan boshlanadi. Asosiy e'tibor islom ma'naviyati va mafkurasiga, turk millati, millat tarixi, millat kelajagini ulug'lashga qaratiladi. Turklarda milliy g'urur, vatanparvarlik, islom va oila kuchli tuyg'ulardan sanaladi.

Turkiyada diniy jihatdan ma'naviyat tamoyillari sufizm tariqatlari ta'limotlariga asoslanadi. Turklar islom dini, aqidasi va mafkuralari, Qur'on va hadis asosida ta'lim oladilar. Shu jihatdan turklarda millat, xalq va vatan tushunchalari islom dini ta'limotlari bilan chambarchas bog'liq.

Turkiyada yevropacha ta'lim, kiyinish an'analari, kundalik hayot tarzining kirib borishi holati keng uchrasada, ma'naviy masalalarda turklar islomiy urf-odatlar va qadriyatlarga ko'proq tayanadi. Millatni tarbiyalashda axloq mezonlari muhim rol o'ynaydi. Turklarda ma'naviy hayot – din, tasavvuf, tariqat bilan bog'liq tushunchalar sanaladi. Uzoq asrlik tarixiy jarayonlar natijasida bir nechta diniy tariqat oqimlari shakllangan. Shulardan eng mashhurlari va ko'p sonli izdoshlariga ega bo'lganlari – Naqshbandiya, Moturidiya, Bektoshi va Mavlaviya tariqatlari sanaladi.

Mavlaviya tariqati vakillari o'zlarining pirlari sifatida mashhur shoir Jaloliddin Rumiyning ma'naviy izdoshlari sanaladi. Asrlar davomida Istanbulning san'at, musiqa va ma'naviyat markazi bo'lib kelgan G'alata Mavlaviyasi va Tabriz mashhurlikka ega. Mavlaviy tariqatining markazi Turkiyaning Jaloliddin Rumiy qabri joylashgan Konya shahri hisoblanadi. Dun-

yoning turli hududlaridan Mavlono Rumiyning ixlosmandlari Mavlaviya tariqati vakillari, olim va mutaxassislar, san'at va madaniyat namoyandalari Konya shahrida to'planadi. Bu yerda Rumiy hayoti va ijodining insoniyat taraqqiyotidagi o'rniga bag'ishlangan anjumanlarni doimiy o'tkazib borish an'anaga aylangan.

Turklar Markaziy Osiyodan bo'lgan tariqatlar vakillari – Naqshbandiya, Yassaviya va Moturidiya ta'limotlariga ham jiddiy e'tibor qaratadilar. Ushbu tariqat vakillari islomning sunniy oqimi vakillaridir. "Tarixdan ma'lumki, insoniyat ma'naviy hayotida tasavvufiy tariqat alohida o'rin tutgan. Tasavvuf ta'limotida komil inson mavzusi bosh g'oya bo'lgan. Shuning uchun insonlar tasavvuf vakillariga mukammallik timsoli sifatida qaraydi. Bunda esa, Naqshbandiya tariqati o'rni va mavqeyi jihatidan alohida e'tirof etiladi", deydi turkiyalik olim Nejdat Tosun.

Bundan tashqari, tariqatning yana bir oqimi – Xoji Bektosh Valiy izdoshlari bilan bog'liq. Ularning markazi Xoji Bektosh Valiy dafn etilgan Xojibektosh shahrida joylashgan. Bu tariqat vakillari islomning shia oqimiga mansub.

Turkiyaning ma'naviy markazlari sifatida turli madaniy, ma'rifiy, tasavvuf markazlari, ilmiy muassasalar, shuningdek, yirik oliy o'quv yurtlari (Otaturk madaniyat, til va tarix instituti, Marmara universiteti Ilohiyot fakulteti, Yunus Emro instituti, Ma'naviyat universiteti kabilar) kiradi. Turkiyaning taniqli, yirik ma'naviyatchi olimlari prof. Turan Yazgan, prof. Nefzot Tarxan, prof. Nejdat Tosun, prof. Okan Yeshilot, shuningdek, Turkiya diyonat ishlari vaziri, prof.Ali Erbosh hisoblanadi. Rasmiy doirada Turkiyaning ma'naviy, ma'rifiy va madaniyat ishlariga Madaniyat va turizm vaziri Mahmud Nuri Ersoy mas'uldir.

Turkiyada maktabgacha ta'lim va o'rta ta'lim maktablarida "Din madaniyati va axloq haqida bilim", "Ma'naviy qadriyatlar tarbiyasi" fanlari umumta'lim kursi doirasida o'qitiladi. Yosh avlodni ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalash zamon talablaridan kelib chiqqan holda, zaruriyat ekanligi ta'kidla-

nadi. Turkiyada ma’naviyat va ma’rifat masalalarini o‘ta siyosiylashtirmaslik, bu nozik masalaga mafkuraviy yondashuvdan qochish kerak, degan tamoyil ham mavjud.

Turkiyada milliy qadriyatlar va ma’naviy yuksalish masalalari Yevropa urf-odatlari va madaniyatining kirib kelishi bilan jiddiy qarama-qarshilikka ega. Turkiya Din (diyonat) ishlari boshqarmasi rahbari Ali Erboshning islom dini ma’naviyati va ma’rifati, diniy qadriyatlar va urf-odatlarga qaytish boricha say’i-harakatlari ortidan uni mamlakatni islomlashtirish siyosatini olib borishda ham ayblaydilar. Ali Erbosh yosh avlodni Qur’onni yodlashga, hadislarni o‘qib-o‘rganishga, ta’lim jarayonlarida islom dini va ahkomlarini o‘qitishni kengaytirishga, jamiyatda islomiy axloq-odob normalarini joriy qilishga da’vat etib keladi.

Siyosiy muxolifat va liberal qarashlarga ega kuchlar uchun bugungi kunda mamlakatda islom dini, ma’naviyati va mafkurasiga rasmiy hokimiyat tomonidan jiddiy e’tibor qaratilayotganini Turkiyada dinning davlatdan ajratilganligi prinsipi o‘z kuchini yo‘qotmoqda, deya keskin munosabatlar bildirilmoqda. Shu o‘rinda, diniy ishlar bo‘yicha mas’ul Ali Erbosh diniy-ma’naviy tarbiyaning ahamiyati borasida to‘xtalib, “... nega din jamiyatning ko‘rinadigan qismi bo‘lmasligi kerak?”, deya ta’kidlaydi. U islom ma’naviyati va ma’rifati jamiyatning har bir sohasida, shu jumladan adolatda bo‘lishini himoya qiladi.

Yaqin Sharq davlatlarida kuzatilayotgan zamonaviy siyosiy-ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni tahlil etib borish O‘zbekiston uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Mintaqadagi siyosiy voqe’liklar, jamiyatlarda yuz berayotgan o‘zgarishlar, ziddiyatlar, muhojirlar masalasi, yoshlar taqdiri, tibbiyot, ta’lim, ma’naviy hayotdagi jarayonlar analizi – O‘zbekiston jamoatchiligini qiziqtiradigan, mavjud vaziyatni o‘rganib, tegishli tahliliy xulosalar olishda, joriy muammolar yechimini topishda muhim bo‘lgan vazifalardan. Ularning mazkur muammolarni hal etish borasidagi faoliyati va tajribalari O‘zbe-

kiston uchun milliy manfaatlar nuqtayi nazaridan ham foydali.

Turkiyada yoshlarga, ularning ta'limi va tarbiyasiga e'tibor qaratish, ularning ma'naviy dunyosini shakllantirish, kengaytirish, ta'lim, tibbiyot va ish o'rinlari bilan ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan.

Bugungi globalizatsiya jarayonlarida bir mamlakatning jahon hamjamiyatchiligidan ayri holda, mustaqil rivojlanish yo'lini tanlashi to'g'ri qaror emas. Aksincha, mintaqaviy va global darajada davlatlararo manfaatli hamkorlik munosabatlar ko'p jihatdan samarali natijalarga sabab bo'ladi. Ayniqsa, mushtarak tarixiy rishtalar, yagona diniy e'tiqod, o'xshash urf-odatlar va qadriyatlarga ega millat va elatlarning birlashishi, o'zaro hamkorlikdagi faoliyatining yo'lga qo'yilishi zamonaviy diplomatiyaning yuksak mazmunini belgilaydi.

Kishilik jamiyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, unga intilish – zamonaviy integratsiya jarayonlari, hozirgi davrda eng tez rivojlanayotgan ijtimoiy hodisalardan. Globalizatsiya sharoitida alohida bir davlat, xalq va jamiyatning xavfsizligi, ma'naviy-ma'rifiy barkamolligini ta'minlamay turib, ayniqsa, yetishib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy kamolotiga e'tibor qaratmay keng qamrovli milliy va xalqaro xavfsizlikka, barqaror taraqqiyotga erishib bo'lmaslik haqiqatga aylangan.

ZJV5401

OMMAVIY MADANIYAT TRANSFORMATSIYASI JARAYONLARI

G‘oyibnazarov Shuhrat G‘oyibnazarovich,
G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent shahridagi filiali direktori o‘rinbosari siyosiy fanlar doktori, professor

Annotatsiya: Globallashuv barcha sohalarda bo‘lgani kabi ommaviy madaniyat hodisasida transformatsiya jarayonlari kechayotganligini, geosiyosiy maqsadlar shiddat bilan keskin o‘zgarishi natijasida yangi tahdid va xatarlar paydo bo‘layotganligi, ularni ayniqsa yoshlar ongiga halokatli ta’sir, an’anaviy qadriyatlarni badnom qilishga hamda axloqqa zid g‘oyalarni keng yoyishga urinishlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash masalalariga bag‘ishlangan.

Tayanch so‘zlar: Ommaviy madaniyat hodisasi, turli tahdidlar, xatarlar, transformatsiya jarayonlari, profilaktik choralar, tizimli yondashuv, geosiyosat, terrorizm, ekstremizm, radikalizm, milliy qadriyatlar, ezgulik, mehr-shafqat, insoniylik.

O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga jadallik bilan integratsiyasi jarayonlariga 30 yildan oshdi. O‘tgan yillarda hamkorlik xalqaro aloqalari kuchayib, barcha sohada, shu jumladan, madaniyat va ma’naviyat sohasida ham harakat erkinligi yuzaga keldi. Ayniqsa, keyingi yillarda mamlakat ochiqlik va shaffoflik siyosatining elon qilinishi, OAV, jumladan internet tarmoqlarda ijtimoiy hayotning muayyan sohalarida jahondagi turli sohalardagi yangiliklar bilan birga o‘ziga xos muammolar tahdid va tajovuzlar paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Bu haqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, avvalambor, “ommaviy madaniyat” ko‘rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, giyohvandlik,

diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlarimizni asrash, ularning talim-tarbiyasiga har birimiz masul ekanimizni hech qachon unutmasligimiz kerak.” [1] deya takidladi. Shu munosabat bilan hozirgi kunda, ma’naviy va moddiy mazmundagi hodisalarning qandaydir majmui sifatida emas, balki XIX–XX asrlar bo‘sag‘asida industrial jamiyatda vujudga kelgan hamda “ommaviy madaniyat” deb atalgan hodisa transformatsiyasi keltirib chiqarayotgan muammolar oldingi marraga chiqmoqda.

O‘ziga xos bo‘lgan bu hodisaning genezisi hamda hozirgi jamiyatdagi rolini ilmiy tadqiq etish yana shuning uchun ham dolzarb bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda jamiyat hayotining ko‘p tomonlari tijoratlashuvi, ayniqsa, badiiy va kundalik madaniyatda tuturuqsiz, bema’ni, axloqqa zid jihatlar bag‘oyat kuchayib borishini rag‘batlantirdi. Ko‘pincha, an’anaviy madaniyatlarga xos axloqiy me’yorlarga bepisandlik bilan munosabatda bo‘ladigan hamda qadrini tushiradigan ommaviy madaniyat mahsuloti tarqalishi uchun shart-sharoit aynan oldi-sotdi jarayonida yaratilgandi. Bu haqida 2012-yilda nashrdan chiqqan “Ommaviy Madaniyat” [2] deb nomlangan kitobimizda fikr yuritgandik. XX1-asrning

20-yillariga kelib internet texnologiyalar yutuqlaridan samarali foydalanayotgan g‘arazli kuchlar o‘zlarining yaratgan yangi platformalari orqali buzg‘unchi g‘oyalarini shiddat bilan yo‘llayotganliklari tufayli jahonda yuzaga kelayotgan salbiy tendensiyalar va xatarlar ushbu hodisani ilmiy tadqiq etishni tobora dolzarb qilib qo‘ymoqda. Globallashuvning jahon bo‘yicha yoshlar psixologik xususiyatlarini hisobga olib yuborayotgan yangi to‘lqini O‘zbekiston yoshlar sub madaniyatining rivojlanishi va transformatsiyasining quyidagi jarayonlarini o‘zida aks ettirmoqda:

Ommaviy ongga saviyasi nisbatan tuban bo‘lgan madaniyat mahsulotlari hamda taqlid uchun yangi na’munalar havola etilayotganligi.

ZJV5401

Masalan:

• Strimerlar – to‘g‘ri efirlar tashkillashtirib o‘z obunachilarining har qanday istaklarini pul evaziga ijro etish; Geymerlar: Yutub videoxosting orqali kompyuter o‘yinlariga jalb qiluvchilar;

• Anoreksiya kasalligini o‘smir qizlar o‘rtasida targ‘ib etib ular safini kengaytirish;

• Gopniklar: ular so‘kinish, haqorat so‘zlar, janjal, to‘palon chiqarish, magazinlarga bosqinchilik qilish, shoqollar singari ko‘pchilik bo‘lib, o‘z o‘ljalariga tashlanish kabi huquqbuzarlik holatlari sodir etadilar;

• Repperlar: o‘z xohishlarini sheriy ritm orqali tez ijro etib, munosabatlarini izhor etadilar, giyohvand moddalar iste’mol qilish orqali tarki dunyo kayfiyatida bo‘ladilar, o‘z hayotlarini badnom qilib, 30 yoshga yetmay dunyoni tark etadilar.

• Animachilar: maktabgacha tarbiya yoshidagi bolajonlarga animatsiya multplikasiyali seriallar ishlab chiqib ular ongida o‘zgarishlar qilishga harakat qilib, borgan sayin axloqqa zid holatlarni kuchaytira boradilar. Masalan, mashhur animalardan biri Hunter x Hunter, keyinchalik Geney Ryodan jinoiy guruhidan bo‘lib, ular yollangan qotillardan iborat, ko‘p mamlakatlarda vujudga bu guruhlar o‘rgimchak suratli, 4-raqamli kiyim, katakli shimlar kiyishni urf qilganlar. Dastlab, bu guruh a’zolari jamiyatga xavf tug‘dirmagandi, biroq keyinchalik ular jamoat joylarida begunoh odamlarga tashlanib bezorilik holatlarini sodir eta boshlaganlar.

Bunday shu darajaga borib yetdiki, ushbu jinoiy guruhlar negizida xususiy harbiy kompaniyalar tuzildi. (Toshkent shahrida 2023-yil 5-mart kuni Xalqaro forumlar saroyi yaqinida 50 ga yaqin o‘smirlar bezorilik uyushtirib qurolli hujum uyushtirishlari chaqiriqlar bilan chiqdilar, huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlari ularning barchasi bilan profilaktik suhbatlar o‘tkazdilar).

Bunday holatlarning vujudga kelishi sabablarini aniqlash, yoshlar bilan maqsadli profilaktik tadbirlar ishlab chiqishni kun tartibiga chiqardi.

Hozirgi paytda madaniyatni siyosiylashtirish bilan bog‘liq murakkab jarayon sodir bo‘layotganini qayd etib o‘tish lozim. G‘arbdagi ko‘p mamlakatlar uchun bu odatiy hodisa: Yevropa va AQSHda ommaviy madaniyat davlat apparati, shuningdek, qudratli transmilliy kompaniyalar tomonidan moliyaviy va iqtisodiy jihatdan qattiq qo‘llab-quvvatlanadi.

Boshqa tomondan esa, hozir jahonda murakkab mafkuraviy kurash borayotganiga bepisand qarab bo‘lmaydi. To‘g‘ri, mafkura sohasidagi kurash doimo mavjud bo‘lgan. Lekin, avvallari mafkuraviy kurash qirg‘in keltiruvchi urushlarga qo‘shimcha ravishda olib borilgan. Bu tarzdagi mafkura jamoatchilik fikrini hosil qilish, bir davlatning boshqa davlat hududiga qurolli bosib kirishi va h.k.ning adolatliligini yoki muqarrarligini kishilar ko‘z o‘ngida oqlash vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Soddaroq qilib aytganda, mafkuraviy ta’sir vositasi harbiy va iqtisodiy ta’sir vositalariga qo‘shimcha hisoblangan.

Biroq bizning asrimizga kelib bari o‘zgardi. Hozir mafkuraga faqat harbiy qudrat va iqtisodiy tazyiq potensiali bilangina qiyoslash mumkin bo‘lgan ta’sir salohiyatiga ega kuch sifatidagina emas, balki ta’sirchanligi bo‘yicha barcha ta’sir vositalaridan ancha ustun turuvchi vosita sifatida ham qaraladi. Bunday holat mafkurani jahon hamjamiyati siyosiy hayotining oldingi marrasiga olib chiqadi.

Bugungi kunda mafkuraviy kurash amalda ham g‘arbdan, ham sharqdan, yer yuzining barcha nuqtalarida olib borilmoqda. Ommaviy madaniyat namoyondalari ushbu kurashda reaksion kuchlar va nosog‘lom g‘arazli mafkuralar tomonida turib ishtirok etmoqda.

Ushbu transformatsiya jarayonlari natijasida ular o‘zining sinalgan, zamonaviy usullari bilan, aslida insoniyatning ko‘p asrlik madaniy tajribasiga hech qanday aloqasi bo‘lmagan qadriyatlarni abadiylashtirishga urinmoqda.

Binobarin, ommaviy madaniyat ta’sirini yetarlicha baholamaslik, uni faqat g‘arb hodisasi, uni oddiy ko‘ngilochar ish, “ikkinchi nav san’at”, tuturuqsiz, bema’ni, bachkana hodisa deb hi-

soblash, bizningcha, noto‘g‘ri bo‘ladi. “Ommaviy madaniyat”ning soddalashtirilgan modelini yaratib, biz zamonaviy madaniyatning bu qadar jiddiy hodisasiga jamiyatning e’tiborini kuchaytirish o‘rniga, susaytiramiz, u jamiyat axloqiy sog‘lomligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini hisobga olmaymiz.

Bunga yuqorida takidlaganimizdek, masalan, Xitoyda 2016-yilda vujudga kelgan mashhur Tik-Tok platformasi [3], 2022-yilda Yaponiyada boshlangan “Geney Ryodan” [4] jinoiy guruhi haqidagi Huhter x Huhter mangosiga daxldor submadaniyat va boshqa g‘arazli harakat, oqimlarning vujudga kelayotganligidir.

Bizning fikrimizcha, bunday transformatsiyalar bosimi yanada kuchayadi, yangi g‘arazli g‘oyalar, turli o‘yinlar, turli yosh kategoriyalarini qamrab olib, jumladan, hatto maktab yoshgacha bo‘lgan go‘daklar psixologiyasiga maqsadli ta’sir boshlanganligidan ham bilishimiz mumkin.

Shunday qilib, mazkur omillar pirovard natijada ushbu tadqiqot mavzusi umuman dolzarbligini belgilab beradi, chunki ommaviy madaniyatning nazariy hamda konkret-tarixiy tahlili davlatning unga nisbatan bosiq yaxlit siyosatini ishlab chiqishga, shuningdek, madaniyatning himoya mexanizmlarini tizimli safarbar qilishga ko‘maklashadi.

Shu munosabat bilan ushbu tadqiqotda “ommaviy madaniyat” hodisasi tanqidiy ko‘rib chiqiladi, uning hozirgi mafkuraviy kurashdagi roli hamda ahamiyati, jahon madaniyatiga ba’zan zohiran sezilmaydigan, halokatli ta’siri tadqiq etiladi. Binobarin, mazkur tadqiqotning yangiligi shundan iboratki, unda biz «ommaviy madaniyat» transformatsiyasi hodisasining biron-bir jihati bilan cheklanib qolmay, uning ijtimoiy, siyosiy, tarixiy, falsafiy, madaniyatshunoslik jihatlarini ham qo‘shib o‘rganishga harakat qilmoqdamiz.

Shuningdek, kitobda ommaviy madaniyat bo‘yicha ancha avval olib borilgan tadqiqotlarda e’tibordan chetda qolgan bir qator muammolar ham tahlil etishga harakat qilindi. Jumladan, “ommaviy madaniyat”ni ishlab chiqarish texnologiyasi, ommaviy ongga ta’sir ko‘rsatishning an’anaviy vositalari

hamda uning yangi, zamonaviy usullari, moslashuvchanligi, ommaviy kommunikatsiya vositalari bilan aloqa, iste'molchilik didi va instinktini ko'zlab ish olib borishi, uning ongni boshqarish xususiyatlari ko'rib chiqildi.

Bizning nazarimizda, "ommaviy madaniyat"ning bugungi kundagi transformatsiyasi tahlilining siyosiy jihati, uning hozir butun dunyoda barcha hududlarga kirib borayotgani masalasi ham o'ta muhim ko'rinadi.

Ommaviy madaniyat tomonidan targ'ib etilayotgan g'ayriaxloqiy g'oyalar G'arbiy Yevropa va AQShda vujudga kelgan ayanchli demografik vaziyatda bugunoq o'z aksini topdi. Bundan tashqari, ikkilamchi ijtimoiylashuvning muhim omili bo'lgan oila institutining ahamiyati pasaytirilmoqda, avlodlar vorisiyligi buzilmoqda, yoshlarning g'ayri ijtimoiylashuvi ortib bormoqda, bu esa, o'z navbatida, uning jinoyat, giyohvandlik va ichkilikbozlik yo'liga kirishiga olib keladi.

Bugungi kunda ijtimoiy ongda nafaqat an'anaviy jahon dinlari ta'limotlarning, balki turli qadimiy dinlar, soxta ezoterik ta'limotlar va hokazolarning quroqlari aralashgan yangicha dindorlik deb atalmish hodisaning shakllanishi muammosi dolzarb hisoblanadi.

An'anaviy jahon dinlarining ommaviy kommunikatsiya vositalari tomonidan badniyatlik bilan ongli ravishda va faollik bilan obro'sizlantirilayotgani ushbu hodisa uchun zamin bo'lmoqda. Buning yakuni o'laroq, jamiyatda diniy identifirizm shiddat bilan kuchaymoqda, bunga muqobil javob o'laroq fundamental ekstremizm va radikalizm yoyilib, nufuzi kuchayib bormoqda.

Ommaviy madaniyatning halokatli ta'siri kengayib borayotgani bilan bog'liq vaziyatni tahlil etar ekanmiz, ushbu hodisa Markaziy Osiyoni ham chetlab o'tmaganini taassuf bilan aytib o'tishimiz darkor. Qulay geosiyosiy vaziyat, boy yer osti konlari hamda inson zaxiralaridan iborat yuksak iqtisodiy salohiyat Markaziy Osiyo davlatlari, shu jumladan O'zbekistonni buzg'unchi kuchlar uchun jozibali nishonga aylantiradi. Mazkur kuchlar o'zlarining badkirdor niyatlariga erishish uchun mintaqadagi barqarorlikka putur yetkazish uchun bu-

tun choralar bilan intilishmoqda, buning uchun mafkura poligonlari ko‘magidan foydalanishmoqda. Mafkura poligonlari halokatga olib boruvchi zararli mafkuralarni ijtimoiy ongga singdirish uchun foydalanadigan ishonchli hamda sinovdan o‘tgan vosita ommaviy madaniyat va uning transformatsiyasi bo‘lib, uning bosimiga alohida olingan davlat amalda chidam bera olmaydi.

Bugungi kunda yoshlarimiz ongiga ko‘plab asrlar davomida ajdodlarimizga yashash va o‘zining buyuk kelajagini qurishga yordam berib kelgan an’anaviy normalar hamda qoidalarni yemiruvchi g‘ayriaxloqiy g‘oyalarni tiqishtirishga urinishlar bo‘layotganini kuzatishimiz mumkin.

Mavjud vaziyatda xalqimizning ko‘p asrlik an’analarinigina emas, balki mafkura sohasidagi ilg‘or ishlanmalarni ham o‘ziga singdirgan O‘zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi mamlakatimiz fuqarolarida mafkuraviy immunitetni hosil qilishga qodirdir.

Inson beshikdaligidanoq uzluksiz tarbiya va talim bilan qurshab olinsa, vatanparvarlik, Vatanga muhabbat bilan birga, bag‘rikenglik, boshqa madaniyatlarga hurmatni targ‘ib qiluvchi bunyodkor mafkura ruhida tarbiyalansagina, ommaviy madaniyatning salbiy ta’siriga muvaffaqiyat bilan qarshi tura oladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida haqli takidlaganlaridek, “Mana shunday keskin vaziyatda, ulug‘ mutafakkirlar aytganidek, dunyoni ezgulik, mehr-shafqat, insoniylik qutqaradi”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021, 277 bet.

2. G‘oyibnazarov Sh.G‘. Ommaviy madaniyat Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti - 2012.

3. https://ru.wikipedia.org/wiki/TikTok

4.https://www.pravmir.ru/chto-takoe-chvk-redan-antropolog-dmitrij-gromov-o-novoj-subkulture/

JAMIYATDA IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHITNI SOG'LOMLASHTIRISH VA BARQARORLIGINI TA'MINLASH TEXNOLOGIYALARI

Munira Kaxarova,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti direktori o'rinbosari, falsafa doktori

O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish va barqarorligini ta'minlash texnologiyalari har bir davrda o'ziga xosligi bilan ishlab chiqilgan. Masalan, tarixiy manbalarda keltirilishicha, davlatchilikning ilk davrlarida sog'lom jamiyatni shakllanishi, asosan oilalardagi ma'naviy muhitga bog'liq bo'lgan. Oilalardagi sog'lom muhitni yuzaga kelishi esa oila boshlarini aql-zakovati bilan qaror topgan. Oila qo'rg'onning boshlari qadimdan ota hisoblangan. Shu sababli oiladagi muhitni qay darajada sog'lom bo'lishi otaning ish yuritishi va yuksak ma'naviyatiga bog'liq edi. Farzandlarning ta'lim-tarbiyasi, yurish-turishi, kiyim-kechagi, xullas oilaning ta'minoti ham otaga qaratilgan. Ona esa asosan oilada farzandlarning tarbiyasi, xonadonning ozodaligi, uy-ro'zg'or ishlari bilan shug'ullangan. Yozilmagan bu kabi qoidalarga hozir ham oilalar amal qiladi. Shu asnoda davom etgan yashash tarzi hali-xanuz davom etib, oiladagi qadriyatimizga aylanib, hamma birdek amal qilishga ham odatlangan.

Jamiyatni tartibga solishda, sog'lom muhitni yaratishda va shu yo'sinda saqlash uchun davrlarga mos texnologiyalar ishlab chiqilgan. Masalan, jadidlar davrini tahlil qiladigan bo'lsak, xalqni savodli qilish va bu bilan xalq ishli bo'ladi hamda yevropaga chiqa oladi, deb qaralgan. Jadidchilar tomonidan "Tarbiyati atfol", "Umid", "Nashri maorif", "Barakat", "G'ayrat", "Taraqqiyparvar" kabi dastlabki jamiyatlar tuzildi. Mazkur jamiyatlarning murojaatga o'hshagan chiqishlari esa

gazeta va jurnallar chop etib, xalqning ma'naviy ongini oshirishga va mafkuraviy immunitetini ko'tarishga harakat qildilar. Ularning rahbarligida "Taraqqiy", "Shuhrat", "Xurshid", "Sadoyi Turkiston", "Samarqand", "Oyna", "Hurriyat", "Shu'lai Inqilob", "Mehnatkashlar tovushi", "Bolalar yo'ldoshi", "Tayoq majmuasi", davriy "Sharq", "Yosh kuch", "Zarafshon", "Turon", "Buxoroi Sharif", "Sadoyi Farg'ona" kabi o'nlab gazeta va jurnallar joriy etiladi. Targ'ibotning texnologiyalari sifatida matbuot orqali xalqqa yetkazish siyosatini yuritdilar.

Shuningdek, jadid namoyondalari tomonidan bir necha bor "Chig'atoy gurungi" kabi yig'inlar tashkil etib, mustaqillikka erishish maqsadida, xalqni yurtning ozodligi uchun birlashishga chaqirashadi. Ular eng avvalo millat yoshlarini tarbiyalashda ta'lim tizimining yangicha ko'rinishi joriy etishga harakatlarni amalga oshiradilar. Avvaliga xususiy maktablar ochilib yoshlarga ta'lim bera boshlanadi. Keyin esa mintaqaning turli hududlarida jadid maktablari faoliyati ham yo'lga qo'yildi. Bu davrda asosan o'g'il bolalarga ta'lim berib kelingan edi. Ammo ular qizlarning ta'limi haqida fikr yuritadilar. Masalan, «Biz turkistonliklar ham 15 yil bo'ladirki, bu dunyoda o'zgalardek taraqqiy va toliy etmak orzusi bilan yangi maktablar ocha boshladik. Yolg'iz erkak bolalarimizni tarbiya etarg'a kirishdik, ammo qizlarimizning tarbiyasiga hozirgacha hech bir ahamiyat bermadik» deya, ta'kidlaydilar. Qizlar oilada tarbiyachi bo'lsa, ular o'qimasa, farzandlarini qanday ta'limi bilan shug'ullana oladilar deb, Sadriddin Ayniy: "Agarda xotun kishi tarbiyat topgan, savodli bo'lsa, farzandini ham tarbiyat qilib taraqqiylik odami qiladur» . Shu yo'sinda jadidlar ta'lim siyosatini yurgizish orqali bolalarni savodli qilish texnologiyasini amalda joriy etishadi.

Shuningdek, 1927-yil 11-fevraldan boshlab, Toshkentda radiostansiya ishga tushirilib, muntazam radioeshittirish yo'lga qo'yildi. Uning eshittirishlari O'rta Osiyoning eng uzoq joylari – Pomir, Xorazm, Qoraqalpog'istongacha yetib bordi. Mazkur radio orqali xalqni yangiliklardan habardor qilindi, musiqiy eshittirishlar berildi. Chin ma'noda bu ijtimoiy-

ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishga xizmat qiluvchi texnologiya bo‘ldi. Yildan yilga radioeshittirishlarning targ‘iboti kengayib, aholining ma’naviy saviyasi ortishiga xizmat qildi. Radioeshittirishni tashkil etilgan ilk yillarida hofiz va usta sozandalardan Safo Mug‘anniy, Mulla To‘ychi Toshmuhammedov, Halim Ibodov, Muhiddin Qori Yoqubov, Hoji Abdulaziz Rasulov, Tamaraxonim, Halima Nosirova, Rizqi va Yunus Rajabiy, Imomjon Ikromov kabilar faol ishtirok etdilar. Urush yillarida esa Hamid Olimjon, Oybek, G‘afur G‘ulom, Shayxzoda, Uyg‘un va boshqa yozuvchi va shoirlar radioeshittirishlarda muntazam chiqishlar qilishargan. Bu haqda professor Mansur Toirov o‘z maqolasida yozadi. Bu davrda radio ko‘proq jangda bo‘layotgan voqealardan xalqni habardor etib turgan. Xalq radioni jon qulog‘i bilan tinglagan. Bu vosita urushning tafsilotidan so‘zlashini va tugashini hamda urushga ketgan yaqinlarini intiq kutayotgan xalq uchun nihoyatda noyob texnologiya bo‘lib xizmat qilgan.

O‘zbekistonda 1957-yil radioeshtirish va televideniya qo‘mitasi tuzildi. Radioeshittirish texnologiyasi kabi yana bir yangilik bo‘lib joriy etilgan televideniya nafaqat musiqa va san’atni tarannum etdi, balki, davlat siyosatini ham keng targ‘ib etishga qaratilgan mexanizm ham bo‘ldi. Mazkur televideniya mustaqillik yillariga kelib, qayta takomillashdi. Ya’ni, 1992-yil 7-martda O‘zbekiston Davlat Teleradioeshtirish kompaniyasi, 1996 yil 7 mayda esa “O‘zbekiston Teleradiokompaniyasi” (O‘zteleradio)ga aylantirildi.

Shunday qilib, O‘zbekistonda televizion ko‘rsatuvlar 1956-yil 5-noyabrda Toshkentda ish boshladi. Ushbu davrda O‘zteleradiokompaniya teledasturlari sutkasiga o‘rtacha 21,5 soat davomida asosan o‘zbek, rus, qozoq, qirg‘iz, tojik, uyg‘ur, turk, koreys, nemis tillarida efirga uzatilishi yo‘lga qo‘yilgan. Shundan boshlab, iqtisodiy jihatdan boy bo‘lgan xonadonlarda oq-qora rangda, keyinroq esa rangli ko‘rsatadigan televizorlar paydo bo‘la boshladi. Bitta mahallada bir yoki ikki xonadonda mavjud bo‘lib, yillar davomida asta-sekinlik bilan boshqalarni xonadoniga ham kirib bordi.

Mazkur texnologiya jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy mu-

ZJV5401

hitiga katta ta'sir ko'rsatdi. Chunki, odamlar televizori bor qo'ni-qo'shnisiniki chiqib, birgalikda ko'rilishi holatlari ham ko'p bo'lgan. Shuningdek, hududlarga ko'chma kino-filmlar namoyishlari tashkil etildi. Madaniyat klub va saroylari ochildi. Ularda odamlarni kayfiyatini ko'tarishga qaratilgan ko'ngil ochar konsert dasturlari qo'yildi. Aholiga ko'chma kinofilmlarni qo'yilishi, bu kabi texnologiyalarni qo'llanilishi odamlarni birlashtirishga hamda jamiyatda ma'naviy sog'lom muhitni shakllantirishda katta xizmat qildi. Mazkur texnologiyalar bugungi kunda ham faoliyatini olib bormoqda. Ammo odamlar bu texnologiyalardan internet sabab uzoqlashmoqda. Internet – odamlarning kundalik hayotidagi asosiy vositaga aylanib ulgirdi. U kundan kunga o'z kashfiyotlarini namoyon etib bormoqda. Odamlarni o'z domiga tortib, tobelashtirib, internetsiz hayot tugaydigandek, rang-barangligi bilan mahliyo qilmoqda. Uning imkoniyatlari cheksizligi bilan insonga kerak bo'lgan barcha ma'lumotni taqdim etmoqda.

Bugungi kunda birgina internet tarmog'ining ichida bir nechta targ'ibotning texnologiyalarini ko'rish mumkin. Bolalar uchun turli-tuman o'yin dasturlarini targ'ib etayotgan bo'lsa, kattalar uchun ovqat tayyorlash texnologiyasidan tortib, kundalik ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni onlayn xarid qilish do'konlari xalqqa xizmat qilmoqda. Albatta, mazkur texnologiyalardan samarali foydalanilsagina jamiyat uchun foydali hisoblanadi. Odamlarni bir muncha qulayliklar yaratmoqda. Shu bilan birga aloqa vosita sifatida ham keng qo'llanilmoqda.

O'zbekistonga kompyuterlar bilan birga internetning kirib kelishi mustaqillikka erishilgan yillarning birinchi o'n yilligiga to'g'ri keldi. Eng birinchisi sifatida elektron pochtalar faoliyat yuritdi. Barcha ma'lumotlar ushbu pochtalar orqali yuborilib, u tezkor yetkazish xizmati vazifasini bajardi. 1996-yil O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida BMTning "O'zbekistonda Internetni rivojlantirish" loyihasi yaratildi. U "O'zNet" nomi bilan tanila boshladi. Bu tarmoq odamlar, tashkilotlar o'rtasida bevosita aloqa vosita bo'lib xizmat qildi. Mamlakatning u chekkachidan narigi hududiga ma'lumotlar tezkor yetib borilishi joriy etildi. Bu esa tashki-

lotlar o‘rtasida hamkorlikni tez ishlanishiga sabab bo‘ldi.

Shuningdek, tahlillarga ko‘ra, O‘zbekistonga internet kirib kelishi bo‘yicha Osiyo qit’asida 17-o‘rinni egalladi. Shu bilan birga internetning sekin-asta boshqa tarmoqlari ham kirib kela boshladi. 2012-yilga kelib, IWS (Integrated Wind Solutions)ma’lumotiga ko‘ra, O‘zbekistonda 8 million 575 ming 42 nafar internetdan foydalanuvchi bor bo‘lib, ular mamlakat aholisining 30,2 foizini tashkil qildi. Bu ko‘rsatkichlar tezlik bilan oshib bordi. O‘zbekiston Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsion texnologiyalar qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra esa, 2012-yil oxiriga kelib mamlakatda internetdan foydalanuvchilar soni 9 million 815 ming kishini tashkil etgan. 2013-yilning boshiga kelganda, internet tarmog‘iga ulanish bo‘yicha xizmat ko‘rsatadigan xo‘jalik suyektlari soni 930 taga yetgan.

IWS ma’lumotiga ko‘ra, O‘zbekiston Internet yoyilishi bo‘yicha qo‘shni Tojikiston va Turkmanistondan oldinda bo‘lsa, Qozog‘iston va Qirg‘izistondan ortda edi. Turkmanistonda aholining 5 foizi (252 ming 741 kishi), Tojikistonda 13 foizi (1 million 12 ming 220 kishi), Qirg‘izistonda 39,9 foizi (2 million 194 ming 400 kishi), Qozog‘istonda esa 45 foizi (7 million 884 ming 905 kishi) Shu tariqa, aholisining qariyb yarmi Internetdan foydalanadigan Qozog‘iston global tarmoqdan iste’foda etish bo‘yicha Markaziy Osiyoda birinchi o‘rinni egalladi. Mazkur ro‘yxatda Armaniston 60,6 foiz bilan 9-o‘rinni, Ozarbayjon esa 50 foiz bilan 10-o‘rinni egallagan.

2022-yil yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda internet xizmatidan foydalanuvchilar soni 27,2 milliondan oshdi. Shundan mobil internet foydalanuvchilari soni 25,3 million kishini tashkil etmoqda. 95 foiz aholi maskanlari mobil internet bilan qamrab olingan, 54 foiz uy xo‘jaliklariga yuqori tezlikdagi internetga ulanish imkoni yaratilgan.

So‘nggi yillarda dunyo ommasi o‘rtasida internetdan foydalanuvchilar soni keskin oshdi. Shu bilan birga, mamlakatimizda ham internet foydalanuvchilari soni 29 milliondan oshgani matbuotda e’lon qilindi. Bu foydalanuvchilarning eng ko‘pi “Telegram”, “Facebook”, “TikTok”, “Instagram” kabi ijtimoiy tarmoqlari tashkil etmoqda. Bunga yaqqol misol qilib, Respublika

Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tomonidan 2022 yil mart-aprel oylari Bo‘ka tumanida o‘tkazilgan so‘rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 83 foizi “Telegram”, 5 foizi “Instagram”, 6 foizi “Facebook”, 6 foizi “TikTok”dan foydalanishlarini ko‘rsatmoqda.

Raqobat bor joyda yuqoriga intilish va harakatlanish darajasi ortadi. Ayniqsa, soha vakillari o‘rtasida tashkil etiladigan raqobatlar esa kuchli mutaxassislarni yetishtiradi. Yangidan yangi innovatsion g‘oyalar paydo bo‘ladi. Natijada ilm olish va izlanishga ishtiyoq kuchayadi. Targ‘ibot-tashviqot ishlarida ham o‘ziga xos raqobatlashgan muhit shakllanishi kerak. Bu esa zamonaviy targ‘ibot texnologiyalarini joriy etilishiga turtki bo‘ladi. Sohadagi mutaxassislarni bilim-ko‘nikmalarini oshirish, targ‘ibotda zamonga mos bo‘lgan metodlarni qo‘llash, yangi texnologiyalarni yaratish davr talabiga aylangan. Shu maqsadda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining tuman/shahar bo‘linma rahbar, xodimlari o‘rtasida “Eng yaxshi targ‘ibot loyihasi”, “Yangi g‘oyalar targ‘iboti” kabi tanlovlar o‘tkazilishi zarur. Bunda, ularning bilim ko‘nikmasini oshirish bilan yangi g‘oyaviy loyihalar tashabbuskorlarini saralash mumkin. Shundagini tizimdagi mutaxassislarni yangicha ishlashga o‘rgatiladi hamda hududlarning ijtimoiy-ma’naviy muhitini sog‘lomlashtirish va barqarorligini ta’minlashda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llaniladi. Bu esa davlat siyosatini targ‘ib etishga, odamlarni davlatga bo‘lgan ishonchini oshirishga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, barcha tizimlardagi targ‘ibotchi yoshlarni aniqlash va ularni birlashtiruvchi “Yoshlar klubi”ni joriy etish zarur. Unda, yoshlarning g‘oyalari, yangi texnologiyalar haqida bilimlari asosida 14-30 yoshlarga mos bo‘lgan targ‘ibotning zamonaviy texnologiyalari yaratiladi. Shu asosda tashkil etiladigan targ‘ibot jarayonlari natijasi o‘z samarasini beradi. Shu bilan birga, mehnat va o‘quv jamoalari o‘rtasida, har bir mahalla va muassasalarda ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot va tashviqot ishlari bo‘yicha doimiy asosdagi ijtimoiy aksiyalar, tanlov va musobaqalarni yuqori saviyada o‘tkazishga alohida e’tibor va yangicha yondoshuv ish uslubi joriy etiladi.

DUNYONING MAFKURAVIY MANZARASIGA GLOBALLASHUV JARAYONLARINING TA'SIRI

To'rayev Shavkat Nishonovich,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i, f.f.n., dotsent

Annotatsiya: Maqolada bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasida globallashuv bilan bog'liq jarayonlarning jadallashuvi sabab, mafkuralarning globallashuvi vujudga kelayotgani va ularning xavfli tus olayotgani natijasida dunyoning mafkuraviy manzarasi murakkablashib ketayotgani atroflicha yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: Mafkura, globallashuv, dunyoning mafkuraviy manzarasi, mintaqa, hudud, imkoniyat, insoniyat, an'ana, axborot, sivilizatsiya.

Dunyoning mafkuraviy manzarasida tobora keng ko'lam kasb etayotgani, aynan, globallashuvning jadallashuvi bilan bog'liq. Ana shu globallashuvning hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy sabablaridan biri sifatida, mafkuraviy jarayonlarning avj olayotganida ko'rish mumkin. Bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan chambarchas bog'lanib borayotgani kunday ravshan. Biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi imkoniyatlarning cheklanishi bilan bog'liq ekani hisobga olinadigan bo'lsa, har qanday mamlakat bu jarayonga o'zi istasa-istamasa kirib borishi lozim bo'ladi. Imkoniyatlardan voz kechishni istamagan, qolaversa, imkoniyatdan foydalanishni o'ziga maqsad qilib qo'ygan ayrim davlatlar esa mafkuraviy jarayonlarga nafaqat qo'shilish, balki uni kuchaytirishga ham urinayotgani aniq. Natijada mafkuralarning globallashuv jarayoni vujudga kelmoqda

Mafkuraviy globallashuv jarayoni bir-biridan tubdan farq qiladigan ikki yo‘nalish va an’anada namoyon bo‘lmoqda. Birinchidan, insoniyat sivilizatsiyasi tarixida erishilgan har qanday moddiy va ma’naviy qadriyatlarning umuminsoniy jihatlari tarixiy makon doirasidan chiqib baynalmilallashib, universallashib bormoqda. Boshqacha aytganda, milliylik va umuminsoniylik tamoyillarining integratsiyalashuv jarayoni kechmoqda. Ikkinchidan, millatlar va davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-madaniy rivojlanishidagi beqarorlik, ular manfaatlaridagi o‘ziga xoslikni mutlaqlashtirish insoniyatga, shu jumladan, o‘z millatining kelajagiga xavf tug‘diradigan salbiy hodisalarning mafkuralashgan holda globallashuviga olib kelmoqda.

Shu o‘rinda, globallashuvning ijobiy xususiyatlarini ham ta’kidlab o‘tish joiz bo‘ladi. Zero, bugungi dunyoda globallashuv jarayoni dunyo xalqlarini o‘zaro bir-biriga yaqinlashtirga ham xizmat qilmoqda. Shubhasiz, bunday yaqinlashuv jamiyatlar, xalqlar, millatlar, ta’bir joiz bo‘lsa, madaniyatlararo o‘zaro aloqani ta’minlaydi, ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning yaxshilanishiga qulay zamin yaratadi. Eng muhimi, xalqlar o‘rtasida bir-birini tushunish, umuminsoniy qadriyatlar shakllanishi bilan birga, milliy, diniy va madaniy tolerantlik dunyoqarashning birligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu esa, har biri o‘ziga xos bo‘lgan qadriyatlarning umumiy yangilanish jarayoniga ham ta’sir ko‘rsatadi, albatta. Ta’kidlash lozimki, axborot almashinuvining hozirgi darajada rivojlanmaganligi sababli insonlararo munosabatlar bu qadar keng ko‘lam kasb etmagan. Bugungi globallashuv sharoitida turli axborot vositalari orqali sayyoramizning istalgan burchidagi xalqlarning urf-odatlari, rasm-rusumlar, madaniyati haqida muayyan tasavvurga ega bo‘la olish imkoniga egamiz. Bunday ijobiy jihatlar, albatta, kishini quvontiradi. Ammo ana shunday, ta’bir joiz bo‘lsa, qorishuvning natijasida dunyoning mafkuraviy manzarasining o‘zgarib ketayotgani odamni xavotirga soladi.

Masalaning ayanchli jihati shundaki, ayrim manfaatdor kuchlar bunday yaqinlashuvdan o‘zlarining g‘arazli niyatlarini amalga oshirishda foydalanishga harakat qilayotganlari insoniyat oldida turgan muammolardan biriga aylanmoqda. Aslini olganda, bu muammo kecha yoki bugun paydo bo‘lgani yo‘q. Hamma zamonlar va makonlarda bir-birining mulkiga ko‘z olaytirish yoki o‘zgalarning boyligiga egalik qilishga urinishlar bo‘lganiga tarix guvoh. Lekin bugungi globallashuv dunyoni birlashtirish bilan birga muammolarning ham dunyo darajasiga ko‘tarilishiga xizmat qilmoqda-ki, buning oxir-oqibati qanday natijalarga olib borishi hech kimga ma’lum emas.

Darhaqiqat globallashuv insoniyat hayotining turli jabhalarini egallab bormoqda. Dunyoning o‘zgarishida paydo bo‘layotgan “Yangi dunyo tartiboti” natijasida insoniyat hayotiga kundan-kun yangi xavflar tahdid solmoqda. Binobarin, bu tushuncha haqida fikr yuritgan aksariyat olimlar uni – fitna nazariyasi bo‘lib, unga ko‘ra hozirda yashirin totalitar dunyo hukumati tuzilmoqda[1] – deb ta’riflaydilar. Uning natijasida dunyoda milliy davlatlarning mavqeyi tushib bormoqda. Shu paytgacha mavjud bo‘lgan dunyo tartiboti tubdan o‘zgarmoqda. Bu holat insoniyat tarixining yangi postzamonaviy davri boshlanayotganidan dalolatdir [2]. Jahonni egallab borayotgan yangi dunyo tartiboti masalasini tahlil qilgan rus olimi E.Batalov, - yangi, lekin jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilinmagan va belgilari shakllanib ulgurmagan tartibotga o‘tish davri, - deb ta’kidlaydi.

Dunyo olimlarining yangi dunyo tartiboti bilan bog‘liq qarashlaridagi bezovtaliklari bejiz emas. Binobarin, insoniyatning XXI asrga qadam qo‘yganiga ham chorak asrdan oshdi. Garchi tarix uchun bu muddat judayam qisqa bo‘lsada, unda istiqomat qilayotgan insoniyat uchun bu katta davr. Chunki, bu davrda yer yuzida bir qancha o‘zgarishlar yuz berdi [3]. Bu holat, amerikalik olim P.Kennede ta’biri bilan aytganda, dunyo aholisini doimo qo‘rqitib keladigan sovuq urush barham topganidan keyin hammaga tinchlik baxsh etadigan yangi tar-

tibot emas, balki notinchliklarni keltirib chiqargan, parchalanib ketgan jamiyatda yashayotgan sayyoraga duch keldik. Bu muammoga siyosatchilar, mutaxassislar va keng jamoatchilik jiddiy e'tibor qaratishi lozim. Katta davlatlar deb ataluvchi siyosiy guruhlar tomonidan, "Yangi tartibotlar"ni yoki faqat o'zlarining manfaatlariga xizmat qiluvchi siyosiy tizim[4] ni vujudga keltirish uchun tinimsiz faoliyat olib borilmoqda. Buning natijasida dunyoda urushlar, bir davlatning ikkinchi davlatga nisbatan tajovuzlar qilishi yoki davlatlarning ichki kelishmovchiliklari ko'paysa ko'paymoqdaki, kamaygani yo'q.

Umuman, bu ming yillikda mintaqaviy, etnik, diniy, milliy konfliktlar soni kundan-kunga ko'payib borayotgan bir davrda, yer yuzidagi vaziyat qanday bo'ladi, degan savol barchani o'ylantirib keladi. Binobarin, bu savolning tag-zaminida insoniyatning kelajagi, uning qaysi yo'ldan borishi kerakligi masalasi turibdi.

Dunyo sahnida paydo bo'layotgan yangi dunyo tartiboti haqida siyosatshunoslar, tarixchilar, faylasuflar va boshqalar tomonidan turli farazlar ilgari surilmoqda. Mutaxassislarning ayrimlari bugungi globallashuv sharoitida zamonaviy geosiyosiy va xalqaro munosabatlarni yaxshilash, demokratik qadriyatlarni rivojlantirishni taklif qilsalar, boshqalar insoniyatga tahdid solayotgan milliy mojarolar va shu asosda kelib chiqadigan etnik ziddiyatlar, xavfliligi jihatdan tobora avj olib borayotgan global iqtisodiy va ijtimoiy muammolarga birgalikda qarshi turishning yo'llarini izlamoqdalar. Biroq, bu fikrlarni inkor etmagan holda katta davlatlar deb ataluvchi ayrim siyosiy guruhlar o'zining yetakchiligini e'tirof ettirish bilan dunyoni muvozanatda saqlash mumkin degan tushuncha bilan geosiyosiy harakatlarni amalga oshirmoqdalar.

Bu jarayonning xatarliligi shundaki, katta davlatlar o'rtasidagi munosabatlar hatto bugungi kunda ham mavjud moddiy va ma'naviy qadriyatlarni, geosiyosiy makonlarni o'zaro taqsimlash yoki egalik qilishga intilish asosiga qurilmoqda. Davlatchilik tarixidan ma'lumki, o'zga davlatlarning boyligiga ega bo'lish tendensiyasi kuchaygan o'rta asrlardan to bugungi

kungacha buyuk davlatlar, imperiyalar yoki hozirgi davr siyosati bilan aytganda, strategik maqsadlar yo‘lida birlashadigan davlatlar ittifoqlari va boshqa siyosiy kuchlar tomonidan xalqaro munosabatlar hamda dunyo siyosatining asosiy tamoyillarini belgilab bergan va bugungi kunda ham belgilab berishga intilish kuchaymoqda.

Ayni shu kuchli yoki katta deb ataluvchi ayrim davlatlar ba’zan to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ba’zan kuchli siyosiy targ‘ibot orqali bevosita yoki bilvosita o‘zlarining xohish-istaklarini boshqa davlatlarga zo‘rlab o‘tkazishga harakat qilmoqdalar. Shu asosda jahonning geosiyosiy xaritasini tuzish rejasidalar desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bundan maqsad davlatlararo boshqaruvchi va hakamlik vazifasini bajarish asnosida boshqa xalqlar va davlatlarga qanday yashash, qaysi yo‘ldan yurish qoidalarini belgilab berishni nazarda tutmoqdalar. Ko‘rinib turibdiki ularning asl maqsadlari mavjud moddiy va ma’naviy boyliklarni, insoniyat uchun muhim bo‘lgan xom ashyo resurslarini taqsimlash, geosiyosiy ta’sir o‘tkazish sohalarini, jahon miqyosida ta’sir doiralarini kengaytirishdan iborat.

Bunday kuch va imkoniyatga ega bo‘lmagan boshqa davlatlarga kelsak, ular doimiy ravishda bu bosimdan chiqish yo‘llarini izlash barobarida o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash yo‘lida har biri o‘zicha yoki o‘zlariga xayrihoh bo‘lgan boshqa davlatlar bilan hamkorlikda buyuk davlatlardan himoyalanish uchun kurash olib bormoqdalar va bu qarama-qarshilik bugungi geosiyosat maydonida yaqqol ko‘rinib qolmoqda.

Ming afsuski, insoniyat ayrim katta davlatlarning bosqinchilik va nisbatan kuchsiz mamlakatlarga tajovuz siyosati ta’siridan hamon qutula olgani yo‘q. Aksincha, bugungi kunga kelib qayta avj olayotganini ko‘rish, anglash qiyin emas. Aynan geosiyosat ayrim mamlakatlarning mafkurasiga aylanayotgani ham hech kimga sir emas. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvida geosiyosiy makon va mafkura bir-biri bilan bog‘liq jarayon sifatida shakllanmoqda. Bu o‘rinda mafkura o‘ziga xos va yagona geosiyosiy makonni mustahkamlovchi yoki aksincha, o‘sha makonni buzadigan va yo‘q qiladi-

gan omilga aylanmoqda [5]. Bu omil mafkuraning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarini ham o‘zgartirib yuborishga xizmat qilmoqda.

Aslida, mafkuralardan maqsad biror bir guruh, qatlam, jamiyat yoki davlatni rivojlantirish, yagona maslak atrofida birlashib, uning taraqqiyotini ta’minlash masalasi bo‘ladigan bo‘lsa, globallashuv jarayonida mafkuralar, aksincha, o‘sha jamiyatlarni, davlatlarni buzish yo‘lidan bormoqdalar. Professor A.Ochildiyev ta’biri bilan aytganda - garchi mafkuradan ko‘zlangan maqsad kelajakda erishilishi lozim bo‘lgan natijalar bo‘lsada, ana shu natijalar hamisha ham insoniyatga ezgulik yo‘lida xizmat qilayotgani yo‘q[6].

Ta’kidlash joizki, ayrim guruhlar, qatlamlar manfaatlariga xizmat qiluvchi mafkuralarning har biri o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi. Aksariyat hollarda ular geosiyosiy xarakterga ega bo‘lgan. Ammo ularning qanday xususiyatga ega bo‘lishi, qanday shakllarda namoyon bo‘lishidan qat’iy nazar, jamiyatlar taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi, ularning bo‘linib ketishiga xizmat qiluvchi, xalqlarni bir-biriga dushman qilib ko‘rsatuvchi, urushlar olovini yoquvchi mafkuralar bo‘lib qolaveradi. Afsuski, bu faqat bugunning globallashuv jarayonida emas, insoniyat tarixining hamma zamon va makonlarida takrorlanib kelaveradi.

Bu jarayonlarda bizning vazifamiz - ogoh bo‘lish va oldini olishdan iborat ekanini unutmasligimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Goldberg R. A. Enemies Within: The Culture of Conspiracy in Modern America. – Yale University Press, 2001. – ISBN 0-300-09000-5.,

2. Делокаров К.Х. Глобализация как социокультурный феномен.//Глобализация: сущность, проблемы, переспективы. -М., 2003. -С. 16.

3. Nazarov A.N. Yangi dunyoviy tartibotning shakllanish jarayonida siyosiy taraqqiyot xavfsizligini ta’minlash muam-

ZJV5401

molari.// Oritntal Journal jf Historiy? Politics and Law. ISSN:: 2181-2780/ – 2022. -Pages: 21-25.

4. Юсупалиева, Д. К. Основные особенности политической системы общества // Молодой ученый. – 2020. – № 46 (336). – С. 520-522.

5. Авксентьев А.В., Авксентьев В.А. Северный Кавказ в этнополитической картине мира. /Ставрополь: Изд-во: СГУ, 1998. -160с.

6. Ochildiyev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar.: Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti. 2009.

ZJV5401

MA'NAVIY-MA'RIFIY TARG'IBOT SAMARADORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

Shahlo Ahrorova,
falsafa fanlari doktori(PhD), Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi

Annotatsiya: Jamiyat rivojini ma'naviy-ma'rifiy islohotlar tasavvur qilib bo'lmaydi. Ma'naviy-ma'rifiy islohotlar jarayonida targ'ibotning o'rni ham muhim sanaladi. Har bir jamiyat o'z g'oyasini xalq ongiga singdirishda targ'ibotning turli usullaridan foydalanib keladi. Ushbu maqolada ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot nimaligi, uning ahamiyati, usullari to'g'risida so'z yuritiladi.

Tayanch so'zlar: Ma'naviyat, ma'rifat, targ'ibot, tashviqot, usul, g'oya, adabiyot, san'at, mafkura, bilim, jamiyat, inson, ong, jadidlar, maktab, millat.

Avvalo ma'naviyat va ma'rifat so'zlariga e'tibor qilaylik. Nima uchun bular qo'shib aytiladi?

Ma'naviyat – arabcha "ma'ni" ma'nosini ifodalaydi. "Ma'rifat"ning esa o'zagida maorif so'zi bo'lib, o'qiyman, bilaman, degan ma'nolarni anglatadi. Bularning qo'shib olib borilmog'idan maqsad, insoniylik fazilatlari bilan birga odamda bilim ham bo'lishi va shu ilmni ezgu maqsadga yo'naltirishga undashdan iborat.

Ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot umumiy ma'noda, ma'lum bir guruh a'zolariga, ma'lum bir millat yoki elatga, jamiyat yoki ma'lum bir hudud odamlariga, xalqqa ma'naviyat bilan bog'liq tushuncha va tamoyillarni singdirish uchun ma'lum bir tizimga solingan maqsadli ma'rifiy faoliyatdan iborat jarayon; yurtimizda esa buni jamiyatimiz a'zolarini alohida guruhlarga bo'lib, yoki yaxlit tarzda milliy g'oya atrofida birlashtirishga, ularni ma'naviy, mafkuraviy xavf, tajovuz, tahdidlardan ogoh qilishga, mazkur xavf va tahdidlarning mohiyatini anglatish

orqali ularda mafkuraviy immunitet hosil qilishga, qolaversa, el va yurt manfaatlari yo‘lidagi ezgu ishlarga manba bo‘luvchi his-tuyg‘ularni tarbiyalashga qaratilgan va tizimga solingan turli usullar, harakatlar va faoliyatlar majmuini ifodalovchi voqelikdir.

Jamiyatda yuz beradigan har bir o‘zgarish, islohotlar zamirida albatta maqsadga yo‘naltirilgan g‘oya yotadi. Millat manfaatlarini ifoda etuvchi, millatning manfaati uchun faoliyatga yo‘naltiruvchi g‘oyalar esa milliy g‘oyalardir [4]. Insonlar ishtirokisiz bu o‘zgarishlarni amalga oshirib bo‘lmaydi va o‘z navbatida ular ishtirokini ta’minlash uchun ular ongiga o‘sha g‘oya singdirilishi lozim. Busiz bo‘lmaydi. G‘oya ongga singdirilishi uchun esa albatta ma’rifiy va ma’naviy ta’sir va targ‘ibot lozim. Ma’rifiy targ‘ibot asosan singdiriladigan g‘oya haqidagi bilimlar va uni asoslovchi vositalardan iborat bo‘lsa, ma’naviy targ‘ibotda insonlarning his-tuyg‘ularidan foydalanish nazarda tutiladi. Inson qaysidir bilimlarni to‘g‘ri deb qabul qilishida undagi ishonch, e’tiqod va tuyg‘ular muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot mana shu har ikkala usuldan foydalanishni toqazo etadi.

Ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot aslida ta’lim va tarbiya uyg‘unligining muhim ko‘rinishi hisoblanadi. “Targ‘ibot” iborasining o‘zagini “rag‘bat” so‘zi tashkil etgani bois, u insonni biror harakatga rag‘batlantirishni nazarda tutadi. “Tashviqot” tushunchasi o‘zagida esa “shavq” so‘zi yotadi, shu ma’noda u kishida biror narsaga shavq, ishonch tuyg‘ularini uyg‘otishga yo‘naltiriladi. Demak, targ‘ibot-tashviqotdan ko‘zlangan asosiy maqsad – nafaqat bilim orttirish, balki kishini biror-bir xatti-harakatga undashdan iborat.

Kishilar ongini eski g‘oya asoratlaridan xalos etish birdan sodir bo‘lmaydi. Ular qalbiga yangicha dunyoqarash, yangi g‘oyalarni singdirish uzoq davom etadigan jarayondir. Shunchaki, ma’ruza o‘qib, bilim bergan bilan, yoki qaysidir qonun hujjatlarini joriy qilgan bilan jamiyatda yangicha tafakkur yoki yangicha yondashuvni shakllantirib bo‘lmaydi. Buning uchun kuchli targ‘ibot va tashviqot ishlari zarur. Targ‘ibot

kuchi mavjud harakat mexanizmi kuchidan ham balandroq bo‘lishi mumkin. Abdulla Oripov she’rida ifoda etilganday, Temur tig‘i yetmagan joyni qalam bilan, yoki targ‘ibot bilan olish mumkin [3].

Umuman olganda, ma’naviy-ma’rifiy, mafkuraviy targ‘ibotni amalga oshirishda quyidagi vositalardan foydalaniladi.

1.Mavjud ta’lim tizimi. Bu eng asosiy vositalardan biridir. Chunki, bu tizim orqali qamrovni keng olish imkoniyati mavjud. Bunda ta’lim tarbiya asosida olib boriladi. Ta’lim usullari, vositalari ham targ‘ibotga xizmat qildiriladi.

2.Ommaviy axborot vositalari. Ma’lumki, XX -asrning ikkinchi yarmidan dan boshlab, axborot jamiyatni mafkura bilan qurollantirishda, dunyoqarashni shakllantirishda, tasavvur va bilimlarni to‘ldirishda yetakchi unsurga aylana bordi. Bugunga kelib, axborot almashinuvi va tarqatilishi shu qadar tezlik kasb etdiki, go‘yo ular ongning bo‘sh joyini birinchi bo‘lib egallash bo‘yicha musobaqalashayotganday ko‘rinadi. Ular obyekt qamrovini kengaytirish uchun har qanday usul va joziba yo‘llaridan foydalanishga harakat qilishadi.

3.Badiiy adabiyot va san’at. Ular inson tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatish orqali targ‘ibotni amalga oshiradilar. Adabiyot va san’at inson tug‘ilibdi-ki, u bilan birga. U dastavval bularga ko‘ngil ochish vositasi sifatida qaragan bo‘lsa, endi u qahramonlariga taqlid qiladi, ularning ortidan ergashadi. Adabiy asar, filmlar, qo‘shiqlar, ijtimoiy roliklarga singdirilgan g‘oya, harakatlar, kiyinish uslublarida ham aks etish orqali muxlis, tomoshabin yoki o‘quvchini ortidan yetaklash qudratiga ega. Shu o‘rinda Cho‘lponning adabiyot haqida aytgan fikrlarini eslab o‘tish joyizdir. “Hech to‘xtamasdan harakat qilib turg‘on vujudimizga, tanimizga suv-havo ne qadar zarur bo‘lsa, maishat (turmush) yo‘lida har xil qora kirlar ila kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa – millat yashar. Adabiyoti o‘lmag‘on (bo‘lmagan) va adabiyotining taraqqiysiga chalishmagan va adiblar yetishdirmag‘on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o‘ydan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo‘lur” [4]

ZJV5401

4.Ma’rifiy-ma’naviy yig‘inlar, suhbatlar, tadbirlar. Odatda maqsadli tarzda tashkil etiladigan bunday tadbirlarda obyekt mavzuga mos ravishda tanlab olinadi.

5.Jamoat joylaridagi ko‘rgazmali vositalar, shiorlar, reklama va anonslar. Bu yerda ham, so‘zlar, hikmatlar, usullar, vositalar, ranglar, ovoz va ohanglar tanlanishida ma’lum bir g‘oyani singdirish ko‘zda tutilishi mumkin.

6.To‘y, marosim, bayram tadbirlari. Bu kabi tadbirlarni o‘tkazish, tashkil qilish jarayonida milliy, diniy g‘oyalar bilan birga boshqa g‘oya va mafkura ham targ‘ib qilinishi mumkin.

7. Varaqalar, bukletlar, kitoblar tarqatish.

Bundan tashqari, zamon, imkoniyat va mavjud ijtimoiy muhitdan kelib chiqib, ma’lum bir guruhlar, harakatlar, kuchlar ma’rifiy-ma’naviy targ‘ibot va tashviqotning o‘ziga xos usullaridan foydalanishlari mumkin.

Shu o‘rinda jadidlar harakati xususida to‘xtalib o‘tamiz. Avvalo, ma’lumot o‘rnida keltirish lozim-ki, jadidlar harakati ayrim ma’rifatparvar, ziyoli kishilar tomonidan tuzilgan jamiyat uyushmalardan shakllangan. Jadidlar taraqqiyparvarlar, yangilikni joriy etishga intiluvchilar bo‘lib, ularning dastlabki harakatlari XIX-asrning 80-yillarida boshlangan. Ismoilbek Gaspirskiy Qrimda shu harakatning asoschisi hisoblanadi. Mahmudxo‘ja Behbudiyni esa O‘rta Osiyoda ma’lum ma’noda yetakchi, ya’ni dastlabki, faoliyatlarda yetakchilik qilgan olim sifatida ko‘rsak bo‘ladi. Gap shundaki, ular aholining, jamiyat kishilarining dunyoqarashi, ilmi zamon talablaridan ortda qolayotgani, ularning ongi va qarashlarini o‘zgartirmay turib, jamiyatni rivojlantirib bo‘lmasligini anglab yetdilar. Jadidchilikning asosiy g‘oya va maqsadlari quyidagilar edi: Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma’rifat tarqatish. Mana shu yo‘ldagi dastlabki qadamlarini bosdilar va ma’rifiy targ‘ibot uchun bir qator yo‘nalishlarni belgiladilar.

Bu yo‘nalishlar: 1) yangi usuldagi maktablar ochish;

2) qobiliyatli yoshlarni chet elda o‘qitib, bilimi va tajribasini oshirish va ularni o‘z jamiyatimiz uchun xizmat qildirish;

ZJV5401

3) ma’rifiy jamiyatlar tuzish orqali ishlarini aniq tartib va yo‘nalishlarga solish, faoliyatni qonuniylaytirish; madaniy taraqqiyotni rivojlantirish maqsadida teatr truppalarini ochish va ulardan targ‘ibot vositasi sifatida foydalanish;

4) gazeta va jurnallar chop etish orqali xabardorlik va ilm darajasini oshirish;

5) Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va Parlament tuzish, keyinchalik demokratik respublika tuzish uchun uning asoslarini yaratishdan iborat edi.

Bu ishlar boshida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidaxmat Siddiqiy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, A.Avloniy, Ubaydulla Xo‘jayev, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov (Toshkent), Fitrat, F.Xo‘jayev, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev, Abdulvohid Burxonov, Sadriddin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho‘lpon, Isxoqxon Ibrat, Muhammadsharif So‘fizoda (Farg‘ona) Polvonxoji Yusupov, Boboxon Salimovlar (Xorazm) turardilar.

Biroq, targ‘ibot-tashviqot ishlari hamisha ham oson va silliq ketavermaydi. Targ‘ibot yo‘lida ma’lum g‘ovlar uchrashi mumkin. Jadidlar harakati ham o‘z targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishda ma’lum bir to‘siqlarga uchraydilar. O‘sha davrda yangi maktablar ochishga, g‘arbona kiyinishga mahalliy mullalar qarshi chiqishgan. Xususan, jadidlarning Buxoro jamiyati mana shu to‘siqlar tufayli 2 oqimga bo‘lingan: Ikrom domla boshchiligida taraqqiyparvarlar oqimi va mulla Abdurazzoq boshchiligida qadimiylar oqimi. Mana shu oqimlarning turliligi ham albatta dunyoqarashlar, yondashuvlar turliligi, hatto qarama-qarshiligidan kelib chiqqan bo‘lib, qadimiylar oqimi aqidalarga asoslangan holda taraqqiyparvarlar harakatidagi yangiliklarni qabul qilish va jamiyatga joriy etishga qarshilik qilganlar.

Bugungi kunda ham turli oqimga xizmat qiladigan mafkuralar xuruji targ‘ibot-tashviqot ishlarini murakkablashtiradi. Bunday holatda mafkuraga qarshi mafkura, asoslar va faktlar bilan qurollanish muhim ahamiyat kasb etadi. Jadidlar ham

yangilikka qarshi bo‘lgan mullalar va ularning tarafdorlariga qarshi payg‘ambarimizning “Ilmni Chinda (Xitoyda) bo‘lsa ham o‘rganinglar” [5], degan hadisi-shariflaridan foydalanishgan. Demak, targ‘ib qilayotgan g‘oyaning to‘g‘ri ekanligini asoslovchi dalillar hamisha mavjud bo‘lishi kerak.

Targ‘ibot ikki xil: oshkora va yashirin tarzda olib borilishi mumkin. Yuqorida oshkora olib borilayotgan targ‘ibotni ko‘rdik.

Yashirin tarzdagi targ‘ibot-tashviqot ham ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi:

1.To‘g‘ridan-to‘g‘ri yashirin. Bunda yashirin yig‘inlar o‘tkazish, yashirincha varaqa va kitoblar tarqatish kabilar nazarda tutiladi.

2.Niqoblangan yashirin ko‘rinish ancha xavfli hisoblanadi. Bunda oshkora targ‘ibot zamiriga yashirin maqsad va g‘oyalar singdiriladi. Masalan, jamiyat uchun biror kerakli mahsulot yoki biror buyum reklamasi ostida biror g‘oya yashirinishi mumkin. Reklama mahsulotining orqa fonida, reklama qiluvchining kiyinishi, harakatlari, talaffuzida, reklamaning tagosti mazmunida mana shunday niqobni ko‘rish mumkin. Masalan, mushuklarning “kit-kat” ozuqasi reklamasini olaylik. Umumiy nuqtayi-nazardan qaralganda, mushuklar uchun ozuqa mahsuloti reklama qilinyapti. Lekin bu reklama ostida “Mana, bizning yurtimizda hatto mushuklar shunday oziqlanadi”, degan o‘sha yurt jozibasi yashirin. Yoki, bir ichimlik reklamasini namoyish etadigan yigitning hatto g‘arbona ham deb bo‘lmaydigan, og‘i tizzasida turgan shalvor kiyib olgani-yu, qo‘llarini bigiz qilib, afrika san’atkorlariga xos qiliqlar va harakat qilishi – milliy g‘oya va qadriyatlarga mutlaqo zid bo‘lgan targ‘ibot bo‘lib, unda oshkora tarzda ichimlik, yashirin tarzda g‘arbona sayoq hayot targ‘ib qilinayotganini anglash mumkin. Bu kabi niqoblangan targ‘ibotlar ayrim film va seriallarda, san’atkorlar chiqishlarida va kiyinishlarida, pannolarda, ayrim tadbir va yig‘inlarni tashkil etishda ham ko‘rinadi.

Bundan tashqari, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibotning ikkita an’anaviy yo‘li mavjud. Birinchisi – insoniy fazilatlarni

ulug‘lash, komil insonlar hayoti va faoliyatini tavsiflash, ularni ibrat sifatida ko‘rsatishda namoyon bo‘ladi. Ikkinchi yo‘l esa mavjud illatlarni qoralash, ularning oqibatlarini ko‘rsatish, bu illatlarni yo‘qotishgaga qaratilgan targ‘ibot ishlari amalga oshiriladi. Ko‘pincha ikkinchi vosita birinchisiga nisbatan samara beradi. Demak, yutuqlarni e’tirof etish va maqtovlarga xolisona, me’yorida yondashib, ko‘proq kamchiliklar, ularning kelib chiqish sabablari va oldini olish masalalariga to‘xtalish lozim bo‘ladi. Misol keltiramiz: Masalan, jinoyatning oldini olish masalasini olaylik. Bu jamiyatda ma’lum ma’noda ma’naviy muhit darajasini ko‘rsatadigan ko‘rsatkich hisoblanadi.

Biz jinoyat sodir etmasa, insonning oilada va jamiyatda qanday o‘rin topishi, hurmat qozonishini kimlarningdir misolida tushuntirishga ustuvorlik beryapmiz. Jinoyat kam sodir etilgan mamlakatlarga dunyoning munosabatini ham ko‘rsatyapmiz va misol keltiryapmiz. Bu birinchi usul.

Ikkinchisida esa jinoyatning kelib chiqish sabablari, jinoyat sodir etgan odamning jamiyatdagi o‘rni, jinoyatchilik rivojlangan mamlakatlarga dunyoning munosabatini ko‘rsatyapmiz. Ikkinchi holat insonni hushyorroq qiladi. Chunki psixologik jihatdan qaraganda ham sokinlik, maqtov kabi narsalar inson ruhiyatini sokinlashtiradi, bo‘shashtiradi. Insonda taajjub, vahima uyg‘otadigan xabar, gaplar esa uning ruhiyatini sergak holda ushlaydi.

Albatta, har ikkala usulni uyg‘unlashtirsa ham bo‘ladi. Targ‘ibotda aslida har ikkalasidan ham foydalaniladi. Faqat ularning biri ustuvorlik kasb etib, ikkinchisi solishtirish maqsadida ishlatiladi.

Shuningdek, targ‘ibot samaradorligini ta’minlash uchun quyidagilarga e’tibor berish lozim:

1.Auditoriyaning yoki obyektning to‘g‘ri tanlanishi.

2. G‘oyaning aniq yo‘naltirilganligi.

3.Targ‘ibot usulining to‘g‘ri tanlanganligi.

4.Targ‘ibot subyektining bilim va g‘oya bilan qurollanganlik darajasi va ishontirish qobiliyati.

Yuqorida e’tirof etganimizday, jamiyatni ma’lum yo‘lga solish uchun jamiyat a’zolariga yetakchi g‘oya singdirilishi va ularning bu g‘oya ortidan ergashishlariga erishilishi lozim. Gohida bu targ‘ibot yillarni talab qiladi. Chunki inson o‘z ongida ma’lum bir g‘oyani qadriyatga aylantirishi juda ko‘p vaqt va mehnatni talab qiladi. Yengil-yelpi tashviqot bilan gohida aks ta’sirga ega bo‘lish, masalan ezgu maqsadlarga yo‘naltirilgan g‘oyalarni ham obro‘sizlantirib qo‘yishi mumkin. Biz ma’naviy-tarbiya uzluksizlikni talab etadi, deyapmiz. Ma’naviy yetuk avlodni yaratish bir yo o‘n yilda hal bo‘ladigan ish emas. Bunga erishish uchun – birinchi navbatda, ma’naviy targ‘ibot-tashviqot ishlarini ota-onalar ongi, ularning farzandlariga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishga yo‘naltirmoq lozim. Demak, targ‘ibot-tashviqot ishlari ham xuddi ma’naviy tarbiya singari uzluksizlik kasb etishi lozim. Biz unga yetkazgan ma’lumot, g‘oya tomdan tarasha tushganday bo‘lmasligi lozim. Mana shu o‘rinda Sovet hukumatining targ‘ibot usullarini eslab ko‘raylik. Bu usullarni mensimasdan qarash noto‘g‘ri. Chunki bu usullar yillar davomida pishib shakllangan. Bolalar bog‘chasidanoq Lenin boboning tanilishi – bu uning g‘oyasiga olib borishning eng samarali usulidir. Bola hali g‘oya nimaligini bilmaydi, ammo unga g‘oya egasi tanitilyapti. Mana, masalan faraz qiling, o‘z mahsulotini keng miqyosda targ‘ibot qilishni istagan odam dastavval mahsulotiga xos sifatlarni namoyon qila boshlaydi. Bu sifatlar ko‘zlarga o‘rnashib bo‘lgandan so‘ng mahsulotning o‘zini olib chiqadi. Aytaylik, bilayn kompaniyasi. U dastavval o‘zining ramzi hisoblangan sariq-qora chiziqlarning o‘zini kiyimlar, buyumlar shaklida maydonga tashlaydi. Dastavval uni ko‘rgan odam bu nimani anglatishini tushunmaydi. Ertasi kuni uning ko‘z oldida shunaqa chiziqli boshqa buyum paydo bo‘ladi. U tushunadiki, gap buyumda emas, aynan shu rangli chiziqlarda. Bu uning diqqatini torta boshlaydi. Shundan so‘nggina, ya’ni ma’lum bir vaqt o‘tibgina Bilayn kompaniyasi shu chiziqlar bilan o‘zini namoyon qila boshlaydi. Demak, u tashviqotda avvalo kompaniyaning nomini emas, aynan ramziy ranglar-

ZJV5401

ni o‘rtaga tashlash usulini tanladi. Yana kommunistik mafkuraning targ‘ibot usuliga, uning uzluksizlik tizimiga qaytamiz. Maktablarda oktyabryat, pioner, komsomol tashkilotlari shunchaki tuzilma bo‘lmagan. Ularning faoliyati bosqichma-bosqichlik asosida targ‘ibot va g‘oya singdirilishiga yo‘naltirilgan. Jamiyat bir tuzumdan ikkinchisiga o‘tar ekan, undan mutlaqo voz kechishi noto‘g‘ri, chunki unda jamiyatning tarixi, qadriyatlariga xos tafakkur tarzi, subyekt va obyektlarning o‘rganish asosida kerak yoki kerakmasga ajratiladigan xususiyatlari bo‘ladi. Ayrim xususiyatlar shunchaki kerak emas, balki juda ham zarur bo‘lishi mumkin. Masalan, kommunistik mafkurani targ‘ib etishga qaratilgan tashkilotlar aynan bolalarni birlashtirishga mo‘ljallanganligi zamirida shu g‘oyaning ildizini o‘rnatish masalasi yotadi. Zero, “Yoshlikda olingan bilim – toshga yo‘nilgan yozuv bilan barobar” va bu bilimni o‘chirib bo‘lmaydi. Har qanday tarbiyada, hatto yuksak rivojlangan demokratik tarbiya tizimida ham ozmi-ko‘pmi, bajarilishi shart bo‘lgan belgilar mavjud. Masalan, bola go‘dakligidan biror ezgu fazilatga o‘rgatilmasa, kerak bo‘lsa, majbur qilinmasa, yuz-qo‘lini yuvmaslik, kattalar gapini bo‘lish singari qusurlar unga odat bo‘lib qoladi. Xalqimizga azaldan xos bo‘lib kelgan andisha, ota-onaga hurmat, ilm-ma’rifatga intilish kabi olijanob fazilatlar ham o‘z-o‘zidan shakllanib qolmaydi. Demak, ma’naviy targ‘ibot inson bolaligidan boshlanib, asosiy maqsad unda insoniylik fazilatlarini shakllantirishga qaratilishi lozim.

Umuman olganda nima, qanday targ‘ib qilishni aniq va puxta tasavvur etmoq ma’naviy oziq nimadan iborat bo‘lishini, uni odamlar ongiga qay tariqa yetkazish usullarini ishlab chiqmoq darkor. Bugungi murakkab ma’naviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ularning ustuvor yo‘nalishlarini, kimga va nimaga qarshi qaratilganligini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta’sirini o‘rganish, ma’naviy tajovuzlar mohiyatini ochib berish alohida ahamiyat kasb etadi. Aholi, ayniqsa, yoshlarni o‘z fikriga ega, ma’naviy tajovuzlarga qarshi sobit tura olishga qodir, irodali,

fidoyi, vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga qaratilgan, uzluksizlik kasb etgan va ma'lum bir tizimga solingan targ'ibot jamiyat barqarorligi va ravnaqi garovi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va soha rivojini yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2017 yil 30 iyul.

2. "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 2018yil 15 - avgust,http://www.president.uz/uz/lists/view/

3. A.Oripov. Tanlangan asarlar. 1-jild.G'.G'ulom nashr. T.-2000y. B.-279.

4. Abdulhamid Cho'lpon. Adabiyot nadir? https://ziyouz.uz/.

5. Mubashshir Ahmad. Ilm, ta'lim berish va ilm olish fazilati hamda uning naqliy va aqliy dalillari. https://islom.uz/ (24.05.17.)

6.Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining g'oyaviy asoslari. –T.: Sharq, 2001. –B. 192.

7. Shahlo Ahrorova. Ma'naviyat eng ta'sirchan va qudratli qurolimizdir. "Ma'naviyat" nashr. T.-2022y. B.-32.

8. Cho'lpon. She'rlar. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. T.-2016.

“OMMAVIY MADANIYAT” VA UNING YOSHLAR ONGIGA SALBIY TA’SIRI

Musayev Umidjon Saidkamolovich,
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Urganch filiali Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi, f.f.d.,(PhD)

Annotasiya: Ushbu maqolada “ommaviy madaniyat” va uning yoshlarning ongi-tafakkuri, o‘zligiga salbiy ta’siri va uning oldini olish, unga qarshi yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalalari yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar: “Ommaviy madaniyat”, global, globallashuv, tahdid, dunyo, xavf-xatar, ma’naviyat, g‘oya va mafkura, xalq, yoshlar, ong-tafakkur, immunitet, madaniyat.

Hozirgi kunda ijtimoiy-ma’naviy tahdid va havf-xatarlarning asosiylaridan biri hisoblangan “ommaviy madaniyat” va uning salbiy oqibatlarini atroflicha tahlil dolzarbligicha qolmoqda.

G‘arbda keng taraqalayotgan erkinlik niqobidagi “ommaviy madaniyat” zamirida har qanday xalq va millat ma’naviyatini izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xatarlar yotibdi. Global miqyosda madaniyat ko‘rinishida targ‘ib qilinayotgan “ommaviy madaniyat” tahdidi yoshlarimiz ma’naviyati, dunyoqarashi va axloqiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda tobora kengayib, o‘z shaklini o‘zgartirib borayotgan “ommaviy madaniyat”ni aksariyat g‘o‘r va tajribasiz yoshlar “Yevropacha madaniyat” va “erkinlik” sifatida qabul qilishayotganligi barchamizdan bu borada jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda. Nega deganda, madaniyat ko‘rinishidagi “ommaviy madaniyat” ta’sirida yoshlar qalbi va ongi, ruhiyatini izdan chiqarishga bo‘lgan harakatlarni namoyon bo‘layotganligi juda tashvishlidir. Qolaversa, ushbu mafkuraviy – g‘oyaviy tahdid har qanday xalq va millatning o‘ziga xosligini rad etuvchi g‘oyani targ‘ib etmoqda[1]. “Ommaviy madaniyat” zami-

riga e'tibor qaratilsa, u o'zida tuban va buzg'unchi g'oyalarni namoyon etish orqali mamlakat taraqqiyotiga rahna solayotganligi tobora oydinlashmoqda. Axborot tahliliy o'rganishlarga ko'ra, "ommaviy madaniyat" tarafdorlarining asl maqsadi milliy davlatning taraqqiyot modeliga ishonchsizlik uyg'otish orqali uning ma'naviy xavfsizligiga rahna solish orqali moddiy va ma'naviy boyliklarini egallashdan iboratdir.

"Ommaviy madaniyat" avvalo, madaniyatsizlik ifodasi bo'lib, xalqning ma'naviy xavfsizligiga tahdid solish orqali insonga qarshi qaratilgan zo'ravonliklar, faxsh, qotillik, xudbinlik kabi milliy ma'naviyatimizga mutloqo yot bo'lgan, tuban illatlarni targ'ib etayotganligi tobora oydinlashmoqda. Aynan shu omillar "ommaviy madaniyat" ta'siri ostida azaliy qadriyatlar tizimini vayron etish orqali shaxsni tubanlashuv girdobiga yetaklashini anglash lozim. Bugungi kunda "ommaviy madaniyat" targ'ibotchilari insonlar qalbi va ongida vatanparvarlik, Vatanga muhabbat tuyg'ularini so'ndirib, xalqni azaliy ma'naviyati va e'tiqodidan mahrum etish orqali millatni o'zligi hamda tarixidan judo qilishga intilmoqda [1]. Albatta, mana shunday bir sharoitda o'zida tuban illatlarni namoyon etuvchi "ommaviy madaniyat" tahdidlariga nisbatan muntazam ogoh, sezgir va hushyor bo'lishni taqozo etmoqda.

Bu borada, bugungi kunda mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishda milliy o'zligimiz mohiyatini anglash, ezgulik va insonparvarlik g'oyalariga xizmat qiluvchi milliy g'oyamiz biz barpo etayotgan yangi O'zbekistonning insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik g'oyasi bo'lishga xizmat qiladi. Bu haqida, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: "Albatta, biz mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash bo'yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Ammo, xolisona tan olib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda butun dunyoda aholining, birinchi navbatda, yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun qanday keskin kurash borayotganini, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, "ommaviy madaniyat" kabi tahdidlar

kuchayayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, farzandlarimiz tarbiyasi, ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum ham susaytirmasdan, aksincha, ularni yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur”[2]. Zero, mamlakatimizda milliy ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashda eng avvallo, insonlarning ma’naviy, axloqiy-ruhiy hayotiga tahdid soluvchi xatarlardan bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu masala yuzasidan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shunday ta’kidlab o‘tadilarki, “ommaviy madaniyat” milliy an’analarimiz va qadriyatlarimizga zarar yetkazmoqda”[3]. Albatta, “ommaviy madaniyat” kabi tahdidlar suqilib kiradiki, sezmay va xatto bilmay ham qoladi inson.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, “... chetdan biz uchun mutlaqo yot bo‘lgan, ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o‘z ichiga olgan “ommaviy madaniyat” yopirilib kirib kelishi mumkinligini unutmasligimiz kerak”[4]. Bu hozirgi globallashuv sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

“Ommaviy madaniyatga falsafiy ma’noda tarif beradigan bo‘lsak, – madaniyat mavjudligining murakkab, hamma vaqt bir xil talqin qilinmaydigan o‘ziga xos shakli”[5].

Faqatgina insonni o‘ziga tortuvchi ohangrabo mavjud. Professor N. Shermuhamedovaning fikricha, “Individual madaniyat va elitar madaniyat asosida shakllangan bo‘lib, ommaviy madaniyat tarqalishi, vujudga kelishiga ommaviy axborot vositalari – gazetalar, ommabop jurnallar, radio, ovoz yozish, kinomatograf, televidenie, magnitli va videomagnitli yozish vositalarining rivojlanishi zamin hozirladi”[6]. Bu fikrlarning qanchalik to‘g‘riligini ayni zamon (davr) ning o‘zi isbotlab turibdi.

Faylasuf olim A.Erkayevning fikricha, “Ommaviy madaniyat dunyoda juda tez va keng tarqaldi. Ommaviy madaniyatda ba’zi bir ijobiy jihatlar bilan bir qatorda salbiy jihatlar ham ko‘p. Eng avvalo, ommaviy madaniyat insonni barcha sohalarda, jumladan, madaniyat va dam olish, bo‘sh vaqtni tashkil qilish borasida ham individualligini yo‘qotgan iste’molchiga

aylantirib qo‘yadi. Uning iste’mol qilayotgan ma’naviy-madaniy mahsulotlari, san’at asarlari esa standartlashgan, milliy qiyofamiz tovarga aylanadi. Musiqada va ashulachilikda rep, rok kabi janrlar, jangarilik, mistik – fantastik filmlar, trillerlar, blokbasterlar fikrimizni tasdiqlaydi. Ommaviy niqobi ostida vaqti-vaqti bilan paydo bo‘ladigan turli ijtimoiy harakatlar va guruhlar (xippilar, panklar, rokkerlar hamda geylar (besoqollar) harakati antiglobalistlar va sh.k.), fahsh va zo‘ravonlikni, vampirlik va jodugarlikni targ‘ib qiluvchi filmlar, ochiqchasiga parnografik sahnalardan iborat kassetalar, disklar va boshqalar ta’siri esa inson shaxsini yemirishga, jamiyatni degomunizasiya qilishga olib keladi“[7]. Bular ayni haqiqat bo‘lib, biz ularni yo‘q qilish yoki cheklab qo‘yishni emas, yoshlarda shu narsalarga nisbatan immunitetni shakllantirishimiz lozim. Nimaga deganda? Inson tabiatan shunday yaralganki, nimaniki ta’qiqlasangiz, uni qoralasangiz va unga to‘siq qo‘ysangiz, aynan o‘sha to‘siqdan o‘tishga urinadi.

Ko‘plab olimlar, san’at-madaniyat xodimlari “ommaviy madaniyat” tushunchasini turli xil talqin etsalar ham, u o‘zining XX asrning 50 yillarida insoniyat yaratgan ming yillik klassik, ya’ni retro madaniyatga salbiy ta’sir etishi bilan namoyon bo‘lib, yoshlarni o‘z oqimiga shiddat bilan torta boshlagani bu ayni haqiqat. Nigina Shermuhamedova “ommaviy madaniyat”ni globallashuvning asosiy belgilari qatoriga kiritib, quyidagilarini sanab o‘tadilar: ommaviy madaniyat, avvalo, kino, musiqa, adabiyot, keng iste’mol mollari ishlab chiqarish sohasida faol rivojlana boshlashi; televizorning ixtiro etilishi, vaqt o‘tishi bilan u ommaviy madaniyatning asosiy targ‘ibotchisiga va globallashuv ramziga aylanishi” ekanini qayd etadi[6]. Axborot almashinish tezligining ortishi va eshik qoqmas vositalarning yaratilishi, bu madaniyatning tarqalishining vositasi bo‘lib xizmat qilmoqda. Yoshlar esa, buning keng iste’molchisiga aylanib bormoqda.

Vaholanki “ommaviy madaniyat” niqob ostida g‘ayrimadaniyat unsurlari, axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik, individualizm va egosentrizm, deviant xulq-atvor g‘oyalarini tarqatish,

buning orqasidan boylik orttirish, xalqlarning ming yillik qadriyatlari, an'analari, o'zligi va turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni buzishga qaratilgan tahdidlar odamni tahlikaga solishi tabiiydir. Jahonda madaniyatlar integratsiyalashuv jarayoni yuz berayotgan bugungi kunda, bunday jimjimador, rang-barang madaniy g'oyalarga moyillikning ortishi davriy talab, ehtiyojdir.

Yosh avlodning g'oyaviy manipulyatsiya etish borasida turli internet va OAV bozorlarida ulgurji savdo ketmoqda. Hozirgi globallashgan davrda yoshlar ongu, tafakkurini egallashda internet va televidenie "yetakchi"lik qilmoqda. Bu vositalar hozir foydali tomonlari bilan birgalikda zararga ham ishlamoqda. Telefobiya, TV fobiya va internetfobiya kabi zararli yot g'oyalar va odatlarning odatiy hayot tarziga aylanib borishiga zamin yaratmoqda.

Shunday ekan, biz bugungi "Ommaviy madaniyat" botqog'iga botib qolmasligimiz uchun doimo ogoh va hushyor bo'lishimiz talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Musayev M. Global miqyosda madaniyat ko'rinishida targ'ib qilinayotgan "Ommaviy madaniyat" tahdidi. // Demokratlashtirish va inson huquqlari. – Toshkent: 2017. - №1. – B. 45-46.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: O'zbekiston, 2018. – B. 15.

3. Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Kamolot" yoshlar ijtimoiy xarakatining IV qurultoyidagi nutqi. 30.06.2017

4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2013. – B. 117.

5. Falsafa: qomusiy lug'at. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 313.

6. Shermuhamedova N. Falsafa: o'quv uslubiy majmua.– Toshkent:"Noshir", 2012. – B. 532, 660-661.

7. Erkayev A. Ma'naviyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2011. – B. 215-216.

MA'NAVIY TARG'IBOTNING ZAMONAVIY YONDASHUVI HAMDA TA'SIRCHAN USULLARI

Xoldorova Nasiba Normuratovna,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotasiya: Maqolada mahallalarlardagi ijtimiiy-ma'naviy muhitni o'rganish, ishlarni "mahallabay", "xonadonbay" tashkil etish, mezonlar asosida mahallalarni "qizil", "sariq" hamda "yashil" hududlarga ajratgan holda manzilli tadbirlar o'tkazish choralarini ta'siri asoslab berilgan.

Mamlakatimizda Yangi O'zbyekistoni barpo etish sari dadil qadam tashlandi. Bu yo'lda inson qadri-qimmatini ulug'lash, xalqparvar demokratik davlat barpo etish, ma'naviy yangilanish va ma'rifatli jamiyat qurish kabi bir qator ustuvor yo'nalishlar belgilangan. Ana shu ustuvor yo'nalishlar zamirida "Inson qadri uchun" ezgu tamoyil bosh mezon bo'lib xizmat qiladi.

Aytish kerakki, Yangi O'zbekiston taraqqiyotining milliy yuksalishida ma'rifatli jamiyat qurish g'oyasi ustuvor ahamiyatga ega. Bunda ma'rifiy islohotlarni qay tartibda amalga oshiramiz? Yangi ma'naviy makon yaratish borasidagi vazifalarni, ma'rifiy islohotlarni amalga oshirishda qanday tajribalarga tayanamiz?

Aytish kerakki, mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish eng avvolo unga yetarli sharoit yaratish, hayotdan to'laqonli rozi bo'lishi uchun barcha sharoitlar yaratish 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilab qo'yilgan. Ayniqsa, ushbu huquqiy xujjatda ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqishda bir qator ustuvor yo'nalishlar mavjud.

Bir so'z bilan aytganda strategiyada ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishida Yangi O'zbekistonni yetuk ma'naviyatli jamiyat,

erkin va baxtli insonlar yashaydigan yurtga aylantirish qaratilgan ezgu g‘oyalar mujjasamdir. Bu borada aholi, xususan yoshlarning intelektual salohiyati, ongu-tafakkurini va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat ruhi bilian yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash-davr talabidir.

Ta’kidlash joiz, bugun joylarda odamlarni yig‘ib olib uzundan-uzoq maruzalar, balandparvoz gaplar bilan tadbirlar o‘tkazib bo‘lmasligini vaqtning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Birinchidan, odamlarimiz kechagi odamlar emas. Ularning ongi-tafakkuri o‘zgargan. Ikkinchidan, o‘tkazilagan bu kabi tadbirlar natija bermaydi.

Amalga oshirilayotgan ishlarni samaradorligini oshirishda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirish avvalida ijtimiiy-ma’naviy muhitni o‘rganish muhim o‘rin tutadi. Bunda hududdagi aholi yashash tarzi, muammolar va ularni keltirib chiqarilayotgan sabab va yechimi atroflicha o‘rganib chiqish darkor. Ya’ni ishni aholi kayfiyati, uni qiynab turgan muammolari va shu bilan birgalikda uning qiziqishlarini aniqlash ijtimoiy-ma’naviy muhitni o‘rganishda ayni jihat hisoblanadi. Shunday ekan biz ishni aynan “mahallabay”, “xonadonbay” tashkil etishimiz davr talabi hisoblanadi.

Shu boisdan ham Ma’naviyat va ma’rifat markazi Surxondaryo viloyat bo‘limi tomonidan ish uslubimizni “mahallabay”, “xonadonbay” tashkil ettirishga astoydil kirishilmoqda.

Jumladan, mahallalarlardagi xonadonlar, oilalar, aholi soni, yosh va gender tarkibi, band bo‘lganlar va ishsizlar soni, mahalla faollari to‘g‘risidagi barcha ma’lumotlarni o‘z ichiga qamrab olgan hududning ijtimoiy-ma’naviy muhit xaritasini ishlab chiqishni maqsad qilib olganmiz. Mezonlar asosida «qizil», «sariq» va «yashil» hududlarga ajratgan holda barcha mahallalarni «yashil» hududga o‘tkazish choralarini ko‘rishni belgilab oldik.

Ayni paytda bo‘lim tomonidan viloyatda “mahallabay” ishlash jarayonida “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolarning muammo, qiziqishlarini o‘rganish asnosida hududagi sektor rahbarlari bilan madaniy-ma’rifiy tadbirlarni o‘tkazilib kelinmoqda.

Masalan “Uyma-uy mehr va ma’naviyat ulashib” shiori

ostida Muzarbot tumani misolida tadbir o‘tkazildi. Undan ko‘zlangan asosiy maqsad hududlar aholisining turmush tarzi, ijtimoiy ma’naviy muhiti bilan yaqindan tanishish, imkoniyati cheklangan bolalar hayotini o‘rganish, muammolarga yechim topishga ko‘maklashishdan iborat bo‘ldi.

Shuningdek, Uzun tuman markazidan 130 kilometr olisda, tog‘li chegara hududlarida joylashgan Bobotog‘ massivining Donishobod va Qoranqul qishloq aholisining kayfiyati, kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishini o‘rganish maqsadida madaniy-ma’rifiy tadbir o‘tkazildi. “Oilalarga ma’rifat ulashib” loyihasi doirasida tashkil etilgan tadbirga aholi, shu jumladan, yoshlar orasida kitobxonlikni keng targ‘ib etish maqsadida qishloq aholisiga bepul kitoblar tarqatildi.

Shu kabi tadbirlardan “Hech kim mehr va e’tibordan chetda qolmaydi” loyihasi doirasida Qiziriq tumanidagi “Yangi hayot” mahalla fuqarolar yig‘inida “Ma’naviyat hashari” o‘tkazildi.

Dastlab bir guruh ma’naviyatchilar bilan Xanifa Xudoyqulova xonadonida bo‘lib, oila a’zolarining yashash tarzi qiziqishlari, muammolari o‘rganib, ijrosini sektor rahbari ko‘magida bartaraf etishga muvofiq bo‘ldik.

Shundan so‘ng, “Ma’naviyat hashari” davomida ushbu xonadonga 60 dan ziyod mevali va manzarali daraxtlar o‘tkazilib, ariq va yo‘lakchalarni tozalab berildi.

Shu hududdagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj aholi qatlamlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularga munosib turmush sharoitlari yaratish, moddiy, psixologik, huquqiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha aniq amaliy choralarni amalga oshirish maqsadida ana shunday tadbir “Karmaki” mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi kitobxon oila Nasiba Murtazoyeva, Zebo G‘aniyeva, Quvondiq Bekbo‘tayev xonadonida o‘tkazildi. Tadbirda ushbu xonadonlarga bo‘lim tomonidan kitoblar jamlanmasi topshirildi.

Aytish kerak, ushbu tadbirlarni hududdagi, umumta’lim maktabida faoliyat olib borayotgan ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchilar, ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari bilgalikda amalga oshirilib, tadbir davomida mahorat darsalari tashkil etildi.

Viloyatimizda ana shunday ma'naviy targ'ibot tadbirini Boysun tumanida "Oilalarga mehr ulashib" shiori ostida o'tkazildi. Tadbir davomida "Kosiblar" mahallasida yashovchi fuqaro Dilorom Farmonova hamda «Tog'chi» mahallasida yashovchi Rajaboy To'xtayevalar xonadonidan xabar olindi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'tkazilgan tadbirlar davomida bugun nogironligi bo'lsada, barcha hayotiy qiyinchiliklarni metin iroda bilan yengib kelayotgan, shukronalik bilan yashayotgan vohadoshlarimizning hayot yo'lini ko'pchilikka namuna qilib ko'rsatishni maqsad qilganmiz. Shu boisdan ham «Tog'chi» mahallasida yashovchi Rajaboy To'xtayeva xonadonida bo'lganimizda R.Toxtayeva 30 yildirki, nogironlik aravachasiga mixlanib qolgan, ammo hayot zarbalariga taslim bo'lmaganligi, barcha mashaqqatlarni sabr bilan yengib kelayotganligidan qoyil qoldik. Biz ham o'z navbatida 63 yoshni qarshilagan hayotda shukronalik hissi bilan yashab, jamiyat farovonligiga o'z xissasini qo'shib, milliy hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelayotgan bugungi kun qahramoni bilan suhbatlashib qaytdik. Bugungi kun qahramoni deya e'tirof etilayotgan boysunlik hunarmand haqida ijtimoiy rolik tayyorlab ko'pchilikning e'tiboriga havola etdik.

Aytish kerak, jamiyat hayotini ezgu g'oyalar bilan boyitish, xalqning birdamligi va hamjihatliligiga asoslangan ma'naviy–ruhiy makonni yaratishda kuch bo'lib samarali hizmat qilish barchamizning oldimizga qo'ygan muhim vazifamizdir.

Shu maqsadda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi qoshida ijtimoiy tarmoqlardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash maqsadida "Munosabat" guruhi tashkil etilib, guruh tomonidan ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilariga islohotlarning mazmun mohiyati, muhim yangiliklar xolisona fikrlar va munosabatlar bildirilib kelmoqda.

O'sib kelayotgan yoshlarni, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – davr talabi. Vatanparvarlik insonning o'z oilasiga, avlod-ajdodlarining or-nomusiga chuqur ehtiromi, vijdoniga, burchiga va o'z so'ziga sodiqligidir. Agar insonni bolalik chog'idan o'z xalqiga, uning an'analariga, tili va madaniyatiga

muhabbat hamda hurmat ruhida tarbiya qilmasak, unda vatanparvarlik hissi bo‘lmaydi.

Prezidentimiz aytganlaridek, “Insoniyat dunyosining buyuk yoritqichi ma’naviyat chirog‘i bor. Bu chiroqning boshqalaridan farqi shuki, u insonning ongi va tafakkurini yoritadi, qalb vijdonini uyg‘otadi, odamiylik xissini kuchaytiradi. Yangi O‘zbekistonning yangi uyg‘onish davrini yaratishga kirishar ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongini ana shunday ma’naviyat shulasi porlashi va u bizni ezgu ishlarga undab, yuksak mas’uliyat tuyg‘usi bilan yashashga dav’at etib turishi zarur”.

Oldimizga qo‘ygan barcha vazifalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi bilan qanday amalga oshirishimiz zarur? Bularni amalga oshirishimizda qanday omillarga tayanamiz?

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, oldimizga qo‘ygan Yangi O‘zbekistonni barpo etish uchun bor bilim va salohiyatimiz kuch va imkoniyatlarimizni ishga solib barcha yurtdoshlaarimiz qalbi va ongida ma’naviyat shullasi porlashi uchun tinimsiz xizmat qilishimiz darkor. Shundagina biz oldimizga qo‘ygan Yangi O‘zbekistonni ma’rifatli jamiyatga aylantirishga hissa qo‘shgan bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh.M.Mirziyoyev, «Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz» , – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

2. Sh.M.Mirziyoyev, «Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir».– Toshkent: O‘zbekiston, 2018.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2021-yil 19-yanvar kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining majlisida so‘zlagan nutqi. – Toshkent, 2021.

4. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg‘unligi. –Toshkent: Universitet, 2009

5. M.Quronov, A.Mavrulov, Bizni birlashtirgan g‘oya. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2016

6. Internet ma’lumotlari: www.ma’naviy/milliyg‘oya.uz

ZJV5401

MAFKURAVIY GLOBALLASHUV JARAYONLARINI TEZLASHUVI SABAB VA OQIBATLARI

Husanova Nigora Qavul qizi,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti ilmiy xodimi
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada dunyoda ro'y berayotgan mafkuraviy globallashuv jarayonlarini tezlashuvi sabab va oqibatlarining O'zbekistonga ta'siri to'g'risida fikr mulohazalar yuritilgan.

Tayanch so'zlar: Globallashuv, milliyat, mafkuralar kurashi, yot g'oyalar va mafkuraviy xurujlar, xavf, tahdid.

Zamon tez va shiddatli rivojlanish bosqichida va bu jarayondan hech kim chetda tura olmaydi. Globallashuv sharoitida barcha davlatlar o'zining ertangi kelajagidan xavotirga tushmoqda. Asosan, o'tish bosqichidagi davlatlarning milliy o'zligi, ma'naviy qadriyatlari, qarashlari milliyati xavf ostida qolmoqda. Chunki, globallashuv natijasida madaniyatlar to'qnashuvi yuzaga kelmoqda. Bu to'qnashuvlar natijasida, chegaralar yo'qlik sari yuz tutishi, ularning orasida milliy g'oyasi va ma'naviyati zaif bo'lganlar uning domiga tushib madaniyatlar qorishuvida milliy o'zligi yo'qolishi bilan yakunlanishi mumkin.

Biz bugun, yer yuzida eng ko'p yoshlar qatlamiga ega asrda yashayotganimiz va ushbu jarayonlar ishtirokchilarining asosiy qismi mamlakatimiz aholisining 60 foizdan ortig'ini 30 yoshga kirmagan yoshlar ekanini nazarda tutadigan bo'lsak, qo'rqishga xavotirga etarli asos bor. Binobarin, yoshlar jamiyatning buguni va ertasini belgilab beruvchi asosiy kuchidir.

Mafkuraviy kurashlar manzarasida davlatlar o'rtasidagi turli tushunmovchiliklarni va ziddiyatlarni tashkil etishda uning sarhadlariga hujum qilish yoki harbiy yurishlar tashkil

etish shart emas. Shunchaki o‘sha davlatda ichki ziddiyatlarni yuzaga keltirish, jamiyat a’zolari o‘rtasida olib borilayotgan siyosat va boshqaruvga bo‘lgan ishonchsizlik hissini uyg‘otishning o‘zi kifoya. Buyog‘i o‘z-o‘zidan davom etaveradi. Masalan, ma’lum bir jamiyat a’zolari o‘zining tarixi o‘tmishi va azal-azaldan shakllanib kelgan qadriyatlarini, milliy o‘zligini asta-sekinlik bilan yo‘q qilib borishi, o‘sha yerda istiqomat qiluvchi shaxslarda “vatan” degan hissiyotning yo‘q bo‘lishiga va “qayerda hayot yaxshi bo‘lsa o‘sha yer vatan” degan tushunchani singdirish orqali amalga oshiriladi. Bunda yashashdan asosiy maqsad dunyoga bir marta kelishi va uni xohlagandek yashab o‘tishi ya’ni egoistik “men”ining birinchi o‘ringa chiqishi orqali hayotdan lazzatlanish g‘oyasi singdiriladi. Bu esa o‘zaro mehr oqibat, oila, vatan tushunchalarini asta-sekinlik bilan o‘rni yo‘q bo‘lib borishiga sabab bo‘ladi.

Bir qarashda bu oddiy holga o‘xshab ko‘rinadi-yu, ustomonlik bilan hamma o‘zi istagan hayotni kechirishi va o‘ziga berilgan hayotni o‘zi xohlagandek yashab o‘tishi kerak-ku degan fikrni shakllantirish orqali tinimsiz qarashlar o‘zgartirib boriladi. Yosh avlod buni ko‘radi va yaxshi yashash uchun tezroq va oson yo‘l bilan pul topish kerak degan xulosaga keladi. Statistik ma’lumotlarga qaraganda hozirgi vaqtda eng ko‘p huquqbuzarlik va zo‘ravonlik holatlari 30 yoshga kirmagan yoshlar o‘rtasida sodir etilmoqda. Huquqbuzarliklarni sodir etishdan maqsad osongina, og‘ir mehnat qilmay, yengil yo‘llar bilan pul topish hisoblanadi.

So‘ngi yillarda mamlakatimizda jamiyat ma’naviy muhitini yaxshilash, ayniqsa yoshlar ma’naviyatini rivojlantirishga davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda. Davlat rahbarining BMTdagi nutqida “Odamlar, birinchi navbatda yoshlarning ongi va tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir. Yoshlar siyosiy tuzum qandayligidan qat’iy nazar har bir davlatning alohida diqqat e’tiborida turuvchi bo‘lib hisoblanadi. Ularning muammolarini hal qilmay turib, jamiyat hayoti va kelajagi barqaror bo‘la olmaydi”[1] deydi.

Darhaqiqat, har qanday jamiyatning eng og‘ir va boshqarilishi murakkab nuqtasi yoshlar hisoblanadi. Shuning uchun ham ularning bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etish, sidqidildan biror bir kasb hunarga ilmiy salohiyat jihatidan kelib chiqib to‘g‘ri yo‘naltirish lozim. Agar yoshlarning kundalik hayotida bo‘sh vaqtlari to‘g‘ri yo‘naltirilmasa ular yot g‘oyalar va mafkuraviy xurujlar tasiriga tushib qolishi mumkin. Bunday holatlarni paydo bo‘lishini kutib turganlar qancha, ularni qo‘liga millat kelajagini tayyor xo‘rakdek berib qo‘ysak, ongi va qalbini boshqa g‘oya va mafkuralar egallashiga sharoit yaratib bersak milliy o‘zligimiz va qadriyatlarimizdan yaqin kelajakda ajralib qolishimiz hech gap emas.

Mafkuraviy globallashuv jarayonlarini tezlashtirish, istaklarni amalga oshirish uchun katta mablag‘ning hojati yo‘q. Ta’sir berish joyi va qatlam aniqlab olinsa bas. G‘oyaviy-mafkuraviy ta’sir singdiriluvchiga sezdirmasdan amalga oshiriladi hamda qurbonlar bo‘lmaydi. Faqat mavjud muammo turi va yosh doirasi aniqlanib yoshlarning dunyoqarashi va ongiga muntazam ravishda ta’sir o‘tkazib boriladi. Bu jarayonda ma’lum vaqt shakllangan qadriyatlarni o‘zlashtirishga va boshqaruv qobiliyatini kamaytirish yoki butunlay yo‘qqa chiqarish maqsad qilib olinadi. Vaqt o‘tgan sari u o‘zining belgilarini namoyon qila boshlaydi va nihoyat xuruj beradi ya’ni o‘sha davlatda tartibsizlik vujudga keladi. Masalan, Qozog‘istondagi yanvar voqealarida aksariyati 30 yoshga to‘lmagan, biror bir faoliyat turi bilan band bo‘lmagan yoshlarning ongiga g‘oyaviy va mafkuraviy hujumlar qilish orqali aynan o‘sha xalq vakillari qo‘li bilan amalga oshirildi. Bunda ma’lum bir shaxslar tomonidan ma’lumotni noto‘g‘ri talqin qilish orqali oddiy xalqni ijtimoiy tarmoqlardan shahar ko‘chalariga chiqishga hamda davlat boshqaruvi va konstitutsiyaviy tuzumga qarshi chiqishga undashdi. Bu voqea hodisalarda olamonning o‘zi bilib-bilmay ishtirokchiga aylanib qolgani, buni tushunib yetganlar bu fikrdan qaytgani, mohiyatini anglab yetmay “Ruhiyati zararlanganlar” o‘zi va o‘zgalar hayotida muammolar keltirib chiqarganini ko‘rishimiz mumkin.

Masalaning yana bir tomoni bor ular orasida aksariyat namoyishchilar rasm va lavhalarga e'tibor beradigan bo'lsak 30 yoshga kirmagan yoshlarni tashkil etishini ko'rishimiz mumkin. Bu voqealarni tashkilotchilari tartibsizlikni keltirib chiqargach ularning voqea joyidan yo'q bo'lib qolishgani va oddiy xalqning o'zi kimga va nima uchun tartibsizlikda ishtirok etayotganini, oxiri qanday oqibatlarga olib borishi mumkinligini, aynan yoshligi tufayli anglamaganini idrok qilish qiyin emas. Bundan ko'rinib turibdi-ki, biror bir davlatning salgina e'tiborsizligi va g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'yishini kutib turgan manfaatparasat kuchlar hamma yerda yetarlicha topiladi. Negaki biror davlatda notinchlik yuz berishi qurolyaroq, jinoyatchilik, narkobiznes, odam savdosi va mafkuraviy xurujlarni bemalol amalga oshirishda qulay joyga aylanadi. Mafkuraviy tahdidlar qurshovida qolgan mamlakat ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan inqirozga yuz tutishi va natijada yaxshigina o'ljaga aylanishi aniq.

Shu o'rinda, hammani qiziqtiradigan Mafkura nima o'zi.? Jamiyat uchun shunchalik ahamiyatga egami? – degan savolga shunday javob beramiz. Mafkura muayyan millat, xalq, ijtimoiy qatlamni ilhomlantiradigan, ularning maqsad-muddaolarini ifoda etadigan g'oyalar, qarashlar majmuasi hisoblanadi. qayerdaki mafkura kishilar ongiga yetarlicha singdirilmagan bo'lsa, demak, o'sha yerda mafkuraviy bo'shliq paydo bo'ladi. Fursatdan foydalanadigan yot mafkuralar o'z g'oyalarini singdirishga harakat qiladilar. Bu esa jamiyatdagi tartibsizliklarni keltirib chiqaradi. Binobarin, bugun rivojlangan dunyoning har jabhasida mafkura mashinasi ishlayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng islohotlar va davlatlar o'rtasidagi ishonch va hamkorlikni mustahkamlash yuzasidan Samarqandda tashkil etilgan uchrashuvlar doirasida ham davlat rahbari tomonidan bugungi kunda jamiyat a'zolarini hayot tarzidan kelib chiqayotgan muammolarni hal qilish bo'yicha o'z takliflarini bildirar ekan, shiddatli mafkuraviy hamda axborotlar almashinuvi davrida turli xil yot g'oya va

mafkuraviy xurujlar, terrorizm, xavfsizlikka tahdid va yoshlarning ekstremistik tashkilotlarga jalb etilishiga yo‘l qo‘ymaslik, turli nosog‘lom mafkuralarga qarshi barqaror immunitetni shakllantirish bo‘yicha kompleks amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqish taklifini ilgari surgani ham bu jabhaning dolzarb masalalardan biriga aylanganligidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, globallashuvning salbiy shiddatli oqimlari texnika va texnologiyalar orqali har qanday davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va mafkuraviy jihatdan ko‘z ochib yumgunimizcha o‘zining sezilarli darajada ta’sir etib og‘ir asoratlar qoldirayotganligiga o‘zimiz guvohi bo‘lib turibmiz. Shunday ekan ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanishimiz, yangi-yangi targ‘ibot texnologiyalarini ishlab ciqishimiz lozim.

Hozirgi vaqtdagi voqealardan fikr qiladigan bo‘lsak, davlatning negizi bo‘lgan xalqni ishontiruvchi va barcha jamiyat a’zolarini birdek harakatga keltiruvchi mafkuraning mazmun-mohiyatini xalqimiz, aynisa, yoshlarimiz ongi va qalbiga singdirishmiz, ular mafkuraviy bo‘shliqqa kirib qolishi natjasida qadriyatlarimizga zid bo‘lgan boshqa mafkuralar domiga tushib qolmasligi uchun hushyor va ogoh bo‘lishimiz lozim.

Binobarin, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Mafkura sohasida bo‘shliq degan narsaning o‘zi hech qachon bo‘lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta’sirlanishdan to‘xtamaydi.

Demak, unga doimo ma’naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o‘zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo‘ladi, aytinglar? Bunday oziqni u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yo‘l bermasligimiz kerak. Mana, gap nima haqida ketyapti!

Buning uchun o‘zini jamiyatimiz, yoshlarimiz ma’naviyati, g‘oyaviy-mafkuraviy tarbiyasi uchun mas’ul deb bilgan insonlar – bu mahalla yoki diniy tashkilotlar bo‘ladimi, huquq-tartibot idoralari xodimlari yoki katta ta’sir kuchiga ega ijodkor ziyolilar bo‘ladimi – ularning barchasi ayniqsa faol bo‘lishlari lozim.”[1]

Xulosa o‘rnida mafkura deb atalmish orzu-istak va maqsad-muddaolarimiz – millatning ezgu niyatlari, va maqsadlarini o‘zida ifodalashi lozim. Mafkura barchani vatan taraqqiyoti yo‘lida birgalikda harakatlanishga undashi lozim. Qachonki odamlarimiz vatanga bo‘lgan mehrini faqatgina rasmiy chiqishlar orqali emas, oddiy kundalik hayotimizdagi xatti-harakatlar orqali namoyon eta olishi mumkin ekanligini tushunib yetsa biz kuchli mafkuraga ega bo‘lgan bo‘lamiz. Shundagina biz yashab turgan bu aziz vatan yanada taraqqiy etadi va gullab yashnaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashr. – T: O‘zbekiston nashriyoti, 2022. – B. 440.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008. 127-bet.

ZJV5401

RADIKALIZM MAFKURASI VA UNI BARTARAF ETISHGA QARATILGAN USULLAR

Maftuna Namozova Shokir qizi,
Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada globallashuv jarayonida kishilar ongida millatlararo va dinlararo adovat, millatchilik hamda diniy ayirmachilik kayfiyatini uyg'otuvchi turli xil yot g'oyalardan biri bo'lgan radikalizm mafkurasi uni tarqalishi va oldini olish "Reabilitatsion jarayonlar" usullarni tashkil etish zarurati xususida fikr mulohazalarga bag'ishlangan.

Tayanch so'zlar: Inson qalbi ongi uchun kurash, millatlararo va dinlararo adovat, millatchilik hamda diniy ayirmachilik kayfiyati, Radikalizm, deradikalizatsiya, "Reabilitatsion jarayonlar", ISHID.

Inson qalbi va ongi uchun kurashning yangidan yangi usul va vositalari ko'payib borishi dunyoning bugungi mafkuraviy manzarasi o'z ifodasini topmoqda. Ayniqsa, bu borada dinni niqob sifatida foydalanishga urinish va bu orqali aholining ijtimoiy xavfsizligiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani tashvishlanarli hol. Xususan, diniy e'tiqodiy tushunchalarni noto'g'ri talqin etish orqali, dunyoning turli mintaqalarida bosqinchilik, qo'poruvchilik va terrorchilik harakatlarini sodir etish holatlari avj olib bormoqda. Bu esa millatlararo va dinlararo adovat, millatchilik hamda diniy ayirmachilik kayfiyatining shakllanishiga olib kelmoqda. Natijada uzoq yillar davomida tinch-osuda rivojlanish yo'lida bo'lgan jamiyatlar parokanda bo'lib, tinch aholi urushlar girdobida qolib ketmoqda.

Hozirda dunyo hamjamiyatini katta tashvishga solayotgan muammolardan biri bu turli distruktiv oqimlarga qo'shilib, so'ngra bu yo'ldan qaytayotgan insonlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish borasida kuchli mexanizm ishlab chiqish ho-

zirgi vaqtda dolzarb muammolardan biriga aylandi. Sababi, bugungi kunga kelib dunyoning qizg‘in urush ketayotgan o‘choqlarida ayrim ekstremistik va terroristik oqimlarning faoliyatiga chek qo‘yildi. Lekin shunga qaramasdan bu hududlarda qo‘poruvchilik harakatlari kundan kunga ortib bormoqda. Mazkur teraktlarga sabab sifatida mutaxassislar distruktiv oqimlardan qolgan va turli hududlarga tarqalib ketgan qoldiqlar, ya’ni o‘z yo‘lini topa olmayotgan jangarilar hamda ularning oila-a’zolari ekanini ta’kidlamoqdalar. Shuning uchun ham mazkur holatlarni bartaraf etishda reabilitatsion dasturlarning ahamiyati va amaliyotga tatbiq etilishi bugungi kunda dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Shu bilan bir qatorda jahon xalqaro tashkilot hamda ilmiy tadqiqot markazlari ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish dasturlariga e’tibor qaratganda birinchilardan bo‘lib, radikallashuvga olib kelgan omillarni oldini olish va deradikalizatsiyani kuchaytirish kerakligini alohida ta’kidlab o‘tilgan. Sababi ekstremistlarga aylangan shaxslarda olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ularning jamiyatdagi turli masalalarda yechimini topmagan qarashlari va ijtimoiy muammolari natijasida odamlar nisbatan radikal qarash hamda munosabatda bo‘lish shakllangan. Shu kabi fikrlovchilarning insonlar orasida ko‘payib borishi esa ularning distruktiv faoliyat olib borishiga turtki sabab bo‘lmoqda. Shu o‘rinda ushbu ishlarni endi ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirishning turli usul va vositalaridan keng foydalanilmoqda.

Bugungi vaziyatdan kelib chiqadigan bo‘lsak, shaxsni jamiyatga qayta moslashtirishda deradikalizitsiyaning ahamiyati juda muhim ekanligini anglaymiz. Bundan tashqari xalqaro miqyosdagi tashkilot va ekspertlarning fikricha, deradikalizatsion mexanizmlarni amaliyotga tatbiq etishdan oldin radikallashuvga olib keladigan omillarini o‘rganib ularni bartaraf etish talab etilishi lozimligi to‘g‘risidagi qarashlarni tez-tez uchratishimiz mumkin. Negaki radikal qarashdan qaytib jamiyatga qo‘shilib ketgan shaxsda radikallashishiga sabab bo‘lgan holatlar o‘sha muhitida yana paydo bo‘lsa yoki

ZJV5401

takrorlansa, deradikalizatsiyaning samaradorligi pasayib ketishi kuzatiladi.

Darhaqiqat, “Reabilitatsion jarayonlar” bilan bog‘liq bo‘lgan holat haqida so‘z yuritishdan avval, radikallashuv nima ekanligi va uning bugungi kundagi oqibatlari xususida mutaxassisilar va xalqaro tashkilotlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarga to‘xtalib o‘tmaslikni iloji yo‘q.

Radikalizm (lot. radicalis – ildiz) – mavjud davlat tuzumini tanqid ostiga olib, radikal o‘zgarishlar va islohotlar o‘tkazishni talab etuvchi siyosiy harakat [1] hisoblanadi. Mazkur siyosiy tushunchaga diniy tus berish natijasida, mutaassib xarakter bilan dinga amal qiluvchi shaxslar vujudga kelishi kuzatiladi. Deradikalizatsiya esa – jamiyatda radikallashgan shaxslarni birlashtirishga qaratilgan va radikallashuvini oldini olishga bo‘lgan amaliy harakatga [2] aytiladi ya’ni radikallashuvni oldini olish hisoblanadi. Radikalizmning shakllanishiga sabab bo‘luvchi omillar sirasiga esa quyidagilar kiradi:

• bolalikdagi tarbiya tipi (avtoritar, ezuvchi, shubhali, nazorat qiluvchi, “oila kumiri” tipi bo‘yicha yoki hech qanday nazoratsiz hamma narsaga ruxsat etilgan va boshq.);

• shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari (o‘ziga past baho berish, o‘zini tasdiqlashdagi ustuvor ehtiyojlar, nuqtayi nazari, g‘oyalari, psixologik himoya nevrotik mexanizmlari);

• keskin vaziyatlarda xulq-atvorning vayron qiluvchi, yemiruvchi va o‘ziga qaratilgan strategiyasi;

• shaxsning buzilishi: tobe, xavotirli, o‘ta mutakabbirlik.

Xorijiy davlat psixologlarning ta’kidlashicha, yoshlardagi tajribasizlik va hissiyotga tayangan holda ish yuritishi, tashqi ta’sir natijasida ruhiy holatining o‘zgaruvchanligi; ruhiy tushkunlikka tez tushishi va ruhiy zarbalarga chidamsizligi; yaqinlari e’tiboridan butunlay chetda qolishi hamda o‘ta qiziquvchanlik, axborotlarni to‘laqonli tahlil qilmaslik, ishonuvchanlik kabi qator omillar radikallashuv jarayonlari ishtirokchilariga aylanishiga xizmat qilishi mumkin. Radikal g‘oyalar ta’siriga tushib qolgan yoshlar o‘z oila a’zolari, yaqinlari, mahalla, ko‘cha-ko‘ydagi tengdoshlarini ham mutaassib shaxsga

aylantira oladi. Shuningdek, yoshlarning turli oqimlarga kirib qolishlari sabablari qatorida ularning bilimlari, shu jumladan, diniy ilmlarni egallashga bo‘lgan qiziqish va intilishi hamda ishonuvchanligi, birdaniga va hamma narsaga (boylik, shon-shuhrat, martaba va h.k.) ega bo‘lishga harakat qilishi, ilmiy tilda aytganda maksimalizm kabi ma’naviy-ruhiy omillarni ham alohida aytib o‘tish shart. Bundan tashqari, yoshlarning radikalizm ta’siriga tushib qolishi oiladagi moddiy qiyinchilik va yetishmovchilik, ishsizlik, kam ta’minlanganlik, alamzadalik, siyosatdan norozilik kabi qator ijtimoiy holatlar bilan ham bog‘lanadi. Radikalizm g‘oyasidan qaytarish maxsus dasturiy ishlar asosida amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir. Bundan dasturlarning asosiy tarkibiy qismlariga radikal g‘oyalar ta’siriga tushgan shaxslar bilan kommunikativ harakatlar, suhbatlar, diniy munozara va ko‘rsatmalar, tajovuzkor xatti-harakatlarning sababi deb qaralgan masalalar bo‘yicha o‘zaro suhbatlar, psixolog va boshqa mutaxassislarning tavsiya va ko‘rsatmalari kiradi. Deradikallashtirish jarayonlarining muvaffaqiyati quyidagi zaruriy shartlar asosida amalga oshirilishi lozim:

• mutaassiblashgan shaxsning asosiy ilgari surayotgan mafkurasini bilish va uning diniy-psixologik portiretini chizish;

• mutaassib g‘oyalarga ergashgan shaxsning diniy motivlarini tushunish;

• shaxsning kelib chiqqan jamiyatdagi muammolarini tushunish;

• ekstremistik aqidalarni aniqlash va radikalizm ko‘rsatkichlarini aniq belgilab olish;

• diniy muloqotni yo‘lga qo‘yish;

• diniy ta’lim darajasini monitoring qilish;

• ta’lim o‘quv dasturlarida umuminsoniy tuyg‘ular hamda ma’rifatparvarlik faoliyatiga taalluqli dars soatlarini ko‘paytirish;

• yoshlarning tarixni o‘rganish bo‘yicha dasturni qo‘llabquvvatlash;

• yoshlar bilan muloqot qila oladigan psixologik yordamlarni ko‘rsatish qobiliyatiga ega mutaxassislarni jalb etish;

• yoshlar orasida doimiy ravishda buzg‘unchilik mafkurasi va xatti-harakatlarini qonunga xilof ekanligini tushuntirish va ularning salbiy oqibatlari haqida tushuntirishlar olib borish;

• kam ta’minlangan oilalarga ijtimoiy yordam va ta’minot tizmini yanada oshirish;

• mutassiblarni qayta ijtimoiylashtirishda ularning oilasiga yordam berish;

• diniy sohada obro‘li va malakali mutaxassislarni jalb etgan holda yoshlar va ayollar bilan diniy masalada ochiq muloqotlarni tashkil etish.

Shuningdek, mutaxassislar davlatning huquqiy, ma’muriy jarayonlardagi izchil islohotlarni muntazam olib borishini ham mutaassib shaxslarning radikalizm g‘oyasidan qaytarishning qo‘shimcha shartlari sifatida e’tirof qiladilar. Bunda radikalizmni oldini olish borasida kuchli davlat hokimiyati sharoitida dasturlarini ishlab chiqish va muvaffaqiyatli amalga oshirish talab etiladi. Sababi, ijtimoiy holati beqaror va kuchsiz davlatlar diniy radikalizm o‘chog‘iga aylanish tahdidi yuqori bo‘ladi. Davlat siyosatida barcha millatlarga bir xil munosabatda bo‘lishi lozim. Agar mamlakatda qandaydir bir alohida g‘oya, ayniqsa, diniy va milliy omillardagi mafkura ustun bo‘lsa, radikallashuvning kuchayishiga olib keladi va tashqi muhitda ham reablitatsiya faoliyatini susaytiradi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, aholiga va dindorlarga nisbatan tashqi kuchlar tomondan amalga oshirilayotgan diniy, siyosiy ta’sirlarni cheklash hamda islomofobiyani oldini olish talab etiladi. Xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini muntazam o‘rganib borish va respublikaning ijtimoiy holatidan kelib chiqqan holda ushbu tajribadan foydalanish ham radikallashuvning oldini olish borasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yer kurrasida tez sur’atlarda rivojlanib borayotgan davrda aholi orasida radikallashuvning kuchayishi, ekstremizm xavfining ortishi hamda terrorizmning o‘ta vahshiylashib

ZJV5401

borayotgani jahon hamjamiyatini ham tashvishga solmoqda. Bunday salbiy holatning shakllanishiga qanday omillar sabab bo‘layotgani borasida bir qator xorijiy davlatlar tomonidan izlanishlar olib borilmoqda. Masalan, “Search for Common Ground” xalqaro nodavlat va notijorat tashkiloti tomonidan “Axborot oqimlari va Markaziy Osiyoda ekstremizmga olib boruvchi radikallashuv” (Information flows and Radicalization leading to violent extremism in Central Asia) deb nomlangan tadqiqot ishining taqdimoti o‘tkazildi [3]. Ushbu tadqiqot Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston davlatlarini o‘z ichiga olib, unda radikalizmga xayrixohlikni keltirib chiqaruvchi axborot oqimlari va ishonchli axborot manbalarini aniqlash va tahlil qilish maqsadida uchta tarkibiy qismda amal oshirilgan.

- 2013 – 2018-yillarda Markaziy Osiyodagi OAVlarida chop etilgan materiallar o‘rganilgan va tahlil xulosalariga ko‘ra, radikalizm va ekstremizmni vujudga kelishiga quyidagi omillar sabab, jamiyatdagi tengsizlik, mafkuraviy bo‘shliq, ishsizlik, ayollar huquqining cheklanishi, diniy va dunyoviy bilimlarni bir-biridan uzoqlashishi, axborot xuruji muammo sifatida ko‘rsatiladi.

- 201 nafar respondentlar (46 nafar mutaxassis va bevosita ekstremizmga aloqador bo‘lgan shaxslar, ularning oila a’zolari hamda 155 nafar yoshlar, ayollar va ishchi migrantlar) bilan o‘tkazilgan suhbatlar bo‘lib, unda respondentlarning axborot manbalari, ulardan foydalanishi, jamiyat, siyosat, davlatga oid qarashlari hamda din va radikalizm borasidagi tushunchalari qiyosiy o‘rganilishi natijasida har bir davlat hududida yashovchi fuqarolarning o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda turlicha bo‘lgan. Jumladan, Qozog‘istonlik respondentlarning aksariyati (dindor va dindor bo‘lmagan) jamiyatda dinning tutgan o‘rni borasida berilgan savollarga ijobiy qarashini bildirgan bo‘lsa, radikallashuvga olib boruvchi vositalar deb soxta salafiylarni ko‘rsatgan. Tojikistonlik respondentlar esa, aholida diniy bilimlarning yetishmasligi va mehnat muhojirlarining ko‘payishi radikallashuvga olib boruvchi asosiy omil

ZJV5401
ZJV5401

sifatida baholaganlar. Qirg'izistonlik respondentlar jamiyatda radikalizmning rivojlanishida, yoshlarning turli terroristik guruhlar tarkibiga qo'shilib qolishi, davlat idoralariga aholining ishonchsizligi va etnik diskriminatsiyani sabab sifatida ko'rsatganlar.

- Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalarining har biridan 600 nafar respondentlar bilan OAVlarida tarqatilayotgan axborot iste'moli va ishonchlilik darajasi tahlil qilingan. Unga ko'ra, uchala davlatning barchasida rasmiy telekanallar ommabop ekanligi va undagi berilayotgan ma'lumotlar ishonchli axborot manbasi hisoblanishi ta'kidlangan. Shuningdek, radikallashuv va ekstremizmni oldini olishda bu vositalardan unumli foydalanishi aytib o'tilgan [4].

Bundan tashqari Jorj Vashington universiteti qoshidagi Yevropa, Rossiya va Yevro Osiyo tadqiqotlari institutining Markaziy Osiyo dasturi tadqiqotchisi Noy Takkerning (Noah Tucker) "Terrorism without a God: Reconsidering Radicalization and Counter-Radicalization Models in Central Asia" ("Xudosiz terrorizm: Markaziy Osiyodagi radikallashuv va radikallashuvga qarshi kurash modellarini qayta ko'rib chiqish") deb nomlangan tadqiqoti ham diqqatga sazovor. Unda Markaziy Osiyo mamlakatlari misolida radikallashuvning sabablari tahlil qilingan va deradikalizatsiya bo'yicha xulosalar berilgan. 2016 va 2018 yillarda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston davlatlarida N.Takkerning o'tkazgan tadqiqoti xulosalariga ko'ra, "islomning radikallashuvi" borasidagi qarashdan ko'ra, "radikallashuvning islomlashgani" to'g'risida ta'kidlash o'rinli ekani qayd etgan. Markaziy Osiyo mamlakatlarida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, radikalizm vujudga kelishiga sabab sifatida etnik, iqtisodiy, diniy yoki ularning qorishmasidan yuzaga keladigan muammolar ekanligi qayd etilgan. Mazkur holatlarni oldini olishda muloqot va to'g'ri tushuntirish mexanizmlarida kamchiliklar borligi ta'kidlanadi. Shundan kelib chiqib tadqiqot doirasida norozi kayfiyatdagi kishilar din omillardan emas, balki ijtimoiy, siyosiy yoki shaxsiy holatlar sabab radikallashgani alohida mi-

sollar orqali aytib o‘tilgan. Tadqiqot muallifi fikricha, radikal va zo‘ravon qarashlarni targ‘ib qiluvchi guruhlarning xulq-atvorini, dunyoqarashini tushunib olishda teologik yondashuvlardan tashqariga chiqish lozim. ISHID vakillari qanchalik “sof islom” nomidan gapirmasin, o‘z manfaatidan kelib chiqib ish yuritgan. Masalan, muqaddas manbalardagi oyatlarni noto‘g‘ri talqin qilishdi. Shu bilan birga, “adolat/adolatsizlik” tushunchalaridan kelib chiquvchi ijtimoiy e’tirozlarni xalifalik qurish orqali hal etish mexanizmlarini taklif qiladi hamda shu narsalar bilan insonlarni kelajakka ishontiradi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida din omili bilan bog‘liq radikallashuvdan ko‘ra, milliy, etnik masalalarda keskinlik va kelishmoqchiliklar mavjudligi alohida qayd etilgan. Shuningdek, tadqiqotchi jamiyat orasida radikallashuvga sabab bo‘luvchi bir qator omillarni ham sanab o‘tadi.

Jumladan:

1) jamiyat orasida ijtimoiy masalalarda e’tirozlarning ko‘payishi,

2) ishsizlik va migratsiya,

3) bilimsizlik,

4) iqtisodiy omillar,

5) ijtimoiy tarmoqlar va mobil messenjerlardagi axborot oqimi,

6) diniy masalalarda kamsitilishning vujudga kelishi [5].

Jorj Vashington universiteti tadqiqotchisining izlanishlari bugungi kunda global ahamiyat kasb etayotgan muammolarni o‘rganilganligi va ijtimoiylashuv borasida o‘ziga xos takliflar berganligi bilan ahamiyatlidir.

Yuqorida sanab o‘tilgan bir qancha omillar bevosita insonning qalbi va ongiga ta’sir ko‘rsatish orqali ularni radikal fikrlashiga, turli ekstremistik oqim va guruhlarga qo‘shilib qolishiga xayrixohlik bildirishga sabab bo‘lgan holatlar hisoblanadi. Shaxsni jamiyatga qayta moslashtirishda yuqoridagi masalalarga e’tibor qaratganda avvalo siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy muammolar sababli aholi ayniqsa, yoshlar orasida radikalizmga xayrixohlik bildirish holatlarini oldini

olish eng asosiy omil sifatida baholanadi. Sababi shaxsning radikal g‘oyalar ta’siriga berilmasligi uning deradikalizatsiya qilinishiga imkon qoldirmaydi. Mazkur holatlarda kuzatilishi mumkin bo‘lgan masalalarni barcha tashkilotlar bir yoqadan bosh chiqargan holda bartaraf etishi uchun zamin hozirlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Begmatov E. Radikalizm O‘zbek tilining izohli lug‘ati.-Toshkent. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. [1]

2. Strategii Kongressa po borbe s radikalizatsiyey. Preduprejdeniye radikalizatsii i proyavleniy nenavisti na mestnom urovne // URL: https://rm.coe.int/1680719e1c, [2].

3. Search for Common Ground” xalqaro nodavlat va notijorat tashkilot bo‘lib, 1982 yil 22 martda asos solingan. Vashington va Bryusselda o‘z shtab-kvartirasiga ega. Maqsadi ziddiyatli masalalarni yechishda an’anaviy usullaridan foydalanib, muammolarni tinch yo‘l bilan hal qilish.[3]

4. Search for Common Ground (SCG). Information flows and Radicalization leading to violent extremism in Central Asia. – Washington DC, 2019., URL: https://www.sfcg.org, 2019 [4].

5. Noah Tucker. Terrorism without a God: Reconsidering Radicalization and Counter-Radicalization Models in Central Asia // URL: https://centralasiaprogram.org/archives/13164, [5]

ZJV5401

RAQAMLI JAMIYATDA YOSHLARNING SIYOSIY ONGI VA FAOLLIGI

Jo‘rayev Ahadjon Ilyosjon o‘g‘li,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti
tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqola globallashgan zamonaviy jamiyatda siyosatni raqamlashtirish, raqamli jamiyat rivojlanishining belgilari va tendensiyalari tahliliga bag‘ishlangan. Maqolada yoshlarning siyosiy faolligini shakllantirish omillari va mexanizmlari tavsiflanadi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar bugungi kun yoshlarining ijtimoiy fikri, siyosiy ongi va siyosiy tanlovini shakllantiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugun mamlakatimizda axborot va yoshlarga oid siyosatdagi o‘zgarishlar, jumladan, yoshlarning siyosiy faolligini davlat va siyosiy partiyalar siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tayanch so‘zlar: yoshlar, saylovlar, siyosiy jarayonlar, raqamli jamiyat, siyosiy faoliyat, Internet, axborot texnologiyalari.

Zamonaviy jamiyat eng yangi axborot-kommunikatsiya tizimlari va texnologiyalarining rivojlanishi tufayli global o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. “Raqamli” (davr, sivilizatsiya, iqtisod, siyosat, shaxs, boshqaruv, mehnat, ta’lim va boshqalar) asosiy tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lgan bu o‘zgarishlar yangi voqelikni, yangi shaxsni va yangi jamiyatni yaratadi.

Hootsuite xizmati ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda 5,1 milliarddan ortiq noyob mobil foydalanuvchi (bu Yer aholisining uchdan ikki qismi), global Internet auditoriyasi 4,4 milliard kishini (deyarli 60%) tashkil etdi, 3,5 milliard foydalanuvchi ro‘yxatga olingan (45% - bu yerda yil davomida o‘sish deyarli

370 million kishini tashkil etdi). Dunyodagi odamlar har kuni o‘rtacha 6 soat 42 daqiqa internetda bo‘lishadi [1].

Yuqoridagi ma’lumotlarga asoslanib, shuni ta’kidlash mumkinki, dunyodagi odamlarning 50 foizdan ortig‘i rivojlanayotgan raqamli jamiyatda yashamoqda.

Amerikalik olimlar E.Makafi va E.Brinolfsonlarning “Mashina, platforma, olomon. Raqamli kelajagimiz” mavzusidagi tadqiqotida raqamli dunyo rivojlanishining ikki bosqichini ochib berdi. Birinchi bosqichda (1990-yildan 2010-yilgacha) raqamli texnologiyalarning rivojlanishi tufayli ko‘plab muntazam operatsiyalar (sanoatda, ma’lumotlarni qayta ishlash, hisoblash va boshqalar) avtomatlashtirildi, bu esa mehnat unumdorligini oshirishga olib keldi. 2010-yillarda boshlangan va hozirgacha davom etayotgan ikkinchi bosqichda raqamli texnologiyalar ilgari dasturlash imkonsiz bo‘lgan narsalarni qila boshladi (kasalliklar, ijodiy ish - musiqiy asarlar yaratish, matnlar, dizayn) [3].

Agar ilgari odam ma’lumot qidirishga ko‘p vaqt sarflagan bo‘lsa, rivojlanayotgan raqamli jamiyat sharoitida bu vazifa ancha osonlashdi. Axborotni samarali qidirish, filtrlash va tahlil qilish, uning turli manbalari bilan ishlash, zamonaviy axborot oqimi bilan ishlash madaniyatini bolalikdan shakllantirish qobiliyati raqamli jamiyatda insonning muvaffaqiyatli yashashi uchun shartdir.

Bu haqiqat siyosat olamidan chetda qolmadi. Zamonaviy siyosatchi, qoida tariqasida, ijtimoiy tarmoqlarda, bloglarda profillarga ega bo‘lishi kerak (agar o‘zi bo‘lmasa, unda yollangan mutaxassislar yordamida). Bunga sabab – auditoriya, ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlod vakillari bilan muloqot qilishning bunday usuliga bo‘lgan talab, asta-sekin an’anaviy ommaviy axborot vositalaridan (jurnal, gazeta, televideniye) uzoqlashayotgani, bu turli so‘rovlar va media tadqiqotlari bilan tasdiqlanadi.

Siyosatchining raqamli profilini yaratish va qo‘llab-quvvatlash, uning maqsadi auditoriyani o‘z axborot maydonida ushlab turish yoki hatto ma’lum bir odamlar guruhi uchun

“fikr yetakchisi” bo‘lish raqamli jamiyatning muhim hodisasidir. Natijada, ba’zi odamlar uchun belgilangan raqamli profil uning do‘stlari va oila a’zolariga qaraganda yaqinroq bo‘lishi mumkin. Odamlarni bu siyosatchining shaxsiy hayoti, sevimli mashg‘ulotlari, kimlardir (biror narsa) haqidagi fikrlari, voqealarga munosabati, uning turdagi muxlislariga aylanishi qiziqtiradi. Ilgari an’anaviy ommaviy axborot vositalari, xotiralar yoki mish-mishlardan o‘rganish mumkin bo‘lgan narsalarni endi istalgan vaqtda to‘g‘ridan-to‘g‘ri (tasdiqlangan) manbadan, deyarli onlaynda olish mumkin.

Ko‘pincha siyosatchining raqamli profili ko‘p qirrali bo‘lib, maksimal auditoriyaga erishish uchun bir nechta turli onlayn platformalardan foydalanadi. Twitter, Facebook, Youtube, Telegram - bu va boshqa mashhur platformalar faol foydalaniladi, ular birinchi navbatda ma’lumotlarni joylashtirish va profilni saqlash usullari bilan farqlanadi. Turli tarmoq platformalarining kombinatsiyasi o‘z nuqtayi nazaringiz va ma’lumotlaringizni turli xil saylovchilar guruhlariga (foydalanuvchilarga) ular uchun qulay shaklda yetkazish imkonini beradi.

Kichik yangiliklar, qiziqarli fikrlar, video va fotosuratlar formati, mikrobloglar ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlardagi yangiliklar lentasida aralashtiriladi va u yoki bu turli xil profillar va guruhlarga obuna bo‘lish orqali mustaqil ravishda sozlanishi mumkin bo‘lgan nisbatlarda taqdim etiladi. Ammo shu bilan birga, yangi imkoniyatlar va texnologiyalar paydo bo‘ldi, ulardan 2013-yilda asos solingan Cambridge Analytica xususiy Britaniya kompaniyasi tomonidan Internetda saylovoldi tashviqotini olib borish jarayonida strategik kommunikatsiyalarni rivojlantirish uchun muvaffaqiyatli foydalanildi.

Ushbu tashkilot o‘z faoliyatida uchta zamonaviy texnologiyadan foydalangan: Big Data, ijtimoiy-psixologik xatti-harakatlar tahlili (OCEAN modeli) va maqsadli reklama texnologiyalari. Big Data - bu har qanday foydalanuvchi tomonidan internet va ijtimoiy tarmoqlarda qoldirilgan “oyoq izlari”ni tahlil qilish tizimi. “Katta beshlik” nomi bilan tanilgan OCEAN

psixologik profillash modeli (Openess-ochiqlik, Conscientiousness-vijdonlilik, Extraversion-ekstraversiya, Agreeableness-xayrixohlik, Nevrotizm-nevrotizm) o‘tgan asrda ishlab chiqilgan.

Psixolog va sotsiolog R.Epshteyn bir qator eksperimentlardan so‘ng Google qidiruv tizimi AQSh prezidentlik saylovlari natijalariga ta’sir o‘tkazishga qodir ekanligini ko‘rsatdi. Uning tajribalarida 2 mingga yaqin odam ishtirok etdi. Natijada olim ko‘pchilik foydalanuvchilar saytda paydo bo‘ladigan faqat birinchi ikkita havola orqali o‘tishini aniqladi. Epshteyn qidiruv natijalarini Google qidiruv tizimi tomonidan ma’lum bir so‘rov uchun chiqarilgan dastlabki ikki qatorda o‘zgartirdi.

Ma’lum bo‘lishicha, tadqiqot ishtirokchilarining 80 foizi ma’lum bir masala bo‘yicha faqat qidiruv tizimining yuqori qatorlaridagi ma’lumotlarga tayangan holda o‘z fikrini o‘zgartirgan va qidiruv tizimining har o‘ninchi foydalanuvchisidan faqat bittasi qidiruv natijalarining ikkinchi sahifasiga tashrif buyurgan. Shunday qilib, tadqiqotchining fikricha, Google saylovlarda u yoki bu nomzodga xayrixohlik bildirgan holda, internet foydalanuvchilarining ongi va siyosiy tanlovini manipulyatsiya qilishi, shuningdek, sayyoramizning chorak qismidagi saylovlarda ularning saylovoldi qarorlariga ta’sir o‘tkazishi mumkin [4]. Moderatorlarning o‘z ijtimoiy tarmog‘ining yangiliklar lentasini tanlashdagi tarafkashligini Facebook asoschisi M.Sukerberg ham e’tirof etgan.

XX asrning o‘rtalariga qadar siyosiy ishtirok saylov jarayonlari va davlat boshqaruvida ishtirok etish sifatida tahlil qilingan. Amerikalik siyosatshunoslar S.Verba va N.Naylar bu tushunchani kengaytirdilar. Siyosiy faoliyat muammolarini tahlil qilib, ular siyosiy ishtirokning quyidagi turlarini aniqladilar: fuqarolar siyosiy xulq-atvorining mutlaqo passiv shakllari; fuqarolarning faqat vakillik organlari saylovida ishtirok etishi; shaxslarning faqat mahalliy muammolarni hal qilishda ishtirok etishi; o‘z faoliyatini butun siyosat sohasiga yoyadigan siyosiy faollarning xatti-harakati; saylov kampaniyasining faol ishtirokchilarining siyosiy xulq-atvori; ishtirok

ZJV5401

etish siyosatchining professional faoliyati shakli sifatida [5]. Siyosiy faoliyatning asosiy omillari sifatida ular fuqarolarning ijtimoiy-demografik xususiyatlarini hisobga oladi.

1990-yillarda ommaviy Internetning rivojlanishi bilan u asta-sekin haqiqiy siyosat vositasiga aylanib bormoqda. Internetning siyosiy hayotdagi rolini birinchi tadqiqotchilardan biri L.Grossman qarorlar qabul qilish jarayoniga butunjahon Internet tarmog‘ining jamiyatni “qo‘shish” qobiliyatini tan oldi [6]. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli platformalar siyosiy jarayonlarda ishtirok etish uchun yangi muhim platforma sifatida qaralmoqda.

Binobarin, internet, bu pozitsiya tarafdorlari fikricha, nafaqat kengayib, balki siyosiy ishtirokni chuqurlashtiradi, chunki yoshlarning salmoqli qismining siyosiy qarashlarini shakllantirish birinchi navbatda raqamli infratuzilmaga asoslanadi. Darhaqiqat, Internet va ijtimoiy tarmoqlar o‘zlarining noyob imkoniyatlari tufayli jamiyat qurilishiga hissa qo‘shishi mumkin, bu ularga geografik masofa, irqiy, yosh, gender to‘siqlari, vaqt zonalari va kundalik tartiblarni yengib o‘tishga imkon beradi. Internet aloqalari ham xabarlarni yozib olish imkoniyati tufayli aniqroq “xotira effekti”ga ega [7]. Bularning barchasi fuqarolar o‘rtasida o‘zaro tushunish, bag‘rikenglik, boshqa qarashlar va xatti-harakatlar normalarini qabul qilishga tayyorlik, umumiy qadriyatlarni rivojlantirish va boshqalar uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Agar rivojlanishning dastlabki bosqichida Internet iste’molchilari asosan oliy ma’lumotli va siyosiy faol fuqarolar bo‘lgan bo‘lsa, so‘nggi 10-15 yil ichida Internetni ommaviylashtirish va tijoratlashtirish natijasida madaniy, Internet auditoriyasining ta’lim, yoshi va kasbiy darajasi, Internetdan foydalanish, tijoratlashtirish va ko‘ngil ochish tendensiyasi uni jamiyatning ko‘zgusiga aylantirdi, u boshqa narsalar qatori inson tabiatining past tomonlarini ham aks ettiradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, raqamlashtirish jamiyat hayotining deyarli barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiyot, siyosat, kommunikatsiya, ijtimoiy-ma’naviy hayotni

raqamlashtirish jarayonlari va natijalari gumanitar va ijtimoiy fanlar oldiga yangi, nihoyatda jiddiy va ma'lum ma'noda ekzistensial vazifalarni qo'ymoqda.

Zotan, yosh avlod, aksariyat hollarda, ma'lumotni o'zidan oldingilar qanday qabul qilgan bo'lsa, shunday idrok eta olmaydi. Agar ilgari ta'lim axborot manbai rolini o'z zimmasiga olgan bo'lsa, raqamli jamiyatda "Internet an'anaviy ommaviy axborot vositalari va siyosiy reklama funksiyalarini bajaradi" va Internet, messenjerlar, ijtimoiy tarmoqlardan olingan ma'lumotlarni to'g'ri qidirish, filtrlash va tahlil qilishni o'rganishga ustuvor ahamiyat beriladi.

Agar ilgari yoshlar an'anaviy ommaviy axborot vositalaridan mamnun bo'lsa (yoki yo'q) bo'lsa, bugungi kunda turli xil axborot manbalari unga uning qiziqishlari, afzalliklari va muloqot qilish istagiga mos keladigan axborot manbalari foydasiga tanlov qilish imkonini bermoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda axborot va yoshlarga oid siyosatdagi o'zgarishlar har qachongidan ham muhim, jumladan: bolalar, o'smirlar, yoshlar va ularning ota-onalari uchun media-ta'lim va tarbiyani tashkil etish, umummilliy bolalar va o'smirlar media infratuzilmasini shakllantirish, raqamli muhitda yoshlar fikri yetakchilari, blogerlar bilan ishlash, shuningdek, yoshlarning siyosiy faolligini davlat va siyosiy partiyalar yoshlar siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirish muhim omillar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Brynjolfsson E., McAfee A. Machine, platform, crowd: harnessing our digital future. N.Y., 2017. 402 p.

2. Grossman L.K. The Electronic Republic: Reshaping Democracy in the Information Age. N.Y.: Viking Penguin, 1995. 290 p.

3. Verba S., Nie N.H. Participation in America: Political Democracy and Social Equality. New York: Harper & Row, 1987. 451 p.

4. Введение термина «цифровизация» связывают с работой американского ученого Н. Негропон-те, который в 1995 году в работе «Жизнь в цифровом мире» сделал попытку описать, что представляет собой наступающий цифровой мир [5, с. 189].

5. Дзялошинский И.М., Мастерова Ю. Медиа и социальная активность молодежи // Медиа. Информация. Коммуникация. 2012. №3. http://mic.org.ru/vyp/3-nomer-2012/mediai-sotsialnaya-aktivnost-molodezhi/?sphrase_id=30150.

7. “Угроза беспрецедентных масштабов”: как Google манипулирует избирателями по всему миру. https://russian.rt.com/science/article/329372-kak-google-manipuliruetizbiratelyami 31 октября 2016.

ZJV5401

BUGUNGI DUNYONING MAFKURAVIY MANZARASI. MAFKURALAR TARG‘IBOTI

Avazbek Shermatov,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ayni damda dunyo mafkura maydonida yetakchilik qilayotgan asosiy mafkura va g‘oyalar xususida so‘z yuritiladi. Turli xil mafkura va g‘oyalar atroflicha tahlil qilinib, ularning afzalliklari va kamchilliklari, ular bilan bog‘liq xatarlar haqida muhim xulosalar qilinadi. Shuningdek, mafkuralarni ilgari surishda zamonaviy usul va vositalardan foydalanish davr talabi ekanligi ta’kidlanib, targ‘ibot bo‘yicha ham foydali ma’lumotlar beriladi.

Tayanch so‘zlar: Mafkura, g‘oya, targ‘ibot, liberalizm, sotsializm, konservatizm, populizm, millatchilik, ekologizm.

Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi murakkab ko‘rinishga ega bo‘lib, muntazam o‘zgarib, rivojlanib bormoqda. Avval aniq belgilangan g‘oyalarni, qarashlarni va qoliplarni o‘zida mujassam etgan mafkuralar bugun mutlaqo o‘zgacha ko‘rinishda insonlar ongida o‘z faoliyatini davom ettirmoqda. Hozirgi davrda ko‘plab bir-biriga zid, turli xil mafkuralar va g‘oyaviy qarashlar mavjud.

Mafkuralar insoniyat tarixining uzoq muddatli davrlarida asosiy rolni o‘ynaydi va tarixan to‘g‘ri, zamon va yangi voqelikka mos keluvchi mafkurani qabul qiluvchi xalqlar qoloq mafkuraga ega xalqlar oldida ustunlikka ega bo‘lishadi va o‘z rivojlanishida yangi bosqichga chiqadilar [4:86].

Bugun ko‘pchilikda savol tug‘ilishi tabiiy: aslida mafkura bilan yashash qanchalik muhim ? Balki mafkurasiz yashash eng maqbul yo‘ldir ? Biroq hech qanday mafkuraga ega bo‘lmagan alohida shaxs yoki jamiyat bo‘lishi mumkinligi haqidagi tasavvurlar haqiqatga mos kelmaydi. Mafkura va g‘oyalar in-

soniyat tarixining dastlabki davrlaridan beri mavjud bo‘lib kelgan. Ammo, qadim davrlarda insonlar buni hozirgi kundagidek tushunib yetishmagan. Umuman olganda, har bir inson qanday to‘g‘ri yashash haqida o‘z tasavvuriga ega bo‘lib, buni ham alohida mafkura sifatida sanash mumkin. Hattoki jinoiy olam ham o‘z “tushuncha”lari bilan yashaydi va bu ham o‘ziga xos mafkuradir. Jinoyat olami “tushunchalari”ga rioya qilmaslikning kuchayishi jinoyatchilar orasida ham salbiy qabul qilinib, tartibsizliklar boshlanishiga olib keladi. Jamiyat miqyosida g‘oyalarning bo‘linishi, har kim jamiyat va insoniyat uchun nima yaxshi va yomonligi haqida o‘z tasavvuriga ega mafkuraviy anarxiya sharoitida mutloq boshboshdoqlik boshlanadi. Jamiyatning katta qismi ishonch bilan, ixtiyoriy ravishda umumiy, to‘g‘ri asoslangan mafkuraga ergashsa, ayni muddao bo‘ladi [4:17].

Hozirgi kunda dunyo mafkura bozorida turli-tuman g‘oya va mafkuralar taklif qilinib, iste’mol qilinmoqda. Ular orasida bozor iqtisodiga asoslangan liberal demokratik mafkura ta’sir ko‘lami kattaligi bilan ajralib turadi. Keyingi o‘rinlarda kommunizm, diniy mafkuralar, millatchilik (vatanparvarlik) mafkuralari, populizm, konservatizm, feminizm va boshqa bir qancha mafkuralar turadi.

Mafkura makonida ayni damda turli asil mafkuralar qorishmasidan hosil bo‘lgan aralash mafkuralar ham mavjud. Bular qatoriga erkin bozorga katta imkoniyatlar yaratgan Xitoycha xususiyatlarga ega kommunizm, bozor iqtisodiyoti bilan birgalikda diniy qadriyatlar kuchli Turkiyani misol qilib keltirishimiz mumkin. Ayni paytda dunyo miqyosida asosan ikki mafkura – g‘arb mafkurasi (liberal demokratiya) va qizil mafkura (kommunizm mafkurasi) raqobat qilmoqda [4:86].

Bugun jahonda aksariyat iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar siyosatiga liberalizm mafkurasi katta ta’sir o‘tkazmoqda. Liberalizm – bu davlatlarning konstitutsiyaviy g‘oyasi va davlat siyosatining ham asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Insonlar ongida liberalizm erkin va farovon ha-

ZJV5401

yotni ta’minlovchi eng maqbul mafkura sifatida shakllanib ulgurdi. Biroq ko‘plab erkinliklarni yaratish bilan birga liberalizmning bir qator kamchiliklari ham mavjud. Uning bosh qadriyati bo‘lgan erkinlik ayni paytda uning asosiy muammosi hamdir. Klassik liberalizm mafkurasiga ergashish o‘tgan vaqt davomida jamiyatning qutblashuviga olib keldi. Hech narsa bilan cheklanmagan liberalizm siyosat va iqtisodda ijtimoiy uyg‘unlik va adolatni cheklashda muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Erkinlik tushunchasi liberalizm mafkurasida aniq belgilab qo‘yilmagan va yanada aniqroq ta’rifga muhtoj. Aslida har bir shaxs qanday shaxsiy erkinliklarga ega bo‘lishi kerak va jamiyat farovonligi uchun qaysi erkinliklardan voz kechish kerak ? Davlatning shaxs ijtimoiy va shaxsiy hayotiga aralashishi mumkin bo‘lgan chegaralar qayerda ? Shu kabi murakkab savollarga liberalizm g‘oyasida aniq javoblar mavjud emas.

Liberalizm insonlar erkinligini ta’minlash, ularga katta imkoniyatlar taqdim etish bilan birga boshqa bir mafkura – iste’molchilik mafkurasi paydo bo‘lishiga sababchi bo‘lmoqda. Liberalizm mafkurasi, zamonaviy iqtisodiy rivojlangan jamiyatda haddan ziyod iste’molchilikka moyillik kayfiyatini keltirib chiqarmoqda. Bu esa o‘z navbatida iste’molchilik ma’naviy-axloq masalasida va atrof-muhitga bo‘lgan munosabatda keltirib chiqaradigan salbiy oqibatlarning oldini olishda zarur choralar ko‘rishni taqozo etadi.

“Iste’molchilik mafkurasi – bu isrofgarchilik va chegarasizlik xususiyatiga ega bo‘lgan, insonning tabiiy moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga emas, balki uning ijtimoiy mavqeyini saqlab qolishga yoki undan ham yuqori darajaga ega bo‘lishga qaratilgan modiyatga asoslangan mafkura hisoblanadi” [7:170].

Liberalizm dunyoning yetakchi mafkurasi sifatida bugungi global muammolarga bo‘lgan aniq pozitsiyalarini belgilab olishi zarur. Qashshoqlik muammosi, muntazam beqarorlik faktori hisoblangan dunyoning notinch hududlari aholisining oziq-ovqat ta’minoti, iqtisodiy muammo, va eng muhimi, in-

sonning ma'naviy-axloqiy qashshoqlikka yuz tutishi kabi masalalarga liberalizm mafkurasida aniq javob mavjud bo'lishi kerak [6:89].

Bugungi dunyo mafkuraviy makonida liberalizm bilan birga "qizil" mafkura ham deb nomlanuvchi sotsializm va kommunizm g'oyalari o'ziga xos o'ringa ega. XX asrda jahonning aksariyat mamlakatlarida sotsializm hukmron mafkuraga aylandi. Ayniqsa, Sovet ittifoqi, Sharqiy Yevropa va Xitoyda bu g'oya hukmron kuch mavqeyiga ega bo'ldi. Biroq, Sobiq ittifoq qulashidan keyin sotsializm mafkura sifatida o'z jozibadorligini va tarafdorlarini yo'qotdi. Shunday bo'lsada, bugun bu mafkura ko'pgina davlatlarda hamon yetakchi siyosiy kuch ekanligicha qolmoqda. Ayniqsa, Lotin Amerikasi mamlakatlari - Venesuela, Boliviya, Kuba va Sharqiy Osiyo davlatlari – Xitoy va Vyetnam hanuzgacha sotsialistik hukumatlariga ega. 1980-yillarning oxirida Xitoy kabi sotsialistik mamlakat bo'lgan Vyetnamda ham iqtisodni erkinlashtirish, bozor qoidalarini joriy etish bilan bog'liq islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar sezilarli iqtisodiy o'sishga olib keldi va Vyetnam dunyodagi eng tez rivojlanayotgan iqtisodiyotlardan biriga aylandi.

Hozirda muttasil qudrati o'sib borayotgan va AQShdan keyingi eng yirik xalqaro kuch hisoblangan Xitoyning mafkuraviy qadriyatlari dunyo siyosatida liberalizm g'oyasi o'rnini egallashi haqidagi fikrlar ham oxirgi paytlarda ko'p bildirilmoqda [2]. Bunday fikrlar paydo bo'lishiga Xitoyning barqaror iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari, xalqaro siyosatda tinchlik ruhida birgalikda rivojlanish istagini bildirishi, zamonaviy texnologiyalar sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishayotgani, pandemiyaning dastlabki davrlarida Yevropa davlatlari va AQShdan farqli ravishda virusni jilovlashda muvaffaqiyatli harakat qilgani kabi ko'plab sabablarni keltirishimiz mumkin. Ammo bugungi kunda liberalizm g'oyasi xalqaro maydonda qiyin davrni boshdan kechirayotgan bo'lsada, hanuzgacha xalqaro maydonda eng katta ta'sir kuchiga ega global

mafkuraligicha qolmoqda. Ayni paytda uning o‘rnini egallay oladigan darajadagi raqobatchi mafkura mavjud emas.

Umuman olganda, bugun dunyoda sotsializm mafkurasining holati murakkab va rang-barang bo‘lib, turli mamlakatlar va mintaqalarda turli darajadagi ommaboplikka va ta’siriga ega. Bu g‘oya tarafdorlari muttasil o‘sib borayotgan bir vaziyatda uning dunyo mafkura maydonidagi o‘rni va imkoniyatlarini past baholash to‘g‘ri bo‘lmaydi.

So‘nggi paytlarda dunyo mafkuraviy makonida yangiliklarga xayrihox liberalizm bilan birga konservatizm mafkurasi tarafdorlari ham ko‘payib bormoqda. Konservatizm asosini tabiiy ravishda shakllangan tartib-qoidalarning daxlsizligi, ma’lum bir aholi qatlamining tabiiy ierarxiyasi va imtiyozlari, oila, din asoslari bo‘lgan axloqiy tamoyillarning o‘zgarmasligi tashkil qiladi.

XX asrda konservatizm liberalizmning ko‘plab qadriyatlarini tan olishga majbur bo‘lib, jamiyat hayoti va siyosatdagi yangicha g‘oyalarga toqatliroq munosabatda bo‘la boshladi. Shunday bo‘lsada, uning asosida qonuniylikni, davlat intizomi va tartibini mustahkamlash, radikal islohotlarning qabul qilinmasligi kabi g‘oyalar saqlanib qoldi.

Konservatizm mafkurasida ham zamon bilan hamnafas rivojlanishga intilish bo‘lib, bu uning zamonaviy neokonservatizm yo‘nalishida namoyon bo‘ladi. Neokonservatizm – konservativ yondashuvning an’anaviy qadriyatlarini zamonaviy postindustrial jamiyat voqeligiga moslashtirishga urinishdir. Oila, din, axloq, shuningdek, ijtimoiy barqarorlik, fuqarolar va davlatning o‘zaro javobgarligi, inson huquqlarining hurmat qilinishi kabi ma’naviy qadriyatlarni himoya qiluvchi neokonservatizm o‘zining ko‘plab tarafdorlariga ega. Konservatizm mafkurasiga asoslanuvchi partiyalar AQSh (Respublikachilar partiyasi), Yaponiya (Liberal-konservatorlar partiyasi), Angliya (Konservativ partiya) kabi ko‘plab mamlakatlarda faoliyat olib boradi. Ushbu g‘oyaviy oqimning tarafdorlari soni esa kundan kunga oshib bormoqda.

Yuqorida tilga olingan mafkuralardan tashqari boshqa ko‘plab mafkuralar ham mavjud. Ulardan biri millatchilik mafkurasidir. Millatchilik aksariyat hollarda o‘z millatini boshqalardan ustun ekanligini asoslashga urinadi. Millatchilik o‘z millatiga mansublikni boshqa millatlar manfaatlarini inkor etgan holda o‘z milliy (etnik) manfaatlarining ustuvorligiga asoslangan siyosiy tamoyil yoki dastur asosiga quradi. Aynan shu bilan u milliy o‘zlikni anglash, millatni himoya qilish kabi ezgu niyatlarni maqsad qilgan milliyatchilik mafkurasidan ajralib turadi.

Millatchilikning muhim xususiyatlari bo‘lgan milliy o‘ziga xoslik, til, an’analar, urf-odatlar, mentalitet, yagona konfessiyaviy mansublik va boshqalar kabi ijtimoiy-madaniy xususiyatlarning umumiyligini nazarda tutganligi sababli, ma’lum bir etnik guruh vakillarini o‘z bayrog‘i ostida nisbatan osonlik bilan birlashtirishi mumkin. Shu bilan birga, boshqa etnik guruhlar bilan qarama-qarshilik milliy hamjamiyatning birlashishiga yordam beradi.

Millatchilik mafkurasining ikki xil turi mavjud: 1) milliy zulmga qarshi norozilik va etnik guruh huquqlarining yo‘qligiga qarshi norozilik sifatida (milliyatchilik); 2) millatchilik o‘z millatining boshqalardan ustunligini oqlash usuli sifatida. Birinchisi, milliy zulm, mustamlakachilik qaramligi, milliy kamsitishning turli shakllariga qarshi qaratilgan bo‘ladi. Bunday millatchilik progressiv xususiyatga ega. Ikkinchisi tabiati, maqsadlari va ularga erishish usullari bo‘yicha keskin harakterga ega tom ma’nodagi millatchilikdir. Bunday millatchilik mafkurasi yakunda keskin oqibatlarni yaratishi bilan xavflidir.

Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ayni damda siyosiy tuzumdan umidsizlik va o‘zgarishlarga intilish tufayli populistik harakatlar ko‘payib, populizm mafkurasi kuchayib bormoqda. Populizm har bir davr va makonda mavjud bo‘lgan siyosiy yondashuv bo‘lib, uni deyarli hamma siyosiy tizim sharoitlarida qo‘llash imkoni mavjud. Uning asosida faqat oddiy xalqqa yoqadigan, oddiy xalqning his-tuyg‘ularini junbis-

hga keltirish orqali uni biron bir siyosiy mafkura, shaxs yoki tizim atrofiga yig‘ish yotadi. Bundan maqsad esa ko‘pchilik hollarda xalqni manipulyatsiya qilish orqali hokimiyatga erishish, uni mustahkamlash, populizmdan foydalanayotgan tomonga qarshi bo‘lgan kuchlarni xalqning qo‘li orqali yo‘q qilishdan iborat bo‘ladi.

Mafkuraviy tuzilma sifatida populizm kuchli avtoritar ruhni o‘z ichiga olib, ham xarizmatik liderga yo‘naltirilganlikda, ham demokratik mexanizmlar va institutlardan voz kechish istagida namoyon bo‘ladi. “Biz xalq irodasini bildiramiz” formulasida aks etgan populistlarning vakillik da’volari har qanday rasmiylashtirilgan tartib-qoidalarni chetlab o‘tgan holda siyosiy dasturni bevosita amalga oshirishni talab qiladi. Populistlarning mantig‘iga ko‘ra, bahs-munozaraga hojat yo‘q, chunki nima qilish va qanday qilish kerakligi allaqachon aniq bo‘lib, institutlar va texnokratik qatlam rejalarni amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi [5].

O‘tmishdagi misollar shuni yaqqol ko‘rsatib turibdiki, inqirozli vaziyatlarda keng xalq ommasi osonlik bilan populistlarning yolg‘on va’dalari ta’siriga tushib, ularning mafkuraviy ta’limotlariga ko‘r-ko‘rona ergashishgan. Bunday noaniqliklar oxir-oqibatda butun dunyo uchun og‘ir oqibatlar yaratadi.

Jahon mafkuraviy maydonida yuqorida tilga olingan jarayonlar bilan birga atrof-muhitni asrash, iqlim o‘zgarishi, yashillar harakati bilan bog‘liq ekologizm g‘oyalari ham tobora yangi ahamiyat kasb etmoqda. Oxirgi yillarda dunyoda iqlim o‘zgarishi va atrof-muhit degradatsiyasi bilan bog‘liq tashvishlar yanada barqaror va ekologik toza siyosat tarafdori bo‘lgan odamlar harakatining kuchayishiga sabab bo‘lmoqda.

Ekologizm – bu atrof-muhitni muhofaza qilish va saqlashni nazarda tutuvchi mafkura bo‘lib, sanoatlashtirish, urbanizatsiya va resurslarni qazib olish kabi inson faoliyat turlari atrof-muhitga katta zarar yetkazganligi va bu muammolarni hal qilish uchun shoshilinch choralar ko‘rish kerak degan

ishonchga asoslanadi. Ekologizm siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning axloqiy jihatlari haqida fikr yuritishda odamlardan boshqa tirik mavjudotlar va umuman tabiiy muhit ham teng ravishda e'tiborga loyiqligini ta'kidlaydi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish g'oyasi jamiyatga sezilarli ta'sir ko'rsatdi va qonunlar, siyosat va madaniy me'yorlarning o'zgarishiga olib keldi. Biroq, ekologizm hamon jamiyatda bahs-munozara mavzusi bo'lib qolmoqda. Ba'zi odamlar atrof-muhit himoyasi tamoyillariga qarshi, boshqalari esa ekologik muhofaza va barqarorlikka nisbatan turli yondashuvlarni himoya qilmoqdalar. Ba'zi insonlar ekologik xavf-hatarlarni jiddiy qabul qilmayotgan, atrof-muhitni asrashga loqayd munosabatda bo'layotgan bir paytda yashillar harakati vakillari rivojlangan mamlakatlarda partiyalar tuzib, namoyishlar o'tkazmoqda, hukumat tarkibiga kirib, davlat siyosatiga sezilarli ta'sir o'tkazmoqda. Shunday ekan, ekologizm mafkurasini e'tibordan chetda qoldirish, uni yaqindan o'rganmaslik noto'g'ri bo'ladi.

Ma'lum bir mafkurani keng xalq ommasi ongiga singdirish, uni keng targ'ib qilish, o'zgacha g'oyalardan himoya qilish davlat faoliyatidagi muhim masalalardan sanaladi. Bugun bu yo'lda turli mamlakatlar turlicha targ'ibot usullari, texnologiyalarini ishga solishmoqda. Jumladan, AQShda Amerikaning buyukligi va o'zgachaligi haqidagi g'oyaviy qarashlar bolalarga yoshligidanoq singdira boshlanishi kelajakda ularda vatanparvarlik tuyg'usini oshiradi, yot g'oyalarga qarshi kuchli mafkuraviy immunitet va mamlakat kelajagiga bo'lgan qat'iy ishonchni shakllantiradi. Yoshligidan Amerika g'oyaviy qadriyatlari ruhida o'sgan amerikaliklar ulg'ayganda fuqarolik jamiyatining kuchli mafkuraviy qarashlarga ega a'zolariga aylanishadi. Shuning uchun kuchli mafkuraviy asoslarga ega bo'lishni istagan jamiyatlar yoshlar tarbiyasiga bolaligidanoq jiddiy e'tibor berishi, kuchli fuqarolik jamiyatini qurishga intilishi lozim.

Amerika o'z mafkurasini aholi orasida keng targ'ib qilishda kino sanoatidan ham muvaffaqiyatli foydalanadi. Amerika

kinofilmlarida AQSh davlatchiligi, harbiylari, uning siyosati doim ijobiy ruhda tasvirlanib, amerikaliklarda davlatga, demokratiya g‘oyasiga, mamlakat qudratiga bo‘lgan ishonchni shakllantirishga xizmat qiladi. Gollivud Amerika qadriyatlarini, davlat g‘oyalari va nufuzini dunyo bo‘ylab targ‘ib qilishda ham katta rol o‘ynaydi. Bir so‘z bilan aytganda, bugungi kun mafkura targ‘ibotida kino sanoati ajralmas o‘rniga ega. Bejizga Xitoy ham so‘nggi yillarda kino sanoatiga katta mablag‘ ajratib, undan o‘z mafkurasini ilgari surishda foydalanishga harakat qilmayapti. Oxirgi paytlarda Xitoy kinofilmlarini ham tomosha qilishni boshlagan kino ixlosmandlari “dunyoni o‘zga sayyoralik bosqinchilardan faqat amerikalik super qahramonlar emas, balki xitoylik qahramonlar ham qutqarishga qodir ekanligiga ishonch hosil qilishmoqda”.

Mafkuralar targ‘iboti, ularning hayotga muvaffaqiyatli tarzda tatbiq etilishi borasida Xitoy tajribasi bugun ko‘pchilikning e’tiborini tortmoqda. Dastlab muvaffaqiyatsizlikka uchragan sotsializm g‘oyasi Xitoyda istisno tariqasida natija berganiga xitoyliklarning umumiy maqsad yo‘lida birlashishga intilishi, mehnatkashligi kabi bir qator omillar sabab bo‘ldi. Va eng muhimi, marksistik-sotsialistik mafkura o‘z vaqtida iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi g‘oya sifatida qayta ko‘rib chiqilgani bu borada hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Shu sababdan, mafkurani zamon talablariga moslab o‘zgartirib borish uning muvvaqiyati yo‘lidagi muhim qadam deb bemalol aytishimiz mumkin.

Shu o‘rinda Butun Rossiya jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi (ВЦИОМ) direktori Valeriy Fedorovning antik davr va mafkura bilan bog‘liq muhim ahamiyatga ega fikrini keltirish o‘rinli. “Antik davrning mashhur aporiyasini esga olamiz: kema portdan chiqadi va uzoq safarga yo‘l oladi. Safar davomida u machtalarini yo‘qotadi, dovuldan zarar ko‘rgan yelkanlari almashtiriladi. Nihoyat, kema manzilga yetib kelgach, uni qurishda ishlatilgan biron bo‘lak ham material qolmaganligi, barchasi almashtirilganligi ayon bo‘ladi. Savol

tug‘iladi: bu o‘sha kemami yoki boshqa? Ma’lum ma’noda bu aynan o‘sha kema. Safarning har bir lahzasida kemaning dastlabki ko‘rinishdagi shaklidan nimadir saqlangan. Boshqa tomondan esa, kema endi mutlaqo tanib bo‘lmas darajada o‘zgargan. Mafkura bilan ham xuddi shunday. U ham vaqt o‘tishi bilan tanib bo‘lmaydigan darajada o‘zgarishi mumkin. Tasavvur qiladigan bo‘lsak, agarda XVIII asr va XXI asr liberalizmi vakillari uchrashib qolganlarida katta ehtimol bilan ular bir-birlarini hammaslak sifatida tan olmagan bo‘lardilar. Bu ochiq tizimning to‘lovidir. Ochiq tizim yashaydi. Yopiq tizim esa o‘lishga mahkum. Yetakchi mafkurani davlat mafkurasiga aylantirish – ochiqlikni rad qilishdir. Keyingi bosqich – jonsizlanish, chirish, halokatdir” [3].

O‘z mafkurasini ilgari surishda liberal harakatlar ochiq axborot siyosatini olib borib, axborotni ko‘cha va ommaviy aksiyalar orqali efirga uzatmoqda, bosma mahsulotlar va maxsus adabiyotlar chiqarib tarqatmoqda. Bugungi kunda axborotni tarqatish usullari orasida Internet alohida o‘rin tutadi. Siyosiy harakatning asosiy hujjatlari(nizom, manifest, dastur), o‘tgan voqea va tadbirlar to‘g‘risidagi hisobotlar, ijtimoiy-siyosiy yangiliklar, siyosiy harakat rejalari taqdim etiladigan veb-sayti muhim axborot platformasi hisoblanadi. Siyosiy harakatning global tarmoqda mavjudligi jamoatchilikni qiziqtirgan savollarga tezkor javob berish va shu orqali uning tarafdorlari sonini oshirish imkonini beradi.

Ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va mini-bloglarning (Twitter) faol rivojlanishi siyosiy harakatlarga virusli marketing texnologiyalaridan foydalanish imkonini beradi. Ushbu texnologiya ommaviy axborot vositalari va internet orqali kreativ ommaviy tadbirlar to‘g‘risidagi hisobotni spektakl va voqealar ko‘rinishida virusli tarzda, ya’ni hisobot fotosuratlar va videolar bilan birga veb-sayt va bloglarda e’lon qilinishi va boshqa yuzlab veb-saytlarga ko‘chirib bosilishini nazarda tutadi [8:106].

Dunyo mamlakatlarining aksariyatida mafkura Konstitutsiyada alohida va aniq qilib belgilanmagan. Ularning barchasi

davlat tomonidan amaliy mexanizmlar orqali singdiriladi. Siyosiy harakatlar tomonidan mafkuralarni ommaviy ongga singdirish jarayonida manipulyatsiya texnologiyalari, ya'ni odamlarning tafakkuri va xulq-atvorini ularning manfaatlariga zid ravishda o'zgartirish maqsadida mafkuraviy va ijtimoiy-psixologik ta'sir ko'rsatish usullari tizimi ustunlik qiladi. Manipulyatsiya jarayoni ommaviy nutqlar, ko'cha tadbirlari (piket, miting, namoyish, yurish), bosma materiallar (gazeta, varaqalar, buklet, ma'lumot varaqasi, risola, stiker, afisha), shuningdek, internetdagi ma'lumotlar (veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va boshqalar) yordamida amalga oshiriladi [8:109].

Mafkura targ'ibotida shuningdek, psixologik bosim texnologiyasi ham keng qo'llaniladi. Bu texnologiyadan ko'zlangan asosiy maqsad ma'lum bir mafkuraviy g'oyalar, qarashlar, tasavvur va tushunchalarni shakllantirish hisoblanadi. Ayni paytda u insonlarda salbiy yoki ijobiy his-tuyg'ularni, keskin reaksiyalarni uyg'otishga ham xizmat qiladi. bunday manipulyativ texnologiyadan anarxist va millatchi harakatlar faol foydalanishadi.

Mafkuralar inqirozi zamonaviy siyosatning muhim xususiyatlaridan biriga aylanib ulgurdi. Mafkuraviy siyosatning parchalanishiga qarshi turish bugun zamon talabiga aylandi, chunki bo'linish siyosiy jamoalarni alohida madaniy va ijtimoiy anklavlarga bo'lib, ularni bir-biridan uzoqlashtirish va ular o'rtasidagi qarama-qarshilik xavfini oshiradi. Ijtimoiy va mafkuraviy tarqoqlikka tomon yuz burayotgan jarayonlar qarshisida mafkuraviy tiklanish zarur. Bu mafkuraviy siyosatning hozirgi g'oyaviy makondagi bo'linish tendensiyalarini tan olish va ularni bartaraf etishda yangi shakllari paydo bo'lishiga olib keladi [1:16].

Xulosa qilib aytganda, bugungi dunyoning mafkuraviy qiyofasi murakkab va serqirra bo'lib, ko'plab turli g'oya va mafkuralar ta'sir uchun o'zaro kurashmoqda. Mafkuralar orasida demokratik liberalizm ta'sir ko'lami bilan boshqalaridan yaqqol ajralib tursa, uning asosiy raqobatchisi bo'lgan kom-

munizm g‘oyasi hali ham ba’zi mamlakatlarda hukmronligini saqlab qolib, yashashda davom etmoqda. Kommunizmning Xitoy rivojlanishiga qo‘shayotgan hissasi dunyoda bu g‘oyaga bo‘lgan qiziqishni yanada oshirmoqda. Liberalizm va’da qiluvchi erkinliklar esa hamon millionlab insonlarda baxtli hayotga umid uyg‘otishda davom etmoqda. Jahon mafkuraviy maydonida shuningdek, diniy mafkuralar, millatchilik, populizm, konservatizm, ekologizm va boshqa ko‘plab mafkuralar ham tobora kuchayib bormoqda. Biroq, liberalizm mafkurasi, demokratiya g‘oyasi hali ham dunyo xalqlari ongida universal, jozibador mafkura sifatidagi yetakchilik mavqeyini saqlab qolmoqda. Uning o‘rnini bosa oladigan muqobil mafkura hozirgi kunda mavjud emas.

Mafkuralar, g‘oyalar targ‘iboti, ularni aholi ongiga singdirish davlat faoliyatidagi ustuvor vazifalardan biri sanalib, bu borada zamonaviy va sinalgan usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Aholi ongida mafkuraviy qarashlarni shakllantirish texnologiyalari kompleks tarzda qo‘llanilib, har bir texnologiya ma’lum bir vazifani bajarishga xizmat qiladi. Hal qilinishi lozim bo‘lgan vazifaga qarab, tegishli texnologiya tanlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. John J Schwarzmantel. 2008. Ideology and Politics. London, Sage Publications Ltd, - 198 p.

2. Xuetong Yan. Leadership and the Rise of Great Powers. Princeton: Princeton University Press. 2019. - 131–136 p.

3. Валерий Федоров: Любую идеологию опасно объявлять государственной, Российская газета – Федеральный выпуск No. 6749, https://rg.ru/2015/08/13/fedorov.html;

4. Воин А. М. Современные идеологии // Bulletin CONCORDE 2019, №4-5. – 209 b;

5. Запад в точке бифуркации: современный популизм

ZJV5401

как вызов либеральной демократии, URL: https://russiancouncil.ru/analytics-and-comments/analytics/zapad-v-tochke-bifurkatsii-sovremennyy-populizm-kak-vyzov-liberalnoy-demokratii/

6. Зотов Дмитрий Александрович Современный либерализм: проблемы и противоречия // Вестник ЗабГУ. 2011. №5. – 89 с.URL: https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennyy-liberalizm-problemy-i-protivorechiya.

7. Иванова М.В. Основные направления политики социального государства в отношении идеологии потребительства // Вестник ЧитГУ. – 2008. – №6 (51). – 170 с.

8. Соколова Елена Павловна Технологии внедрения идеологий в массовое сознание // Управленческое консультирование. 2011. №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/tehnologii-vnedreniya-ideologiy-v-massovoe-soznaniye .

ZJV5401
ZJV5401
ZJV5401

ZJV5401

BUGUNGI DUNYONING GEOMAFKURAVIY MANZARASI

Madrahimov Alisher Usubjon o‘g‘li,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti
kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya. Mazkur maqolada dunyoning geomafkuraviy mazrasi yoritilgan bo‘lib, unda mafkuraviy jarayonlar, geomafkura atamasining ta’rifi, geomafkuraga ta’sir etuvchi omillar bayon etilgan.

Tayanch so‘zlar: mafkura, geomafkura, milliy genezis, jamiyat, millatchilik, din, geosiyosiy maydon.

Yer yuzidan insonlar paydo bo‘lib, turli jamiyatlar va davlatlarga birlashar ekan ularda millat, milliylik va ma’naviyat kabi tushunchalar paydo bo‘lgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Anashu jamiyat va davlatlarga birlashish jarayonida vaqt o‘tishi bilan aholi turmishida din va milliy an’analar uyg‘unlashib borgan. Shunday bir holatda mafkuraning paydo bo‘lishi jamiyatda millat degan tushunchaning shakllanishi bilan hamohangdir. Shuning uchun ham “milliy genezis” har qanday mafkura mohiyatida aks etadi.

Dunyoning geomafkuraviy manzarasini yoritishdan oldin mazkur tushunchaning asosi va negizini tashkil etuvchi “mafkura” tushunchasini tarixi va qisqacha mazmuniga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq sanaladi. “Mafkura” iborasini birinchi bo‘lib fransuz olimi Destyut de Trasi Uyg‘onish davriga bag‘ishlab yozilgan “Mafkura elementlari” deb nomlangan asarida qo‘llagan. Mazkur asarda u “mafkura – g‘oyalarning shakllanish jarayonlarini o‘rganish” deb ta’rif beradi. De Trasi va uning izdoshlari mafkuraga “g‘oyalar haqidagi fan” sifatida qarashgan.

Mazkur tushunchani inkor etgan holda K.Marks va F.Engels mafkurani jamiyatdagi u yoki bu ijtimoiy guruh faoliyatining ongdagi in’ikosi deb qarashgan. Marksizm mafkurasi sinfiy

xarakterga ega ekanligi boisidan birinchilardan bo‘lib, G‘arb jamiyatida va keyinchalik boshqa yerlarda ham qarshilikka uchradi hamda oxir oqibat XX asr yakuniga kelib inqirozga yuzt tutdi.

Yurtimiz olimlari tomonidan mafkuraga quyidagicha ta’rif beriladi. Mafkura (arab. fikrlar majmui) – muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat, davlat manfaatlari, orzu-istak va maqsad-muddaolari ifodalangang‘oyaviy-nazariy qarashlar hamda ularni amalga oshirish tizimi. Unda manfaatlar ifodalanayotgan kuch va qatlamlarning o‘tmishi, bugungi kuni va istiqboli o‘z ifodasini topadi. Mafkuralar ma’lum bir millat yoki davlatning taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Mafkura quyidagi vazifalarni o‘z oldiga qo‘yadi:

- muayyan g‘oyani odamlarning ongiga va ruhiyatiga singdirish;
- aholining turli guruhlarini birlashtirish;
- ko‘zlangan maqsad va niyatlarga erishish uchun odamlarni safarbar etish;
- ularni ma’naviy-ruhiy rag‘batlantirish;
- aholini, ayniqsa, yosh avlodni g‘oyaviy tarbiyalash va mafkuraviy immunitetni shakllantirish;
- boshqa mafkuraviy va g‘oyaviy ta’sirlardan himoya qilish va shular kabilar.

Mafkura qaysi ko‘rinishda bo‘lmasin, uning amaliy harakatlari asosida boshqa mafkuralarga qarama-qarshi turadi. Mafkuraviy bo‘shliq bo‘lgan joyda yangi mafkura yaratish yoki tashqi kuchlar tomonidan o‘zga mafkura olib kirilishi mumkin. Ammo biror mafkuraning ichida unga monand bo‘lmagan yangi bir mafkurani yaratib bo‘lmaydi. Bunday bo‘ladi degan so‘z ijtimoiy guruhlar o‘rtasida bo‘linishning yuzaga kelganligini anlatadi va mafkuralar o‘rtasida siyosiy separatizmni yuzaga keltiradi.

Mafkuralarni mohiyatan qanday pirinsiplarga asoslanishiga qarab turlarga bo‘lish mumkin. Xususan, diniy, diniy fundamental, milliy, millatchilik, liberal, an’anaviychilik, gegamonlik, insonparvarlik va boshqalar. Qanday prinsiplarga asoslanmasin, mafkura amaliyotda davlatning milliy manfa-

atlari bilan uyg‘unlashgan bo‘lsagina evalyusion rivojlanishini davom ettiradi.

Mafkuraning nechog‘lik muhimligi va dunyoning shiddat bilan rivojalnishi oqibatida geomafkura degan tushuncha paydo bo‘ldi. Geomafkura xalqaro munosabatlar nazariyasida nisbatan yangi va endi o‘rganilayotgan tushuncha bo‘lsada ammo, jamiyat taraqqiyotida kuch markazlari tushunchasi qachon paydo bo‘lgan bo‘lsa, mazkur tushuncha ham o‘sha davrda paydo bo‘lgan. Xalqaro munosabatlarda ishtirok etuvchi siyosiy arboblar yoki mazkur masalalar bilan shug‘ullanuvchi ko‘pchilik tadqiqotchilar muayyan maqsadlarni ko‘zlagan holda o‘z qarashlarini ilgari sursada, mulohazalarida yo geosiyosiy, yo geoiqtisodiy omillarga kengroq e’tibor qaratishgan. Lekin, har qanday geoiqtisodiy manfaatlar va geosiyosiy o‘zgarishlar asosida ma’lum bir manfaat va maqsadning majmuasi bo‘lgan geomafkura omili yotadi.

Geosiyosat va mafkuraga berilgan ta’riflardan kelib chiqqan holda hamda yurtimiz va xorijiy olmilarning fikrlaridan kelib chiqgan holda bizningcha, “Geomafkura – xalqaro manfaatlar yuzaga kelishi bilan paydo bo‘lgan, muayyan qonuniyat va mezonlarga asoslangan, ma’lum bir millat yoki davlatning milliy manfaatlarini o‘zida ifoda etuvchi, evalyusion harakterga ega, geosiyosat va mafkura o‘rtasidagi uzviy aloqadorlikka asoslangan harakatlar yig‘indisidir” degan ta’rifni berdik. Aniqroq aytganda qachonki geosiyosat mafkuraviy xarakter kasb etsa, geomafkuraga aylanadi.

Aytish mumkinki, geomafkura insoniyat tarixi bilan hamnafas lekin uzoq o‘tmishga ega emas. K.Pleshakovning fikriga ko‘ra XIX asr oxiriga qadar xalqlar, davlatlar o‘rtasidagi aloqalar geomafkuraviy tusga kirmagan. Xalqaro munosabatlarda “geomafkuraviy paradigmaning shakllanishi XX asr boshlarida xalqaro siyosatga mislsiz ta’sirini o‘tkazgan bolshevizm mafkurasining geosiyosiy jihatdan Yevroosiyoning “kaliti” bo‘lgan – Rossiyada yuzaga kelishi bilan bog‘liq”.

Umuman olganda geomafkurani quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

– siyosiy;
– milliy-etnik;

– millatchilik;

– diniy.

Siyosiy jihatdan geomafkuraning tarqalish doirasi va ko‘lami o‘zgarib borgan. Bolsheyviklarning birinchi besh yillik (1917-1922-y.) rejalarida siyosiy jihatdan kommunistik mafkurasi geosiyosiy tuch olgan holda dastlab Rossiya imperiyasi. Sharqiy va markaziy Yevropa hudadlariga tarqaldi. Agar XX asr 20-yillari o‘rtaslarida geomafkuraviy paradigma Xitoyga tarqalgan bo‘lsa, 30-yillar oxiriga kelib butun Yevroosiyo mintaqasini egalladi. “Sovuq urush”ning boshlanishi bilan geomafkuraviy paradigma global tus olib, Amerika va Afrika mintaqalariga ham yoyildi.

Geomafkuraviy masalalarni milliy-etnik jihatdan tadqiq etish bir muncha murakkab masala sanaladi. Chunki, bunda davlatlarning chegaralari nisbiy ahamiyat kasb etib, asosan milliyat tushunchasi birinchi o‘ringa ko‘tariladi. Bundan tashqari. Jahondagi mavjud millatlararo konfliktlarning chegara bilmasligidan gap ketganda tushunish kerakki, mavjud milliy-etnik muammo (mintaqaviy yoki umumbashariy baribir) geosiyosiy ahamiyatga molikdir.

Geosiyosatda millatlararo munosabatlarni o‘rganish geosiyosiy maydon tushuncha bilang bog‘liqdir. Geosiyosiy maydon tushunchasi milliy masalalarni tadqiq etishda ko‘lamiga ko‘ra kalasifikatsiyalanadi, ya’ni:

– endemik maydon – uzoq vaqtdan beri ma’lum bmr milliy jamo tomonidan nazorat qilinib kelinayotgan borliq (masalan, Sharqiy Turkistondagi uyg‘urlar).

– chegaraviy maydon – davlatning u yerda nazorat qilish funksiyasi rasmiy xarakterda bo‘lib, yashayotgan odamlar turmush tarzi chegaradosh davlatga yaqinroq bo‘ladi (masalan, Janubiy Qozog‘istondagi o‘zbeklar).

– chorraxaviy yoki tutashgan maydon – qanday milliy jamoalar yashashidan qat’iy nazar, ikki yoki undan ko‘proq davlatlar da’vogar bo‘lgan geosiyosiy maydon (masalan, Turkiya, Eron, Iroq va Suriya hududlarida yashovchi kurdlar).

– xadsiz-hududsiz maydon – bu keng geografik maydon bo‘lib, u yerda istiqomat qilayotgan yuzlab milliy jamoalar

turmush tarzi ma'lum bir geosiyosiy kuch yoki millat vakillari tomonidan nazoratga olinishini nazarda tutadi.

Umuman olganda geomafkuraviy masalalarni milliy-etnik jihatdan tadqiq etish birmuncha chigal va murakkab ish sanaladi. Milliy-etnik jarayonlarni geomafkuraviy tus olishi uning geosiyosat bilan uyg'unlashuvchiga yoki bo'lmasam, unga qarama-qarshi tarzida yuz berishiga olib keladi.

Geomafkuraning millatchilik borasidagi turi nisbatan saliy ma'nodagi tushuncha sanaladi. Lekin bu tuguncha ham o'z davrida ijobiy ma'noda ma'lum bir hududlarda qo'llanilgan. E'tiborli tomoni shundaki. XX asrgacha millatchilikning millat uchun qanchalik yaxshi tomoni bo'lsa, boshqa millatlar uchun shunchalik zararli tomoni haqidagi fikrlar nisbatan sezilarli bo'lmagan. Lekin tarix uni chetlab o'tdi.

To'g'ri har bir millat vakili millatiga xos an'analarni davom ettirishi yoki o'zligini yo'qotmasligi uchun natsionalizmni to'la inkor etmasligi ijtimoiy hodisa. Biroq. Birinchidan, milliy g'oya millatda umuminsoniylikni (umuminsoniylikda millatni emas!) hurmat qilishga qaratilmog'i lozim; ikkinchidan, o'sha "g'oya ommaning qalbidan joy egallashi uchun uning manfaat va ehtiyojlariga hamohang bo'lishi, bugungi davr talablarini to'laqonli aks ettirishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning asosiy o'zagini ifoda eta olishi lozim".

Geomafkuraning diniy jihati insoning etiqodiy qarashlari, g'oyalari bilan bog'liq sanaladi. "Etiqod" arabchadan olingan bo'lib, ishonch, tayanch, qarash, muayyan hodisa, voqelik yoki narsaga qat'iy munosabat kabi ma'nolarni anglatadi. E'tiqodning mazmunini ilm tashkil etadi. Kishi nimaga e'tiqod qilayotganini, nimaga ishonayotganini anglashi lozim.

Geomafkuraviy jarayonlarda din omili juda muhim sanaladi. Inson yo biror bir dinga e'tiqod qiladi, yoki buning aksi. Dinni geomafkuraviy jarayonlardagi ishtirokini o'rta asrlardan to yaqin kunlarga qadar bo'lgan davrdagi missionerlik harakatlarida yoki muqaddas islom dinining normalarini buzib ko'rsatib, ayrim shaxslarni yo'ldan urgan holda turli buzg'unchilik va qo'poruvchilik harakatlarini amalga oshirishayotganida ko'rishimiz mumkin.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, diniy e'tiqod masalasida ilm zarurdir. Kishilar tafakkurini to'g'ri shakllantirish, noto'g'ri aqidalardan asrash, yoshlarni axloqiy va ma'naviy komolotga yetkazish dolzar masala sanaladi.

Hozirgi dunyoda muammolarni hal etishda, ma'lum bir davlatni ma'lum bir hududdagi manfaatlarini amalga oshirishda kuch ishlatish tendensiyasidan hamon voz kechilgani yo'q. Shu sababdan ba'zi bir g'araz niyyatli kuchlar tomonidan o'zlarining manfaatlarini amalga oshirishda mafkuraga alohida e'tibor bermoqda va bu dunyoda geomafkuraviy jarayonlarni keltirib chiqarmoqda.

Mafkurada "mafkuraviy vahima" degan tushuncha mavjud. Mafkuraviy vahima (ingl, Moral panic, moral – "mafkura, axloq", panic – "vahima, qo'rquv"). Mafkuraviy vahima bu jamiyatdagi mavjud tinchlik holatiga rahna solish xavfi bilan aholini qo'rqitish maqsadida muammolarni taqdim etishdir. "Folklor (mahalliy) iblislar va mafkuraviy (ma'naviy va axloqiy) vahima" asari muallifi Stenli Kohenga fikriga ko'ra mafkuraviy vahima jamiyat qadriyatlari va qiziqishlariga xavf va qo'rquv soladigan vaziyat, voqea, kishi yoki kishilardan iborat guruhlarning paydo bo'lishi natijasida sodir bo'ladi. Jamiyatga, madaniy qadriyatlarga xavf keltirib turuvchi shaxslar "folklor iblislar" deb atala boshlandi. Axloqiy vahima tortishuv va ijtimoiy tanglikni o'z ichiga qamrab olgan qarama-qarshilikdir, bunda murosasozlik qiyindir. Chunki, uning markazida turgan muammoning o'zi ta'qiqlangan. Ommaviy axborot vositalarining o'zi uzoq davr mobaynida "mafkuraviy-nafrat agenti" sifatida faoliyat ko'rsatdi.

Anashunday muammolarni yuzaga kelishida geomafkuraviy kurashlardan keng foydalanilmoqda. Sababi yadroviy paligonlardan ko'ra mafkuraviy paligonlar ustunlik qilayotganli biz uchun sir emas. Shu boisdan hozirgi dunyoning geomafkuraviy jarayonlari natijasida quyidagi muammolar yuzaga kelmoqda:

– dunyodagi zo'ravonlik. Geomafkuraviy maqsadlar natijasida unga manfaatdor bo'lgan kimsalar tomonidan topilayotgan muammolar turli davlatlarning ichki va tashqi mu-

ZJV5401

nosabatlarni izdan chiqarmoqda. Natijada, jahonda urush o‘choqlari o‘chmayapti va aksincha, ularning yangilari paydo bo‘lmoqda. Katta sakkizlik davlatlarining ko‘pchiligi bu urushlarda qatnashib, qurol-yarog‘larini sinovdan o‘tkazib olmoqda. Buning oqibatida dunyoda qashshoqlik, iqtisodiy inqiroz va ijtimoiy muammolar barham topmayapti.

– yetakchilikka intilish. Bu geomafkuraviy jarayon bugungi kunda dunyoning barcha mintaqalarini qamrab olgan. Unga ko‘ra, muayyan davlatlar o‘z muammolarini hal etish, iqtisodiy farovonlikka erishish uchun qo‘shni davlatlar va o‘zga xalqlarning manfaatlarini hisobga olmayotir. Mazkur jarayon aslida “bo‘lib tashla – hukmronlik qil” illatining hosilasi ekani anglab yetilinmayapti.

– ma’naviy zaiflik. Mazkur geomafkuraviy hodisa eng tashvishlisidir. Chunki inson o‘z kashfiyotlariga mahliyo bo‘lib, dunyoqarash, axloq va faoliyat jihatidan zaiflashib bormoqda. Terrorizm, ekstremizm va “demokratiyani olg‘a siljitish” harakatlari shuning natijasidir. Bu harakatlar milliy birlik, birodarlik va hamkorlikka rahna solmoqda.

Insoniyatning ma’naviy zaiflashuvi uning o‘ziga zarar keltirmoqda. Bilim olish, kelajakni o‘ylash va ijtimoiy axloq qoidalariga rioya qilish o‘rniga nafsga berilish, shahvat domiga tushish va bugungi kun bilan yashash egallab bormoqda.

– geomafkuraviy beqarorlik. Mazkur tushunchani “mafkuraviy beqarorlik” tushunchasining aynan o‘zi deb atash mumkin. Mafkuraviy beqarorlik – kishilik jamiyatiga xos muayyan xususiyatlardan biri. Mafkuraviy sohadagi tamoyillarning qaror topmagani, doimiy bo‘lmagani, muqim bo‘lmagani kabi ma’nolarni anglatadi. Bu tushuncha gohida ijtimoiy hayotda mafkuralarning almashib turishi jarayonini izohlash uchun ham qo‘llaniladi. Mafkuraviy beqarorlik, asosan, muayyan bir hududda davlat tizimi bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdan boshqasiga o‘tish davrida yuzaga keladi. Shu nuqtayi nazardan olganda, mafkuraviy beqarorlikni muayyan tarixiy sharoitda yuzaga keladigan g‘oyaviy o‘zgaruvchan holat deb ham atash mumkin.

Bugungi kunning geomafkuraviy kurashlari insonning ongi va qalbi uchun olib borilayotgani hech kimga sir emas.

ZJV5401

Insonning ongi va qalbi egallanganch, u manqurt singari o‘zligidan ajraladi. “Ayni mana shu sharoitda, – deyiladi “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari” risolasida – xalq va davlatning ezgu maqsadlariga yot va begona bo‘lgan g‘oyalar jamiyat hayotiga o‘z ta’sirini o‘tkazishga harakat qilishi tabiiy. Ayniqsa, g‘oyaviy beqarorlik hukumron bo‘lgan joyda mafkuraviy tahdid kuchayadi. Aholining keng qatlamlari, xususan yoshlarning ongini egallashga urinishlar ortib boradi”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Nazarov Q. va b. “Ma’naviyat” asosiy tushunchalar lug‘ati. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2021.

2. Kaxarova M., Suvanov I. Ijtimoiy-ma’naviy jarayonlarga oid: 111 savolga 111 javob. – T.: Ma’naviyat, 2022..

3. Xo‘janov B.A. Geomafkuraviy o‘zgarishlar sharoitida milliy-etnik munosabatlar (Markaziy Osiyo mintaqasi misolida) mavzusidagi siyosiy fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim qilingan dissertatsiya ishi. – Toshkent, 2002.

4. To‘rayev B., Ubaydullaev U. Jamiyatda barqarorlik va tinchlikni ta’minlashda yangicha tafakkur // “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda”. – T.: O‘zbekiston. 2000.

5. Shermuxamedov K.A., Karimov J.A. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. – T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2018.

6. Mavrulov A. To‘raev Sh. Ma’naviyat targ‘ibotchisining yordamchi kitobi. – T.: Muharir. 2017.

7. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari. – T.: “O‘zbekiston”, 2000.

8. Пастухов В.Б. Новыс русские: появление идеологии. “Полис”. №3. 1993. сс.

9. Маркс К. и Энгельс Ф. Сочинение. Т.3.

10. Плешаков К. Геоидеологическая парадигма. «Международная жизнь». 1995 №3-4.

ZJV5401

DUNYONING MAFKURAVIY MANZARASI. TARG‘IBOTNING YANGI TEXNOLOGIYALARI

Umirova Shahnoza Abdumo‘minovna,
“Madaniyat va ma’rifat” telekanali muharriri,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada dunyo mafkurasini yoritishda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni, jumladan, mobil jurnalistika orqali targ‘ibotning yangi yo‘nalishlarini shakllantirish va bu jarayonning ta’siri haqida so‘z yuritiladi. Maqolada dastlab mafkura shakllanishida zamonaviy texnologiyalardan biri mobil telefonlardan samarali foydalanish, uni ta’qiqlovchi vosita emas, balki targ‘ibotning yangi bir usuli sifatida qo‘llash haqida to‘xtalib o‘tiladi.

Tayanch so‘zlar: mafkura, texnologiya, mobil jurnalistika, smartfon, ilova, yangi targ‘ibot usullari.

“Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan” [1].

Darhaqiqat, mafkura olg‘a surilayotgan nazariya yohud g‘oyalar majmui. Insoniyat dunyoqarashning negizini, ishonch-e’tiqodining asosini ham g‘oya tashkil etadi. Millat va davlatlarning manfaati hamda maqsadlari ham jamiyatda hukm surayotgan g‘oyalarda namoyon bo‘ladi. Millat, xalqning milliy g‘oyasini - mazkur mamlakat oldiga qo‘ygan maqsadi, qanday jamiyat qurmoqchiligi va bunga qaysi yo‘l bilan erishmoqchi bo‘layotgani haqidagi g‘oyalar majmui tashkil etadi. Bugungi kunda jahonda ilragi surilayotgan mafkuradan atrofga befarq bo‘lmaganlarning aksariyati yaxshi tanish. Bevosita bu tani-

shuv faqatgina ommaviy axborot vositalari orqaligina emas, balki ijtimoiy tarmoqlar, saytlar, jahon media olamida tarqatilayotgan ma'lumotlar orqali ham shakllanib bormoqda. Bir so'z bilan aytganda dunyo mafkurasining yoritilishida zamonaviy texnika va texnologiyalarning o'rni katta. Misol uchun, Turkiyada joriy yil sodir bo'lgan tabiiy ofat – zilzila va uning oqibatlari haqida har soniyada dunyo ahli boxabar bo'lib turdi [2]. Tarqatilgan aksariyat ma'lumotlar esa qo'l telefonlari ya'ni mobil telefonlarda tasvirga olingan tasvirlar bilan to'ldirilib borildi [3].

Biz birgina qo'limizdagi mobil telefonlar orqali bugun olamda nimalar bo'layotgani, bir necha soniya oldin jahon sahnasida sodir bo'lgan muhim voqea haqida xabar topishimiz mumkin. Albatta bunda texnika va texnologiyalarning ahamiyati muhim. Global olamdagi ma'lumotlar internet tarmog'iga ulangan qo'l telefonimizda soniyalar ichida siz-u bizni xabardor qilish imkoniyatiga ega. Bugun dunyoni axborot boshqarmoqda. Dunyo hamjamiyatida axborotga allaqachon mahsulot sifatida qaraladi va keng auditoriyalarga taqdim etib kelinadi. E'tibor qaratiladigan jihati mazkur axborotlarning to'g'ri va noto'g'riligini sintez ya'ni tahlil qila olish, kimning yoki qaysi jamiyatning, qatlamning mafkurasi ilgari surilayotganligini to'g'ri anglay bilish madaniyatini shakllantirish zarur.

Istalgan inson internet olamida o'zining yoki jamiyati manfaatlari, mafkurasiga tayanib axborot uzatish imkoniyatiga ega. Ayniqsa, tobora takomillashib borayotgan smartfonlarda (ma'nosi: Smartfon inglizcha smartphone "aqlli telefon" uyali telefon hamda qo'l kompyuteri vazifasini bajaruvchi moslamadir [4]) axborotni qayta ishlash va uzatish kabi bir qator imkoniyatlar mavjud. Qo'lida mobil telefoni bor inson o'z-o'zidan "jurnalist"ga aylanib qolmoqda. Ya'ni axborotni hodisa joyida tasvirga olayapti, shaxsiy fikrlari va yoki olingan ma'lumotlariga tayanib boshqalarga ya'ni global olamga internet orqali ulashmoqda. Mobil jurnalistika imkoniyatlarini yaxshi bilgan mahoratli jurnalistlar ham olamdagi voqea-hodisalarga befarq emas. Tadqiqotlarga ko'ra, mobil jurnalistikaning 3 ta turi farqlanadi. Bular:

1. Havaskor mobil jurnalistika.
2. Fuqarolik jurnalistikasi. (Xalq jurnalistikasi)
3. Professional mobil jurnalistika.

Birinchi turga mansub kishilar men, siz, u... qo‘lida smartfoni bor istalgan kishi bo‘lishi mumkin. Ya’ni voqeaga guvoh bo‘ladi, tasvirga oladi, telefonida montaj qiladi va uzatadi. Fuqarolik jurnalistikasi esa biroz farqli ya’ni mazkur yo‘nalishda faoliyat olib boruvchi shaxs ko‘proq xalq manfaatlariga tayanadi, uzatayotgan axborotida shaxsiy va xalq fikrini ham mujassam etgan holda ma’lumot tarqatadi. Professional mobil jurnalistikada soha mutaxassisining o‘zi mobil imkoniyatlarni yaxshi o‘zlashtirgan holda voqea joyiga boradi, tarqatayotgan axborotini bevosita mobil telefoni yordamida tayyorlaydi, tahlil qiladi va saytga joylashtiradi. Bugungi kunda internet olamida mazkur 3 turga mansub istalgan ma’lumotlarni ko‘rish, o‘qish va hatto munosabat bilidirish imkoniyati ham mavjud. E’tirof etish kerakki, bu turlarning birinchi va ikkinchisi mamlakatimizda rivojlanmoqda. Uchinchi tur esa ko‘proq boshqa davlatlarda rivojlangan bo‘lib, xatto butun boshli telekanal efirga uzatadigan mahsulotlar mobil telefonlar yordamida tayyorlanadi. Jumladan, fikrimiz isboti sifatida Hindistonning NDTV va Qatarning va Al Jazeera telekanallarini e’tirof etish mumkin [5].

Dunyodagi birinchi onlayn media monitoring kompaniyasi olib borgan tadqiqotlarga ko‘ra [6], O‘zbekistonda 31,84 million aholi ya’ni 91,2% jamiyat a’zosida mobil telefon mavjud. Mazkur raqamlardan 26,74 million ya’ni telefon foydalanuvchilarning 76,6%i bevosita mobil telefonlari orqali internet tarmog‘ini kuzatib borishi mumkin. Bu nima degani? Bu mamlakatimiz aholisining

26 milliondan ortig‘i bevosita qo‘l telefoni orqali dunyoda tarqatilayotgan axborotni kuzatib borish imkoniyatiga ega deganidir. Shu bilan birga axborot orqali “tashqaridan” kirib kelayotgan mafkuraning ta’sir doirasidagi “suyekti” hamdir.

Mobil jurnalistikada bir-biridan farqli bo‘lgan turlarni yaxshi bilganlar uzatilayotgan axborotning ham yolg‘on yoki

rostligi, xolis yoki qaysidir mafkuraga xizmat qilishini anglashi mumkin. Ammo, mamlakat aholisining asosiy qismi axborotni bevosita shaxsiy mobil telefonlari orqali olayotganini inobatga oladigan bo‘lsak, demak bu yo‘nalishda axborot olish va undan foydalanish madaniyatini kuchaytirishga ehtiyoj seziladi. To‘g‘ri, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat telekanallar, bosma nashrlar ham aholini axborot olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirmoqda. Ammo bugun qo‘lida smartfoni bor inson televizor yoki radiodan ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlardan o‘zi xohlagan axborotni qidirib topib o‘qimoqda. Demak, mazkur yo‘nalishda ya’ni mobil jurnalistika bo‘yicha soha mutaxassislarini o‘qitish, ularga jahon tajribasi asosida seminar-treninglar o‘tkazish, kerak bo‘lsa xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish maqsadida o‘quv jarayonlarini tashkil qilish zarur. Chunki, har qanday mafkura ongdagi bo‘shliqqa kiradi va o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Milliy qadriyatlarimiz, an’analarimiz aks etgan milliy mafkurani esa shu yurtning, shu mamlakatning jurnalistlari mobil jurnalistika imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda taqdim etish imkoniyati bor. Bunda albatta, millat mafkurasi, mamlakat sha’ni, yoshlarning fikrlari kabi birlamchi omillar hamisha e’tiborda bo‘ladi.

Mobil jurnalistika orqali esa targ‘ibotning yangi yo‘nalishlarini ishlab chiqish, shakllantirish zarur. Qo‘lida smartfoni bor mamlakat o‘g‘il-qizlari milliy mafkuramiz, milliy madaniyatimiz asosida tarqatilgan axborotlarni o‘qib ulg‘ayadi, tahlil qiladi, kerak bo‘lsa o‘z munosabatini ham bildira oladi. Zamonaviy texnologiyalardan biri mobil telefonlardan samarali foydalanish, uni ta’qiqlovchi vosita emas, balki targ‘ibotning yangi bir usuli sifatida qo‘llash albatta o‘z samarasini beradi. Buning uchun yangi ilovalarning yaratilishi, yangi dasturlarning taqdim etilishi ko‘zda tutiladi. Masalan, o‘zbek milliy taomlari, o‘zbek milliy maqollari va hikmatli so‘zlari singari ilovalar mavjud. Ammo afsuski, davriy nashrlarning ilovalari yoki bo‘lmasa kitoblar haqidagi dasturlar yo‘q hisobi. Demak jamiyatning axborotga bo‘lgan ehtiyojini inobatga olib, mobil

dasturlar, yangi axborot tarqatadigan milliy ilovalarni kashf etish oldimizda turgan vazifalardan biridir.

«Dunyoni urush domiga tortadigan narsa nima? Axborot. Avvaliga diplomatlar va siyosatchilar jurnalistlarga yolg‘on ma’lumot beradilar. Keyin shu ma’lumotlarni gazetalarda o‘qib, o‘zlari ham ularga ishonadilar»,- degan edi avstriyalik olim Karl Kraus [7].

Mobil jurnalistika imkoniyatlaridan to‘g‘ri va xolis foydalana olgan jurnalistlargina soxta axborotlar tarqalishini oldini olishi mumkin. Aholini axborot bilan tezkor tanishtirib, birlamchi manba sifatida voqea joyida feykka asoslangan ma’lumotlarni tahlillar asosida chipakka chiqaradi. Bunda jurnalistning kasb prinsiplari, funksiyasi va ijodiy potensiali muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar natijasi o‘laroq ma’naviy va ma’rifiy idealogiyani ilgari surishda nafaqat ommaviy axborot vositalari balki mobil jurnalistlar ham o‘z hissasini qo‘shishga intilmoqda. So‘z erkinligi bugun mamlakatdagi rivojlanishlarga befarq bo‘lmagan har bir insonning o‘z shaxsiy fikrini bildirishi, jamoatchilik faolligini qo‘llab-quvvatlashi kabi jarayonlarda ko‘zga tashlanmoqda. Jumladan, o‘z shaxsiy blogini yuritayotgan blogerlar va mobil jurnalistika imkoniyatlaridan samarali foydalanishga erishayotgan jurnalistlar ham xalq bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni yo‘lga qo‘yish, xalqchil siyosatni anglash hamda to‘g‘ri tashviq etish bo‘yicha dadil qadamlar tashlashga urinishmoqda. Ana shunday ijtimoiy tarmoqlardan birini salkam 500 ming kuzatuvchi kuzatib boradi [8]. Mamlakatdagi siyosiy jarayonlarga befarq bo‘lmagan ko‘p ming sonli kuzatuvchilarga ega mazkur ijtimoiy tarmoqda yoshlar faol. Ayniqsa oliy ta’lim muassasalari qabul jarayonlariga oid ishonchli xabarlarni, ma’lumotlarni olish istagida bo‘lgan ijtimoiy tarmoq kuzatuvchilari soni yilning may-sentyabr oylarida yanada ko‘payadi. Demak iste’molchi hamisha to‘g‘ri, xolis va ishonchli manba qidiradi. Axborotga bo‘lgan ehtiyojini ham ana shunday manbalardan olishga intiladi.

“Tashqaridan” kelayotgan har qanday axborotni ham ishonchli deb bo‘ladimi? Tarqatilayotgan bu kabi ma’lumotlar qaysidir jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi yoki milliy mafkuramizga ta’sir qilmasligi haqida kim kafolat bera oladi? Bu kabi savollar bugungi kun jurnalistini o‘ylantirishi tabiiy. Shuning uchun ham zamonaviy texnologiyalarni yaxshi o‘zlashtira olgan jurnalistlarga bo‘lgan talab tobora oshib bormoqda. Shu bilan birga axborot olish madaniyatiga bo‘lgan ehtiyojni ham e’tibordan chetda qoldirmaslik zarur. Bu madaniyatni esa yurtimiz ertasi bo‘lgan farzandlarimizga, kelajak avlodga oiladanoq singdirib borishimiz lozim. Kerak bo‘lsa maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ham yoshlarni axborot olish va u bilan ishlashga oid bilim, ko‘nikmalarni berish foydadan xoli bo‘lmaydi. Inson umri davomida axborotga ehtiyoj sezadi. Ota-bobolarimiz choyxonalarda gurung qilishgan. Mahalladagi yangiliklarni, qaysi oilada nimaga ehtiyoj zarurligini ana shu gurunglarda kengashgan. Ahillikda va hamjihatlikda hasharlar tashkil etishgan. Ya’ni axborot olishga bo‘lgan ehtiyojni shu yo‘l bilan qondirishgan va uni milliyligimizga xos ravishda qo‘llay olishgan.

Bugun axborot tarqatuvchi maydon yanada kengaymoqda va takomillashib bormoqda. Axborotlarni “sarasini saraga, puchagini puchakka” chiqarish uchun, kerakli, zarur deb bilgan axborotlarni olishimiz uchun albatta milliy mafkura asosida shakllangan mustaqil fikr va madaniyat talab etiladi. Zero, ommaviy axborot vositalari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri ham aholiga xolis axborot taqdim etish, axborotning tezkorligi va haqqoniyligi kabi sifatlardan tashqari mamlakatning ma’naviy-ma’rifiy g‘oyasini to‘g‘ri talqin qila olish zarur. Bunda ayniqsa mobil jurnalistika imkoniyatlaridan samarali foydalangan jurnalistlar ommaviy axborot vositalari uchun manba sifatida ko‘makchi o‘laroq namoyon bo‘lmoqda. Garchi mobil jurnalistika yosh, endi rivojlanayotgan jurnalistik tur sifatida namoyon bo‘lsada, ammo u bilan bog‘liq yutuqlarni chuqurroq tahlil etish va kamchiliklarni

bartaraf etishda ma’lum tamoyillar ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Mobil jurnalistika mamlakatimizda ommaviy axborot vositalariga ko‘makchi o‘laroq namoyon bo‘lmoqda. Shuningdek, u keng qamrovliligi va unversallashuvi jihatidan ham farqlanadi. Har bir ommaviy axborot vositasi paydo bo‘lganida undan oldingisining davriyligi “tugaydi” degan qarash hamisha mavjud bo‘lgan. Ammo, bugun ko‘rib turibmizki, ularning barchasi “yashab kelmoqda”. To‘g‘ri ularga raqobatbardosh o‘laroq paydo bo‘lgan mobil jurnalistika rivoji mamlakatimizda yakdil o‘zi mustaqil rivojlanibgina qolmay matbuot, radio va telejurnalistlarga yaqindan yordam berayapti. Shu nuqtayi-nazar ham mobil jurnalistikani medianing yangi bosqichi, yangi yo‘nalishi sifatida e’tirof etishimiz mumkin.

Jahonda mobil jurnalistika ancha taraqqiy etgan va bugungi kunda ham rivojlanishdan to‘xtagani yo‘q. Bu jarayon texnika va texnologiyalar uyg‘unligida bosqichma – bosqich taraqqiyot sari yuz tutayotganini sir emas. Yurtimizda ham mobil jurnalistika yordamida zamon bilan mushtarak ravishda rivojlanishga intilayotgan boshqa ommaviy axborot vositalarining “yashovchanligini” oshirish, aholining ma’naviy-ma’rifiy savodxonligiga xizmat qilish kabi masalalarda mobil jurnalistika imkoniyatlarini to‘laqonli o‘rganish talab etiladi. Bu jarayonda jamoatchilik fikri, shaxsiy munosabat, daxldorlik hissi va befarq bo‘lmaslik kabi sifatlarning ham namoyon bo‘lishi aholini axborotga bo‘lgan ehtiyojini tezkor va sifatli “qondirishga” xizmat qiladi.

Axborotni nafaqat xolis balki tezkorlik bilan tayyorlash va uzatish, fikr almashish, o‘z navbatida informatsiyani o‘qigan o‘quvchining ham izoh qoldirishi ya’ni tarqatilayotgan ma’lumotlarga munosabat bildirishi ham mumkin. Aslida fikr munosabatda yanada shakllanadi. Axborot asrida mobil jurnalistika ham mustaqil rivojlanishi, mahsulotlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri kuzatuvchiga taqdim etilishi juda muhim. Mazkur jarayonda milliy mafkura va tamoyillar faoliyatining birlam-

chi omili sifatida qaralgan mobil jurnalistlarning ham omma, xalq olididagi mas'uliyati va majburiyati yanada zalvarli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. https://www.gazeta.uz
2. https://www.meltwater.com/en
3. https://www.trtizle.com/canli/tv/trt-1
4. „How AJ+ reported from Baltimore using only mobile phones" (en). Poynter. Qaraldi: 3-sentabr 2018-yil
5. https://m.kun.uz/news
6. https://t.me/xushnudbek
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Smartfon
8. https://cyberleninka.ru/article/n/mafkura

ZJV5401
ZJV5401
ZJV5401

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MARKAZIY OSIYODA SIYOSIY AXBOROT MAKONINING G‘OYAVIY-MAFKURAVIY RIVOJLANISH MAQSADLARI

Hasanov Zuhriddin Avaz o‘g‘li,
RMMM yetakchi mutaxassisi Mustaqil tatqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada siyosiy axborot makoni, uning shakillanish jarayonlari va Markaziy Osiyo xalqlari mafkurasiga ta’siri haqida qisqacha bayon qilinadi. Shuningdek, maqolada Globallashuv davrida siyosiy axborot makonida umummilliy manfatlarni keng tarqatish lozimligi haqida fikr yuritiladi.

Tayanch so‘zlar: globallashuv, axborot makoni, siyosiy axborot, yumshoq kuch axborot immuneteti;

Globallashuv insoniyatning yangi taraqqiyot bosqichiga chiqishi bilan sodir bo‘layotgan bir jarayon bo‘lsa, uni harakatlantiruvchi mexanizmi axborot, informatsion-media makon bo‘lib bormoqda. XXI asr axborot asri sifatida kundalik turmush tarzimizga axborot manbalarining ta’sirini kuchaytirib yubordi. Xalqaro internet va ijtimoiy tarmoqlarning shiddatli rivojlanishi Axborotga bo‘lgan talabning bugungi kundagi ko‘rinishini o‘zida aks ettirmoqda.

Globallashuv jarayonining salbiy va ijobiy tomonlari borligi singari axborotlashgan jamiyatning ham o‘ziga yarasha yutuq va kamchiliklari ko‘zga tashlanadi. Bugungi global qarama-qarshiliklarning asosiy vositasi axborot, urush markazi esa axborot makoni bo‘lib qoldi. Axborotlashgan jamiyat tushunchasi, uning kamchilik va yutuqlarini tahlil etish axborot sohasini aynan siyosiy axborot makonining rivojlanish tendentsiyalarini va uning g‘oyaviy-mafkuraviy ta’sirini tadqiq etish vazifasi bugunning dolzarb muammolaridan biri sifatida kun tartibiga qo‘yilmoqda.

ZJV5401

Siyosiy axborot – ma'lum bir jamiyat ongiga ta'sir o'tkaza oladigan yagona tizimga ega axborot ko'rinishi hisoblanadi. Siyosiy axborot jamiyatda siyosiy ongni shakllanishiga sabab bo'ladi hamda shu jamiyatni xohish-istaklarini o'zida jam qiladi. Ayni paytda axborot vositalaridan jamiyat boshqaruvida "Yumshoq kuch" sifatida foydalanish uni jamiyat ongiga katta ta'sir bera olishi bilan izohlanadi.

Boshqaruv to'g'risidagi, shu jumladan insoniyatni, jamiyatini boshqarish haqidagi, fan dastlab siyosiy va huquqiy nazariyalar sifatida rivojlanib, o'tgan asrning o'rtalarida kutilmaganda matematiklarning mulkiga ham aylandi. Bunga axborotning raqamli ko'rinishga o'tganligi va unga texnik ta'sirning ortganligi sabab bo'ldi deyish mumkin.

Ammo, axborotning shakllanib, tarmoqlanib borishi uning jamiyat ongiga g'oyaviy ta'sir ko'rsatishi murakkab tarixiy jarayonlar silsilasida sodir bo'lgan. Axborotning tarixiy shakllanishi haqidagi qarashlar har xil. Ayrim tadqiqotchilar axborot almashinuvi insoniyat ongida so'zlashuv qobiliyati paydo bo'lgandan boshlangan deb hisoblashsa ayrimlar eng qadimgi yozma manbalar axborot almashinuvining dastlabki ko'rinishi bo'lgan deb hisoblashadi. Birinchi qarash asosida insoniyat so'zlashuv orqali bir biriga ma'lumotlar yetkazgan, fikr va tushunchalari haqida xabar bergan. Ikkinchi qarash asosida esa eng qadimgi yozma manbalar, dastlabki gazetalar tarixiy axborot almashinuvi manbasi bo'lgan. Ammo qadimiy siyosiy axborot manbalari Markaziy Osiyo mintaqasida kam saqlanib qolgan uning zamonaviy shakllari esa unchalik uzoq tarixga borib taqalmaydi.

Umuman Markaziy Osiyo mintaqasida Birinchi Renessans davridan to XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan davr mobaynida yuzlab tarixiy-siyosiy asarlar mintaqadagi siyosiy-tarixiy jarayonlar haqida ma'lumotlar bergan bo'lsa-da ular asosan diniy mafkuraviy asosga ega bo'lgan.

Ammo, Markaziy Osiyoda siyosiy axborot ommaga ta'sir ko'rsatishning alohida vositasiga aylanishi XIX asr oxiri XX asr boshlariga to'g'ri keldi. Bundan sal oldinroq Rossiya im-

periyasi hududiga g‘arbdan demokratik g‘oyalarning kirib kelishi ta’sirida bu jarayon sodir bo‘ldi deyish mumkin. Aynan shu davrda Markaziy Osiyoda dastlabki ommaviy axborot vositalari – bosma nashrlar paydo bo‘la boshladi. Jadidlar sa’y-harakatlari bilan oddiy xalq vakillari ham siyosiy ma’lumotlarga ega bo‘la boshladilar. Biroq siyosiy bilimlarning yagona g‘oya sifatida shakllanishi ro‘y bermadi, siyosiy qarashlarda yakdillik va birdamlik yetishmadi. Yangi shakllanayotgan siyosiy bilimlar, g‘oyalar kommunistik bosim ostida yo‘q qilindi. Markaziy Osiyoda Sovet hokimiyati o‘rnatilgandan so‘ng Turkiston o‘lkasida targ‘ibot ishlarini jadallashtirish maqsadida yangi-yangi bosma nashrlar radio eshittirishlar tashkil etiladi. Bu davrla insonlar ongiga Marksizm-leninizm tamoyillariga asoslangan kommunistik mafkura singdirildi. Axborot makoni tuzumga “xiyonat” qilgan har qanday insonni xalq dushmani tamg‘asi ostida qattiq qoralaydigan targ‘ibot mexanizmiga aylantirildi. Yevropada siyosiy bilimlar yetuk bosqichga ko‘tarilib xilma-xil alohida siyosiy maktablar, institutlar shakllangan bir paytda Sovet hukumati butun ittifoq hududida boshqa siyosiy maslak egalari qatag‘onini avj oldirdi. Natijada ittifoqning barcha hududlarida bo‘lgani kabi Markaziy Osiyodagi millatlari ham siyosiy plyuralizmdan mosuvo bo‘lib qoldilar. Totalitar boshqaruv siyosiy institutlar va jamoat boshqaruvi organlarini yo‘q qilib tashladi. Bu esa boshqaruvdagi tabiiy jarayonlar va siyosiy xilma-xillik yo‘qolishiga, siyosiy turg‘unlik vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Natijada o‘tgan asrning 90-yillarida tarixdagi eng qudratli davlatlardan biri bo‘lgan Sovet ittifoqi quladi, yangi postsovet davlatlari esa xalqaro va ichki siyosatda o‘z o‘rnini topishga qiynalishdi. Sovet ittifoqining qulashi Markaziy Osiyodagi globallashuv va integratsiya jarayonlariga ta’sir ko‘rsatdi.

Mustaqillikka erishgan postsovet davlatlarida dastlabki politologiya yo‘nalishlari faoliyati yo‘lga qo‘yilishi. Siyosiy institutlar va jamoat birlashmalarining omma ongiga ta’sirining ortishi o‘ziga xos siyosiy muhitni yaratib bormoqda. Albatta bu jarayonda ichki va tashqi axborot oqimlari katta rol o‘ynamoqda.

ZJV5401

Masalan, Mintaqadagi ommaviy axborot vositalarida mintaqa millatlari tarixining birligi, milliy yaqinlik, o‘zaro hamkorlikning ijtimoiy-siyosiy zaruriyatlari, yaxshi qo‘shnichilik, millatlararo bag‘rikenglik tushunchalarini singdirishga qaratilgan targ‘ibot vositalari orqali integratsiya masalalarini faol qo‘llab quvvatlamoqda. Boshqa tomondan ayrim tashqi va xorijiy manbalar bilan moliyalashtiriladigan ommaviy axborot vositalari mintaqadagi millatchilik va etnik ustunlik g‘oyalari targ‘ib qilish orqali aholining siyosiy ongiga o‘ziga xos ta’sir o‘tkazmoqda.

Ayniqsa, 2022 yil yanvardagi Qozog‘istondagi voqealar, fevralda boshlangan Ukraina Rossiya qarama-qarshiligi, mart oyidagi Turkmanistondagi saylovlar, iyun oyida sodir bo‘lgan Qoraqalpog‘istondagi harakatlari mintaqa davlatlarining rasmiy ommaviy axborot vositalari hamda xususiy tarmoq va bloglar tomonidan keng yoritilganligi Markaziy Osiyo jamiyatida siyosiy g‘oyaviy plyuralizmning qaror topa borayotganligini ko‘rsatmoqda.

Ammo siyosiy jarayonlarni bir tomonlama sharhlab, yot g‘oya va manfaatlarga xizmat qiladigan, qaysidir maslak va siyosiy qarashga ko‘r-ko‘rona itoat etadigan bir qism rasmiy va norasmiy, ichki va tashqi “OAV” vakillari tomonidan bunday nozik davlatchilik masalalariga yuzaki baho berish, axborotni soxtalashtirish va yolg‘on ma’lumotlar tarqatish xollari xam uchramoqda.

Axborotni bu tarzda havfli qurolga aylantirish orqali millat ongiga ta’sir qilish, bugungi davlatchilik an’analariga katta zarar yetkazmoqda. Shu o‘rinda aytib o‘tish lozimki, Davlat axborot havfsizligi masalalari doirasiga axborot qabul qiluvchilarning immunetetini ko‘tarish, y’ani aholida axborot immunetetini hosil qilish vazifasini ham kiritish lozim. Bundan tashqari davlat globallashuv va axborot makonining o‘zgaruvchan sharoitlariga mos ravishda huquqiy-institutsional bazani moslashtirib borishi, axborot texnalogiyalarini rivojlantirish choralarini ko‘rishi lozim.

ZJV5401

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, axborotlashgan jamiyatda yagona umummilliy g‘oyasiga asoslangan demokratik qadriyatlarni, siyosiy bilimlarni jamiyat ongiga yetkazib berishda OAVlarnig o‘rni beqiyosdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 27 iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan tabrigida “Bir haqiqatni hech qachon esdan chiqarmasligimiz kerak: barchamiz demokratiya deb atalgan buyuk maktabning o‘quvchilarimiz. Bu borada hali ko‘p narsalarni o‘rganishimiz zarur. Farzandlarimizni ayni shu ruhda tarbiyalashda jurnalistika sohasi vakillari o‘zlarining boy tajribasi bilan alohida namuna ko‘rsatadilar, deb ishonaman” degan so‘zlar orqali yoshlarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda OAVlarning o‘rni haqida alohida ta’kidlab o‘tganligi fikr mulohazalarimizning yorqin dalilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mualliflar jamoasi/ Davlat boshqaruvida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari umumiy tushunchalar. Jahon tajribasi. O‘zbekistonda joriy etish istiqbollari/ Toshkent 2005.
2. gazeta.uz/oz/2022/06/27/congratulation/

ZJV5401

III SHO‘BA: IJTIMOIY DAVLAT TUSHUNCHASINING ILMIY, MA’NAVIY VA HUQUQIY ASOSLARI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI – IJTIMOIY DAVLAT: FUQARONING SHAXSIY HUQUQ VA ERKINLIKLARI: HOLAT VA ISTIQBOLLAR

ZJV5401

(Mamlakatning 1992-yilgi va 2023-yilgi Konstitutsiyasi rakursida)

Mirodil Baratov,
O‘zFA Davlat va huquq instituti bo‘lim boshlig‘i,
yuridik fanlar doktori, professor

Annotatsiya: Maqola ijtimoiy davlatning mohiyati, unda fuqaroning shaxsiy huquq va erkinliklari, maqomi, mavjud holat va istiqbollariga bag‘ishlanib, uning ayrim jihatlari mamlakatning 1992 yilgi va 2023 yilgi Konstitutsiyasi rakursida yoritilgan.

ZJV5401

Tayanch so‘zlar: davlat, ijtimoiy, shaxsiy huquq va erkinliklar, normativ-huquqiy hujjatlar, Konstitutsiya, yashash huquqi, uy-joyli bo‘lish huquqi, fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqi.

“... inson qadri, insonni e’zozlash – e’tiborimizdagi eng asosiy masala”, binobarin, “inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida belgilanishi lozim”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan

Avvalboshdan shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1992-yilgi tahririda “ijtimoiy davlat” tushunchasi mavjud emasdi. Odatda, til qoidalarida

keladigan so‘z turkumlari fonida ushbu sifatlash Konstitutsiyalarning dastlabki bo‘lim, dastlabki bobida keladi. Agar Konstitutsiyani davlatning tashrif qog‘ozi, desak, davlatning maqomi (statusi) bilan bog‘liq qoida ushbu tashrif qog‘ozida bosh harflarda yoziladigan qoida sanaladi. 1992-yilgi Konstitutsiyaning 1-moddasini o‘qiymiz: O‘zbekiston – suveren demokratik respublika. 2023-yilgi, ya’ni amaldagi tahrirda: O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

Mamlakatimiz Prezidenti 2022-yil 20-iyunda konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda Konstitutsiyamizda “O‘zbekiston – ijtimoiy davlat” degan tamoyilni mustahkamlash g‘oyasini ilgari surgan edi. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida bu g‘oya yanada mustahkamlanib, ijtimoiy davlatni barpo etishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi. Davlatimiz rahbari bu xususda to‘xtalib, “Biz Yangi O‘zbekistonni “ijtimoiy davlat” tamoyili asosida qurishni maqsad qilyapmiz. Buni Konstitutsiyada mustahkamlashimiz kerak”, deya ta’kidladi.

Manbalarda qayd etilganidek, “ijtimoiy davlat” tushunchasi “Inson qadri” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ushbu g‘oyaning tub negizida, avvalo, inson qadrini ulug‘lash, aholiga xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassam. Ijtimoiy davlat har bir inson uchun ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari asosida munosib yashash sharoitini yaratib beradi. U ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish bo‘yicha samarali siyosat olib boradigan davlat modelidir.

Shuningdek, ijtimoiy davlat muhtojlarga uy-joy, yashash uchun zarur bo‘lgan iste’mol tovarlarining eng kam miqdori belgilab qo‘yilishini nazarda tutadi. Shaxs va uning oilasi munosib hayot kechirishi uchun yetadigan ish haqi, bandlikni ta’minlash, xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, kambag‘allikni qisqartirishni talab qiladi.

Biz ushbu chiqishda bitta qirra: shaxsiy huquq va erkinliklar xususida, uning qiyosi holati xususida so‘z yuritmoqchimiz.

ZJV5401

Xo‘sh, shaxsiy huquq va erkinliklar nima? Tan olish kerak, bu haqda adabiyotlarda ko‘p va xo‘p yozilgan. Tadqiqotlar amalga oshirilgan. G‘oyalar – mafkuraga, mafkuralar – huquq normalariga ko‘chib o‘tgan. Shaxsiy huquqlar obrazli tashbehlardan holi so‘zlar bilan aytganda, shaxsga tegishli bo‘lgan, undan begonalashtirilmaydigan, odatda, pul bilan bilan o‘lchanmaydigan huquqlardir.

Konstitutsiya har bir suveren, dunyoviy davlatning oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan Asosiy qonuni. Unda o‘z aksini topgan normalar, aytish mumkin bo‘lsa, kelgusida u yoki bu ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda va mustahkamlashda qabul qilinajak qonunlar uchun aniqlovchi, belgilovchi, katalizator vazifasini bajaradi. Shu ma’noda olganda, til nuqtayi nazaridan ham Konstitutsiya normalari ixcham, tushunarli, masala (munosabat)ning yadrosini yoritadi. Joriy qonunchilik esa, uni to‘ldiradi.

Konstitutsiya – normativ-huquqiy hujjatdir. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida” 20.04.2021 yildagi O‘RQ–682-son Qonuniga ko‘ra, normativ-huquqiy hujjat qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko‘rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o‘zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir .

Normativ-huquqiy hujjat umummajburiy xulq-atvor qoidalarini o‘z ichiga oladi. Quyidagi xos xususiyatlari bilan ijtimoiy normalarning boshqa turlaridan ajralib turadi:

- ular vakolatli davlat organlari tomonidan yaratilib, barcha uchun umummajburiy qoidalarni o‘rnatadi, o‘zgartiradi yoki bekor qiladi;

- ularda huquqiy qoidaning mazmuni, ya’ni huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va burchlari bayon etiladi;

- normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan qoidalar bajarilmagan yoki buzilgan taqdirda muayyan huquqiy oqibatlar kelib chiqadi, qoida bo‘yicha, davlatning majburlov kuchi ishga solinadi.

Normativ-huquqiy hujjatlar, ularni qabul qiladigan davlat organlari va mansabdor shaxslarning mavqeyiga, hujjatlar-

ning yuridik kuchi (ierarxiyasi)ga ko‘ra, quyidagi turkumlarga bo‘linadi:

1) qonunlar;

2) Prezident farmonlari, qaror va farmoyishlari;

3) hukumat qarorlari va farmoyishlari;

4) vazirliklar, davlat qo‘mitalari va boshqaruv organlarining o‘z vakolatlari doirasida qabul qiladigan normativ hujjatlari;

5) mahalliy vakillik va ijroiya organlarining o‘z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlari va farmoyishlari.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari qonun hujjatlaridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari qonunosti hujjatlaridir.

Ushbu qoidalar O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinishi bilan bog‘liq munosabatlarga dalil edi (Konstitutsiya 1992 yilgi tahririning 15-moddasi, 2023 yilgi tahririning 15-moddasi).

Asosiy masalaga o‘tamiz: shaxsiy huquq va erkinliklar. Shaxsiy huquq va erkinliklar 1992 yilgi Konstitutsiyada 8 ta moddada (24–31-mm.) o‘z aksini topgan edi , 2023 yilgi tahrirda 11 ta moddada (25–35-mm.) o‘z aksini topdi . Bir qarashda moddalarning soni bilinmasdek ko‘rinadi: 3 ta ko‘payyapti. Biroq bu o‘rinda so‘z uning mazmun-mohiyati, xalqchilligi va moddiylashuvi haqida ketmoqda.

Xususan, amaldagi tahrirning 24-moddasida birlamchi, fundamental shaxsiy huquq aniqlovchi sifatida “Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir” tarzidagi darak gap shaklida ketgandi. Keyinchalik insonning ushbu huquqini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida to‘ldirildi.

Biroq Asosiy qonunda ushbu huquqni kim yoki nima qo‘riqlashi, muhofaza qilishi ochiq qolgandi. Yangilangan tahrirda esa, “Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir. O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi taqiqlanadi” tarzida bayon etildi. Ya’ni, shaklan va mazmunan ijtimoiy-siyosiy tuzilma hisoblangan davlat fuqaroning ushbu ajralmas huquqini qonun bilan muhofaza qilishini e’lon qilmoqda. Xalq hokimiyatchiligining asosini tashkil etuvchi – “xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir” degan umumiy prinsip, bu o‘rinda ommaviylikdan – xususiylikka o‘tmoqda. Xalqdan vakolat olgan, legitim organ – parlament chiqaradigan qonunlari orqali xalqning erk-irodasini oliy darajada – Konstitutsiyaviy darajada ifoda etmoqda. Binobarin, mamlakatda o‘lim jazosini taqiqlamoqda.

Favqulodda muhimi, Konstitututsiyaning yangi tahririga ko‘ra, shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lishi mumkin emas (28-modda). Tan olish kerak, uzoq yillar mazkur normaning mavjud emasligi fuqarolarimizga mislsiz moddiy va ma’naviy azob-uqubatlar yetkazdi, ajdodi tufayli avlodlar munosib ish o‘rniga ega bo‘lolmay qoldi. Tasavvur qilaylik: katta avlod qachonlardir Jinoyat kodeksining 104-moddasi (Qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish) yoinki 266-moddasi (Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish) bilan jazoga tortilgan, hukm o‘qilgan. Jazo o‘tab chiqilgan, hattoki sudlanganlik muddati ham o‘tgan. Rezyumedagi ushbu “holat” bamisoli induktorning qizil chirog‘i kabi Yuridik fakltetni yoki Diplomatiya universitetini bitirgan avlodlar uchun taqiq bo‘lib keldi. Yoki aksinchasi ham: kichiklarning sudlanganligi, o‘z navbatida, kattalarga ham taqiq bo‘lib keldi. Mana, chegaradan ortiq adolatsizlik! Mana, mantiqsizlik!

Xalq prizmasi, keng jamoatchilik tafakkuri mahsuli bo‘lgan ushbu Konstitutsiya tom ma’noda xalq Konstitutsiyasiga aylanmoqda. Yaqin-yaqingacha rivojlangan davlatlar amaliyotida uchraydigan, huquqni qo‘llovchilar uchun ham, inson uc-

hun ham adolatli qaror qabul qilinmoqda: Hech kim rasmiy e'lon qilinmagan qonun asosida hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mol-mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum etilishi mumkin emas. Hech kim ayni bir jinoyat uchun takroran hukm qilinishi mumkin emas (30-modda). Birinchidan, muayyan huquqbuzarlik sodir bo'ldi, binobarin, shaxs hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mol-mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum etilishi lozim, deyish uchun (agar shunday deb atash mumkin bo'lsa) rasman e'lon qilingan moddiy-huquqiy asos bo'lishi shart! Ikkinchidan, bitta huquqbuzarlik uchun – bir marta jazo beriladi! Ushbu qoidalar xalqaro huquq normalari – Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948 y.); Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966 y.); Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966 y.); Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga ilova qilingan birinchi Fakultativ protokol (1966 y.) va o'lim jazosini bekor qilishga qaratilgan ikkinchi Fakultativ protokol (1989 y.)larga to'la mos keladi.

Yangilangan tahrirga ko'ra, "har kim uy-joyli bo'lish huquqiga ega" (47-modda). Bu – moddiy huquq, iqtisodiy huquq. Biroq u muhofaza etilmasa, qo'riqlanmasa, qonun tilida aytganda, daxlsiz bo'lmasa, har turli tajovuzlarga dosh berolmaydi. Shu ma'noda yangi tahrir "har kim uy-joy daxlsizligi huquqiga ega ekanini, hech kim uy-joyga unda yashovchi shaxslarning xohishiga qarshi kirishi mumkin emasligini, uy-joyga kirishga, shuningdek unda olib qo'yishni va ko'zdan kechirishni o'tkazishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda yo'l qo'yilishi, uy-joyda tintuv o'tkazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yilishi"ni mustahkamlamoqda. Bu – tahsinga sazovor.

Shaxsiy huquq va erkinliklar bobida yangilangan Konstitutsiya tahririning yangiliklaridan biri – Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega ekani, har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega ekani. To'g'ri, shu mazmundagi norma 1992-yilgi tahrirning 29-moddasida ham uchraydi. Biroq sifat va mazmun o'zgarishlariga ko'ra, endilikda fuqaroning ushbu huquqi amalga oshirilishiga davlat ko'mak-

lashmoqda: davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi. Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo‘lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo‘lgan doirada yo‘l qo‘yiladi.

Ha, demokratiyaning bosh talabiga ko‘ra, mening huquqlarimning chegarasi – ikkinchi bir shaxsning huquqlari chegarasigacha dir. Inson o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, jamiyat hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi shart. Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash maqsadida zarur bo‘lgan doirada cheklanishi mumkin (yangi tahrir, 21-modda).

Mamlakatda yashovchi turli millat, elat va etnik guruhlar, jamiyatda mavjud uch sektor – davlat organlari, biznes tuzilmalari va fuqarolik jamiyati institutlariaro tinchlik, xavfsizlik va jipslikni ta’minlashdan iborat bo‘lgan davlatning bosh ijtimoiy vazifasi tobora teranlashmoqda, maqsadli va manzilli bo‘lmoqda. Bu – ijtiomiy davlatning xos belgisidir. Bu muqaddimada qayd etilganidek, O‘zbekiston xalqi: o‘zining muxtor vakillari siymosida O‘zbekiston Respublikasining mazkur Konstitutsiyasini qabul qiladi emas, balki “Biz, O‘zbekistonning yagona xalqi,.. inson huquq va va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e’lon qilib, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g‘oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib,.. ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e’lon qilamiz”, deganidir. Ha, bu – xalq Konstitutsiya deganidir. Bu – ijtimoiy davlat Konstitutsiyasi va in’ikosidir.

ALISHER NAVOIY TASAVVUFIY QARASHLARIDA IJTIMOIY DAVLAT XUSUSIYATLARINING NAMOYON BO‘LISHI

Pardayeva Marhabo Davlatovna,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Buxoro viloyati bo‘limi rahbari, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya: Maqolada tasavvuf ta’limoti tizimida Alisher Navoiyning ijtimoiy himoya xususidagi qarashlarining o‘rni tahlil qilingan. Navoiy ijodida naqshbandiya ta’limoti tamoyillari asosiy o‘rin egallashiga e’tibor qaratilgan. Bag‘rikenglik, o‘zaro yordam g‘oyalarining mazmun mohiyati ochib berilgan. Mutafakkirning tasavvufiy qarashlarida ijtimoiy himoyaning ahamiyati beqiyosligi asarlaridan misollar keltirilgan holda tadqiq qilingan.

Tayanch so‘zlar: Tasavvuf, naqshbandiya, inson, tamoyil, ma’naviy meros, e’tiqod.

Ma’lumki, yangilanayotgan O‘zbekiston Konstitutsiyasining 1-moddasida “O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Davlatning «O‘zbekiston Respublikasi» va «O‘zbekiston» degan nomlari bir ma’noni anglatadi” deb ta’riflangan. Ijtimoiy davlatning o‘ziga xos funksiyalari mavjud. Uning mazmunini aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash; korrupsiya, qashshoqlik va ishsizlikka qarshi kurash; yosh tadbirkorlarga yordam; aholi bandligi va daromadlari doimiy o‘sishini ta’minlash; ehtiyojmand shaxslarni moddiy qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish; jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish tashkil qiladi.

Ta’kidlash joizki, ijtimoiy davlatning o‘ziga xos xususiyatlari milliy ma’naviy qadriyatlarimizda juda katta o‘rin egal-

laydi. SHarq mutafakkirlari o‘zlarining ta’limotlarida aynan shu masalaga e’tibor qaratganlar.

Ma’lumki, Navoiy asarlari, shu jumladan dostonlari o‘zining dunyoviy mazmunga, gumanistik va umuminsoniy qadriyatlarga boyligi bilan ajralib turadi. Ayni vaqtda ularda tasavvufning, xususan naqshbandiylik tariqatining ta’siri ham yaqqol ko‘rinib turadi. Navoiyshunos Sultonmurod Olimning fikriga ko‘ra, “Naqshbandiya tariqati g‘oyalari Alisher Navoiy asarlari mag‘z-mag‘ziga shu qadar singib ketganki, ularni faqat shoir ochiq-oshkor tilga olgan joylardangina qidirish yaramaydi. Ulug‘ bobokalonimiz she’riyatida tasavvufning talay jihatlari talqinu tahlil etilgan, sharhlangan, targ‘ib qilingan, mazkur falsafaning u yoki bu masalasiga shoirning bevosita munosabati shoyon bo‘lgan” [3].

SHoirning aqidasiga ko‘ra, odam o‘zgalarga yaxshilik qilishi, xayrli ishlar va solih amallarni bajarishi, savob ishlar bilan mashg‘ul bo‘lishi uchun insonning o‘zi sabrli, kanoatli, nafsini jilovlagan bo‘lishi, boshqacha qilib aytganda, o‘zi tarbiyalangan bo‘lishi kerak. SHundagina u boshqalarning qadriga etadigan, ularga ko‘proq g‘amxo‘rlik qiladigan bo‘ladi. Inson, avvalo, sabrli, qanoatli, o‘zining halol mehnati ila topgan bir burda noni bilan kifoyalanishi kerakligini aytadi. Bu erda Navoiyning insonparvarlik qarashlarining muhim xususiyati shundan iboratki, ul zot sabr-qanoat, mehr-muruvvat, saxovat, xayr-sadaqa, muhtojlarga yordam kabi insoniy xislatlar haqida gapirganda ularni o‘zaro bog‘liqlikda ko‘ra, ular mazmunan bir-birini to‘ldiruvchi, bir-biriga yaqin tushunchalar sifatida qaraladi.

Tasavvuf ta’limotida inson va uning mohiyati, yashashdan maqsadi, dunyoviy va ilohiy, zohiriy va botiniy masalalar, komil inson va kamolotga etishish yo‘llari, unga etgan ulug‘ zotlar – avliyo va anbiyolar, mashoyix va pirlarning ibratli hayoti, inson faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab masalalar to‘g‘risida fikr yuritiladi. Darhaqiqat, tasavvuf va turli tariqat vakillari asrlar mobaynida zamonlar, shart-sharoitlar o‘zgarishiga qaramay inson va uning ma’naviy kamoloti uchun

qayg‘urdilar, boylikka ruju qo‘yish, insoniylikni pastga urish, nafsga berilish, odamiylikka zid hatti-harakatlar, axloqsizlik va tuban illatlarga qarshi kurashdilar. Ular inson kamolotiga halaqit beruvchi eng yomon nuqson nafsni tiya olmaslik deb bildilar. “Tasavvufchilar, - deb ta’kidlaydi professor N.Komilov, - inson tabiatidagi salbiy kuchlarni umumiy nom bilan “nafs” yoki “nafsi ammora” deb ataydilar va unga qarshi urush e’lon qildilar. Mol dunyo to‘plash, nafs ehtiyojiga qarab yurish, hirsu havas qat’iy qoralanadi, insonni (demakki insoniyatni ham) noqislik va falokatlardan qutqarishning birdanbir yo‘li – nafsni o‘ldirib, qanoat bilan halol yashash, ruh – irodani chiniqtira borib, insonda insoniylikni, ya’ni ilohiylikni tantana ettirish zarur, deb targ‘ib qilindi” [5].

Navoiy fikricha, nabiylar, avliyo va oriflar, yirik karomat sohiblari komil insonlardir. Alisher Navoiy nabiylardan so‘ng valiylarni komil inson deb talqin qilgan. Valiylar tasavvufning to‘rtta bosqichi: shariat, tariqat, ma’rifat bosqichlarini bosib o‘tib, Alloh vasliga, ya’ni Haqiqatga noil bo‘lgan zotlardir. Valiylar valoyat va karomat sohiblari bo‘lib, “xaloyiqg‘a irshod va ahdo (hidoyat) qilurlar, muborak zotlarining barakoti bu millat boshidin kam bo‘lmag‘ay” [1, 15]. Valiylar bajarishi va amal qilishi lozim bo‘lgan ba’zi a’mol va af’ollar quyidagilar: tavba, halol luqma, muayyan kasb bilan mashg‘ul bo‘lish, shariat qoidalariga rioya qilish, tariqat odobiga amal qilish, zakot to‘lash, xokisorlik, o‘zgalardan o‘zini kam deb hisoblash, shirinsuxan va rahmdil, saxiy, mard va muloyim bo‘lish, rizolik bilan kun o‘tkazish, sabrli va chidamli, sadoqatli bo‘lish, riyozat chekishdan qo‘rqmaslik, favqulodda, g‘ayritabiiy a’mollar, karomatlar ko‘rsatish [1,23].

Navoiyning zikr qilishicha, mashoyixlardan Xoja Abdulloh Ansoriy etikdo‘z, SHayx Muhammad Sakkok pichoqchi, SHayx Abu-Hafz Haddod temirchi, SHayx Abulabbos Omiliy qassob, SHayx Abulhasan muzayyin, SHayx Banno binokor, Hazrati Bahovuddin esa matolarga naqsh soluvchi bo‘lganlar hamda dehqonchilik bilan shug‘ullanganlar. Mashoyix va avliyolar mehnat qilib topgan daro¬madlari evaziga hayot kechirgan-

lar, ortib qolganini esa beva-bechora va muhtojlarga tarqatganlar, xayr-ehson qilganlar.

Avliyolarning tariqat odobi borasida Navoiy bunday deydi: “Ul adabdurki, yaxshi va yamong‘a va ulug‘ va kichikka bajo keltururlar, andoqki, barcha xaloyiqdin o‘zlarin kichik va kamroq tutarlar va barchag‘a xizmat huzurida bo‘lurlar. Hattoki o‘z farzandlarig‘a va xodim va mamluklarig‘aki, har necha alardin beqoidalig‘ ko‘rsalar, xushunat bila alarg‘a so‘z demaslar, balki nasihatni yumshog‘ va chuchuk til bila qilurlar, hattoki o‘g‘rig‘acha” [1,18].

Xususan, hazrat Navoiy Xoja YUsuf Hamadoniy haqida fikr yuritib, uning “Imom, olim va orifi rabboniy”, “karomat” sohibi ekanligini aytadi [1,252]. Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniyni esa “tariqat hujjati” deb atab, ul zotning axloqini shunday ta’riflaydi: “Hamisha sidq va safo yo‘lida va mustafo shar’i va sunnati mutobaatida va bid’at va havo muxolifatida qadam urubturlar va pok ravishlarin ag‘yor ko‘zidin yashurubturlar” [1,253].

Alisher Navoiy fikriga ko‘ra, agar podshoh davlatni boshqarishda adolat yo‘lidan borsa mamlakat obod, xalqning turmushi yaxshi, farovonlik, mo‘l-ko‘lchilik bo‘ladi. Mutafakkir fikricha, adolatli podshohning mamlakat va xaloyiq uchun foydasining chek-chegarasi yo‘q. Bunday podshoh, eng avvalo, xulq-odobda faqiru miskinlarga, aholining turli toifalariga birdek yumshoq va yaxshi muomalada bo‘ladi. Navoiy fikriga ko‘ra, “Adolatli podshoh haqdan xaloyiqqa ko‘rsatilgan marhamatdir, mamlakat uchun tinchlik va farovonlik sababidir. Quyosh bilan bahor yomg‘iridek qora tuproqdan gullar ochar va mamlakat kishilari boshiga oltin bilan durlar sochar” [2,12].

Hazrat Navoiy shaxsan o‘zining daromadidan katta obodonchilik ishlarini olib bordi. U Xuroson shaharlarida 300 dan ortiq rabotlar, xonaqohlar, hammom va hovuzlar, madrasa va masjidlar barpo qilgan, ariq va kanallar qazdirgan. Xondamirning xabar berishicha, ul zot karami va saxovatpeshaligining cheki-chegarasi yo‘q edi: “Nafaqat uzoq va yaqindagi

ZJV5401

fozillar, shoirlar, faqir va zaiflar va etimlarning ko‘nglini in’om va to‘nlar bilan ko‘tarardi, balki hamma tabaqadagi kishilar (xos va avom)ni o‘zining poyonsiz in’om va ehson emishidan uzluksiz bahramand qilardi” [2,74].

“Qanoat, – deydi shoir, – tortinchoqlikning negizidir, sharaf va izzatning tantanasidir. Qanoatli qashshoq – badavlatdir va shoh bilan gadoyga ishi tushmaydir. Ta’maxo‘rlikning dalili: davlatli tama’gir – xor va pastkashdir. Kimki tama’ bilan ola bilan, lekin olmas, tama’sizlik saxiylikdan hech qolishmas. Bu xildagi saxiylar yaxshilik qiluvchi, tama’girlar esa, jirkanchlikda sudraluvchidir” [2, 228]. Ta’kidlash joizki, ta’magirlikka qarshi kurashish ijtimoiy davlatning eng asosiy xususiyatlaridan biridir.

Sabr ham huddi qanoat singari insonning muhim fazilati hisoblanadi. Nafsga berilishni faqat sabr orqali engish mumkin. Aksincha, besabrlik insonni yomon yo‘llarga boshlaydi, sabr butun balolarni daf etadi. “Sabr – achchiqdir, ammo foyda beruvchi qattiqdir, ammo zararni daf’ etuvchi. Qaysi bir tilagiga erisholmagan sabr etagiga qo‘l urdi-yu, tilagiga erisholmadi? Qaysi bir giriftor sabrning bandiga ko‘ngil qo‘ydi-yu, kushodlik topmadi? Sabr shodliklar kalitidir va bandlar ochqichidir” [2, 204]. SHunday qilib, Navoiy sabr-qanoatni odamiylikning ko‘rki, bezagi deb hisoblaydi. Qanoat tushunchasi, uning dunyoqarashida, o‘z mehnati bilan kun ko‘rib, birovlarning mol-mulkiga ko‘z olaytirmaslikni, ta’magirlik va ochko‘zlik qilmaslikni, o‘zining topganiga qanoat qilib yashashni, iloji bo‘lsa boshqalarga yordam berishni anglatadi. SHu nuqtayi nazardan qaraganda, Hazrat Navoiyning saxiylik to‘g‘risidagi fikrlari uning sabr-qanoat to‘g‘risidagi qarashlariga hamohang keladi.

Shuni aytish o‘rinliki, hazrat Navoiy asarlarida tasavvuf falsafasidagi axloq, xulq-odob qoidalari, insonparvarlik va odamiylik, nafsni tiyish, adolat va ma’rifat, tabiat va insonni sevish, ularni e’zozlash, ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi g‘oyalardan unumli foydalandi. Bu g‘oyalar mutafakkirning g‘azal va ruboiylari, dostonlari, nasriy asarlariga singib ketgan.

I.Haqqul ta’kidlaganidek, “Navoiyning tasavvufga yondashuvi va bu ta’limotdan ko‘zda tutgan maqsadi – shaxs va millat taqdiriga mas’ul, yurt taraqqiyotiga suv va havoday zarur tushunchalarning istiqboli uchun yonib kurashgan, haqiqatni faqat tanish emas, haqiqatni sevish salohiyatini ham ko‘zlagan mutafakkir san’atkorning yondashuv va maqsadi edi” [4].

Hazrat Navoiyning hayotda qilgan ishlari, davlat arbobi sifatidagi faoliyati, xalqning turmushini yaxshilashga, og‘ir qismatini engillashtirishga qaratilgan savobli va xayrli ishlari, nasriy va nazmiy asarlarining mazmun-mohiyati umuminsoniy va gumanistik ruh bilan sug‘orilgan. Manbalar tahlil asosida shunday xulosa qilish mumkinki, tasavvuf ta’limoti Navoiy ijtimoiy-falsafiy, ma’naviy dunyoqarashiga juda yuksak darajada ta’sir ko‘rsatgan. Bu ta’sirni juda ko‘p asarlarida namoyon qilib, hozir ko‘p urg‘u berilayotgan ijtimoiy davlatning asosiy xususiyatlarini tahlil qilishda juda katta ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Navoiy A. Nasoyim ul-muhabbat. MAT.T.17. –Toshkent: Fan, 2001. – 518 b.

2.Navoiy A. Mahbub ul-qulub. MAT.T.14. – Toshkent: Fan, 1998. – 302 b.

3.Sultonmurod Olim. Naqshband va Navoiy. –Toshkent: O‘qituvchi, 1996.

4.Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. –Toshkent: Fan, 2007. –B. 27.

5.Komilov N. Tasavvuf. 1-kitob. –Toshkent: YOzuvchi, 1996. –B. 153.

6.Pardayeva, M. D. (2021). O‘tmishi sharafli, kelajagi buyuk xalq ma’naviyatida hazrat Alisher Navoiy qarashlarining o‘rni.

ILMIY ADABIYOTLARDA “IJTIMOIY DAVLAT” TUSHUNCHASI VA UNING XUSUSIYATLARI

Ernazarov Dilmurod Zuxriddinovich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti
Siyosiy fanlar doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada “ijtimoiy davlat” tushunchasi tahlil qilinadi. Keng tarixiy-siyosiy kontekstda ushbu kontseptsiyaning shakllanishi va uning amaliy ahamiyatini yanda oshirilish bo‘yicha fikrlar taqdim etiladi, uning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi.

Tayanch so‘zlar: ijtimoiy davlat, huquqiy davlat, farovonlik, konsepsiya, adolat.

“Ijtimoiy davlat” (Nimischa - Sozialstaat) tushunchasi nemis sotsiologi va iqtisodchisi Lorens fon Shtayn (1815-1990) tomonidan ilgari surilgan. Uning Ijtimoiy davlat nazariyasi Gegel falsafasi ta’sirida shakllangan. U davlatning vazifalari tenglik va erkinlikni tiklash, quyi, kam ta’minlangan tabaqalarni boylar va kuchlilar darajasiga ko‘tarishdan iborat, davlat o‘zining barcha a’zolarining iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini amalga oshirishi kerak, deb hisoblagan. Biri ikkinchisining rivojlanishining sharti va natijasidir. Ijtimoiy davlatning liberal konsepsiyasi nemis faylasufi Fridrix Nauman tomonidan ishlab chiqilgan. Liberallar davlatni nafaqat mulkiy va ijtimoiy tartibni himoya qilishga, balki keng qamrovli ijtimoiy islohotlar orqali quyi tabaqalarni moddiy va ma’naviy yuksaltirishga chaqirdilar.

Ijtimoiy davlatning eng radikal nazariy kontseptsiyasi 1879-yilda nemis iqtisodchisi, sotsializm tarafdori Adolf Vagner tomonidan ilgari surilgan. Uning kontseptsiyasi burjua davlatini «madaniy va umumiy farovon holatiga» aylantirishni, temir yo‘llarni, kon korxonalarini, banklar va sug‘urta

ZJV5401

tashkilotlarini milliylashtirishni, sinfiy kurash g‘oyalariga qarshi ishchilar sinfini davlatga birlashtirishni nazarda tutgan edi. 1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi ijtimoiy davlat nazariyasi va amaliyotini yanada rivojlantirish uchun kuchli turtki bo‘ldi. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng AQSH Prezidenti Franklin Ruzveltning “Yangi kelishuvi” ishchilarning jamoaviy bitim tuzish va kasaba uyushmalarini tashkil etish huquqini qonunchilikda mustahkamlash, ishsizlikka qarshi kurash bo‘yicha umummilliy chora-tadbirlar ko‘rish, fermerlarga yordam berish, ijtimoiy ta’minot yo‘lidagi qat’iy qadamlarni amalga oshirish, bolalar mehnatini yo‘q qilish kabilarni o‘z ichiga olgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyin ijtimoiy davlat rivojlanishining yangi bosqichi - uning konstitutsiyaviy prinsipga aylanishi, davlatning alohida turi sifatida talqin qilinishi boshlandi. Ijtimoiy davlat konstitutsiyaviy prinsip sifatida Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Italiya, keyinroq esa XX asrni 70-yillarda Ispaniya, Portugaliya, Shvetsiya konstitutsiyalarida mustahkamlangan.

Ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy davlatning 100 dan ortiq ta’riflari mavjud. Ulardan biri jamiyat manfaatlariga xizmat qiladigan, bozor iqtisodiyoti rivojlanishining ijtimoiy yo‘nalishini ta’minlaydigan, ijtimoiy adolat, ijtimoiy ta’minot, ijtimoiy xizmat, tamoyillarini amalga oshirishga qaratilgan faol, kuchli va samarali ijtimoiy siyosat olib boruvchi demokratik davlat ekanligi ta’kidlangan. Ijtimoiy sheriklik va jamiyat a’zolarining ijtimoiy hamjihatligi, aholi turmush darajasini oshirish yoki barqaror ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish va amalga oshirish, zamonaviy sog‘liqni saqlash, ta’lim va ijtimoiy ta’minot tizimlarini yaratish, aholining kam ta’minlangan qatlamlarini qo‘llabquvvatlash, ijtimoiy nizolarning oldini olish va hal qilish va boshqalar kiradi.

Amerikalik sotsiolog I.Vollershteyn ijtimoiy davlati kontseptsiyasining paydo bo‘lishini hukmron sinflar va sanoat ishchilari hamda boshqa ijtimoiy mehnat guruhlari o‘rtasida

murosa topish yo‘li deb tushuntiradi. U ikkalasiga ham sabr-toqat, murosa va islohotchilikni targ‘ib qiladi [1].

Bu, uning fikricha, ijtimoiy va tibbiy sug‘urta, pensiyalar, ishsizlik nafaqalari, oilaviy va boshqa nafaqalar, shuningdek, ijtimoiy va tibbiy sug‘urta kabi ijtimoiy davlat kontseptsiyasi va ushbu kontseptsiyani amalga oshirish mexanizmlarining asosiy ma’nosini anglatadi.

Ba’zi mualliflarning fikricha, ijtimoiy davlatning konstitutsiyaviy va huquqiy maqomiga taalluqli xususiyat (tamoyil) bo‘lib, u inson va fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy huquqlari va erkinliklarining konstitutsiyaviy kafolatlarini hamda davlatning tegishli majburiyatlarini ta’minlaydi” [2].

Boshqa olimlar ijtimoiy deganda, hukumat o‘z fuqarolari yoki aholining ayrim qatlamlari, ayniqsa, sog‘liqni saqlash dasturi, davlat uy-joylari, turli sug‘urta turlari tufayli moliyaviy yoki ijtimoiy ehtiyojlarga ega bo‘lganlarning ijtimoiy va iqtisodiy xavfsizligi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga oladigan davlat sifatida tushunadilar. [3].

Rossiyalik tadqiqotchi O.V.Rodionovaning fikricha, “ijtimoiy davlati keng va samarali ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga yo‘naltirilgan davlat bo‘lib, u inson va fuqaro huquqlarining realligida, qulay va samarali tizimlar mavjudligida mujassamlanishi kerak. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot, kam ta’minlanganlarni qo‘llab-quvvatlash bularning hammasi bir tizimning alohida elementlaridir“. [4].

Tadqiqotchi A.A.Tiksovskiyning fikricha: “Ijtimoiy davlat” tushunchasi ijtimoiy qadriyatlar ustuvorligi, birinchi navbatda insonning munosib hayot kechirish huquqiga asoslangan davlat va farovon hayotni tashkil etishning asosiy shaklidir [5].

Bizning fikrimizcha, ijtimoiy davlat insonning munosib hayotga bo‘lgan huquqini ro‘yobga chiqarish maqsadini o‘z oldiga qo‘yib, ijtimoiy vazifani bajaradigan davlatdir.

Biroq, rus mualliflarining fikriga ko‘ra, ijtimoiy davlatning ishonchli belgilari bo‘lgan yuqoridagi barcha vositalar va mexanizmlar (ijtimoiy sug‘urta, pensiya va boshqalar) printsipial jihatdan doimo rivojlanib borishi kerak.

Ilmiy adabiyotlarda anglo-sakson sotsiologik va ijtimoiy-siyosiy tafakkuri doirasida (Buyuk Britaniya, AQSH) “Ijtimoiy davlat” atamasi ishlatiladi. U rus tiliga ham «благоденствие», «благосостояние» deb tarjima qilingan. Yevropa-kontinental hududda (Germaniya, Shvetsiya) “Ijtimoiy davlat” atamasi qo‘llaniladi. Ba’zi rus tadqiqotchilari demokratik siyosiy tuzum va ijtimoiy davlat o‘rtasidagi munosabatlarni ta’kidlash uchun ijtimoiy davlatning erkinlik, birdamlik, adolat (qonuniylik), demokratiya, ijtimoiy g‘amxo‘rlik, ijtimoiy tinchlik va boshqa xususiyatlarini ajratib ko‘rsatishadi. Ushbu yondashuv demokratiyani faqat neoliberal ta’limot doirasida tushunish bilan belgilab qo‘yilgan “Ijtimoiy davlat”ning siyosiy, sof tashqi shakliga urg‘u berishga asoslanadi.

Agar biz ushbu nuqtayi nazarlarning butun majmuini ko‘rib chiqsak, gumanitar fanlar orasida shakllangan «Ijtimoiy davlat» tushunchasining umumiy ma’nosi quyidagi, eng mashhur tezislarga to‘g‘ri keladi.

1. Ijtimoiy davlat moddiy va ma’naviy boyliklarni adolatli taqsimlashga imkon beradigan, ijtimoiy me’yorlar orqali fuqarolarning boshlang‘ich imkoniyatlarini tenglashtiradigan, ular uchun qulay ijtimoiy-madaniy muhit yaratadigan jamiyat turini barpo etadi.

2. Ijtimoiy davlat, ayniqsa, daromad darajasi, uy-joy, sog‘liqni saqlash, ta’lim va madaniyatning qulayligi kabi sohalarda insonga munosib turmush darajasining kafolati bo‘lib chiqadi.

3. Aholi, millat va elatlarning barcha ijtimoiy guruhlarini “fuqarolik jamiyati” tushunchasida birlashgan yagona yaxlitlikka birlashtirish ijtimoiy davlatning mohiyatidir.

4. Ijtimoiy davlatning asosiy maqsadi - uning ma’lum bir qismi emas, balki butun jamiyat manfaatlarini himoya qilish va ta’minlashni ta’minlashdir.

5. Ijtimoiy davlat fuqarolarning ijtimoiy himoyalanmagan toifalari: bolalar, nogironlar, qariyalar uchun g‘amxo‘rlikni kuchaytirmoqda. Davlat nafaqalari, pensiyalar, subsidiyalarni yanada kuchaytiradi.

ZJV5401

6. Ijtimoiy davlati inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini oliy qadriyat sifatida e'tirof etish asosida quriladi.

7. Hech bir mamlakat aholisining bir qismi bozor munosabatlarida qatnashmaydi. Ularning manfaatlaridan kelib chiqib, davlat bozor munosabatlariga aralashib, eng badavlat kishilarning daromadlarini kam badavlat fuqarolarga qayta taqsimlaydi va mablag'larni yo'naltiradi.

8. Huquqiy davlatgina ijtimoiy bo'lishi mumkin; qonun ustuvorligi mexanizmlari allaqachon yetarli darajada rivojlangan.

9. Ijtimoiy davlat - bu jamiyat, har bir fuqaro taqdiri uchun real javobgarlikni ta'minlash uchun yetarli resurslar bilan mumkin bo'lgan davlat taraqqiyotining yangi bosqichidir.

Ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy davlat turlari haqida ma'lumotlar berilgan: Ijtimoiy davlatining turlari:

- birlamchi ijtimoiy holati;
- ijtimoiy xizmatlar holati;
- ijtimoiy ta'minot holati;
- ijtimoiy davlat.

Ijtimoiy davlati rivojlanishini davrlashtirish:

- birinchi bosqich (XIX- asrning 70-yillaridan 20-asrning 30-yillarigacha) - sotsialistik;
- ikkinchi bosqich (XX - asrning 30-yillaridan 40-yillarning oxirigacha) - huquqiy ijtimoiy davlat;
- uchinchi bosqich (1940-yillarning oxiridan 1960-yillargacha) - ijtimoiy xizmatlar holati;
- to'rtinchi bosqich (50-yillarning oxiridan 80-yillarning o'rtalarigacha) - ijtimoiy davlat;
- beshinchi bosqich (80-yillarning boshidan 90-yillarning o'rtalarigacha) - ijtimoiy davlatning halokati va inqirozi;
- oltinchi bosqich (90-yillarning o'rtalaridan hozirgi kungacha) - liberal Ijtimoiy davlati.

Demak, ijtimoiy davlat belgilari orasida turli olimlar turli belgilarni ajratadilar. Inson va fuqaroning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklarini ta'minlash va himoya qilish, davlat

va shaxsning o‘zaro javobgarligi, jamiyatda ijtimoiy totuvlik va barqarorlikni ta’minlash, ijtimoiy yo‘naltirilgan siyosatni amalga oshirish va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Валлерстайн И. Анализ мировых систем и ситуация в современном мире. СПб.: Университетская книга, 2000.
2. Василевич С.Г. Понятие и сущность социального государства // Вестник экономической безопасности. - №3 – 2017 – С. 95-99.
3. Крупович Л. В. Современные проблемы реализации принципа социального государства // Восточно-Европейский Научный Журнал. Юридические науки. № 50 – 2019 – С. 52-56.
4. Родионова О.В. Проблемы развития теории и практики современного социального государства. LEX RUSSICA. № 1 (Том XCVIII). 2015. С. 28-41.
5. Тиксовский А. А. Государство правовое и социальное // Вопросы философии. 2017. № 6. – С. 141.

ZJV5401

IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHITNI SOG'LOMLASHTIRISHDA VOYAGA YETMAGANLARDA XULQ OG'ISHINI OLDINI OLISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Rajabova Feruza Pozilovna,
Qarshi davlat universiteti Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Maqolada ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda eng muhim jihatlari biri sifatida voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishining oldini olishning ijtimoiy-psixologik jihatlari ilmiy jihatdan tahlil etildi. Voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishining oldini olishda eng avvalo, xulq og'ishining ijtimoiy-psixologik, individual - psixologik, sotsiologik, hududiy va kriminologik xususiyatlarini hisobga olish talab etilishi asoslanib berildi.

Tayanch so'zlar: xulq og'ishi, voyaga yetmaganlar, ijtimoiy-psixologik, individual-psixologik, sotsiologik, hududiy va kriminologik xususiyatlari, g'ayriaxloqiy holatlar.

Ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda eng muhim jihatlari-dan biri bu, voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishining oldini olish tadbirlari, eng avvalo, xulq og'ishini keltirib chiqaradigan shart-sharoit va sabablarni bartaraf qilishni taqozo qiladi.

Haqiqatdan ham o'sib kelayotgan yosh avlodning ertangi kunimiz, kelajagimizning davomchilari ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, voyaga yetmaganlar o'rtasidagi turli xil g'ayriaxloqiy holatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish har qachongidan ham dolzarb muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishining oldini olishda eng avvalo, xulq

og‘ishining ijtimoiy-psixologik, individual-psixologik, sotsiologik, hududiy va kriminologik xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi. Shuningdek, voyaga yetmaganlar o‘rtasida yuzaga kelayotgan xulq og‘ishining oldini olish ishlari umumiy va maxsus - individual tarzda olib borilishi bilan xarakterlanadi.

Umumiy ijtimoiy chora-tadbirlarga jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, siyosiy barqarorlikni ta’minlash, xalqning turmush tarzi va mikromuhit munosabatlarini yaxshilash, fuqarolarning madaniy-ma’naviy va ma’rifiy salohiyatini o‘stirish va boshqalar kiradi.

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida xulq og‘ishining oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar tabiatini tushunish uchun avvalo ularning boshlanish davrini, uning obyektini hamda xulq og‘ishiga ega bo‘lgan voyaga yetmaganlar shaxsiga qanday ta’sir ko‘rsatish xususiyatini bilib olish talab etiladi. Ushbu masalani yechish uchun tabiiy ravishda shaxsning motivatsion sohasiga aloqador bo‘lgan ma’lumotlardan foydalanishga to‘g‘ri keladi.

Xulq og‘ishi motivatsiyasi qaysidir ma’noda shaxsning umumiy yo‘nalishi va vaziyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqasiga bog‘liq bo‘ladi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, xulq og‘ishi motivatsiyasi g‘ayriaxloqiy muhitga nisbatan shaxsning ijobiy yo‘nalishi va fazilatlarining susayishiga, faol xulq og‘ishi muhitiga nisbatan shaxsning ijobiy yo‘nalishi va fazilatlari beqarorligiga, xulq og‘ishi muhiti bilan shaxsning salbiy xislatlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikka hamda shaxsning xulq og‘ishi muhiti yo‘nalishi kabi juda ko‘plab boshqa omillar asosida namoyon bo‘ladi.

Xulq og‘ishiga ega bo‘lgan voyaga yetmaganlar shaxsining umumiy yo‘nalishi tahlili xulq og‘ishining oldini olishga qaratilgan profilaktik chora–tadbirlarni nafaqat xulq og‘ishi va salbiy illatlarga ega bo‘lgan voyaga yetmaganlar o‘rtasida olib borish, balki sog‘lom xulqli voyaga yetmaganlar o‘rtasida ham ularni olib borish zaruriyatini ko‘rsatadi.

Shuningdek, o‘smir shaxsidagi emotsional beqarorlik, qo‘zg‘aluvchanlik xususiyatlariga barham berishga eris-

hish hamda ularda o‘z xatti-harakatlarini boshqara olish va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish situatsion vaziyatlarga bog‘liq bo‘lgan voyaga yetmaganlarda xulq og‘ishining oldini olishda muhim hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida xulq og‘ishining oldini olish tadbirlari samaradorligi va ularning ta’sirchanligi eng avvalo o‘smir shaxsidagi ijobiy fazilatlar, ijtimoiy foydali ehtiyoj va qiziqishlarning shakllanganligiga bog‘liq bo‘ladi. Shu ma’noda o‘quv-tarbiyaviy tadbirlar va mashg‘ulotlar voyaga yetmaganlarda xulq og‘ishini oldini olishning dastlabki profilaktikasi sifatida xizmat qilishi kerak.

Xulq og‘ishiga ega bo‘lgan voyaga yetmaganlar o‘rtasida olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligi ularda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida o‘zaro yaqinlik va sog‘lom munosabatni o‘rnatishga bog‘liqdir. Shuning uchun o‘qituvchining tarbiyasi og‘ir o‘smirga nisbatan berayotgan e’tiborini, ularni o‘zlariga yaqin olayotganligini va yordam bermoqchi bo‘layotganligini o‘smir har doim his qilib turishi muhim hisoblanadi. Bu o‘smir xulqini sog‘lomlashtirishga qo‘yilgan ilk qadam bo‘lib hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlarda xulq og‘ishining oldini olishning muhim shartlaridan yana biri tarbiyaviy jarayonda maktab va oila hamkorligini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish hisoblanadi. Afsuski, bu masalani bugungi kunda talab darajasida deya olmaymiz. Shuning uchun ham bunday paytlarda ko‘pincha oila va maktab hamkorligi, ota-ona va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro aloqaning uzilishi tufayli voyaga yetmaganlar tarbiyasini, ayniqsa ular xulqidagi o‘zgarishlarni tuzatish ancha qiyin kechadi.

Ma’lumki, oila muhitining sog‘lomligi, ota-onalar va oilaning boshqa a’zolarining madaniy, aqliy, ma’naviy va axloqiy jihatdan barkamolligi oilada tarbiya olayotgan bolaga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onalarning ilmu ma’rifatliligi voyaga yetmaganlarda g‘ayriqonuniy xulqning oldini olishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Ushbu holatni tadqiqotmizdan olingan natijalar ham ko‘rsatib turibdi. Bunga ko‘ra xulq og‘i-

ZJV5401

shiga ega bo‘lgan voyaga yetmaganlar ota-onalarining ma’lumotlilik va o‘qimishlilik darajasi xulq og‘ishiga ega bo‘lmagan voyaga yetmaganlar ota-onalarinikiga qaraganda ancha past darajani ko‘rsatadi.

Ushbu holatdan kelib chiqib aytish mumkinki, ota-onalarning ma’rifatlilik darajasi, aqliy, ma’naviy va axloqiy barkamolligi voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi xulq og‘ishining kelib chiqishini oldini olishda muhim hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlarda xulq og‘ishi muammosi hozirgi zamon uchun dolzarb bo‘lib, turli soha mutaxassislari – psixologlar, psixiatrlar, sotsiologlar va o‘qituvchilar e’tiborini jalb etmoqda. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, dunyoda ro‘y berayotgan axborot almashinuvi va rivojlanish o‘smirlarning ijtimoiylashuvi jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Voyaga yetmaganlarda mustaqillikka intilishning shakllanishi, ma’lum rollarni anglash va qabul qilish, kattalar tomonidan belgilangan chegaralar va qoidalarni o‘rnatilishi ijtimoiy meyorlarni buzilishiga olib keladi. Shu munosabat bilan salbiy, ijtimoiy xulqqa qarshi xatti-harakat, odatda, voyaga yetmaganlarning o‘z mustaqilligini himoya qilishga imkon beradigan ijtimoiy maqbul reaksiyalar majmuini o‘z ichiga olgan, ulg‘ayish jarayonining zaruriy tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Mamlakatimizda voyaga yetmaganlar orasida xulq og‘ishini oldini olish mexanizmlarini yaratish va ularni hayotda qo‘llash, bu sohadagi ishlarni takomillashtirish muhim hisoblanadi. Mazkur masalaning dolzarbligi, Vatanimizda amalga oshirilayotgshan islohotlar natijasida buyuk ma’naviyatimizni tiklash, sog‘lom turmush tarzini barcha fuqarolarga, eng avvalo, voyaga yetmaganlarga singdirish davlatimiz siyosatida ustuvor yo‘nalish ekanligi, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida tarbiyalanayotgan yoshlarda yuksak madaniyat, axloqiy fazilatlarini shakllantirish va singdirish muammolarining yechimini davr taqozo etishi bilan belgilanadi. Shuningdek, davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri ma’naviy jihatdan barkamol, jismoniy va ruhiy jihatdan sog‘lom, yur-

timiz sarhadlarini himoya qilish uchun jismonan chiniqqan, fidoyi insonni tarbiyalash, ta'lim tizimini takomillashtirish, ma'naviy va ruhiy jihatdan yangi avlodni voyaga yetkazishga ijtimoiy zarurat tug'ilishi, milliy ma'naviyatimizni tiklash borasida davom etayotgan ishlar, ta'lim tizimining tubdan isloh qilinayotgani jamiyatimizda har tomonlama barkamol, sog'lom avlod tarbiyasiga keng e'tibor qaratilishi tendensiyasining kuchayishi barchani shu jumladan psixologlarni ham masalaga jiddiy yondashishni talab etadi. Voyaga yetmaganlar orasida hulq og'ishini oldini olish va ular bilan ishlashda profilaktik mexanizmlarini yaratish hamda amaliyotga joriy qilish zarur. Xulqi og'ishgan voyaga yetmaganlar o'quvchilarning kam qismini tashkil etsa ham, ular o'quv – tarbiyaviy ishlarda barqarorlikka jiddiy to'siq bo'ladilar. Ular maktabda va undan tashqarida (oilada, ko'chada, dam olish joylarida va boshqa) tartibsizlikni vujudga keltiruvchilar hisoblanadi. Shuning uchun ham xulqi og'ishganlar maktabda ham, undan tashqarida ham pedagogik jamoa va keng jamoatchilik hamda psixologlar e'tiborida turadi. Shu sababli bugungi kunda xulqi og'ishgan voyaga yetmaganlar bilan ishlashni jonlantirish, ular orasida huquqbuzarlikning oldini olish masalalariga e'tiborni kuchaytirish, psixologik korreksiya metodlariga murojaat etishni talab etadi. Voyaga yetmaganlarning shaxs va subyekt sifatida shakllanishi, aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasining o'sishi, jamiyat tomonidan belgilangan odob-axloq, xulq normalariga mosligi ularning kelajakda jamiyatning teng huquqli fuqarosi sifatida faoliyat yuritishiga zamin yaratadi. Xulqi og'ishganlar bilan psixokorreksiya jarayonida yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy sohalarda oldindan yo'l qo'yilgan nuqsonlarni bartaraf etishga imkon tug'iladi.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishining oldini olishda eng avvalo xulq og'ishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini, ijtimoiy institutlar- oila, mahalla, tengqurlar, atrofdagilar ta'sirini hisobga olish talab etiladi. Xususan, voyaga yetmaganlar o'rtasida yuzaga kelayotgan xulq og'ishining

oldini olish ishlari umumiy va maxsus – yakka tarzda olib borilishi bilan tavsiflanadi. Voyaga yetmagalarda xulq og‘ishini oldini olish chora-tadbirlari quyidagi psixoprofilaktik tamoyillarni hisobga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi deb o‘ylamiz.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, voyaga yetmaganlar o‘rtasida xulq og‘ishining oldini olishda qator psixologik-pedagogik masalalarga e’tibor qaratish yaxshi natija berishligini unutmasligimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016 yil 14 sentabr. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. –T.: 2016. – № 37-son. 426-modda. -59 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni. –T.: 2017. – B1-3.

3. Mirziyov M.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lish kerak. –T.: O‘zbekiston. 2016 y.-47 b.

4. Mirziyov M.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston. 2021-y.

5. Bobomurod A. Kamolot sari. «Cho‘lpon» nashriyoti. 2000 -80 b.

6. Karimova V.M. Oila salomatligida inson ruhiyatining imkoniyatlari. To‘plam. -T.: 2003. - B. 3-7.

7. To‘laganova G.Q. Tarbiyasi qiyin o‘smirlar.T.: “O‘zbekiston”. 2005. – 122 b.

ZJV5401

IJTIMOIY TARAQQIYOT VA INSON FAROVONLIGINI TA'MINLASHDA MAHALLA YOSHLARINING O'RNI

Abduvaliyev Ortiq Abdulhamidovich,
O'zMU JF tyutori

Annotatsiya: Maqolada mahallada yoshlar innovatsion faolligini oshirish ijtimoiy taraqqiyot va inson farovonligini ta'minlashning muhim omili ekanligi, yoshlarning ijtimoiy guruh sifatida jamiyatning har tomonlama rivojlanish tendensiyalarini tushunishi va uning faol suyekti bo'la olishi masalasi haqida so'z yuritilgan.

Tayanch so'zlar: Mahalla, jamiyat, yoshlar, ijtimoiy taraqqiyot, inson farovonligi, jamiyatning rivojlanish tendensiyalari, globallashuv, milliy yuksalish.

Bugungi globallashuv va modernizatsiya sharoitida har bir mamlakatning ijtimoiy taraqqiyotida inson kapitalini rivojlantirish, uni jamiyatni har tomonlama rivojlantirishda asosiy omillardan biriga aylantirish bugungi kundagi muhim masalalardan biridir. Hozirgi zamonaviy sharoitda O'zbekistonda inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish borasida strategik ahamiyatga ega bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan va chora-tadbirlar dasturi belgilangan. Inson taraqqiyoti tendensiyalarini rivojlantirishda yoshlar salohiyatini oshirish, ularning innovatsion jarayonlarga kengroq jalb etish masalalari muhim vazifalardan hisoblanadi.

Yoshlarning turli guruhlari va ularning jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va innovatsion jarayonlariga to'la integratsiya bo'lishi ijtimoiy taraqqiyotda muhim omillardan biridir. Yoshlarning bugungi kundagi yangiliklarga intilishi, zamonaviy taraqqiyot bilan bog'liq qadriyatlarni o'zlashtirishi, ilmiy va texnologik qobiliyatlarining oishib borishi jamiyatni barcha sohalarini innovatsion rivojlantirishga ko'mak bermoqda. Eskicha fikrlash va yashash tendensiyalaridan butunlay xoli bo'lgan yoshlar innovatsion hayotiy ko'nikmalarni o'zlashtirib, milliy

yuksalish zamonaviy bozor iqtisodiyotining ilg‘or an’analarni o‘z dunyoqarashi va amaliy faoliyatida mujassam etib, ijtimoiy-madaniy tamaddunga o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar.

Jamiyatda inson farovonligi ustuvorligini ta’minlash, inson va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy muvozanatni barqaror asosda ta’minlashda yoshlar toifalarining ilmiy va innovatsion salohiyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy yuksalish sharoitida ijtimoiy taraqqiyot tendensiyalarini amaliyotda ro‘yobga chiqarishda yangiliklarni o‘zlashtirish, innovatsion rivojlanishda istiqbolli dasturlari ishlab chiqish ham muhim hisoblanadi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bi¬lan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yan¬gi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi” [4]. Shuni hisobga olib, ijtimoiy hayotda innovatsion omilni progressiv rivojlanish jarayoniga o‘tkazish, bu borada uchraydigan har qanday muammolarni hal qilishda yoshlar faolligini oshirish borasidagi qonuniyatlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etish obyektiv zaruriyat hisoblanadi.

Jamiyatda inson faravonligini ta’minlash inson huquqlarini ro‘yobga chiqishi, uning erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini ulug‘lash bo‘lib, mazkur masalalarni hayotda to‘liq ro‘yobga chiqishi ijtimoiy taraqqiyot bilan bog‘liq ilg‘or tendensiyalarni ro‘yobga chiqaradi. Jamiyatda insonning, ayniqsa yoshlar toifalarining ijtimoiy hayotdagi, mamlakat hududlarida, ayniqsa mahalladagi faolligi, ularning mavjud muammolarni yechimiga bo‘lgan intilishlari fuqarolik jamiyatini shakllanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyat bo‘lib, bu tamoyil xalq farovonligi darajasining yuksalishiga xizmat qiladi. Demak, “Huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biri - bu huquqning ustuvorligidir. Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barqaror taraqqiyotga zamin yaratuvchi, faol harakatda bo‘lgan, insonlarning huquq va erkinliklarini to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqaruvchi hamda ularga xizmat qiladigan huquqiy tizimga tayanadi” [2,24].

Yoshlar mahallada olib boriladigan iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy tamoyillar asosidagi muhim dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etib, jamiyatda inson manfaatlarining ta'minlanishiga katta amaliy ko'mak beradi, bu o'z navbatida jamiyatning har tomonlama taraqqiy etishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yoshlarning ijtimoiy faolligi ko'proq milliy manfaatlarning hosilasi bo'lib, jamiyat taraqqiyoti uchun bo'ladigan har qanday hatti-harakatlar o'z navbatida mamlakat istiqboli va uning ertasini rivojlantirish uchun amalga oshiriladi. Ijtimoiy manfaatlar yoshlarning hayotdan qoniqish hissini yanada oshiradigan ma'naviy qadriyatlarni vujudga keltiradi.

Shu nuqtayi nazardan, bugungi sharoitda yoshlarning ijtimoiy guruh sifatida jamiyatning har tomonlama rivojlanish tendensiyalarini tushunishi va uning faol suyekti bo'lishiga intilishi ularning ijtimoiy hayotdagi va iqtisodiy munosabatlardagi roli va o'rnini aniqlashtirishni dolzarblashtiradi. Milliy yuksalish sharoitida global tendensiyalar xususiyatlaridan kelib chiqib, madaniy tamaddun va ijtimoiy taraqqiyotda yoshlarning innovatsiyalar va ijodkorlik qobiliyatidir. Bundan tashqari, global raqobatbardoshlik va yaratilish tamoyillarining muhim xususiyatlari yoshlarning kundan–kunga o'z bilim va salohiyatlarini oshirish va jamiyat jarayonlariga innovatsion moslashish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Yoshlar innovatsion faolligini oshirish jarayoniga sinergetik yondoshuv jamiyatda yoshlarning yangiliklarni o'zlashtirish, uni ijtimoiy-iqtisodiy hayotga joriy etish ilmiy bilimlari va ko'nikmalarini makon va zamon xususiyatiga ko'ra rivojlanishining ko'lamini tahlil etish bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayonni tahlil etishda sinergetik paradigmalar yoshlar innovatsion faolligini darajalaridagi nochiziqli yondoshuvlar, turli-tumanlik va o'ziga xoslik tamoyillari bilan ijtimoiy-falsafiy mohiyat kasb etadi. B.To'rayevning fikricha, "Bugungi jamiyatni rivojlantirish uchun voqelikka yangicha rakursdan turib qarash, yangicha, ya'ni innovatsion yondashuv lozim bo'ladi. Bugungi kunning yangicha tafakkuri voqelikka har taraflama, kompleks yondasha olish, kreativ, ya'ni

ZJV5401

ijodiy fikrlash - bu voqelikka nochiziqli yondashuvdir [3, 16].

Jamiyatda innovatsiyalar murakkab asoslardagi dinamik xarakterga ega bo‘lib, u ijtimoiy taraqqiyotdagi evolutsiyasi, ko‘lami va rivojlanishiga ko‘ra o‘ziga xos tizimli jarayon hisoblanadi. Yoshlarning ijtimoiy rivojlanish shart-sharoitlarini ta’minlashda o‘zlarining innovatsion ishtiroki va bu orqali inson faravonligini ta’minlashga qaratilgan qadriyatlarning hosil qilish salohiyatlarini vujudga keltirish jarayonida quyidagi qonuniyatlar amal qiladi:

1) vorisiylik, ya’ni innovatsion salohiyatning avloddan avlodga qadriyat sifatida uzatilishi;

2) o‘zgaruvchanlik, ya’ni makon va zamonda yoshlar innovatsion faolligining o‘zgarib turishi;

3) notekislik, ya’ni har bir makon zamon xususiyatiga ko‘ra notekis asosda rivojlanishi;

4) o‘zaro moslashuvchanlik, ya’ni innovatsion faollikning yangi shart-sharoitlarga moslashib borishi;

5) o‘zaro aloqadorlik, ya’ni yoshlar innovatsion faolligini shakllanishi jamiyatdagi ko‘pgina ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan o‘zaro aloqadorligi.

Yoshlarning mamlakatda taraqqiyotning yangi sifatiga o‘tish masalasida o‘zining siyosiy irodasi bilan ishtiroki darajasida aniqlash va uning istiqbollarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada yoshlarning jamiyatning transformatsiyalashuvi sharoitida o‘zlarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy faolliklari va fuqarolik mas’uliyatini qanday namoyon etishi, jamiyatning muhim manfaatli ishiga o‘zlarini qanday tayyorlash borasida ma’lum pozitsiyalarini belgilashlari muhim jarayondir [1,5].

Bu borada belgilangan strategik vazifalarning keng ko‘lamda amalga oshirilishi mamlakatimizning yangi texnologik va bilim talab qiladigan iqtisodiyot va tadbirkorlik tarmoqlarida bunyodkorlik g‘oyalari va dasturlarini joriy etish, har bir sohada samarali mehnat qilish uchun innovatsion salohiyatni takomillashtirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi. Lekin bu jarayon uchun davlat va jamiyat yoshlarning ilm-fan, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlardagi rolini aniq belgilashi, mam-

lakat milliy manfaatlarini ta’minlashda ularning yuqori faollik bilan ishtirok etishining samarali mexanizmlarini ishlab chiqishi kerak.

Jamiyatda yosh avlodning ijtimoiy hayotda ilg‘or funksiyalarni bajara boshlashi natijasida ijtimoiy tuzilmaning oddiy yoki kengaytirilgan takror ishlab chiqarilishi amalga oshiriladi, bunda jamiyatning ilg‘or toifasi sifatida yoshlarning ijtimoiy mohiyati ochib beriladi, uning asosiy ijtimoiy vazifalari aniqlanadi. Ulardan eng muhim an’anasi avloddan avlodga o‘tuvchi tamoyil bo‘lib, buning natijasida yoshlar ijtimoiy munosabatlar mavjud tuzilmalarini meros qilib oladi, ularning rivojlanishiga o‘zlarining innovatsion salohiyati orqali ta’sir etadi va kelgusi avlodlarga uzatadi. Olimlarning ta’kidlashlaricha, “Har bir yangi avlod o‘zining innovatsion salohiyati tufayli jamiyat yaxlitligini saqlashni ta’minlaydi, uni takomillashtirish va o‘zgartirishda ishtirok etadi. SHunday qilib, yoshlarning rivojlanishi ham, jamiyatning takror ishlab chiqarilishi ham amalga oshiriladi” [5, 47].

Yoshlarning bugungi kundagi jamiyatdagi o‘zgarishlar, yangilanishlar va innovatsion jarayonlarga moslashishi, ularning xatti-harakatlarini ijtimoiy hayotda yaratuvchilik qobiliyatlarini o‘stirish bilan bog‘liq chora-tadbirlar bilan hamohang ravishda olib borish muhim ahamiyat kasb etadigan jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017-yil 22-dekabr. www.uza.uz.

2.Васильева Е. Закономерности процесса инноваций последней четверти XX века. – Москва: Экономика, 2007. - С.5.

3. I.Turg‘unov. Inson huqulari madaniyatini yuksaltirishda huquqiy islohotlarning roli//Demokratlashtirish va inson huquqlari. 2016 y. 1-son. 24-bet.

4. To‘rayev B. Jamiyatni ma’naviy sog‘lomlashtirishda nochiziqli tafakkurning o‘rni.//Tafakkur ziyosi, 2018. №1.–B. 12.

5. Чупров В., Зубок Ю., Уильямс К. Молодежь в обществе риска. Второе издание – Москва, Наука. – С. 47.

IJTIMOIY DAVLAT – INSON MANFAATLARI USTUN BO‘LGAN DAVLAT

Anarbayev Jahongir Batir o‘g‘li,
JDPU. Tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqola ijtimoiy davlat tushunchasining mazmuni, tarixi uning Yangi O‘zbekistonni barpo yetishdagi ahamiyati, insonlarning farovon hayot kechirishidagi o‘rnini ochib berishga qaratilgan.

Tayanch so‘zlar: Ijtimoiy davlat, inson qadri, inson manfaatlari, ijtimoiy adolat, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy sug‘urta.

Ijtimoiy davlati har qanday rivojlangan jamiyatda muhim institut sifatida tan olingan chunki mohiyatan fuqarolari uchun munosib hayotni ta’minlashni maqsad qilgan. Bu tushuncha ko‘pgina davlatlarning asosiy qonunlarida ham aks etgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining yangilanayotgan Konstitutsiyasining 1-moddasida “O‘zbekiston boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat”[1] - deb belgilanishi hammamiz kutgan tarixiy voqea ekanligini alohida ta’kidlashimiz zarur. Bu tarixiy voqeaga shaxsan Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning o‘zi boshchilik qilib, “O‘zbekiston-ijtimoiy davlat”, degan tamoyilni mustahakamlashni taklif etdi [2]. Bu hildagi davlat boshqaruv shaklining tarixiga e’tibor bersak turlicha yondashuvlarga guvoh bo‘lamiz. Dastlabki ijtimoiy davlat haqidagi tushuncha G‘arbiy yevropada XIX asrning oxirlarida rivojlana boshlagan. I-II jahon urushlaridan so‘ng aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadida hukumat vakillari ijtimoy vazifalarni bosqichma-bosqich kengaytirdi. Dastavval ijtimoiy nafaqalar va ijtimoiy xizmatlar darajasi esa aholining aksariyat qismini qamrab oldi. Keyinchalik milliy ijtimoiy himoya dasturlari ko‘payib bordi. Ba’zi olimlarning fikricha, tirikchilik natijasida hukumatning kuchayi-

shi, interventsiya soliqqa tortish darajasining oshishiga olib keldi. Ya'na boshqa manbalarda esa, ushbu atamaning qo'llanilishi 1948-yilda Buyuk Britaniya tomonidan Uilyam (keyinchalik Lord) Beverijning "Ijtimoiy sug'urta va ittifoq xizmatlari" (1942) deb nomlangan maqolasida ijtimoiy sug'urta aholining sog'ligi va hayotini kafolatlashda muhim ekanligini alohida ta'kidladi va bu ijtimoiy davlatning belgisi ekanligini aytib o'tdi. Keyinchalik boshqa davlatlar eskirgan kontseptsiyasidan asta-sekin voz kecha boshladi va ijtimoiy davlat bilan bog'liq ijtimoiy sug'urta choralarining kamida bir qismini ta'minlashga intildi. Shunday so'ng, Qo'shma Shtatlar (Franklin D.Ruzvelt va keyingi prezidentlar) ichki dasturlarining katta qismi ijtimoiy davlati tamoyillariga asoslangan edi.

Ijtimoiy davlat - davlat yoki ijtimoiy institutlarning yaxshi tashkil etilgan tarmog'i fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy farovonligini himoya qilish va rag'batlantirishda asosiy rol o'ynaydigan hukumat tushunchasi. U imkoniyatlar tengligi, boylikni adolatli taqsimlash va yaxshi hayot uchun shart-sharoitlarni ta'minlab beradigan davlat tamoyillariga asoslanadi.

Yuqorida aytilganidek, ijtimoiy sug'urta eng ilg'or sanoati rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lgan qoidadir (masalan, Buyuk Britaniyada Milliy sug'urta va AQShda ijtimoiy sug'urta). Bunday sug'urta odatda majburiy badallar hisobidan moliyalashtiriladi va eng katta ehtiyoj davrida odamlar va oilalarga nafaqa berish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Biroq, amalda naqd pul mablag'lari rejalar ishlab chiquvchilari mo'ljallangan darajadan ancha past ekanligi keng e'tirof etilgan.

Ijtimoiy davlat odatda asosiy ta'lim, sog'liqni saqlash xizmatlari va uy-joy bilan ta'minlashni (ba'zi hollarda arzon narxlarda yoki to'lovsiz) ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy davlat G'arbiy Yevropa mamlakatlarida Qo'shma Shtatlarga qaraganda ancha kengroq rivojlangan bo'lib, ko'p hollarda sog'liqni saqlashni to'liq qamrab olish va davlat tomonidan subsidiyalangan oliy ta'limni ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Kambag'allikka qarshi dasturlar va shaxsiy soliqqa tortish tizimi ham ijtimoiy davlatining jihatlari sifatida ko'rib

ZJV5401

chiqilishi mumkin. Jismoniy shaxslarga soliq solish ushbu toifaga kiradi, chunki uning progressivligi, daromadlarni taqsimlashda ko‘proq adolatga erishish uchun (faqat daromad olish uchun emas), shuningdek, ijtimoiy sug‘urta to‘lovlarini va majburiy badallar hisobidan to‘liq moliyalashtirilmagan boshqa nafaqalarni moliyalashtirishda foydalaniladi. Sotsialistik mamlakatlarda ijtimoiy davlat ish bilan ta’minlash va iste’mol narxlarini boshqarishni ham qamrab oladi.

Yevropalik olimlar ijtimoiy davlatga oid g‘oyalar nazariyalarni o‘rganish jarayonida davlatning ehtiyojlarni qondirishdagi ro‘li, farovonlikni ta’minlashdagi o‘rnini aniqlash maqsadida bir qancha tadqiqotlar o‘tkazdi. Xususan, Daniyalik sotsiolog Giyosta Esping-Anderson uchta asosiy “davlatnig faoliyat rejimi”ni o‘ylab topdi [3].

- Liberal ijtimoiy davlatlar - bozor va ishchi kuchi imperativlariga javob beroladigan. Tibbiy sug‘urta va pensiyalar kabi ko‘plab imtiyozlar ish bilan bog‘liq bo‘ladigan.

- Konservativ yoki korporatistik ijtimoiy davlatlar - bozor yoki xususiy xizmatlarga emas, balki davlat xizmatlariga tayanadi. Shu bilan bir qatorda bu faoliyat rejimidagi davlatlarda oilaviy munosabatlarning barqarorligiga ahamiyat qaratiladi.

- Sotsial-demokratik ijtimoiy davlatlar - davlat ijtimoiy huquqlarning kafolati sifatida qaraladi. Bu davlatlar ijtimoiy tabaqa va daromadlar ta’sirini minimallashtirish usuli sifatida yuqori darajadagi imtiyozlar tengligini targ‘ib qiladi.

Fikirimizcha ijtimoiy davlatni tushinishda faqat sanoatlashgan demokratik davlatlar bilan chegaralangan deb tasavvur qilish noto‘g‘ri nazarimizda. Esping-Andersonning tipologiyasi rivojlanishning turli bosqichlarida yoki bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlar uchun amal qiladimi, noaniq. Bu tipologiya, shuningdek, mamlakatlar milliy siyosiy madaniyatlar, mafkuralar va ichki siyosiy bosimlarga javoban o‘zlarining farovonlik apparatlarini ishlab chiqishlarini nazarda tutadi.

Yana boshqa bir yondashuvlarda ijtimoiy davlatning asosiy belgiladan biri sifatida gender tengligi masalasi yo-

tadi. Lotin Amerikalik olima Soniya Alvarez Lotin Amerikasi mamlakatlaridagi gender siyosatini tahlil qilishda ushbu yondashuvni yoqlab chiqdi. Gender tengligi islohotlarining farovonlik siyosatidagi ta'siri turli mamlakatlarda gender tengligi to'g'risidagi mafkuralar ularning siyosatiga ham iqtisodiyotiga ham singdirilganligi alohida ta'kidlab o'tadi va farovonlikni ta'minlash va farovonlikning tabaqalashtirilgan geografiyasini yaratish usullaridan kelib chiqib quydagi turlarga bo'linishini ko'rsatadi.

(1) qulay mehnat sharoitlari ishlash, ishda salomatlik va xavfsizlik yoki ayollar va erkaklar o'rtasida teng imkoniyatlarni ta'minlash;

(2) barchani qamrab oluvchi universal va barqaror ijtimoiy himoya tizimlarining mavjudligi

(3) barcha ijtimoiy toifalar uchun adolatli ish haqi yaratadigan inklyuziv mehnat bozorlari

(4) optimallik bilan bir qatorda funktsional va kuchli ijtimoiy muloqotning mavjudligi

(5) umum manfaatli davlat xizmatlari

(6) ijtimoiy inklyuziya va ijtimoiy hamjihatlik

Turli davlatlarda ijtimoiy davlat to'g'risidagi qarashlar turlicha bo'lsada, ularning kesishadigan nuqtasi insondir. Bugungi kunda O'zbekiston ham ijtimoiy davlatchilik tarixiga o'z prinsplari bilan qadam qo'ymoqda.

So'ngi yillar davomida mamlakatimizda aholini kuchli ijtimoiy himoya qilishga yo'naltirilgan siyosat o'zgacha tusga ega bo'ldi. Xususan, yurtimizda joriy etilgan "temir daftar", "ayollar daftari", "yoshlar daftari", "mahallabay" va "xonadonbay" ishlash usullari fikrimizga yaqqol misol bo'ladi. Bunda aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ularning munosib hayot kechirishlari uchun sharoit yaratish, aholining bandligini ta'minlash va uning daromadlarini oshirish, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish, aholining turmush sharoiti va sifati jihatdan tabaqalanishiga yo'l qo'ymaslik hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismiga davlat

ZJV5401

tomonidan kafolatlar tizimi orqali yordam ko‘rsatishga katta e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, ishsizlikdan himoyalanish, kafolatlangan sifatli ta’lim berish, malakali tibbiy yordam ko‘rsatish, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy davlat tamoyilida inson – eng oliy qadriyat hisoblanadi, olib borilayotgan insonparvar siyosatning bosh maqsadi inson manfaatlari, haq-huquqlarini ta’minlashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuning loyihasi. 1-moddasi. 2-bet. 2023-yil

2. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan murojaatnomasi. 2022-yil 20-dekabr. www.president.uz

3. G.E.Anderson - Typologies of the Welfare state.

https://www.sciencedirect.com/topics/economics-econometrics-and-finance/welfare-state

ZJV5401

ZJV5401

XOTIN-QIZLARNI IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Rahmatova Dilfuza Nazarovna,
Toshkent shahar Chilonzor tumani 2-sonli kasb-hunar maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishning dolzarb masalalari yoritilgan bo‘lib, jumladan, so‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati, aynan xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta’minlash maqsadida ularning faolligini oshirish masalalari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: xotin-qizlar, onalik, bolalik, ijtimoiy-siyosiy faollik, oila, oila instituti, mehnat bozori, gender tenglik, huquqbuzarlik, manfaat.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta’minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

“Yoshlar va xotin-qizlarni mehnat bozorida talab yuqori kasb-hunarlarga tayyorlashni tizimli yo‘lga qo‘ysak, ularning munosib ish topishiga ko‘maklashsak, ko‘plab ijtimoiy va iqtisodiy muammolar hal bo‘ladi. Buning uchun nafaqat davlat ta’lim muassasalari, balki mingdan ziyod nodavlat kasb-hunar ta’limi markazlarini ham jalb qilish zarur”[1], – deb ta’kidlagan edi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi ishlarning holati xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ular bilan maqsadli ishlarni tashkil etish, oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni mus-

tahkamlash va sog‘lomlashtirishning samarali mexanizmlarini yaratishga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjudligidan dalolat beradi. Jumladan:

birinchidan, yordamga muhtoj bo‘lgan va og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarni manzilli qo‘llab-quvvatlash tizimi mavjud emas, ishsiz va ijtimoiy faol bo‘lmagan xotin-qizlar bilan yakka tartibda ish olib borish amaliyoti yo‘lga qo‘yilmagan, xotin-qizlar o‘rtasida bandlikka ko‘maklashish va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha faoliyat samarasiz tashkil etilgan;

ikkinchidan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, zamonaviy namunali oilani shakllantirish, uning ma’naviy-axloqiy negizlari va an’anaviy oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash bo‘yicha maqsadli ishlar olib borilmayapti, erta nikohlarning, oilalardagi nizoli holatlar va ajrashishlarning oldini olish bo‘yicha choralarning samaradorligi past darajada qolmoqda;

uchinchidan, xotin-qizlarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish borasidagi faoliyat yetarli darajada tashkil etilmagan, onalar kasalligi va perinatal kasalliklar profilaktikasi va ularning oldini olish bo‘yicha samarali tizim, ayniqsa, chekka qishloq hududlarida mavjud emas;

to‘rtinchidan, xotin-qizlar o‘rtasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha samarali choralar ko‘rilmayapti, xotin-qizlarning huquqiy madaniyatini oshirish, ularga yuridik maslahatlar berish mexanizmi zamon talablariga javob bermaydi;

beshinchidan, xotin-qizlar qo‘mitalarining keng ko‘lamli vazifalari zarur vakolatlarning yo‘qligi va tashkiliy-shtat birliklarining yetishmasligi sharoitida xotin-qizlarning eng muhim muammolarini hal etish borasida ularning kuch va imkoniyatlarini to‘liq safarbar etish imkonini bermayapti;

oltinchidan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oilani mustahkamlash, nizoli holatlar va ajrashishlarning oldini olish sohasida kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo‘yicha ishlar tashkil etilmagan [2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi PQ-4235-son bilan tasdiqlangan “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaroriga[3] muvofiq,

- ayollar mehnatini muayyan soha yoki kasblarda qo‘llash bo‘yicha taqiqlar bekor qilindi. Uning o‘rniga ayollar sog‘lig‘iga salbiy ta’sir etishi mumkin bo‘lgan soha va kasblar tavsiyaviy ro‘yxati tasdiqlandi;

- 2 yoshga to‘lmagan farzandini tarbiyalovchi ota-onalarning biriga ularning ish paytidagi dam olish va ovqatlanish, bolani ovqatlantirish uchun beriladigan tanaffuslar hisobidan ish beruvchi bilan kelishgan holda kun davomida foydalaniladigan tanaffus vaqtini belgilash huquqi beriladi;

- ayollarning pensiya yoshiga to‘lganligi yoki qonun hujjatlariga muvofiq yoshga doir davlat pensiyasini olish huquqi vujudga kelganligi sababli ular bilan tuzilgan nomuayyan muddatli mehnat shartnomasini 60 yoshga to‘lgunga qadar yoki muddatli mehnat shartnomasini muddati tugagunga qadar ish beruvchining tashabbusiga ko‘ra bekor qilish taqiqlandi;

- erkak va ayollar huquqlari tengligining buzilishi bilan bog‘liq ishlarning sudlarda ko‘rib chiqilishida ayollarga advokatlar tomonidan ko‘rsatiladigan yuridik xizmat uchun haq ularning xohishiga ko‘ra davlat hisobidan qoplanishi belgilab qo‘yildi.

O‘zbekistonda xotin-qizlarga nisbatan kamsitishni bartaraf etish, ularning teng huquqli ekanligini ta’minlash nafaqat milliy yoki hududiy miqyosda ahamiyat kasb kasb etadi, balki, ayni zamonda mamlakat hukumatining bu boradagi ustuvor vazifalariga kiradi. Bosh qomusimizda ayollar va erkaklarning teng huquqliligi haqida alohida modda kiritilgan bo‘lib, xotin-qizlarga ta’lim olish, kasbiy tayyorlanish, ish, mehnat uchun rag‘batlanish va xizmat yuzasidan ko‘tarilishida teng huquqiy imkoniyatlar yaratiladi.

BMT Bosh Assambleyasining 1967-yil 7-noyabrda qabul qilgan Ayollarga nisbatan kamsitishlarni bartaraf etish Bu-

ZJV5401

tunjahon deklaratsiyasining 1-moddasida “Ayollarga nisbatan kamsitish, ularning erkaklar bilan teng huquqliligini rad etish yoki cheklashga olib keladigan holatlar qayd etilsa o‘z mohiyatiga ko‘ra adolatsizlik bo‘lib, inson qadr-qimmatiga qarshi jinoyat sodir etilgan hisoblanadi”, deb ta’kidlangan.

So‘nggi yillarda bu borada mamlakatimizda qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi va takomillashtirildi.

Ayniqsa, Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qaror, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilish to‘g‘risida”gi va “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlari mamlakatimizda xotin-qizlarning huquqlari himoyasi borasida muhim dasturilamal bo‘ldi. Ularda gender tenglikka xilof bo‘lgan barcha cheklovlar, xatti-harakatlar to‘liq tavsiflandi. Jumladan, jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida erkaklar va ayollarning huquqlari hamda erkinliklarini kamaytirishga yoki tan olmaslikka qaratilgan har qanday tarzda farqlash, istisno etish yoki cheklash jinsi bo‘yicha bevosita kamsitish, sirtdan xolis bo‘lib tuyuladigan, biroq bir jinsdagi shaxslarni boshqa jinsdagi shaxslarga nisbatan noqulayroq holatga tushirib qo‘yadigan vaziyatlar, holatlar, mezonlar yoki amaliyotlar esa jinsi bo‘yicha bilvosita kamsitish sifatida qabul qilinishi belgilab qo‘yilgan.

Mehnat munosabatlarida erkaklar va ayollarning teng huquqlari hamda imkoniyatlarini ta’minlash maqsadida ish beruvchi quyidagilarni ta’minlaydi:

- ishga yollashda, bo‘sh ish o‘rinlarini egallashda erkaklar va ayollar uchun teng imkoniyatlarni;

- teng qiymatli mehnat uchun erkaklar va ayollarga teng ish haqini (mukofotni);

- malaka oshirish, qayta tayyorlash va xizmatda ko‘tarilish uchun teng imkoniyatlarni;

- korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tugatilganda yoki

ZJV5401

qayta tashkil etilganda xodimlarni ishdan bo‘shatishda erkaklar va ayollar huquqlarining tengligini;

- farzandlari bor erkaklar va ayollar uchun qulay bo‘lgan oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amaliyotni joriy etish va rivojlantirish, homilador va emizikli ayollar uchun qulay shart-sharoit yaratishni;

- erkaklar va ayollarning hayoti va faoliyati hamda salomatligini saqlashni ta’minlaydigan xavfsiz mehnat sharoitlarini;

- erkaklar va ayollarga tenglik asosida mehnat faoliyatini amalga oshirish imkonini beradigan ish sharoitini yaratishni;

- erkaklar va ayollar uchun mehnat faoliyatini oilaviy majburiyatlar bilan birga bajarish imkoniyatini yaratish.

O‘zbekistonning ayollar huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasida erishayotgan muvaffaqiyatlariga nisbatan jahon hamjamiyatida tobora o‘sib borayotgan e’tibor hamda qiziqish xorijiy mamlakatlarda bo‘lib o‘tayotgan turli tadbirlar - brifing, taqdimot marosimlari va uchrashuvlar chog‘ida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Unda ishtirokchilar - gender tengligi masalalari bilan shug‘ullanadigan nufuzli tashkilotlar rahbarlari hamda vakillari respublikamizda davlat va jamiyat hayotida ayollarning o‘rni hamda maqomini yuksaltirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni ijobiy baholamoqda.

Jumladan, “Yevropa ayollari lobbisi” xalqaro tashkilotining Italiya bo‘limi bosh kotibi Mariya Bottarelli ayollarning ish bilan ta’minlanishi va ularning jamiyatdagi maqomi oshirilishida kasaba uyushmalari tashkilotlarining alohida o‘rni borligini ta’kidladi. Uning fikricha, O‘zbekistonda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar ayollar imkoniyatlarini kengaytirishga hamda tenglik asosida jamiyatning barcha sohasida ular har tomonlama ishtirok etishiga yo‘naltirilgan “BMT harakatlari Pekin platformasi”ning (“Platform of Action of Beijing”) muhim qismi hisoblanadi.

- Erkaklar va ayollar o‘rtasidagi maoshlarda farqlarni qisqartirish bo‘yicha qabul qilingan chora-tadbirlar ham

diqqatga sazovordir, – deydi u. – Ayni paytda Yevropa Ittifoqining 2010 – 2015-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida ayni shu maqsad ko‘zda tutilgan. O‘zbekiston kasaba uyushmalari tomonidan tadbirkor ayollarning qo‘llab-quvvatlanayotgani ham e’tiborga molik. Ularga “Ishonch telefoni” orqali huquqiy yordam ko‘rsatilishi esa ayrim byurokratik holatlarni bartaraf etishga ko‘maklashadigan muhim vosita hisoblanadi. Faol ayollar uchun yaratilayotgan bunday imkoniyatlar ularning shaxsiy hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatibgina qolmasdan, butun jamiyat farovonligining yuksalishiga ham ko‘maklashadi.

AQSH Ayollar tashkilotlari milliy kengashi raisi, Ayollarni o‘rganish va o‘qitish instituti prezidenti Syuzan Skanlanning aytishicha, O‘zbekistonda ayollar huquqlarining himoyasi bo‘yicha qabul qilinayotgan chora-tadbirlar yuqori bahoga munosibdir.

O‘zbekiston qizlarning ta’limning boshlang‘ich bosqichidanoq yuqori maosh to‘lanadigan kasblarga (ilm-fan, texnologiya, injeneriya hamda boshqalar) tayyorlanishi nuqtayi nazaridan boshqa mamlakatlardan, shu jumladan, Amerika Qo‘shma Shtatlaridan oldinda, - deb hisoblaydi u. - Respublikaga safarlarim chog‘ida qizlar orasida bunday bitiruvchilarni ko‘p uchratdim, men ularning sa’y-harakatlari va muvaffaqiyatlaridan quvonaman. Ayollarni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash yuzasidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar, ayniqsa, qishloq joylarda ayollar ehtiyojlariga qaratilayotgan e’tibor alohida diqqatga sazovordir. O‘zbekistonga birinchi safarim chog‘ida butun mamlakat bo‘ylab homilador ayollar hamda yosh onalarga maxsus tibbiy xizmat ko‘rsatadigan sayyor guruhlar faoliyati bilan tanishdim. Bu usulni Amerikada ham bemalol qo‘llash mumkin.

Rossiya hukumati huzuridagi Moliya universitetining amaliy siyosatshunoslik kafedrasi dotsenti, siyosiy fanlar nomzodi Yevgeniya Maxmutovaning fikricha, ayollarni qo‘llab-quvvatlashning rivojlangan tizimi, shubhasiz, davlat samaradorligi, yetukligi hamda mustaqilligining ko‘rsatkichi

hisoblanadi. Uning aytishicha, O‘zbekiston Respublikasida ayollarning iqtisodiy va fuqarolik huquqlari ta’minlanishi yuzasidan izchil ishlar olib borilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish nafaqat davlat boshqaruvi sohasida balki, sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirish, shuningdek, sog‘lom kelajakni ro‘yobga chiqarishning garovi chiqarishning garovi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. https://uza.uz/uz/posts/khotin-izlar-va-yeshlar-masalalari-bo‘yicha-yangi-ish-tizimi--08-10-2020
2. https://lex.uz/acts/3546742
3. https://lex.uz/docs/4230944

ZJV5401

IJTIMOIY DAVLATDA – VATAN, JAMIYAT VA DAVLAT MUNOSABATLARI

Sultonov Fozil Hojiyevich,
jamoat arbobi, akademik

Ma'lumki, Prezident halqimizga qilgan o'z Murojaatnomalarida ta'kidlagan: "Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat",- degan g'oyani Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda ham, kundalik hayotimizda ham hamma anglab yetishi lozim bo'ladi. Darhaqiqat, Murojaatnomada ko'rsatilgan ikkinchi yo'nalishda - «Yangi O'zbekistonni "ijtimoiy davlat" – tamo-yili asosida qurish maqsadini Konstitutsiyada ham mustahkamlash masalasi ko'tarilgan. Ma'lumki, «ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag'allikni qisqartirish», - demakdir.

Ammo ko'pchilik fuqarolarimiz va ayniqsa yoshlarimiz o'rtasida O'zbekiston «Vatani va Davlati» tushunchalarini birdek qabul qilish, o'rta-sidagi tavofutni anglab yetmaslik muammosi borligi kishini tashvishlan-tiradi. «Vatan - ona kabi muqaddas», – deymiz. Vatanni onaga o'xshatish, uni e'zozlash, avaylash, uning uchun jonni fido qilish to'g'risida allomalarimiz – jadidchi bobokalonlarimiz juda ko'p mushohada yuritishgan. Vatan – kin-dik qonimiz to'kilgan diyor, ma'naviy-ruhiy boyligimiz bo'lib, uni o'zgartirib bo'lmaydi. O'zgartirishga harakat qilganlarni, ya'ni uni tark etganlarni biz «Vatangadolar», – deymiz.

Davlat-chi?! Uni o'zgartirish mumkinmi? Albatta o'zgartirish mumkin, chunki u fuqarolarimizni boshqaruvchi bir tizimdir. Oddiy misol, Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so'ng Davlat tizimi sobiq Sovet (totalitar) tuzumidan farqli o'laroq demokratik ijtimoiy (jamiyat) boshqaruv tizimiga o'tdi. Demak, demokratik ijtimoiy Davlat tizimida Jamiyat boshqaruvi muhim mavqega ega ekanligi ma'lum bo'ladi.

Fikrimcha, agar ta’bir joiz bo‘lsa: O‘zbekiston bir oila bo‘lsa, unda Vatan - uning onasi, Jamiyat-otasi, Davlat esa bolasidir. Agar O‘zbekiston oilasida Ona-Vatan va Ota-Jamiyat o‘z bolasi - Davlatni qanchalik mukammal, talabchanlik va ilmiy asosda tarbiyalasa, bola - Davlat shunchalik komil bo‘lib yetishadi va O‘zbekiston oilasi albatta ravnaq topadi.

Demak, yuqoridagi mulohazalardan ma’lum bo‘layaptiki, yurtimizda ijtimoiy fuqarolik jamiyati tizimini qanchalik tez rivojlantirsak, uning mavqeyini ko‘tarsak, shunchalik Vatanimiz yuksaladi. Shu ma’noda, bejizga Prezidentimiz «Fuqarolik jamiyati»ni rivojlantirishning huquqiy asoslari bo‘yicha bir necha qaror va farmonlar chiqarmadilar.

Agar moziyga nazar solsak, buyuk allomamiz, IX asrda yashab, dunyoda «Ikkinchi muallim» taxallusi bilan mashhur bo‘lgan Abu Nasr Farobiy bobokalonimizning “Baxt – saodatga erishuv yo‘llari xakida risola” asarlarida, XIV asrda yashagan Nikolo Makiavellidan oldin jamiyat davlat, hokimiyat oldida turgan vazifalarni qayd etgan quyidagi tarixiy iqtiboslarini eslatib o‘tish kifoya: ”Davlatning vazifasi insonlarni baxt saodatga olib borishdir, bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo‘lga kiritiladi...Davlatni yetuk kishilar boshqarsagina fozil jamiyat, fozil shaxar qaror topadi. Fozil jamiyat, fozil davlat shunday bo‘ladiki, bu jamiyatning xar bir a’zosi kasb-xunar, ilm-fanni egallash bilan shug‘ullanadi. Bunday davlatda odamlar chin ma’nosi bilan ozod va erkin bo‘ladilar... Jamoatni boshqaruvchi kishi olti xislatga ega bo‘lishi zarur. Bular: avvalo adolatli bo‘lishi, ikkinchidan, dono bo‘lishi, uchinchidan, qonunlarga qat’iy rioya qilishi, to‘rtinchisi yangi qonunlar yarata olishi, beshinchisi-kelgusini oldindan ko‘ra bilishi, oltinchisi-boshqalarga g‘amxo‘r va mexribon bo‘lishi kerak”.

Xo‘sh, hozirgi Davlat boshqaruvi tizimidagi islohotlarga «Fuqarolik jamiyati» institutlarining qanchalik ta’siri bor?-degan savolga javob izlaylik. Ma’lumki, Prezident Muroaatnomasidagi Birinchi yo‘nalish - «Ixcham va samarali davlat boshqaruv tizimiga o‘tish» masalasi atrof-licha taxlil qilingan

ZJV5401

bo‘lib, birinchi bosqichda vazirliklar isloh qili-nishi, hukumat ish uslubi ham tubdan o‘zgartirilishi ko‘rsatilgan. Eng avvalo, vazirlik va idoralar soni hozirgi 61 tadan 28 taga kamaytirilishi nazarda tutilgan. Endi har bir vazirlik tegishli sohada davlat siyosatini amalga oshirishga mas’ul bo‘lib, tarmoq tarkibidagi qo‘mita, agentlik va inspeksiyalarga rahbarlik qilishi ta’kidlanadi. Mamlakatimiz taraqqiyo-tini yangi pog‘onaga olib chiqish uchun boshqaruv ham, qonunchilik ham, jamiyatimiz ham o‘zgarishi kerak. Shularni e’tiborga olgan holda, Murojaatnomada “Jamiyat – islohotlar tashabbuskori” tamoyili asosida barcha masalalar bo‘yicha xalqimiz bilan bamaslahat ish tutish lozimligi ko‘rsatilgan. Umuman, ma’no-mazmuni inson qadrini ulug‘lash ruhi bilan boyitilgan, kelajak avlodlarga munosib xizmat qiladigan, Yangi O‘zbekistonga mos bo‘lgan Konstitutsiyani har tomonlama o‘ylab, shoshilmasdan ishlab chiqishimiz kerakligi alohida ta’kidlanadi. Darxaqiqat, ijtimoiy davlat qurilishida, xar bir insonga unga munosib yashash, ishlash sharoitini yaratish, bor salohiyatini ro‘yobga chiqarishda barcha davlat va «Fuqarolik jamiyati» institutlari (siyosiy partiyalar nodavlat tashkilotlar) birgalikda, hamkorlikda, yangi g‘oyalarga hamnafas bo‘ladigan faoliyat olib borishi lozim bo‘ladi.

Endi yurtimizdagi «Fuqarolik jamiyati» institutlari (siyosiy partiyalar, nodavlat notijorat tashkilotlar, mahalla v.h.k.lar)ning faoliyati to‘g‘risida to‘xtalsak. Ularning faoliyati hozirgi islohotlarga mos ravishda rivojlanmoqdami?

Umuman olganda ba’zi fuqarolik institutlarimiz, masalan ming yillik tarixga ega nodavlat notijorat tashkilotlar - mahalla, tajribali Kasaba uyushmalari hamkorligi asosida ko‘zga ko‘rinarli ishlarni bajarmoqda, ammo bu yerda ham amaliyotga nisbatan majlisbozlik (hisobot) kabi nuqsonlar ko‘paygan. Ammo, jamiyatimizni drayverlaridan biri bo‘lgan siyosiy partiyalar ishini hozirgi zamonga mos deya olmaymiz, chunki ularning tajribasi kamligi, dasturlarida aniq maqsadlar va amalga oshirish rejalarida nuqsonlar ko‘pligi kishini tashvishga soladi.

Ma’lumki, hozirgi kunda respublikamizda “O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi” (1991-yil), “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi (1995-yil), “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi (1995-yil), Tadbir-korlar va ishbilarmonlar harakati partiyasi, “Liberal-demokratik” partiyasi (2003-yil), «Ekologik « partiyasi (2019-yil) faoliyat yuritmoqda. Endi ba’zi siyosiy partiyalarning Dasturlari ustida to‘xtalsak:

Masalan, Prezidentlikka eng keksa, tajribali Halq demokratik partiyasi Dasturini olaylik. Barcha taklif va tavsiyalar jamiyatni demokratik yo‘ldan olib borishga yo‘naltirilganligi taxsinga loyiq. Albatta, bu tavsiyalarni hayotda amalga oshirish qator ijtimoiy-huquqiy masalarni Oliy majlisda qonuniy yechimini topishda qiyinchiliklarni tug‘dirish ehtimoli bor. Dasturdagi «Sifatli oziq-ovqat mahsulotlari, kundalik ehtiyojdagi tovar va xizmatlarning ijtimoiy maqbulligini ta’minlash masalalari davlatning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Shuning uchun davlat tomonidan amalga oshirilayotgan bunday chora-tadbirlarni partiya tomonidan yana bir ko‘tarib chiqilishi mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi. Demak, bu esa fuqarolarimizda: «XDP Dasturining ko‘p joylari mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ayrim jihatlarini qayta takrorlayotgan ekan», – degan xulosa paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Xuddi shunday, «Adolat» sotsial-demokratik partiyasining Prezidentlikka Dasturidagi oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash va sog‘lomlashtirishning samarali mexanizmlarini yaratish bilan bog‘liq tashabbuslari mamlakatni rivojlantirish strategiyasida muhim o‘rin egallaydi. Qolaversa, xotin-qizlarning boshqaruvdagi ishtirokini oshirish masalasi ham bugun o‘z mevasini berayotgan tajribalardandir. Davlat boshqaruvining turli bo‘g‘inlarida ayollarimizning faoliyat ko‘rsatishiga bugun jamiyatning o‘zi xayrixoh bo‘lmoqda. Bu borada partiya tomonidan ularga doir qonunchilikni takomillashtirishi juda zarurdir. Ammo, shuni ham ta’kidlash lozimki, oilalarda ma’naviy-axloqiy muhit masalasi juda nozik va muhim masala. Uni faqat partiya xal qila ol-

masligi hammaga ma’lum. Fikrimizcha, bu masalada partiya tegishli Vazirliklar bilan hamkorlikda, qonunchilikka zarur hujjatlarni tayyorlash bo‘yicha o‘z Dasturini yoritsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

«Adolat» partiyasi bilan tengdosh, 1995-yilda tashkil topgan “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining Dasturi taxlilidan ma’lum bo‘lmoqdaki, partiya vakillari keyingi paytlarda o‘zining asosiy maqsadi- halqimiz, ayniqsa yoshlarimizning ma’naviy-ahloqiy tarbiyasi muammolaridan uzoqlashib, davlatning huquqiy, siyosiy va iqtisodiy sohalari masalalarini hal qilish borasida jonbozlik ko‘rsatmoqchi ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Balki bunga sabab, partiya sardorining mutahassizligi iqtisodchi bo‘lib, uning bu sohada ko‘proq ish faoliyati yuritganligidir. Ajablanarlisi, bu sohani mukammal egallagan nomzod Islom moliyalashtirish tizimining hozirgi moliyalashtirish tizimidan afzalligini Dasturda namoyon qila olmagan. Vaholanki, Islom moliyalashtirish tizimidagi banklar, Yevropa banklaridek foiz hisobiga kredit bermay, faqat «sherikchilik» asosida ishlashlari, iqtisodchilarga ma’lum. Sababi, hech qanday mehnat qilmay foiz olish, yani «sudho‘rlik» qilish musulmonlar uchun gunoh (ribo) hisoblanadi. Partiya bu iqtisodiy masalalarni diniy e’tiqodimizga moslashtirib, Dasturida ko‘rsata olsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Umuman olganda, hamma siyosiy partiyalarimiz o‘z dasturlarini Davlatimiz Dasturlaridagi g‘oyalarni qaytarmay, o‘z nomlariga mos aniq maqsadli rejalar tuzib, ularni amalga oshirishda boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan izchil tizim yaratishsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Davlatimiz Rahbarining Muroaatnomasidagi: 2023-yilni «Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili», – deb nomlanishi ham bejizga emas.

Shu bois, Prezident ta’kidlaganidek: “Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”, shuning uchun birinchi navbatda, e’tiborni Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya bo‘lgan ta’limni qo‘llab-quvvatlashga qaratishi-

miz lozim bo‘ladi. Bunday huquqiy asosni yaratishda, bosh qomusimiz – Konstitutsiyaga, birinchi navbatda o‘qituvchi-ustozlarimiz mavqe’ini ko‘tarish va inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish masalalari bo‘yicha fuqarolarimiz tomonidan quyidagi kabi juda ko‘p munozaralar va takliflar bo‘layotganligini guvohi bo‘lib turibmiz:

- 52-modda. Ўzbekiston Respublikasida ўqituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviй va madaniй salohiyatini saqlash hamda boйitishning asosi sifatida e’tirof etiladi.

- 53-modda. Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g‘amxo‘rlik qiladi.

Asosiy qomusi-mizning 65 foiz matni xalqimiz takliflari asosida yangilanligi, Konstitutsiyamiz modda va normalari soni esa qariyb uchdan bir qismga yangilangani, insonga munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirishga qaratilganligi misolida ham ko‘rish mumkin.

Agar, Bosh qomusimizni bizning kelajagimiz ekanligini, yuqorida davlat rahbarimiz ta’kidlaganlaridek, bo‘lajak avlodlarga munosib xizmat qiladigan, Yangi O‘zbekistonga mos bo‘lgan Konstitutsiyani har tomonlama o‘ylab, halq bilan maslahatlashib, ishlab chiqilganligini e’tiborga olsak, uni referendumda tasdiqlash bo‘yicha ovoz berish, har bir fuqaromiznig “ijtimoiy davlat” qurish poydevoriga o‘z hissasini qo‘shishi lozimligini toqazo etadi.

Demak, hozir biz buyuk o‘zgarishlar bo‘sag‘asida turibmiz va O‘zbekiston davlatining ravnaqi – uning “ijtimoiy davlat” qurish tamoyilini amalga oshirishdan iboratligini - har bir fuqaromiz anglab yetishi zarur.

YOSHLARNI IJTIMOIY FAOLLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUV

(“YOSHLAR DAFTARI misolida”)

Xudoynazar Kuchkarov,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya. Har qanday rivojlangan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosati ustuvor sanaladi. Bu siyosat mohiyatan davlatni taraqqiy toptirish, istiqbolda raqobatbardoshligini ta’minlash va milliy xavfsizligini mustahkamlashni ko‘zda tutadi. Ushbu maqolada O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining amaliy harakati bo‘lgan “yoshlar daftari” doirasidagi ishlar tahlilga tortilgan.

Tayanch so‘zlar. Globallashuv, yoshlarga oid davlat siyosati, “yoshlar daftari”, “Harakatlar strategiyasi”, Uchinchi Renessans, Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya, “Yoshlar parlamenti”.

Yoshlarga oid davlat siyosati muhim siyosiy yo‘nalish sifatida izchil jarayon bo‘lib, u yoshlar mavqeyi va hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan voqelikning bosh xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarga oid davlat siyosati siyosiy yo‘nalish sifatida O‘zbekistonning mustaqillik yillari tarixida yuz bergan hamda davlat tomonidan maqsadli amalga oshirilgan yoshlarga oid barcha ijtimoiy o‘zgarishlar, tub islohotlar, transformatsiya jarayonlarini bosib o‘tdi.

Alohida ta’kidlash joiz, «2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi»da ham yoshlar masalasi alohida o‘z aksini topgan. O‘zbekistonda yoshlarga oid Davlat siyosatining maqsadi yoshlarning rivojlanishi, ularning ijodiy salohiyatini to‘la namoyon qilishlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy shart-sharoit va kafolatlarni ta’minlash qilib belgilangan.

Ushbu tamoyillar yoshlarni kamol toptirish, zamonaviy bilim va ko‘nikmlarni egallagan holda davlat va jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishda katta ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan O‘zbekiston tarixida ilk marotaba 30 iyun kuni – Yoshlar kuni deb e’lon qilindi. O‘tgan besh yil mobaynida yoshlar siyosatiga doir jami 53 ta Qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 5ta Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 7ta farmoni, 14ta qarori, 2ta farmoyishi, Vazirlar Mahkamasining 23ta qarori va 4ta farmoyishi imzolandi.

Mamlakatimizda aynan yoshlar hayoti, ularning taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar bo‘yicha muhim hujjatlar qabul qilindi. Xususan, 2016-yil 14-sentabr kuni yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi.

2017 – 2021-yillar mobaynida mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda mutaqo yangi tizim yaratildi. Yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga ko‘maklashish maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiya tashkil etildi. Shuningdek, Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasida “Yoshlar parlament”lari tashkil etildi.

2018-yildan boshlab, oliy ta’lim muassasalarining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektori lavozimi o‘rniga yoshlar bilan ishlash bo‘yicha prorektori lavozimi joriy etildi hamda yoshlar bilan ishlash bo‘yicha prorektorlarning faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash va sport masalalari bo‘yicha maslahatchisi bo‘linmalariga yuklandi.

Yoshlar siyosati samaradorligini oshirish maqsadida respublikadagi 182 ta vazirlik, idora va tashkilotlarda Yetakchi-

lar Kengashlari tashkil etildi. Boshlang‘ich tashkilot yetakchisi lavozimi uchun alohida shtat birligi ajratilib, maqomiga ko‘ra rahbarning yoshlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari yoki maslahatchisi lavozimiga tenglashtirildi.

Toshkent shahri, Farg‘ona, Xorazm va Samarqand viloyatlaridagi harbiy akademik litseylarga “Temurbeklar maktabi” nomi berildi. Hududlarda Prezident maktablarii hamda ijod maktablari barpo etildi.

O‘zbekiston Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi hamda uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘limlari tashkil etildi. Agentlikning asosiy vazifa va faoliyat yo‘nalishlari belgilandi. Agentlik, jumladan, yoshlar bilan bog‘liq soha va yo‘nalishlarda yagona davlat siyosati, strategik yo‘nalishlar va davlat dasturlarini ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi. Shuningdek, Agentlik yoshlar siyosati sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi.

Mamlakatimiz Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish taklifini ilgari surgan edilar. Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida esa yana bir bor jahon hamjamiyatini Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyasini qabul qilish bo‘yicha O‘zbekiston tashabbusini qo‘llab-quvvatlashga chaqirdi.

Prezidentimiz tomonidan taklif etilgan tashabbus – Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasining qabul qilinishi bugun navqiron avlod duch kelayotgan aniq muammolarni hal qilish, sohaga oid turli xalqaro hujjatlardagi nomutanosibliklarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda xalqaro hamjamiyat tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan ishsiz yoshlarni ish bilan ta’minlashga qaratilgan mutlaqo yangi tizim ishlab chiqildi. Xususan, yoshlar bandligini ta’minlash maqsadida “Yoshlar daftari”ni yuritish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Hozirda respublikaning barcha hududlarida uyma-uy yurish orqali mahallalar kesimida ko‘makka muhtoj bo‘lgan ishsiz yoshlar ro‘yxati shakllantirilmoqda.

“Yoshlar daftari” – bu hududlardagi har bir sektor hududi kesimida istiqomat qilayotgan, 18 yoshga to‘lgan 30 yoshdan oshmagan ishsiz yoshlarning manzilli ro‘yxati qayd etiladigan elektron dasturdir. Ushbu daftarga yoshi, jinsi, kasbga layoqati bo‘yicha: bitiruvchi yoshlar, hozirda ishsiz bo‘lgan yoshlar, ishga muhtoj nogiron yoshlar, xorijdan qaytgan yoshlar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan yoshlar, harbiy xizmatdan qaytgan yoshlar kiritiladi.

“Uyushmagan yoshlar” atamasi o‘z maqsadini individual tarzda, davlat va jamiyatda yaratilgan imkoniyatlardan foydalanmasdan, nofaol (primitiv) tarzda samarasiz amalga oshirayotgan yoshlarga nisbatan qo‘llaniladi. Bu toifadagi o‘g‘il-qizlar o‘zining ertangi kunini davlat va jamiyat manfaati bilan uyg‘unlashtirish ko‘nikmasiga ega bo‘lmaydi. Ayni chog‘da olimlar bunday yoshlar mamlakat navqiron avlod vakillarining eng ko‘p e’tibor talab qiladigan qismi ekanligini qayd etishgan.

“Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi doirasida 7 690 ta biznes loyihaga jami 1 614 mlrd so‘m miqdorida imtiyozli kredit mablag‘lari ajratish orqali 39577 ta yangi ish o‘rinlari yaratilishiga erishildi. Jumladan, Davlat dasturi doirasida ishlab chiqarish sohasida 742,9 mlrd so‘mlik 3 536 ta, xizmat ko‘rsatish sohasida 581,1 mlrd so‘mlik 2 770 ta, qishloq xo‘jaligi sohasida 290,5 mlrd so‘mlik 1 384 ta loyiha realizatsiya qilindi.

Bugun davlat va jamoat muassasalari yoshlarga avvalo resurs sifatida qaramoqda va kelgusida ular mamlakatning fuqarosi sifatida o‘z salohiyatini yuzaga chiqara olishi uchun sharoit yaratib berish yo‘lida islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatimiz aholisining 30 foizi 14dan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlardir. Ularning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun zamonaviy sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Shu

ZJV5401

bilan birga, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma’naviy barkamol bo‘lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shuncha kuchli bo‘ladi.

Ma’lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surdi.

Binobarin, yoshlar siyosati davlat tomonidan aholining yosh qatlami uchun munosib shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratish va bu yo‘nalishdagi amaliy faoliyatni muntazam qo‘llab quvvatlashdir. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, turli davlatlarda yoshlar siyosati turlicha olib boriladi. Bu hukumat yoshlarning jamiyatdagi rolini qanday baholashi bilan bog‘liqdir.

Yoshlarga muammo sifatida qarab siyosat olib boradigan mamlakatlar hukumati faqat tarbiyasi og‘ir va huquqbuzarlikka moyil yoshlar bilan ishlaydi. Bunda davlatning maqsadi faqat ularni huquqini ta’minlash imkonini yaratish bo‘ladi.

Yoshlarga resurs sifatida qarab olib boriladigan siyosat – bu o‘zini huquqlari, qobiliyatlariga ega to‘laqonli fuqarolar sifatida qadrlash va ularning imkoniyatlarini yanada kengroq namoyon etish uchun sharoitlar yaratish. Ushbu yondashuv ularning mustaqil mehnat va ijod qilishini rag‘batlantiradi va tanqidiy-tahliliy mushohadasini kuchaytiradi, jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilishga undaydi. Bunday siyosat hamma yoshlarga maqsadli guruhlar sifatida qaraydi.

Aynan bugun O‘zbekistonda davlat yoshlar manfaatlarini ta’minlash, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, katta maqsadlar sari safarbar etish uchun mamlakatdagi barcha sektorlarni jalb etmoqda.

Bugun jamiyat hayotining barcha jabhasida jadal o‘zgarishlar jarayoni kechayapti. Davr bilan hamnafas, zamondan bir qadam oldinda yurish uchun keng dunyoqarash, teran tafakkur lozim. Yigit-qizlarimizda bunday fazilat mavjud. Agar ular bilan to‘g‘ri ish olib borilsa, shak-shubhasiz, yoshlar ertangi taraqqiyotimizning asosiy ijodkorlari bo‘lishadi. Yoshlarning ulkan salohiyatidan unumli foydalanish katta ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, davlat boshqaruviga Vatanga

sadoqatli, kelajakka daxldor yoshlarning jalb qilinishi yangi marralar sari yo‘l ochadi, ilg‘or yondashuvlarni yuzaga chiqaradi, jamiyat hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida 550 dan ortiq O‘zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkilotlari tuzildi va ularga 90 mingga yaqin harbiy xizmatchilar a’zolikka qabul qilindi.

Harbiy qism va harbiy ta’lim muassasalaridagi kutubxonalarga 18 mingdan ortiq o‘zbek va jahon adabiyotining durdona asarlari, harbiy qismlardagi boshlang‘ich tashkilotlar yetakchilari uchun 1000 dona uslubiy qo‘llanma hamda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan 245 mingdan ortiq tarqatma materiallar tarqatildi.

Shu bilan birga O‘zbekistonda buyuk alloma Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Yosh matematiklar xalqaro olimpiadasi muvaffaqiyatli o‘tkazilgan, uning mantiqiy davomi sifatida fizika bo‘yicha Ahmad Farg‘oniy, kimyo fani bo‘yicha Abu Rayhon Beruniy, biologiya bo‘yicha Abu Ali ibn Sino, astronomiya bo‘yicha Mirzo Ulug‘bek nomlaridagi xalqaro fan olimpiadalari tashkil etilishi ham iqtidor va iste’dodli yoshlarni qo‘llab quvvatlashdir. Mana, amalda bugun ijod, Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablarning faoliyati, oltin, kumush medal joriy etilgani, islohotlarning hayotiyligi va ijrosini ta’minlashdir.

Yoshlarning tadbirkorlik bilan shug‘ullanishlari uchun sharoitlar yaratish, ularni turli zararli illatlar ta’siridan himoya qilish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish kabi muhim vazifalarni hal etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.06.2018-yildagi PF-5466-Farmoni «Yoshlar – kelajagimiz» jamg‘armasi tashkil qilindi. Jamg‘arma yoshlar biznes tashabbuslarini, startap, g‘oya va loyihalarini amalga oshirishlari uchun tijorat banklari orqali yillik 7 foiz miqdorida imtiyozli kreditlar va lizing xizmatlari ko‘rsatish; hamda dastur doirasida ajratilayotgan kreditlar miqdorining 50 foizidan oshmagan miqdorda kafilliklar berish kabi imtiyozlarni amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi o‘rtasida 2017-yil 5-dekabrda yoshlar masalalari sohasida o‘zaro hamkorlik to‘g‘risidagi memorandum

imzolandi va yoshlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarlik va jinoyatlarga jazo tayinlashda Yoshlar ittifoqi kafolat xatiga asosan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo tayinlash mexanizmi joriy etildi.

Shunga muvofiq, o‘tgan davr mobaynida adashib jinoyat yo‘liga kirgan, sodir etgan jinoiy qilmishidan chin ko‘ngidan pushaymon bo‘lgan 780 nafar yoshlar “Yoshlar ittifoqi kafilligi” asosida sud zalidan ozod qilindi.

Jahon tajribasida ham yoshlarga resurs sifatida, ularni mahalliy hamjamiyatlarning mulki yoki faol o‘zgarishlar agenti sifatida qaralsa ular o‘zlaring barcha quvvatini, entuiziaizm, g‘oyalarini jamiyatni yanada takomillashtirishga yo‘naltirishadi. Ular yoshlarga oid siyosatni yuritishda muhim siyosiy qarorlar qabul qilishda ishtirok eta oladi.

Yoshlarni shunday davlat va jamiyat ahamiyatiga molik qarorlar qabul qilinishida jalb etish, ularda qabul qiliniyottgan qarorlar uchun daxldorlik, jamoaviy mas’uliyat hissini shakllantiradi. Yoshlar qabul qilingan qarorlar uchun mas’uliyatni his qilganda ularni amalga oshirish yana ham yengillashadi va o‘sha siyosatni o‘zlari qo‘llab-quvvatlaydi, bu esa yoshlarga oid davlat siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshishishi ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. https://lex.uz/docs/5285521
2. https://www.lex.uz/docs/3765586?ONDATE=06.06.2018%2000#3777250
3. https://lex.uz/docs/4880189
4. https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017
5.https://kun.uz/uz/news/2021/03/23/yoshlar-kelajagimiz-jamgarmasi-yoshlar-tadbirkorligini-qollab-quvvatlash-borasidagi-loyihalari-natijadorligi-boyicha-malumot-berdi
6. B.X.Tashmatov. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash–davlat siyosati markazida. https://assets.slib.uz/edition/file//5df927146c66a.pdf
7. https://lex.uz/docs/-3826820

YANGI O‘ZBEKISTON IJTIMOIY DAVLATNING YORQIN NAMUNASI

O‘lmasxo‘jayev Zoirxo‘ja Abbos o‘g‘li,
Ijtimoiy ma’naviy tadqiqiotlar instituti katta ilmiy xodimi, s.f.f.d.

“Yangi O‘zbekistonni o‘z hayotidan rozi, baxtli insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish ushbu yo‘nalishdagi islohotlarimizning asosiy maqsadidir”[1]. Bugungi kunda O‘zbekiston davlatining siyosiy-huquqiy maqomiga yangi uchta, ya’ni “huquqiy davlat”, “ijtimoiy davlat” va “dunyoviy davlat” tushunchalari qo‘shimcha qilindi.

Huquqiy davlat – bu demokratik tamoyillar asosida qabul qilingan qonunlar oldida barcha teng va hisobdor bo‘lgan, hech kim qonundan ustun turmaydigan davlat. Qolaversa, qonunlarning butun davlat hududidagi ustuvorligi, hokimiyatlar vakolatining bo‘linishi, shaxs va davlatning o‘zaro ma’sulligi, inson huquqlari va erkinliklarining himoyalanishidir. Ijtimoiy davlat – bu har bir fuqaroning munosib turmush sifati va darajasiga erishish, ijtimoiy tafovutlarni yumshatish va muhtojlarga yordam berish uchun ijtimoiy adolat tamoyillariga muvofiq moddiy boyliklarni adolatli taqsimlashga qaratilgan davlat modelidir.

Dunyoviy davlat – davlat hokimiyati va boshqaruvdan din ajratilgan, boshqaruv diniy qoidalar bilan emas, balki fuqarolik qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadigan, qarorlar qabul qliishda diniy asoslarga tayanilmaydigan davlatdir. Shuningdek, hech qanday din va mafkura davlatning majburlov kuchi bilan o‘rnatilmasligini, ularning davlatdan ayri ekanligini tavsiflaydi. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, dunyoviy davlatda din davlatdan va siyosatdan ajratilsa-da, jamiyatdan ajratilmaydi.

Ijtimoiy davlat funksiyalari – bu ijtimoiy himoyalanmagan yoki ehtiyojmand qatlamni qo‘llab-quvvatlash; ishsizlikka

qarshi kurashish; tadbirkorlarga yordam; aholining bandligini va daromadlarini doimiy o‘sishini ta’minlash; ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar va ma’naviy-madaniy rivojlanishning qulayligini ta’minlash; jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni yumshatish, imtiyozlarni qayta taqsimlash orqali munosib turmush sharoitini yaratish. Ijtimoiy davlat belgilari: – bu sifatli ta’lim, malakali va maqbul tibbiy xizmat; ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiyot; fuqarolik jamiyatini rivojlanganligi; ijtimoiy davlat dasturlarini ishlab chiqishi va amalga oshirish; davlatning har kimga munosib turmush sharoiti, ijtimoiy ta’minot va shaxsning o‘zini o‘zi anglashi uchun teng boshlang‘ich sharoitlarini ta’minlash maqsadlarini tasdiqlash; fuqarolar oldidagi ijtimoiy mas’uliyat; ijtimoiy sohaga to‘lovlarning yuqori miqdori; ijtimoiy hayotni yaxshi rivojlangan tartibga solish tizimi; budjetdan ijtimoiy to‘lovlarining mavjudligi; ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta’minot va bandlik davlat tizimlarining mavjudligi; jamiyatning barcha muhtoj a’zolarini istisnosiz ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning mavjudligi; fuqarolarning farovonlik darajasi uchun davlat tomonidan javobgarlikni qabul qilish.“Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi” IV bobida “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, strategiyaning 43 ta maqsadi bevosita har bir fuqaroning munosib turmush sifati va darajasini ko‘tarishga qaratilgan [2].

“Ijtimoiy davlat” tushunchasi birinchi marta XIX asr o‘rtalarida Lorens fon Shteyn tomonidan ilgari surilgan. U davlat g‘oyasi tenglik va erkinlikni tiklash, kam ta’minlangan sinflarni boy va kuchlilar darajasiga ko‘tarish, davlat “barcha a’zolarining iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini amalga oshirishi, chunki birining rivojlanishi boshqasining rivojlanishining sharti va natijasidir”. Ijtimoiy davlat – umumiy tamoyillari (aralash iqtisodiyot, ijtimoiy muammolarni hal qilishda ishtirok etish va boshqalar) dunyoning iqtisodiy rivojlangan aksariyat mamlakatlarida amalga oshirilgan model. Ijtimoiy davlat modeli Buyuk Britaniya, Fransiya, Shvetsiya, Italiya, Belgiya, Daniya, Findland, Germaniya, Portugaliya, Ispaniya,

Avstriya, Gretsiya, Yaponiya, Niderlandi, Shveysariya, AQSH kabi davlatlarda qo‘llanilmoqda. Huquqiy va dunyoviy davlat tushunchasi Germaniya, Ispaniya, Italiya, SSHA, Fransiya kabi davlatlar Konstitutsiyalarda ifodalangan.

Mutaxassislar tomonidan xorijiy davlatlarning ijtimoiy siyosatining tahlili natijasida ijtimoiy davlatning uchta modeli Skandivaniya , Kontinental , Amerika-Buyuk britaniya modellari ajratiladi.

Shunday qilib, birinchidan, Skandivaniya, Kontinental, Amerika-Britaniya modellari bo‘yicha ijtimoiy davlatlarda, liberal davlatlarda davlat tomonidan ijtimoiy xarajatlarga minimal mablag‘lar ajratiladi, bir vaqtning o‘zida ijtimoiy yordamga muhtojlar har tomonlama o‘rganiladi. Bajarilgan ish hamda tadbirkorlik bilan shug‘ullanish natijasida olinadigan har tomonlama kafolatlangan daromad fuqarolarning ijtimoiy farovonligini ta’minlashning asosiy manbai hisoblanadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy davlatning sotsial-demokratik turi Skandinaviya turiga mos keladi. Bu yerda moddiy ne’matlarni aholi orasida qayta taqsimlash va ijtimoiy ehtiyojga zarur xarajatlarda davlatning ustunligi mavjud.

Uchinchidan, ushbu jarayon davlat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan kuchli jamoatchilik nazorati asosida kuzatiladi. Shuningdek, jarayonning borishi, samaradorlikni aniqlash, vujudga kelayotgan muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va zarur qarorlar qabul qilish uchun tizimli monitoring va tahlil qilib borishning mustaqil tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

To‘rtinchidan, ijtimoiy davlatchilik Osiyo davlatlarida – Yaponiya, Janubiy Koreya, Tayvanda ham rivojlanib bormoqda. Ijtimoiy davlatchilik O‘zbekistonda ham rivojlanib bormoqda. O‘ziga xos yutuqlar bor. Endilikda bu tizimni Konstitutsiya darajasida mustahkamlash kun tartibida turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh. Mirziyoyev, “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. 199-bet.
2. Sh. Mirziyoyev, “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”.

FUQAROLIK MAS'ULIYATI – YANGI O'ZBEKISTON ISLOHOTLARINI AMALGA OSHIRISH GAROVIDIR

Turatov Shuhrat Bahromovich,
Jizzax Politexnika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, f.f.b.f.d. (PhD) Jizzax viloyat Ma'rifat targ'ibotchilar jamiyati a'zosi

Hech kimga sir emaski, bugun jamiyatimiz taraqqiyotining eng muhim davrida turibmiz. Mamlakatimiz "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" shiori ostida birlashib, o'z taqdiri va o'z kelajagi taraqqiyotini ta'minlovchi xalq Konstitutsiyasini yaratmoqda.

Yangi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'zining xalqchiligi, jamiyat va inson ma'nfatlarini o'zida jamlagani bilan bugunda va kelajagdagi mamlaktimiz taraqqiyotining garovi hisoblanadi. E'tiborli jihati shundaki, Yangi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson va fuqarolarning haq-huquqiga qaratilgani bilan birga uning o'ziga xos jamiyat va inson oldida mas'uliyati yuklashi bilan ajralib turadi. Nega bugun fuqarolarning mas'uliyatiga yuksak darajada e'tibor qaratilayapti. Bugungi kunda O'zbekistonda fuqarolarning o'z huquq, burch va mas'uliyatlarini yaxshi bilishlari ijtimoiy taraqqiyotning muhim sharti va omillaridan biri bo'lib hisoblanib, qonunlarni bilish, ularga amal qilish, ahloqiy va estetik qadriyatlar, ong va madaniyatni yuksaltirish, jamiyat hayotida mehnat intizomini saqlash, ijtimoiy burchga vijdonan yondashuv kabi masalalarga katta e'tibor berilib, hozirgi sharoitda O'zbekistonda fuqarolar mas'uliyatini har tomonlama rivojlantirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotida fuqarolik mas'uliyati jamiyatning demokratik rivojlanishi jarayonida erishilgan yutuq va muvaffaqiyatlarga fuqarolarning ongli munosabatini o'zida ifodalaydi. Fuqarolik mas'uliyati jamiyatdagi

ZJV5401

demokratik o‘zgarishlarning uzviy qismi bo‘lib, jamiyat o‘zining demokratik rivojlanishida fuqarolarga tenglik, ozodlik, birodarlikni hayotiy voqelikka aylantiruvchi turli huquqlarni beradi, shu bilan birgalikda bu huquqlarga rioya qilish, o‘z huquqlaridan ijodiy ravishda, jamiyat manfaatlarini ko‘zlagan holatda foydalanishni talab qiladi. Mas’uliyat - arab tilidan olingan so‘z bo‘lib, javobgarlik, hisob berishlik degan ma’nolarni bildiradi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida esa, mas’uliyat – biror ish, xatti-harakat oqibati, natijasi uchun bo‘lgan javobgarlikdir. Hozirgi davr ijtimoiy fanlarda “mas’uliyat” va “ijtimoiy mas’uliyat” tushunchalari keng qo‘llanilib, ushbu tushunchalarning negizida insonning yon-atrofga, ijtimoiy munosabatlarga, olamni anglashga oid tajribasi, ya’ni, faoliyati yotadi. Mas’uliyat arabcha “mas’ul” – javobgarlik, hisob berishlik tushunchalarini ifoda etib, biror ishda xatti-harakat oqibati, natijasi uchun javobgarlik hisoblanadi. Mas’uliyat so‘zining o‘zagi “mas’ul” - javob beruvchi, javobgar degan ma’nolarni o‘zida ifodalab, mas’uliyat yuklatilgan, vazifa javobgarligi zimmasida bo‘lgan, javobgar ish natijasi uchun bo‘lgan javobgarlik, biror ish xatti-harakatida natijaviy hisobot berishlik hamda mas’uliyatlilik qonuniyatlariga muvofiq qilinadigan hayotiy tajribalarda insonlar oldida turgan mukammal va nihoyatda yuqori o‘rinda turuvchi amaldagi jarayonlar hisoblanadi. SHuningdek, ijtimoiy mas’uliyat fuqarolarning Vatan va xalq manfaati, mamlakat taqdiri hamda ishi uchun fidoyilik bilan xizmat qilishi, jamiyat taraqqiyoti uchun fidoyilik bilan xizmat qilishi, jamiyat taraqqiyoti uchun kamarbasta bo‘lishi, amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlarda faol qatnashishi, davlat va jamiyatning muhim masalalarini hal qilishda munosib ishtiroki, tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga ko‘mak berishidir. Ijtimoiy mas’uliyat deganda aholining jamiyatda olib borilayotgan islohotlar jarayonida mas’uliyat, fidoyilik, jonbozlik ko‘rsatishi va ko‘tarinki ruhda ishtirok etishi tushuniladi. Bu fuqarolarning davlat tomonidan chiqarilgan qonunlar va me’yoriy-

huquqiy hujjatlar ijrosini ta’minlashda va ularni amaliyotga joriy etishda chuqur mas’uliyat bilan qatnashishida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Fuqarolar jamiyatdagi siyosiy jarayonlarda faol ishtirokchi bo‘lib, uning mohiyatini teran anglab etsa, siyosiy faolligi oshadi. Jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy, madaniy sohalarida fuqarolik mas’uliyati o‘sha sohaga oid bo‘lgan jarayonlar bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

E’tibor bersak, falsafa tarixida mas’uliyat tushunchasi Platon tomonidan adolat tushunchasi bilan bog‘lab tushuntirilgan bo‘lsa, Tomas Gobbs mas’uliyatni ijtimoiy shartnomaga muvofiq birlashgan fuqarolarning davlat harakatlari uchun mavhum javobgarligidan iborat deb hisoblaydi. I.Kant shaxs mas’uliyatini uning burchi bilan bog‘lab tushuntirsa, G.Gegel esa – shaxs muayyan xulq-atvor tarzining zarurligini oqilona anglashi bilan tenglashtirgan holda tushuntiradi. Bugungi kunda mas’uliyat tushunchasiga ko‘pgina olimlar o‘zaro aloqador taraflarning manfaatlari va erkinligini ta’minlovchi, davlat va jamiyat tomonidan kafolatlangan munosabat sifatida yondoshmoqdalar. Ularning fikricha, davlat boshqaruvida mas’uliyatni oshirish uchun tashkiliy huquqiy va axloqiy xususiyatga ega chora-tadbirlar majmui zarurdir. Ayrim mualliflar mas’uliyat deganda keng ma’noda shaxsning jamiyatga (umuman insoniyatga) nisbatan xizmatga doir va axloqiy joizlikni amalga oshirish darajasi bilan tavsiflanuvchi alohida ijtimoiy va ma’naviy-axloqiy munosabati in’ikosini tushunadilar. Ba’zan mas’uliyatga axloq va huquq kategoriyasi sifatida ta’rif beriladi. Bu holda u shaxsning jamiyatga nisbatan o‘z ma’naviy burchi va huquqiy me’yorlarni bajarishi bilan tavsiflanuvchi alohida ijtimoiy va axloqiy-huquqiy munosabatini aks ettiradi. Bu ma’noda mas’uliyat boshqaruv qarorlarini qabul qilishda davlat hamda jamiyat mahalliy manfaatlarining anglanish darajasini o‘zida ifodalaydi. Ba’zi manbalarda mas’uliyat “shaxs xulq-atvori ustidan ijtimoiy nazoratni amalga oshi-

rish shakli sifatida, pirovard natijaning ko‘zlangan maqsadga, boshqaruv suyektining siyosiy, yuridik, ijtimoiy va boshqa munosabatlarining obyekt bilan muvofiqligi mezonlari sifatida, bajarilgan ish uchun tashkilot, davlat va jamiyat oldida javob berish qobiliyati sifatida, rahbarning kasbiy, shaxsiy va ishbilarmonlik fazilatlari omili sifatida, uning faoliyat uslubi xususiyati sifatida, boshqaruvni rag‘batlantirish va uning samaradorligi omili sifatida” ta’riflanadi. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib ijtimoiy mas’uliyat deganda ijtimoiy manfaatlarni ro‘yobga chiqarishda boshqaruv suyektlari o‘rtasidagi obyektiv bog‘liqlik shaklini, shuningdek, suyektning o‘z faoliyati natijalari uchun ijtimoiy birlik oldida javob berish qobiliyatini tushunish mumkin. Mas’uliyat boshqarish sohasiga ham tegishli bo‘lib, ushbu mas’uliyat hokimiyat organi, uning rahbari va xodimlari qonuniy qabul qilingan xizmat faoliyati va xulq-atvor me’yorlari, qoidalari va tartib-tamoillarini tan olishi va ularga rioya qilishini va o‘z harakatlari yoki harakatsizligi natijasi uchun javob berish qobiliyatini ifodalovchi ijtimoiy aloqalar shaklidan iboratdir.

Bugungi kunda O‘zbekistonda yoshlarning hayotiy maqsadlarini hayotga tatbiq etishlari uchun zarur bo‘lgan barcha sharoitlar yaratilib, yoshlar muammolari davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, yoshlarda fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasida ta’lim va tarbiya uyg‘unligi masalasiga e’tibor kuchaytirilmoqda. Yoshlarni yuksak axloq va intizomli qilib tarbiyalash, ularning sifatli ta’lim olishi va vatanparvarlik ruhida voyaga etishi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim omili sifatida e’tirof etilmoqda. Yoshlarda fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish va rivojlantirish O‘zbekistonda ijtimoiy barqarorlik, jamiyat taraqqiyoti va qo‘lga kiritilayotgan muvaffaqiyatlarning muhim asosi bo‘lib, milliy g‘oya va mafkura asosida muayyan maqsadga yo‘naltirilgan, jipslashgan yoshlarni tarbiyalash masalasiga O‘zbekistonda bugungi kunda katta e’tibor qaratilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliev tahriri ostida. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, M. C:/Users/User/Desktop/O‘zbek-tilining-izohli-lug‘ati-M.pdf.

2. Numonova D.U. O‘zbekiston zamonaviy ma’naviy-madaniy taraqqiyotida ayollar mas’uliyatini oshirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili. 09.00.04-Ijtimoiy falsafa. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi. Samarqand 2020. 14 bet.

3. Ochilova B., Saitqosimov A., Nazarqosimov S. Fuqarolik jamiyati sotsial mexanizmi va asoslari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Tafakkur” nashriyoti, 2021 yil, 296-297 betlar.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi. Milliy manfaatlar va boshqaruv mas’uliyati. (Tajribaviy qo‘llanma). Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008 yil, 43 bet.

IJTIMOIY DAVLATDA MA’NAVIYAT MASALASI

Ernazarova Shoira,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy davlat, unda ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash masakasi, ma’naviyatning o‘ziga xos xususiyatlari, ma’naviyat borasida olim va faylasuflarning fikrlaridan yoritib berilgan. Shuningdek, jamiyat ma’naviy taraqqiyotiga tahdid solayotgan ma’naviy tahdidlar va ularga qarshi kurashishning ijtimoiy zaruriyati to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Tayanch so‘zlar: Ma’naviyat, ijtimoiy muhit, moddiy va ma’naviy hayot, ma’naviy meros, sivilizatsiya.

O‘zbekiston bugungi kunda ijtimoiy davlat deya yuritilmoqda. Xo‘sh ijtimoiy davlat qanaqa davlat? Ijtimoiy davlat o‘z siyosatida ijtimoiy adolat tamoyillaridan kelib chiqib, faoliyat yuritadigan davlat. Asosiy maqsadi – jamiyatda yaratilayotgan moddiy va ma’naviy boyliklarni ijtimoiy adolat tamoyili asosida qayta taqsimlashdan iboratdir. Bunda har bir fuqaroning maishiy turmush tarzi holatini sifat jihatdan yuqori darajaga olib chiqish, aholining turmush sharoiti va sifati jihatdan tabaqalanishiga, ya’ni ular o‘rtasidagi yashash uchun ketadigan sarf-xarajatlar bo‘yicha farqlarning kattalashib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismiga davlat tomonidan kafolatlar tizim orqali yordam ko‘rsatiladi. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, maqsad yaratilgan ne’matlardan ijtimoiy kafolatlar orqali hamma bahramand bo‘lishini ta’minlaydi. Endi bunday davlatda ma’naviyatning o‘rni qanday? Yuqorida sanab o‘tilgan sifatlarni amalga oshirish uchun avvalambor rahbar xodimdan tortib, toki oddiy fuqaroda ham ma’naviy ong shakllangan bo‘lishi lozim. Ma’naviyati yuksak, aqlan yetuk bo‘lsagina ijtimoiy adolat prinsiplarini qo‘llay oladi.

Xo‘sh, ma’naviyatning o‘zi nima? Ma’naviyat insonning zoxiriy va botiniy jihatlarini o‘zida qamrab oladi. Bu tushuncha borasida ilmiy, falsafiy, adabiy, axloqiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko‘plab ta’riflarni keltirish mumkin. SHu nuqtayi nazardan qaralganda, olimlarimiz tomonidan tayyorlangan ilmiy maqolalar, risolalar, o‘quv qo‘llanmalar, lug‘atlarda “Ma’naviyat” tushunchasi va uning tamoyillariga o‘ziga xos izoh va ta’riflar beriladi. Aslida ma’naviyat – insonni jamiki boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan ma’naviy-ruhiy omil hisoblanadi. Inson – tabiatning, barcha mavjudotning gultoji deyilganda uning ushbu xislati, ya’ni yuksak ma’naviyat egasi bo‘la olish imkoniyati nazarda tutiladi. Bu imkonni boshqa jonzotlarda ko‘rmaymiz. Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va quvvat bersa, ma’naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag‘ishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta’minlanish bilan kifoyalanish – ongsiz va ruhsiz maxluqotlarga xos. Ma’naviyatga intilish esa ruh va ong egasi bo‘lmish odamzotgagina xos fazilatdir. Ma’naviyat odamning aqliy va ruhiy olami majmui kabi murakkab ijtimoiy hodisadir.

Ma’naviyat ko‘proq inson qalbiga, botiniy dunyosiga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Shu ma’noda ma’naviyat inson qalbidagi ilohiy bir nur sanaladiki, bu ilohiy nur hech bir jonzotda yo‘q.

“Ma’naviyat – insondagi axloq, odob, bilim, ilm, iymon, ixlos va insoniyat kamoloti uchun ijobiy ta’sir qiluvchi tizim yoki ma’naviyat – insonning aqliy, axloqiy, ilmiy, amaliy, mafkuraviy qarashlar yig‘indisi hisoblanib, diniy va dunyoviy qarashlarning aks etish darajasidir”, degan ta’rifga, faylasuf A.Erkaev “Ma’naviyat – insoning ijtimoiy – madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya’ni insonning mehr-muruvvat, adolat, to‘g‘rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go‘zallikni sevish, zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko‘plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuidir”, degan fikri hamohahg keladi.

E.Yusupov insonda mavjud bo‘ladigan hamma xislatlar va fazilatlar emas, balki ijobiylarigina ma’naviyat bo‘la olishini

ko‘rsatib: “Ma’naviyat – inson axloqi va odobi, bilimlari, istedodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e’tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarning bir-biri bilan uzviy bog‘langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir etadigan mushtarak tizimdir”, deb ta’riflaydi.

Ma’naviyat – odamning ruhiy va aqliy imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi, inson qalbini eng pokiza tuyg‘ular bilan boyituvchi hamda uni ezgu maqsadlar sari yetaklovchi beqiyos kuchdir. Ma’naviyat inson va jamiyat madaniyatining negizi, inson va jamiyat hayotining muhim yo‘nalishlarini belgilab beruvchi bosh omildir. Ma’naviyat insonlarning ruhiy olamini boyitib, mavjud jamiyatning ma’naviy qiyofasini ko‘rsatib beruvchi mezondir. Ma’naviyat insonlarning ijtimoiylashuv jarayoniga turtki berib, aniq maqsadlar sari harakatga chorlovchi kuch hisoblanadi. Shuni unutmaslik lozimki, ma’naviyatsiz jamiyat insoniyat olamini butkul tanazzulga yetaklaydi.

Ma’lumki, inson va jamiyat - bir-biri bilan uzviy aloqada va muayyan qonun-qoidalar asosida rivojlanib boradi. Inson jamiyatdan tashqarida o‘zining haqiqiy mohiyatini yo‘qotadi. Biroq jamiyat insonlarning shunchaki yig‘indisidangina iborat emas. Jamiyat odamlar o‘rtasida amal qiladigan real munosabatlarni ham qamrab oladi. Bunday munosabatlar kishilarni oila, urug‘, qabila, millat, davlat va nihoyat, insoniyat hamjamiyatiga birlashtiradi. Odamlar yig‘indisini xis etish, hamda kuzatish mumkin. Buni iloji bor. Biroq odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy-ma’naviy munosabatlarni ko‘rish, kuzatish yoki aniq xulosa berish murakkab holat hisoblanadi, chunki ularyashirin xarakterga ega bo‘lib, jismsiz, nomoddiy ko‘rinishdadir. Jamiyat hayotida ana shunday munosabatlar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Demak, insonlar bir-birini inkor etishi, o‘zlarini yagona har narsani anglaguvchi, boshqalardan aqlliroq va to‘g‘ri fikr yurituvchi, jamiyatdan alohida individual shaxs sifatida mavjud deb o‘ylashlari mumkin. Lekin har qanday sharoitda ham ular ijtimoiylik munosabatlari ichida qoladilar va jamiyatning g‘oyalari bilan birga yashaydilar. Ana shu jarayonda muayyan bir jamiyatda yashayotgan kis-

hilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yagona vosita sifatida ma’naviyat masalasi yuzaga keladi. Bunday munosabatlarni yo‘lga soluvchi yagonavosita ma’naviyat ekan, bu tushunchaga kun sayin ortib borayotgan zaruriyat va ehtiyojning oshib borayotganligi bugungi kunda dunyoda bo‘layotgan voqea- hodisalar misolida ham yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Jamiyat ma’naviy taraqqiyotini ta’minlash borasida davlatimiz tomonidan ham ko‘plab islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” va uning V bobi “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish” masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, 71-78-maqsadlar doirasida jamiyat ma’naviy taraqqiyotini ta’minlash borasida amalga oshirishimiz lozim bo‘lgan vazifalar belgilab berildi.

Tarixiy shart-sharoit, davr, davlat tuzimi va o‘sha jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy ta’sirlar fyqarolarning dunyoqarashi, fikrlash tarzi, tafakkurida o‘z aksini topadi. Bunday ta’sirlarning 3 xil ko‘rinishi mavjud:

Mikro bosqichdagi ta’sirlar – bu bevosita inson bolasi tug‘ilib o‘sadigan oila, ta’lim va tarbiya maskanlari, mehnat jamoasi, mahalla va do‘stlar muhitidagi ta’sirlar.

Makro bosqichdagi ta’sirlar – bu ijtimoiy, ma’naviy, siyosiy hamda iqtisodiy muhit ta’sirlari.

Mega bosqichdagi ta’sirlar – bu keng miqyosda xalqaro maydonda avj olib borayotgan g‘ayaviy ta’sirlar. Mikro, makro va mega bosqichdagi ta’sirlar insonning ijtimoiylashuv jarayoniga aralashib, uning milliy, mintaqaviy hamda xalqaro maydondagio‘rnini belgilashga sabab bo‘ladi. Ma’naviy ta’sirlar bevosita moddiy ta’sirlar bilan uyg‘unlikda rivojlanib boradi. Chunki, jamiyatning moddiy va ma’naviy tomonlarini uyg‘unlashtirish ijtimoiy taraqqiyotning asosi hisoblanadi. Inson ma’naviyatini yuksaltirish orqaligina iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin. Chunki iqtisodiy ne’matlardan unumli foydalanish hamda ularni oqilona sarflash jarayonlarida shaxsning ma’naviy kamoloti asosiy turtki vazifasini o‘taydi.

ZJV5401

Insonning haqiqiy mohiyati moddiy ehtiyojlarni madaniy shakllarda qondirilishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Inson aqlli mavjudot sifatida moddiy ehtiyojlarini madaniy shakllarda qondirish uchun tabiat va jamiyat mohiyatini bilishga, tabiat va jamiyatni o‘z maqsadlariga mos ravishda o‘zgartirishga harakat qiladi. Ilm-fan va texnika insonning ma’naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirish quroli, muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Yuksak ma’naviyat tufayligina inson o‘z ehtiyojlarini madaniy shakllarda oqilona va to‘laroq qondirish imkoniga ega bo‘ladi. Har qanday jamiyat hayotida ma’naviyat, ma’naviy ishlab chiqarish hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Kishilar ma’naviy ishlab chiqarish jarayonida olamni, atrof-muhitni to‘laroq biladilar, ijtimoiy hayot qoidalarini o‘zlashtiradilar, birbirlari bilan insonlarcha munosabatda bo‘lishni o‘rganadilar. Ma’naviy ishlab chiqarish jarayonida ilg‘or g‘oya, nazariya va ta’limotlar yaratiladi. Bu esa ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, totuvlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi, Ilm-fan va texnika taraqqiyoti jamiyatning moddiy farovonligini yanada yaxshilash uchun zamin yaratadi.

ZJV5401
ZJV5401
ZJV5401

IV. SHO‘BA: IJTIMOIY-MA’NAVIY MUHITNI SOG‘LOMLASHTIRISH METODIKASI VA BAHOLASH MEZONLARI

IJTIMOIY AXLOQ – YANGILANAYOTGAN JAMIYAT ORZUSI

Abduhalil Mavrulov,
tarix fanlari doktori, professor

ZJV5401

Bugun jahonda mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi juda katta tezlik bilan kuchayib bormoqda. Bu jarayon, o‘z navbatida, odamlarga g‘oyaviy va ma’naviy ta’sir o‘tkazish imkoniyatlarini haddan tashqari kengaytirib yubordi. Yer yuzining barcha mintaqalarida mafkuraviy kurash allaqachon umumbashariy miqyos kasb etgan. Endi dunyoning biror-bir hududi bunday ziddiyatli holatdan qutila olishi qiyinga o‘xshaydi.

Darhaqiqat, hozirgi inson ongi, hissiyotlari uchun kurash tobora kuchayib borayotgan bir paytda ma’naviy, mafkuraviy, g‘oyaviy tahdid va xurujlar jamiyatimizning ijtimoiy-ma’naviy hayotiga ta’sir o‘tkazishning kuchli quroli, xavf-xatarlar manbaiga aylanib qolmoqda. Mazkur muammoning o‘ta jiddiy ekaniga e’tibor qaratgan holda, Prezidentimiz “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobida shunday yozadi: “Jamiyatimizda sog‘lom fikr, sog‘lom kuch ustuvor bo‘lishi uchun biz ma’naviy hayotimizni yuksaltirish, aholi, avvalo, yoshlarimizni turli zararli ta’sirlardan asrash, ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash haqida muttasil o‘ylashimiz, faol ish olib borishimiz zarur. Ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning tahlili, afsuski, ular aksariyat hollarda kutilgan natijani bermayotganini ko‘rsatmoqda”.

Ha, biz bu borada keyingi yillarda qator ishlarni bajardik, turli tadbirlar o‘tkazdik, fuqarolarni nimalargadir chorlagandek bo‘ldik. Biroq bu ishlarimiz biz o‘ylagandek natijani ber-

madi. Jamiyat ijtimoiy-ma'naviy holatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi tahdidlar ko'paysa ko'paydiki, ammo kamaymadi. Yoshlarimizning muayyan qismida jamiyatdan begonalashuv jarayoni yuz berdi. Jamiyatda ayrim fuqarolarimiz loqaydlik kasaliga mubtalo bo'lgandek. Ma'naviy-mafkuraviy immunitetning sustligi oqibatida ba'zi yoshlarimizda radikallashuv holati yuz bera boshladi, milliy qadriyatlarimizga, axloqiy tamoyillarimizga beparvolik kayfiyati shakllandi.

Men bu fikrlarni bo'rttirib bildirayotganim yo'q. Bular, afsuski, butun ma'rifatli dunyoda bo'lgani kabi, bizning jamiyatimizda ham ma'lum ma'noda o'zining bo'y-bastini ko'rsatmoqda. Nazarimizda, bunday salbiy holatning paydo bo'lishi sabablari juda ko'p. Dunyoning tobora globallashuvi, bir qutbli dunyoning ko'p qutbli dunyoga aylanishi tufayli sodir bo'layotgan milliy manfaatlar qarama-qarshiligining kuchayib borishi, "ommaviy madaniyat"ning yangi-yangi usullarda o'zini ko'rsatishi bilan bog'liq tashqi tahdidlardan tortib, mamlakatimizda tashqi ta'sirlar natijasida ba'zi yoshlarimizning "haddan ortiq" individuallashuvi, jamiyatdan begonalashuvi, o'z mustaqil ijtimoiy mo'ljaliga ega emasligi, ularda konform dunyoqarash shakllanishidan iborat ichki xavflar o'zini o'ta salbiy ko'rinishlarda namoyon etmoqda.

Men bu fikrlarni aynan bugun bildirayotganimning sababi bor. Barchaga ma'lumki, joriy yilning 30 apreli mamlakatimiz aholisi hayotidagi muhim sana bo'lib tarixga kiradi. Shu kuni "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo'yicha referendum o'tkaziladi.

Yangi tahrirda qabul qilinishi kutilayotgan Bosh qonunimiz loyihasi, shubhasiz, uning bugungi kun talablariga hamda jahon hamjamiyati, xalqaro xuquqshunoslik talablariga mutlaqo javob beradigan, amalda yangi konstitutsiyaviy hujjat ekanidan darak beradi. Shubhasiz, ushbu hujjat mamlakatimiz va O'zbekiston jamiyatini taraqqiyotning yangi bosqichiga olib chiqishiga ishonamiz.

Loyihada mening diqqatimni ko'p narsalar tortgan bo'lsa-

da, bir muhim narsaga alohida e'tibor berishni lozim topdim. Bu barchamizning taqdirimizda muhim o'rin egallayotgan, ammo yuqorida ta'kidlaganimiz kabi, keyingi paytlarda muayyan darajada e'tibordan chetda qolgan masala – axloqiy tarbiya bilan bog'liq masalaga tegishlidir.

Gap shundaki, qabul qilinishi nazarda tutilayotgan Konstitutsiya loyihasining beshta moddasida (21-, 33-, 44-, 71-, 79-moddalar) axloq masalasi ko'tarilgan. Vaholanki, amaldagi konstitutsiyada ushbu masala birorta ham moddada o'z aksini topmagan. Ayni paytda 21-, 33-, 71-moddalarda mazkur masalaga yanada kengroq yondashilgan. Axloq ijtimoiy axloq sifatida talqin etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasida ushbu masalaga alohida e'tibor berilishining sabablari, fikrimizcha, barchaga ayon. Bu bo'yicha ayrim mulohazalarni yuqorida ham bildirdik. Shu o'rinda, o'quvchilarning diqqatini axloq masalasi bugun mamlakat va jamiyat taqdirida alohida o'rin egallaydigan masalaga aylanganini ta'kidlashni lozim topdik. Tarbiya, ma'naviyat-ma'rifat, axloq masalasi bilan butun jamiyat, davlat shug'ullanmas ekan, jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligiga erishish amri mahol. Buni barchamiz bilamiz.

Ammo biz yuqorida qayd etganimiz kabi, bugungi dunyoning shiddat bilan rivojlanishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar transformatsiyasi, inson, uning ongi, tafakkuri, ayniqsa, qalbi uchun tobora kuchayib borayotgan g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar axloq fenomeni ahamiyatini bashariyat uchun nechog'liq zarur ekanini isbotlab qo'ymoqda.

Meni, oddiy bir fuqaroni xursand qilgan narsa shundan iboratki, mazkur Konstitutsiyaviy qonun loyihasida axloq masalasi, fuqarolar tarbiyasi, ma'naviy rivojlanishi masalalari ham jamiyat, ham davlatning eng ustuvor vazifalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Masalaga shu taxlit yondashishning yana bir o'ta muhim tomoni bor Keyingi paytlarda ayrim "soxta demokratlar", o'zlarini inson huquqlarining himoyachilari, deb biluvchi "shovvozlar"da tarbiya, ma'naviyat-ma'rifat, ay-

niqsa, axloq masalalariga teskari ko‘z bilan qarash alomatlari kuchayib borayotgan edi. Emishki, axloq har bir fuqaroning shaxsiy ishi. Unga ko‘r-ko‘rona aralashish shaxsning fuqarolik erkinliklarini bo‘g‘armish!

Masalaga shunday tarzda yondashish, shubhasiz, shaxs, jamiyat, davlat o‘rtasidagi ijtimoiy majburiyatlarning bajarilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bizning milliy qadriyatlarimizda, tarixiy taraqqiyotimizning hech bir davrida axloq hech qachon jamiyat taraqqiyotidan alohida ajratib olingan darajada tashlab qo‘yilmagan. Xalqimiz tarbiya, axloq masalasiga jamiyat tomonidan bee’tiborlik, albatta, ma’naviy falokat, ijtimoiy muhitning yemirilishiga sabab bo‘lishini yaxshi bilgan. Shu ma’noda, biz o‘rganayotgan hujjatda ijtimoiy axloq masalasiga alohida urg‘u berilishi davlatning adolatli jamiyat, mamlakatda barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirishdan manfaatdorligidan dalolatdir.

Xo‘sh, ijtimoiy axloq, deganda nimani tushunish kerak, haqiqatan ham bugun ayrimlar davlat va jamiyatning inson axloqi masalalariga aralashuvi uning erkinligini bo‘g‘ishdan iborat, degan iddaolarining konseptual kamchiligi nimadan iborat? Nazarimizda, ijtimoiy axloq to‘g‘risida ayrim fikrlarni bayon etishdan avval, umuman axloq haqida qisqacha to‘xtalish lozim.

Olim, mutaxassislarning fikricha, axloq inson va jamiyat hayotida o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiyma’naviy hodisadir. Arabchada axloq xulqning ko‘pligini anglatuvchi tushuncha bo‘lib, kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, ijtimoiy, shaxsiy hayotdagi o‘zaro munosabatlari, shuningdek, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarni tartibga soluvchi barqaror, hayotiy tajribadan o‘tgan me’yorlar, qoidalar majmuasidir. O‘zbek xalqi azaldan axloq deganda sog‘lom iymon-e’tiqodga ega, kuchli irodali, insof va adolatni o‘zining hayotiy tamoyiliga aylantira olgan kishilarni tushungan.

O‘zbek xalqi ijtimoiy-madaniy hayoti tarixiga e’tibor beradigan bo‘lsak, uning barcha davrlari insonlarni kamolot sari safarbar qilish, ularda ruhni tarbiyalash, yuksak iroda-

ni shakllantirish bilan bog‘liq ijtimoiy vazifalarga juda keng o‘rin berilganini ko‘rish mumkin. Muqaddas “Avesto” kitobida, turkiy xalqlar tosh bitiklarida, “Temur tuzuklari”da, umuman, Markaziy Osiyodan, buyuk Turon zaminidan yetishib chiqqan barcha allomayu mutafakkirlar, jadid bobolarimiz asarlarida shaxs tarbiyasi, inson ruhiyati islohotida axloq masalalari dunyoda tengi yo‘q mukammal konsepsiya holatida shakllanganini ko‘rish mumkin.

Keling, yaxshisi, ular haqida ayrim misollarni keltirish bilan xulosamizni asoslay qolamiz. Buyuk bobomiz Abu Nasr Forobiy o‘zining hikmatlarida axloqli odam o‘zida 12 tug‘ma xislatni birlashtirishi lozimligini ko‘rsatadi.

Ular quyidagilardan iborat:

birinchidan, bunday odamning barcha a’zolari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo‘lishi zarurki, u bu a’zolari yordamida bajarmoqchi bo‘lgan barcha ishlarini osonlik bilan amalga oshira olsin;

ikkinchidan, barcha masalani, muhokama va mulohazani to‘g‘ri tushuna oladigan uning ma’nosini anglay oladigan, so‘zlovchining maqsadi, aytilgan fikrining chinligini tezda payqay oladigan bo‘lsin;

uchinchidan, xotirasi juda baquvvat bo‘lsin, ko‘rgan, eshitgan, sezgan narsalarining birortasini ham esidan chiqarmay, yodida saqlab qoladigan bo‘lsin;

to‘rtinchidan, zehni shu darajada o‘tkir bo‘lsinki, biror narsaning alomatini sezishi bilan bu alomat nimani bildirishini tezda bilib olsin;

beshinchidan, so‘zlari aniq bo‘lsin, fikrini va aytmoqchi bo‘lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin;

oltinchidan, bilish va o‘qishga muhabbati bo‘lsin, o‘rganmoqchi bo‘lgan bilimini osonlik bilan o‘zlashtira olsin;

yettinchidan, ovqatlanishda, ichimlik iste’mol etishda ochko‘z bo‘lmasin, tabiati qimor o‘yinlarini o‘ynashdan uzoq bo‘lsin va ular keltiradigan xursandlikdan jirkanadigan bo‘lsin;

sakkizinchidan, haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini seva-

digan bo‘lsin, yolg‘on va yolg‘onchilarga nafrat bilan qaraydigan bo‘lsin;

to‘qqizinchidan, ruhining g‘ururi va vijdonini qadrlaydigan bo‘lsin, uning ruhi o‘z tabiati bilan past ishlardan yuqori va oliyjanob ishlarga ishlatiladigan bo‘lsin;

o‘ninchidan, dirham, dinor va shu kabi turmush buyumlariga jirkanish bilan qarasin;

o‘n birinchidan, o‘z tabiati bilan adolatni sevadigan va adolat uchun kurashuvchi bo‘lsin, adolatsizlikka, jabr-zulm o‘tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan, adolatni targ‘ib etadigan bo‘lsin;

o‘n ikkinchidan, adolatli bo‘lsin, ammo qaysar bo‘lmasin, o‘zi zarur deb bilgan narsasini amalga oshirishda qat’iylik ko‘rsatsin, qo‘rqmas, jasur bo‘lsin, qo‘rqish va ojizlikni bilmasin.

Buyuk mutafakkir alloma fikrlarining bugungi kun uchun afzalligi shundaki, ularda shaxsning nafaqat tarbiyasi, shuningdek, muhim insoniy sifatlar bo‘lgan qat’iy xarakter, adolat prinsiplariga amal qilish, haqiqat fenomenini o‘z faoliyatining asosi tarzda qabul qilish, vijdon, kishi ruhiyati bilan bog‘liq jihatlari ham axloq ko‘rinishi sifatida e’tirof etiladi.

Axloq juda keng tushuncha. Uning o‘ziga xos me’yorlari, qoidalari borki, ularga bee’tiborlik ushbu muhim ijtimoiy hodisaning ahamiyatini sayozlashtiradi. Aslida, axloq yordamida inson adabi boshqarib boriladi. Bu haqda zamonamizning ulug‘ allomasi Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf shunday deydi: “Axloq – barcha maxluqotlar bilan xusni xulqda bo‘lishdir. Axloqning asosini hilm, afv va sabr tashkil etadi. Xaloyiq senga qanday muomalada bo‘lishlarini istasang, sen ham ularga shunday muomala qilishing axloqdir. Ozorni to‘xtatib, ehsonni sochib; insofni ko‘rsatib, jafoni yo‘qotib; safoni topib, dunyoni ortga otib yubormoq axloqdir. Axloq – shahvat va g‘azab qo‘ziganda nafsni jilovlamoqdir”.

Nazarimizda, axloq kategoriyasiga bundan ortiq ta’rif berish mushkul. Chunki ushbu ta’rifda axloq masalasiga nafaqat tarbiya usuli sifatida, ayni paytda uning ham ijtimoiy-ma’na-

viy, ham siyosiy-mafkuraviy jihatlariga e'tibor qaratilgan. Aslida ham shunday. Shu ma'noda, bu yorug' dunyodagi barcha odamlarni yuqoridagi ta'rif bo'yicha "axloqli odam" va "axloqsiz odam"ga bo'lishning hech qiyin joyi yo'qqa o'xshaydi.

Xalqimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotini tarbiya, axloqni isloh qilish jarayonlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Milliy tariximizning qaysi davrini olib qaramaylik, barchasida milliy axloqimiz o'sha davr xususiyatlarini e'tiborga olgan holda takomillashib, sayqallanib borganini ko'rish mumkin. Jumladan, jadid bobomiz Abdulla Avloniy shunday deydi: "Insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja beruvchi axloq tarbiyasidir. Biz avvalgi darsda tarbiya ila dars orasida farq bor, dedik, chunki: dars oluvchi – biluvchi, tarbiya oluvchi – amal qiluvchi demakdir".

Darhaqiqat, jadid bobomizning ushbu fikriga qo'shilmaslikning iloji yo'q. Gap shundaki, bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborot dunyosida yoshu qari bilmagan, o'qimagan narsaning o'zi yo'q. Oddiy tarbiya jarayonidan to mukammal texnologiyalargacha, tirikchilik muammolarini hal etishdan jahoniy geopolitik muammolargacha – barcha-barcha narsadan xabardormiz. Ya'ni jadid bobomiz qayd etganidek, hammamiz biluvchimiz. Ammo bilgan narsaga amal qilish bobida no'noqligimiz kunday ravshan. Axloq fenomeni esa ana shu nomutanosiblikni bartaraf etuvchi vositaga aylanishi biz uchun juda muhim.

Endi masalaning yana bir muhim jihati – ijtimoiy axloq masalasiga e'tibor qaratsak. Bu masalani o'rganish asnosida yangi tahrirda qabul qilinishi kutilayotgan Konstitutsiyamiz loyihasining 1-moddasiga e'tibor qilmoq kerak. Unda mamlakatimiz "O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat", deya ta'riflanadi.

Bugungi O'zbekiston muhtoj bo'layotgan ijtimoiy axloq aslida Konstitutsiya loyihasida taklif etilayotgan "Ijtimoiy davlat" tushunchasi bilan bevosita bog'liq.

Ijtimoiy davlat aslida, eng avvalo, ijtimoiy adolatga, fuqa-

rolarning ijtimoiy hamjihatligi va hamkorligiga, jamiyat barcha a'zolarining yagona maqsad sari birlashishi, milliy birlikka asoslangan, kishilarning ijtimoiy himoyalangani xususida g'amxo'rlik qiladigan davlat. Bu juda murakkab jarayon ekanini barchamiz anglab turibmiz.

Nazarimizda, ijtimoiy davlatni barpo etishning eng muhim omillaridan biri, bu – ijtimoiy axloqni shakllantirish masalasidir. Ayrimlar bu masalada ham o'z ikkilanishlarini sezdirmoqda. Go'yo, hamma uchun bir xil bo'lgan axloqiy tamoyillarni ishlab chiqish va ularni barcha orasida keng yoyish shaxs huquqlarini poymol qilish emish. Bu mutlaqo haqiqatan uzoq fikr va xato xulosa.

Negaki, milliy axloqimizning yaxshilik, adolat, insonparvarlik, or-nomus, mehr-oqibat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, jamoa ruhi bilan yashash, o'zaro hurmat, hamkorlik, tinchliksevarlik, burch, vijdon, baxt kabi qator muhim tarkibiy qismlarini shaxs kamolotini shakllantiruvchi buyuk kuch sifatida inkor etish og'ir oqibatlarga olib kelayotganini barcha ham birday tan olmayapti. Shuning uchun ham, bugungi O'zbekiston jamiyatida axloqsizlik alomatlari ko'p uchrayapti, adolat tamoyillarining buzilish holatlari ko'zga tashlanib, odamlarimiz orasida mehr-oqibat rishtalarining uzilishi sodir bo'lmoqda.

Ana shunday sharoitda o'z milliy taraqqiyotini, kelajagini, yosh avlod taqdirini o'ylagan va unga daxldor bo'lgan har qanday davlat ijtimoiy axloq masalasiga teran nigoh bilan qarashi lozim. Xo'sh, ijtimoiy davlatni barpo etishning zarur sharti bo'lgan ijtimoiy axloqning ijtimoiy vazifalari nimalardan iborat bo'lishi mumkin?

Birinchidan, jamiyat rivoji, ijtimoiy davlatni barpo etish shu jamiyatdagi barqaror va maqbul ijtimoiy muhitga bog'liq. Bir tomondan, insonning o'zi ijtimoiy muhit mahsuli bo'lsa, boshqa tarafdan, ana shu barqaror muhitning ijodkori ham inson. Ijtimoiy axloq mazkur obyekt (ijtimoiy muhit) va suyekt (inson)ning ijtimoiy moslashuvchanligini ta'minlaydigan, ularning samarali hamkorligini yo'lga qo'yadigan omil

hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy davlatni ijtimoiy axloqsiz barpo etishning mutlaqo iloji yo‘q.

Ikkinchidan, jamiyat a’zolarining barchasida o‘z shaxsiy ehtiyojlari mavjud. Biz barchamiz kechayu kunduz ushbu ehtiyojlarimizni qondirish maqsadida tinmay harakat qilamiz. Bu yo‘lda ba’zan to‘g‘ri, ayrim paytlarda qing‘ir yo‘llarni tanlaymiz, mavjud qonunchilikka zid ravishda faoliyat ko‘rsatamiz. Boshqacha aytganda, o‘z axloqsizligimizni namoyon qilamiz.

Shu bilan birga, bugungi sivilizatsion dunyoda ijtimoiy ehtiyojlar, jamiyat manfaatlariga asoslangan qadriyatlar ham bor. Biroq biz o‘z shaxsiy manfaatlarimiz yo‘lida ularni inkor qilamiz. Ijtimoy axloq ana shu nomutanosiblikni bartaraf etadi. Yana ham aniqroq aytadigan bo‘lsak, axloq bizning shaxsiy ehtiyojlarimiz bilan abadiy murosaga intilishimizning muhim ko‘rinishi sifatida ijtimoiy mazmunga ega bo‘ladi. Shaxsiy va ijtimoiy axloqning muvofiqlashuvi, bir-biriga toqat qilish muhitining yaratilishi, nazarimizda, ijtimoiy davlatni bunyod etishning asosini tashkil etadi.

Uchinchidan, ijtimoiy axloq insonni axloqiy idealga yaqinlashtiradi. Axloqiy ideal axloq me’yorlariga asoslangan xulqning yuksak darajasi, mukammal holati hisoblanadi. Axloqiy ideal shaxsning bugungi real hayotdagi turli voqea-hodisalarga munosabatida aks etgan holda, uning hayotda o‘z o‘rnini topishiga, hayotiy pozitsiyasini mustahkamlashga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Afsuski, bugun real hayotdan adashgan, o‘zligini topa olmayotgan, shu tufayli axloqsizlikning turli ko‘chalariga kirib ketayotgan yoshlar ham uchrab turibdi. Bundaylar, odatda, virtual dunyoni haqiqiy dunyo sifatida tasavvur qiladi. Virtual dunyoga g‘arq bo‘lganda o‘zini o‘zi boshqarish amaliyoti asta-sekin yo‘q bo‘la boshlaydi. Ular real dunyoni tan olmaydi va haqiqiy lazzatni, hayotning mazmunini boshqa dunyo, ya’ni virtual dunyodan qidiradi. Bu o‘ta xavfli hodisa hisoblanadi. Ijtimoiy axloq kishilarni ana shu halokatdan saqlaydigan kuch hisoblanadi.

To‘rtinchidan, ijtimoiy axloq insonlarni ijtimoiylashtiruvchi muhim vosita. Darhaqiqat, individuallashgan jamiyatda tom ma’nodagi ijtimoiy davlat to‘g‘risida fikr bildirish amri mahol.

Endi ikki og‘iz ijtimoiylashuv haqida fikrlashsak. Ijtimoiylashuv biror-bir voqea, hodisa, shaxs yoki harakatning ijtimoiy mohiyat kasb etib, ko‘pchilikka daxldor bo‘lib, ijtimoiy munosabatlar majmuiga aylanishini ta’minlaydigan jarayon.

Ayrimlar shaxs va jamiyatning ijtimoiylashuvi va individuallashuvini bir-biriga zid qo‘yadi. Bu, nazarimizda, xato xulosa. Hamma gap shundaki, jamiyat va shaxsning ijtimoiylashuvi insonning individuallashuvi natijasida paydo bo‘ladi. Ya’ni shaxs va jamiyatning ijtimoiylashuvi har qanday taraqqiyot uchun zarur ekanini anglash uchun ham insonda individuallashuv jarayoni yuz berishi lozim. Mazkur holat asta-sekinlik bilan sifat jihatdan boyib borishi, mukammallashuvi tufayli jamiyat ijtimoiylashuvi yuz beradi. Aniqroq aytiladigan bo‘lsa, ijtimoiy davlat o‘zida individual sifatlarga boy, amalga oshirayotgan ishlarini ongli ravishda anglagan, o‘z faoliyatini jamiyat manfaati va ehtiyojlariga uyg‘unlashtira olgan, ijtimoiy axloq normalariga qat’iy amal qiladigan mustaqil kishilar mamlakatidir.

Beshinchidan, ijtimoiy axloq jamiyat a’zolarini yagona maqsad sari safarbar etishga yo‘naltira oladigan muhim kuch. Ayyor, qo‘rqoq, o‘zini isloh qilishga ehtiyoji yo‘q, befarq, dangasa, yakkalikdan rohat topadigan odamlarning jamiyat oldidagi katta maqsadlar yo‘lida birlashishi amri mahol. Mutafakkirlarning qayd etishicha, ayyorlik – axmoqning aqli.

Ana shunday illatlarga ega insonlar axloqning ijtimoiylashuvidan manfaatdor emas. Chunki bu borada ularning o‘z “dunyosi” bor. Jamiyat tomonidan qabul qilingan strategik vazifalar, ijtimoiy mo‘ljallar ularni qiziqtirmaydi. Ijtimoiy axloq esa ana shunday kishilarni tarbiyalaydi, ularning samarasiz harakatiga mazmun kiritadi, asta-sekin ongsiz faoliyatini axloqiy fazilatlar bilan bezay boshlaydi.

Bugun biz Yangi O‘zbekistonni barpo etishga ahd qilganmiz, Uchinchi Renessansni yaratish amaliy harakatimizga

ZJV5401

aylangan. Ma’rifatli jamiyat va yangi ma’naviy makon quruq orzuimiz emas, balki, barcha harakatlarimizning asl maqsadiga aylangan. Bu boradagi ishlarni faqat va faqat butun jamiyatni ma’naviy sog‘lomlashtirish hamda yuksaltirishga kuch beruvchi omil – ijtimoiy axloq tufayligina amalga oshirish mumkin.

Oltinchidan, ijtimoiy axloqni juda keng ma’noda tushunish lozim. Axloq dini, tili, e’tiqodi, irqidan qat’i nazar, barcha insonlarni hamjihatlikka, ijtimoiy hamkorlikka chaqiradi. Ijtimoiy axloq butun jamiyat a’zolarining xulq-atvori, xatti-harakatini yagona maqsadga yo‘naltira oladigan fenomen hodisadir.

Shu o‘rinda axloqiy qadriyatlar ierarxiyasida barcha millat va xalqlar uchun ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar borki, ularsiz jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikni ta’minlash, sog‘lom g‘oyaviy-mafkuraviy muhitni yaratish aslo mumkin emas. Shubhasiz, bunday qadriyatlar sirasiga tinchlik, ijtimoiy hamkorlik, turli xalqlar o‘rtasidagi hamjihatlik, barqaror rivojlanish kabilarni kiritish mumkin.

Bugungi dunyoda ijtimoiy axloq fenomenida milliylik mazmuni bilan teng ravishda uning baynalmilallik jihatlari ahamiyati ham ortib bormoqda. Bu holatni ko‘rmaslik aslo mumkin emas. Boshqacha aytganda, bugungi dunyoning haddan tez ravishda globallashuvi, davlatlar va mintaqalar o‘rtasidagi integratsiya jarayoni kengayishi va chuqurlashuvi, migratsion harakatlar ortishi, jahon Internet tizimi va ijtimoiy tarmoqlar kishilar ongi va tafakkur tarziga ta’siri kuchayishi ijtimoiy axloqning ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Masalaning yana bir muhim jahati bor va u mintaqamiz – Markaziy Osiyo davlatlarida istiqomat qilayotgan xalqlar taqdiri bilan bevosita bog‘liq. Ushbu mintaqa xalqlari azaldan bir havodan nafas olib, bir daryodan suv ichib, o‘z taqdirlarini bir-biri bilan bog‘lab kelgan. Aslida, bu xalqlarning tarixi ham, taqdiri ham, do‘sti va dushmani ham bir bo‘lgan. Ayni shunday, bizning axloqiy qadriyatlarimiz ham deyarli bir xil.

Qolaversa, keyingi 5-6 yilda Markaziy Osiyo davlatla-

ri o‘rtasidagi avval turli sabablar natijasida yopilgan “temir darvozalar”ning ochilishi, ushbu mamlakatlar orasidagi o‘zaro ishonch, hamjihatlik va barcha sohalardagi hamkorlikning ham bo‘yiga, ham eniga kengayib, chuqurlashib borishi ijtimoiy-gumanitar jabhadagi aloqalarni yanada kengaytirishni talab etmoqda. Bularning barisi, shubhasiz, ming yillar mobaynida bitta makon va zamonda shakllangan xalqlarimiz axloqiy qadriyatlariga, tarbiya tizimiga ham bevosita tegishlidir. Bas, shunday ekan, bugun bu xalqlar milliy axloqi ijtimoiy mazmunga ega bo‘lmoqda, xalqlarimiz va davlatlarimizni umumiy manfaatlar yo‘lida bir-biriga yaqinlashtirmoqda.

Shaxsning to‘liq shakllanishi uning axloqiylik darajasi bilan bog‘liq. Axloqiylik esa har bir insonning o‘zi va jamiyat oldidagi burch va mas’uliyatga nisbatan munosabatida aks etadi. Axloqiylikning ayrim ko‘rinishlari insonning tashqi harakatlarida namoyon bo‘lsa-da, ayni paytda, uning tom ma’nodagi axloqiy sifatlari individning ichki ruhiyatida makon topadi. Shuning uchun ham axloqiylik har birimizning ichki, botiniy hayotimizda yashaydi. Ana shunday sifatlar asosida biz tarbiya topamiz, o‘zimizni isloh qilishga ehtiyoj sezamiz, pirovard natijada real hayot va axloqiy ideal o‘rtasidagi chegaralarni qisqartiramiz.

Ijtimoy axloq esa jamiyat ijtimoiyma’naviy, g‘oyaviy-mafkuraviy muhitini sog‘lomlashtiradi, kishilarni umummilliy maqsadlarni bajarishga safarbar etadi. Kishilar o‘rtasidagi turli munosabatlarni muvofiqlashtirish, jamiyat a’zolari amaliy faoliyatini sog‘lom, insonparvarlik, vatanparvarlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan qadriyatlar bilan bezaydigan kuch ham ijtimoiy axloqdir.

Shu ma’noda, biz nimani yutsak, ijtimoiy axloq tufayli yutamiz, nimani boy bersak, u ham ijtimoiy axloq normalariga bee’tiborligimiz natijasida sodir bo‘ladi. Darhaqiqat, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida axloq, xususan, ijtimoiy axloq masalasiga jiddiy e’tibor berilishi mamlakat va millat taqdirida alohida o‘rin egallashidan darakdir.

KUCHLI TARG‘IBOT – KUCHLI MA’NAVIYATNI YARATADI

Muhammadjon Quronov,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i, pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Maqolada Targ‘ibot – Ma’naviyat va ma’rifat sohaning quroli, vositasi, usuli ekanligi, targ‘ibot odamlarni bir maqsadga rag‘bat, ishonch berishi, tashviqot va targ‘ibotni yangicha usulllari kishilarni “Yangi O‘zbekiston, Uchinchi Renessans, Ijtimoiy davlat g‘oyalari ostida ma’naviy rag‘batlantirishi, tashviqot – orqali esa Yangi O‘zbekiston g‘oyasini amalga oshirish haqida atroflicha yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar: Yangi O‘zbekison, ezgulik, odamiylik, gumanizm, fikr tarbiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19 yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi ma’naviy hayotimizda tarixiy voqea bo‘lib qoladi. Ushbu yig‘ilishda milliy mafkuraning tub negizlarini Prezidentimiz aniq-tiniq qilib, “Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan”, – deb tushuntirib berdi.

Ya’ni Yangi O‘zbekiston mafkurasining negizini ezgulik, odamiylik, gumanizm, fikr tarbiyasi kabi fudamental qadriyatlar tashkil qiladi. Masalaning mana shunday qo‘yilishi butun olamga O‘zbekiston ma’naviy-ma’rifiy siyosatining

oliyjanob maqsadlarini ifodalab, mafkura masalasidagi eski, stereotip munosabatlarga barham berdi. O‘zbekistonning mafkurasi uning jahonga aytayotgan o‘z so‘zlarida, bunyodkor ishlarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Insoniyat Uchinchi O‘zbek Renessansiga buyuk ehtiyoj sezmoqda. Shu munosabat bilan taraqqiyot strategiyasi, islohotlar, Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi, dunyoning mafkuraviy kon’yunkturasi barcha jabhalardagi kabi g‘oyaviy modernizatsiyani ham talab qildi.

Modernizatsiya

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 aprelidagi «O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoyishida «mamlakatimiz tinchligi, jamiyatimiz barqarorligi, umuminsoniy, milliy va diniy qadriyatlarimizga qarshi qaratilgan, milliy o‘zlikni anglash, xalqimizning asrlar davomida shakllangan hayot tarzini barbod qilishga yo‘naltirilgan mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning samarali usul va vositalarini ishlab chiqish, qo‘llash ishlari zamon talabidan ortda qolayotgani » alohida ta’kidlandi. Ushbu muammolar milliy g‘oya masalasini Yangi O‘zbekiston kontekstida ko‘rib chiqishni talab qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomalarida milliy ma’naviyat, g‘oya bilan bog‘liq masalalar muntazam aks etdi. Ya’ni “Oldimizga qo‘ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo‘ladigan milliy g‘oyani rivojlantirishimiz zarur” ligi tobora dolzarb bo‘la bordi. Darhaqiqat, bunda milliy g‘oya - kuch va qudrat manbai diskursi o‘ta muhim metodologik ahamiyatga ega. Bunda gap nafaqat g‘oya, kuch-qudratning semantik talqini, balki umummilliy motiv, jamiyat xulqining ma’naviy energetik manbai haqida ketmoqda.

Bu masala milliy g‘oya nazariyasi va amaliyoti uchun o‘ta muhim. Negaki, milliy g‘oya Prezidentimiz ta’birlari bilan aytganda, xalqning kelajakda emas, balki “hozir va shu yerda” baxtli bo‘lishini, hayotdan roziligini ta’minlashning drayveri

bo‘lishi kerak. Ana shunda milliy g‘oya nazariy masala bo‘lib qolmaydi. Uning ro‘yobini xalqimiz orzularining o‘z hayotidan roziligiga transformatsiyasida ko‘rish mumkin bo‘ladi. Ya’ni har bir o‘zbekiston fuqarosida o‘z davlatidan, sog‘ligidan, oila, bolalaridan, ishidan, qilgan mehnatidan, davlat organlaridan, mahallasidan, o‘zining jamiyatdagi o‘rnidan, hurmat-e’tiboridan roziligiga erishiladi. Zero har bir insonning baxtiyorlik tuyg‘usi uning ehtiyojlari qondira borilishi darajasi bilan to‘g‘ri proporsional natijadir.

Buning uchun milliy g‘oya targ‘iboti, ma’naviyat va ma’rifat ulug‘ ishlar, loyiha, dasturlarning nima uchun qilinayotganini xalqqa, yoshlarga sodda, xalqchil tushuntiradi. Ular amalga oshsa, qanday baxtli bo‘lishimizni “ko‘rsatadi”. Tushungan, istiqbolni ko‘rgan xalq – g‘oya bilan qurollangan xalqqa aylanadi. Shuning uchun ham ma’naviyat – eng ta’sirchan qurol. Shuning uchun ham “Ma’naviy yo‘nalishlarimiz iqtisodiy yo‘nalishlardan o‘n qadam oldinda yurishi kerak. Ana shunda biz hozirda qilayotgan katta-katta rejalarimiz, dasturlarimiz amalga oshadi” .

Afsuski, uzoq yillar iqtisodiyot bilan ma’naviyatni bir-biriga qarshi qo‘yib tushunib, tushuntirib kelindi. Iqtisodiyot bilan ma’naviyat – jism bilan jon bir-biridan sun’iy, mexanik ravishda ajratib tashlangan edi. Yangi O‘zbekistonda mana shu organik birlik - bir-birlaridan sun’iy ravishda ajratilgan jism bilan jon birlashdi. Bu birlik naqadar muhimligiga milliy tariximizda misollar ko‘p. Masalan, biz Ikki Renessansni qurgan, ko‘rgan millatmiz. Ikki Renessansda ham masala “Avval iqtisod, keyin siyosatmi?” yoki “Avval siyosat, keyin iqtisodmi” dilemmasi o‘rtaga chiqmagan. Ikkalasi birga yuksalgan. Bugun ko‘tarilgan “Yangi O‘zbekiston = kuchli iqtisodiyot+kuchli ma’naviyat” formulasi mana shu ikki qudratli kuchni yaxlit tushunishni, ko‘rishni, baholashni, birlashtirishni talab qilmoqda.

Shu paytgacha biz kitob, maqola, ma’ruzalarimizda kuchli ma’naviyat, degan iborani ishlatmaganmiz. Ma’naviyatni qandaydir yoqimli, ojiz, mayin xilqat, dinamik emas, statik

hodisa deb keldik. “Yuksak ma’naviyat”, “qashshoq ma’naviyat”, “boy ma’naviyat”, “milliy ma’naviyat”, “betakror ma’naviyat”, deb sifatladik. “Kuchli ma’naviyat” iborasini birinchi bo‘lib, Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqida qo‘lladi: «Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat»(Ta’kid bizniki. M.Q.). Kuchli ma’naviyatimizning tarixda qanday rol o‘ynaganini Prezidentimizning “Biz ergashuvchi millat emas, ergashtiruvchi millat bo‘lganmiz”, degan xulosasi ham qo‘llab-quvvatlaydi. Ya’ni kuchli ma’naviyatga ega millat boshqalarning ta’siriga berilib, boshqalarga ergashib ketmaydi. Aksincha, o‘z milliy ma’naviy potensialini tiklab, resurslarini o‘rganib, rivojlantirib, qo‘llab, boshqalarga ma’rifiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘ziga ergashtiradi.

Bu esa o‘zbekistonliklardan mamlakatni yuksalish cho‘qqisigacha ko‘tarishga yetarli kuch-qudrat – energiyani talab qiladi.

Energiya tushunchasi bugungi kunda turli, soha va ma’nolarda qo‘llaniladi. Biroq, biz uchun uning dastlab Aristotelning «Fizika» traktatida inson faoliyatini anglatgani diqqatga sazovordir. Bundan tashqari, fizikada energiya biror ishni bajara olishga qodirlik sifatida talqin qilinadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida energiyaga “quvvat”, deya ta’rif berilgan.

Agarda “ish” tushunchasini “milliy yuksal(ish)”ga qo‘llasak, bunda energiya milliy g‘oya shaklida milliy yuksalishni ta’minlovchi kuch-quvvat, qudrat ekanligi ayon bo‘ladi. Biroq, milliy g‘oya mavjudligining o‘zi odamlarning milliy yuksalish yo‘lidagi ongli ishlari uchun yetarli emas. Buning uchun analogiya metodi qo‘llanilsa, ma’naviy kuch-qudrat energetikaga xos funksional xususiyatlarga egaligi ma’lum bo‘ladi . Demak, ma’naviy energetika – mafkura sohasi bo‘lib, g‘oyaviy resurslarni o‘zlashtirish, o‘zgartirish, taqsimlash, yetkazish va nafaqat nazariy, balki amaliy foydalanish zarur bo‘lgan gumanitar resurs. Ma’naviy energetika esa mana shu jarayonlarga

xizmat qiluvchi barcha tarbiyaviy, ma'naviy-madaniy, ma'rifiy, san'at, tarix, OAV, internet, mahalla, oila kabi ijtimoiy tizimlar integratsiyasini tashkil qiladi. U ayrim jihatlari bilan inson kapitalini yaratishga ham o'xshaydi. Uning maqsadi – insonning baxtli bo'lishga qaratilgan birlamchi ehtiyojlarini, orzu, niyatlarini birlashgan milliy g'oyaga aylantirish orqali kundalik hayotda, xizmat vazifalarini bajarishda g'oyaviy ishonch, motivatsion quvvatni ta'minlashdir.

Ma'naviyat va ma'rifat sohasining quroli ham, vositasi ham, usuli ham – targ'ibot (odamlarni bir maqsadga rag'bat, ishonch berish), tashviqot (natijaga erishilsa qanday yaxshi bo'lishini tasvirlab, undan shavq berish, ilhomlantirish). Bugun targ'ibot - odamlarni "Yangi O'zbekiston, Uchinchi Renessans, Ijtimoiy davlat g'oyalari ostida ma'naviy rag'batlantirishi, tashviqot – Yangi O'zbekistonda yangi hayot shavqini aks ettirishi kerak. Buning uchun targ'ibot tadbirlarini o'tkazishda:

- yangi ijodiy kuchlarni, iste'dodli yoshlarni, keng jamoatchilikni jalb etish;
- barcha yurtdoshlarimizning qalbi va ongiga yetib borish;
- ularning ruhi va kayfiyatini ko'taradigan;
- yangi marralar sari ilhomlantiradigan;
- ta'sirchan;
- rasmiyatchilik va balandparvozlik ko'rinishlaridan xoli tarzda o'tkazishga alohida e'tibor qaratish vazifasi yuklatilgan. Quyida mutasaddilar, targ'ibotchi va tashkilotchilarga yordam bo'lar, degan niyatda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni samarali tashkil qilish bo'yicha 12 amaliy tavsiya taklif etiladi.

Puxta tayyorgarlik. Tadbirga tayyorgarlik ko'rishda notiq ularga taqdim etiladigan qo'llanmadan, ilmiy adabiyotlardan, internet tarmog'idan foydalanishi, mutaxassislar bilan suhbatlashishi, ma'lumotlar to'plashi kerak. Respublikamizning markaziy ommaviy axborot vositalari, teleradiokanallari ma'lumotlaridan unumli foydalanish zarur.

Tashkilotchilar qatnashchilarni tadbirdan kamida bir hafta oldin xabardor etadilar. Kerakli audio, vizual, ko'rgazmali,

jozibali vositalarni tayyorlab; faol ishtirokchilarni rag‘batlantirish choralarini ko‘rib qo‘yish lozim. Tadbir hali boshlanmasdan turib, bir hafta ilgari, o‘zi haqidagi xabar, e’lon bilan kishilarni qiziqtirsin, o‘ziga chorlasin. Uni eshitgan, o‘qigan kishi tadbirda ko‘tariladigan masalalar unga daxldorligini tushunsin.

Ishontirish. Yangi O‘zbekiston, Ijtimoiy davlatning bebaho ne’matligiga tinglovchilarni ishontirishga, ularda iftixor, O‘zbekistonning Buyuk kelajagiga ishonchning yanada mustahkamlanishiga erishish demak. Toki tadbirdan chiqayotgan yurtdoshimizning ishonchi kirayotganidagidan kuchayib, mamnun chiqsin.

Yot g‘oyalarga qarshi targ‘ibot. Yutuqlarimiz ko‘p va shu bois ularni ko‘ra olmayotgan guruhlar, kuchlar ham bor va ularning buzg‘unchi targ‘ibot olib borayotganini zinhor unutmaslik kerak. Ularning qora fikr to‘la kallalariga keyingi yillarda erishgan, odamlar har kuni ko‘rib yurgan yutuqlarimiz, yaratilgan imkoniyatlardan misollar bilan zarba berish darkor. Bu uch karra samarali. Birinchidan, bu tinglovchilarning ogohligini oshirsa, ikkinchidan, yurtdoshlarimizga erishgan yutuqlarimiz haqida yangi ma’lumotlar berib, iftixor uyg‘otadi. Uchinchidan, ularning qadriga yetishga, shukronaga chorlaydi.

Tushunarlilik. Targ‘ibot nazariyasida “Nutqida 10 ta tushunarsiz so‘z ishlatgan notiq bankrotga uchraydi”, degan naql bor. Bu bejiz emas. Targ‘ibotchi ko‘proq kundalik hayotimizda ishlatiladigan so‘zlardan foydalansa, nutqi tushunarli bo‘ladi. Rasmiyatchilik odamni bezdiradi.

Tadbirga mavzu tanlanganda, albatta, qatnashchilarning yoshi, kasbi, ma’lumoti va manfaatlari e’tiborga olinadi. Targ‘ibot materialining mazmuni, keltirilayotgan dalillar, bayon uslubi tinglovchilarning o‘rtacha darajasiga mos bo‘lishi kerak. Ana shunda targ‘ibot yaxshi samara beradi.

“Tasvirli” so‘z. Maktab dasturlaridan bilamiz ki, so‘z – ikkinchi signallar sistemasi. U birinchi signallar sistemasining o‘zbekona aksi. Qaynoq, o‘z o‘rnida aytilgan publitsistik so‘z unda tasvirlanayotgan voqea, manzaraning o‘rnini bosishi

mumkin. Bu fiziologlar tomonidan tasdiqlangan. Masalan, Yangiqo‘rg‘onlik kollej talabasi Sherzod hali Yangi O‘zbekiston bog‘ini borib ko‘rmagan. Kecha tadbirda atoqli notiq Baxtiyor Is’hoqov bu bog‘ni, undagi yangi O‘zbekiston stellasini shunday tasvirladiki, Sherzod Toshkentga, Yangi O‘zbekiston bog‘iga borib kelgandek bo‘ldi. Chunki haroratli, obrazli bayondan ta’sirlandi. Bog‘ning ko‘lamidan, stelladagi tasvirlar mazmunidan hayratga tushdi. Demak, obrazli so‘z ko‘z o‘rnini bosishi mumkin ekan. Chunki Sherzod Yangi O‘zbekiston bog‘ini, unda qad ko‘targan buyuk stellani o‘z ko‘zi bilan emas, notiqning so‘zi bilan “ko‘rdi”. Notiq unda bog‘ni, stellani ko‘rganda sodir bo‘lgan hayrat, zavqni paydo qila oldi da.

Targ‘ibot vaqti, u yoki bu ijtimoiy siyosiy, mafkuraviy hodisaning sodir bo‘lgan vaqtidan kelib chiqib, uch zamonga bo‘linadi. Bular – voqea haqida oldindan ma’lumot beruvchi, voqea bilan birga boshlanuvchi parallel targ‘ibot va voqeadan keyingi postfaktum targ‘ibotdir. Uchalasi ham muhim. Aks holda ayrim kishilarda axborot yetishmasligi tufayli buyuk ishlar mohiyatini to‘la tushunmay qolishi mumkin.

Auditoriya bilan ishlash. Odamlarning ongiga tez va soz kirib borishga xizmat qiladi. Badiiy nutq, qiyos, jo‘shqin ruh tinglovchilar qalbi va ongiga yo‘l ochadi. Qarashlariga tez ta’sir qilib, orzularga qanot beradi. Buning uchun yoritiladigan voqea, misollarni tanlashda ularning aholining ko‘pchilik qismi uchun muhimligidan kelib chiqilsa, yaxshi bo‘ladi. Odatda qatnashchilarning diqqatini dastlabki olti daqiqa davomidagina jamlab turish mumkin. Shuning uchun avvallo tinglovchilar bilan faol muloqot o‘rnatib olish kerak. Misollar keltirishni so‘rab auditoriyaga murojaat qilish ham qatnashchilarning diqqatini jamlashga hissa qo‘shadi. Bu bir necha marta takrorlansa yaxshi bo‘ladi. Bunda notiq bilan tinglovchilarning yakdilligi namoyon bo‘ladi.

Hududiy yondashuv. Targ‘ibot mazmunini belgilashda 3 hududiy daraja:

1 Respublika, 2 hudud, 3 targ‘ibot kechayotgan tuman, shahardagi korxona, muassasa, idora misollaridan foydala-

ZJV5401

nish tavsiya etiladi. Ya'ni biror soha bo'yicha respublika, hududiy, mahalliy va xususiy misollarni bir biriga bog'lash tavsiya etiladi. Bu tinglovchilar nazdida u yoki bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar haqida obyektiv, yaxlit, tizimli manzarani hosil qiladi.

Takror. Tadbir davomida ishtirokchilarni qatorlarga, guruhlarga bo'lib, ularga mavzu bo'yicha keys topshiriqlar berish foydali. Tadbir oxirida munosabat bildirishlari uchun 3 nafar faol tinglovchiga so'z berilsa, yaxshi bo'ladi. Ular o'z munosabatlarida asosiy fakt, fikrlarni eslatadilar. Ana shunda notiq bir marta aytgan fikr ikkinchi marta boshqa odam tomonidan, aynan emas, qiziqarli, yanada boyitib eshittiriladi. Har bir takror esa, targ'ibot nazariyotchilaridan birining tili bilan aytganda, "devorga mix qoqayotgan bolg'aning bir zarbasiga o'xshaydi".

Qamrov. Tasavvur qiling, parranda grippidan ogohlantiruvchi targ'ibot samaradorligini qanday baholasa bo'ladi? Tuman aholisining 100 foizi: parranda grippi nimaligini tushuntirib bera olsa; o'zini va atrofdagilarni parranda grippidan qanday himoya qilishini ko'rsatib bera olsa. Bu tumanda hech kim gripp bo'lmaydi. Chunki qamrov 100 foizga, kafolatli ta'minlangan.

To'liq qamrov nafaqat biror xavfdan ogohlantirish, balki yutuqlarimiz targ'ibotida ham zarur. Xalqimizni birlashtiradigan g'oyalar, qalblarga quvonch beradigan fakt va raqamlar, yangiliklar har bir oilaga, eng chet tumandagi eng chet uy, ovullariga kirib borishi kerak. Qamrov 100 foiz bo'lsa, millat o'z shijoati, qudratini, nimalarga qodirligini 100 foiz anglaydi. Qanotlanadi. Buning uchun har bir tadbirning qamrov ko'lamini, foizini puxta hisob kitob qilib, izchil ta'minlash kerak bo'ladi.

Samimiyat. Samimiyat begonani – tanishga, tanishni do'stga aylantiradi. Targ'ibotda ham. Ayniqsa, Yangi O'zbekiston, taraqqiyot strategiyasi mavzusida so'z ketganda. Shuning uchun Prezidentimiz Qarori rasmiyatchilik, balandparvozlik kabi xatolardan bizni ogohlantiradi. Samimiylik so'zlovchi va

tinglovchilarni bir ma’naviy organizmga aylantiradi. Yuraklar bir xil ura boshlaydi. Bunga erishmoq uchun notiqdan e’tiborlilik, ziyraklik, chuqur bilim, samimiyat talab qilinadi. Agar rasmiyatchilikka berilib ketilsa, ishtirokchilarda hatto eng muqaddas mavzularga ham befarqlik paydo bo‘lishi mumkin.

Ko‘rgazmali vositalar. Ko‘rgazmali vositalar kam vaqt ichida ko‘p ma’lumotni chiroyli qilib ko‘rsatadi. Notiqning ko‘rgazmali vositalardan yaxshilab foydalanishi uning jiddiy tayyorgarligini ko‘rsatib, tinglovchilarda unga hurmat uyg‘otadi. Shuning uchun tadbirlarda O‘zbekistonning yigirma yil davomida erishgan yutuqlariga bag‘ishlangan hujjatli filmlardan, multimedialardan, slaydlardan faol foydalanish tavsiya etiladi.

Erishilgan natijani mustahkamlash. Ma’ruzachi nutqining so‘ngida ishtirokchilar bilan mavzu yuzasidan savol-javob uchun vaqt ajratadi. Tinglovchilarda savollar tug‘ilishi tabiiy. Agar munosabat sust bo‘lsa, bu mavzuning to‘liq tushunilmaganidan dalolat beradi. Bunda mavzu yuzasidan qo‘shimcha savollar bilan tinglovchilarni faollashtirib, tadbir samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Kuchli targ‘ibot kuchli ma’naviy energiyani, ijtimoiy kuch qudratni yaratadi. Kuchli ma’naviyat milliy g‘oyani, milliy g‘oya vijdonni, burchni, korrupsiyaga qarshi pozitsiyani, ijro intizomini kuchaytiradi. Iqtisodiyotni sog‘lom, kuchli qiladi. U birlamchi energiya - xalqning bilimini oshirib, o‘zligi, g‘ururini, vijdonini kuchaytirib, safarbar qilib, ikkilamchi energiyaga – ongli ish, harakatga, samarali mehnatga aylantiradi.

ZJV5401

ABULQOSIM QUSHAYRIYNING QALBLARNI MA'NAVIY SOG'LOMLASHTIRISH USULI

Qodirov Davronbek Hoshimovich,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Bu tezisda mashhur so'fiy Abdulkarim Qushayriyning "Nahv al-qulub" nomli asarida tasavvufni nahv ilmi, ya'ni grammatika bilan bog'liq holda ma'naviy-axloqiy tarbiya usullari tahlil qilinadi.

Tayanch so'zlar: tasavvuf, grammatika, nahv, huruf, ilm, fe'l, aqvol, ism.

Tasavvuf ta'limotining Ilk Renessansdagi yirik vakili – mutafakkir va mutasavvif Abulqosim Abdulkarim Qushayriy barcha fanlarning o'zaro bog'liqligini ta'kidlab, ular inson kamoloti uchun xizmat qilishini aytadi. Shu sabab alloma tasavvuf ilmi bilan nahv ilmini bog'laydi. Mutafakkir inson axloqini arab grammatikasi qoidalariga soladi. Qushayriy tasavvuf ta'limotiga nahv ilmi nuqtayi nazaridan yondashib, o'zining mashhur "Nahv ul-qulub" – "Qalblar grammatikasi" asarini ta'lif etadi.

Nahv niyatdan iborat bo'lib, insonlar ham o'z niyatlari va maqsadlariga ko'ra turlichadir. Tilning go'zalligi ham uni bilish darajasini ko'rsatadi. Shu tufayli ba'zilar borki, turli ma'nolarni qidirishda o'z mahoratlari namoyon etish ularning eng buyuk maqsadidir, deydi alloma. Qushayriy ularning bir qismini ahl ul-ibora va ikkinchi qismini ahl ul-ishora deb ataydi. Bu yerda ahl ul-ibora deganda lug'aviyyun, ya'ni lingvistlar tushuniladi. Ahl ul-ishora deganda esa botin ilmi olimlari yoki so'fiylar nazarda tutiladi. Mutafakkir "Nahv ul-qulub" ahl ul-ibora foydalanadigan har bir so'zni ta'rifini beradi, so'ngra so'fiylarning tasavvufona ta'rifini bayon qilishga o'tib, ishorat ilmida qaysi atamalarni qo'llay olish mumkinligini bayon qiladi.

Bu yerda yodda tutish kerakki, so‘z va iboralar hol hamda harakat tilining ishoralari bo‘lib, ishoralar yetarlicha bo‘lmagan paytda lisonga kiradi. So‘fiylardan Abu Bakr Vositiy (930 y.v.e.): “Avvalgi so‘fiylar ishoralar bilan gapirar edilar (o‘zlariga o‘xshaganlardan boshqalar ularni tushunmasdi), so‘ng ularning darajalari tushdi, sirliliklari qolmadi va harakatni boshladilar, shunda ularning darajalari yanada pastladi va qo‘llarida hasratdan boshqa narsa qolmadi” [1] der ekan, bu tartibni teskarisiga o‘zgartirib yuborgandek ko‘rinadi. Qushayriy “Nahv”da ushbu tartibning odatiy ekanligi haqida gapirib, ahl ul-ibora kalomni uch qismga – ism, fe’l va harfga, ahl ul-ishora ham uchga – aqvol, af’ol va ahvolga bo‘lishini aytadi. Aqvol - so‘zlar ilm bo‘lib, u af’ol - amallarning muqaddimasini tashkil etadi. Qushayriy amallarni isloh etishga shoshilish va uni Xudo istagiga ko‘ra bajarish kerakligiga urg‘u beradi. Shundan keyingina Xudodan mavhiba, ya’ni in’om bo‘lgan hollar keladi. Bu yerda u so‘z insonning imoniga ishorat qilib, yaxshi hol va amallar imondan so‘ng keladigan sifat ekanligini juda daqiq tarzda tushuntiradi.

Qushayriy bu asarda nahvga oid atamalarni ahl ul-ibora – tilchilar va ahl ul-ishora – botin ahli bo‘lgan so‘fiylar nuqtayi nazari bilan ochib beradi. U ismga ta’rif berar ekan, Allohning Odamga asmoni (borliqlarning ismini) o‘rgatishi, haqiqat va ma’rifat kabi atamalar bilan bog‘laydi. Aslida ushbu atamalar keyinchalik Ibn Arabiy tomonidan vahdut ul-vujud falsafasida “Haqiqati Muhammadiyya”, “a’yoni sobita” sifatida ifodalangan. Haqiqati Muhammadiya Haqqning eng mukammal holda zohir bo‘lishi, tom ma’nodagi insoni komildir. Barcha mavjudotlar ilohiy ismning o‘ziga xos tajalliysi, Hazrat Muhammad s.a.v. esa barcha ismlari jam bo‘lgan Alloh ismining yagona mazharidir. Ibn Arabiy fikricha, Haqiqati Muhammad birinchi taayyunning nomi hisoblanadi.

A’yoni sobita (mumkin-ma’dum) tushunchasi aql bilan anglanadigan olamning mavjudligini ifodalaydi. Bu eshitiladigan va tashqi olamda ashyolarning tabiati hamda haqiqati, aql etiladigan olamning borlig‘i mavjuddir. Qisqacha aytgan-

da, Ibn Arabiyga ko‘ra, a’yoni sobita bu Janobi Haqni bilishda mavjudlik isini his qilmagan mavjudotlarning suratidir.

Biroq, Qushayriy ushbu atamalarni qo‘llamagan. U ism ahl ul-iboraga ko‘ra, as-sumuv, ya’ni yuksalish yoki aksincha, as-simo – yerga tushishdan olingan[2]. Ahl ul-ishoraning fikricha, bandaning ismi Alloh o‘z bandalaridan birortasini o‘zining sobiq – o‘tgan mash’iyatida “saodat yoki shaqovat (jannat yoki do‘zax) ahli bo‘lish bitib qo‘ygan” nomidir. Agar bu sobiq mash’iyat Allohga yaqinlashish shaklida bo‘lsa, uning maxluqotlar orasida qadri yuksaladi (sumuv).

Qushayriy ismni sahih va mu’tall (illatli) bo‘lishiga ko‘ra qisqacha muhokama qilib, tasavvufda axloqiy me’yorlar sifatida qabul qilingan odatlar bilan qiyoslaydi. Arab tilida illatli harflar bo‘lmagan ismlarga sahih va illatli harflari bo‘lganiga mu’tall deb aytiladi. Mutafakkir avvalo nahv ilmidagi terminologiyasida o‘zi qo‘llaydigan istilohlarni quyidagicha izohlaydi: “Sahih bu illat harflaridan solim (uzoq bo‘lgan) bo‘lganidir. Illat harflari alif, vov va yadir”. So‘ngra, tasavvufda kalit sifatida qabul qilingan illatli harflari bo‘lgan uchta so‘zni tanlab olib, tasavvufiy tushunchasiga ta’rif beradi: “Kim ilbos (shubha) ning alifidan, vasvasning vovidan va al-ya’s (umidsizlik)ning yasidan solim bo‘lsa, uni ism deyish sahih bo‘ladi va i’robda uning o‘rni bo‘ladi, bu esa bayondir. Bundan so‘ngra kashf va i’yon (ko‘rish) keladi. Biz avval ilm ul-yaqinni, keyin ayn ul-yaqinni, so‘ngra haqq ul-yaqinni bilamiz” [3].

Bu bilan Qushayriy illatli harflar so‘zlarni qanday buzib, uni tanib bo‘lmas holga keltirganidek, illatli hollardan bo‘lgan shubha, vasvasa va umidsizlikdan qutulish ham insonni “sog‘lom banda”ga aylantirib, i’rob – jumlada bo‘lgani kabi insonni Robbisini bilishda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan holatga keltirishini, bu maqomda inson ba’zi narsalarni yaqqol va aniq bila boshlashini aytadi. Bu holdan keyin pardaning ochilishi deb ataladigan kashf holi keladi. Ya’ni, inson avval o‘z ilmi bilan, so‘ngra qalb ko‘zi bilan, keyin esa haqiqat holi bilan ko‘radi.

Tasavvufiy atamalarda ism va unga dalolat etuvchi musammoni – ismlantirilmish narsalarni, ya’ni ilm ul-yaqin, ayn

ul-yaqin va haqq ul-yaqin ajratib ko‘rsatiladi. Ulardan birinchisi, dalil vositasida olingan bilim bo‘lib, u aql egalari uchundir. Ikkinchisi, kashf va ilhom bilan olingan bilim bo‘lib, ilm egalari uchundir. Uchinchisi esa, mushohada orqali olingan ilm bo‘lib, u maorif sohiblari uchundir [1].

Ko‘rinib turibdiki, Qushayriy o‘z asarining boshidayoq ism mavzusini tasavvufiy atamalarning ko‘p jihatlari bilan bog‘lagan. U ismning har bir ta’rifi, uning etimologik kelib chiqishi, sahih yoki mu’tall bo‘lishi mavzusining har biriga tasavvufiy javob topishga erishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATİ:

1. Abulqosim Qushayriy. Ar-risolat ul-Qushayriya. Bayrut, Dor ul-xayr, 1993. -S. 442.

2. Sulaymon Fayyod. An-nahv ul-asriy. Qohira, Markaz ul-ihrom, 1995. -S.14.

3. El-Ḳuşeyrī, en-Naḥvu’l-Mu evvel, vv.2b-3a.

ZJV5401

ZJV5401

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA INSON MA'NAVIY BORLIG'INI HIMOYA QILISHDA MILLIY AXLOQIY BILIMNI RIVOJLANTIRISH

Jurakulov Jamol Komilovich,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyatda inson ma'naviy borlig'ini himoya qilishr ijtimoiy hayotimizni doimiy ravishda o'zgartirib borayotganligi, axborotga bo'lgan ehtiyojini oshib borayotganligi, milliy axloqiy bilimlarni rivojlantirish e'tiboridaligi tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: jamiyat, axborot, axborot siyosati, axborotlashgan jamiyat prinsipi, jamiyat taraqqiyoti.

Har qanday mukofot bu avvalo, el-yurt e'tirofi, Vatan ishonchidir.[1] Jamiyatni axborotlashtirish mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha jabhalarida samaradorlikni oshirish, narxlarni pasaytirish, davlat organlarida elektron hujjat almashinuvini yo'lga qo'yish, elektron tijorat tizimini joriy etish, mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. "Industrial jamiyatdan axborotlashgan jamiyatga o'tish uchun axborot inqirozi uchun sharoit yaratib berilmoqda. Axborotlashgan jamiyatga o'tish turli sohalardagi axborotni uzatish va qayta ishlashning zamonaviy vositalaridan foydalanish bilan boshlandi. Bu jarayon axborotlashtirish deb ataladi. [2]

2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 7 yo'nalishida yaniy mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish deb belgilangan yo'nalishning 89-maqsadida "Fuqarolarning axborot olish

va tarqatish erkinligi borasidagi huquqlarini yanada mustahkamlash”[3], borasida ham aloxida to‘xtalganligi milliy axborot siyosatining inson ma’naviy borlig‘ini yuksaltiruvchi yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tibor qaratilganiga guvoh bo‘lamiz.

Jamiyatning axborotlashuvida inson vanaviyatini asrash o‘ziga hos xususiyatlardan iborat bo‘lib ular quyidagilardan iborat:

Birinchidan; ilm-fandagi bilimlarning jamiyat hayotidagi rolini to‘g‘ri axborot berish orqali oshirish, jamiyatdagi barcha axborot istemolchilariga filtirlangan axborotlar bilan taminlashda milliylikni e’tibordan chetda qoldirmaslik va jamiyatda axborot kommunikatsiyalari orqali mahsulot va xizmatlar ulushini oshirish.

Ikkinchidan; fuqarolik jamiyatida samarali hamkorlik qilish orqali jahon axborot resurslaridan foydalanish va ularning axborot mahsulotlari xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, global axborot makoninidan keng foydalanishni oshirish bilan birgalikda, axborot inqirozini bartaraf etish, axborot oqimi va axborot ochligi o‘rtasidagi ziddiyatlarga barham berish, xolis, ishonchli axborotning boshqa resurslardan ustunligi ta’minlash.

Uchunchidan; butun insoniyat sivilizatsiyasi uchun global axborot muhiti vujudga kelmoqda, ushbu jarayonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish keng tarqalashtirish, ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatning yangi shakllari paydo bo‘lishiga imkon berish.

Axborotlashgan jamiyatda inson ma’naviy borlig‘ini himoya qilishda milliy axloqiy bilimni rivojlantirishni quyidagicha berish mumkin:

internat va ichtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi barchaga ta’sir doirasi kengaymoqda, ushbu kengayishlardan to‘g‘ri foydalanish, axborot texnologiyalari tashkilotlar va shaxslarning shaxsiy hayotiga halokatli ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini nazardan chetda qoldirmaslik;

ma’lumotlarning ko‘pligi aniqroq va sifatli ma’lumotlarni

tanlashni qiyinlashtiradi vas hu bilan birgalikda odamlarning katta qismini yangi jamiyatga moslashishda qiynchiliklarni ham yuzaga keltirishi mumkin.

Axborotlashgan jamiyatda inson ma'naviy borlig'ini himoya qilishda milliy axloqiy bilimni rivojlantirish bevosita bugungi zamonaviy davrimizda axborotning strategik ahamiyati tufayli uning odamlar va jamiyat hayotidagi alohida mavqeyi, birinchi navbatda, 20-asr o'rtalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishi bilan boshlangan evolyusion inqilob bilan belgilanadi.

Bizning fikrimizcha, virtual reallik texnologiyalari texnogen sivilizasiyaning mahsuli sifatida nisbatan yangi tushuncha bo'lsa-da, u inson tafakkurining yangilanishi va ijtimoiy faoliyatining takomillashishi natijasida uning orzu-umidlarini o'zida ifodalovchi qadimgi dunyoqarash hisoblanadi.[4]

Xususan, elektron ommaviy axborot vositalarining kosmik rivojlanish sur'atlari, shuningdek, tezda giperaxborot maydoniga aylangan internet nafaqat ijtimoiy munosabatlar tizimida, balki eng xilma-xil sohalarda ham axborotning rolini ko'rish murakkab tus olmoqda. Jamiyat axborotlashuvida kapit axborot va axborotni olib yuruvchi texnologiyalar asosiy tendensiyaga aylanmoqda, buning asosisini kapital zamonaviy bilimlarni egallagan shaxslardir. Jamiyatni axborot texnologiyalari inqilobiga olib keladigan texnologiyalar biri avvalo kompyuterlar so'ngra ommaviy aloqa texnologiyalari telefonlar, mikroelektronika vositalari, robotlar, bio va nano-texnologiyalar, optik tolalar kabi xilma-xil turdagi texnikalar bizni qurshab olmoqda.

Asrimizda axborot qimmatli tovarga aylanib ulgurdi, insoniyat tarixida demokratiyaga bog'liq bo'lgan fuqarolik jamiyati rivojiga erkin fikrlash, ochiqlik va oshkoralik siyosati hamda plyuralizm, insonparvarlik jamiyatini rivojlantirishning asosidir. Har bir jamiyatda insonlar huquq va erkinliklari, bag'rikenglik, ochiq, demokratik, shaffof va madaniyatli boshqaruv tizimini yaratish, jamiyatning erkin to'g'ri axborot olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish shaxsning so'z, fikr va vijdon erkinligini ta'minlash muxum. Bu huquq va erkinliklar

ochiq jamiyatni qaror toptirish, siyosiy plyuralizm, xalqaro konvensiyalar va inson huquqlarini ishonchli himoya qilish uchun va inson ma'naviy borlig'ini himoya qilishda milliy axloqiy bilimni rivojlantirishiga keng imkoniyatlar yaratadi.

So'z, fikr, axborot va matbuot erkinligi jamiyatning normal rivojlanishini, liberal bozor munosabatlarining shakllanishini, demokratlashtirish jarayonining jadallashuvini ta'minlaydi. O'z fikr va g'oyasini erkin ifoda etish demokratik jamiyatning o'zagigina emas, balki uning taraqqiyoti, har bir shaxs kamolotining asosiy shartlaridan biridir. Bu qadriyatlarni o'z faoliyatida ko'proq o'zida mujassam etgan ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotining barcha sohalarida, jamoatchilik fikrini shakllantirishda, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatuvchi kuchli vositalardan biri sifatidarivojlanish yo'nalishlarini belgilashda muhim rol o'ynaydi.

Hozir hukumatning o'zi ijtimoiy tarmoqlar orqali auditoriyaga ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Hozirgi jamiyatimizda bu axborot kanallari xususan ijtimoiy tarmoqlar odamlarni ko'proq tushkunlikka solmoqda.

Birinchidan, so'zning yaxshi ma'nosida hech qanday tartibga solish yo'qligi va axloqiy qoidalarga rioya qilish yo'qligi. Kim o'zi xohlagan ma'lumotni joylashtirishi va tarqatishi mumkin.

Ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlarga sun'iy aralashuvlar mavjud, ya'ni bu yerda ta'sir o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lgan odamlar gohida manipulyatsiya, goh boshqa maqsadlarda yolg'on ma'lumotlarni joylashtiradilar. Buning o'zi jamiyatda ma'lum bir girdob hosil qiladi. Bu girdob elektromagnit to'lqinlar kabi odamlarga juda salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Jamiyatshunos olimlar butun dunyo bo'ylab tarqalgan ma'lumotlarni, shuningdek, uni tarqatgan muassasalarni ikki qismga bo'lishimiz mumkin buni yuqorida takidlab o'tdik. Yangiliklarda qanday ijtimoiy ahamiyatga ega, jamiyat uchun nima, shularni berishadi. Lekin deylik, jamiyatimizda bundan 15 yil oldingiga nisbatan juda past sifatli OAV shakllangan. Ijtimoiy tarmoqlar bunga biroz turtki berdi. Axloq qoidalariga amal qilmaydigan, yangilik nimaligini bilmaydigan, faqat onlayn tizim mavjudligini tasdiqlash uchun har lahza yangi-

liklarni o‘zgartiruvchi media tashkilotlari juda sifatsiz materiallar beradi. Shuningdek ba’zan televideniya o‘z vazifalarini bevosita bajarmaydi. Sifatsiz ko‘rsatuvlar, arzon ko‘rsatuvlar, ayniqsa, aholida ijtimoiy reaksiyaga sabab bo‘lmagan ko‘rsatuvlar efirga uzatilmoqda. Bular, albatta, sifati pastligi tufayli jamiyatni, odamlarni qoniqtirmaydi. Bu yerda juda jiddiy muammolar quyidagilardan iborat:

albatta, birinchi navbatda, masalan, yozma va elektron ommaviy axborot vositalari sohasida davlat siyosatini tartibga soluvchi institutlar mavjud. Masalan, televideniya sohasidagi siyosatni tartibga soluvchi Milliy teleradio kengashi (MTRK) hamda Prezident huzuridagi OAVni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi ham mavjud. Uning so‘nggi bir yarim, ikki yillik faoliyati shuni ko‘rsatadiki, juda yaxshi niyatlar bilan yaratilgan ushbu muassasalar O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalari rivojiga hech muayyan darajada yordam beryapti xalos.

bugungi kunda tanqidiy ommaviy axborot vositalariga ehtiyoj bor, ijtimoiy tarmoqlar o‘sha tanqidiy ommaviy axborot vositalarini almashtirishga harakat qilganda juda sharmandali vaziyat yuzaga keladi. Inson ma’naviy borlig‘ini himoya qilishda milliy axloqiy bilimni rivojlantirishda quydagilarni inobatga olish kerak.

Birinchidan, XXI asr haqiqatida milliy ongimizni yo‘lga qo‘yishga da’vogar bo‘layotgan yot g‘oyalar va ta’limotlar davlatchilik idealimiz va qadriyatlarimizni o‘ylangan holda tanlashimizni ta’minlaydigan ma’naviy-axloqiy asoslarni yanada mustahkamlashni taqozo etmoqda. Sivilizatsiyasining hozirgi ko‘rinishi milliy davlatchilikning yangi bosqichida bo‘lgan davlat taraqqiyotining yangi siyosiy xulq-atvor uslublarini qo‘llashni kun tartibiga dolzarbligini olib chiqmoqda. Eng muhim masalalardan biri doimiy o‘zgaruvchan voqelikni axloqiy filtr orqali moslashuvchan baholashdir.

Ikkinchidan, ommaviy axborot vositalari oldida jamiyat hayotining barcha jabhalarida muhim vazifalar turibdi. O‘zbekiston ommaviy axborot vositalari zamonaviy axborotlashgan jamiyatini barpo etishda milliy mintaletimizga mos va bag‘rikenglikni targ‘ib qiluvchi, Sharqona o‘zlikni anglash,

siyosiy madaniyatimizni rivojlantirish, ma'naviy qadriyatlarimizni himoya qilish vositasi o'laroq ommaviy axborot vositalaridagi to'rilikni asrab-avaylash muhim o'rin tutadi. Jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi ahamiyati ortib bormoqda.

Xulosa o'rnida inson ma'naviy borlig'ini himoya qilishda milliy axloqiy bilimni rivojlantirish uchun yuqoridagi yozganlarimizdan shuni ma'lum qilamizkiy jamiyatdagi barcha insonlar ma'naviy borlig'iga tasir qiluvchi axborotlar xususan telivideniya, radiolarda reklamalarga filtrlashni yo'lga qo'yish, reklamalardan katta mablag' ilinjida mintaletimizga zid bo'lgan materiyallarni cheklash zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. https://president.uz/oz/lists/view/5475

2. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturini tasdiqlashni Prezident Farmoni.

3. Коваль Е.В. Этос информационного общества: диссертация. кандидата философских наук. - Саранск, 2011. -133 с.

4. Xaydarova Aqida Xurram qizi. Virtual reallik falsafasining metodologik yo'nalishlari 09.00.01-Ontologiya, gnoseologiya va mantiq. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertasiyasi Avtoreferati T. 2022. -54 b.

5. Braman, S. (2011). Axborot siyosatini aniqlash. Axborot siyosati jurnali 1-5. http://jip.vmhost.psu.edu/ojs/index.php/jip/article/view/19/14 Arxivlangan, 2012-01-30 Wayback Machine-da.

6. Meyson, Merilin Gell. (1983). Kutubxona va axborot xizmatlarida federal rol. White Plains, NY: Knowledge Industry Publishers Inc.

7. https://en.wikipedia.org/wiki/Information_policy Daniel Bell, Sanoatdan keyingi jamiyatning kelishi, 1973, 37-bet.

8. https://en.wikipedia.org/wiki/Information_policy Mark Uri Porat, Axborot iqtisodiyoti, 1976, 205-bet.

MILLIY G‘OYA TARG‘IBOTIDA XORIJ TAJRIBASINI O‘RGANISHNING MUHIM XUSUSIYATLARI

Xurshid Serobov,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti
kichik ilmiy xodimi

Turli davlatlarning milliy g‘oyasini o‘rganish davomida shuni ko‘rish mumkinki, kuchli davlatlarning kuchi uning iqtisodi va harbiy salohiyati bilan birga butun millatni jipslashtiradigan, o‘z atrofida birlashtira oladigan g‘oyasida ham namoyon bo‘ladi. Milliy g‘oyani singdirishda davlatlar turli yo‘llardan foydalanishadi. Bunda asosiy kuch ommaviy axborot vositalari, san’at va madaniyat sanaladi. Quyida ba’zi davlatlarning milliy g‘oyalari va ularni aholiga singdirishning targ‘ibot texnologiyalari xususida so‘z yuritamiz.

Braziliya Respublikasining bosh milliy g‘oyasi: “Ordem e progresso”, ya’ni “Tartib va taraqqiyot” hisoblanadi. Bu milliy g‘oya Braziliyaning bayrog‘ida ham aks etgan. Braziliyaliklar o‘z milliy g‘oyasini oilada va maktabda bolalarning miyasiga quyadi. Bolalarga tartib orqali taraqqiyotga erishish konsepsiyasini bolalikdanoq rivojlanish formulasi sifatida uqtiriladi. Braziliyada rasman 7 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun majburiy bepul boshlang‘ich ta’lim joriy qilingan. Bolalar shaharlardagi 4-5 yillik va qishloqlardagi 3 yillik boshlang‘ich maktablarda ta’lim oladilar.

Shuningdek, milliy g‘oya targ‘ibotida ommaviy axborot vositalari, kino va adabiyotdan unumli foydalanishadi. Braziliya davlatning g‘oyasini har bir fuqaroning shaxsiy maqsadiga aylantirishga harakat qiladi. Braziliyaning milliy mafkura targ‘iboti bilan asosiy organ Milliy Kongress shug‘ullanadi. Milliy Kongres 2 palata: Federal Senat va Deputatlar palatasidan iborat. Kongress tarkibida 15 ta palataning deputatlari jamlanadi. Braziliyada 300 ga yaqin gazeta va jurnal nashr etiladi. Asosiylari: “Gazeta merkantil” (“Savdo-sotiq gazeta-

ZJV5401

si") "Dia" ("Kun"), "Diariu di San Paulu" ("SanPaulu gazetasi"), "Jornal du Brazil" ("Braziliya gazetasi", "Globu" ("Yer kurrasi"), "Veja" ("Ko'ring"). Empreza Brazileyra di Komunikasan, SA (Radiubraz) axborot xizmati mafkuraviy targ'ibot bilan shug'ullanadi va mamlakat prezidentining fuqaro devoni tomonidan nazorat qilinadi.

Braziliyada davlat telekanal va radiolari yo'q. Radioeshittirish va teleko'rsatuvlarni asosan xususiy studiyalar amalga oshiradi, ularni Milliy aloqa departamenti nazorat qiladi. Braziliya radio va televizion studiyalar uyushmasi 1962-yilda tuzilgan.

Braziliya madaniyati uzoq yillik shakllanish bosqichini bosib o'tgan. Bugungi kungacha bu madaniyat Braziliya millatini tashkil etuvchi xalqlarning turli tarixiy an'analari aralashmasi sifatida shakllanib bormoqda. Davlatda portugal tilining ta'siri katta. Chunki o'z davrida Braziliya portugallar tomonidan bosib olingan. Braziliyaliklar portugal tilida gaplashadi, mamlakatda katoliklik ustunlik qiladi. Chunki portugallarning asosiy dini ham katoliklik hisobalanadi. Shu bilan birga, hindular va afrikaliklarning ta'siri ham sezilarli darajada. Mamlakatda tupi-guarani tili ham keng tarqalgan. 16 asrda missioner ruhoniylar katexizmni bu tilga tarjima qilganlar va Braziliya shimolida o'z faoliyatini olib borishda undan unumli foydalanganlar. Zamonaviy tilda bir qator so'zlar hind tilidan kelib chiqqan. Hindiston madaniyatining ta'siri ayniqsa Amazonkada yaqqol seziladi, Afrika madaniyati izlari esa Rio-de-Janeyroda ko'proq ko'zga tashlanadi. Mamlakatda YUNESKO muhofazasiga olingan 14 ta Jahon merosi obyektlari mavjud. Etnik, til va diniy xilma-xillik mamlakatning umumiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Chunki "Ordem e progresso", ya'ni "Tartib va taraqqiyot" g'oyasi braziliyaliklarning qon-qoniga singib ketgan.

Keyingi paytda ta'lim sohasida fin tajribasi haqida ko'p tilga olinmoqda. Finlyandiyaning bosh milliy g'oyasi "Olkaamme suomalaisia!" (ya'ni, "Biz shunday fin millati bo'laylik!") deb ataladi. Bu g'oya fin millatining ulug'vorligiga va bu

ulug‘vorlikdan faxrlanishga diqqat qaratadi. Bu g‘oya lyuteranizmning uchta asosiy tushunchasini eslatadi: Koti, Uskonto, Isanmaa. Ya’ni tabiat, oila va Vatan tushunchasi muqaddas hisoblanadi.

Ushbu vatanparvarlik g‘oyasining ildizlari Qadimgi Rimga borib taqaladi. Har bir fin bolaligidan oilani, qadriyatlarni va vatanni asrashga o‘zini burchli deb biladi. Finlar milliy o‘ziga xoslikni hayotning har bir jabhasida aks ettirishadi. Bu ularga oiladagi tarbiya va maktabdagi ta’lim orqali chuqur singdiriladi. Finlar ushbu uchta komponentni hayotlarida mujassamlashtira olmaganunicha o‘zlarini baxtli deb his qilishmaydi. Milliy g‘oya targ‘iboti bilan Mahalliy boshqaruv va islohotlar vazirligi, Ta’lim va madaniyat vazirligi, Milliy ta’lim kengashi va boshqa maxsus tashkilotlar shug‘ullanadi. Televideniya, radio va matbuot asosiy targ‘ibot vositalari hisoblanadi. Asosiy telekanallari va radiokanallari: “YLE”, “YLE TV1”, “YLE TV2”. Asosiy gazetalari: “Xelsingin Sanomat”, “Turun Sanomat”, “Aamulehti”, “Hufvudstadsbladet”, “Åbo Underrättelser”, “Spektr”.

Oddiy fin oilasi atrof-muhitni asrash, sog‘lom turmush tarzini olib borish, eng so‘nggi ilmiy va texnologik taraqqiyot bilan jihozlangan qulay uyga ega bo‘lish, ya’ni zarur kommunal vositalarga: energetika, suv ta’minoti, sanitariya-kanalizasiya, aloqa, axborot va transport tarmoqlari hamda qo‘shnilar bilan tinch-totuv yashashni orzu qilishadi. Bu “fin orzusi” hisoblanadi.

Finlyandiya hududi viloyatlarga (fin tilida “maakunnat”), viloyatlar shaharlarga (fin tilida “kaupunki”) va kommunalarga bo‘lingan. Mintaqalar mintaqaviy davlat idoralari tomonidan boshqariladi.

Shaharlarning vakillik organlari – aholi tomonidan saylanadigan shahar kengashlari, shaharlar ijroiya organlari, magistratura, kommunal burgomaster va ratmanlar, burgomasterlar hisoblanadi. 2010-yilgacha mamlakat hududi viloyatlarga bo‘lingan bo‘lib, ularni prezident tomonidan tayinlanadigan gubernatorlar boshchiligidagi provinsiya

ZJV5401

kengashlari boshqargan. Fin xalqida millatsevarlik fazilati yuqori. Bunga asosiy sabab bosh milliy g‘oyaning finlarga bolalikdan singdirib borilishidir. Ular ulg‘ayib qaysi sohani tanlamasin, asosiy maqsadi “Biz shunday fin millati bo‘laylik!” g‘oyasini hayotga tatbiq etishdan iborat bo‘ladi.

Osiyo mamlakatlaridan Eron Islom Respublikasida mamlakatning asosiy mafkurasi “Eron millatchiligi” g‘oyasi diniy mafkura asosida rivojlangan. Eron islomiy respublika bo‘lgani bois Islom dinining shia mazhabiga e’tiqod qiladi. Davlat dunyodagi kam sonli teokratiyalardan biridir.

Bu g‘oyaning asosida Eron madaniyati, Eron tarixi va fors tiliga bo‘lgan muhabbat, shuningdek, Eron xalqi bilan faxrlanish tuyg‘usiga asoslangan milliy o‘ziga xoslik yotadi. Eron milliy g‘oyasi targ‘ibotining eng asosiy kuchi ta’lim sohasi hisoblanadi. Eronda 5 yillik bepul majburiy boshlang‘ich ta’lim joriy qilingan. 2 bosqichdan iborat 7 yillik o‘rta maktab mavjud.

Eron matbuoti va televideniyasi mafkura targ‘ibotida katta kuch hisoblanadi. Milliy g‘oya targ‘iboti bilan shug‘ullanuvchi bir qancha gazeta va jurnallar nashr etiladi. Asosiylari: “Abror”, “Keyhon” (“Koinot”, fors tilidagi kundalik gazeta, 1942 yildan buyon chiqadi), “Risolat” (1985 yildan), “Egteloot” (“Axborot”), “Ettelooti haftagi”. Shuningdek, targ‘ibot bilan Islom Respublikasi axborot agentligi (IRNA, 1934-yil tashkil etilgan), “Eron Islom Respublikasi ovozi” milliy radiosi va Eron televideniyasi (1971-yil tuzilgan) shug‘ullanadi. Eronda islomga aloqasi bo‘lmagan siyosiy partiya va tashkilotlar faoliyati man qilingan. Hozirgi kunda mamlakatning ichki siyosiy hayotida bir qator islom partiya va uyushmalari mavjud bo‘lib, ular orasida e’tiborga loyiq bo‘lganlari Kurashayotgan ruhoniylar jamiyati, Islomiy Eron birdamlik partiyasi, Islomiy Eron hamjihatlik partiyasi, Taraqqiyotga xizmat qiluvchilar uyushmasi, Imom Humayniy siyosati tarafdorlari uyushmasidir.

Eron millatchiligining asosiy negizi juda uzoq ming yilliklarga borib taqaluvchi benihoya boy fors tili va madaniyatidir.

Singapur davlatida milliy g‘oya “barchamiz singapurlikmiz” g‘oyasi hisoblanadi. Singapur lideri Li Kuan Yu va uning poraxo‘rlikni qanday yo‘qotgani haqidagi gap-so‘zlar bot-bot qulog‘imizga chalinadi. Hududi kichkinagina davlatning qisqa fursat ichida taraqqiy topib, dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan biriga aylanishi bu har kuni sodir bo‘laveradigan voqea emas. Bugun har tomonlama rivojlanib borayotgan Singapur mamlakatida iqtisodiy jabha ko‘tarilishi qanchalik qiyinchilik bilan kechgani kabi milliy mafkura shakllanishi ham oson kechmagan. Oxir-oqibat “Milliy o‘zlikni targ‘ib etish va shu g‘oya asosida birlashish” tamoyili turli fikrlar oqimidan o‘zib chiqqan. Millatga hamisha o‘zining shaxsiy maydonidan chiqib, umum manfaati uchun yo‘naltirib turadigan bir kuch kerak. Bu kuch o‘sha millatning birlashuvini ta’minlaydigan yagona milliy g‘oyadir. Taniqli shoir Asqar Mahkamning “Oq kitob” nomli kitobi bor. Bu nom poklik va ezgulikka, hurlik va yorug‘likka badiiy ishoradir. Singapurdagi millatni birlashtirib turuvchi qadriyatlar va g‘oyalar to‘plami ham “Oq kitob” deb nomlangan. Singapurda milliy mafkura “Oq kitob”da qayd qilinganidek, “Shared Values” (Umumiy qadriyatlar”) konsepsiyasi asosida shakllangan va u beshta umumiy qadriyatni o‘z ichiga oladi.

1) Millat va jamiyat tushunchasi o‘zingdan ustun.
2) Oila – jamiyatning asosiy bo‘g‘ini.
3) Jamoaviy qo‘llab-quvvatlash va shaxsga hurmat.
4) Ziddiyat emas, balki, konsensusga erishish lozim.
5) Irqiy va diniy uyg‘unlik.

“Umumiy qadriyatlar” konsepsiyasi birinchi marta 1988-yil oktyabr oyida Singapur Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari Go Chok Tong tomonidan ilgari surilgan. Uning maqsadi mamlakat madaniy merosi va madaniy qadriyatlarining turli elementlarini o‘zida mujassamlashtirgan holda Singapur xalqining o‘ziga xosligini rivojlantirish va mustahkamlash edi. 1991-yilga kelib, bu konsepsiyani o‘zida aks ettirgan “Oq kitob” nashr etildi. Shundan so‘ng “Umumiy qadriyatlar” Singapurning milliy mafkurasi sifatida belgilandi. Nega

hukumat bunday mafkuraga ehtiyoj sezdi? Mamlakatning "Shared Values" mafkuraviy tizimi mamlakat rivojida qanday rol o'ynadi? Bu kabi savollarga javob topish uchuye "Oq kitob"ning mazmuni bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq. "Oq kitob"ni taqdim etishdan avval Singapur hukumati o'z fuqarolarini bir-biriga bog'laydigan umumiy madaniyat yo'qligidan xavotir bildiradi. Unda ta'kidlanishicha, Singapurning o'ziga xosligi hali shakllantirilgan emas, agar bu tezroq shakllantirilmasa, bu bo'shliq unda jamiyatning o'zgaruvchan tashqi iqlim qurboni bo'lishiga olib keladi. Shunday qilib, Singapur xalqi uchun umumiy bo'lgan asosiy qadriyatlarni aniqlash zarurati tug'ildi. Milliy o'zlikni targ'ib qiluvchi hujjat sifatida "Umumiy qadriyatlar" Singapurdagi turli etnik va diniy guruhlarning umumiyligiga asoslanib, ularning ichidan yagona milliy qadriyatlarning o'zagini yaratishga harakat qildi. Yagona Singapur millati g'oyasi 1965-yilda Singapur davlati tashkil topgan paytda tuzilishi kerak edi, lekin oradan 26 yil o'tgach, 1991-yilda, «Singapur milliy o'ziga xosligi»ni aniqlash va belgilash jarayonlari boshlandi.

"Oq kitob" millatchilikni emas, balki, davlatchilikni targ'ib etuvchi mafkurani tavsiya qiladi. Bu e'tiqod Osiyo davlatlariga xos tarzda qadriyatlar va an'analarning tiklanishi bilan bog'liq "regressiv" tendensiyalarga asoslanadi. Singapurning mafkuraviy tarixi asosan ijtimoiy ehtiyojlarning o'zgarishi bilan shakllangan. Mazkur hujjatda keltirilgan besh qadriyatdan uchtasida millat va jamiyat tushunchalariga alohida urg'u berilgan bo'lsa, bitta qadriyat oilani asosiy planga chiqaradi, oxirgisi esa shaxsga qaratilgan. Shuningdek, hujjatda davlatning dunyoviyligi va diniy betarafligi ta'kidlandi. Dastlab Singapurda "Umumiy qadriyatlar"ni qanday amalga oshirish va targ'ib qilish bo'yicha bir qator takliflar mavjud edi. Bularga qonunlar qabul qilish va qadriyatlarni qonunga aylantirish, ularni konstitusiyaga qo'shish, jumladan, davlat madhiyasiga kiritish, ularni qo'shiqqa aylantirish, ommaviy axborot vositalari orqali efirga uzatish va hatto umumiy qadriyatlar uchun maxsus yodgorlik o'rnatish ko'zda tutilgan. Oxir-oqi-

bat, ushbu qadriyatlarni singdirishning eng foydali usuli bu maktab, ayniqsa fuqarolik va axloqiy tarbiya darslari hamda oilada ota-onalarning yordami, degan qarorga kelindi.

Fuqarolik va axloqiy tarbiya darslari oltita asosiy qadriyatga qaratilgan: hurmat, mas'uliyat, halollik, g'amxo'rlik, chidamlilik va uyg'unlik. Bu darslar namunali xulq-atvorga ega bo'lgan shaxs, shuningdek, davlatga har tomonlama foydali fuqaroni tarbiyalab, kamolga yetkazishni maqsad qiladi. FAT darslarining oltita asosiy qadriyatidan to'rttasi – hurmat, mas'uliyat, g'amxo'rlik va uyg'unlik "Umumiy qadriyatlar"dan olingan. Shu tarzda, FAT darslari umumiy qadriyatlarni to'ldiradi va mustahkamlaydi, shuningdek, "Umumiy qadriyatlar"ni yosh avlodga singdirishning eng asosiy vositasi sifatida qaraladi. Qolaversa, Singapurda shunday qarash shakllanganki, barcha ota-onalar farzandlarini eng avvalo, yaxshi fuqaro qilib tarbiyalashi shart.

Singapurning bugungi taraqqiyotida "Umumiy qadriyatlar"ning ham katta hissasi bor. U mamlakatning umumtafakkuri va millat sifatida shakllanish jarayoniga katta ta'sir ko'rsatgan. Singapurda yashovchi xalqlar Singapur xalqi nomi ostida birlashgan. Bugungi kunda aholi soni bo'yicha 115-o'rinda turadi, 2021-yilgi hisob-kitoblarga ko'ra Singapur aholisi soni 5 mln 867 mingni tashkil etadi.

Xorij davlatlarining milliy g'oyani shakllantirish va uni jamiyatga tatbiq etish tajribalarini o'rganish davomida muhit, mentalitet va milliy dunyoqarashni hisobga olish lozim. Braziliyaning "Ordem e progresso", ya'ni "Tartib va taraqqiyot" milliy g'oyasi mohiyatan millatu makon tanlamaydi. Eron va Finlyandiyaning milliy g'oyasi esa ko'proq millatchilikka urg'u beradi. Bunda millatni sevishga va uning kelajagi yo'lida birlashishga, birgalikda harakat qilishga da'vat yotadi. Milliy o'ziga xoslik bosh milliy g'oyani tanlashda asosiy jihat bo'lish

Hozirgi axborot zamoni tezlashgan bir pallada, jamiyatning intellektual qatlami orasida qadriyatlarga nisbatan "ola qarash" kayfiyati paydo bo'layotgani savol uyg'otadi. Chunki asrlar davomida shakllangan qadriyatlarga streotip sifatida

qarash, ularning qaysi yaxshiyu qaysi yomonligini ajratmasdan turib, eskilik sarqiti o‘laroq ko‘rish, an’analarni qabul qilmaslik zamon tili bilan aytganda, modaga aylanib ulgurdi. Jamiyatda qadriyatlar tanazzuli boshlandi. Natijada turli kayfiyatdagi qatlamlar o‘rtasida ziddiyat yuzaga keldi. Shunday vaziyatda qadriyatlar aslida streotip emasligi, ulardan batamom voz kechish emas, ma’lum ma’noda yangilash va zamonga moslashtirish lozimligini tushuntira oladigan va bo‘linib ketgan qatlamlarni birlashtirishni uddasidan chiqadigan milliy g‘oyaga zarurat paydo bo‘ldi. Dunyo tajribasida milliy g‘oyalar jamiyatdagi bo‘linishlar va ziddiyatlarning oldini olib, ularni birlashtirgan.

Zohiran qaraganda, jamiyatning ehtiyoji bor bo‘lsa ham, odamlarning bugungi hayotida milliy g‘oyaga zarurat yo‘qday ko‘rinadi. Qanchalik achchiq bo‘lmasin, xalq orasida moddiy ehtiyojlardan ortib, ma’naviy ehtiyoj haqida o‘ylovchilar soni juda ozchilikni tashkil qiladi. Shu son ko‘paysagina, millatning millat sifatida taraqqiyoti, dunyoda o‘z o‘rnini topishiga erishish mumkin. Millat esa yagona milliy g‘oyasiz, yagona maqsadsiz yakdil bo‘la olmaydi.

AQSH o‘z fuqarolarini “amerikalik”, Singapur davlati ko‘p millatli xalqini yagona “singapurlik” nomi ostida birlashtira olgan. Shu yerda tug‘ildi, shu yerda yashaydi, shu jamiyat uchun xizmat qiladi, demak, u – amerikalik, deya uqtiriladi. Bizning jamiyatimizda ham “o‘zbekistonlik” tushunchasiga ko‘proq urg‘u berish kerak deb o‘ylayman. Tabiiyki, milliy g‘oya ham “o‘zbekistonlik” tushunchasidan kelib chiqqan holda shakllanadi. Shu mamlakatda tug‘ilib, yashab, o‘qib, ishlayotgan har bir fuqaro o‘zini begona millat emas, “o‘zbekistonlik” deb his qilishi va shu xalq manfaatlarini o‘zining shaxsiy manfaati deya bilishi zarur.

Dunyo tajribasini o‘rganayotganda o‘z milliy dunyoqarashimiz va mentalitetimizga mos tajribalarni olish hamda milliy g‘oyani yaratish, uni targ‘ib qilishda foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi deb hisoblaymiz.

SOG‘LOM OILAVIY MUNOSABATLAR SHAKLLANISHINING DINIY-AXLOQIY MOHIYATI

Tuxtayev Olimjon Xalmuradovich,
Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek xalqi oilaviy munosabatlarining diniy-axloqiy mohiyati va o‘zbek mentalitetining o‘rni, poklanishning diniy qadriyatli tomoni, axloqiy kategoriya sifatida poklanishning kategorial takomillashishi, sog‘lom avlodni bunyodga keltirish va baxtli hayot, sog‘lom turmush estetikasini o‘zbek oilaviy munosabatlarida aks etishi kabi masalalar falsafiy jihatdan yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: Poklik, xilqat, konsept, urf-odatlar, axloq, oila, mohiyat, marosim, falsafiy tafakkur, milliy qadriyatlar.

Oilaviy munosabatlar o‘zining tarixiy mazmun va mohiyatiga ko‘ra, har bir xalq va millat uchun xos bo‘lgan xarakterli xususiyatlarni o‘zida namoyon eta boradi. Xususan, Sharq mamlakatlarida oila qurish tushunchasi odatda, amalga oshirilishi shart bo‘lgan muhim ijtimoiy burch, vazifa sifatida tushuniladi. Nikoh yoshiga yetgan ikki qarama-qarshi jins vakillari bo‘lajak oilaning mustahkamligi, barqarorligi, farovonligi, obodligi uchun o‘zlarini mas’ul deb biladilar, oilani himoya qilish, boshqarish, moddiy-ma’naviy jihatdan ta’minlashni o‘z avlod-ajdodi, xalqi oldidagi muqaddas odat hisoblaydilar. Shuning uchun ham, oilaviy munosabatlar boshqa ko‘pgina xalqlarga nisbatan o‘zbek xalqi ma’naviy hayotida g‘oyat muhim hodisa hisoblanib, u bir tomondan, milliy qadriyat sifatida o‘z-o‘zini takror ishlab chiqarish va avlodlar bardavomligini ta’minlasa, ikkinchi tomondan esa, yosh avlodni voyaga yetkazish, oilani tashkil etish va naslni davom ettirishning qadriyatli institusionallashish bosqichidir.

“Odamzot uchun nikoh va iymondan boshqa hatto jannatda ham davom etadigan ibodat yo‘q. Oila shunday saodat-

mand bir bog‘ki, hatto jannatda ham davom etadi. Har qanday shartnoma ham ma’lum muddatdan so‘ng o‘z kuchini yo‘qotadi, ammo bir-birlaridan mamnun bo‘lgan umr yo‘ldoshlarning hayoti esa o‘lim bilan ham tugamaydi”.[1]

Islom diniy amollariga muvofiq uylanishni ixtiyor qilgan erkaklar eng avvallo aqlli, pokdomon va iymonli ayolni umr yo‘ldosh sifatida tanlashlari lozimligi uqtirilgan. Chunki soliha va ezgu ishlar qiluvchi ayol dunyoning eng afzal boyliklaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, oila erkagi soliha ayoli sabab uy-ro‘zg‘or tashvishlaridan bir oz bo‘lsada ozod bo‘lib, ilmu ma’rifat hosil qilishga, toatu ibodat bilan mashg‘ul bo‘lishga vaqt topadi. Shu jihatdan yaxshi va go‘zal axloqli ayol diniy va dunyoviy ishlarda erkakga yordamchi bo‘ladi. Uylanayotgan kishi aslu nasabi oliy (baland) ayolni ixtiyor qilsin. Chunki asl (ona) farzandni o‘z tomoniga tortadi. Molu mulkda, izzatu hurmatda o‘zidan pastroq ayolni talab qilsin, chunki bu jihatlarda erkakning ayoldan ustun bo‘lishi, uni fitna va malomatlardan saqlaydi. Shuningdek, xarajati va ehtiyoji kam ayolga uylanish kerak. Hadisi sharifda: “Ehtiyoji kam, mahri oz va farzand ko‘rishi oson bo‘lgan ayol barakotli ayoldir”,deyilgan.[1]

Islomiy qadriyatlarda eng katta hurmatga loyiq zot – ona deb ta’riflanishi ham bejiz emas. Yuqorida sanab ko‘rsatilganidek, ayol turmush qurib, oilali bo‘lgach, jamiyat kelajagiga daxldor shaxsga aylanadi. Islomiy manbalarda qayta-qayta ta’kidlanganidek, Olloh erkak va ayolni juft bo‘lib yashash, uy-joy qilib, nasl qoldirish uchun yaratgan. Erkak va ayol organizmining fiziologik tuzilishi va biologik ehtiyojlari ham shunga moslangan. Binobarin, oila bir er va bir ayolning muhim ijtimoiy, ma’naviy-ruhiy mas’uliyatni zimmasiga olishi asosiga qurilgan ixtiyoriy birlashmasidir. Ushbu ixtiyoriy ittifoqda ayol-onaga katta mavqe belgilanadi, hadisi sharifda “jannat onalar oyog‘i ostida”, deb talqin qilinadi. Oilaviy munosabatlar o‘zida shunday islomiy qadriyatlarni singdirib olganki, u jamiyatda sog‘lom naslni voyaga keltirish, ijtimoiy ongda axloqiy tuyg‘ularni barqarorlashtirish va poklik sari katta qadam sifatida baholanib kelinadi. Islomiy qadriyatlar poklanish jarayonini qat’iy ibodat reglamentlari va oilaviy

munosabat, marosimlarning birligida tozalik, sog‘lomlik, soflik singari tushunchalarning amaliy ko‘rinishlarini yaratgan.

Go‘zal islom qoidalariga binoan ayollarga eng haqli inson bu uning eri ekanligi ta’kidlanib, ayollar haq-huquqlarini doimo inobatga olish lozimligi belgilangan. Rasulullоh (s.a.v.) ham ayol haq-huquqini himoya qilishni vasiyat qilib, shunday marhamat etganlar: “Ayollar haqqida Alloh taolodan qo‘rqing! Alloh taolodan qo‘rqing! Chunki, ular sizning qo‘lingizdadir. Xotinlaringiz sizga Allohning omonatidir. Alloh taoloning kalomi bilan ularning farjini (o‘zingizga) halol qildingiz”. (Nasoiy va Ibn Moja Ummu Salamadan (r.a.) rivoyat etganlar).

Yana shunday deydilar: “Kim xotinining yomon fe’liga sabr etsa, Alloh taolo unga Ayyubning (a.s.) balolarga sabr etgani darajadagi savobini beradi. Kim erining yomon fe’liga sabr etsa, Alloh taolo unga Fir’avnning xotini Osiyoga bergan savobichalik savob beradi”.[2]

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytganda, o‘zbek xalqi islomiy qadriyatlarni ulug‘laydi. Islomiy qadriyatlar asosidagi oila erkaklarda burch, mardlik, oilaparvarlik singari sifatlarni shakllantirsa, ayollarda sharm-hayo, ibo, pokizalik singari sifatlarni shakllantiradi. Zero, shariat ahkomlarida ta’kidlanganidek, tashqi go‘zallik haqiqiy emas, haqiqiy go‘zallik inson qalbidagi hayodir. Chunki, “husn o‘tkinchi bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan so‘nadi. Hayo esa abadiy bo‘lib, o‘zaro munosabatlarning iliqligini ta’minlaydi, insonning yuksak fazilati sifatida kamolotga erishib boradi va inson bilan birga ketadi”.[3]

Oilaviy munosabatlarning shakllanishi va mustahkamlanishida pokizalikning ham o‘rni kattadir. Islom ta’limoti vafoli, hayoli kishilardan pokiza bo‘lishni ham talab etadi. Insonning pokligi undagi hayo va vafoning umurboqiyligini ta’min etadi. Islomiy qadriyatlar talablariga ko‘ra, poklikning asosi uchta deb ko‘rsatilgan. Bular til pokligi, qalb pokligi va tana (jism) pokligidir. Islom shariatiga ko‘ra, insonning o‘z jismini pok tutmay turib, qalbining poklanishi mumkin emas. Chunki, Allohning kalomini o‘qish, ibodat qilish tozalik-poklanish orqali bo‘ladi. Islom dini va boshqa qadimiy dinlarda ham poklanish hammomga tushish, suyuqlik ichish, tuproqqa

tayamum qilish orqali amalga oshirilgan. Demak, poklanish ibodatga mashg‘ul bo‘lish uchun, munosabatlar (oilaviy, kishilararo) uchun xudoga sajda qilish uchun shart bo‘lgan.

Islomiy qadriyatlarda poklikni buzadigan bu axloqiy buzuqlikdir, deyiladi. Nikohlanmasdan turib birov bilan zino qilish, jinsiy munosabatda bo‘lish singari yaramas ishlar bilan shug‘ullanish insonni jahannam o‘tida qovurlishi bilan izohlanadi. Axloqiy poklik va tana pokligi islom dinida eng birinchi o‘rinda turadigan talablardan biridir. Ozoda bo‘lish insonga xos fazilat, turmush elementidir. Hadislarda “Olloh pokdir, pokni sevadi va ozodalikni yaxshi ko‘radi”,[4] – deyilgan. Toza yurish, toza tutish, ozodalik nikohning barhayotligini ta’minlab, tuzilgan oilada barkamollik, sihat-salomatlikni yuzaga keltirish bilan birga, o‘zaro munosabatlarda iliqlikni shakllantiradi. Axloqiy nopoklik turli kasalliklar, irsiy buzulishlarni, ijtimoiy xunuklikni yuzaga keltiradi.

Tanani pok tutish turli xil kasalliklarning oldini olish bilan birga oiladagi munosabatlarda barqarorlikni olib keladi. Otaonaning pokizaligi, tanalarning sofligi farzandlarda ham ularga nisbatan mehr uyg‘otadi. Pokizalik o‘zbek xalqining eski, islomdan oldingi qadriyatlarida ham mavjudki, ular xalqning milliy qadriyatlari sifatida qaraladi. Shu uzoq yillar shakallangan qadriyatlar islomiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashib, har bir ish boshidan oldin poklanish ishlari amalga oshiriladi.

Poklanish bir millat va xalq timsolida ikki diniy yoki mifologik e’tiqodlarining konstruktiv ahamiyatga egaligi bilan ahamiyatlidir. Poklanish islomiy qadriyatlarni reglamentlashuvchi, boshqaruvchi va eng asosiysi, musulmon kishisini forig‘lantiruvchi tushuncha sifatida xalqimiz ongida turli amaliy, nazariy shaklda namoyon bo‘lib kelgan.

Islomiy qadriyatlar ko‘p asrlardan beri o‘zbek oilaviy munosabatlarining rivojlanishiga katta hissa qo‘shib kelmoqda. O‘tgan davrlarda islom dini inson ruhiyatiga, ongi va qalbiga ta’sir etuvchi marosimlar, diniy bayramlar, urf-odatlar va turli taomillarni qadriyat sifatida shakllantirdi. Mazkur qadriyatlar o‘zbek xalqi oilaviy munosabatlariga yangicha yo‘nalish, go‘zal an’analarni baxsh etgan. Islom dini qadriyatlari milliy maro-

simlarga to‘siq qo‘ymasdan, uni yanada rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratgan. Ushbu diniy-ma’naviy qadriyatlardagi insonparvarlik, millatparvarlik, o‘zaro ahil yashash, pokdillik, mehnatsevarlik kabi axloqiy fazilatlar o‘zbek xalqining etnomadaniy o‘ziga xosligini saqlab qolishda katta ahamiyatga egadir.

Har bir islomiy qadriyat er-xotinga, eng avvalo, Yaratuvchiga (qadimiy turkiy xalqlarda Tangriga), keyin esa o‘zining katta oilasi, jufti haloli, bo‘lajak farzandlari oldida ma’naviy javobgarlik, burch, mas’uliyatni shakllantirgan. Islomiy qadriyatlar insonni hayotning ibtidosini oilaviy munosabatlar orqali yaratib, uni poklanish, yaratuvchining xohishi, payg‘ambar sunnati sifatida e’tirof etib, insonni takror ishlab chiqarishni barqarorlashtirgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak islomiy qadriyatlar kishilarga axloqiy-ma’naviy qarashlarida normalarni shakllantirib, ma’lum reglamentlar, boshqaruv va nazorat usullarini taqdim etgan. Oilaviy munosabatlar ayollarda poklik, vafodorlik, sadoqat, tozalik, orastalik singari burchlarni majburiy qilib qo‘yib, erkaklarda jinsiy yaqinlik odoblari, gigiyenasi, zinodan chekinish, oilaning muqaddasligi singari tartibga keltiruvchi umumiy imperativlarni shakllantirgan. Islomiy qadriyatlar sof tabiiy jinsiy intilishni ma’naviy qobiqqa o‘rab, oilaviy munosabatlarni milliy ruhda shakllanishiga yo‘l ochgan va ayolni erkak oldida ma’naviy-axloqiy go‘zal xilqat sifatida namoyon qilib, nikohidagi ayol poklik ramzi, ezgulik, mehr-muhabbat ramzi sifatida mujassamlashtirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Iqroruddin F. Nikoh va oila risolasi. Movarounnahr. – T.: 2004. B - 5.

2. Imom G‘azzoliy. Uylanish odobi. Toshkent islom universiteti. – T.: 2009. B - 27.

3. Primova F.A. Oilaviy munosabatlarni shakllantirishda milliy va diniy qadriyatlarni tutgan o‘rni: Fals.fan.nom... diss. – T.: 1999. –B. 80b.

4. At-Termiziy hadislari // Muloqot, 1991.-№1. – B. 82.

V SHO‘BA: MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI

MA’NAVIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH KONSYEPSIYASI – DAVLAT SIYOSATINI YO‘NALISHI SIFATIDA

Islamov Ilyos Normamatovich,
Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi kafedra mudiritarix fanlari doktori, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash konsepsiyasini qabul qilish zaruriyati asoslangan. Shuningdek, ma’naviy xavfsizligini ta’minlashning rmillari, maqsad va vazifalari hamda ma’naviy tahdidlarning tasnifi keltirilgan.

Tayanch so‘zlar: ma’naviy xavfsizlik, ma’naviy xavfsizlik konsepsiyasi, ma’naviy sohadagi manfaatlar, ma’naviy tahdidlar.

Ma’naviy tahdidlarning keng miqyosda tarqalishi xavfsizlik nazariyasida «ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash» tushunchasini keltirib chiqardi. Xavfsizlik muammolariga oid tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozirgi vaqtda ma’naviy xavfsizlik milliy xavfsizlikning asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida yuzaga chiqdi va uning ajralmas qismiga aylandi.

Ma’naviy xavfsizlikni milliy xavfsizlikning alohida bir sohasi sifatida tadqiq etish va ma’naviy tahdidlarga qarshi kurash samaradorligini oshirish zaruriyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

birinchidan, milliy mentalitetimizga begona bo‘lgan buzg‘unchi g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi, ayniqsa, yoshlarning ma’naviy-axloqiy ildizlariga putur yetkazishga yo‘naltirilgan turli tuzilmalarning faollashganligi;

ikkinchidan, OAV va internet tarmog‘ida «ommaviy madaniyat» va axloqsizlikning turli ko‘rinishlari kabi g‘oyalar targ‘ibotining avj olayotganligi;

ZJV5401

uchinchidan, hamon kishilar ongiga diniy mutaassiblik g‘oyalarini singdiruvchi diniy-ekstremistik va fundamentalistik tuzilmalar yashirin ravishda faoliyat olib borish holatlari uchrayotganligi;

to‘rtinchidan, mahalliy aholining diniy e’tiqodiga ta’sir ko‘rsatib, ular orasidan prozelitlarni ko‘paytirishga va konfessiyalararo beqarorlikni keltirib chiqarishga qaratilgan missionerlik faoliyatining davom etayotganligi;

beshinchidan, shaxs ma’naviyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi oila institutining degradatsiyaga uchrayotganligi;

oltinchidan, shaxs, jamiyat va davlatning ma’naviy sohadagi manfaatlariga qaratilgan tahdidlarning paydo bo‘lish sabablarini aniqlash, tizimli tahlil qilish, baholash va ularga qarshi kurashishning ustuvor vazifalardan biriga aylanganligi [1].

Ushbu holatlar ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash va ma’naviy tahdidlarga qarshi kurash muammolarini ilmiy tadqiq qilishning dolzarbligini belgilab beradi. Shuningdek, ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha yagona davlat siyosatini belgilash zaruriyati O‘zbekiston Respublikasining «Ma’naviy xavfsizlik konsepsiyasi»ni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bilan bir qatorda ma’naviy sohadagi siyosatni ham baravar olib borish muhim hisoblanadi. Jamiyat a’zolariga yaratilgan hayotiy sharoitlar bevosita shu jamiyatda yaratilgan sog‘lom ma’naviy muhitga ham bevosita bog‘liqdir.

Ma’naviy xavfsizlik masalasi milliy xavfsizlikni ta’minlashga oid ayrim hujjatlarda o‘z aksini topgan. Jumladan, 1997 yil 29 avgustda O‘zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiyasi qabul qilingan. Unda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, shuningdek, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyillari va normalariga tayangan holda milliy xavfsizlik sohasida yagona davlat siyosati asoslari belgilangan. Mazkur Konsepsiyada ma’naviy sohadagi milliy manfaatlar, tahdidlar va ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash borasidagi ishlar umumiy holda yoritilgan.

Xorijiy davlatlarning milliy xavfsizlikni ta’minlashga oid konsepsiya va doktrinalarida ma’naviy xavfsizlikning siyosiy

asoslari, xavfsizlik obyektlarining ma'naviy sohadagi manfaatlarini himoyalash bilan bog'liq jihatlar o'ziga xos tarzda aks ettirilgan. Xorijiy davlatlardan Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi, Xitoy va AQShning milliy xavfsizlikni ta'minlashga oid hujjatlarida mazkur mavzuga alohida e'tibor qaratilganligini alohida ta'kidlash o'rinlidir [2-5].

O'zbekiston Respublikasining Ma'naviy xavfsizlik konsepsiyasi – ma'naviy xavfsizlik sohasidagi ilmiy asoslangan qarashlar tizimi bo'lib, ma'naviy xavfsizlik obyektlari manfaatlarining himoyalashni amaliy yechimini topishga qaratilgan shart-sharoitlar va ularning tartibi hisoblanadi.

Mazkur konsepsiya O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik konsepsiyasining tarkibiy qismi hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, shuningdek, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va me'yorlariga tayangan holda, ma'naviy xavfsizlik sohasida yagona davlat siyosati asoslarini belgilaydi hamda quyidagi vazifalarni bajarishga xizmat qiladi:

• O'zbekiston Respublikasining ma'naviy sohadagi milliy manfaatlari va ustuvor yo'nalishlari tizimini belgilash;

• ma'naviy xavfsizlikka qaratilgan tashqi va ichki tahdidlarni aniqlash hamda ularga baho berish;

• ma'naviy xavfsizlikka qaratilgan tahdidlarning oldini olish uchun davlat va jamiyatning real imkoniyatlari va resurslarini aniqlash hamda ularga baho berish;

• ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashning strategik vazifalarini belgilash va ularni ro'yobga chiqarish mexanizmlarini ishlab chiqish;

• ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash tizimi va tegishli qonunchilik bazasini takomillashtirish va boshqalar.

Konsepsiyada ma'naviy xavfsizlikning maqsad va vazifalari, shu sohadagi hayotiy muhim milliy manfaatlar va ularga qaratilgan tahdidlar belgilangan, ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy tamoyillari, bu boradagi xalqaro hamkorlikni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Mazkur hujjatlarga asosan vazirliklar, hokimiyatlar va tashkilotlar tomonidan ma'naviyatni rivojlantirish va uni

asrash borasida tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Respublikamizning ma'naviy xavfsizlik holatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, shaxs, jamiyat va davlatning ma'naviy sohadagi ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan tadbirlar talablarga yetarli javob bermaydi.

Shaxs, jamiyat va davlatning ma'naviy xavfsizligi to'liq ta'minlanmaganligi, jamiyatimizga turli buzg'unchi g'oyalarning kirib kelishi, ma'naviy qadriyatlarimizning qadrsizlanishi, urf-odatlarimizning yo'qolishiga olib keladi va natijada turli ko'rinishdagi tartibsizliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli ma'naviy xavfsizlik holatini baholash va mazkur sohadagi muammolarni aniqlashda quyidagi omillarni hisobga olish lozim:

ma'naviy omillar:

• jamiyatdagi mafkuraning inqirozga yuz tutishi oqibatida paydo bo'lgan mafkuraviy bo'shliq;

• xorijiy mafkuraviy markazlar va tashkilotlar tomonidan jamiyatimizning ma'naviy-madaniy hayotiga ta'sir o'tkazishga bo'lgan harakatlarning kuchayishi;

• noislomiy diniy oqimlar, sektalarning missionerlik faoliyatlari kuchayib borishi;

• jamiyatning ma'naviy-madaniy hayotiga ta'sir o'tkazishga urinayotgan xorijiy mafkuraviy markazlar va tashkilotlar harakatlarining kuchayishi;

• jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatish maqsadida axloqsizlik, zo'ravonlik va murosasizlikning aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida targ'ib qilinishi.

siyosiy omillar:

• geosiyosiy kuchlarning mintaqamizda, shuningdek, mamlakatimizda o'z ta'sir doiralarini oshirishga bo'lgan harakatlari;

• mamlakatimiz aholisiga yot bo'lgan hayot tarzini targ'ib qilish maqsadida OAV va Internet global tarmog'i orqali tarqatilayotgan buzg'unchilik, axloqsizlik va ekstremistik g'oyalar;

• xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan madaniy sohalarda hamkorlikning kuchayib borishi va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi ma’naviy xavfsizligini ta’minlashning maqsad va vazifalarini quyidagicha belgilash maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Ma’naviy xavfsizligini ta’minlashning maqsadi ma’naviy sohani rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish va ushbu sohadagi milliy manfaatlarni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilishni qamrab oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Ma’naviy xavfsizligini ta’minlashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

• ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha yagona davlat siyosatini takomillashtirish;

• ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashga oid qonunchilik bazasini takomillashtirib borish;

• shaxs, jamiyat va davlatning ma’naviy sohadagi hayotiy muhim manfaatlarini aniqlash;

• ma’naviy xavfsizlikning tahdid manbalarini muntazam ravishda o‘rganib borish;

• ma’naviy xavfsizlikka qaratilgan ichki va tashqi tahdidlarni aniqlash;

• ma’naviy xavfsizlik ta’minlanganlik darajasining monitoringini olib borish;

• ma’naviy xavfsizlikka ta’sir etuvchi tahdidlarni bartaraf etishning kompleks chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

• turli buzg‘unchi g‘oyalar va dunyoqarashlarga nisbatan omma ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

• jamiyatimiz ma’naviyatini rivojlantirish orqali ma’nan yetuk, barkamol shaxslarni shakllantirishga shart-sharoitlar yaratish.

Ma’naviy xafsizlik konsepsiyasining asosiy jihatlaridan biri bu ma’naviy sohadagi hayotiy muhim milliy manfaatlarga qaratilgan tahdidlarni belgilash hisoblanadi [6]. Amalga oshirgan tadqiqotlarimizdan kelib chiqib, shaxs, jamiyat va davlatning manfaatlariga qaratilgan tahdidlarni quyidagicha belgiladik.

Shaxsning ma’naviy sohadagi manfaatlariga yo‘naltirilgan tahdidlar:

tashqi tahdidlar:

• «ommaviy madaniyat» namunalari ta’sirida shaxsning o‘z ma’naviy qiyofasini boshqa ommaviy-madaniy qiyofaga o‘zgartirishga urinishi;

• shaxsning diniy mutaassiblikka berilishiga va diniy e’tiqodini o‘zgartirishga yo‘naltirilgan turli buzg‘unchi diniy g‘oyalar ta’sirining doimiy va tobora ortib borishi.

ichki tahdidlar:

• OAV orqali omma ongini manipulyatsiya qilishga qaratilgan harakatlar;

• yosh avlod ma’naviy tarbiyasiga tuzatib bo‘lmas darajada zarar keltirish maqsadida axloqsizlik, zo‘ravonlik va giyohvandlikning targ‘ib qilinishi;

• shaxslarda diniy qadriyatlar tizimini o‘zgartirish maqsadida islom niqobidagi diniy-ekstremistik tashkilotlar va noislomiy oqimlar tomonidan ularning o‘z tarafiga og‘dirilishi;

• fuqarolardagi ma’naviy nigilizm.

Jamiyatning ma’naviy sohadagi manfaatlariga yo‘naltirilgan tahdidlar:

tashqi tahdidlar:

• xorijiy OAV va Internet tarmog‘i orqali milliy-ma’naviy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan «ommaviy madaniyat» namunalarining targ‘ib qilinishi hamda ularga xos andazalarning jamiyat hayotiga singib borayotganligi;

• jamiyatning ma’naviy asoslari va millatlararo totuvlikni yemirishga maqsadli qaratilgan maxsus faoliyatlar;

• jamiyatdagi mavjud an’anaviy diniy qadriyatlar va e’tiqodga zid keluvchi noan’anaviy diniy qarashlar va e’tiqodning targ‘ib qilinishi;

• jamiyatdagi diniy asoslar va konfessiyalararo totuvlikni yemirish maqsadidagi maxsus faoliyatlar.

ichki tahdidlar:

• O‘zbekiston xalqining ma’naviy-axloqiy, madaniy qadriyatlari va turmush tarzini yemirish;

• millatning etnik-madaniy va tarixiy ildizlaridan ajralib qolish xavfi;

• fuqarolarni birlashtiradigan va ergashtiradigan milliy mafkurani jamiyatga singdirish mexanizmining nomukammalligi;

• Respublikada diniy ekstremizm g‘oyalari ta’sirining doimiy va tobora ortib borishi.

Davlatning ma’naviy sohadagi manfaatlariga yo‘naltirilgan tahdidlar:

tashqi tahdidlar:

• O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘siga putur yetkazish maqsadida xorijiy mafkuraviy markazlar tomonidan o‘zbek xalqining tarixi, ma’naviy va madaniy qadriyatlarini buzib ko‘rsatuvchi, o‘z manfaatiga moslab bir yoqlamalik bilan tayyorlangan ma’lumotlarning tarqatilishi;

• O‘zbekiston Respublikasiga qarshi qaratilgan xorijiy davlatlarning maxsus xizmatlari, maxfiylashgan tashkilotlar va ekstremistik yo‘nalishdagi birlashmalarning mafkuraviy qo‘poruvchilik faoliyati;

• Markaziy Osiyoda, jumladan, mamlakatimizda, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida diniy ekstremizm va turli buzg‘unchi g‘oyalarning targ‘ib qilinishi.

ichki tahdidlar:

• ma’naviy-madaniy qadriyatlarni boyitish va saqlab qolish tizimining izdan chiqishi;

• ijtimoiy ongni buzg‘unchi g‘oyaviy ta’sirlardan himoya qiluvchi davlat tizimining mukammal emasligi;

• ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash mexanizmi va huquqiy asoslarining zamonaviy talablarga javob bermasligi;

• diniy sektalar va noislomiy diniy oqimlarning missionerlik faoliyatlari hamda ular ta’sirida prozelitlar sonining ortishi;

• islom niqobidagi diniy-ekstremistik tashkilot va oqimlarning g‘ayriqonuniy faoliyati va ular ta’sirida diniy mutaassiblikka berilgan kishilar sonining ko‘payishi.

Ma’naviy xavfsizlik sohasi millatning ma’naviy yuksalishi, milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy-madaniy qadriyatlarni saqlab qolish, ularni tahdidlardan himoya qilish bilan bog‘liq jihatlarni o‘ziga qamrab oladi. Agar biror ilmiy muammoga

nisbatan tegishli bilimlar to‘planishi, ishlanishi, tahlil va muhokama etilishini nazarda tutsak, O‘zbekistonda ma’naviy xavfsizlik sohasi hozirgi kunda tahliliy bosqichda deb aytish mumkin. Bu jarayonda O‘zbekiston Respublikasining «Ma’naviy xavfsizlik konsepsiyasi»ni qabul qilinishi yagona davlat siyosatini belgilashda muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Islomov I.N. Ma’naviy xavfsizlik. Monografiya. – T.: Complex Print, 2023. – 200 b.

2. Zakon Respubliki Kazaxstan «O natsionalnoy bezopasnosti Respubliki Kazaxstan» ot 26 iyunya 1998 g. № 233–1 (vnesenы izmeneniya v sootvetstvii s Zakonom RK ot 28.04.2000 g. № 45–II) http://www.medialaw.ru/exussrlaw/l/kz/national.htm (data obraщeniya: 15.01.2018).

3. Konsepsiya natsionalnoy bezopasnosti Rossiyskoy Federatsii ot 10 yanvarya 2000 g. http://www.kremlin.ru/acts/bank/14927 (data obraщeniya: 15.01.2018).

4. Ukaz Prezidenta Rossiyskoy Federatsii ot 02.07.2021 № 400 «O Strategii natsionalnoy bezopasnosti Rossiyskoy Federatsii» // http://publication.pravo.gov.ru/Document/View/0001202107030001?index=0&rangeSize=1

5. Strategiya Natsionalnoy bezopasnosti SShA 20 sentyabrya 2002 g. http://www.medialaw.ru/exussrlaw/index.html (data obraщeniya: 15.01.2018).

6. Bobokulov I.I., Umarov X.P. Xavfsizlik asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: JIDU, 2011. – B.37.

MISSIONERLIK VA PROZELITIZMGA QAPSHI KURASHNING MA'NAVIY-MA'RIFIY OMILLARI

Musayev Mansur Tursunpo'latovich,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i, siyosiy fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Missionerlik va prozeltizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy omillari haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada Missionerlik va prozelitizm harakatlari global miqyosda inson qalbi va ongiga, tafakkuriga hamda jamiyatdagi ijtimoyi-ma'naviy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan buzg'unchi mafkura sifatida namoyon bo'layotganligi yoritilgan.

Tayanch so'zlar: ma'naviyat, ma'rifat, tafakkur, qadriyat, an'ana, urf-odat, Missionerlik, prozeltizm, separatizm

Globallashuv sharoitida Missionerlik va prozelitizm harakatlari inson qalbi va ongiga, tafakkuriga hamda jamiyatdagi ijtimoyi-ma'naviy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan buzg'unchi mafkura sifatida namoyon bo'layotganligi, bu muammoni qanchalik muhim ekanligini ko'rsatmoqda. Shu o'rinda, Missionerlik va prozelitizmga qarshi kurashda ma'naviy-mafkuraviy sohada amalga oshirilayotgan tadqiqotlarni rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblandi. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Yangi tahdidlar", jumladan, "ommaviy madaniyat", Missionerlik, prozelitizm xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo'layotgan, odob-axloq, milliy va diniy qadriyatlapning yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda" (1) .

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan «2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» (2)ning ustuvor yo'nalishlaridan biri ham «Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani

yangi bosqichga olib chiqish» asosiy vazifa etib belgilangan. Ushbu vazifani amalga oshirishda, missionerlik va prozelitizm tahdidlariga qarshi kurashda ma'naviy-ma'rifiy va g'oyaviy-mafkuraviy asoslarini o'rganish va tahlil etish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Missionerlik va prozelitizm harakatlarida avval ma'naviy ta'sir va keyin siyosiy qamrab olish jarayonlarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy ta'sir ko'rsatishning birinchi rejaga chiqishini har bir mamlakatda e'tiqod masalasida o'ziga xos yozilgan yoki yozilmagan qonunlar, qadriyatlar, an'analar va urf-odatlar borligi bilan belgilash mumkin. Ma'naviyatni shakllantiruvchi va boshqaruvchi ushbu omillarni yengib o'tmay turib, muayyan insoniy birlikni biror siyosiy maqsad yoki g'oyaga xizmat qildirish majburlashni keltirib chiqaradi. Majburlash eca kuch ishlatish va zo'rlik vositalarini talab qiladiki, inson ongi va qalbini egallash, uni belgilangan g'oyalar va siyosatga bo'ysunuvchi odamga aylantirishda bu muvaffaqiyatli chora bo'la olmaydi. Chunki majburlash ma'naviyatga zid hodisa hisoblanadi. Qolaversa globallashuv jarayonlari Missionerlik harakatlari uchun g'oyatda keng imkoniyatlarni ochib berdi. Ushbu sharoitda mazkur hapakatlar milliy, diniy, dinlararo ziddiyatlarni keltirib chiqarish, tinch va osuda hayotga tahdid solish, nafaqat jamiyatda balki mamlakat miqyosida separatizmni keltirib chiqarishga intilayotganligi bu borada jiddiy fikrlashni taqozo etadi.

Missioner faoliyati davomida yuzlab insonlarni o'z diniga jalb etca, uning hosilasi bo'lgan prozelit eca qisqa davr mobaynida ko'plab inconlarni o'z dinidan voz kechib, o'zga dinni qabul qilishga erishadi. Natijalar harakat amalga oshirilayotgan davlatlar aholisi va ular hayot tarzining boy yoki kambag'al, yopiq yoki ochiq, siyosiy rejimi kuchli yoki kuchsiz, e'tiqodi tartibli yoki taptibsiz, madaniyati va millati asosan bir xil yoki aralash, ekanligi kabi belgilarga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, Missionerlik ta'siriga tushgan inson ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy, huquqiy va psixologik jihatdan jiddiy zararlar girdobiga griftor bo'lishi

natijasida oilalar bapbod bo‘lmoqda. Natijada, Missionerlik oqibatida insonlar sog‘ligiga putur etib, pul va mol-mulkidan ajralashi holatlari ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Missionerlik tashkilotlarining o‘z a’zolariga nisbatan psixologik usullarining qo‘llanishi adeptlarga zarar yetkazishini anglash lozim. O‘z navbatida, ularni aqliy qiyinchiliklarni tushunish uchun emas, balki mustaqil sog‘lom fikrlashni bartaraf etish maqsadida qo‘llanadi. Ayniqca, missionerlar o‘z a’zolariga ommaviy uchrashuvlarda tantanali va’da berish orqali o‘z a’zolaridan sadoqat to‘g‘risidagi arizalariga imzo chekishni talab etishadi. Natijada, Missionerlikning ommaviy bayonoti tarafdorlarning tashkilotga sadoqatini kuchaytipib, tashkilotdan ketishga intilayotgan a’zolarni ishonchciz insonlar sifatida ko‘rinishga majbur qilishadi. Aynan, mazkur omillar Missionerlik tarafdorlari tomonidan insonlarni tashkilotga a’zo qilishda eng avvalo, ularni ma’naviyatiga ta’sir ko‘rsatishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Missionerlik tarafdorlari xali ongi shakllanmagan, Missionerlik to‘g‘risida aniq bilim va tassavvurga ega bo‘lmagan insonlarni ongi va qalbini zabt etish orqali ularni o‘z tuzog‘iga ilintirishda ustalik bilan yondashadi.

Missionerlik va prozelitizm aniq belgilangan siyosiy maqsadlarni amalga oshirishda aksariyat holatlarda yovuz va buzg‘unchi g‘oyalarini ko‘zlayotgani oydinlashmoqda. Mazkur harakatlar oqibatida iqtisodiy taraqqiyotdan orqada qolgan davlatlarga «beg‘araz» yordamning ko‘rsatish niqobi ostida ayrim mustaqil davlatlarning ichki ishlariga ochiqdan ochiq aralashuvining yashirin ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi kunda u yoki bu dinni bayroq qilib dunyoviy tartibotga qarshi yo‘naltipilgan radikal harakatlarga qarshi kurash olib borish ko‘p qippali benihoya ziddiyatli fenomen ekanligini inobatga olish zarur (3). Zero, jahondagi yetakchi davlatlar Missionerlik harakatlarini yo‘naltirish orqali iqtisodiy yordam berish bahonasida akcariyat holatlarda o‘zlarining siyosiy shartlapini bajarishga majbur qilish holatlari kuzatilmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy jihatdan zaif davlatlarga «beg‘araz» yordam ko‘rsatish orqali o‘z siyosiy ta’sip doirasiga olish holatlari tobopa oydinlashmoqda. Xususan, diniy vositalar orqali o‘zga

davlatlarning ichki ishlarga apalashuvi namoyon bo‘lmoqda. Missionerlik geosiyosiy kuchlar ko‘magida xavfli qupol sifatida, o‘zga din vakillari e’tiqodiga raxna solmoqda.

Missionerlik tashkilotlari tomonidan qo‘llaniladigan eng samarali vositalardan biri ular faoliyat yuritayotgan hududlardagi aholining ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muammolarini o‘rganish va bu muammolardan kelib chiqqan holda Missionerlik faoliyati uchun qulay sharoit yaratishdir. Urushlar, ichki nizolar, bosqinlar, migrasiya, surgunlar, boshpanalar, ocharchiliklar, zilzilalar, toshqinlar kabi ofatlar missionerlar uchun juda qulay ish muhitini yaratadi. Ayniqsa, bugungi kunda yuqori darajada tashkil etilgan va ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan juda yaxshi manbalarga tayanadigan Missionerlik tashkilotlari odamlar boshdan kechirayotgan bu muammolarni “oltin imkoniyatlar” deb biladilar. Shu nuqtayi nazardan, nasroniylik tomonidan targ‘ib qilinayotgan odamlar va oilalarning ta’lim va turmush muammolarini o‘z zimmasiga olish mas’uliyatiga katta ahamiyat beriladi.

Bugun dunyo miqyosida shiddat bilan kechayotgan bunday japayonlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga, jumladan, ma’naviy-ma’rifiy sohalarga ham jiddiy ta’sir o‘tkazmoqda. Mana shunday murakkab bir sharoitda tinchlik, barqarorlikni aspash, mustaqillikni mustahkamlash har bir davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda aniq maqsadga yo‘naltirilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish borasida samarali ishlar qilinmoqda.

Mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sipchanligini oshirish, ma’naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash borasida jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda. Bu haqda O‘zbekiston Pespublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida joriy yil 19 yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ma’naviyat masalasiga alohida e’tibor qaratildi.

Bu haqda Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: «Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtidodiyot. Ikkinchidi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat»,(4)-deya ta’kidlagani bejiz emas. Zero, dunyo miqyosida xalqaro terrorizm, radikalizm, ekstremizm Missionerlik, prozelitizm kabi chegara bilmas tahdidlarning xavfi ortib borayotgan bugungi kunda ham ma’naviyat va ma’rifat jaholatga qarshi kurashishning eng samarali vositasi sifatida tan olinmoqda.

Bugungi zamon shiddati inson hayotida ma’naviyatni naqadar muhim ekanligini namoyon etmoqda. Zero, «axloqsizlik, odobsizlik, ma’naviy qashshoqlik insonni tubanlikka girdobiga griftor etib, keng miqyosda esa jamiyat taraqqiyotini izdan chiqarib, parokandalikni yuzaga keltiradi. Ma’naviyat yo‘qolgan joyda insonda hayvoniy hislatlar ildiz otib, yovvoyilik, vahshiylik, jaholat va xurofot kuchayadi» (5). Natijada, inson o‘z aslini yo‘qotish orqali qadriyat sifatidagi maqomidan ham judo bo‘ladi.

Bugun shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda mafkura poligonlarida g‘oyaviy – mafkuraviy kurashning tobora avj olishi yoshlar ongi va qalbini ekspansiya (zabt etish) etishga zamin yaratmoqda. Shu tariqa, ma’naviy tubanlik ta’siri oqibatida madaniyatsizlik, e’tiqodsizlik kabi bir qator «ta’limotlari» oshkora ba’zan esa yashirin tarzda targ‘ib etilmoqda. Natijada, milliy ruh, millatning o‘ziga xosligi va uning asriy qadriyatlariga raxna solish orqali zimdan yemirishga zamin yaratilmoqda.

Bugungi zamon shiddati har qaysi millat, xalqni kelajakda o‘zligini saqlab qolish uchun eng avvalo, ma’naviyat masalasiga bo‘ladigan tahdidlardan muntazam ogoh, sezgir va xushyor bo‘lish borasida kechiktirib bo‘lmas dolzarb vazifalarni ko‘ymoqda. Xulosa qilib aytganda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: “Biz ma’naviyat va ma’rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi, deb bilamiz. Vijdoni, ma’naviyati bor inson Vatanni albatta yaxshi ko‘radi. Vijdon, ma’naviyat degani – xalqqa, Vatanga chin yurakdan xizmat qilish deganidir. Mana shunday

ZJV5401

qarash butun xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz tomonidan keng va qizg‘in qo‘llab-quvvatlanayotgani ma’naviy tarbiyaning naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi” (6), deya ta’kidlashi ayni haqiqatdir. Zero, global miqyosda milliy, diniy adovatlarni qo‘zg‘otuvchi Missionerlik va prozelitizm harakatlari tinch va osuda hayotga tahdid solish orqali nafaqat jamiyatda balki mamlakat miqyosida separatizmni keltirib chiqapishga zamin yaratilayotganligini teran anglash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Tinchlik, ma’rifat va bunyodkorlik yo‘lida hamkorlik. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoevning Toshkentdagi simpoziumlar saroyida Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi // «Xalq so‘zi» online, 2016 yil 19 oktyabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to‘g‘risidagi Farmoni.

3. Paxrutdinov Sh.I. Dunyoviy demokratik davlatchilik qurilishi amaliyotida diniy ekstremizm tahdidi. s.f.d. ilmiy darajasi uchun yozilgan dis. 23.00.02. – Toshkent: 2001. – B. 115-116.

4. Shavkat Mirziyoev: Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. https://uza.uz/uz/posts/shavkat-Mirziyoyev-jamiyat-hayotining-tanasi-iqtisodiyot-bolsa-uning-zhoni-va-ruhi-manaviyatdir_235451.

5. Komilov M. Ma’naviyat qalb najotkori. Qoraqalpog‘iston tongi. 2022 yil 19 fevral. №7 (1484).

6. Prezident Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining yigirma sakkiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 31-08-2019.

MA’NAVIY TAHDIDLARNING ZAMONAVIY KO‘RINISHLARI

Xidirov Xoshim Ibodullaevich,
Jizzax politexnika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti, f.f.b.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi dunyoning dolzarb masalasi hisoblangan ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samaradorligini yanada oshirishga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan ma’navi tahdidlar haqida so‘z boradi.

Tayanch so‘zlar: Ma’naviyat, yoshlar, ma’naviy tahdid, dunyo, salbiy illat, fazilat, globallashuv, inson ongi va qalbi uchun kurash va h.k.

Ma’naviyat bor joyda unga qarshi qaratilgan kuch ham bo‘ladi. Chunki ma’naviyatga fazilatlar majmuasi deb qarasak, illatlar yig‘indisini ma’naviyatsizlik hisoblaymiz. Afsuski, fazilatlar ham, illatlar ham bir shaxsning o‘zida namoyon bo‘lishi mumkin. Shuning uchun komil inson g‘oyasi kishining o‘zidagi fazilatlarni umrining oxiriga qadar takomillashtirish, illatlarni esa bartaraf etib borishni taqozo etadi. Dunyoda ma’naviyatni ravnaq toptirishni istaydigan, faoliyatini batamom shunga qaratadigan kuchlar bo‘lgani kabi ma’naviyatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarshi qaratilgan guruhlar ham mavjud. Ularning ma’naviyatga qarshi yo‘naltirilgan xatti-harakatlari majmuasini «ma’naviy tahdidlar» deymiz.

Bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchisiga o‘tish hech qachon oson kechmagan. Ana shunday murakkab jarayonda muayyan ma’noda mafkuraviy bo‘shliq paydo bo‘ladi. Muayyan kuchlar bu bo‘shliqni egallashga jon-jahdi bilan harakat qilishadi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, shu narsa oydinlashdiki, ma’naviyat bor joyda unga qarshi tahdid ham bo‘laverar ekan. Demak, insonlarda yuksak ma’naviyatni shakllantirish, uni ana shu tahdidlardan asrash uchun bir lahza bo‘lsin, kurashdan to‘xtamaslik kerak ekan. Biz globallashuv davrida yashayapmiz. Uning bosh xususiyati shuki, yer yuzining istalgan

nuqtasida paydo bo‘lgan bir yangilik zudlik bilan butun dunyoga yoki uning juda katta qismiga tarqaladi. Ammo bu yaxshi yangilik bo‘lishi ham, yomon yangilik bo‘lishi ham mumkin. Aynan shuning uchun ham, xuddi tayoqning ikki uchi bo‘lgani kabi, globallashuvning ham ijobiy, ham salbiy jihatlari bor. Ijobiyligi shundan iboratki, bugun fan-texnika, texnologiya, ishlab chiqarish, bozor, ta’lim, madaniyat, adabiyot-san’at va boshqa sohalardagi har qanday ezgu jihat misli ko‘rilmagan tezlik bilan keng tarqal¬yapti, qit’adan-qit’aga, yurtdan-yurtga o‘tib, umumbashar mulkiga aylanib boryapti. [1.91-bet]

Salbiy jihati esa tezkor taraqqiyot va bozor iqtisodiyoti har qanday mamlakatga o‘zining barcha noxush tomonlari bilan birga kirib keladi. Bu esa globallashuv¬ning salbiy tomonlaridan insonlarni ehtiyot bo‘lishga undaydi.Yot kuchlar zamonning ana shu xususiyatidan o‘z manfaatlari, yovuz maqsadlari yo‘lida foydalanishga, turli zararli g‘oya va mafkuralarni dunyo bo‘ylab tarqatishga zo‘r berib urinaveradi. Shu tariqa hozirgi zamonda odamlar qalbi va ong-tafakkurini zabt etishga urinish o‘zaro kurashning asosiy maydoniga aylanib ulgurgan.

Globallashuv davrini kompyutersiz, internet tarmog‘isiz aslo tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bugun kompyuterni bilmaydigan, internet tarmog‘i imkoniyatlaridan foydalana olmaydigan odamlar zamondan ortda qolgan hisoblanadi. Yoshlarimiz shuni his etgan holda kompyuter va internetdan foydalanishni puxta o‘rganishmoqda. Yana bir jihatni aytish kerakki, bugun internetdan foydalanish uchun kompyuter sotib olish shart emas. Zamonaviy uyali telefonlar orqali internet tarmog‘iga bemalol ulanish va undan istagancha foydalanish mumkin. Xo‘sh, internet ham yaxshi, ham yomon ma’lumotlar o‘chog‘i hisoblansa, yoshlarimiz undan bemalol foydalanayotgan bo‘lsa, ular tarmoqlardan qaysi ma’lumotlarni olayotganini kim nazorat qiladi? Aytish joizki, internetdan foydalanish uchun bir oz xarajat ham kerak bo‘ladi. Bu xarajatlar, albatta, oila byudjetidan ajratiladi. Biz – farzandsevar xalqmiz, hayotimizni bolalarimizga tikkanmiz, ulardan hech narsamizni ayamaymiz. Biroq... Gap shundaki, internet orqali bolalarimiz aqlan o‘sib, ma’nan etuklikka erishishi, komil inson

bo‘lib tarbiyalanishi, ilm-ma’rifat o‘rganib, ezgulikka intilishi mumkin. [2. 31-36 - betlar] Bugungi kunda internetdan foydalanmay turib zamon talablariga javob beradigan mutaxassis bo‘lib etishishni mutlaqo ko‘z oldimizga keltira olmaymiz. Shu bilan birga, aynan internetning salbiy ta’sirida farzandlarimiz ong-tafakkurining yomon tomonga o‘zgarishi mumkinligini ham nazardan qochirib bo‘lmaydi. «Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi». Dono xalqimiz bu hikmatni bejiz aytmagan. Bugun aynan internet orqali fe’l-atvori o‘zgarib, odamovi bo‘lib borayotgan, shuningdek, jinoyatchi qiyofasiga kirib, o‘zini o‘zi o‘ldirayotgan hamda terrorchiga aylanib, qo‘liga qurol olayotgan yoshlarimiz ham yo‘q emas. Hozir ko‘chalarda yoshlarga e’tibor qiling: deyarli hammasining qo‘lida zamonaviy telefon, qulog‘ida go‘shak. Ayrimlari dasturxon atrofida ham internet xabarlarini o‘qigani-o‘qigan. Atrofdagilar bilan ishi yo‘q. Hayot bilan qiziqmay qolgan, fikri hayoli qo‘lidagi ana shu «matoh»da. Internet-kafelar ham yoshlarimiz bilan gavjum. Ammo bu yerga kirgan farzandlarimiz internetdan nima maqsadda foydalandi, nimalarni oldi, qanday o‘yin o‘ynadi, kimga nima yubordi. Bularni kim nazorat qiladi.

Mamlakatimiz ta’lim muassasalarida ichki ro‘yxatga olingan hamda ichki ishlar organlari profilaktik hisobida turuvchi o‘quvchilar ham bor. Ulardan ayrimlarining internetga kirib, yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolmasligiga kim kafolot beradi. Yoki vaqtinchalik ish bilan ta’minlanmagan yoshlarimizga nisbatan ham shunday fikr aytish mumkin. Chunki barcha yomon illatlarning ildizi bekorchilik va ishsizlikka borib taqaladi. Dunyoda g‘oyadan kuchli qurol bo‘lmaydi. Bugungi kunda yovuz kuchlar o‘z g‘arazli g‘oyalarini tarqatish uchun internetdek tayyor «dastyor»dan ustomonlik bilan foydalanib kelmoqda. Internetdagi ijtimoiy tarmoqlar aynan «ommaviy madaniyat»ni targ‘ib etishning eng keng tarqalgan vositasiga aylanib boryapti. Bundan bolalarimizni asrashimiz lozim. Bu masala bugun hammani, ya’ni, butun jamiyatni o‘ylantirishi shart.

2017-yilning 15-iyun kuni poytaxtimizda «Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi» mavzusida anjuman o‘tkazildi. Unda O‘zbekis-

ton Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so‘zlab, jumladan, hozirgi vaqtda dunyo miqyosida hukm surayotgan tahlikali vaziyat, siyosiy va iqtisodiy inqirozlardan tashvishga tushmayotgan birorta davlat yoki jamiyat yo‘qligini qayd etdilar. «Ayniqsa, xalqaro terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, diniy qarama-qarshilik, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, ekologik muammolar, ayrim mintaqalarda iqtisodiy nochorlik, ishsizlik, qashshoqlik kuchayib borayotgani butun insoniyatni qattiq xavotirga solayotgani» alohida ta’kidlandi. Xo‘sh, diniy-ekstremistik g‘oyalar ta’siriga tushib, bugun xorijiy davlatlarda xunrezliklarga sherik bo‘lib qolgan yoshlarni aynan internet o‘z to‘riga ilintirmadi, deb kim ayta oladi. [3.57-bet] Ana shu salbiy oqibatlarga qarab aytish mumkinki, hozirgi zamonda ijtimoiy tarmoqlar insoniyat boshiga bitgan balo ham bo‘ldi. Vayronkor g‘oya ilmsiz jamiyatga ko‘proq bostirib kiradi. Shuning uchun fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi esa ma’rifat bilan kurashmoq zarur. Ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashish uchun jamiyatda ilm-ma’rifatni ravnaq toptirish eng muhim vositalar sirasiga kiradi. Ma’naviy tahdidlarga qarshi tura oladigan kuch – mafkuraviy immunitet. Keyingi paytlarda tilimizda «tahdidbardoshlik» degan yangi atama ham paydo bo‘ldi. Tovar bozor sharoitida raqobatdosh bo‘lgani kabi, kishilar ongi va qalbini egallash uchun kuchli raqobat kechayotgan hozirgi o‘ta murakkab va tahlikali zamonda aynan jamiyatning tahdidbardoshligini ta’minlash ham juda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yo‘ldosheva S.M. Sog‘lom turmush tarzi – tahdidlarga qarshi kurash omili sifatida. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda axloqiy qadriyatlarning o‘rni. // T.:2009. 191 b.

2. Tulenova.G «O‘zbekistonda ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash muammolari // Huquq. T.:1999, № 5. 31-36 b.

3. Islamov I.N. Ma’naviyatga tahdid – kelajakka tahdid. Globallashuv, modernizatsiya va tolerantlik: muammolar, echimlar va istiqbollar. Konferensiya materiallari. - T.:2009, 57 b.

MISSIONERLIK HARAKATINING TARG‘IBOT USULLARI

Ahmedov Ergash Kuldashevich,
Toshkent kimyo-texnologiya instituti v.b. dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotasiya. Ushbu maqolada missionerlik harakatining targ‘ibot texnologiyalari, insonlarni o‘zlariga jalb qilish usullari va ularning oqibatlari haqida fikr yuritilgan. Bugungi mafkuraviy kurash avj olgan zamonda missionerlarning puxta o‘ylangan reja asosida ish olib borishi, bosqichma-bosqich uzoq muddatli ta’sir o‘tkazish texnologiyasining insonlar ongi va qalbiga o‘z g‘oyalarini singdirishi aniq misollar orqali yoritilgan va tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar: missionerlik, targ‘ibot usullari, “sevgi bombardimoni”, “miyani yuvish”, “xulq atvorni o‘zgartirish”, “ommaviy ongni boshqarish”.

Missionerlik harakatlari ta’siriga tushish o‘zaro ta’sir ko‘rsatuvchi ikki kuchning natijasidir: ya’ni missionerlar tomonidan insonlarni jalb qilish uchun ishlatiladigan usullar va potentsial mijoz, ya’ni nishondagi insonning shaxsiy himoyasi. Targ‘ibot usullari missionerlik harakatining samaradorligini ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Missionerlik faoliyati bilan shug‘ullanish boshlangan dastlabki davrlarda bugungi kundagi kabi usul va vositalar hali yo‘q edi. Ammo vaqt o‘tishi bilan ular ham rivojlanib, takomillashib bordi. Har doim yangi usullar va ta’sir vositalari misionerlik imkoniyatlarining ortib borishiga xizmat qildi.

Insonlar missionerlar tomonidan din bilan tanishtirilgach ularga ishonib, darrov ularning ortidan ergashib ketaverishmaydi. Dunyoqarashdagi o‘zgarishlar bir zumda emas, balki uzoq vaqt davomida, qiyinchilik bilan sodir bo‘ladi. Buni yaxshi anglagan missionerlar ish-faoliyatini tashkil etishda

uzoq muddatga mo‘ljallangan, bir nechta bosqichlardan iborat bo‘lgan uslublardan foydalanadi. Missionerlik bilan shug‘ullanayotgan tashkilotlarning insonlarni o‘ziga jalb qilish faoliyatini shartli ravishda quyidagi 4 bosqichga bo‘lish mumkin:

1. Qiziqtirish, jalb qilish bosqichi;
2. Tanqid qilish qobiliyatini pasaytirish bosqichi;
3. Ijtimoiy aloqalarni uzish bosqichi;
4. O‘z safida ushlab turish bosqichi.

Turli bosqichlarda turli mexanizmlar qo‘llaniladi, har bir bosqich o‘z vazifalariga ega. Quyida ushbu bosqichlarda qo‘llaniladigan usullarni ko‘rib chiqamiz.

1. Qiziqtirish, jalb qilish bosqichi. Avvalo, ta’sir obyekti tanlab olinadi, odatda ular o‘zlarining shaxsiy muammolari va ijtimoiy muhitdan nolib yuradigan ojiz kishilarni qidiradilar. Shu bilan birga ta’sir obyekti sifatida ma’lum bir chorrahada turgan insonlar tanlanadi. Bular dunyoqarashi endi shakllanayotgan yoki qandaydir o‘zgarishlarni boshidan kechirayotgan (inqirozli vaziyatdagi) sodda o‘spirinlar, talabalar, ta’tilda bo‘lgan odamlar (ta’tilda, sayohatda, o‘yin-kulgi joylaridagi odamlar), keksa odamlar (yaqinda nafaqaga chiqqan yoki uzoq vaqtdan beri yolg‘iz bo‘lgan keksalar), stress holatidagi har qanday odam (kasallik, yaqinlarining o‘limi, ajralish va boshqa muammolarni boshidan o‘tkazayotganlar), muhojirlar (odatda “qora” ish bilan shug‘ullanuvchi, nomutaxassis mehnat muhojirlari), qochqinlar, ishsizlar bo‘lishi mumkin. Bunday insonlarning barchasi iliq munosabatga muhtoj bo‘ladi va do‘stona aloqalarni izlaydi. Missionerlar bunday insonlarni tashqi yordamga muhtoj deb xisoblaydi va ularga “yordam” berishga intiladi. “O‘z rejalarini amalga oshirishda “mehribonlik uylari”, “ko‘zi ojizlar jamiyati”, “qariyalar uylari”ga “beg‘araz” xayriya yordami ko‘rsatayotganligi ular amaliyotining oshkora ko‘rinishlaridir”[1, 58].

Missionerlik tashkilotining bo‘lajak a’zosiga hushomad qilish, unga yoqishga intilish, iliq taassurot qoldirishga urinish birinchi bosqichga xos xususiyat bo‘lib, bu bosqichda soxta sahiylik va mehr-muhabbat namoyishlari va manipulyativ

amaliyotga asoslangan “Sevgi bombardimoni” [2, 479] (Love bombing) usuli keng qo‘llaniladi. Bunda nishondagi inson ilgari hech qachon uchramagan katta e’tibor va g‘amho‘rlikka duch keladi. Missioner juda ham mehribon va xushmuomala ekanligini ko‘rsatib, yollanuvchining ishonchiga kirishga va mehrini qozonishga harakat qiladi. O‘n-o‘n besh daqiqalik suhbatdan so‘ng yoki bir nechta “tasodifiy” uchrashuvlardan so‘ng, bo‘lajak mijozlar tayyor deb hisoblansa, ularni guruhga qo‘shilish yoki tashrif buyurish uchun taklif qilinishi mumkin. Shundan so‘ng yollanuvchi guruhning “samimiy” atmosferasiga kirib boradi, uni g‘amxo‘rlik va e’tibor bilan kutib olishadi. Uning qadri baland ekanligini va unga muhtojligini bildirishadi: “siz go‘zalsiz, aqlli odamsiz, biz ulug‘vor missiya uchun sizga muhtojmiz”. Bunday munosabatdan yollanuvchi chin dildan xursand bo‘ladi. Uning uchun hayotning murakkab savollariga sodda va jozibali javoblar taklif etiladi. Tashkilotning bo‘lajak a’zosi sifatida unga baxt, erkinlik va bilim kafolatlanishi aytiladi. “Buyuk sirlarga aralashish illyuziyasi, yanada ko‘proq muhim bilimlarni kashf qilish va’dasi”[3] bilan ruhiyatga tasir o‘tkaziladi.

Ushbu bosqichda yollanuvchiga shafqatsiz, xudbin, tartibsizlik hukmronlik qiladigan va unga nisbatan befarq bo‘lgan dunyo hamda uni qadrlaydigan do‘stona, g‘amxo‘r guruh o‘rtasidagi farq ko‘rsatiladi.

2. Tanqid qilish qobiliyatini pasaytirish bosqichi. Bu bosqich ma’lumotlarni to‘liq nazorat qilish, tafakkurni isloh qilish va qayta tarbiyalashga asoslanadi. Ushbu bosqichda insonlarning tanqidiy yoki mustaqil fikrlash qobiliyatini pasaytirishga, yangi, o‘zlari xohlamagan fikrlar va g‘oyalarni ularning ongiga kiritishga asoslangan “Miyani yuvish”[4, 403] (Brainwashing) usulidan keng foydalaniladi.

Missionerlar yangi a’zoga ilgari va’da qilingan imtiyozlarga erishish uchun bir qator ruhiy va jismoniy mashqlarni bajarish kerakligini tushuntiradi. Uning vaqtini to‘liq nazorat qilishga intiladi, bo‘sh vaqti bo‘lishiga imkon bermaydi: uzoq ishlash, ma’ruzalar, yangi a’zolarni jalb qilish maqsadida uy-

ma-uy yoki jamoat joylarida aylanib yurish, uzoq mulohazalar, ibodatlar, xayr-ehson yig‘ish, bir-biriga diniy yo‘nalish ta’limotini, aqidalarini o‘rgatish, shu bilan birga noto‘g‘ri ovqatlanish va uyqusizlik insonning nima qilayotgani yoki qanday yashayotgani haqida o‘ylashiga to‘sqinlik qiladi. Yangi diniy harakatlar bo‘yicha mutaxassis, f.f.n. Ye.N.Volkov vaqt va faoliyatni (xatti-harakatni) nazorat qilish barcha buzg‘unchi kulьtlarga xos ekanligini va buning natijasida psixologik himoya va e’tiborning pasayishi, jismoniy va hissiy charchoq, guruhni tanqidiy baholash qobiliyatining pasayishiga olib kelishini aytadi [5, 80]. Darhaqiqat, meditatsiya, monoton qo‘shiq va takroriy harakatlar, ulardan intensiv foydalanish nima bo‘layotganini tanqidiy baholash qobiliyatini pasaytiradi va fikrlash jarayonlarini susayishiga olib keladi. Shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchini yo‘q qilishga harakat qilinada, uning o‘tmishdagi tajribasini, bilim va ko‘nikmalarini qayta ko‘rib chiqish uchun tez-tez va intensiv urinishlar amalga oshiriladi[6]. Natijada, u avvalgi turmush tarzi, fe’l-atvori, odatlari va mustaqil qarorlar qabul qilish erkinligidan uzoqlashib boradi. Shuningdek, u faqat guruh ichida ma’no beradigan nutqni o‘zlashtirishi kerak. Bularning barchasi odamni unga singdirilgan ma’lumotlarga qarshi turish uchun haqiqiy kuchdan mahrum qilib, uning fikrlash va tanqid qilish qobiliyatini zaiflashtiradi.

3. Ijtimoiy aloqalarni uzish bosqichi. Uchinchi bosqich guruh a’zolarining hatti-harakatlarini nazorat qilish, ruhiy qaramlikni kuchaytirishga asoslanadi. Insonlarning munosabati yoki o‘zini-o‘zi boshqarish kabi xatti-haratlarning bir yoki bir nechta psixologik sababiy bog‘lanishlarini o‘zgartirish va boshqa psixologik omillarga ta’sir qilishga asoslangan “Xulq atvorni o‘zgartirish”[7] (Behavior change method) usulidan keng foydalanilmoqda. Ushbu usul missionerlarning ta’siriga tushgan insonlarni ularga qaram qilib qo‘yishda qo‘l keladi.

Ushbu bosqichga kelib g‘oyalar ochiq bayon etila boshlaydi. Tashqi olamga nisbatan quyidagicha fikrlarni singdirish boshlanadi: “Mavjud turli dinlar soxta”, “siyosat eskirgan”,

ZJV5401

“tibbiyot foydasiz”, “psixiatriya xavfli”, “jamiyat esa xalokatlar makoni”, “oila va davlat najot topishga xalaqit beradi”, shuning uchun tashkilot yetakchilari o‘z a’zolarini “oila va davlat oldidagi vazifalari hamda burchlaridan ozod etadilar” va hokazo. Shunday qilib, barcha harakatlar oila, do‘stlar va jamiyat bilan aloqalarni uzishga qaratiladi. Natijada eski do‘stlar undan yuz o‘giradi, oilaviy aloqalar buziladi. Yolg‘iz qoldirmaslik uchun ko‘pincha guruh ichidagi nikoh taktikasi qo‘llaniladi. Bunday harakatlar, ayniqsa, totalitar sektalarda qat’iy ishlab chiqilgan. Masalan Munchilar harakatida adeptlar o‘z oilalaridan ajratib olinadi va ular 5 kishidan 10 kishigacha bo‘lgan guruhlarda yashashadi. Ertalab soat 4 da uyg‘otiladi, soat 5 da - ibodat, keyin - soqol olish, ishlash, kun tartibi shu tarzda davom etadi. Daromad esa Mun oilasiga tegishli bo‘ladi. Jinsiy aloqaga taqiq qo‘yiladi, uch yildan so‘nggina Munga turmush o‘rtog‘ini tayinlash to‘g‘risida so‘rov yuborish mumkin. To‘y esa yana uch yildan keyin bo‘ladi[8]. Bundan ma’lum bo‘ladiki, sektalar o‘z a’zolarining hayotini to‘liq nazorat qiladi va o‘zlari xohlaganicha ularni boshqaradi. Odatda, guruh a’zolariga o‘qishdan yoki o‘z ishidan voz kechish, yashash joyini o‘zgartirish, buning uchun boshqa shaharga borish yoki diniy ta’limni davom ettirish uchun chet elga borish tavsiya etiladi. Tashqi tomondan kelgan har qanday ma’lumot shubhali deb e’lon qilinadi. Qarindoshlar va do‘stlar fikrining oldini olish uchun ular ommaviy axborot vositalari singari iblisning vakillari deb e’lon qilinadi. Shunday qilib, ularning har qanday fikrlari oldindan noto‘g‘ri ekanligi uqtiriladi. O‘zini insoniyatning xaloskori deb e’lon qilgan rahnamo boshchiligidagi odamlargina insoniyatni baxtga yetaklashi mumkinligi singdiriladi. Masalan sayentologiya sektasi o‘z ta’limotida L.R.Xabbordga dunyodagi barcha inson tobe ekanligi, dunyoning yagona xo‘jayini u ekanligi ta’kidlanadi [1, 74].

Tadqiqotchi A.Umurzakov va A.Yusupovlar buzg‘unchi sektalar haqida shunday yozadi: “Guruh a’zolarining qanday fikrlashlari, qanday harakatlanishlari va his-tuyg‘ulari

to‘g‘risida ma’muriyat qaror qiladi: guruh a’zolari uchrashuvga chiqish, ishga kirish va turmush qurish uchun yuqoridan ruxsat olishlari lozim, hatto qanday kiyinish, bolalarni qanday tarbiya qilish, qayerda yashash kabi shaxsiy masalalarda ham guruhning o‘z qonun-qoidalari mavjud”[10, 23]. Ushbu fikrlar ko‘proq totalitar sektalarga xos bo‘lsada, lekin hamma missionerlik tashkilotlari ham ularning ta’limotini tanqid qilganlarning barchasini salbiy, xavfli deb qaraydi. Ular yangi a’zolarni “jamiyat sizga qarshilik ko‘rsatadi, sizning gaplaringizga ishonmaydi, sizni haqoratlashi yoki sizga jismoniy zarar yetkazishga urinishi mumkin. Va bu sizning haqiqat tomonida ekanligingizni isbotlaydi”, - deb kutilajak muammolar haqida ogohlantiradi. Aslida missionerlik harakati a’zosi jamiyatda qanchalik qarshilikka duch kelsa, u o‘z guruhiga yanada chuqurroq kirib boradi.

4. O‘z safida ushlab turish bosqichi. So‘nggi bosqich qo‘rquvni boshqarishga asoslangan bo‘lib, shaxsiy izolyatsiya, jamoaviy bosim, aybdorlik xissi, doimiy qo‘rquv bu bosqichga xos xususiyatlardir. Ushbu bosqichda ko‘p sonli odamlarni, ularning xatti-harakatlarini nazorat qilishni ko‘zlovchi, ularga obyekt sifatida qarab, bepisand munosabatda bo‘lishga, zimdan boshqaruv yoki ta’sir etishga asoslangan “Ommaviy ongni boshqarish”[11, 15-16] usuli keng qo‘llaniladi. Ushbu ta’sir usuli shaxsning aqliy tuzilmalariga qaratilgan bo‘lib, uning vazifasi xatti-harakatlar ustidan nazoratni o‘rnatish, odamlarning g‘oyalari, qarashlari va maqsadlarini missionerlar uchun zarur bo‘lgan yo‘nalishda o‘zgartirishga va ularni mohirona boshqarishga xizmat qiladi.

Bu bosqichda adept missionerlik tashkilotlariga butunlay qaram bo‘lib qoladi. Guruhdan tashqaridagi dunyo bilan barqaror aloqalar o‘rnatishga imkon berilmaydi, bu esa ortga qaytishni qiyinlashtiradi. Turli yig‘ilishlar davomida adeptlar o‘tmishdagi va hozirgi kunda sodir etgan yoki tasavvur qilgan gunohlari va qonunbuzarliklari to‘g‘risida o‘ta shaxsiy ma’lumotlarni aytib berishi kerak bo‘ladi. Natijada bunday

ma’lumotni oshkor qilgan adeptlar dastlab aybdorlik va uyat tuyg‘ularini, iqror bo‘lganidan keyin esa yengillikni his qilishlari mumkin. Faylasuf olim Ye.N.Volkovning fikricha: “sektani tark etmoqchi bo‘lganlar ko‘pincha o‘zlari oshkor etgan ma’lumotlarini shantaj yoki tuhmat qilish uchun ishlatishlari mumkin deb qo‘rqishadi”[5, 81]. Aniqlangan shaxsiy muammolar, o‘tmishdagi salbiy xolatlar, ochiq va yashirin tahdidlar, shuningdek, muqobil jazolar guruh a’zolarini o‘z safida ushlab turishga hamda ulardan turli maqsadlarda foydalanishga imkon beradi. Tashqi dunyo oldidagi qo‘rquv va guruh oldidagi shaxsiy aybdorlik va nochorlik hissi guruh a’zolarini, hatto, umidsizlikka uchragan taqdirda ham guruhda qolishiga va oqim bilan borish osonroq bo‘lishiga ishontiradi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida missionerlik harakati taqiqlanganligi bois ular mamlakatimizda faoliyat olib borishda birmuncha qiyinchiliklarga uchramoqda. Ammo yangi izdoshlarni jalb qilish va o‘z g‘oyalarini O‘zbekiston hududida ham targ‘ib qilish maqsadida turli xil yollash usullaridan foydalangan holda doimiy ravishda targ‘ibotni amalga oshirib kelmoqda. Yuqorida izoh berilgan “Sevgi bombardimoni”, “Miyani yuvish”, “Xulq atvorni o‘zgartirish”, “Ommaviy ongni boshqarish” usullari missionerlik tashkilotlari tomonidan millatimiz vakillarining e’tiqodini o‘zgartirishda doimiy ravishda foydalanilmoqda. Shuningdek gipnoz qilish va turli psixologik usullar, guruh bosimi, vaqt va faoliyatni nazorat qilish, axborotni, tilni boshqarish, tanqidiy fikrlashni susaytirish, yolg‘on va’dalar missionerlar tomonidan keng qo‘llanilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Musaev M.T. Missionerlik va prozelitizmning jamiyat barqarorligiga tahdidi – Toshkent.: “MUMTOZ SO‘Z” 2021-y.

2. Richardson J.T. State and Federal Cooperation in New Religions: Oregon verses the Bhagwan Rajneesh // Regula-

ting Religion: Case Stadies from Aroundthe Globe / Ed. JamesT. Richardson. New York: Kluwer Academic / Plenum Publishers, 2004.

3. Вовлечение молодежи в секты: механизмы // https://antropology-ru.livejournal/com/208996.html [18.12.2019]

4. Campbell, Robert Jean. Campbell's Psychiatric Dictionary. USA: Oxford University Press. 2004.

5. Волков Е.Н. Методы вербовки и контроля сознания в деструктивных культах // Журнал практического психолога. М.: Фолиум. 1996. №3.

6. Почепцов Г. Деструктивные секты: методы вербовки и удержания новых членов // http://www.narcom.ru/publ/info/340

7. Hovland, C.I., Janis, I.L., & Kelley, H.H. (1953). Communications and persuasion: Psychological studies in opinion change. New Haven, CT: Yale University Press.

8. Соколов Д. Шесть самых опасных сект Москвы // https://www.kp.ru/daily/23905/67474/ [5.02.19]

9. Umurzakov A. Yusupov A. Zamonaviy destruktiv tashkilotlar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari // Imom Buxoriy saboqlari. 2018 y. №2.

10. Кара-Мурза С. Манипуляция сознанием. – М.: «Алгоритм», 2006.

ZJV5401

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA RAHBARNING MA’NAVIY-AXLOQIY SIFATLARI

Uroqov Baxrom Abduqayum o‘g‘li,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi boshqarma boshlig‘i

Annotatsiya: Mazkur maqolada yangi O‘zbekiston sharoitida rahbarning ma’naviy-axloqiy sifatlari haqida fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada bugungi kunda mamlakatimizda rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyatini shakllantirish ularda ma’naviy-axloqiy sifatlar, yetakchilik fazilatlarini namoyon etish, o‘z ishiga vijdonan yondashuv, vakolatlarni to‘liq ishga solish, muhim qarorlarni qabul qilishda o‘ziga bo‘lgan ishonchni his etish borasidagi fikrlar yoritilgan

Tayanch so‘zlar: yangi O‘zbekiston, rahbar, ma’naviy-axloqiy sifatlar boshqaruv, salohiyat, yetakchilik, fazilat, yondashuv, vakolat.

Bugungi globallashuv shiddati dunyo taraqqiyotida rivojlanyotgan davlatlar qatoridan ortda qolmaslik, zamon talabi asosida dadil odimlash borasida teran fikrlashni taqoza etmoqda. Buyuk va shonli o‘tmishga ega xalqimiz tarixiga nazar tashlasak, yurtimizda juda ko‘plab davlat arboblari moziy sahifasidan joy olgani barchamizga ma’lum. Ayniqsa, ularning faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, xalq farovonligi yurt ravnaqi yo‘lida bunyodkorlik ishlarini amalga oshirib, xalq hurmati va e’tiboriga sazovor bo‘lishgan. Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Mirzo Bobur kabi buyuk davlat arboblarining faoliyati bugungi rahbarlik faoliyatini yuritayotgan davlat va jamoat arboblari ibrat olsa arziydi.

Buyuk ajdodlarimizning odilona va xalqparvar siyosati, yuksak ma’naviyati, intellektual salohiyati bilan nafaqat diyorimiz balki, dunyo xalqlari tinchligi, osoyishtaligi, ilmfani sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo‘shgan ulkan hissasi barchamizga o‘rnakdir. Bugungi tezkor zamonda insonlar ong-u

ZJV5401

tafakkuridagi o‘zgarishlar har bir insonni dunyoda bo‘layotgan o‘zgarishlarga teran nigoh bilan boqishini taqozo etadi. Ayniqsa, bu jarayon bugungi zamon talabidan kelib chiqqan holda rahbarlarning zimmasiga ulkan ma’suliyat yuklaydi. Xususan, rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyatini shakllantirish ularda ma’naviy-axloqiy sifatlar, yetakchilik fazilatlarini namoyon etish, o‘z ishiga vijdonan yondashuv, vakolatlarni to‘liq ishga solish, muhim qarorlarni qabul qilishda o‘ziga bo‘lgan ishonchni his etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda rahbarlardan talab qilinayotgan yana bir muhim jihati o‘z atrofida sog‘lom fikrlovchi, izlanuvchan, tadbirkor va ishbilarmon kishilarni jalb etish orqali yangilikka intiluvchi, kuchli yetakchi sifatida namoyon bo‘lish talab etiladi. Mamlakatimizda rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyatini yuksaltirish orqali ularni jamoa bilan ishlash, o‘zining ilg‘or g‘oyalari ortidan ergashtira olish borasida ularning ma’naviy va ma’rifiy saviyasini doimiy yuksaltirib borishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, bugungi tezkor globallashuv shiddati rahbarlar oldiga o‘zining innovatsion g‘oyalar orqali yanada shijoat bilan ishlash vazifasini qo‘ymoqda. Bu haqda fikr yuritganda Prezidentmiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: “Bugungi kunda hayotning o‘zi va xalqning talablari bizning oldimizga amaliy yechimini topish lozim bo‘lgan yangi va yanada murakkab vazifalarni qo‘ymoqda”[1], -deya ta’kidlagani bejiz emas. Zero, bugungi rahbari o‘zining yuksak salohiyati va ma’naviy-axloqiy sifatlari va yangicha yondashuvlari bilan barchaga namuna bo‘lish talab etiladi.

Rahbarlikka qo‘yiladigan eng buyuk va muqaddas vazifa o‘z xalqi va millati, xalqi va jonajon yurtiga chin sidqidildan xizmat qilish haqiqiy vatanparvarlik burchi ekanligini anglash lozim. Shu bilan bir qatorda rahbar o‘zining o‘rgangan bor bilimini xalq farovonligi yo‘lida safarbar etib, o‘zining tashabbuskorlik, fidoiylik, insonlar ruhiyatini bilish, xalqni tashvishi bilan yashashni anglashi lozim.

Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini uyg‘un holda tasavvur qilib, eng asosiy ustuvor vazifa etib, “Inson manfaatlari hamma narsadan

ustun!", degan olijanob g'oyani bugungi kun rahbarlari izchillik bilan hayotga tadbiq etishi lozimligini aytib, buning uchun quyidagilarni ustuvor vazifa sifatida belgilab berdi.

Birinchi – fuqarolar bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yishning yangi samarali usul va mexanizmlarini tatbiq qilish, jumladan, barcha darajadagi rahbarlarning aholi oldida hisobot berish tizimini joriy etish.

Ikkinchi – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi, har bir tuman va shahardagi Xalq qabulxonalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi faoliyatini samarali tashkil etishni ta'minlash rahbar xodimlar uchun yangi zamonaviy talab hisoblanadi. Prezidentimiz shu munosabat bilan rahbarlar joylardagi hokimlar va ularning birinchi o'rinbosarlari o'z ish uslubi va dunyoqarashini tubdan o'zgartirishi shart. Bugungi kunda hayotning o'zi va xalqning talablari bizning oldimizga amaliy yechimini topish lozim bo'lgan yangi va yanada murakkab vazifalarni qo'ymoqda ular qo'yidagilardan iborat deb hisoblaydi:

Birinchidan, ayrim idoralar va ularning rahbarlari real hayotdan va xalq ehtiyojlaridan ma'lum darajada uzilib qolmoqda.

Ikkinchidan, tarmoq va hududlarni rivojlantirish konsepsiyalari va dasturlarini ishlab chiqishda yuzaki yondashuvga yo'l qo'yilmoqda. Va nihoyat, uchinchi asosiy kamchilik – ko'pchilik rahbarlarning murakkab muammolarni kabinetdan chiqmasdan, joylardagi ishlar qanday ahvolda ekanini chuqur o'rganmasdan hal etishga odatlanib qolgani bilan bog'liq [2]. Zero, rahbar xodim oddiy kishilar bilan insoniy va mo''tadil munosabatda bo'lishi lozim. Bunday munosabat odamlarning rahbarga erkin murojaat qilishiga olib keladi. Natijada korxonada ortiqcha muammolar va tushunmovchiliklar yuzaga kelmaydi, ish sur'ati oshadi, jamoada muhit barqaror bo'ladi. Rahbar xodimning manmanlik va kibrli munosabati uning madaniyatsizligini ko'rsatadi. Bu hol avvalo, rahbar xodimning o'ziga, qolaversa, jamoaga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Rahbar xodim murakkab, bahsli va tortishuvlar sharoitida oqillik holatida bo'lishi kerak. Aqlga suyanish ortiqcha hat-

ti-harakatlardan saqlaydi. Rahbar xodim o‘zini tuta bilishida jamoaga o‘rnak bo‘lishi kerak. Aks holda, rahbar xodimning o‘zini tuta olmasligi jamoada noqulay kayfiyatni keltirib chiqaradi va rahbar obro‘siga ziyon yetkazadi. Zero, bu ma’naviy-axloqiy sifatlar rahbar xodim tomonidan tajriba vositasida izchil o‘zlashtirilib borilishi kerak. Shu bilan birga, rahbar aql- idrokli, mustahkam irodali, iymoni butun, oriyatli bo‘lishi talab etiladi. Bugungi kun rahbari mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni to‘g‘ri anglaydigan zamon talabidan kelib chiqib tashabbuskor bo‘lishi, ish yuritishga tayyor bo‘lishi kerak.

Shu o‘rinda, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: “Eng muhim vazifamiz – mamlakatimizda tinchlik va farovonlikni mustahkamlash, odamlarni, xalqimizni hayotdan rozi qilishdan iborat. Buning uchun el-yurtimiz avvalo biz – rahbarlarning faoliyatidan rozi bo‘lishi kerak. Buning uchun har bir rahbar o‘z aravasini o‘zi tortishi, o‘z sohasidagi ishlarning ahvoli uchun o‘zi shaxsan javob berishi kerak. Shundan keyin jamiyatimizda o‘zgarish bo‘ladi, rivojlanish bo‘ladi”[3]. Zero, hozirgi kunda rahbarlar qanchalik ma’suliyat hamda sof vijdon bilan ishlasa mamlakat obod va farovon bo‘lishga o‘zining katta hissasini qo‘shadi. Kundalik turmushda inson boshqa odamlar bilan turli darajadagi munosabatlarga duch keladi. Unda u ma’lum qadriyatlarga asoslanib hatti-harakatlarini namoyon etadi.

Har bir rahbar o‘zi uchun muloqotning etikaviy tartiblarini o‘zlashtiradi, shaxsiy fazilatlari va tajribalari bilan boyitadi, manfaat hamda ehtiyojlari doirasida undan foydalanadi. Muhimi u, o‘z-o‘zini baholay olish, tashqaridan kuzatish, xatti-harakatlarini muntaazam ravishda tahlil qilish, tanqidiy baho berish salohiyatiga ega bo‘lishi lozim.

O‘ziga baho bera olish qobiliyati shaxsning ichki intizomini mustahkamlaydi, maqsad-muddaolarining mantiqiyligini belgilaydi, muloqot maqomini oshiradi, tug‘ilishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlarni bartaraf qiladi, ixtiloflarning oldini oladi, murakkab vaziyatlar yechimini topadi, suhbat mavzusini ijobiy o‘zgartirishga erishadi. Natijada salbiy emotsiyalar qarshiligini to‘suvchi sog‘lom ruhiy munosabat qaror topadi. Mazkur etika-

viy normalarga amal qilish, zero, uning talablari axloqqa nisbatan nisbiy ko‘rinish kasb qilsada, professional xizmat doirasida muvofaqqiyatga erishish garovi bo‘lib xizmat qiladi.

Axloqiy muloqotning turlari:

- boshqaruv etiketi
- diplomatik etiket
- harbiy etiket
- umum fuqaroviy etiket
- ishchi etiket
- kasbiy etiket
- rahbar etiketi muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev asrlari, nutq va ma’ruzalaridan kelib chiqqan holda rahbarning jamoaga nisbatan qo‘yidagi xususiyatlari keltiriladi:

Kishilarga xayrixoh va iltifotli bo‘lish, olijanoblik va beg‘arazlik, xolislik, kishilarning qadr – qimmatiga yetish, fuqarolik va kasbiy burchini bajarish, kishilarning o‘z kuchi va qobiliyatiga bo‘lgan ishonchini qo‘llab – quvvatlay olish, uni shaxsiy kamchiliklarini bartaraf qilishga yo‘naltira bilish, yuqori nutq madaniyatiga ega bo‘lish va tashqi ko‘rinishdagi ozodaligi, xushmuomalalik, sipolik, kamsuqumlik, vazminlik, andishalilik, mas’uliyatlilik, mehnat va do‘stlikdagi sherikchilikda o‘zaro yordam va qo‘llab – quvvatlash, prinsipiallik va ishonch, talabchanlik, qat’iy tartib-intizomni saqlash, tanqidiy tahlil, shaxsiy javobgarlik, mas’uliyatlilik, yuqori darajadagi fuqarolik, vatanparvarlik va baynalmilallik, jamiyat baxt – saodati yo‘lida halol mehnat qilish, jamiyat boyligini ko‘paytirish haqida g‘amxo‘rlik muhim ekanligi ta’kidlangan.

Rahbarga qo‘yiladigan talablar:

Ma’naviy yetuklik, huquqiy yetuklik, axloqiy yetuklik, yuqori saviya va ong, ma’rifatchilik, madaniyatlilik, xodimlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qodirlik, topshirilgan ish uchun shaxsiy javobgarlikni his qilish, halollik, shaxsiy manfaatlarni jamoa manfaatlariga bo‘ysundirishga qodirlik, kishilarga nisbatan mehribon va e’tiborli bo‘lish, tashabbus va ilg‘orlikni qo‘llab – quvvatlash qobiliyati, prinsipiallik, tanqidga chidamli bo‘lish muhim ahamiyat kasb etadi.

Intizomga va mehnatga bo‘lgan munosabat:

Mehnatsevarlik, jamoa o‘rtasida intizomni yo‘lga qo‘ya bilish, atrofdagilarni mehnatsevarlikni tarbiyalay bilish, bir noshud rahbarning beg‘amligi yuzlab, minglab kishilar taqdiriga salbiy ta’sir etishi mumkin. Zero, rahbarning har bir hatti-harakati, aytgan so‘zlari hamisha atrofdagilarning diqqat-e’tiborida bo‘lib keladi. Bugungi zamonaviy rahbar avvalo o‘z axloq-odobi, shirin so‘zligi bilan boshqalardan ajralib turishi talab etiladi. Rahbarning sifati va xislatlarini belgilovchi mezonlar ko‘p. Biroq quyidagi ijobiy xislatlar ular orasida alohida mavqega ega. Dovyuraklik - bunday rahbarda mardonavorlik, botirlik, dadillik mavjud bo‘ladi. Ular omadsizlikdan qo‘rqmaydi.Omadsizlik ularni jasoratga chorlaydi va zafarlarga olib keladi. Har bir yangi harakatni taraqqiyotga va hayotiy tajribalarga erishtiradi.

Xulosa qilib aytganda, davlat va jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichi boshqaruv tizimida faoliyat yuritayotgan har bir rahbar oldiga ma’lum talablarni qo‘yadi. Zero, bu talablarga rioya etmaslik muvaffaqiyatsizlikka, belgilangan maqsad yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlarning samarasiz bo‘lishiga zamin yaratishini teran anglashimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. http://uza.uz/oz/politics/tan-idiy-ta-lil-atiy-tartib-intizom-va-shakhsiy-zhavobgarlik-16-01-2017

2.Mirziyoev Sh.M “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”.T.: O‘zbekiston. 2017. 19-b.

3.Mirziyoev Sh.M “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”.T.: O‘zbekiston. 2017. 78-b.

SHAXS SANOGEN TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA OILAVIY MUNOSABATLARNING AHAMIYATI

Abdurahmonova Zuhra Abdurahmon qizi,
Ijtimoiy siyosiy fanlar instituti Pedagogika va psixologiya kafedrasi mudiri Psixologiya fanlari bo'yicha (Phd)

Annotatsiya: maqolada sanogen tafakkurga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirishda jamiyatimizning ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning tutgan o‘rni, oilaning ma’naviy-psixologik muhiti, oiladagi sog‘lom muhit, odamiylik, insonparvarlik munosabatlari farzandning ruhiy dunyosiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kabi omillar yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: Shaxs, oila, sanogen tafakkur, sog‘lom muhit, odamiylik, insonparvarlik, psixologik muhit, ota-ona, o‘quvchi, obyektiv va subyektiv omillar.

Bugungi kunda dunyo hamjamiyatini qiynayotgan global muammolar sifatida ochlik, qashshoqlik, chuchuk suv tanqisligi, pandemik kasalliklar bilan birga ma’naviy xatarlar – oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitning yetarli darajada shakllanmaganligi, oilalarda ajralishlar sonining ko‘payishi, “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta’siri ostida bir jinslilar orasida nikohlarning paydo bo‘lishi, erta tug‘ruqlar sonining ko‘payishi, tolerantlik, ijtimoiy intellektning susaygani, insonlar bilan o‘zaro munosabatda hurmat, kengfe’llik, kechirimlilik, sabr, oqibat tuyg‘ularining yo‘qola bosh¬lagani tilga olinmoqda.

2017-yil 7-fevralda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da xam ijtimoiy yo‘nalish sifatida respublikamiz oilalarida ma’naviy-axloqiy muxitni mustaxkamlash va soglomlashtirishning samarali mexanizmlarini yaratish va tatbiq etish vazifalari qo‘yildi. Bunda xalqimiz

uchun qadimdan muhim masala bo‘lib kelgan bolalarni har tomonlama yetuk, komil inson qilib tarbiyalash masalalari alohida qayd etilganligi bejiz emas. [1]

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi va erkin tafakkur hamda dunyoqarash alohida o‘rin tutmokda. Hayotni ma’naviyatsiz tasavvur etib bo‘lmaganidek, ma’naviyatni uning mag‘zi – dunyoqarashsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Dunyoqarash sog‘lom aql, tafakkur sifatida borliq, voqea va hodisalar haqidagi qarashlar, g‘oyalar tizimi bo‘lib, bor dunyodagi, jamiyat va ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalarni anglash, idrok etish, maqsad va yo‘nalishlarini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Dunyoqarash odamlarga olam haqida tushuncha beradi. Ularga o‘z hayotiy yo‘llarini, maqsadlarini aniqlab olishga ko‘maklashadi. Eng asosiysi, dunyoqarashda kishilarning moddiy, ma’naviy ehtiyojlari va manfaatlari o‘z ifodasini topadi. Bu fikrdan ayonki, inson dunyoqarashi uning iymon-e’tiqodi, ongu-tafakkuri, aqliy faoliyati asosida ro‘yobga chiqadi. [2]

Shaxsning hatti-harakati jamiyatning ichki va tashqi faoliyati bilan muvofiq ravishda ketma-ket rivojlanadi. Jamiyatda harakatlarni muayyan tartibga soluvchi, qadriyatlar ketma-ketligini namoyon etuvchi ijtimoiy normalar mavjud. Oilaviy tarbiyada sog‘lom dunyoqarashga ega bo‘lgan yosh avlodni tarbiya qilish vazifasi yetakchilik qiladi.

Sanogen tafakkurga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirishda jamiyatimizning ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning tutgan o‘rni beqiyosdir. Bunda, ayniqsa, axloqiy qadriyatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki o‘zlikni anglash, ong- tafakkur, yangicha dunyoqarash, ruxiy teranlik, aqliy yetuklik, axloqiy mukammallik ma’naviyatning o‘zagi va intellektual salohiyatning asosiy tamoyillariga aylanmoqda. Insonning axloqiy yetukligi, kamoloti jamiyatni ma’naviy-ruxiy va axloqiy sog‘lomlashtirishda katta ahamiyat kasb etadi. Xalqimiz juda boy axloqiy qadriyatlarga ega. Bu qadriyatlar har bir fuqaro, ayniqsa, barkamol avlod uchun oila ibrat maktabidir. [2]

Professor V.Karimovaning o‘z tadqiqotlarida ta’kidlashicha yoshlarning ilmli, ma’rifatli, sog‘lom ruhiyatli bo‘lib vo-

yaga yetishlarida jamiyatdagi, oiladagi sog‘lom psixologik muhit asosiy omil bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlaydi [26]. Undan tashqari ijtimoiy jamiyatda shaxslararo munosabatlarda muloqot masalasiga byevosita va bilvosita yondashish zarurligini o‘z ilmiy qarashlarida keng yoritib bergan. [3]

Oila - insoniyat his-kechinmalari, hayajonli damlari, e’tiqodi va imoni, muomala maromlarini ifodalaydigan psixologik fenomendir. Oilaning hissiy-rotsional funksiyasi ham aynan shaxsning ijobiy hissiyotlari va fikrlashiga zamin yaratishga qaratilgan bo‘lib, bu uning o‘z oila a’zolari o‘rtasida muayyan iliq munosabatlarni saqlash, ular o‘rtasida mehr-oqibat, o‘zaro g‘amxo‘rlik, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, sevish - sevilish kabi qobiliyatini iamoyon etishidir. Bu oila uchun juda muhim bo‘lib, insonning ruhiy salomatligi aynan shu vazifani qanday bajarayotganligiga bog‘liqdir. Oilaning ma’naviy-psixologik muhiti sog‘lom deganda, aslida ana shu a’zolar o‘rtasidagi iliqlik, jamiyatda o‘zaro bag‘pikenglikning mavjudligi, mehr-oqibat kabi insoniy hissiyotlarning ijobiyligi tushuniladi. [3]

V.Karimovaning ilmiy qarashlariga ko‘ra “Bola o‘smirlik davriga qadam bosganda, u ota-onasidan mustaqillikni, hadeb ta’qib qila-vermaslikni da’vo qila boshlaydi. Ota-onaning farzand oldidagi obro‘si, kerakligi darajasi pastlay boshlaydi. Bu davrga kelib ota ham ona ham o‘zining farzandiga nisbatan munosabatlarini o‘zgartirishga majbur bo‘ladi, chunki bolada yangicha talab va istaklar, yangicha fikrlash, urf-odatlar, musiqaga havas, turli xil guruhlar bilan muloqotda bo‘lishga intilishlar paydo bo‘ladi. [3]

O‘quvchilarda sanogen tafakkur rivojlanishiga oilada salbiy munosabatlar ham to‘siq bo‘ladi. Ba’zan ota-ona mehrsizligidan aziyat chekkan bola kurashib charchaydi: «Meni sevishmaydi, kerak emasman, meni tinch qo‘yinglar», degan ma’noda bola o‘z nochorligini ifodalay boshlaydi. Bunday oiladagi vaziyat juda og‘ir bo‘lib, bola o‘zini yolg‘izlikka mahkum etadi, hammadan qochadi, o‘smirlar o‘rtasida sodir bo‘ladigan suitsid holatlarining aksariyati ana shu psixologik

ZJV5401

vaziyatdan kelib chiqadi. Natijada hayotda bemehr, sovuqqon bo‘lib, o‘zini yolg‘iz his qilib yashaydi. [3]

Amerikalik olim Bouen (1913 – 1990) – XX asrning boshlarida oilani himoya qilish harakatining asoschilaridan bo‘lgan, ushbu harakatdan ko‘zlangan maqsad - oilani alohida tadqiqotlar ob’yektiga aylantirish, shu orqali uning inson salomatligidagi benazir rolidan foydalanish, hattoki, ruhan bemor bo‘lganlarni davolashda oilaning imkoniyatlaridan foydalanish g‘oyasini targ‘ib etishdan iborat bo‘lgan. B. Myurreyning fikriga ko‘ra, inson o‘z umrini o‘tkazadigan ijtimoiy guruhlardan eng muhimi - bu oiladir. Shu bois ham har bir shaxsni o‘rganish uning oilasini o‘rganishdan boshlanmog‘i lozim-deb ta’kidlaydi. Ammo, inson qanchalik biologik tuzilmali, hissiyotlarga boy emosional tizimga ega bo‘lmasin, u sekin-asta o‘z oilasi qobig‘idan ajralib, shaxsiy xususiyatlarda boshqalardan o‘zgacha, ajralib, differensiallashib boraveradi-deb izoh bergan. [5]

Dunyoda va mamlakatimizda aynan mana shu muammolar o‘z yechimini kutayotgan masalalar sirasiga kiradi hamda quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

-mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi bilan buyuk ma’naviyatimizni tiklash, sog‘lom turmush tarzini barcha fuqarolarga, eng avvalo, yoshlarga singdirish davlatimiz siyosatida ustuvor yo‘nalish qilib belgilanishi;

- tarbiyalanayotgan yoshlarda yuksak ma’naviy madaniyat, axloq va ma’rifat fazilatlarini shakllantirish va singdirish muammolarining yechimini davr taqozo etishi;

-Davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri-sog‘lom oila mexanizmlarini mustahkamlash, ma’naviy jihatdan barkamol, jismoniy va ruhiy jihatdan sog‘lom, vatanparvar, fidoyi insonni tarbiyalash, ta’lim va maorif tizimini takomillashtirish, milliy istiqlol g‘oyasi asosida ma’naviy va ruhiy jihatdan yangi avlodni voyaga yetkazish vazifalarini amalga oshirish zaruratining oshishi.

Respublikamizda inson huquqlari va erkinliklari – oliy qadriyat deb e’lon qilinganligi jamiyatimizdagi bolalarning hech

qanday kamchilaklarsiz, irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari, milliy-etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, bolaning sog'ligi va tug'ilishi, uning ota-onasi, qonuniy vasiysi bor yoki yo'qligi yoki boshqa biron-bir holatlardan qat'iy nazar huquqlari ta'minlanishini kafolatlaydi. Bolaning huquqlari va manfaatlari ta'minlanishiga jamiyatda ijtimoiy masalalar bilan shug'ullanuvchi davlat va xususiy muassasalar, sudlar, ma'muriy yoki qonun chiqaruvchi organlar javobgardir.

- Oiladagi sog'lom muhit, odamiylik, insonparvarlik munosabatlari farzandning ruhiy dunyosiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mexanizmlarini ishlab chiqish;

- Ota-onalar ajralishining bolalarga o'tkazadigan salbiy ta'sirini yumshatuvchi, oiladagi ruhiy-ma'naviy tanglikni oldini oluvchi psixolog, shifokor, huquqshunos maslahatlari asosida tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish;

- Ona qizida muloyimlik, shirinsuxanlik, qizlarga xos oriyat, uyatchanlik, ibo, iffat kabi fazilatlarni tarbiyalash, uyro'zg'or yumushlarini o'rgatish metodikalarini yaratish; Otaning esa o'g'lida to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik, olijanoblik, fidoiylik, saxovatpeshalik kabi hislatlarni shakllantirishi bilan birga uyda erkaklar bajaradigan barcha yumushlardan xabardor qilishi lozim bo'lgan tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;

- Ota-onaning o'zaro yaxshi munosabati, mehribonligi, g'amxo'rligi oiladagi farzandlarning munosabatlarini to'g'ri shakllantirishga yordam beruvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish lozim [Pedagogik mahorat, 2016, №1.,35-38.-b.].

Turli obyektiv va subyektiv omillar o'quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirishi, yoki, aksincha, patogen g'oyalarga o'rin ochishi mumkin. Norasmiy uyushma faoliyatining ijobiy yo'nalganligi o'quvchilarda ijtimoiy jihatdan qabul qilingan faoliyat ko'rinishlarida o'zlarini to'la namoyon qilishlariga sharoit yaratishi mumkin. [2]

O'quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirishda oilaviy munosabatlarning o'rni ahamiyatli hisoblanadi. Bir qancha

tadqiqotlarimizda ko‘pgina ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchilar o‘z bolalariga to‘g‘ri tarbiya berishni bilmaganliklari, ayrimlari esa to‘g‘ri tarbiya berish haqida umuman o‘ylamaganliklari natijasida voyaga yetmagan farzandlari jinoyat sodir etganliklarini bildirishgan. Shuningdek, ba’zi bir oilalarda bolalarga haddan tashqari g‘amxo‘rlik va mehr-muhabbat ko‘rsatishgani, ularning xulq-atvorini nazorat qilishmagani, ularning oshna-og‘aynilari, tashqi aloqalari, bo‘sh vaqtlari nima ishlar bilan bandligi va hokazolar bilan qiziqishmagani uchun voyaga yetmagan farzandlari jinoyat sodir etganliklarini aytishgan. Holbuki, haddan tashqari g‘amxo‘rlik o‘quvchilarda manmanlik, boqimandalik, boshqalarga nisbatan hurmatsizlik, jismoniy mehnatga salbiy munosabatni shakllantirishini amaliyot tasdiqlaydi. [2]

Ota-onalarning farzand tarbiyasiga e’tiborsizligi, o‘z farzandining tarbiyasini birovlarga ishonishlari ham salbiy holatlar kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Bugungi kunda ayrim ota-onalar katta orzu-havaslar bilan, ya’ni farzandini yaxshiroq moddiy ta’minlash, to‘yini boshqalarnikidan ko‘ra dabdabali o‘tkazish, sarpolarini bekamu-ko‘st qilish niyatida bolasini qari ota-onasiga, qarindoshi yoki tanish-bilish, qo‘ni-qo‘shnisiga tashlab, o‘zlari boshqa yurtga ishlab, pul topib kelish uchun ketayotganligini uchratish mumkin. Bugungi kunda jinoyat sodir etib, jazo o‘tayotgan voyaga yetmaganlarning aksariyati, aniqroq aytganda, 70 foizdan ko‘prog‘i ajrashgan yoki boshqa yurtga ishlash uchun oila bag‘ridan uzoq muddat chetga chiqib ketgan ota-ona farzandlari ekani ham ushbu fikr-mulohazalarimizni tasdiqlab turibdi. [8]

Oiladagi munosabatlar o‘quvchilarga katta ta’sir ko‘rsatishi, farzand tarbiyasiga mas’uliyat bilan yondashish, bunda shaxsiy ibrat juda muhim omil ekanini unutmaslik joiz. Ulug‘ islomshunos Abu Homid G‘azzoliy ta’biri bilan aytganda, «Bola tarbiyasi eng muhim ishlardandir. Farzand ota-onaga omonat. Bola qalbi pok, nozik, sodda va har qanday naqsh va suratdan xoli gavhardir. Unga qanday naqsh solinsa, shunga ko‘ra shakllanadi, eggan tomonga egiladi». Alloma yana shuni

ta’kidlaydiki, agar bola yaxshilikka o‘rganib, yaxshilik ichida voyaga yetsa, dunyo va oxirat saodatini topadi. Agar bola e’tiborsiz tashlab qo‘yilsa, yomonlik ichida o‘ssa, baxtsizlikka yuz tutadi. Bunda gunoh yuki shu ko‘yga solganlarning, ota-onaning zimmasiga tushadi. [9].

Ochiq joylarda o‘tkaziladigan, odamlar ko‘p to‘planadigan ommaviy tadbirlar, yig‘inlarda odamlar tez ta’sirlanadilar va odatda ularning hissiyotlari tarqaluvchan, bir-birlariga yuquvchan xarakterga ega bo‘ladi. Bunday psixologik hodisadan boxabar bo‘lgan destruktiv guruhlar o‘z targ‘ibot-tashviqot ishlarida undan mohirona foydalanganlar. Ular bu holat ta’sirini kuchaytirish, samaradorligini oshirish yuzasidan maxsus dasturlar, konsepsiyalar ishlab chiqishgan va shu orqali kishilarni junbushga keltirish (ekstaz) holatigacha olib borishgan. Mazkur jihat ayrim reaksion, radikal yo‘nalishdagi diniy oqimlar namoyandalari, voizlarning faoliyatida ko‘zga tashlanib turadi. [2]

Xulosa o‘rnida ta’kidlash mumkinki, oilaviy munosabatlar, tashqi muhit va o‘smir shaxsining ichki dunyosi bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning xulq-atvori xarakterini belgilovchi asosiy omildir. O‘zini o‘zi anglashda o‘smir ta’lim olish, dunyoqarashini kengaytirish, turli ma’lumot va materiallarni qabul qilish, yangi hayotiy tajribani o‘zlashtirish qobiliyatini namoyon qiladi, unda shaxs sifatlari shakllantirilib boriladi. Inson o‘zgaradi, transformasiyalashadi va bu jarayonni uning o‘zi ongli ravishda his etishi, nazorat qilib borishi zarur. Buning uchun esa, unda sanogen tafakkurni rivojlantirish kerak bo‘ladi.

Fikrimizcha, oilaviy munosabatlarda ota-onalar shaxsning sog‘lom tafakkurli qilib voyaga yetkazishlarida uning dunyoqarashi, e’tiqodi, ongi, ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatadigan, informatsion-psixologik vositalarni o‘rganishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. Farmon 07.02.2017 yil PF-4947-son, kuchga kirish sanasi 08.02.2017. Manba: «Xalq so‘zi», 2017., 28 (6722)-son; O‘R QHT, 2017. 6-son, 70-modda

2.Abdurahmonova Z.A. “O‘smir yoshidagi o‘quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi, Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, T.2020.85B.

3. Karimova. V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi: O‘quv qo‘llanmasi. - T.. 2006. – B.142.

4.Karimova V., Qur’onov M. Milliy istiqlol g‘oyasini xalqimiz ongiga singdirish omillari va vositalari. T.: Ijod dunyosi, 2002, –150.

5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. T.:Sharq: 2012.

6.Husayn Voiz Koshifiy “Axloqi muhsiniy”. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, nash. 201. – B.376.

7. Homidiy H. “Avestodan Shoxnomaga” «Sharq» nashriyot-matbaa T.– 2007. – B.100.

8. Yodgorov X., O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud raisining o‘rinbosari, Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati raisi / Voyaga yetmagan bolalar nega jinoyat sodir etmoqda / kun.uz / Jamiyat: 02.03.2018

9. Sayid Rahmatulloh Termiziy. Halol kasb – farovonlik omili. Halol savdo – kasblarning yaxshisi. - T.: «Hilol-Nashr», 2017. 56-b

TARG‘IBOTNI TO‘G‘RI TASHKIL QILISH MA’NAVIY TARBIYANING SAMARALI VA TA’SIRCHAN USULLARIDAN BIRI SIFATIDA

Toshboyev Bobomurot Eshboyevich,
Jizzax DPU, dotsent, f.f.b.f.d. (PhD) dotsent

Annotatsiya: mazkur maqolada ma’naviyat va unung targ‘ibotiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilayotganligi manbalar asosida dalillangan hamda ma’naviy targ‘ibotning uzluksiz ma’naviy tarbiyadagi o‘rni xususida fikr yuritilgan.

Tayanch so‘zlar: ma’naviyat, targ‘ibot, uzluksiz ma’naviy tarbiya, milliy tiklanish, milliy yuksalish, milliy qadriyatlar.

Bugungi taraqqiy etgan davlatlar turmush tarziga, hayot darajasiga, iqtisodiy rivojlanish ko‘lamiga nazar tashlasak ular o‘zlarining milliy urf-odatlari, qadriyatlari, dunyoqarashlarini, ta’lim-tarbiya tizimini zamon talablari asosida takomillashtirib borish evaziga erishganligiga guvoh bo‘lamiz. Mamlakatimizda mustaqillikdan keyin jamiyatning barcha sohalari singari ma’naviy hayot sohasida ham keng ko‘lamli islohatlar amalga oshirildi. Lekin jamiayatning mazkur sohasida kutilgan natijalarga to‘laqonli erishilmadi. Ma’naviy soha bilan bog‘liq ayrim tushunchalar to‘gri targ‘ib qilinmaganligi, nazariya va amaliyotning uyg‘unligiga doir qonuniyatlar buzilgani bois fuqarolar ongida ular nazariy darajada o‘rin olib amaliy faoliyatga aylanmadi. 2019-yil 31-dekabrda qabul qilingan “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi”da alohida ta’kidlab ko‘rsatilganidek, “Vatanga sadoqat, burch va mas’uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so‘zlari bilan amallari ora-

sida tafovut namoyon bo‘lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda”[4].

Ana shu ma’noda biz bugun “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” dadil odimlayotgan ekanmiz mamlakatimiz rivoji, xalqimiz istiqboli nafaqat moddiy-iqtisodiy omillarga, balki ma’naviy-axloqiy omillarga bir so‘z bilan aytganda uzluksiz ma’naviy tarbiyaga ko‘p jihatdan bog‘liq ekanligini ham chuqur his qilmoqdamiz.

Binobarin, Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Biz yangi o‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatdir”[1].

Tarixiy merosimiz, milliy qadriyatlarimizning hayotbaxsh tamoyillarini turmush tarziga singdirish ulug‘ salaflarimizning ibratli hayoti va faoliyatidan o‘rnak olishga intilish hamda ular ma’naviy merosidan bahramand bo‘lib yashash har bir jamiyatimiz a’zolarining turmush tarziga aylanib bormoqda. Zero, yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, “Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur” [1].

Sobiq mustabid tuzum davrida ma’naviy merosimizni o‘rganish, ulardagi insonlarni ma’naviy barkamollikka undovchi g‘oyalardan to‘laqonli foydalanishga izn berilmadi. Xususan, inson tabiatiga xos bo‘lgan maqsad sari intilish va o‘z-o‘zini ma’naviy yuksaltirishga ta’sir etuvchi, unga rag‘bat beruvchi kuch – axloqga ham biryoqlama qaraldi.

Ana shu sabablar tufayli axloqimiz, ma’naviyatimizga yot nazar bilan qarash kishilarda odatiy holga aylandi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda ham haqoniy ma’naviyat emas balki tor ma’noda uning ayrim jihatini o‘zida aks etiradigan ma’naviy madaniyat haqida sobiq ittifoq mafkurasidan kelib chiqib, tor

va biryoqlama tasavvur shakllantirildi. Bu jihat hamda ayrim paytlarda ilmiy asosga taynilmasdan ma'naviy targ'ibot tadbirlarini nomigagina, hisobot uchun taskil qilish xolatlari xalq mentalitetini xaligacha tark etgani yo'q.

Holbuki, yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalasiga oid g'oyalari ijtimoiy soha vakillari oldiga ulkan va ko'lamdor vazifalarni yuklaydi. 2021-yil 19-yanvarda bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida davlatimiz rahbari mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratib, "Bir ziyoli – bir mahallaga ma'naviy homiy" tamoyili asosida har bir mahallaga professor-o'qituvchi va taniqli ziyolilar biriktirilishi"[1], haqidagi fikrlari ma'naviy targ'ibotga yana bir karra e'tibor qaratilganligini anglatadi. Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Ma'naviy targ'ibot ishlarini har bir mahallada, ta'bir joiz bo'lsa, "mahallabay" usulida tashkil etmas ekanmiz, bu borada aniq natija bo'lmasligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Bunda har bir mahallaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, amalga oshiradigan ishlarimizni aniq belgilab olishimiz va jamoatchilik bilan birgalikda ish olib borishimiz kerak"[3]. Ma'lumki, professor-o'qituvchilar o'zlarining yurish-turishi, so'zi, amali, bilim va tajribasi bilan boshqalarga ibrat bo'ladigan va tom ma'nodagi ma'naviyatni targ'ib qiladigan shaxslardir. Zero, "Pedagoglarimiz yaxshi biladi, tarbiya, odob-axloq sohasida "amaliy namuna" hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Farzandlarimizga avvalo o'zimiz hamma sohada – Vatanga, xalqqa sadoqatli bo'lishda, ilmga, kasbu-hunarga mehr qo'yishda, ota-ona, jamiyat oldidagi burchimizni sidqidildan ado etishda amaliy namuna ko'rsatishimiz kerak"[2].

Shunga ko'ra, yuksak insoniy fazilatga ega bo'lgan shaxsni voyaga etkazishning asosiy omili bo'lgan uzliksiz ma'naviy tarbiya masalasi, haqiyqiy ma'nodagi ma'naviyatni targ'ib qi-

lish hamda turli xil buzg‘unchi ruxdagi targ‘botlardan jamiaytni ayniqsa, yoshlarni asrash bugungi kunda o‘z mohiyatiga ko‘ra hayotiy masalaga aylandi.

O‘zbekiston milliy yuksalish sari qadam qo‘ydi. Yangi davr shiddati ta’lim-tarbiya tizimiga ham o‘zining aniq, qat’iy talablarini qo‘ymoqda [4]. Ayni paytda, mazkur masalani o‘rganish nafaqat ilmiy nuqtayi nazardan, shu bilan birga, ijtimoiy amaliyot, ta’lim-tarbiya jarayonini yo‘lga qo‘yish, kishilarda muloqot madaniyati, sharqona odob-axloqni kamol toptirishda ham muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonning 2022-2032 yillarga mo‘ljallangan ma’naviy taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqish va uni davlat siyosatining tarkibiy qismiga aylantirish rejasi ham mamalakatimizda bu sohaga e’tibor yanada ortishini anglatadi.

Prezident Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Hech kimga sir emas, ma’naviyat targ‘ibotchisi bo‘lish kishidan katta bilim va salohiyat, mahorat va tinimsiz aqliy mehnatni talab etadi. Lekin, afsuski, ko‘p yillar ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlarining mehnatini munosib rag‘batlantirishga yetarli e’tibor qaratilmadi. Endi ana shu muammoni xal etish vaqti keldi va biz bu borada muhim qadamlar qo‘ymoqdamiz” [3].

Milliy qadriyatlarga asaoslangan ma’naviyatni anglab yetish uchun avvalo uni jamiyatga to‘g‘ri tushuntirib berishning texnologiyalari darkor. Shu nuqtayi nazardan ma’naviyatni targ‘ib qiluvchi yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va uning amaliyot bilan uyg‘unligini ta’minlash shart-sharoitlari ustida ilmiy izlanishlar olib borish muhim sanaladi. Zero, davlatimiz rahabri ta’kidlaganlaridek, “Targ‘ibotning ilmiy asoslangan zamonaviy texnologiyalari va yangi shakllarini, tahdidlarga qarshi samarali kurash usullarini ishlab chiqadigan vaqt keldi, deb hisoblayman. Takror aytaman: ilmga asoslanmagan sohaning kelajagi bo‘lmaydi”[3].

Shu nuqtayi-nazardan ma’naviy targ‘bot jarayonlarini tizimli, fan qonuniyatlariga tayangan xolda obyektiv va xolisona o‘rganish hayotiy zaruriyatga aylanmoqda.

Ma’lumki, ma’naviyat targ‘iboti xalqimiz hayoti bilan bilan bog‘liq milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar negizlarini o‘zida ifoda etadi. Shu bilan birga xalqimizning ezgu maqsadari va manfaatlarini ifoda etadigan ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni keng jamoatchilikka etkazish yo‘llari, vositalari, shakl va usullarini majmuini o‘z ichiga oladi. Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, “Targ‘ibot-tashviqot ishlarida aholining hududiy, kasbiy hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, mutanosib, maqsadli va mazmunli yondashuvni joriy etish tartibini yaratish va uni amaliyotda qo‘llash mexanizmini takomillashtirish” [3] maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash lozimki, bugungi kunda ma’naviy targ‘ibot ma’naviy tarbiyaning samarali va ta’sirchan usuli sifatida jamiyat hayotida o‘rni va ahamiyati katta. Aynan ma’naviy targ‘ibot yo‘llari va usullari, uni amalga oshirish texnologiyalaridan unumli foydalanishdan maqsad ham uni jamiyat a’zolarining ongiga singdirish yo‘llarini to‘g‘ri ko‘rsatib berish va u asosida ma’naviy tarbiyani samarali tashkil etishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni, ruhi ma’naviyatdir. /Xalq so‘zi. 2021 yil 20 yanvar. №13 (7793).

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuĸ ĸelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshĸent.: O‘zbeĸiston, 2017.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbeĸiston strategiyasi. –T.: O‘zbeĸiston, 2021.

4. Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi. https://lex.uz/docs/-4676839.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISHNING USUL VA VOSITALARI

O'.B.Shakarov,
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti dotsenti, PhD

Bolada ma'naviyatni shakllanganligi ma'naviyatni unga inson tomonidan qanchalik singdirilganligiga bog'liq. Insonlardagi odob, iymon, vijdon, halollik, yaxshilik, mehnatsevarlik, baynalmilalchilik, insonparvarlik, do'stlik, axloq kabi ma'naviy mezonlar ona qornida shakllanmaydi, garchi bu xislat va mezonlar inson bolasining qon tomirlari, biologik til ifodalanganda, genlarda mujassam bo'lgan bo'lsa ham, jamiyat umuman ijtimoiy muhit ta'sirida yaqqol shallanadi.

Vatan tuyg'usi, milliy g'urur, xalqiga mehr va sadoqat bolaning yoshiga mos ravishda shakllantirish ma'naviy tarbiyani asosi hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bu jarayon ma'naviy tamoyillarga asoslangan bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshiga qarab belgilanadi va O'zbekiston kelajagini barpo etuvchi fuqarolar uchun zarur bo'lgan ma'naviy-axloqiy fazilatlarning asoslarini shakllantiradi.

Maktabgacha tarbiya yoshi – bu shaxsning dastlabki "ochilish" davri. Ma'naviy tarbiya ikki tomonlama jarayondir. Bir tomondan, bu kattalar, ota-onalar, tarbiyachilarning farzandlariga faol ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchidan esa – bolalarning xatti-harakatlari, his tuyg'ulari va munosabatlarda namoyon bo'ladigan tarbiyaviy faoliyatdir. Shu sababli, tarbiya mazmunini belgilab olgach, turli xil ma'naviy tarbiya usullarini qo'llash orqali ota-ona, tarbiyachi tarbiyaning natijalarini, bolalarning ma'naviy barkamolligini diqqat bilan tahlil qila borishlari kerak.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mohiyati xulq-atvor, odob-axloq me’yorlari va qoidalaridir. Ular bolalarning so‘zlarida, munosabatlarida, xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi, ularning xatti-harakatlarini, munosabatlarini nazorat qiladi.

Ota-onalar va tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash bu –O‘zbekistonning kelajagi, Vatanimizning bo‘lajak posponlarini, dunyoda yurtimiz sharafini yuksaltiruvchi, iqtisodiy, ma’naviy hayotini barpo etuvchilarini yetishtirayotganlarini, buning ma’suliyatini yaxshi bilishlari kerak. Ushbu vazifalarga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash bo‘yicha ishlar takomillashtirish kerak. Maktabgacha yoshda shakllantirilgan his-tuyg‘ular va xulq bolalar o‘rtasidagi, bolalar va kattalar o‘rtasidagi munosabatlarning butun majmuasiga qat’iy ta’sir ko‘rsatadi.

Bolalar bilan muntazam ish olib borish, bolalarning ma’naviy-axloqiy malakalarini darajasini oshiradi; maktabgacha ta’lim tashkilotida o‘rgangan qobilyatlarni rivojlantiradi va amalga oshirilgan ishlar bilan quvonadi, kattalar ishining natijalarini qadrlaydi; ularda umumiy manfaatlar uchun ishda ishtirok etish, birgalikda o‘ynash, barcha maqsadlarni amalga oshirish istagi paydo bo‘ladi. Bolalarda faol hayotiy pozitsiya asoslarini shakllantiradi. Bu juda muhim natija bo‘lib, keyinchalik maktab yoshidagi ma’naviy-axloqiy tarbiyani muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi.

Har bir insonni qamrab olgan ma’naviyat oddiylikdan murakablikka qarab borishi, ya’ni yuksak ma’naviyatlilikni mujassamlashtirishi lozim. Inson yashashining mohiyati yuksak ma’naviyatlilikdir. Yuksak ma’naviyatlilikni qirralari esa o‘ta sermazmundir. Yuksak ma’naviyatni hali yo‘rgakdagi go‘dakdan talab qilinmasada uni shunga tayyorlash, insoniylik xislatlarini shakllantirish o‘ta dolzarbdir. Shu sababli ham “go‘dak ma’naviyati” degan ibora xalqimiz o‘rtasida yo‘q. “Go‘dak odobi” haqida fikr yuritiladi. Demak odobli bo‘lishni o‘zi yuksak ma’naviyatli bo‘lish uchun kifoya bo‘la olmaydi. Ammo yuksak ma’naviyatni insonda shakllanishida

odob-axloqni o‘rniga teng keladigan jarayor kamroq. Odobli axloqli bolalar yuksak ma’naviyatli shaxs bo‘lishga intiladi. Bola shaxsga aylanish uchun u o‘zini chuqur taniy bilishi “men”ligini ko‘rsatishi kerak. Bu “men”lik asta-sekinlik bilan amalga oshadi. Bola o‘zini tanish, ya’ni inson bo‘lish uchun avvalo o‘z ona tili, millati, millatning an’analari, qadriyatlari bilan tanisha borish o‘tmishdagi ijodiyot, tarixi, iqtisodiyoti, ijtimoiy faoliyatini madaniy-ma’naviy turmush tarzi bilan o‘z o‘z “men”ligini boyitib borish uchun yuksak ma’naviyatli bo‘lishiga zamin hozirlaydi.

Har bir bolaning ma’naviy-axloqiy rivoji uchun g‘amxo‘rlik – bugungi va kelajak – tarbiyachilarining kundalik e’tiborini talab qiladi. Bunda bola va bolalar jamoasini shakllantirish vazifalari bir vaqtning o‘zida birlashtiriladi. Ma’naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirishda tarbiyachi yetakchi rol o‘ynaydi. Uning xulq atvori, bolalr va kattalar bilan munosabati bolalarga namuna-misol vazifasini o‘taydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar ma’naviyatini shakllantirishda quyidagi tamoyillarga amal qilish talab etiladi. Yosh xususiyatini inobatga olish, muammolik va natijani oldindan ko‘ra bilish, tizimlilik, hamkorlik, insonparvarlik, nazariya amaliyot bilan aloqasi, tarbiya jarayonida milliy pedagogika asoslarida to‘g‘ri foydalanish, ta’lim tarbiya jrayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish.

Ma’naviy fazilatlar insonning ma’naviy qiyofasi, ijtimoiy xayot, ong va munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lgan, jamiyatt taraqqiyoti va turmushi ta’sirida shakllangan ma’naviy xususiyat va xislatlarining umuminsoniy hamda milliy fe’l-atvor ko‘rinishlarini ifodalovchi tushunchadir. Shaxsning ma’naviy fazilati uning iymon-e’tiqodi asosida halol-poklik, mehr-shafqat, adolat va haqiqatguylik, vatanparvarlik, kattalarga hurmat va kichiklarga izzatda bulish, kamtarlik va shaklida namoyon buladi.

Bugun oilada katta bo‘layotgan, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qatnayotgan bolajonlarimizning baxtiyor bo‘lish-

ZJV5401

lari ota-ona, murabbiylar berayotgan tarbiyaga bog‘liq. Tarbiya esa ularning tarbiya ilmi – pedagogikadan xabardorlik darajasiga bog‘liq. Biroq xabardorlikni o‘zi ham bola tarbiyasi masalalarini hal qilib bera olmaydi. Buning uchun har bir ota-ona, tarbiyachi bolaning ma’naviy boy inson bo‘lishini qattiq istashi kerak. Chunki odam bir narsaga qattiq istak sezmasa, hafsala qilmasa, biror ishni bitira olmaydi.

Ma’naviyatni shakllantirish mexanizimi tarbiyalanuvchilaga nimalarni o‘rgatish va qanday qilib o‘rgatish kabi savollarga javob berishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ma’naviy fazilatlarni dastlabki kurtaklari axloq-odob qoidalar va milliy o‘zlik to‘g‘risidagi dastlabki ta’savvurlarini shakllantirishdan boshlanishi kerak deb o‘ylaymiz. Tarbiyalanuvchilarning sog‘lom va ma’naviy barkamol bo‘lib voyaga yetishida pedagogik jarayon hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki muassasada ta’lim tarbiya jarayonida bola ma’naviyatini shakllantirishga imkon beradi.

Shaxs ma’naviyati murakkab va bosqichma-bosqich shakllantiriladigan jarayon bo‘lib, uning eng avvalida shaxs hayoti va idrokidan tashqarida bo‘lgan, ammo mana shu shaxs dahldor bo‘lgan ma’naviyatning ajdodlari yaratgan ma’naviyat borasidagi turli va rang barang qadriyatlar va qonuniyatlar tizimidan iborat bo‘ladi. Mazkur qonuniyatlar ilmiy-nazariy va amaliy meros hisoblanadi.Avvalo mana shu meros inson tafakkurida in’ikos etadi, mana shu meros insonning ong faoliyatida qayta anglanadi. So‘ngra inson ham mana shu qadriyatlar tizimi orqali yashay boshlaydi.

MTTlarda tarbiyalanuvchilar ma’naviyatini shakllantirishda quyidagilarga e’tibor qaraitish lozim deb o‘ylaymiz:

1. O‘zbek xalq ertaklari, dostonlarda ulug‘langan ma’naviy fazilatlarni targ‘ib qilish
2. O‘zbek xalqining uzoq tarixga ega an’analari, urf odatlari namunalaridan foydalanish
3. Tarbiyalanuvchilar ma’naviyatini shakllantirishda xalq pedagogikasi, xalq hunarmandchiligi, amaliy san’at, musiqa va teatr san’atidan foydalanish.

4. MTTda tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar imkoniyatlaridan keng foydalanish.

5. Tarbiyalanuvchilar ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda oilaning hamkorligi va ma'suliyatini oshirish

Pedagogik jarayonini tashkil etish xususiyatlarini va bolalar axloqiy tarbiyasiga rahbarlik metodlarini yoritishdan oldin ularning yosh xususiyatlariga xarakteristika beriladiki, uni hisobga olish maktabgacha yosh davrining har bir bosqichidagi asosiy vazifalarni ajratib olish imkonini beradi. V.G. Nechaeva va T.A. Markovalar bunday xarakteristikani uchta yosh: kichik, o'rta va katta yosh bosqichlari buyicha birgalikda tasavvur etish mumkin degang fikrdan kelib chiqadilar. Bu shu bilan bog'likki, uch va to'rt yosh bosqichidagi bolalarni tarbiyalashda asosan xuddi shu vazifalar xal etiladi, ularni amalga oshirnsh metodlarida ham jiddiy farq yuq. Garchi maktabgacha yoshning har bir kelgusi bosqichida bola axloqiy sifatlarini takomillashtirish jarayoni ro'y bersada, besh-yetti yoshli bolalar tarbiyasiga nisbatan ham xuddi shunday deyish mumkin.

Maktabgacha tarbiya tashkilotlarida axloqiy tarbiya kompleks tarzda amalga oshiriladi, biroq har bir bolalar faoliyati o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadiki, ular u yoki bu vazifani eng muvaffatsiyatli amalga oshirish uchun imkoniyat yaratadi. Masalan, o'inda ijobiy o'zaro munosabatlar, axloqiy his-tuyg'ular; mehnatda mehnatsevarlik, kattalar mehnatiga hurmat, shuningdek uyushqoqlik, mas'uliyat, burch hissi; mashg'ulotlarda g'oyaviy yo'nalganlik asoslari, ijtimoiy hayot hodisalari xaqidagi tasavvurlar, vatanparvarlik tuyg'ulari shakllantiriladi.

Bolalarning ma'naviy xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirishi atrofdagi odamlar bilan o'zaro munosabatlarida nima yaxshiyu va nima yomonligini yanada chuqurroq anglab yetishga yordam beradi.

Bolalarda axloq-odob tasavvurlarini va insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish ham mashg'ulotlarda, ham kundalik hayotda izchil, bir maqsadga qaratilgan holda olib borilishi lozim.

Bolalarda yoshlikdan xalq va yurt taqdiri uchun fidoiylik tuyg‘usini shakllantirish ma’naviy tarbiyada muhim o‘rin tutadi. Buning uchun bola hayotining dastlabki yillaridan boshlab, uni narsalar olami bilan tanishtirishning milliy an’analarimizga xos shakllarini qo‘llash lozim. Bu jarayonda milliy turmush tarzimizga yot bo‘lgan “jangari” o‘yinchoqlar, multfilmlar, kinofilmlardan imkon qadar foydalanmaslik kerak. Sharqona odob va bashariyatning ezgu intilishlarini aks ettiruvchi o‘yinlar, o‘yinchoqlar, rasmli kitobchalar, milliy ertaklar asosida yaratilgan multfilmlar bolalarda mafkuraviy qarashlarning to‘g‘ri shakllanishida qo‘l keladi. Masalan, mashhur “Zumrad va Qimmat”, “Yoriltosh”, “Xo‘ja Nasriddinning sarguzashtlari” kabi qator ertaklar orqali bolalarda yaxshilikka muhabbat, yomonlikka nafrat tuyg‘ularini tarbiyalash, adolat tantanasiga ishonch hissini uyg‘otish mumkin.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya usullarini shartli ravishda bir necha guruhlarga bo‘lish mumkin.

Birinchi guruh usullari bolalarning odatiy xatti-harakatlarni shakllantirishni ta’minlaydi. Ularga bola xulq atvorini ijobiy shakllariga o‘rgatish usullarini ko‘rsatish mumkin. Buning asosiy sababi bolalar turli vaziyatlarda me’yorlar va qoidalarga muvofiq harakat qilishlari, masalan salomlashish va kechirim so‘rash, xizmat uchun minnatdorchilik bildirish, savollarga xushmuomalalik bilan javob berish, gullarni parvarish qilish, boshqa bolalarga yordam berish va o‘zaro yordamlashish, keksalarga g‘amxo‘rlik qilish, kamtarlikka o‘rgatiladi. Bola xatti-harakatlarining motivatsiyasi uning ongiga. His-tuyg‘ulariga ta’sir qiladi. Shu sabali muntazam xulq harakatlarning shakllanishi uchun muntazam o‘rgatib borish juda muhimdir.

O‘rgatish usuli kattalar yoki boshqa bolalarning namunasi bilan birlashtirilsa, katta ta’sir ko‘rsatadi. Biroq, bolaning katta kishi yoki tengdoshi namunasiga ko‘ra harakat qilishi uchun, ularga o‘xshashni istashlarini so‘rab, o‘xshashga istakni kuchaytirish kerak. O‘xshash orzusi taqlid orqali amalga oshiriladi. Agar bola biror kishi haqida to‘lqinlanib, hayrat bi-

lan gapirsa, bu uning o‘sha kishi faoliyati, xarakteridan ta’sirlanganini anglatadi.

Metodlarning ikkinchi gruhi maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy tasavvurlar, muloxazalar, baholarni shakllantirishga qaratilgandir. Bunga tarbiyachinig odob-axloq haqidagi suhbatlari, badiiy adabiyotlarni o‘qish va xikoya qilib berish, kartinalar, rasmlar, diafilmlar , teleko‘rsatuvlarni tomosha qilish, radio eshittirishlarni tinglash va muhokama etish kiradi.

Bu vositalar, metodlar va usullarni, birinchidan, butun guruh bilan mashg‘ulot o‘tkazishda qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bu yerda MTTda ta’lim-tarbiya programmasi asosida barcha bolalar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan eng murakkab bilimlar sistemalashtirilgan xolda beriladi.

Axloqiy tuyg‘ularni tarbiyalash metodlari va usullari xilma-xildir. Bolalarida mehribonlik, halollik to‘g‘risidagi tasavvurlar bolaning konkret xatti-harakati haqidagi suhbatlar yo‘li bilan shakllantiriladi. Bolalarning o‘zlari kuzatgan yoki sodir etgan xatti-harakatlarni ko‘ rib chiqish maqsadga muvofisdir. Bu bolalarnnng kundalik mashg‘ulotlarda (masalan, odob haqidagi suhbatlarda) olgan bilimlarini kundalik voqealar yoki bolalarning xatti-harakatlari bilan bog‘lash imkonini beradi.

Xulosa qilib olsak xalqimizda yoshlikda olingan tarbiya toshga bitilgan bitik kabidir degan maqollar mavjud. Demak biz ta’lim-tarbiyani ayniqsa ma’naviy tarbiyani maktabgacha ta’lim tashkilotlarida boshlashimish va bu ishlarni olib borishda samarali usul va vositalarni tanlashimiz lozim.

ZJV5401

ABU RAYHON BERUNIYNING FALSAFIY MEROSIDA «MA'RIFATLI JAMIYAT» – «ADOLATLI JAMIYAT» – «FUQAROLIK JAMIYATI» G'OYALARINING UYG'UNLIGI

Teshayev Nutfullo Nasrulloevich,
falsafa fanlari nomzodi, dotsent
Buxoro Davlat Universiteti

Annotatsiya: maqolada muallif shark uyg'onish davrida uzining ilmiy merosi bilan jaxon tamadduniga buyuuk xissa kushgan Abu Rayhon Beruniyning falsafiy merosida davlat boshkaruvining manaviy asoslari, fukaroviy jamiyatning unsurlari: tenglik, ijtimoiy adolat, erkinlik, ijtimoiy shartnoma va ijtimoiy xamkorlik kabi masalalarni Beruniy asarlarini urganish va taxlil kilish asosida demokratik va fukarolik jamiyatining tamoillarini kursatishga xarakat kilgan.

Tayanch so'zlari: marifatli jamiyat; adolatli jamiyat; adolatli hukmdor; ijtimoiy tengik; fukaroviy jamiyat; ijtimoiy xamkorlik; raiyat xak xukuklari, hukmdor ma'naviyati; ijtimoiy adolat; inson baxt saodati va ma'suliyati- burchi; mexnat- ulug ijtimoiy va ma'naviy ne'mat; navsga xirs kuyish va ochko'zlik; yovuzlik va ezgulik.

IX – XV asrlarda qadimiy va tabarruk Turonzamindan butun madaniy olamga, bashariyatga ma'lumu mashhur bo'lgan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, daxolar, muhaddislar, fiqxshunoslarning saf-saf bulib yetishib, jaxon ilmu fani, madaniyati, ma'naviyati va ma'rifatini uz kashfiyotlari, ta'limotlari va ulmas ilmiy asarlari bilan ijodiy boyitishlari eng yuqori nuqtaga kutarishlari ilk Uyg'onish davri nomi bilan bevosita bog'liqdir. IX – XV asirlarni shartli ravishda Turonzamin xalqlari tarixida Uyg'onish davrining birinchi, boshlang'ich davri deb atash mumkin. Bu davrlarda Turonzamin xalqlarining

nainki madaniy-ma'naviy, ma'rifiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy xayotining barcha sohalarida ham keskin uzgarishlar, tub burilishlar bo'lganligini kuzatish mumkin.

Ilk Uyg'onish davrining buyuk mutafakkirlaridan biri Xorazmlik Abu Rayhon Beruniy (973-1048) dir. U ilm-fanning barcha sohalarida ulkan kashfiyotlar qilgan tafakkur titanidir.Uning falsafiy merosi urta asr fani taraqqiyotida butun bir davrni tashkil etadi.Fan tarixchisi Sarton X1 asrning birinchi yarmini haqli ravishda "Beruniy davri" deb atagani bejiz emas. Zotan, Beruniy ilmiy qiziqishlari nihoyatda kengligi va chuqurligi, ilmiy nazariy tahlillariyu ta'limotining dohiyona benazirligi-umumbashar tan olgan xaqiqatdir. Uni ikkinchi Erotosfen, ikkinchi Pitolomey, ikkinchi Leonardo da Vinchi deb atashlarining sababi aynan shu xaqikat samarasidir.

Abu Rayhon Muxammad ibn Ahmad al-Beruniy-buyuk qomusiy olim va mashhur mutafakkir. Beruniy Yaqin va Urta Sharqning boy fani, madaniyatini puxta urganib, qadimiy yunon mumtoz ilmi bilan ham chuqur tanishib, yirik alloma bulib yetishdi. U shoir, adabiyotshunos olim ham edi. Ona tili bulmish Xorazm tilidan tashqari yana arab, sug'diy, forsiy, suryoniy, yunon, qadimgi yahudiy hamda keyinchalik Hindistonda sanskrit tillarini urgandi. Beruniy ilm-fanning hamma sohalarida samarali ijod qilib, 162 kitob va risolalar qoldirdi. Shulardan atigi 28tasi bizgacha yetib kelgan. Hozirgi paytda allomaning "Qadimgi halqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston, "Geodeziya", "Ma'danshunoslik", "Ma'sud Qonuni", "Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar", Ibn- Sino bilan savol-javoblari nashr etilib, turli tillarda tarjima qilindi. Yoshi 45dan oshganda qadimgi hind tili sanskritni uzlashtiradi."Beruniy yunon falsafasini urganib, hind falsafasini mutolaa qilmoq uchun, – deb yozgan edi Javoharlan Neru "Hindistonning kashf etilishi" asarida sanskritni urgana boshladi. U hind va yunon falsafasini bir-biriga solishtirib, bularda mavjud bo'lgan uzigaxoslik va umumiylikni kurib, hayratda qoldi". [7, 57]

Beruniyning ma'naviy va ma'rifiy ta'limotida inson,uning

ZJV5401

baxt-saodati, istiqboli, ta'lim-tarbiyasi, odob-ahloqi, burchi, mas'uliyati bosh muammo hisoblanadi. U jamiyatning yuzaga kelishi va rifojida uzaro yordam,ijtimoiy-iqtisodiy,ma'naviy-ma'rifiy aloqa va munosabatlar asosida birgalikda xarakat qilish singari muhim omillar yotishini urta asrchilik sharoitidayoq isbotlab bergan edi.

Abu Rayhon Beruniy utmishdagi ma'rifatparvar allomalar singari jamiyat taraqiyoti va istiqbolini fan ravnaqida kurdi. Ilmu-fanni ma'rifat va madaniyat asosi deb bilganligi sababli Beruniy bir umr uning fikri- yodi bilan yashadi."Mening butun fikri- yodim,qalbim, – deb yozgan edi alloma,-bilimlarni targ'ib qilishga qaratilgan,chunki men bilim orttirish lazzatidan bahramand buldim.Buni men uzim uchun katta baht deb hisoblayman". [3, 21]

Beruniy ta'kidlashicha odamlarning bir-birlari bilan birlashishi, jamiyatning paydo bulishi moddiy ehtiyoj natijasidir. Inson ortiqcha jismoniy kuch va qudratdan mahrum ekanligi, unda uz-uzini muhofaza qilish vositalarining yuqligi, boshqalar tomonidan tashkil etilgan xurujlarga duch kelishi oqibatida uni himoya qiladigan va ehtiyojlarini qondirishini ta'minlay oladigan narsaga doimiy zaruriyat sezadi. Aynan shu zaruriyat ularni birlashishga da'vat etadi. Kishilarning extiyojlari kup va xilma-hildir. Buning uchun ular shaxarlar qurishga ehtiyoj sezadilar, natijada jamiyat vujudga keladi. Xar bir insonning haqiqiy bahosi uning uzi qodir bo'lgan hunar va ishni vijdonan yuksak mahorat bilan bajarishidir.

Beruniy ijtimoiy hayot uziga hos"shartnoma"asosida tuzilishini e'tirof etadi:"Inson uz ehtiyojlarini tushunib, uziga uxshash kishilar bilan birga yashashning zarurligini anglay boshlaydi. Shuning uchun uzaro kelishuvchanlik qabilidagi "shartnoma"tuzishga kirishadi. Odamlarning birgalikdagi turmushi insonni haqiqiy qudratga, uning ehtiyojlarini qondirishga olib kelmaydi, buning uchun yana mehnat qilish ham zarurdir". [5, 233- 234]

Bu fikrni davom ettirib, "insonning qadr-qimmati uz vazifasini a'lo darajada bajarishdan iborat, shuning uchun insonning

eng asosiy vazifasi va urni mehnat bilan belgilanadi, inson uz hohishiga mehnat tufayli erishadi", [3, 87]-deb yozgan edi.

Beruniy jamiyatni boshqarishda jamiyat podshoga hizmat qilmay, podshoh jamiyatga xizmat qilishi kerakligini tushungan. "Idora qilish va boshqarishning mohiyati balki boshliq zolimlardan aziyat chekkanlarning xuquqlarini himoya qilish, birovlarning tinchligi yulida uz tinchligini yuqotishdir. Bu ularning oilasini, ularning hayoti va mol-mulkini himoya qilish va quriqlash yo'lida badan charchashidan iborat". [3, 117-118]

"Tabiatan boshqarishga moyil" bo'lgan hokim uz fikri va qarorlarida qat'iy bulishi kerak, uz ishlarini amalga oshirishda faylasuflarning qonunlariga, Aleksandr Makedonskiy Aristotelning falsafiy donishmandligiga amal qilganidek, buysinishlik lozim: shoxning uzi ham" yaratuvchanlik ongiga" ega bulmog'i, ayniqsa, dehqonlar tug'risida kuproq g'am yeyishi kerak. "Podshohlik dehqonchiliksiz yashay olmaydi", deydi mutafakkir. Beruniyda shunday fikrlar bor: "odil hokimning asosiy vazifasi oliy va past tabaqalar, kuchlilar va kuchsizlar orasida tenglik, adolat urnatishdan iboratdir". [12, 58-59]

Alloma oltin, kumush va boshqa qimmatbaho toshlarning haqiqiy urni (maqsadi) ularning savdo-sotiq ishlarida tabiiy ekvivalent(teng qiymatli ulchov)sifatida uynaydigan rolidan iborat, deb qaraydi. Alloh bu narsalarni (oltin, kumush va qimmatbaho toshlarni)kishilarning uzlari uchun foydali narsalarni sotib olishlarida qiymat ulchovi sifatida qulma-qul berishlari uchun yaratgan. Biroq odamlarning ochkuzligi va xasisligi, boylikka, shuhratga, zeb-ziynatga intilishlari hamda mehr quyishlari oltin va kumushning ilk maqsadini-almashuv vositasi vazifasini butunlay o'zgartirib qo'ydi. Endi bu qimmatbaho toshlar va metallar odamni uzining quliga aylantirdi. Pulning hukmronlik kuchini sezgan birinchi shaxslar-hukmdorlar, podshohlar edi. Bunday ahvol keyinchalik paydo bo'lgan. Ammo ilk davridagi hukmdorlar oddiy fuqarolardan farqlanmaganlar, ular puldan uz manfaatlari uchun foydalanmaganlar, deydi Beruniy.

Beruniy mana shu fikrni tasdiqlash maqsadida Mag‘ribdagi podsholarning hokimiyati tug‘risida bir rivoyatni xikoya qiladi.Bu yerda qabila zodagonlari navbat bilan davlatni boshqarar ekanlar. Podshoh qilib tayinlangan odam uch oy mobaynida hukmdorlik vazifalarini bajarar,bu muddat utgandan keyin uz vazifasini boshqa kishiga qaytarib berib, mas’uliyatli og‘ir vazifadan qutilgani uchun odamlarga sadaqa tarqatar ekan. Sobiq hukmdor oilasiga,bola-chaqalarining oldiga qaytib kelib,yana uzining xo‘jalik ishlari bilan shug‘ullanarkan. ”Bunday bulishining sababi shundaki, – deb yozadi Beruniy, – davlatni boshqaruv va rahbarlik qilishning mohiyati uzining osoyishtaligini, xotirjamligini yuqotish evaziga fuqarolarning osoyishtaligini saqlash,mazlumlarning xuquqlarini zolimlarning jabr-zulmidan himoya qilishdan iboratdir. Hukmdor uchun yig‘iladigan soliqlarning miqdori kucha kuzatuvchining ish haqiga tug‘ri kelgan. Hukmdorga in’om etiladigan mablag‘ chulda karvonga yo‘l ko‘rsatuvchining ish xaqqi bilan barovardir”. [4, 30]

Demak, podshohlarning ilk davrlaridagi bosh vazifasi ham uz fuqarolarining manfaatlarini himoya qilish,ularning farovonligi va xavfsizligini ta’minlashdan iborat bo‘lgan.

Alloma”Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”(“Osor ul-boqiya”) asarida qadimgi Eron podshohlarining raiyatni boshqarish odatlari xaqida hikoya qiladi.Rivoyatga kura,Eron shoxlari Xur Mox (Xurram RUZ)oyining birinchi kuni xalq bilan uchrashar ekanlar. Shu kuni podshoh taxtdan tushib,saroy ishlarini yig‘ishtirib quyib,oq libosda, dalaga yozilgan oq gilamda utirar va fuqarolardan arz tinglar ekan. Podshoh uzini oddiy fuqarolardek tutib,kelgan odamlar bilan birgalikda choy ichib, ovqat yeb, ularning arzlarini eshitarkan.Podshoh raiyatiga murojaat qilib shunday der ekan: ”Birodarlar, bugun men sizlardan farq qilmayman, meni uzingizning qarindoshlaringiz sifatida ko‘ring. Chunki olamning tirikchiligi sizlar tufaylidir, sizlarning qullaringiz bilan yer haydaladi, ekin ekiladi va hosil olinadi. Ayni vaqtda sizlarning ishlaringiz ham hokimiyatning yordami tufayli buladi. Har ikkalasi

ham(dexqonchilik va hokimiyat) bir-biriga muxtojdir.Shunday ekan,biz bir-biriga mehr-shavqatli ikki aka-ukaga uxshaymiz.Rivoyat qilinishicha, hokimiyat va dexqonchilik ikki mehribon aka-ukalar-Xushang va Vaykardan kelib chiqqan ekan".[5, 238-239].Faylasufning fikricha nodonlik,nafs buzuqligi oqibatida paydo bo'lgan ijtimoiy illatlardan kuch bilan yuqotib bulmaydi,ularni bartaraf etishning birdan-bir tug'ri yuli ilm-ma'rifatdir. Alloma ijtimoiy illatlarni yuqotish uchun ularni keltirib chiqargan sabablarini bilish va bartaraf etish vositalarini aniqlash kerakligini tushuntiradi.

Jamiyatda mavjud illatlarni yuqotish uchun ularning ildizi-ijtimoiy yovuzlikni kesib yuqotish kerakligi uqtiriladi.Buning moxiyatini Beruniy shunday tushuntiradi:"Yovuzlikdan qutulish uchun inson ikki tabiiy kuch-ochkuzlikka xirs quyish va g'azab ustidan hukmronlik qilishi kerak.Bular inson uchun eng kuchli va xavfli dushmanlardir.Mana shu ochkuzlik va g'azab ustidan aql va tafakkur kuchlari g'alaba qozonishi kerak. Shundagina inson shaytoniy nafsdan qutilib, Alloxga yaqinlashadi,bu olamning tashvishlaridan xalos bulib,ma'naviy yuksalishga intiladi.[7, 39-40].

Abu Rayhon Beruniyning e'tirof etishicha fuqaroviy jamiyat insonparvarligining darajasi kishilar kundalik ehtiyojlarining qondirilishi bilan belgilanadi.Jamiyatda fuqarolarning farovonligini ta'minlovchi eng muhim omil ijtimoiy adolat qoidalariga rioya qilishdir. Mutafakkir "Tenglik hukm surgan joyda sotqinlik, aldamchi ehtiroslar, g'am-g'ussa bo'lmaydi" degan g'oyani ilgari suradi.Ushbu fikrlar va g'oyalar hozirgi davrda ham ayniqsa fuqarolik jamiyatini yurtimizda rivoji uchun muhim va dolzarb xisoblanadi.Qolaversa 2023-yilda jaxon miqyosida Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligi nishonlanadi, biz shunga aminmizki uning falsafiy merosida-fuqarolik jamiyatining ma'rifiy-ma'naviy jixatlari keng miqyosida o'rganish va uni Yangi O'zbekiston taraqqiyotida qullash muhim ahamiyat kasb etajak!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Shavkat Mirziyoyev, Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari.4. T.”: O‘zbekiston” 2020.

2.Shavkat Mirziyoyev, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T.”OZBEKISTON” 2022.

3. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar.3-jild. T.”Fan”, 1996.

4. Beruniy Kitob al-javohir... Haydarobod.1936.

5. Abu Rayhon Beruniy, Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. T.”Fan”1989.

6. Islom Karimov, Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. T.”Ma’naviyat”2008.

7. Djavaharlal Neru “Otkrытie Indii” M.”Izdatelstvo inostrannoy literaturы”1955.

8.Teshayev N.N. Ibn Sinoning adolatli jamiyat ma’naviy qiyofasi haqidagi g‘oyalari //”Abu Ali ibn Sino va hozirgi zamon”respublika ilmiy-amaliy seminari materiallari.Buxoro 2005, 22-24 betlar.

9.Teshayev N.N. Fuqarolik jamiyatining ma’naviy asoslari //.Zamonaviy oliy ta’lim tizimi: muammo va yechimlar. Xalgaro ilmiy konferensiya. Navoiy, 2022-yil, 22-noyabr, 75-79 betlar.

10.Nutfullo Nasrulloevich Teshaev.Teashings of Abu Nasr Farabi on the Virtuous Civil societu in the Book “The City of Virtuous People(Fozil odamlar shahri).// Eurasian Journal of Humanities and Social skiences/Volume 16| Januaru,2023 Page | 73-76.

11.Hikmatlarga to‘la bu dunyo. T.: ”O‘qituvchi”, 1997.

ZJV5401

YUKSAK MA'NAVIYATLI YOSHLAR KELAJAK POYDEVORI

I*zzatbek Ibragimov,*
O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi
katta ilmiy xodimi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizdagi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan harakatlar, davlat tomonidan qabul qilingan qaror va farmonlar va ularning jamiyatga ta'siri borasida so'z yuritiladi.

Tayanch so'zlar: ma'naviyat, yoshlar, kitob, qadriyat, ta'lim, ma'rifat.

Har bir mamlakatning, unda yashaydigan insonlarning taqdiri va kelajagi albatta davlatlarning yetakchi kuchlari hisoblanmish yoshlar tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati esa qadimdan ota-bobolarimiz tomonidan shakllanib kelgan asl milliy va diniy qadriyatlarimizning ahamiyati nechog'lik muhim ekanini ko'rsatib bermoqda. Zero, ertangi farovon hayot jamiyatni mukammal axloq tamoyillari asosida barpo qilish, oilada barkamol farzand tarbiyasi, uning jismonan baquvvat, ruhan tetik, ma'nan yetuk, aqlan va axloqan go'zal bo'lib yetishi bilan belgilanadi.

Ma'rifatparvar bobomiz Fitratning "Bu dunyo kurash maydonidir. Sog'lom tan, o'tkir aql va yaxshi axloq bu maydon qurolidir", - degan so'zlari mazkur fikrlar dalilidir.

Mamlakatimiz aholisining 31 foizi yoki 10 million nafari 30 yoshgacha bo'lgan yoshlardir. Ularning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun zamonaviy sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shuncha kuchli bo'ladi.

Nima uchun davlatimiz rahbari aynan yoshlar masalasiga alohida urg‘u bermoqda? Davlatimiz rahbari nufuzli xalqaro tashkilotlar minbarlaridan turib, jahon hamjamiyatini yosh avlod turli buzg‘unchi g‘oyalar va radikal guruhlarga qo‘shilib ketishining oldini olishga chaqirmoqda. Asosiy e’tiborni ma’rifatga, yoshlarning ma’naviy va axloqiy tarbiyasiga qaratish, lozimligini jonkuyarlik bilan ta’kidlamoqda. Bu bejiz emas, albatta.

“Ta’lim qanchalik mukammal bo‘lsa, xalq shunchalik baxtli yashaydi”, – deydi olimlar. Ta’lim to‘liq bo‘lishi uchun bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik mutlaqo mumkin emas [1].

Hozirgi kunda dunyo miqyosida qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda. Global muammolar – xalqaro terrorizm, ekstremizm, murosasizlik, savodsizlik, jaholat, qashshoqlik, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi”, “ommaviy madaniyat”, odam savdosi, noqonuniy migratsiya kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzod asrlar davomida amal qilib kelgan e’tiqodlar, qadriyatlarga putur yetkazmoqda.

Insoniyatni tashvishga solayotgan mana shunday og‘riqli muammolarni hal etish yuzasidan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida bergan BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish taklifi jahon afkor ommasida katta qiziqish uyg‘otdi. “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish haqidagi tashabbusi barcha tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, 2018-yilning 12-dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi sessiyasida qabul qilindi.

Yosh avlodni jismonan va ruhan sog‘lom, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularni kelajagimizning munosib vorislari etib voyaga yetkazishga ko‘maklashish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Faxr bilan aytish joizki, ko‘plab yoshlarimiz o‘zlarining intellektual salohiyati bilan xalqaro olimpiadalar, sport musobaqalari, qolaversa, barcha sohalarda katta muvaffaqiyat-

larga erishib, yurtimiz bayrog‘ini, Vatanimiz sharafini himoya qilib kelayotganligi barchamizni dildan quvontiradi.

Lekin, yutuqlarimiz bilan bir qatorda ayrim yoshlar o‘rtasida zararli odatlarga ruju qo‘yish holatlari uchrab turganligini inkor qilib bo‘lmaydi.

Ana shunday salbiy holatlarning oldini olish, oila, maktab va ta’lim muassasalarida sog‘lom muhitni shakllantirish masalalariga bugun barchamiz jiddiy yondashmog‘imiz lozim.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yildagi 28-yanvardagi 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF-60-sonli farmonining 70–71-maqsadlari ham yoshlar tarbiyasi va ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan. Xususan, mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash ko‘nikmasini shakllantirish, “Yoshlar – Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” shiori ostida “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans” g‘oyasining ro‘yobga chiqarilishini ta’minlash singari vazifalar belgilangan [2].

Milliy va diniy qadriyatlarimizda farzand tarbiyasidagi nozik jihatlarga, ayniqsa, uni mehnatkash, mehr-oqibatli, irodali va mard insonlar bo‘lib yetishishiga alohida e’tibor qaratiladi. Afsuski, ular orasida yengil-yelpi hayot kechirishga moyil, e’tiqodi sust, irodasiz bolalar ham uchrab turadi. Bu toifadagi insonlarni g‘arbona hayot tarziga qiziqmaydi, turli shou dasturlar, ajnabiy ruhdagi kechalar ular taqdirini o‘zgartirmaydi, deya olmaymiz. Hozirda kompyuter, internet klublari, televideniye kabi vositalardagi yengil-yelpi, mazmunan sayoz va turli zararli odatlarni targ‘ib etuvchi filmlar, yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sir qiluvchi vositalar ko‘paygani hech birimizga sir emas.

Ma’naviyatni yuksaltiradigan asosiy vosita bu kitob ekanligi hech kimga sir emas. Kitob bejiz kamolat kaliti deyilmagan. Kitob o‘qimagan xalq johillika mahkumdir. Jadidchilik

harakatining buyuk namoyandalaridan bo‘lgan Munavvarqori Abdurashidxonov bunday degandi: “Bu jaholat xohishidurki, millat foydasi uchun jonin qurbon qilmoqqa loyiq arslon kabi yigitlarimiz butun millatni yodlaridin chiqorib, iste’dod va g‘ayratlarini choyxonalarg‘a sarf etmakdadurlar”. Oybek esa: “Kitob va mutolaa sizni qudratli ijod bulog‘iga boshlaydi. Kitob va mutolaa sizni ko‘pdan-ko‘p yangi bosqichlarga ko‘taradi” deydi [3].

Mazkur fikrlardan xulosa chiqargan holda, yoshlar tarbiyasiga barchamiz mas’ullikni his qilib, jamiyatimizga xos bo‘lmagan illatlarga qarshi birgalikda kurashishimiz lozim. Yoshlar – har qanday jamiyatning ertasi. Ularning ongi uchun vayronkor hamda ma’rifatparvar g‘oyalar o‘rtasida kurash davom etaveradi. Ushbu g‘oyaviy kurashda esa o‘zining ezgu amaliy harakatlari bilan yoshlarning ishonchini oqlay olgan tomon g‘olib bo‘ladi. Zero, barkamol avlod va yuksak axloqli vatanparvar yoshlar bugunimiz va ertamizning haqiqiy davomchilaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi.

2. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturini tasdiqlashga oid Prezident Farmoni.

3. http://uza.uz/

SHARQ MAMLAKATLARI DAVLAT BOSHQARUVI VA SAYLOV INSTITUTINING SHAKLLANISHIDA AXLOQ MASALALARI

Nishanbayeva Nadira Baxitbay qizi,
Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Davlatdagi eng muhim masalalarning fuqarolar xohish irodasi bilan haletilishi demokratiyaning yaqqol namoyon bo'lishidir.Davlat hokimiyatini shakllan-tirishda saylovlar va demokratik tamoyillar muhim ahamiyatga ega. Sohibqiron Amir Temur o'zining "Temur tuzuklari" asarida «Saltanat ishlarining to'qqiz ulushini mashvarat, tadbir va kengash, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirdim» deydi. Demak har bir davlat boshqaruv tizimida avvalo, axloqiy munosabatlar, ma'naviy qadriyatlar va o'zaro murosa va xurmat turishini tushunishimiz mumkin.

Tayanch so'zlar: Davlat, saylov, kengash, boshqaruv, axloq, qadriyat, hurmat, demokratiya, siyosat, qonuniylashtirish, xalq, g'oya.

Siyosat va siyosiy faoliyatning vujudga kelishi eng qadimgi zamonlardan boshlanar ekan, tabiiyki, siyosat haqidagi dastlabki risolalar va siyosiy qarashlar ham uzoq o'tmishga borib taqaladi.

Qadimgi davrdagi demokratiya to'g'risidagi qarashlardan farqli o'laroq, o'rta asrlarga kelib "demokratiya – monarxning xalq ustidan hokimiyati" degan ma'no kasb eta boshlagan edi. Chunki amaldagi qirol hokimiyati oliy huquqlarining demokratik legitimizatsisi (qonuniylashtirilishi)ga urinishlar mavjud edi. Agar qadimgi davr va ilk o'rta asrlarda qonunchilik hokimiyati asosiy o'rin tutgan bo'lsa, o'rta asrlarning keyingi bosqichida ijroiya hokimiyating mavqeyi ancha yuksaldi va u muayyan hukmdorlar qo'lida mujassamlashdi. Demokratiya-

ning ayrim bazaviy elementlari, xususan, halq va hokimiyat suvereniteti, ular o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish va o‘zaro ziddiyatlarni bartaraf qilish uchun shartnomaviy munosabatlarni o‘rnatish g‘oyasi kabilar shakllandi.

Ta’kidlash joizki, adolatli jamiyat qurish, uni xalqning “bir guruh” vakillari tomonidan boshqarish g‘oyasi Sharq, shu jumladan, Markaziy Osiyo tarixidagi yirik olim va mutafakkirlarning ham doimiy diqqat-e’tiborida bo‘ldi. Bu davrda Markaziy Osiyoda yashab, ijod etgan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Nizomulmulk, Husayn Voiz Koshifiy kabi ulug‘ mutafakkirlar adolatli jamiyat to‘g‘risidagi nazariy bilimlarning rivojlanishiga munosib hissa qo‘shgan bo‘lsalar, keyinroq Amir Temur, M.Ulug‘bek, A.Navoiy, Z.Bobur kabi davlat arboblari demokratik tamoyillar va qadriyatlarning aksariyatini nafaqat o‘z siyosiy qarashlarida, balki amaliy faoliyatlarida ham mujassamlashtirgan edilar.

Ulkan ilmiy meros qoldirgan buyuk mutafakkir – Abu Nasr Farobiy jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotining turli qirralarini tadqiq qilar ekan, hozirgi kunda vakillik demokratiyasining muhim unsuri deb e’tirof etilayotgan, fuqarolarning siyosiy huquqi asosida o‘tkaziladigan saylovlar masalasiga ham alohida e’tibor qaratgan edi. Chunonchi, ulug‘ mutafakkir fozillar shahri boshqaruvchilarini tavsiflash asnosida bu to‘g‘rida shunday deb yozgan: “Ularning o‘zlaridan saylangan rahbar yoki boshliqlar hokimi mutlaq bo‘lmaydi. Ular odamlar ichidan ko‘tarilgan, sinalgan, eng oliyjanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo‘ladilar. Shu bois, bunday rahbarlar o‘z saylovchilarini to‘la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmandan muhofaza qiladilar. Bunday rahbarlar hammaga barobar munosabatda bo‘ladilar, hatto hammaning manfaatini uchun o‘zlarining shaxsiy manfaatlaridan voz kechadilar, halq manfaati uchun o‘zlaridagi kuch-g‘ayrat va boyliklarni ayamaydilar”.[1]

Farobiy o‘z davridagi turli mamlakatlar hayotiy faoliyatiga, ularni boshqaruv usullariga baho berar ekan, mukammal jamiyat va davlatning oliy maqsadi – insonlarni tom ma’noda baxt-saodatiga erishuvini ta’minlash ekanligini alohida ta’kidlaydi. Albatta, hozirgi davrda davlat va jamiyatning

bosh maqsadi – inson manfaatlari va xalq farovonligi ekanligiga e'tibor bersak, bu masalani hal qilish yo'li bundan salkam ming yil ilgari ulug' mutafakkir tomonidan kashf etilganligiga guvoh bo'lamiz.

Siyosatni anglashning tarixan dastlabki shakli uning diniy-afsonaviy talqini bo'lib, miloddan avvalgi II–I ming yilliklarda barcha qadimgi xalqlarda hokimiyatning va ijtimoiy ta'limning ilohiy kelib chiqishi to'g'risida tasavvurlar hukmronlik qilgan hamda bu tasavvurlar odatda, afsonalar tarzida ifodalangan. Taxminan miloddan avvalgi 1 ming yilliqda siyosiy qarashlarning ratsionallashuvi kuzatila boshlangan. Birinchi siyosiy kategoriyalar va ta'riflar, keyinchalik esa falsafiy-axloqiy shakldagi qator ta'limotlar paydo bo'lgan.

Abu Rayhon Beruniyning e'tirof etishicha, jamiyatning insoniylik darajasi odamlarning kundalik ehtiyojlari qanchalik qondirilganligi bilan belgilanadi. Jamiyatda fuqarolarning farovonligini ta'minlovchi eng muhim omil ijtimoiy adolat qoidalariga amal qilishdir. [2]

Yana bir Sharq mutafakkiri – Ibn Sino adolatli jamiyatning mavjud bo'lishi sharti sifatida birinchi o'ringa insonlar o'rtasidagi mehr-oqibat va ahloqiy munosabatlarni qo'yadi. Uning fikricha, yuksak axloq sohibi bo'lishga faqat va faqat ma'rifat yordamida erishish mumkinligini, axloqiy munosabatlarning yuksalishi jamiyatning ma'naviy-axloqiy sog'lomligi va sobitligini ta'minlash omili ekanligini alohida ta'kidlaydi. [3]

Shu o'rinda buyuk mutafakkir A.Navoiyga ham alohida to'xtalish maqsadga muvofiqdir. Uning adolatli jamiyat to'g'risidagi qarashlari Farobiy qarashlariga ancha yaqindir. A.Navoiy o'z asarlarida "yuksak jamiyat" tashkil etishni orzu qiladi. Haqiqiy insoniy fazilatlar – adolat, mehr-u muruvvat, mehnatsevarlik, to'g'riso'zlik, vatanparvarlik, halollik, insonparvarlik, qahramonlik kabi fazilatlarni keng ochib beradi. Allomaning fikricha, adolatli jamiyatni yuksak fazilatli, ma'naviyatli insonlargina barpo etishlari mumkin. Shuning uchun ham mutafakkir inson ma'naviyatini yuksaltirish asosida "yuksak jamiyat" qurish g'oyalarini ilgari suradi.

U insoniyatga ikkita – “ahli ma’ni” va “ahli suvrat”ga bo‘lib ta’riflab beradi. [4]

Yana bir buyuk mutafakkir K. Yaspersning qayd etishicha, miloddan avvalgi IX–III asrlar oralig‘ida qariyb bir vaqtda bir-biridan mustaqil tarzda Sharqda – Xitoy, Xindiston, Eron, Falastinda va G‘arbda – Yunonistonda siyosiy-huquqiy qarashlarni o‘zida mujassam etgan madaniy markazlar vujudga kelgan.

Bu davrda Xitoyda Konfutsiy, Lao-szi, Mo-szi asarlari, Hindistonda ma’naviy-ruhiy «erkinlik» ni targ‘ib etgan diniy-falsafiy tizim sifatida ma’qullangan. Xorazm va Eronda Zardusht ta’limoti, Yunonistonda esa Gomerning „Iliada“ va ”Odisseya» dostonlari vujudga kelgan hamda buyuk mutafakkirlar Geraklit, Demokrit, Suqrot, Platon, Aristotel nomlari dunyoga tanilgan. Shu tariqa siyosatni nazariy jihatdan tahlil qilish asoslari yaratilgan. Biroq, qadimgi zamon mutafakkirlarining siyosiy tadqiqotlari hali mustaqil fan sifatida ajralmagan hamda falsafiy, axloqiy g‘oyalar bilan uzviy bog‘liq edi.

Shu hol e’tiborga molikki, aynan qadimgi davrlarda o‘sha mutafakkirlar tomonidan biz bugun foydalanayotgan falsafiy va siyosiy kategoriyalarning aksariyat qismi ishlab chiqilgan.

Saylov – xalq hokimiyatchiligining timsoli bo‘lib, eng avvalo o‘zida jamiyat a’zolarining, qolaversa saylovchi – fuqaro manfaatini ifoda etadi.

Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari amalga oshirilayotgan islohotlarda saylovlarning o‘rni beqiyosdir.

Davlatdagi eng muhim masalalarning fuqarolar xohish irodasi bilan hal etilishidemokratiyaning yaqqol namoyon bo‘lishidir. Davlat hokimiyatini shakllantirishda saylovlar va demokratik tamoyillar muhim ahamiyatga ega. Amir Temur o‘zining “Temur tuzuklari” asarida «Saltanat ishlarining to‘qqiz ulushini mashvarat, tadbir va kengash, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirdim» deydi. [5]

Demak, har bir davlat boshqaruv tizimida avvalo, axloqiy munosabatlar, ma’naviy qadriyatlar va o‘zaro murosa va xurmat turishini tushunishimiz mumkin.

Xususan, Qadimgi ibtidoiy zamonlardan beri saylov (saylash yoki saylanish) insonga xos alohida tartibot bo‘lib kel-

gan. Umumiy qabila yig‘ilishlarda muayyan saylov elementlaridan foydalanib yetakchilar tanlab olingan. Masalan, bir qator qabilalar urf-odatlarida tinchlik davrida ijtimoiy hayot yoshi ulug‘ oqsoqollar tomonidan boshqarilib, urush davrida esa saylangan jangchirahbarlar boshqaruvni o‘z qo‘liga olgan. Ammo vaqt o‘tishi bilan qabila va harbiy demokratiya imkoniyatlari endi o‘sib borayotgan fuqarolik jamoalarini qoniqtirmaydi. Natijada, hokimiyatning birlamchi organi – ibtidoiy xarakterdagi demokratiyaning o‘ziga xos shakli vujudga keldi. Zamonaviy saylovlarning tarihan tarkib topishida shubhasiz Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim Respublikasining ahamiyati katta. Bu yerda erkin fuqarolar oliy yig‘inlar va majlislarda qatnashib, siyosiy hayotda o‘z pozitsiyasini bildirib, muhim masalalarni hal qilishda ishtirok eta olishgan. Majlisda ovoz berish orqali qabul qilingan qaror– xalq irodasi sifatida qaralib, qonun kuchiga ega bo‘lgan. [6]

Qadimgi Yunonistonda Kengash elektorati tomonidan ochiq ovoz berish va yashirin ovoz berish qo‘llanilgan.

«Byulleten» sifatida rangli toshlar yoki o‘simlik urug‘laridan foydalanilgan bo‘lib, oq tosh «rozilik» va o‘z navbatida, qora tosh «qarshilik» ma’nosini anglatardi. Miloddan avvalgi V asrda Afinada demokratiyaning gullab-yashnashi, o‘ziga xos «demokratik portlash» Perikl hukmronligi davriga to‘g‘ri keldi. “Perikl davrida davlatning turli darajadagi amaldorlari ochiq ovoz berish yo‘li bilan yoki Majlis tomonidan saylangan.

Fakultativlik, cheklangan huquqlilik, kollegiallik, bo‘ysunish ierarxiyasining yo‘qligi, hisobdorlik –bularning barchasi Afinaning ma’muriy boshqaruvini aniq demokratik xarakterga ega bo‘lishini ta’minladi. Ammo miloddan avvalgi to‘rtinchi asrga kelib Afina demokratiyasi o‘z mavqeyini yo‘qota boshladi. Respublika davrida Rim fuqarosining qadriyatlar tizimi va huquqiy maqomi shakllandi. Qadimgi Rimda o‘sha davrdagi mavjud saylov kompaniyasiga hozirgi mavjud saylov institutining shakllanishdagi o‘ziga xos muhim davri sifatida qarash mumkin. Sababi, Rim Respublikasida, ayniqsa, milodiy asrlar boshida saylov yirik ijtimoiy-siyosiy jarayon sifatida namoyon bo‘ldi. Rimda saylov protsesslariga alohida e’tibor qara-

ZJV5401

tilgan bo‘lib, saylov kompaniyasi saylov o‘tkazilishidan ancha avval boshlangan hamda nomzod ommaga rasmiy tarzda o‘z xohish-irodasi haqida e’lon qilgan. Shundan so‘ng saylov kompaniyasi boshlanib bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi: sof va tiniq vijdonni anglatuvchi oppoq harir mato - “toga” kiygan kandidat maydon va bozorlarga borib, saylovchilardan saylovda uni qo‘llab-quvvatlashini targ‘ib qilgan. Ovoz berish marosimi esa har bir saylovchi o‘zi tanlagan nomzod ismini qog‘ozga yozib, uni maxsus qutiga tashlash yo‘li orqali amalga oshirilgan. [7]

Asosiysi, oliy hokimiyatga saylanish uchun qo‘yilgan nomzodlar Senat tomonidan tavsiya qilingan va Xalq Majlisida tasdiqlangan.

Demokratiya Rimda turlicha rivojlandi. Dastlab Rimda oliy hokimiyat tashuvchisi patritsiylar sinfiga mansub barcha to‘la huquqli kishilar Majlisi bo‘lgan. Patritsiylar Rimning tub-maxalliy aholisi bo‘lib, oliy boshqaruv organi hisoblangan Senat asosan ulardan tashkil topgan. Ularning o‘rtasida otalik huquqi asosida otadan o‘g‘ilga barcha huquqlar meros bo‘lib qolgan. Mavjud hokimiyat Senat tomonidan cheklangan edi. Patritsiylar yirik huquqiy immunitetga ega bo‘lib, ular Assambleyada urush e’lon qilar, eng muhim sud masalalari bilan shug‘ullanar va hatto senator, balki umrbod harbiy rahbar bo‘lgan diktatorni ham vakolatlarini chegaralash vakolatiga ega edilar. Qo‘lida barcha kuch jamlangan patritsiylardan tashqari plebeylar deb ataluvchi sinf ham mavjud bo‘lib, ular ehtimol Rimning begona aholisi ya’ni o‘zga yerlardan kelgan odamlar guruhi sifatida qaralib, ularning huquqlari anchagina cheklangandi. Respublika tashkil topgach, plebeylar o‘z huquqlarini tobora kengaytirib bordilar. Patritsiylar va plebeylar o‘rtasidagi siyosiy qarama-qarshilik xalq Majlisi va Senat o‘rtasidagi ta’sir uchun kurash bilan birga kechdi. Yakunda Assambleya tomonidan plebeylar manfaatlarini faol himoya qilgan maxsus Halq tribunallari tuzishga erishdilar. Asosan ularning tashabbusi bilan yozma Qonunchilik – 12 jadvallarning mashhur qonunlari yaratilgan bo‘lib, u barcha rimliklar uchun yagona umumiy qonunni tashkil etgan.

Bu qonunlar o‘zaro fuqarolarning sinfiy tengsizligini qonuniylashtirgan bo‘lsada, demokratik huquqlarning alohida qonuniy asosda rivojlanishida muhim rol o‘ynagan. Rim Respublikasidagi saylov – asosiy saylov huquqi va prinsiplarining paydo bo‘lishi va rivojlanishida alohida muhim rol o‘ynagan. Misol uchun, Senatga nomzodlarni ro‘yhatga olinishi alohida organ yoki sud tomonidan amalga oshirilib, ular rasmiy ravishda nomzodlar ro‘yxatini e’lon qilgandan so‘ng nomzodlar saylov kompaniyasida o‘rin uchun kurashishni boshlagan. Saylovda shaffoflikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi. Miloddan avvalgi I asrda Senat tomonidan mahsus Qonun qabul qilinib, unda qishloq va bozorlarda tashviqot olib borish, saylovchilarga bepul ziyofatlar tashkil qilish, sovg‘alar ulashish, saylovchilarni pul bilan sotib olish va boshqa shu kabi noqonuniy xatti-harakatlarga qat’iy jazo (katta jarima belgilash va saylanish huquqidan mahrum qilishdan to quvg‘in qilishgacha) belgilandi. Biroq qonun nomzodlar uchun targ‘ibot va tashviqot qilishni butunlay cheklagan emas, ya’ni, nomzodlar “targ‘ibot plakatlar”, devoriy rasmlar, oq gips devorlar yordamida ismlarini yozishlari yoki o‘z qarashlari ifodalangan karikaturalarini, saylov murojaatnomalarini, ta’sirchan nutqlariniyozib o‘z targ‘ibot kompaniyasini amalga oshirishlari mumkin edi. “Miloddan avvalgi 139-yilda Senatga saylovda yashirin ovoz berish yo‘li orqali saylash qonun bilan musahkamlandi. Rimliklar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ovoz berishda «ovile» (qo‘y) va «saepta» (yog‘och) deb atalgan vositalar orqali amalga oshirilgan. [8]

Barcha ovozlarni mahsus nazoratchilar tomonidan qayd qilib borilgan va mandat natijalari yuqori maxsus organ tomonidan e’lon qilingan. Shunday qilib, Rim Respublikasi saylov tizimi bugungi kundagi mavjud demokratik davlatlarning asosiy saylov mexanizmlarini shakllantirishda muhim tarixiy omil sifatida o‘rin egallagan.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, XX asrning birinchi yarmida ko‘pchilik demokratik sharq davlatlarida adolatli saylovlar tamoyili – umumbashariy, teng, to‘g‘ridan-to‘g‘ri, yashirin ovoz berish yo‘li bilan amalga oshiriladigan saylov huquqi nihoyat qo‘lga kiritildi.

Demokratik tuzum – aholining siyosiy madaniyatisiz o‘rnatilishi va samarali bo‘lishi mumkin emas. Siyosiy ahloq demokratik siyosiy-ma’rifiy vazifani bajarish jarayonida asosiy gumanistik qadriyatlar, avvalo, har bir shaxsning erkinligi va sha’ni, uning tabiiy ajralmas huquqlarini e’tirof etadi va fuqaroga tegishli ijtimoiy tuzumni to‘g‘ri baholash, uning davlatdagi o‘z o‘rni va rolini, huquq va majburiyatlarini anglashda yordam beradi. Natijada fuqaro boshqalarning huquq va manfaatlarini hurmat qilgan holda o‘z manfaatlarini himoya qila olishga, umumiy muammolarni jamoa bilan hal qilishga o‘rganadi.

Saylov ilmi borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda:“Saylov komissiyalari a’zolarining saylov qonunchiligi va xalqaro standartlar bo‘yicha bilimlarini tizimli asosda shakllantirish kerak.” [9]

Shuningdek, fuqaroda demokratik tartibotga va uni ta’minlovchi davlat va ijtimoiy institutlarga nisbatan hurmat tuyg‘usi shakllanadi. Hususan, aynan saylovlar jamiyat hayotining ajralmas huquqiy instituti bo‘lib, demokratik asosda qurilgan mavjud real hokimiyat darajasini aniqlab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., O‘zbekiston, 2019.

2. Farobiy. “Fozil odamlar shahri”. – T.; A.Qodiriy nomidagi Adabiyot va san’at nashr. 1993.

3. Beruniy. Hindiston // Asarlar. – T: Fan. 1995.

4. Jakbarov M. “Komil inson g‘oyasi:tarixiy-falsafiy tahlil”. – T.:Abu ibn Sino nashr.,2000.

5. Navoiy. “Hayrat-ul-abror”.–T.:Adabiyot va san’at nashr. 2014.

6. “Temur tuzuklari” asari, Amir Temur. Toshkent, 1996.

7. Kumaneskiy K. “Istoriya kulturi Drevney Gresi i Rima” – M.1990.

8. Tit Liviy “Istoriya Rima ot osnovaniya goroda”. – M.1994.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaaatnomasi. 29-dekabr, 2020-yil.

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA DAVLAT VA NODAVLAT TASHKILOTLARI HAMKORLIGINING AYRIM JIHATLARI

Po‘latov Bahrom Nigmatovich,
Oriental Universitetining “Iqtisodiyot va turizm”kafedrasi dotsenti,
fizika-matematika fanlari nomzodi

Annotatsiya: Maqolada yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda davlat hokimiyati organlari, jamoat tashkilotlari, ta’lim muassasalari va yoshlarning axloqiy qarashlarini shakllantirish bo‘yicha boshqa suyektlarning hamkorligi masalalari to‘g‘risida fikr yuritiladi hamda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan.

Tayanch so‘zlar: vatanparvarlik, vatanparvarlik tarbiyasi, ahloq, huquqiy ong, axloqiy fazilatlar, tarbiyalash bo‘yicha ish shakllari va uslublari, davlat hokimiyati organlari, jamoat tashkilotlari, ta’lim muassasalari, madaniyat muassasalari, ijtimoiy xizmatlar.

Vatanparvarlik – Vatanga muhabbat va sadoqat, uning manfaatlariga xizmat qilish istagi va uni himoya qilishga tayyorligi va uning xalqi bilan hamjihatligidir.

Vatanparvarlik tarbiyasi – bu davlat hokimiyati organlari, jamoat tashkilotlari, ta’lim muassasalari va yoshlar siyosati muassasalari, fuqarolarning axloqiy qarashlarini shakllantirish bo‘yicha vatanparvarlik ta’limining boshqa suyektlari, ularning mazmuni vatanga muhabbat, tarix va madaniy me’roslarga hurmat, fuqarolik burchini bajarishga tayyorligi va vatanni himoya qilish vazifalari. Vatanparvarlik ta’lim tizimida o‘z mamlakatiga bo‘lgan muhabbat va hurmat boshqa xalqlar va mamlakatlarga hurmat bilan birga bo‘lishi kerak.

Vatanparvarlik tarbiyasi – davlat hokimiyati organlari, jamoat tashkilotlari, ta’lim muassasalarining yoshlarda yuksak

vatanparvarlik ongini, vatanga sadoqat tuyg‘usini, fuqarolik burchini bajarishga tayyorligini, vatan manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha muhim vazifalarni, qurolli himoya qilish qobiliyatini shakllantirish, ulug‘vor harbiy an’analarni saqlash va ko‘paytirish bo‘yicha ko‘p qirrali, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan maqsad - vatanga sadoqat va muhabbat tuyg‘usini shakllantirish, uning manfaatlariga xizmat qilish va uni himoya qilishga tayyor bo‘lish, uning taqdiriga daxldorlik, uning ahvoli va rivojlanishi uchun mas’uliyatni oshirishdir. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash sohasidagi vazifalar quyidagi ishlarni muntazam qilishni talab qiladi:

- umumdavlat qadriyatlari va umumdavlat manfaatlari nuqtayi nazaridan yagona ta’lim muhitini shakllantirish;

- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, vatanparvarlik yo‘nalishidagi tadbirlarni moliyaviy-iqtisodiy va huquqiy jihatdan ta’minlash bo‘yicha ishlarni amalga oshiruvchi ijtimoiy soha muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

- vatanparvarlik, axloq, huquqiy ongning ijobiy qadriyatlariga asoslangan dunyoqarashni shakllantirish;

- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini boshqarish va qo‘llab-quvvatlashni ta’minlovchi mexanizmlardan samarali foydalanish;

- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalarini hal etishda jamoat ishtirokini ta’minlash;

- axloqiy fazilatlarini shakllantirish, ijtimoiy foydali faoliyatda ishtirok etishga va davlat manfaatlarini himoya qilishga tayyor bo‘lish;

- mehnat qilayotgan yoshlarni, ilmiy kadrlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga jalb etish;

- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha ish shakllari va uslublarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyojni ro‘yobga chiqarish;

- yoshlarni ommaviy harbiy-vatanparvarlik ishlari bilan qamrab olish;

- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash sifati va samaradorligini oshirish uchun davlat va shahar muzeylarining imkoniyatlaridan foydalanish [1].

Bugungi kunda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim:

- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini davlat-jamoatchilik boshqaruvi mexanizmini takomillashtirish;

- vatanparvarlik ta’limining asoslarini, jumladan, inson huquqlari, davlat, saylov, tanqidiy fikrlash, boshqa odamlar bilan hamkorlik qilish, ijtimoiy va siyosiy vaziyatlarni tahlil qilish;

- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning normativ-huquqiy va axborot-uslubiy bazasini yangilash va kengaytirish;

- harbiy xizmat asoslari va harbiy-hisobga olish mutaxassisliklari bo‘yicha ta’lim olgan harbiy xizmatni o‘tash uchun ijobiy motivatsiyaga ega bo‘lgan chaqiriluvchilarning jismoniy va ma’naviy-psixologik tayyorgarligi uchun shart-sharoitlar yaratish;

- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini takomillashtirish, rasmiy va norasmiy ta’limni, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va tarbiyalashni birlashtirgan vatanparvarlik ta’limining yagona makonini yaratish;

- yoshlar o‘rtasida ijtimoiy, ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyat, milliy madaniy va tarixiy an’analarga, shu jumladan, yoshlar jamoat birlashmalari faoliyatiga jalb etish, ixtiyoriy faoliyatga jalb qilish orqali vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish;

- davlat, nodavlat, jamoat va boshqa tashkilotlar, birlashmalar bilan idoralararo hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish orqali yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalarini hal etishga jamoatchilikni jalb etish;

- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyatga rahbarlik qilish uchun kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash;

- yosh avlodni fuqarolik mas’uliyati ruhida tarbiyalash va kasb-hunarga yo‘naltirish, vazifalarni bajarishga ijobiy munosabat, vatanparvarlik ruhida harbiy qismlarning imkoniyatlaridan keng foydalanish;

- yoshlar o‘rtasida zamonaviy va klassik madaniyat va san’at an’analarini mustahkamlash, mamlakatning o‘tmishi, bugungi va kelajagiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;

- yoshlarni mamlakatimiz tarixi, madaniyati, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini ongli va munosib qabul qiluvchilar sifatida tarbiyalash;

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha faoliyat yo‘nalishlarida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning normativ-huquqiy bazasini yangilash va kengaytirish, vatanparvarlik tarbiyasining yagona makonini yaratish kabi muhim ishlarni chetga surmagan holda vatanparvarlik ta’limida yoshlar jamoat tashkilotlari faoliyatini faollashtirishga alohida e’tibor qaratishni lozim. Bu yo‘nalishdagi ishlar o‘quvchi va talabalarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ko‘ngillilik, mustaqillik, tashabbuskorlik, faol vatanparvarlik tamoyillariga asoslangan mehnat jamoalarining yoshlar birlashmalari faoliyatini faollashtirishdan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha targ‘ibot ishlarida ommaviy axborot vositalarining roli katta. Ommaviy axborot vositalari vatanparvarlikni targ‘ib qilishda ishtirok etishi va namunalarni, jamoat xizmati misollarini vatanparvarlik tarbiyasi tajribasini, ilmiy-amaliy nashrlarda muntazam yoritib borish lozimdir. Ommaviy axborot vositalarida ma’naviyat, ijobiy yo‘nalish, ijtimoiy mas’uliyat, yoshlarning jamiyat va davlat manfaati yo‘lida o‘z-o‘zini anglashga tayyorligini oshirish borasidagi ishlarni faollashtirish bu boradagi ishlarni jadallashtiradi. Yoshlarning jismoniy, ruhiy va ma’naviy-axloqiy salomatligiga va rivojlanishiga zarar yetkazadigan axborot mahsulotlaridan huquqiy himoyasini ta’minlash, ular o‘rtasida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarda ijtimoiy reklama vositalaridan foydalanish yuqori samara beradi. Ayniqsa, vatanparvarlik ta’limiga oid materiallarni tayyorlash uchun arxivlar, muzeylar, kutubxonalarning axborot resurslaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratish lozimdir [2].

Shu o‘rinda Oriental universiteti nodavlat oliy ta’lim muassasasi talabalarining ma’naviy-ma’rifiy ishlarini olib borish tajribasi to‘g‘risida fikr bildirish mumkin. Bugungi kunda

o‘zining faoliyatini olib borayotgan universitetimiz talabalarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida bir qator amaliy ishlar bajarilmoqda. Masalan, o‘quv mashg‘ulotlari auditoriyalarda olib borilishi bilan bir qatorda talabalarni vatanimizning boy madaniy merosini o‘rganish uchun amaliy mashg‘ulotlar joylarga chiqib tashkil etilmoqda. Masalan, talabalar tarix yo‘nalishida O‘zbekiston tarixi muzeyiga, harbiy yo‘nalishda O‘zbekiston qurolli kuchlari muzeyiga, madaniy merosni o‘rganishda Xazrati Imom majmuasiga, Xotira va qadrlash kuniga Toshkent shahrining Olmazor tumanida barpo etilgan G‘alaba bog‘iga tashrif buyurdilar. Nafaqat tashriflar, balki tadbirlar ham muntazam tashkil etilmoqda. Shu jumladan, Iqtisodiyot va turizm fakulteti talabalarining uzoq yillar davomida Mudofaa vazirligida mas’ul lavozimlarda ishlagan podpolkovnik, texnika fanlari nomzodi A.Alimov bilan uchrashuvi va saxna ko‘rinishlari talabalarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga muhim e’tibordan dalolatdir.

Alohida ta’kidlash lozimki, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosi oilada yotadi. Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ta’lim muassasalari, madaniyat muassasalari, ijtimoiy xizmatlar, an’anaviy diniy birlashmalar va vatanparvarlik ta’lim tizimining boshqa suyektlari faoliyati jamiyatda oilaviy qadriyatlarni ommalashtirishga, oilani qo‘llab-quvvatlashga, vatanparvarlik rivojlanishiga hissa qo‘shadigan oilaviy ta’limning an’anaviy va yangi usullarini joriy etishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 140-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-iyundagi “Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 369-son qarori.

ZAMONAVIY TARG‘IBOT SHAKLLARI: IJTIMOIY ROLIKLAR, SLAYDLAR, MULTMEDIYA VOSITALARINING AHAMIYATI

Umarova Iqboloy Akbutaevna,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Markazi
Jizzax viloyati bo‘limi rahbari

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy va umuminsoniy qadriyatlardan biri bo‘lgan mehr-saxovat va muruvvat tushunchalarining aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida yuksaltirish hamda mazkur tushunchalarni jamiyatda keng targ‘ib qilishda targ‘ibot vositalarning o‘rni ahamiyati to‘g‘risidagi fikr-mulohazalar o‘rin olgan.

Tayanch so‘zlar: ma’naviy tanazzul, milliy tarbiya, Renessans, milliy mentalitet, interaktiv uslublar, videoroliklar, vaynlar.

Ko‘plab olimlar o‘z tadqiqotlarida ma’naviy tanazzulning asosiy omillari bo‘yicha qator izlanishlarni olib borishdi va borishmoqda ham. Ularning izlanishlarida har xil qiziqarli tahliliy ma’lumotlar asoslandi, lekin bularning ichida insonni tashvishga soladigan bir qaraganda e’tiborsizdek tuyuladigan, lekin oqibati tanazzulga, jaholatga olib boradigan bir omil, ya’ni milliy tarbiya va oiladagi farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik illati millatning ma’naviy tanazzulining asosi deb aytsak hech mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bugun butun dunyoda inson kapitali uchun kurash ketmoqda, eng katta sarmoya farzandni yaxshi bilim olishiga, tarbiyasiga tikilayapdi. Mazkur holat bizning mamlakatimizda ham o‘z aksini ko‘rsatmoqda, ammo afsuski bu ko‘rsatgich yetarli darajada deya olmaymiz.

Milliy tarbiyani yuksaltirish, oilada farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik illatini yo‘q qilishga qaratilgan Davlat hamda hu-

kumatimiz rahbari tomonidan bir qator qarorlar, jumladan 2017-yil 28 iyuldagi PQ-3160-sonli, 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-sonli, 2021 yil 26 artdagi PQ-5040-sonli, 2019 yil 31 dekabrdagi VM-1059-sonli qarorlarda ichki tahdid sifatida qayd qilingan va mazkur holatni bartaraf qilish bo‘yicha bir qator vazifalar belgilab berilgan.

“Uzluksiz ma’naviy tarbiya” konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Vazirlar Mahkamasining 1059-sonli qarorida bugungi kunda yoshlarimizning shaxsiy va ijtimoiy farovon, baxtli hayot qura olishlari uchun zarur bo‘lgan aniq fazilatlar majmui belgilab berilgan. Bu haqda qarorning 2-bandida Konsepsiya va uni amalga oshirish chora-tadbirlar rejasini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib “yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish” ta’kidlangan. Bu davlatimizning yoshlar tarbiyasiga yondashishda maqsadli innovatsion yondashuv bo‘lib, tarbiya jarayonini ilmiy asosga qurilishini va milliy tarbiya masalasida uning ijtimoiy-pedagogik indikatorlari ishlab chiqilishini talab qiladi.

O‘zbekiston mustaqilligi tufayli qayta tiklangan boy ma’naviy merosimiz, undagi ming yillik tariximiz, ijtimoiy adolat, mustaqillik yo‘lidagi qarashlar ahloqiy madaniyatning poydevori hisoblanadi.

Keyingi yillarda ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ishlarning izchillik bilan amalga oshirilayotganligi, sohada tub o‘zgarishlar, yangilanishlar jarayoni, ma’naviyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning yuqori pog‘onaga ko‘tarilganligini alohida qayd etish lozim. Xususan, mamlakatimizda yoshlarni ma’naviy yetuk va jismonan sog‘lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, ularni ma’nan yetuk, barkamol, intellektual salohiyatli, insonparvarlik va milliy qadriyatlarni qadrlovchi komil shaxs sifatida shakllantirish maqsadida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e’ti-

borni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Ushbu yig'ilishda davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surdi. Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qilishi ta'kidlandi; ikkinchi tashabbus esa yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan; uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan; to'rtinchi tashabbus yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan; beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash kabi masalalarga bag'ishlandi.

Shuningdek, hozirgi kunda yoshlarni ma'naviyatli, yetuk, komil shaxs sifatida shakllantirishda avvalo ta'lim muassasalarida, o'qituvchi pedagoglarning professional darajasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev quyidagilarni ta'kidlaydi: "Yana bir muammoni hal etish o'ta muhim hisoblanadi: bu – pedagog va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur".

Mamlakatimiz Prezidentining O'zbekiston Respublikasi mustaqillig'ining 29-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda "O'zbekiston tarixining birinchi Renessansi - Somoniylar davriga to'g'ri kelib, ushbu davrda buyuk ajdodlarimizning yaratgan ilmiy-falsafiy asarlari va olamshumul kashfiyotlari islom sivilizatsiyasiga tamal toshi bo'lganligi, ik-

kinchi Renessans – Amir Temur va Temuriylar davriga to‘g‘ri kelib, nafaqat Movaraunnahr, balki butun Markaziy Osiyo o‘lkalari o‘z taraqqiyotining yangi pog‘onasiga ko‘tarilganligi,... shuningdek, bu davrda fan, madaniyat va san’at sohalarining rivojlanishi hamda tafakkur doirasining yuksalishi namoyon bo‘lganligi alohida ta’kidlandi.

Shuningdek, davlatimiz rahbarining ushbu nutqida «Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda», - degan so‘zi yangradi.

Darhaqiqat, shiddat bilan rivojlanayotgan hayotimizda ro‘y berayotgan yuksalish jarayonlari o‘zini barcha sohalarda namoyon etayotganligi, mustaqillikning dastlabki yillaridayoq milliy o‘zligimizni anglash, boy tarixiy-ma’naviy hamda ilmiy merosimizning asl mazmun-mohiyati yuzaga chiqarishga harakat qilingan bo‘lsa, endilikda xalqimiz jipslanib «milliy tiklanishdan – milliy yuksalish» g‘oyasini sobit qadamlik bilan amalga oshirishga kirishganligi alohida ta’kidlandi.

Ayniqsa, keyingi yillarda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, xalqimizning ma’naviy dunyoqarashini boyitish, milliy, ma’naviy, nomoddiy merosimizni asrab-avaylash va uni kelajak avlodga bezavol yetkazish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Yoshlarning ijtimoiy-ma’naviy faolligi ularning ahloqiy madaniyati milliy, ma’naviy, umuminsoniy qadriyatlar asosida amalga oshirilgandagina mazmunan yana boyiydi. Chunki, milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar, shuningdek, insonning jamiyatga bo‘lgan munosabatini shakllantirish, salbiy illatlarga qarshi nafrat uyg‘onish, ongli intizomni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish kabilar ahloqiy madaniyatning asosiy omillari hisoblanadi. Ahloqiy madaniyatni shakllantirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri insonni jamiyatga bo‘lgan munosabatini yuqori pag‘onaga ko‘tarish va ularning ijtimoiy-ma’naviy faolligini oshirishdir.

Bugungi kunning eng muhim vazifasi hayotimizning bar-

cha sohalarida, ayniqsa, yoshlarda mustaqil fikrlashni shakllantirish, ularni yangicha fikrlaydigan, qiyin vaziyatlarda mas'uliyatni o'z zimmasiga ola biladigan, hayot bilan hamqadam yurishga qodir, imoni pok, vijdonli, vatanparvar, bilimdon, ishbilarmon kelajak liderlarini tarbiyalashimiz darkor.

Yoshlar bilan ishlash masalalari alohida e'tiborni talab qiladi. Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishi, qanday ma'naviy-insoniy qadriyatlar egasi bo'lib voyaga yetishi, hayotga nechog'li faol munosabatda bo'lishi, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak.

Biz farzandlarimizning barkamol ruhiy dunyosi uchun ularning ma'naviy-ahloqiy jihatdan yetuk, jismonan sog'lom bo'lishi mustaqil fikrlashni shakllantirish uchun doimo qayg'urishimiz, kurashmog'imiz zarur.

Bugun yoshlar o'rtasida ma'naviy-insoniy qadriyatlar, milliy mentalitet, urf-odatlar va an'analarni targ'ib qilish har qachongidan ham muhimdir. Negaki, globallashuv jarayonida dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatorida O'zbekiston ham shiddat bilan dunyo hamjamiyatiga yuz tutmoqda. XXI asr intellektual salohiyat, tafakkur va ma'naviyat asri sifatida insoniyat oldida yangi-yangi ufqlar ochish bilan, biz ilgari ko'rmagan, duch kelmagan keskin muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bugungi zamona pedagoglardan, bugungi murakkab zamonda yoshlarga zamon ruhida ta'lim berish bilan bir qatorda, bashariyatning, Vatanimiz va xalqimizning ertangi kunini o'ylab, yoshlarni ezgulikka, insof-diyonat, mehr-oqibat va bag'rikenglikka da'vat etishga qaratilgan tarbiyaviy ishlarni ham amalga oshirishi talab etiladi. Inson aqli borasida Sharqda qaror topgan qarashlarga ko'ra, aql ikki xil, ya'ni tabiiy va kasbiy bo'ladi. Tabiiy aql insonga tug'ma in'om etiladi. Kasbiy aql esa o'qish, ilm olish va tajriba tufayli orttiriladi. Kasbiy aqlni shakllantirishdek sharafli va mashaqqatli vazifa aynan pedagoglar zimmasiga yuklatilgandir. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" kitobidagi "Tarbiyaning zamoni" bobida shunday jumlalar bor. "Emdi ochiq ma'lum

bo‘ldiki, tarbiyani tug‘ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlandurmak, fikrimizni nurlandurmak, axloqimizni go‘zallandurmak, zehnimizni ravshanlandurmak lozim ekan. Tarbiyani kimlar qilur, qayda qilinur?-degan savol keladur. Bu savolga “birinchi–uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidur. Ikkinchi - maktab va madrasa tarbiyasi, bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur”, deb javob bersak”. Aynan ana shu maktab va madrasa tarbiyasini avval ham, hozir ham muallim-pedagoglar amalga oshirib kelishgan.

Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan ma’naviy xususiyatlarni tarbiyalash uning eng asosiy qadriyat sifatidagi mohiyatini ta’minlaydigan qadimiy va abadiy qadriyat bu ma’naviy tarbiyadir.

Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, ma’naviy tarbiya masalasida hushyorlik va sezgirlik, qat’iyat va mas’uliyat yo‘qotilsa, bu o‘ta muhim ish o‘z holiga, o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yilsa, muqaddas qadriyatlarga yo‘g‘rilgan va ulardan oziqlanadigan minglab yillik milliy etnik asoslarga ega millat ma’naviyati va tarixiy xotirasidan ayrilib, oxir-oqibatda umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishi mumkin.

O‘zbekistonning taraqqiyot dasturi, uzoq va davomli maqsadlarni belgilashda xalqning moddiy va ma’naviy olamini yuksaltirish, yosh avlodni ajdodlar qoldirgan o‘lmas merosni chuqur o‘rganish, anglash, qadrlash bilan birga, umumbashariy qadriyatlar, zamonaviy ilm-fan cho‘qqilarini egallash ruhida tarbiyalash masalasi ustuvor vazifasi sifatida belgilab olingan. Chunki, ertaga kattalar o‘rnini bosadigan yoshlar aynan shunday oziqlangan zamidddnda voyaga yetgan taqdirdagina komil inson bo‘lib, haqiqiy tayanch va suyanchga, yengilmas ma’naviy kuchga aylanib, har qanday vaziyatlarda sinovlarga tayyor tura oladilar. Inson va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar ma’naviy tarbiya tufayli ajdodlardan asta-sekin tadrijiy ravishda avlodlarga o‘tadi. Ma’naviy tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib borilayotgantarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g‘oyalari, adabiyot, san’at, kino, ra-

dio, televidenie, OAV va boshqa faoliyatni ham o‘z ichiga oladi.

Yoshlar o‘rtasida umuminsoniy va milliy qadriyatlarimizni targ‘ib qilish, tarbiya va obob-ahloqni yuksaltirish masalalarida yuqori natijalarga erishishda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning o‘rni juda katta. Bu maqsadga erishish uchun ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni ta’lim jarayoni bilan uyg‘unlashtirish va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ma’naviy-ma’rifiy tarbiya samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning harakat qilish mexanizmlari va xususiyatlarini aniqlash, ulardan unumli foydalanish, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar orqali yoshlarni milliy va umumbashariy qadriyatlarga sadoqat rug‘ida tarbiyalash g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’naviy-ma’rifiy tarbiya samaradorligi yuqori bo‘lishi uchunularni tayyorlash va o‘tkazish jarayonida yoshlarda tarbiya va o‘zini o‘zi tarbiyalash hissini shakllantirish va rivojlantirish tashkilotchining diqqat markazida bo‘lishi kerak. Ta’lim tizimidagi ma’ruza, amaliy mashg‘ulotni ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar bilan uyg‘unlashtirish, bir tomondan, ta’lim samaradorligini oshirsa, ikkinchi tomondan, ta’lim va tarbiyaning uzviyligini ta’minlashga xizmat qiladi. ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tayyorlash hamda o‘tkazishga yoshlarni keng jalb qilish ularda tuyg‘udorlik hissini uyg‘otadi va bu holat o‘tkazilgan tadbirning tarbiyaviy samaradorligini yanada oshiradi. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlardan ma’naviy-ahloqiy tarbiyada samarali foydalanishning muhim sharti shuki, bunda har bir kishining xususiyatlari, muayyan voqea-hodisaga nisbatan fikri qay darajada shakklanganligini xisobga olish lozim. Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni rejalashtirish, tashkil qilish, tayyorlash va o‘tkazishga talaba-yoshlarni jalb qilish, ayniqsa mavzu tanlash, reja tuzish, ssenariy tayyorlash, tadbir o‘tkaziladigan xonalarni jihozlash kabi yumushlarni talabalarning o‘zlariga topshirish lozim. ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar samaradorligining oshishi o‘quv yurtlarida o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning reja va ssenariylari professor-o‘qituvchilar yoki o‘quv yurti xodimlari tomonidan tuzilgan taqdirda ularni talabalar muhokamasidan

o‘tkazish va muhokama jarayonida inobatga olinishiga ham bog‘liq. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida o‘quv yurtlarining ma’naviy-ma’rifiy muassasalar bilan hamkorligini mustahkamlashning ahamiyati katta. Bunday hamkorlik bir tomondan, ma’naviy-ma’rifiy muassasalarni auditoriyaya, tomoshabin bilan ta’minlashga, ikkinchi tomondan, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning ta’sirchanligini oshirishga ko‘maklashadi. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar samaradorligi tadbirlarning mazmunan milliy ma’naviy ahloqiy qadriyatlarimiz, milliy g‘oya va madaniyatimiz, merosimiz bilan uyg‘un holda hamda zamonaviy shakllar va interaktiv uslublar asosida tashkil etishga bog‘liq.

Bugungi kunda globallashuvning tobora avj olishi jahon xalqaro munosabatlar tizimida keskin o‘zgarishlar yuz bermoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan “Uchinchi Rennesans” davri nafaqat yoshlarda, balki, har bir shaxs va fuqaroda mas’uliyat hissini yuzaga keltirmay qolmaydi. Bu esa, o‘z navbatida, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot tizimini ta’sirchanligini yanada takomillashtirishni, davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish masalalariga jiddiy e’tibor qaratishni taqozo etadi. Bizningcha, oldimizga qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishda yuzaga kelgan siyosiy voqelikni atroflicha ilmiy tahlil etish; milliy, iqtisodiy, ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlash bilan bir qatorda axborot-mafkuraviy xavfsizlik masalalariga alohida e’tibor qaratish; yoshlarda ma’naviy immunitetni shakllantirishga oid innovatsion targ‘ibot uslublarini ishlab chiqish zarur bo‘ladi. Demak, yoshlarda axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi ma’naviy immunitetni shakllantirish maqsadida axborot xavfsizligini ta’minlash, tashqi xurujlar manbalarini aniqlash, baholash va bashorat qilish, davlat hokimiyati organlari va axborot-matbuot xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish, axborot sohasidagi milliy manfaatlarini kafolatli ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida sanab o‘tilgan muammolarni bartaraf etishda,

birinchidan, targ‘ibot-tashviqot tizimining yangi zamonaviy innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish;

ikkinchidan, tashqi va ichki siyosiy holatni milliy mafkura bilan bog‘lagan holda milliy manfaatlar negizida tahlil qilish

va baholash;

uchinchidan, ma'naviy-ahloqiy xavfsizlikni ta'minlashning ijtimoiy-siyosiy mexanizmlarini takomillashtirish;

to'rtinchidan, tahlil natijalarini transformatsiya qilish bo'yicha kommunikatsiyasi va infrastrukturasi tizimini rivojlantirish jarayonini amaliy o'rganish;

beshinchidan, muammoning bugungi ijtimoiy-ma'naviy islohotlarga daxldorligini atroflicha tahlil qilishga oid tizimli va fundamental ilmiy-amaliy tadqiqotlarni takomillashtirish muhim rol o'ynaydi.

Bugun dunyoga nazar soladigan bo'lsak, ijtimoiy tarmoq kuzatuvchilari yildan-yilga oshib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari qo'mitasi bergan ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda eng ko'p foydalaniladigan ijtimoiy tarmoq "Telegram" messengeri bo'lib, hozirda 18 million yurtdoshlarimiz undan foydalanishmoqda. Shuningdek, "Facebook" - 4,7 million, "Odnoklasniki" - 16,7 million, "Instagram" - 3,7 million, "Linkedln" – 288 ming, "Twitter" - 51,6 ming, "V kontakte" - 2,6 milliondan ortiq foydalanuvchilar mavvjud bo'lib, ularning ko'pchiligini yoshlar tashkil etadi. Bugun statistika, mamlakatimizda 34 millondan ortiq aholining 22 milliondan ortig'i ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishini ko'rsatmoqda.

Hozirgi kunda eski an'anaviy uslubdagi targ'ibotlar yoshlarimiz ehtiyojini qondirmaydi, ular bunday ma'ruzalarni tinglagisi kelmaydi. Chunki, fikrlash va tafakkur boshqa, aynan biror fan bo'yicha bilimga ega bo'lish boshqa. Fikrlash va tafakkur tabiiy aql mahsuli, bilim olish esa –bu ta'lim muassasi, pedagog faoliyati mahsuli. Yoshlarimizni fikrlashi va tafakkuri bundan 15-20 yil avvalgi yoshlarga nisbatan ancha baland va tezdir.

Agar bugun targ'ibotchi yoshlar bilan hamnafas fikrlamasa, zamon yangiliklariga va talablariga yoshlardanda tez bo'lmasa, uning ta'lim–tarbiya borasidagi faoliyati samarasiz bo'lib qoladi. Xalqimiz orasida "Yuz marta eshitgandan, bir marta ko'rgan yaxshi" degan ibora bor. Albatta bugun zamonaviy yoshlar ko'proq quloqlariga emas, ko'zlariga ishonishadi. Shuning uchun ham insonparvarlik va milliy qadriyatlari-

mizni yoshlarga singdirish, ayniqsa saxovat, mehr, muruvvat borasidagi targ‘ibotni yetkazishda televidenie, gazeta, jurnal, radiolarni ko‘proq ishga solish, ammo eng muhimi ijtimoiy videoroliklarga asosiy e’tiborni qaratmoq lozimdir. Mazkur videoroliklar qisqa metrajli (2-3 daqiqa, 30-50 mbdan oshmagan) bo‘lishi kerak, ammo shu qisqa vaqt mobaynida butun mazmun-mohiyatni ochib berishi kerak.

Shuningdek, aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida shukronalik, vatanparvarlik, qarindosh urug‘lar o‘rtasida o‘zaro mehr-oqibat, milliy va umuminsoniy, ahloqiy qadriyatlarni yuksaltirishga qaratilgan qisqa ammo mazmunli ssenariylar ishlab chiqish. Mazkur ssenariylar asosida milliy mentalitetimizni hamda ajdodlarimizdan bizgacha meros bo‘lib saqlanib kelayotgan boy ma’naviy-madaniy qadriyatlarimiz: ota-bolachilik, ona-bolachilik, jigarchilik, do‘stlik, sevgi va sadoqat, jigarchilik, silai rahm munosabatlarini o‘zida mujassam etgan 2-3 daqiqalik vaynlar tayyorlashga ham katta ahamiyat qaratish zarur.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bugungi kun ma’naviyat targ‘ibotchisi “Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq”, degan naqlga amal qilib, o‘z ustida tinimsiz ishlashi, izlanishi, targ‘ibotning zamonaviy shakllariga alohida e’tibor qaratishi va bu borada maqsadli ishlarni amalga oshirishi, ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “ETIKA” yoxud axloq-odob saboqlari. Akbar Allamov, Shahobiddin Murtazoyev, “Durdona” nashriyoti 2019-yil.

2. “Ma’naviyat” asosiy tushunchalar izohli lug‘ati, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2016-yil.

3. “Ma’rifat ziyosi” A.Abdullaev, L.Tursunov va boshqalar. “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2015-yil.

4. “Ma’naviyat” (asosiy tushunchalar lug‘ati), Q.Nazarov va boshqalar. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2021-yil.

5. Internet manbalaridan.

YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHIDA OAV NING O‘RNI

Gulnora AHMEDOVA,
tadqiqotchi

Annotatsiya: Mazkur maqola Yangi O‘zbekistonda millatlararo munosabatlarni rivojlantirishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni ochib berilgan. Bugungi kundagi ta’siri keng yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: axborot, erkinlik, tahdid, ma’naviyat, ma’rifat, jamiyat, totuvlik, bag‘rikenglik.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qoidalarining ustuvor yo‘nalishlaridan biri – jamiyatda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni ta’minlash, do‘stlik muhitini va ko‘p millatli katta yagona oila tuyg‘usini mustahkamlash va turmushga faol tatbiq etishdan iboratdir. Bu qoidalarda O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari millatidan qat’iy nazar O‘zbekiston xalqini tashkil etishini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi o‘zining hududida yashovchi millat va elatlarning tili, urf-odati va an’analariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni, ularni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini kafolatlaydi.

Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiya muqaddimasidayoq shunday yozilgan: “Biz, O‘zbekistonning yagona xalqi, inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e’lon qilib,... fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko‘p millatli jonajon O‘zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta’minlashni maqsad qilgan holda, ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e’lon qilamiz”(1).

Bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan 130 dan ziyod millat va elatlarning vakillari O‘zbekiston Respub-

likasining Konstitutsiyasi va qonunlari taqdim etgan teng huquq va imkoniyatlardan foydalanib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida va ijtimoiy sohada, ilm-fan va madaniyat sohalarida samarali mehnat qimoqdalar. Vatanimizning gullab-yashnashiga va uning mustaqilligini mustahkamlashga, respublikaning xalqaro maydondagi obro‘-e’tibori va imijini oshirishga munosib hissa qo‘shib kelmoqdalar.

Jahon tajribasidan ma’lumki, davlatlarning barqarorligi ko‘p jihatdan millatlararo munosabatlardagi turli muammolarni hal etish qobiliyatiga bog‘liqdir. Keyingi paytda globallashib borayotgan dunyodagi mojarolar, shu jumladan millatlararo nizolar kuchayotgan bir sharoitda har qanday ko‘p millatli davlat uchun millatlararo totuvlik hal qiluvchi omil sifatida muhim ahamiyatga ega. Zero o‘tmishdagi milliy siyosatda yo‘l qo‘yilgan xatolar, ta’lim, mehnat, boshqaruv sohalarida millatiga qarab kamsitish hollari, millatchilik xurofotlari va boshqa salbiy tushunchalar millat va elatlar o‘rtasida o‘zaro keskinlik va mojarolarni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablardir.

Dastavval. millatlararo munosabatlar tushunchasiga e’tibor qarataylik. “Millatlararo munosabatlar - mamlakat hududida istiqomat qiladigan turli millatlar va elatlar o‘rtasidagi, jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan munosabatlardir”(2).

Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: “fuqarolarning teng huquqliligi; ijtimoiy adolat; qonun ustuvorligi; millat va elatlarning madaniy, til va diniy qadriyatlari, an’ana va urf-odatlarini o‘zaro hurmat qilish; O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining, shu jumladan chet ellarda yashovchi fuqarolarining huquq va erkinliklarini himoya qilish” 3 demakdir.

Bu borada bir narsani ta’kidlash zarurki, milliy masalalar nafaqat davlatning ichki va tashqi siyosati hisoblanadi, balki jamiyat rivojlanishining barcha sohalarida ham muhim rol o‘ynaydi. Ko‘pmillatli davlatimiz millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish orqali jamiyatning etnik rivojini ta’min-

lashga harakat qilmoqda. O‘zini ijtimoiy davlat sifatida e’lon qilgan yangi O‘zbekistonda etnik muvozanatni ta’minlash esa jamiyatning siyosiy-huquqiy barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyotini belgilaydi. Ma’lumki, jamiyatda har bir millatning o‘ziga xos urf-odati, an’ana va qadriyatlari mavjudki, bu boshqalarda ularga nisbatan hurmat va e’tibor talab qiladi.

Ko‘pmillatli davlatimiz millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish orqali jamiyatning etnik rivojini ta’minlashga harakat qilmoqda. O‘zini ijtimoiy davlat sifatida e’lon qilgan Yangi O‘zbekistonda etnik muvozanatni ta’minlash jamiyatning siyosiy-huquqiy barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyotini belgilaydi. Ta’kidlash zarurki, hozirgi globallashgan dunyoda millatlar o‘rtasidagi hurmat, do‘stlik, totuvlik aloqalarini saqlash va mustahkamlash murakkablik kasb etmoqda.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq milliy ziddiyatlarning oldini olishga, millatlararo munosabatlarni yaxshilashga alohida e’tibor qaratildi. Har bir millatning o‘z aqliy va jismoniy qobiliyatini yuzaga chiqarishiga, o‘z ona tilida ta’lim olishiga keng imkoniyatlar yaratildi. Respublikamizda o‘sha yillarda milliy etnik belgilarga asoslangan holda milliy uyg‘onish jarayoni yuz berib, har bir hududda milliy-madaniy markazlar tashkil qilina boshladi. Ularning rolini va ahamiyatini oshirish, milliy munosabatlarni yaxshilashda jamiyat hayotiga chuqurroq kirib borishi uchun targ‘ibot-tashviqot ishlari yo‘lga qo‘yildi.

Millatlararo munosabatlar sohasida davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan o‘zaro hamkorlik darajasini yanada oshirish maqsadida 2019-yilning 15-noyabrida davlatimiz rahbarining “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Mazkur hujjat asosida millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyo¬sati konsepsiyasi tasdiqlandi. Ushbu sohada davlat siyosati amalga oshirilishi uchun mas’ul bo‘lgan davlat organlari faoliyati ustidan jamoat nazoratini kuchaytirish maqsadida parlament va jamoat nazorati mexanizmi ham yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, qo‘mita huzurida mil-

latlararo munosabatlar sohasida davlat siyosati amalga oshirilishi uchun mas'ul bo'lgan davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 25-dekabrdagi qaroriga muvofiq jamoatchilik kengashi tashkil etildi.

Prezidentimiz tomonidan imzolangan "Xalqlar do'stligi kunini belgilash to'g'risida"gi qonun bilan O'zbekistonda 30 iyul – Xalqlar do'stligi kuni etib belgilandi. Mamlakatda millatlararo totuvlik va yagona katta oila muhiti tuyg'usini mustahkamlash, O'zbekistonning millatalararo totuvlikni mustahkamlash sohasidagi obro'sini keng targ'ib qilish va dunyo hamjamiyati oldidagi ijobiy imijini oshirish maqsadida yurtimizda ushbu sanaga bag'ishlab "Do'stlik" haftaligi va "Do'stlik xalqaro forum-festivali tashkil etib kelinmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 1 iyundagi "Xalqlar do'stligi" ko'krak nishonini ta'sis etish to'g'risida"gi qarori milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlari vakillari mehnatini munosib rag'batlantirishning muhim asosiga aylandi.

Ommaviy axborot vositalarining millatlararo munosabatlarni mustahkamlashda o'rni katta. Chunki matbuot, radio, televideniya va ijtimoiy tarmoqlar o'ziga xos usullar bilan kishilar ruhiyatiga va ongiga ta'sir ko'rsatuvchi, jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi vositadir. Shu jihatdan olib qaraganda, OAVlar turli millat va elatlarga mansub madaniy qadriyatlarni tarannum etadi, ularni saqlanib qolinishiga hissa qo'shadi va ommani bunday ma'lumotlar bilan yaqindan tanishtiradi. Bir so'z bilan aytganda, jamiyatda millatlararo munosabatlarni mustahkamlanishiga, odamlar ruhiyati va ongida milliy totuvlik g'oyasini singdirishda OAVlarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Shu bois mustaqillikning dastlabki yillaridanoq hukumat tomonidan chiqarilgan me'yoriy hujjatlar nafaqat ommaviy axborot vositalarida tashkiliy-tuzilmaviy o'zgarishlarni nazarda tutdi, balki ularda ko'p millatli davlatda ommaviy axborot vositalarini milliy barqarorlik hamda diniy bag'rikenglikni targ'ib qilishga undovchi kuchli vositaga aylantirish belgilab qo'yildi. O'zbekistondagi har bir fuqaroning sha'ni, qadr-qimmatini, qonuniy huquqlari hamda erkinligini

himoya qilish, millatlararo munosabatlarda osoyishtalik, hamjihatlikni ta'minlash, do'stlik va tinchlikni mustahkamlashga xizmat qilish, millatidan, irqiy mansubligidan, g'oyaviy va diniy e'tiqodlaridan qat'i nazar, kishilarni bir-biriga nisbatan teng hurmat bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash – televideniye va radio faoliyatining asosiy vazifa hamda yo'nalishlaridan biri qilib belgilandi. Shuningdek, ularda mustaqil O'zbekiston fuqarolarining axborot olish huquqlarini to'liq ta'minlash, davlat siyosatini odilona yoritish bilan birga, mamlakatning turli millat vakillari o'zaro teng va hurmat bilan munosabatda bo'lishi kabi masalalarda ham jurnalistlar faolligiga alohida urg'u berildi. [2, 89-90].

Ayni kunda ham O'zbekiston Respublikasi davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligi, millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosatini amalga oshirish masalalarini yorituvchi ommaviy axborot vositalarini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Turli millatlar va elatlarning tillarida nashr etiladigan ommaviy axborot vositalari rivojini qo'llab-quvvatlash, ularda vatanparvarlik, millatlararo bag'rikenglik mavzularidagi, oilaviy qadriyatlarni, millat va elatlarning O'zbekistonda yashab o'tgan va istiqomat qilayotgan, jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga bebaho hissa qo'shgan atoqli namoyandalari ma'naviy-madaniy va ilmiy merosini targ'ib qiluvchi materiallarni yoritish amaliyoti kengaytirilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda teleradioko'rsatuv va eshittirishlar 12 tilda efirga uzatilmoqda, gazeta va jurnallar 10 dan ortiq tillarda chop etilmoqda4. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda 12 tilda ommaviy axborot vositalari ish olib borayotgan bo'lsa, shundan 502 atamada o'zbek tilida, 164 tasi ikki va undan ortiq tillarda, 84 tasi 3-4 tillarda (o'zbek, rus, qoraqalpoq, tojik) chop etilmoqda (5).

O'zbekistonda boshqa millat markaziy nashrlaridan koreys tilida «Kore Sinmun», tojik tilida «Ovozi Tojik», qozoq tilida «Nurli jol» gazetalari chop etilmoqda. Boshqa millat vakillari ko'pchilikni tashkil qiluvchi hududlarda o'sha millat tilida gazetalar chop etilmoqda. Masalan, Samarqand viloyatida tojik tilida «Ovozi Samarkand», Farg'ona viloyatida «Is-

ZJV5401

tiqlol yo‘li» va «Sadoi Sux» gazetalari chop etilmoqda. Hozirgi vaqtda Qoraqalpog‘iston Respublikasida 38 gazeta (shundan 5 tasi respublika, 4 tasi xususiy, 15 tasi tuman,14 tasi sohaviy), 6 jurnal va 1 axborot agentligi bo‘lib, gazeta va jurnallar qoraqalpoq, o‘zbek, rus, ingliz tilida, shuningdek turkman tilida yagona “Mekan” gazetasi chop etilmoqda (6).

Ommaviy axborot vositalarining millatlararo munosabatlarni tartibga solish va uyg‘unlashtirish imkoniyatlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ommaviy axborot vositalarining o‘rni va ta’sirining keng ko‘lamlidir. Agar biz ommaviy axborot vositalarining tinchlikparvarlik salohiyati haqida gapiradigan bo‘lsak, unda ular:

- aholining turli millat vakillari o‘rtasida muloqot qilish imkoniyatini ta’minlaydi;

- tinch va totuv yashash yo‘lida ishonch muhitini yaratish, millatlararo munosabatlardagi mavjud muammolarni hal etishga yordjam beradi;

- millatlararo munosabatlardagi muammolarning konstruktiv yechimlarini izlash jarayoni haqida aholiga ma’lumot beradi.

O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalarining so‘z erkinligi tushunchasini, tijorat va davlat ommaviy axborot vositalarining rivojlanish tendensiyalarini, ularning etnik o‘ziga ta’sirini jiddiy o‘rganish va chuqur tahlil qilish dolzarbligi va zarurligini ko‘rsatadi.

Xalqlar ongi va ularning farovonligi, millatlararo munosabatlarning rivojlanishi va mamlakatdagi etnik-siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda ham respublika, ham mintaqaviy darajada ommaviy axborot vositalari faoliyatini siyosiy va huquqiy tartibga solish omillarini o‘rganish muhimdir. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalarining mamlakatimiz uchun yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda millatlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirish uchun davlat hokimiyati organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan milliy madaniy markazlar bilan muayyan munosabatlarni o‘rnatish tajribasini ko‘rib chiqish zarur. Demak, nafaqat millatlararo munosabatlar sohasida, balki butun davlatda barqarorlik-

ni saqlashning samarali mexanizmlari va texnologiyalarini ishlab chiqish uchun millatlararo munosabatlar va ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Shularni hisobga olgan holda:

- so‘nggi yillarda mamlakatimizda va jahonda ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy-iqtisodiy o‘zgarishlarni hisobga olgan holda davlatning milliy siyosati konsepsiyasini va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish;

- millatlararo munosabatlarni bag‘rikenglik bilan yoritish bo‘yicha yondashuv va mexanizmlarni ishlab chiqish uchun davlat hokimiyati organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, milliy madaniy markazlar, butun aholi bilan OAV hamkorligining yaxlit tizimini shakllantirish;

- millatlararo nizolarning o‘z vaqtida oldini olish va tartibga solish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimini shakllantirish;

- O‘zbekistonda istiqomat qiladigan kam sonli xalqlar tillarida nashr etiladigan ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan moliyaviy yordam ko‘rsatishni kuchaytirish;

- O‘zbekiston hududida yashovchi kam sonli xalqlarning hayoti, an’analari va madaniyatini yorituvchi telekanal faoliyatini rivojlantirish;

- ommaviy axborot vositalari va milliy madaniy markazlarning samarali faoliyatiga ko‘maklashish maqsadida fuqarolik jamiyati institutlari va davlat organlari o‘rtasida muvofiqlashtiruvchi organ sifatida Jamoatchilik kengashini tashkil etish;

- bag‘rikenglik, hamjihatlik va xalqlar do‘stligi g‘oyalarini targ‘ib qilish uchun reklamalardan keng foydalanish; xalqlar va millatlararo munosabatlar rivojiga oid tahliliy nashrlar sonini ko‘paytirishni rag‘batlantirish;

- axborot makonini va xalqlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash maqsadida internet resurslaridan keng foydalanish.

Shunday qilib, yuqoridagi chora-tadbirlarni amalga oshirish O‘zbekiston xalqlarining etnik o‘zini o‘zi anglashi va farovonligini oshirishga, mamlakatdagi etnosiyosiy vaziyatni ta-

komillashtirishga davlatchiligini mustahkamlashga yordam beradi. Ko‘p millatli O‘zbekiston xalqining birligini, millat va elatlarning tiliga, huquqiy maydon doirasidagi urf-odatlari va an’analariga izzat-hurmat munosabatini mustahkamlash, ularning to‘la huquqli rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishga ko‘maklashadi. Bu esa respublikaning barcha millat va elatlari sa’y-harakatlarini olijanob g‘oya - mamlakat suverenitetini mustahkamlash va barqaror rivojlantirish, davlatning hududiy yaxlitligini mustahkamlash maqsadlariga erishish g‘oyasi atrofida birlashtirish, kuchli va adolatli fuqarolik jamiyatini va demokratik huquqiy davlatni shakllantirish jarayonlarida ularning faol ishtirokini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Pespublikasi Konstitutsiyasi. Muqaddima. B.1-2.

2. Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati Konsepsiyasi, 1 -bob, 2-bo‘lim (O‘zR Prezidentining 15.11.2019 y. PF-5876-son Farmoniga 1-ilova)

3. Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati Konsepsiyasi, 2 -bob, 6-bo‘lim (O‘zR Prezidentining 15.11.2019-y. PF-5876-son Farmoniga 1-ilova)

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Millatlararo munosabatlar va xorijiy

4. “Xalq so‘zi” gazetasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “millatlararo mnosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi Farmoni. 2017 yil 23 may. №101 (6795)

5. Sabirova L. “O‘zbekiston OAVlarining rivojlanishi va ularning millatlararo munosabatlarni mustahkamlashdagi o‘rni (1991-2005 yillar). T.f.n....diss. T.: 2010. B.134.

6. Seytimbetova N. “Ommaviy axborot vositalarining millatlararo munosabatlarni mustahkamlashdagi faoliyati”. Berdax nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining axborotnomasi. 2021 yil. №3(52). B.187.

IJODIY-MADANIY ISHLAR BO‘YICHA TARG’IBOTCHI FAOLIYATIDA “TALQIN” USULIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Jumanov Sherzod Saloyevich,
Samarqand davlat chet tillar instituti
tayanch doktoranti

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasining 2021 yil 20 apreldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ’ibotchi lavozimini amaliyotga joriy etish to‘g’risida”gi qo‘shma qarori bilan ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ’ibotchi lavozimiga taniqli shoir, yozuvchi, jurnalist va ijodkorlar, jumladan, ijodiy salohiyatga ega bo‘lgan ona tili va adabiyot o‘qituvchilarini umumiy o‘rta ta’lim maktablariga biriktirildi[1;8-bet].

Ushbu targ’ibotchilar umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning subektlari sifatida tarbiyaviy-ta’limiy-rivojlantiruvchi faoliyatlarini boshladilar.

Umumta’lim maktablari badiiy-ijodiy to‘garaklari oldida turgan tarbiyaviy vazifalar turkumiga: o‘quvchilarda mustaqil badiiy estetik, did, san’atga muhabbat tuyg’ularini shakllantirish; “ommaviy madaniyat”ning asl mohiyati, shakl va ko‘rinishlarini tushuntirish; o‘quvchilar ongi va qalbi uchun kurashish; ularni yot, buzg’unchi g’oyalardan himoya qilish; milliy istiqlol mafkurasining mohiyati va asosiy tamoyillari asosida yashash va ishlashga o‘rgatish; Yangi O‘zbekistonda kechayotgan islohotlar mohiyatini uqtirish; milliy urf-odatlarimiz va an’analarimizga sadoqatni shakllantirish; yuksak ma’naviyat va ma’rifatga doir ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirish; ijodkorlik, erkin va mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish; ustozlarga hurmat, ularni e’zozlash, barcha jabhalarda o‘quvchilarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ongli ravishda rioya etishini tarbiyalash singari harakatlar kiradi.

Ijodkor o‘quvchilarda his-tuyg’u madaniyatini, obrazli va abstrakt tafakkurni, tasavvurni o‘stirishda badiiy faoliyatning

ahamiyati beqiyosdir. Musiqa - borliqni kuy, ohang, tovushlarning tovlanishlarida, badiiy adabiyot – so‘zning ifoda vositasi sifatida yanada qudratli badiiy ta’sir kuchini namoyon qiladi. Zero so‘zlarda ifodalangan obrazning asosida tushuncha yotadi va u, birinchi navbatda, aql orqali idrok qilinadi. Shuning uchun ham, adabiyot ma’naviy nafosatni, bunyodkor g’oyalar go‘zalligini anglatishga qaratilgan muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Kino va televidenie o‘zlarida barcha san’atlarning imkoniyatlarini va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning eng yangi yutuqlarini mujassamlashtiradi. Umumiy o‘rta maktablardagi ijodiy to‘garaklar va turli madaniy-ma’rifiy tadbirlarda qatnashish o‘quvchilarni real badiiy-estetik jarayonlarda ishtirok etishga, yangiliklar yaratishga undaydi, ularning ijodiy kuch-quvvatini yuzaga chiqaradi, g’oyaviy taassurotlarini uyg’otadi. Kuzatuvlarimiz to‘garaklarga jalb qilingan o‘quvchilar badiiy faoliyat jarayonida badiiy obrazlar yaratish bilan bevosita bog’langan adabiyot, musiqa sahna asarlaridagi go‘zallikni yaxshi his qilishlarini ko‘rsatdi. Bularning barchasi mazkur imkoniyatlardan unumli foydalanish uchun badiiy to‘garaklar faoliyatini artpedagogik asosga qurishni taqozo qiladi.

Badiiy-ijodiy to‘garaklarga artpedagogik yondoshish hamda pedagog olim Sh.Mustafayev tomonidan ishlab chiqilgan va asoslangan suggestiv modulli texnologiyasi bu borada yuqori samaradorlikka ega [2;49-bet]. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, ijodiy madaniy faoliyatning artpedagogik suggestiv ta’sir imkoniyatlari ijodiy madaniy targ’ibotchilarda kasbiy ma’naviy kompetensiyalarni rivojlantirishga artpedagogik nuqtayi nazardan yondoshuv foydali, deb hisoblaymiz. Jumladan, artpedagogikaning inontirish metodini qo‘llashda buyuk allomalarimiz, mehnat qahramonlari, obro‘li shaxslar, san’atkorlar u yoki bu masalaga qanday munosabatda bo‘lganligi tasvirlanib, undan ibrat, qiyos olishga, taqlid qilishga da’vat qiladi. Ijodkor, iqtidorli o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ilmiy, faktik ma’lumotlar bilan cheklanib qolmasdan, buyuk ajdodlarimizning badiiy obrazlari yaratiladi. Jumladan “Talqin” metodi orqali ularga hurmat, ehtirom, muhabbat, ixlos, taqlid orqali ham ijodiy, ham ma’naviy-axloqiy samaralarga erishiladi.

Artpedagogik jarayon ijodkor o‘quvchilar va ijodiy madaniy targ’ibotchining o‘zaro hamkorlik munosabatlarining hosilasi sifatida o‘z badiiy va pedagogik natijalariga ega bo‘ladi. Bunda ta’lim va tarbiya jarayonlarida sub`ekt, ya’ni Ustoz - shogirdga, professor-o‘qituvchi - talabaga biror ijodiy g’oya, mavzuni tushuntirish, suhbat, mashq, uqtirish, ijro qilib ko‘rsatish, ishontirish, inontirish, rag’batlantirish metodlarini qo‘llashda san’at vositasidan foydalanishda namoyon bo‘ladi.

Erishiladigan artpedagogik natijada targ’ibotchi istagan mazmun, obraz o‘quvchining badiiy tafakkuri predmetiga aylanadi, uning badiiy obrazlari galereyasiga ko‘chadi, ijodiy mashq, xatti-harakatlarida, xulqida namoyon bo‘la boradi. Bunday ijodiy madaniy yondoshuvning roli, vazifasi, funksiyasi, imkoniyatlari nimalarda namoyon bo‘ladi? Masala shundaki, agarda artpedagogika ishtirok etmasa, badiiy ta’lim-tarbiya jarayonlarida asosan ratsional tushuntirish, ishontirish jarayonlari kechadi, xolos. Shu bois L.S.Vigotskiy “bizning ijtimoiy hayotdagi mavjudligimizning eng maxfiy, eng shaxsiy tomonlari” deb estetik taassurotlarning boy manbasi bo‘lgan borliqning badiiy ifodasini ta’riflagan edi. U: “san’at ma’naviyatning in’ikosi va badiiy shakli sifatida o‘ta murakkab va ko‘p qirrali hodisadir. Unda talaba shaxsiga ta’sir qiladigan axloqiy, estetik omillar uzviy birikib ketadi”, – degan edi [3; 197-bet].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Xafizov, T.Arslonov, Sh.Jumanov, A.Halimov, B.Aminov, M.Zohidova. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ’ibotchilari uchun uslubiy qo‘llanma. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi. 2021. 40 b.

2. Mustafayev Sh. Artpedagogika asoslari. Samarqand, SamDU. 2022. –80 b.

3. Выготский Л. С. Мышление и речь. М.-Л.: Соцэкгиз, 1934. - 362 с.

JAMIYATDA G‘OYAVIY BIRDAMLIKNI TA’MINLASHDA YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING AHAMIYATI

Sayidov Magmud Hamidovich,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Avtomaktablar xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi boshlig‘i

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamiyatda g‘oyaviy birdamlikni ta’minlashda yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ahamiyati haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida g‘oyaviy birdamlikni ta’minlashda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ahamiyati haqidagi fikrlar yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: Jamiyat, tafakkup, tarbiya, ta’lim, strategiya, ma’naviyat, ma’rifat, taraqqiyot, g‘oyaviy birdamlik, fazilat, qadriyat.

Insoniyatning ko‘p asrlik tarixi shundan dalolat beradiki, dunyoda o‘zining milliy davlatini qurishga azmu qaror qilgan har qaysi xalq ulug‘ va yuksak vazifalarni amalga oshirish, shu yo‘lda odamlarni birlashtirish va safarbar qilishda g‘oyaviy birdamlikni asosiy tayanch va suyanch deb biladi. Shu o‘rinda, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida – jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida g‘oyaviy birdamlikni ta’minlovchi strategiya sifatida ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekistonda mustaqillikning ilk davridan boshlab ijtimoiy masalalarni qamrab oluvchi chuqur o‘zgarishlarni amalga oshirish, rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olish, demokratik jamiyat qurish kabi ezgu maqsadlarni qo‘ydiki, bu esa jamiyatimizning ijtimoiy ma’naviy poydevorini mustahkamlashga zamin yaratadi. Zero, vatan manfaatlari yo‘lida yot mafkuralar tajovuziga qarshi tura oladigan, jamiyat a’zolarida mustahkam e’tiqodni shakllantirish orqali ularni yanada jipslashtirib, mamlakat fuqarolari o‘rtasida o‘zaro totuvlik va bir-

damlik muhitini shakllantirish ehtiyojini yuzaga keltirdi. Shu o‘rinda, xalqimizni birlashtiradigan, bunyodkorlik faoliyatiga safarbar etuvchi uning ezgu maqsadlari va hayotiy manfaatlarini o‘zida mujassasamlashtirgan milliy birlashuv g‘oyasini yaratish ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy taraqqiyotimizning muhim shartiga aylanmog‘i lozim. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: “jamiyatimizda hukm surayotgan o‘zaro do‘stlik va hamjihatlikni yanada rivojlantirish, qaysi millat, din va e’tiqodga mansubligidan qat’iy nazar, barcha fuqarolar uchun teng huquqlarni ta’minlash e’tiborimiz markazida bo‘ladi. Ularning o‘rtasiga nifoq soladigan ekstremistik va radikal g‘oyalarni tarqatishga O‘zbekistonda mutlaqo yo‘l qo‘yilmaydi”(1), – deya ta’kidlagan edi. Zero, jamiyat oldida turgan ezgu maqsadlarga erishish, milliy o‘zlikni qayta anglash, unga rahna soluvchi turli “madaniyat”lar xurujidan himoyalanish, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan avlodni voyaga yetkazish zarurati zamon talablariga mos yangi milliy g‘oyani shakllantirishni taqozo etmoqda.

Tarixdan ma’lumki, dunyoda o‘zining milliy davlatini barpo etishni niyat qilgan har qaysi halq va millat o‘zining maqsad va orzu intilishni amalga oshirishda bevosita g‘oyaviy birdamlik muhim ahamiyat kasb etadi.

G‘oyaviy birdamlik – mamlakat va xalqni buyuk maqsadlari sari chorlovchi, safarbar etuvchi mayoqdir. G‘oyaviy birdamlik ixtiro etilmaydi. Har davrning, har bir xalqning o‘z kamolot g‘oyalariga ega bo‘lishi - qonuniyat. Shu nuqtayi nazardan g‘oyaviy birdamlik millat uyg‘un kamolotining, komilliy-ma’naviy-ma’rifiy istiqbol sari intilishining ma’naviy ruhiy, axloqiy asosi, bosh maqsad taktik yo‘li hamda strategiyasi (2) hisoblanadi.

Uzoq o‘tmishdan hozirgi davrgacha milliy tafakkurimiz negizida shakllanib kelgan, turli g‘oya va amaliy harakatlarda o‘z ifodasini topgan el-yurtimizning orzu-umidlari bugungi kunda Yangi O‘zbekiston tushunchasida jamuljam bo‘ldi.(3) Yangi O‘zbekiston g‘oyasi atrofida mamlakatimiz yoshlarini g‘oyaviy birdamlikni shakllantirish chuqur ma’naviy yangilanish jarayonlari, mamlakat taraqqiyotini, uning strategik

maqsadlarini belgilaydigan o‘zgarishlarning qonuniy va zaruriy natijasi sifatida, tarixiy jarayonlarning hosilasi, tabiiy va ma’naviy ehtiyoj tarzida namoyon bo‘lmoqda. Bu jarayonning nazariy va amaliy masalalari bilan bog‘liq mohiyatini atroflicha yoritish, demokratik jamiyat barpo etishda muhim ahamiyatga ega. Zero, demokratik tamoyillarga asoslangan davlat qurish masalasini o‘rganish milliy davlatchilikni takomillashtirish, mustaqillikni mustahkamlash sharoitida yanada dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib qoladi. Chunki u xalqimizning manfaati va maqsadlarini o‘zida ifoda etadi.

Shuning uchun ham g‘oyaviy birdamlikning O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishdagi o‘rni va ahamiyatini, taraqqiyot strategiyasida – jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida g‘oyaviy birdamlikni ta’minlovchi strategiya sifatida uning o‘ziga xos jihatlarini tadqiq etish, ularni rivojlantirish va takomillashtirishning aniq yo‘llarini belgilash imkonini beradi.

Bu esa:

Birinchidan, ilmiy manbalardagi mavjud fikrlarga tayangan holda g‘oyaviy birdamlik tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlash, uning o‘zaro aloqasi va ijtimoiy-falsafiy ta’riflarini berish, o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish;

Ikkinchidan, g‘oyaviy birdamlikning xususiyatlari shundaki, u faqat ajdodlardan qoldirilgan merosni o‘zlashtirish, urf-odat, an’ana va qadriyatlarni tiklash bilan cheklanmaydi, ular bilan birga milliy davlat- chilik asoslarini mustahkamlash, iqtisodiy-siyosiy muammolarni hal qilish zaruriyatini anglashni ham o‘z ichiga oladi.

Uchinchidan, “Ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasining O‘zbekistonda demokratik jamiyat shakllanishidagi o‘rni beqiyosdir. Shu ma’noda, O‘zbekistonda milliy – ma’naviy taraqqiyot modeli va g‘oyaviy birdamlikning o‘zaro aloqadorligi, uzviy bog‘liqlikni nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatini tahlil etish nihoyatda muhim.

To‘rtinchidan, komil inson g‘oyasi qadimdan xalqimizning ezgu orzusi va milliy falsafamizning markaziy masalalaridan biri bo‘lib kelgan. Barkamol inson haqidagi yuksak g‘oyalar buyuk mutafakkirlar asarlarida ayniqsa teran ifoda etilgan.

Milliy istiqlol sharoitida o‘tmish ajdodlarimizning siyosiy axloqiy va ijtimoiy g‘oyalarini har tomonlama o‘rganish va bugungi global ma’naviy – mafkuraviy tahdidlar kuchayotgan bir vaqtda yoshlarda g‘oyaviy birdamlik tamoyillariga amal qilishga o‘rgatish, ularning dunyoqarashida g‘oyaviy birdamlikda belgilab berilgan dasturiy vazifalarni singdirish, o‘zlikni anglash hissining ta’minlash dolzarb vazifalardandir.

Shuni e’tiborga olish kerakki, g‘oyaviy birdamlikni targ‘ib qilish uni chuqur ilmiy tahlil qilish, xususan uning falsafiy-ilmiy maqomini tadqiq etish, ijtimoiy zarurligini mantiqan asoslash bilan birga amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

G‘oyaviy birdamlik tushunchasini tahlil qilishga kirishar ekanmiz, uni millatning ijtimoiy voqeligini, ya’ni uning hayot kechirish shart-sharoitlarini va, birinchi navbatda, tarixan shakllangan moddiy va ma’naviy qadriyatlar sistemasini, orzu-umidlari, maqsad va intilishlarini aks ettiruvchi fikrlar majmuasi ekanligini qayd etishimiz zarur. G‘oyaviy birdamlikga bergan aniq, ravshan, umumlashtiruvchi quyidagi ta’riflarini keltirib o‘tish nihoyatda muhimdir: “G‘oyaviy birdamlik degan ajdodlardan avlodlarga o‘tib, asrlar davomida e’zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma’naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, xalqni jipslashtiradigan va mushtarak maqsad asosida safarbar etadigan, ta’bir joiz bo‘lsa, har qaysi millatning eng orzu-intilish va umid maqsadlarini o‘zimizga tasavvur qiladigan bo‘lsak, o‘ylanmanki, bunday keng ma’noli tushunchaning mazmun mohiyatini ifoda qilgan bo‘lamiz”(1) .

“Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati”da, g‘oyaviy birdamlikga quyidagicha ta’rif berilgan bo‘lib: 1) millatning o‘tmishi, buguni va istiqbolini o‘zida mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g‘oya shakli; 2) Mustaqillik yillarida shakllangan, o‘ziga xos falsafiy asosi, ilmiy nazariy va tarixiy ildizlariga ega yaxlit ta’limot (5).

G‘oyaviy hamjihatlik obyektiv chinlikning, ya’ni haqiqatning yuqori darajasi va shuning uchun ham bilimning ideali hisoblanadi. Boshqa tafakkur shakllaridan farqli o‘laroq, u pred-

ZJV5401

metni nisbatan chuqurroq ifodalaydi, unga to‘laroq mos keladi. G‘oyaviy birdamlikning, “mafkuraning hayotiyligi uning xalq tabiatiga, turmush va tafakkur tarziga nechog‘li mos bo‘lishi. Eng muhimi, jamiyatning milliy manfaatlarini, orzu – intilishlarini qay darajada aks ettirishi bilan o‘lchanadi”(3).

G‘oyaviy hamjihatlik, ma’lum bir jihatdan, unda qonuniyatning aks etishi bilan bog‘liq. Zero, insonning muro-maqsad bilan yashashi, jamiyatning demokratiya va progress yo‘lidan ilgarilab borishi qonuniy hodisadir. Ana shuning uchun ham har bir xalq, har bir davlat o‘z manfaatlaridan kelib chiqib, ayni paytda, sivilizatsiyaning umumiy rivojlanish qonuniyatlari, tendensiyalarini hisobga olib, o‘z taraqqiyot yo‘lini, kelajagini g‘oyaviy birdamliksi, mafkurasi orqali belgilashga harakat qiladi.

G‘oyaviy hamjihatlik amalga oshishi, borliqqa aylanishi kerak bo‘lgan nazariy bilimdan iborat. G‘oyaning obyektiv mazmuni suyektning maqsadlari, intilishlarini ifoda qilishi, uning ehtiyojiga aylanishi va amaliy faoliyatida yuzaga chiqishi, reallashishi zarur.

G‘oyaviy hamjihatlik amalga oshishi uchun texnik vositalar, kishilarning ko‘nikma va malakalarining bo‘lishi bilan bir qatorda ma’naviy vositalar, xususan, emotsiyalarining bo‘lishi ham talab qilinadi. G‘oyaviy birdamlik, milliy istiqlol mafkurasi millatning, xalqning qalbidagi o‘y-fikrlarini, xalqimizga xos bo‘lgan muqaddas tuyg‘u va tushunchalarni mujassam etgan bo‘lishi; odamlarning buyuk maqsadlari sari intilishlari, ularning turmushi mazmunini ifoda etishi zarur. Buning uchun g‘oyaviy birdamlik, mafkura xalqning ongiga singishi, unda mustahkam o‘rin olishi, “o‘tda yonmaydigan, suvda cho‘kmaydigan o‘lmas e’tiqodga” mustahkam irodasiga aylanishi, kishilarni buyuk kelajakni yaratish ishiga safarbar etishi kerak.

Insonda g‘oyaviy hamjihatlik amalga oshirishga yo‘naltirilgan qat’iyatlik pishib yetilgan, uni hayotga joriy etish rejasi yaratilgan taqdirdagina, u reallashadi. Ya’ni imkoniyatdan voqelikka aylanadi. Ana shuning uchun ham g‘oyaviy birdamlik, mafkurani xalqning e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchiga aylantirishi ta’lim va tarbiyaning muhim vazifasini tashkil etadi. Xususan, hozirgi paytdagi eng dolzarb masala jamiyatimizda sodir bo‘layotgan demokratik o‘zgarishlarning, ijtimo-

iy jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, g‘oyaviy birdamlik, mafkuraning turli qirralarini ochib berish, uni keng jamoatchilikka, birinchi navbatda yoshlarga sodda, lo‘nda qilib tushuntirib berish, shu asosda ularni yangi jamiyat qurishning faol ishtirokchilariga aylantirishdan iborat.

G‘oyaviy hamjihatlik metodologik nuqtayi nazardan olib qaraganda, suyekt o‘z faoliyatida qo‘llaydigan prinsiplar, u bo‘ysunadigan qoidalar tarzida mavjud. G‘oyaviy birdamlikni tashkil etuvchi tushunchalar mazmunidan kelib chiqib, ularni amalga oshirish qoidalari, metodologik vositalari yaratiladi. Ular komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik prinsiplaridir. Ularni ma’naviy-ma’rifiy, ta’lim tarbiya ishlarida qo‘llash yosh avlod ongi, qalbiga g‘oyaviy birdamlik mazmunini singdirishga, ularni yetuk dunyoqarash egalari, bir so‘z bilan aytganda – komil inson etib tarbiyalashda yaxshi samara beradi (4).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Ma’rifatli jamiyat konsepsiya va uni amalga oshirish bo‘yicha 2022 – 2032-yillarda ma’naviy taraqqiyot strategiyasi dasturini ishlab chiqish vazifasi kun tartibiga qo‘yildi.

Bunda:

- O‘zbekistonning ma’naviy-ma’rifiy sohadagi bugungi taraqqiyoti va istiqbolini belgilaydigan strategik tamoyillarni yaratish;

- mamlakatimizning yangi, demokratik qiyofasini shakllantirishda g‘oyaviy-ma’naviy omillar ta’sirini oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamlash;

- turli ma’naviy buzg‘unchilik, vayronkorlik harakatlari va xurujlarning oldini olish, yoshlarni milliy o‘zlik, ajdodlar merosi va ma’naviy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish;

- inson kapitalini yuksaltirish va ma’rifatli jamiyatni shakllantirishda tarixiy meros va zamonaviy taraqqiyot tendensiyalaridan samarali foydalanishga qaratilgan istiqboli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash, o‘sib kelayotgan avlodning yosh xu-

susiyatlari va intilishlarini o‘zida aks ettirgan ma’naviy tarbiya asoslarini kuchaytirish, bu borada sohaga innovatsion faoliyatni keng joriy etish bo‘yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqish;

- axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan faoliyatni takomillashtirish, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash, millatlar va konfessiyalararo hamjihatlikni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosatini izchil amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish. Yangi O‘zbekiston – mamlakatimiz mustaqilligini yanada mustahkamlash, erkinlik va ozodlikning yangi davri, bunyodkorlik va farovonlik yo‘lining yuqori bosqichidir. Yangi O‘zbekiston – bu “Xalq manfaati hamma narsadan ulug‘” degan ezgu g‘oya amaliy ishlar bilan o‘z tasdig‘ini topayotgan zamondir (5). Zero, millat taqdiriga daxldor bo‘lgan ijtimoiy hamkorlik va hamjihatlik eng avvalo, g‘oyaviy birdamlikning zarurligi mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘lijizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.

2. Milliy g‘oya va mafkuraning falsafiy huquqiy fanlar rivojidagi ahamiyati. – T.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2008, – B. 17.

3. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – B. 19

4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch –T.:Ma’naviyat, 2013, – B. 71.

5. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati.-T.:G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2009, – B. 410.

6. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. –T.: O‘zbekiston, 2000. – B. 6.

7. Sharipov M. G‘oyaviy birdamlik tushunchasining mantiqiy-gnoseologik tahlili. –T.: Universitet, 2012, - 30 bet

8. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”nashriyoti, 2021. – B.26-27.

ZJV5401

MA’NAVIYATSIZLIK TANAZZULGA YETAKLAYDI

Razzoq Shaymardanov,
Respublika Ma’naviyat va
ma’rifat markazi bo‘lim boshlig‘i

“Ma’naviyatsizlik va g‘oyasizlik har qanday jamiyatni tanazzul sari yetaklashi, davlat siyosati va boshqaruvini kuchsizlantirishi, korrupsiya, jinoyatchilik va axloqsizlik kabi illatlarning ildiz otishiga sabab bo‘lishi bilan bog‘liq misollarni insoniyat tarixidan ko‘plab keltirish mumkin”.[1]

Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyovning ushbu muxtasar mulohazasi ommaviy axborot vositalari xodimlaridan o‘ta mas’uliyat bilan faoliyat olib borishi, odil muvozanatni topa bilishi, erkinlik va haqqoniylik, qomusiylik va xolislik muvozanatini saqlay bilishi, xalqimizning milliy o‘zlikni anglash, qadriyatlarimizni yuksaltirish, globallashuv jarayonining zararli ta’siriga odilona va oqilona qarshi tura olish mexanizmini yarata bilishi jarayonlarida kamarbasta bo‘lishi milliy jurnalistikaning dolzarb masalalaridandir.

Mustaqillik yillarida mamlakatda ommaviy axborot vositalarining soni keskin ko‘paydi. Jurnalist tashqaridan kuzatuvga emas, ichki tartib bilan adolat o‘rnatishiga ehtiyoj sezdi. Soha o‘z-o‘zidan erkinlashishi va odoblashishi, axborot xurujiga bas keladigan o‘zbek milliy jurnalistikasini global axborot jarayonlarining faol ishtirokchisiga aylanish muqarrarligi muammosi yuzaga qalqib chiqdi. Axborot oqimi eng foydali axborotlarni saralab ola bilishi, axborot iste’molchisi sifatida zararli axborot oqimidan himoyalanish zarurligini kun tartibiga qo‘ydi.

Kishilar o‘rtasidagi munosabatlarning murakkablashuvi umumaxloq (etika) fanining, uning uzviy tarkibi bo‘lmish turli kasb odobi normalarining ahamiyatini har qachongidan oshirib yubordi. Binobarin, axloqning turli kasb-korga doir yo‘nalishlari alohida muammmo va alohida fan sifatida

ZJV5401

ZJV5401

o‘rganilmoqda. Chunonchi qadimdan mavjud shifokor odobi, huquqshunos odobi, o‘qituvchi odobi singari yo‘nalishlar qatorida ilmiy-nazariy o‘rganilishi jihatidan nisbatan yosh hisoblangan jurnalistning kasb odobi, infoetika (ya’ni axborot odobi), global axborot madaniyati tushunchalari dunyo miqyosidagi muammolarga aylandi.[2]

Mamlakatimizda nodavlat, xususiy ommaviy axborot vositalari tarmoqlariga keng yo‘l ochilgani ham jurnalistning kasb odobi muammolarini o‘rganishning dolzarbligini belgilaydi. Matbuot reklamasi ko‘paydi, ommaviy axborot vositalarini ta’sis etuvchi muassislik instituti shakllandi, tahririyatning iqtisodiy asoslarini yaratish va mustahkamlashga e’tibor kuchaydi. “Axloqiy mezonlarning chigallashuvi, ommaviy axborot vositalarining kontsentratsiyalashuvi uning serdaromad sohaga aylanayotgani, bozorning parchalanib ketishi, yangidan-yangi texnologiyalar va o‘sib borayotgan raqobat jurnalistika madaniyatini, ayniqsa kundalik bosma jurnalistikani porakanda qilib yubordi... Bu jurnalistika odob muhitining normal holatiga jiddiy xatar soldi”.[3]

Jurnalist – axborot tarqatuvchi asosiy sub’ektlar yetakchisi. Shunday ekan odob-axloq bobida ham ibrat bo‘lmog‘likni taqoza etadi. Internet jurnalistikasi va internet jurnalisti (bloger)ning kasb odobi me’yorlarini belgilovchi mezonlar zudlik bilan ishlab chiqilishi, hayotga tadbiq etilishi dolzarbdir.

Matbuot erkinligi va ijtimoiy mas’uliyat printsiplari muvozanati jamiyatda qaror topsa, matbuot odobi va axborot madaniyati nazariyasi ustuvor tamoyil sifatida shakllanadi. Jurnalistning kasb odobiga zid xatti-harakatlar uning xizmat vazifasini suiiste’mol qilishidan boshlanadi. Birinchi xato ikkinchi xatoni yetaklab keladi. U bu holatni sezadi-sezmaydi. Biladi yoki bilmaydi. Bilganida kechikkanini anglaydi. Shu bois “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasi maxsus “Ommaviy axborot vositalari erkinligini suiiste’mol qilishga yo‘l qo‘yilmasligi” deb atalgan.[4] Mazkur modda “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning “Jurnastning majburiyatlari” deb nomlangan

6-moddasiga uyqash. Har ikkala moddada jurnalistning kasb odobi shartlari huquqiy jihatdan belgilab berilgan. Bu huquq, mas'uliyat va kasb odobi me'yorlari mohiyatan juda yaqin tushunchalar ekanidan ham dalolat beradi. Qonunda belgilangan kasbiy majburiyatlarga rioya qilinmasa, suiiste'molliklarga yo'l qo'yilsa kasb odobi talablariga putur yetishidan tashqari "Ommaviy axborot vositalari qonun hujjatlariga binoan axborotni izlash, olish, tarqatish huquqiga ega hamda tarqatilayotgan axborotning xolisligi va ishonchliligi uchun belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.[5]

O'zbekiston Respublikasi "Jinoyat kodeksi"ning 174-moddasi "Axborotlashtirish qoidalarini buzish" deb qayd etilgan. Axborotlashtirish qoidalarini buzish, ya'ni... axborotlashtirish tizimidan foydalanishga ruxsati bo'lgan holda undagi ma'lumotlarni qasddan o'zgartirish, yo'qotish, olib tashlash yoki yo'q qilib yuborish..." va bu jiddiy oqibatlarga olib kelsa tegishli tartibda og'ir jazo choralari ko'rilishi bayon etilgan.[6]

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sud'yasi X.Hasanov: "Chop etilayotgan ayrim maqolalarda qonun tilini bilmaslik, - deb yozadi u. – Yuridik atamalarni noto'g'ri qo'llash, masalaning mohiyatiga yetmasdan "huquqiy xulosa" chiqarish, hali yuqori instantsiya tomonidan zaruriy sud bosqichi tekshiruvi o'tkazilmasdan voqea xususida taxminlar e'lon qilinishi hollari ustuvorlik qilmoqda. ... Huquqiy davlatda sud mustaqil bo'ladi. Hech qachon sud'yaning, sud obro'sini to'kish, kamsitish bilan uning mustaqilligini ta'minlab bo'lmaydi. Ehtiroslarga berilgan holda sud sha'niga kinoya, qochirim, kamsituvchi so'zlarning ishlatilishini maqola muallifining "botirligi" yoki "zukkoligi"deb baholashdan ko'ra, uning huquqiy madaniyatda qusur mavjudligi bilan izohlash to'g'riroq bo'ladi."[7] Jurnalistika amaliyotida bu kabi qusurlar, muammolar haqida "Etikaga kirish" risolasi mualliflari shunday yozadilar: "Jurnalist faoliyatida axloqiy-odobiy muammolar shuning uchun kelib chiqadiki, uning ishi hamisha odamlarning xilma-xil faoliyatlariga "yorib kirish" dan iborat" [8] Jurnalist(bloger) shunday faoliyat turini kasb sifatida

ZJV5401

tanlasa erta bir kun uning o‘zi psixologga aylanib ketishi tabiiydir. “Yaxshi reportyor bo‘lishi uchun, deb yozadi D.Rendall, – Ancha-muncha qobiliyat va iqtidor... buning ustiga, ko‘pgina ruhiy-manaviy madaniyat kerak bo‘ladi”.[9]

Birinchidan, jurnalist ijodkor shaxs. Har qanday baho berishda dastlabki mezon shunday bo‘lishi kerak. Jurnalist – oddiy odam emas, u – xos kishi. Publitsist T.Razzaq yozganidek, “Jurnalist degani qo‘shma korxona son-sanoqsiz ishlab chiqarish mumkin bo‘lgan matoh emas”, [10] balki yuztadan, mingtadan bittaga nasib etadigan noyob fazilatlarga, xususiyatlarga ega shaxs.

Fuqarolik jamiyatida barcha fuqarolar qatori jurnalist ham qonunga bo‘ysinadi, axloq-odob qadriyatlariga rioya qiladi. Qonun-majburiylik, axloq-ixtiyoriylik tamoyiliga amal qilishidan kelib chiqilsa, ongli ixtiyoriylik fuqarolik jamiyatining eng birlamchi sharti, alomati sifatida ahamiyatlidir.

Ommaviy axborot vositalari faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi, “Jurnalslik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi, “Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining ommaviy axborot vositalari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

Ommaviy axborot vositalarining asosiy vazifasi jamoatchilik fikrini uyg‘otish, shakllantirish va ularni muayyan manfaatlar asosida maqsadli yo‘naltirishdan iborat. M.Bekmurodov fikricha, ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy fikr subyektlariga ko‘rsatadigan ta’siri odatda ikki yo‘nalishda, ya’ni jamoatchilik fikrining boshlanishi, shukllanishi jarayonida va uning bevosita amal qilish jarayonlarida namoyon bo‘ladi.

Shakllantirish bosqichida jamoatchilik fikrini ijtimoiy hayotning dolzarb masalalariga keng va aktiv jalb etishga qaratilsa, amal qilish jarayonlarida jamoatchilik fikrini barqaror saqlab turish va uning ta'sirchanligini har tomonlama oshirishga jiddiy e'tibor qaratiladi.[11]

Ommaviy axborot vositalarining jamiyat ma'naviy hayotida tutgan o'rni tobora yuksalmoqda. Xuddi shuningdek, odamlarning axborotga bo'lgan ehtiyoji ham kuchaymoqda. Hozirgi kunlarda hayotimizni axborotsiz tasavvur etish qiyin. Dunyoda, tevarak-atrofda, mamlakatda, xullas, joylarda sodir bo'layotgan voqea-hodisalar to'g'risda manbalarga murojaat qilinadi. Zamonaviy tezkor va aniq texnologiyalar (radio, televidenie, kompyuter, faksimil apparatlari, sun'iy yo'ldoshlar v.x.) yaratilishi natijasida ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlari kengaymoqda.

AQSHh Strategik tadqiqotlar institutining ma'lumotlariga ko'ra, axborot mahsulotiga sarflangan har bir dollar, yoqilg'i-energitika sohasiga sarmoya qilingan bir dollardan ko'ra bir-necha barobar ko'p foyda berar ekan. Amerika Qo'shma Shtatlarida "axborot quroli"ga qarshi maxsus davlat dasturini amalga oshirish uchun yiliga 137 million dollar sarf qilinadi. [12]

Axborot omili ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan kuchlar manfaatiga aylanib bormoqda. Bu esa mamlakat xavfsizligini ta'minlashda siyosiy, iqtisodiy, harbiy omillar bilan bir qatorda axborot xurujlaridan himoyalovchi va jamiyatimizda sog'lom dunyoqarashni ta'minlash ham dolzarblashmoqda. Yoshlar rivojlangan jamiyatlarning hayot tarzi, qadriyatlari va siyosiy erkinliklari bilan, albatta, diyorimizni qiyoslaydi. Tajribasi kam, dunyoqarashi shakllanmagan ba'zi bir g'ur yoshlarimiz chet elga chiqib ketish yo'llarini izlaydi. Moddiy manfaatdorlikni hayotining ustuniga aylantiradi. Internetdan najot kutadi. Bu esa xorijiy mafkuraviy mahsulotlar raqamli makonida ulg'ayayotgan yoshlarga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qo'ymaydi, albatta. Najot – ilmda. "Bugun yurtimizda demokratik davlat, erkin va farovon hayot qurish yo'lida amalga

oshirilayotgan katta-katta o‘zgarishlarni nafaqat hayotimizni chetdan kuzatayotgan odamlar, hatto g‘animlarimiz ham inkor etolmaydi. Lekin taassuf bilan ta’kidlash lozimki, ana shu taraqqiyotga yetishish, oldimizga qo‘ygan marralarga erishish yo‘lidagi muammolar, qiyinchilik va yetishmovchiliklar, joylarda yo‘l qo‘yilayotgan xato va nuqsonlar, uchrayotgan to‘siq va g‘ovlar, sodir bo‘layotgan jinoyatlar haqida oshkor gapirish, bu to‘g‘rida odamlarga haqqoniy va xolis axborot yetkazishda biz hamon zaif bo‘lib qolmoqdamiz” [13] – deb yozadi Birinchi Prezidentimiz I.Karimov.

Har bir inson davlat va jamiyatda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalardan o‘z vaqtida xabardor bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Shunda ekan OAV erkinligi va mustaqilligini kafolatlash va shu orqali turli muammolarni keng jamoatchilik bilan muhokama qilish o‘z fikrini erkin bildirishga keng yo‘l ochish jamiyatni erkinlashtirishning asosiy tamoyillaridan.

Televideniye – OAV eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Televidenie radioga nisbatan ancha keng tarqalgan. Ommaviy tus olgan ma’naviy-madaniy hodisa. Tasvir orqali ham, ovoz orqali ham ma’lumotlarni yetkazuvchi asosiy vositadir. Televidenieni bir guruh olimlar XX asr mo‘jizasi deb qarashgan bo‘lsa, ayrimlar XX asr fojiasi deb baho bergan. Bundan tashqari, televidenie inson tafakkuri va xulq-atvorini, idrokini ma’lum qolipga solib, odamlarni fantaziyadan, ijodiy tashabbusdan, mustaqil fikrlashdan mahkum etishi, oilada, do‘stlar bilan bo‘ladigan shaxslararo munosabat imkoniyatini kamaytirishi, o‘zaro muloqotning rasmiy va yuzaki bo‘lishiga olib kelishi haqidagi qarashlar ham mavjud. Keksa ota-bobolarimiz televizorga “dilbuzar” deb nom qo‘yib olgani ham haqiqatdir.

Bugungi kunga kelib televideniya o‘z o‘rnini internetga – ijtimoiy tarmoqlarga ajratib berdi. Hozirgi davrda elektron aloqalarning rivojlanishi va inson faoliyatining barcha sohalariga yangi axborot texnologiyalarining joriy etilishi shaxs identikligi tushunchasini zamonaviy shaxsning axborot identikligi tushunchasi bilan almashuviga olib keldi. Shaxsiy kompyuter va internet tarmoqlarini keng tarqalishi

va translyatsiya yo‘ldoshlarining rivojlanishi shaxsning axborot identikligi muammosini paydo bo‘lishiga olib keldi. Axborotlashgan jamiyat va shaxs identikligi munosabatlarini strukturali-funktsional tahlil qilish kun tartibiga aylandi.Bir guruh yoshlar turli kanallar qarshisida tentirab qoldilar. Viloyat markazlarida, yirik shaharlarda Internet-kafelar ochildi. Maktab, kollej-litseylar, oliy o‘quv yurtlari Internet tarmoqlariga ulangan .Ammo-lekin yoshlarning qaysi veb saytlardan foydalanishi g‘oyaviy tarbiya masalasida katta ahamiyatga egadir. Hozirgi kunlarda mazkur muammoning yechimini topishda faqat bizning jamiyatimiz olimlari emas, balki yevropalik olimlarning ham boshi qotgan. Xususan, Belgiyalik professor Frenk Tevisson o‘tkazilgan tadqiqot natijaliriga ko‘ra, Yevropa mamlakatlarida 90 foiz talabalar Internetdan foydalanishar ekan. Biroq ularning qaysi saytdan foydalanishlari o‘rganilganda, atigi 10 foiz talaba bevosita o‘quv jarayoniga taalluqli saytlarga, 90 foizi esa pornografik mazmundagi saytlarga kirishni xush ko‘rishi ma’lum bo‘lgan. [14]

Kompyuter qarshisida o‘tirish o‘sib kelayotgan avlodga, eng avvalo yoshlarning jismoniy o‘sishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi zamonaviy tibbiyot tomonidan tasdiqlangan. Xususan, kompyuter va telefondan ko‘p foydalangan bolalar kamharakat bo‘lib qolishi, natijada ko‘rish qobiliyati zaiflashib, har xil kasalliklarga qarshi immuniteti yaxshi rivojlanmaydi. Behayo, jangari, dahshat va zo‘ravonlik aks ettirilgan filmlarni tomosha qilish natijasida yoshlarning ma’naviy rivojlanishi zaiflashadi.

TAKLIFLAR:

- Yoshlar orasida diniy va mutaasiblik g‘oyalari tarqalishining oldini olishga qaratilgan maxsus qo‘llanma, dasturlar yaratish, shuningdek, «yo‘l xaritasi» asosida Respublikamizning barcha tuman va shaharlarida ilmiy-ma’rifiy, madaniy-ko‘ngilochar tadbirlarni tashkil etish;

-OAV, Internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ibot va aksiltarg‘ibot materiallarini tizimli yoritib borilishini ta’minlash;

- Jurnalist (bloger)lar odob-axloq qoidalariga rioya etishi, targ‘ibot guruhlarining tashqi ko‘rinishi, vazminligi va tartibli bo‘lishi, shuningdek, voqeylik, milliylik va qadriyatlar asosida o‘z ma’ruzalarini tashkil qilish;

- Soha mutaxassislaridan iborat guruh a’zolarining seminarlarini tashkil etish;

- O‘zbekiston manfaatiga mos g‘oyalarni ilgari surish imkoniyatlari axborot makonida o‘z o‘rnini topishi;

- Falsafa, psixologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik, ma’naviyat, tarix kabi sohalar ilmiy salohiyatini yuksaltirish;

- Axborot-mafkuraviy targ‘ibot ishlarini jadallashtirish zarur.

Hozirgi kunlarda axborot makonida axborot olishning an’anaviy kanallari internetdagi nazoratsiz manbalarga o‘rnini bo‘shatib bermoqda. Ma’lum bir zamonaviy usul va uslublar yo‘q.

Internet tarmoqlari orqali mafkuraviy tahdidlar oshkora va pinxona namoyon bo‘lmoqda. Diniy ekstremizm, millatchilik, irqchilik, sadizm, ultraliberalizm va boshqa yot, buzg‘unchi g‘oyalarning kirib kelishi yoshlar dunyoqarashiga jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Bundan tashqari g‘arbcha yashash tarziga xos, biroq milliy madaniyatimizga zid g‘oyalar, qarashlar (kiyinish, chekish, pirsing, tatuirovkalar va hokazo) dan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Pornografik, soxta axborotlar (dezinformatsiya) yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Internetning ulkan imkoniyatlarini ham, ma’lumotlardan keng jamotchilik samarali foydalanayotganini ham inkor etmaymiz. Biroq axborot oqimining tezkorligi, auditoriyaning cheklanmaganligi, o‘z maqsadlarini terroristik yo‘l bilan amalga oshirishni odat qilib olgan yovuz kuchlarning manfaatlariga ham xizmat qiladi.

Huquq-tartibot organlari tomonidan internet tizimida yuzlab terroristik saytlarning manzillari aniqlangan. Bunday saytlar da’fatan paydo bo‘ladi va tez-tez formatini o‘zgartirib turadi. Kutilmaganda mundarijasini saqlagan holda manzilini o‘zgartirish yo‘li bilan ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi.

ZJV5401

Ba’zan internet qurol sifatida namoyon bo‘lmoqda. “Axborot qurolining universalligi, yashirinligi, dasturiy apparat amalga oshirilishi shakllarining ko‘p variantligi” [15], -deb ta’kidlab fikrini davom ettiradi I.A.Negodaev. - Ta’sirlarning radikalligi, vaqt va joy tanlash imkonining yetarligi va nihoyat tejamliligi, uning juda xavfsizligini ko‘rsatadi: u osongina himoya tizimiga yashirinishi mumkin, urush e’lon qilmasdan anonim shaklda harakatlarini olib borishi mumkin.

Hozirgi davrda ishlab chiqarish va boshqarish, mudofaa va aloqa, transport va energetika, moliya va fan, ta’lim, OAV-barchasi axborot almashinuvi jadalligiga, haqqoniyligiga, to‘liqligi va tezligiga bog‘iq. Shuning uchun jamiyatning axborot infrastrukturasi – axborot qurolining ob’ektiga aylangan.

Albatta, yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro‘y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko‘nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Vatanni himoya qilish uchun bugun baland-baland qo‘rg‘onlar qurish shart emas. Uning qo‘rg‘onlari yurtning yuksak ma’naviyatli, intellektual salohiyatli asl o‘g‘lonlaridir. Vatanni nafaqat qo‘liga qurol ushlaganlar, balki uni himoya qilish g‘oyasi bilan yashayotganlar ham mardona himoya qila oladilar.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – millati, tili va kasbidan qat’iy nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish, ularni o‘z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalash davr taqozosidir. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda oila, mahalla, ta’lim muassasalarining o‘rni va ahamiyati beqiyos. Insoning hayot haqidagi dastlabki qarashlari oilada shakllansa, ijtimoiy muhit ta’sirida muttasil rivojlanib boradi. Hozirgi kunda oila, mahalla, ta’lim muassasi o‘rtasidagi aloqani uzviyligini ta’minlash hamda ularni har biri o‘zining funktsional vazifasini bajarishga erishish lozim.

Vatan muqaddasdir. Undan qimmat, undan aziz, undan shirin, undan ulug‘ ne’mat, boylik yo‘qdir. Shu boylikni qadrlagan, undan cheksiz faxrlangan insongina oilasi, xalqi, atrof muhitga, jamiyatiga mehr-muhabbatli bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 26-martdagi PQ– 5040-sonli qarori barcha toifadagi targ‘ibot guruhlari uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emasligi, xalqimiz, ayniqsa yoshlarni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmayotgani, ushbu yo‘nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yo‘lga qo‘yilmaganligi [16] qarorda qayd etilgan.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev “Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik–milliy g‘oyamizning poydevoridir” risolasida “Milliy ma’naviyatimizga mutlaqo begona bo‘lgan zararli g‘oyalar, tushuncha va qarashlar chegarani buzmasdan, bildirmasdan, ta’bir joiz bo‘lsa, “chaqirilmagan mehmon” bo‘lib xonadonimizga, jamiyatimizga eng yomoni, murg‘ak bolalarimizning pokiza qalbi va yuragiga kirib kelmoqda”, deb ta’kidlaydi.

Hududlarda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlash, aholi, ayniqsa, yoshlar ongi va qalbida ma’naviy fazilatlarni yuksaltirish, oila va mahallalarda hamjihatlikni mustahkamlash maqsadida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan barcha tuman va shaharda Ma’naviyat va ma’rifat maskanlari tashkil etilmoqda. Bu esa hududlarda yangi zamonaviy, ko‘rkam va qulay Ma’naviyat maskanlarining ochilishiga imkon yaratmoqda.Ma’naviyat va ma’rifat maskanlarini barpo etishning manzilli ro‘yxati tasdiqlangan. Maskanlar birin-ketin qurilib, xalqimiz farovonligi yo‘lida xizmat qilishi uchun foydalanishga topshirilmoqda. Toshkent viloyati Chi-

ZJV5401

noz tumani, Qashqadaryo viloyati Kitob tumani, Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumani, Buxoro viloyati Olot tumani, Surxondaryo viloyati Termiz tumani va boshqa hududlarda ana shunday maskanlar tantanali ravishda ochildi. Yangi “Ma’naviyat maskani” binolari foydalanishga topshirilishi yana davom etmoqda.

2021-yildan boshlab ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni namunali yo‘lga qo‘maqsadida vazirlik va idoralar hamda tuman va shaharlar o‘rtasida an’anaviy tarzda “Eng namunali vazirlik va idora” hamda “Eng namunali tuman va shahar” respublika ko‘rik-tanlovini o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi. Alohida e’tirof etish kerakki, mazkur tanlovda ishtirok etish uchun o‘tgan o‘quv yilida 21 ta vazirlik va idoralar ariza topshirdi. Hududiy Ma’naviyat va ma’rifat kengashlari tomonidan 5 ta shahar va 9 ta tuman tavsiya qilindi. Yildan-yilga ariza topshirayotgan vazirlik va idoralar soni ortib bormoqda.

Ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash yo‘lga qo‘yildi. Har bir umumta’lim muassasasida ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchi, davlat oliy ta’lim muassasalari va ularning filiallarida yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor (direktorning birinchi o‘rinbosari) lavozimi joriy etildi va faoliyat olib bormoqda.

Aholining Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, shuningdek, yoshlarimiz ongiga salbiy ta’sir etuvchi, ularni g‘oyaviy jihatdan qaram etishga yo‘naltirilgan harakatlarga qarshi samarali kurash olib borish hamda irodali, fidoyi, vatanparvar va o‘z mustaqil fikriga ega avlodni tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir. Ma’naviy taraqqiyot strategiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha uch yillik dastur loyihasi ishlab chiqildi. Kelajakda ushbu dastur o‘z samarasini berishiga katta umid va ishonch bildiramiz.

Milliy qadriyatlar muammosi milliy mustaqillik g‘oyalari bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, jamiyatning ma’naviy sohasi-

ni belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi. Respublika mustaqilligining dastlabki davrida vujudga kelgan ma'naviy-g'oyaviy uzulish qadriyatlarga bo'lgan munosabatni butunlay o'zgartirib yubordi. Milliy o'z-o'zini anglash barobarida, milliy qadriyatlarni o'rganish, ularni mustaqillik g'oyalari yo'lida tadqiq qilish ehtiyojlari paydo bo'ldi. Qadriyat tushunchasi ommaning ongli turmush tarziga singdirildi. Buning natijasida, milliy uyg'onishning qadriyatlar uyg'unligidagi davomiyligi jamiyat hayotining hamma sohasida yaqqol namyon bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yangi O'zbekiston – taraqqiyot strategiyasi "O'zbekiston" nashriyoti, 2022- yil. 263 B.

2. Do'stmuhamedov X.N. Jurnalistning kasb odobi muammolari: nazariy-metodologik tahlil. Fil. fan. dok. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, 2008-yil. 6 B.

3. M.Виоланта, Lambet Edmond B. Приверженность журналистискому долгу (Об этическом подходе в журналистской профессии).- M.Violanta, 1998.-S.146.

4. O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni// Xalq so'zi. 2007.-16-yanvar.

5. Ommaviy axborot vositalari to'g'risida// Xalq so'zi. 2007.-16-yanvar.

6. O'zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksi.-T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2004.-B.89,90.

7. Hasanov X. Sud va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi munosabatlar mavzuida ayrim mulohazalar // O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining axborotnomasi, 2004. 9-son.B.39.

8. Абдуллаев М., Хакимов Э. Введение в этику. Краткий курс.Изд-е 2-ое.- Фергана. Farg'ona, 2001. –S.47.

9. Rendall D. Универсальный журналист.– Алматы, 1996.-S.47.

10. Razzoq T. Izlagan...// Hurriyat. – 2002.-23 oktyabr.

11. Bekmurodov M. O‘zbekistonda jamoatchilik fikri.-Toshkent. Fan,1999.-B.170.

12. Panarin I.N. Информационная война и геополитика. – M.: Pokolenie,2006.-345s.

13. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari-eng oliy qadriyat. – Toshkent. O‘zbekiston, 2005.-B.17.

14. Nisnevich Yu.A. Информация и власть. M.: Мысль, 2000.-S.48.

15. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari-eng oliy qadriyat. – Toshkent. O‘zbekiston, 2005. – B.17.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 26-martdagi PQ – 5040-sonli qarori. https://lex.uz/docs/-5344692.

ZJV5401

TALABA-YOSHLAR O‘RTASIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Kamolova Kimyoxon G‘ulomjonovna,
Nizomiy nomidagi TDPU o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuvning talaba-yoshlar ma’naviyatiga ta’siri, ular orasida ma’naviy tarbiya masalalari hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirish borasida takliflar berilgan.

Tayanch so‘zlar: Globallashuv, “ommaviy madaniyat”, ma’naviy-axloqiy tarbiya, «Mafkuraviy tarbiya», «Mafkuraviy profilaktika», «Mafkuraviy immunitet».

Hozirgi sharoitda talaba-yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, ularning ma’naviy-axloqiy ongini yuksaltirish, g‘oyaviy-mafkuraviy tarbiyaning usullaridan keng foydalanish, bu boradagi muammolarni tadqiq etish dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Chunki bugungi globallashuv jarayoni ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda, xususan, yoshlar ham bu jarayondan xoli emas. Bu bir tomondan umumiy, tabiiy jarayon. Chunki hozirgi axborotlashgan jamiyat muhitidan talaba-yoshlar turli omillar orqali xabardor bo‘lmoqda. Lekin ularning mafkuraviy immunitet darajasi qadriyatlarga nisbatan turlicha bo‘lishi mumkin. Ayrim yoshlar ongida xalqning milliy-ma’naviy qadriyatlarga mos bo‘lmagan xatti-harakat, nosog‘lom g‘oyalar, qadriyatlarga moyillik paydo bo‘lishining oldini olishda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, uchrashuvlar, suhbatlarning tez-tez o‘tkazilib turishiga ehtiyoj sezilishiga sabab, globallashuv jarayonida jamiyatimiz ma’naviy hayotiga xavf solayotgan xatarlar, tahdidlar o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘lib, ularning ta’sir kuchi kundan kunga ortib bormoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: «Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda.

Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, «ommaviy madaniyat» kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzod asrlar davomida amal qilib kelgan e'tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda. Mana shunday va boshqa ko'plab tahdidlar insoniyat hayotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotgani – ayni haqiqat va buni hech kim inkor etolmaydi».

Haqiqatan ham, bugungi kunda globallashuv vositalari «ommaviy madaniyat»ning keng yoyilishiga imkoniyat yaratmoqda. U o'zbek xalqining tafakkuriga, musiqasi, kiyinishi, o'zaro muomalasi, oilasi, oilaviy munosabatlariga, hatto orzulariga ham chang solmoqda. Bizga qarshi ma'naviy qo'poruvchilik olib borayotgan mafkura poligonlari o'z maqsadiga erishish uchun hech narsani ayamayapti, hamma vositalarni ishga solmoqda, ko'plab mablag' sarflamoqda, eng zamonaviy usul-uslublarni qo'llagan holda, yoshlarni o'ziga rom etadigan turli tomoshalar, ko'ngilochar ko'rsatuvlar, musiqiy kanallar tashkil etmoqda. Bunday manbalar orqali buzg'unchi g'oyalar targ'ib etilmoqda, eng yomoni ularni hali oq-qoraning farqiga bormaydigan, ishonuvchan, ta'sirga beriluvchan yoshlarimiz ko'ryapti, tomosha qilyapti. Bu esa «ommaviy madaniyat» tizimi, mahsulotlari, yoshlarimizni avrashning o'ziga xos usuli shakllangani, demak, ularga qarshi kurash har birimizning kundalik amaliy ishimizga aylanishi zarurligini taqozo etmoqda. Shunday ekan, talaba-yoshlarimiz o'z dunyoqarashida milliy qadriyatlarga tayanmasa, ularning ongi va tafakkuridan mutlaqo begona qadriyatlar joy oladi. O'zining milliy qadriyatlariga nisbatan bepisandlik bilan qarash shakllanadi. Shuning uchun ham yosh avlod bilan ishlash jarayonida mazkur holatlarni alohida hisobga olish kerak. Ayniqsa, yoshlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan munosabatining bugungi holatini ratsional

o‘rganish, ularning amaliy faoliyatlarida ko‘proq qaysi qadriyatlar ustuvor bo‘lib borayotganini aniqlashga yordam beradi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad esa ularning milliy-madaniy meros va qadriyatlarga nisbatan ishonch va e’tiqodini mustahkamlashdan iboratdir. Shuning uchun ham bugungi kunda talaba-yoshlar dunyoqarashida, ularning milliy qadriyatlarga munosabatida aniq pozitsiyaning shakllangan bo‘lishi lozim. Talaba-yoshlarni kuzatish jarayonida shu narsaga guvoh bo‘lmoqdamizki, ularning ko‘pchilik guruhi uchrashuv, tadbir, davra suhbati kabi ma’naviy tadbirlarga qaraganda, ko‘proq ko‘ngilochar tadbirlarga qiziqishlari ustunroq. Chunki, ko‘ngilochar tadbirlar ularning yosh doirasiga ko‘proq mos keladi, zerikishmaydi. Shuni inobatga olgan holda talabalar bilan bo‘ladigan uchrashuvlarni qiziqarli va ta’sirchan qilib tashkil qilish lozim.

Ma’lumki, globallashuv insoniyat tarixiy rivojlanish sivilizatsiyasining zaruriy natijasi bo‘lib, ilmiy-texnikaviy inqiloblar, fan rivojlanishidagi buyuk burilishlar natijasi o‘laroq yuzaga kelgan sivilizatsiyalararo muloqotlar, planetar hodisalar mushtarakligi asosida dunyo xalqlari mentaliteti, ma’naviy olami ruhiyat va intilishlariga tez ta’sir etuvchi axborot kommunikatsiyalar, mafkuraviy ta’sirlarning umumiy aloqadorlik hodisasidir.

Mafkuraviy tahdidlarning nihoyatda keng qamrovli ekanligidan kelib chiqib, ularga qarshi har tomonlama chuqur o‘ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan mafkuraviy tarbiya orqali javob berish mumkin. Bir so‘z bilan aytganda, «Mafkuraviy tarbiya», «Mafkuraviy profilaktika», «Mafkuraviy immunitet» tushunchalarining tub mohiyatini yoshlar ongiga singdirib, shu orqali yurtimiz kelajagini yuqoridagi tahdidlardan himoya qilishimiz kerak. Bugungi kunda milliy g‘oyani rivojlantirishning institutsional tizimi shakllantirilgan, uning yanada samaradorligini oshirish esa ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi fanlarning qanday o‘qitilishiga bog‘liq. Shuningdek, Oliy ta’lim tizimidagi oliygohlarda bu fanlarni o‘qitilishida qaysi soha yo‘nalishida mutaxassislar tayyorlanishiga ham e’tibor qaratish lozim. Shundan kelib chiqqan holda, ijtimoiy-gumanitar fanlar maj-

mualarini yaratishda talabalarning mutaxassislik yo‘nalishlariga ko‘proq urg‘u berilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“Ma’naviy tahdidlar” shaxs axloqiy ongida salbiy tushunchalar, tuyg‘ular, xususiyatlar va sifatlarni hosil qiluvchi illatlar majmuidir. Chunki «tahdid» so‘zi xavf-xatar, xuruj va buzish ma’nolarini anglatadi. Shu ma’noda ma’naviy tahdidlar shaxsni aqliy va axloqiy jihatdan buzishga qaratilgan maqsadli xurujlar hisoblanadi. Yangi jamiyat barpo etish sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy hayotda turli mazmunda, turli maqsadda, turli shaklda munosabatlar paydo bo‘ladi. O‘zbekiston uchun ham shunday rang-barang munosabatlar davom etmoqda. Ayniqsa, chetdan turib ongli va maqsadli ravishda uyushtirilayotgan ma’naviy tahdidlar bunday munosabatlarning asosini tashkil qilmoqda. Bugungi kunda ma’naviy tahdidlar bir necha xil ko‘rinishda namoyon bo‘lmoqda.

Taraqqiyotning bugungi holatida inson omili bilan bog‘liq shunday muammolar yuzaga kelmoqdaki, ularning ko‘lami ijtimoiy falsafa sohasining muhim tadqiqot ob’ektiga aylandi. Ma’naviy-axloqiy ongni shakllantirish va talaba-yoshlarda yanada yuksaltirish masalasi ana shunday muammolar sirasiga kiradi. Ma’naviy-axloqiy ongning milliy va umumbashariy mohiyatidagi mushtaraklik, uning ijtimoiy muhit, an’ana, mafkura va g‘oyalar bilan bog‘liq jihatlarini ilmiy tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Ularni quyidagicha izohlash mumkin:

birinchidan, mustaqillik tufayli yangi ma’naviy qadriyatlarning yaratilishi, inson erkinligi va qadr-qimmati bilan bog‘liq huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy tushunchalarning paydo bo‘lishi ma’naviy-axloqiy ongning mohiyatini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilishni talab qilmoqda;

ikkinchidan, ma’naviy-axloqiy ongning ilmiy jihatlari keng ko‘lamli tadqiqotlarni taqozo etadi. Chunki, ma’naviy-axloqiy ong bir tomondan, insonparvarlik an’analari va g‘oyalari bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy vaziyat va muhit bilan bog‘liqdir. Shuning uchun turli an’ana, qadriyat va g‘oyalarning o‘zaro integratsiyasi ro‘y berayotgan hozirgi globallashuv sharoitida mazkur muammoni tadqiq etish g‘oyaviy ehtiyojga aylanib bormoqda;

ZJV5401

uchinchidan, xalqaro va davlatlararo ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy munosabatlarda asosan siyosiy va huquqiy mezonlar yetakchilik qilgan bo‘lsa, XXI asrga kelib bu jarayonlarga ma’naviy-axloqiy omillar ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu ta’sirning ijtimoiy-falsafiy asoslarini ilmiy tadqiq etish g‘oyatda muhim masalalar sirasiga kiradi;

to‘rtinchidan, insoniyatni birlashtiruvchi ma’naviy integrativ tizim yaratilayotgan bir paytda «ommaviy madaniyat» illatlarining talaba-yoshlar ma’naviy-axloqiy ongiga tahdidi kuchayib bormoqda. Bugungi davr turli xil shakl va ko‘rinishlardagi bu tahdidlarga qarshi kurashning ilmiy fundamental asoslarini yaratish zarurligini taqozo etmoqda;

beshinchidan, globallashuv o‘zining ijobiy jihatlari bilan birga ezgulik, bag‘rikenglik, shafqatlilik, muruvvatlilik kabi umuminsoniy axloqiy qadriyatlarga qarshi «ommaviy madaniyat» niqobi ostidagi tahdidlarni ham yuzaga keltirayotganligini unutmaslik zarur.

oltinchidan, talaba-yoshlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda ma’naviy-diniy qadriyatlar, allomalarning ilmiy merosi hamda xalq tafakkuri ijtimoiy ahamiyatga ega. Ma’naviy-axloqiy ongning tub mohiyati deyarli barcha xalqlarning diniy va falsafiy, ijtimoiy-axloqiy tasavvur, tushuncha va qonun-qoidalari bilan uyg‘un holda o‘z ifodasini topgan.

yettinchidan, bugungi kunda ta’lim tizimida bo‘layotgan o‘zgarishlar faqat o‘quv jarayonlarini takomillashtirishnigina nazarda tutmasdan, balki milliy falsafamizning yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlaridan oqilona foydalanishni ham taqozo qilmoqda. Bu jarayonda professor-o‘qituvchilar, sohaning boshqaruv xodimlaridan ham yuksak mas’uliyat talab etiladi.

ZJV5401

Talaba-yoshlar orasida mana shu yuqorida sanab o‘tilgan masalalarni yetarlicha yo‘lga qo‘yilar ekan, shundagina ularda ma’naviy tarbiyani shakllantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olish mumkin. Bunda albatta oliy ta’lim mutasaddilari bilan bir qatorda tyuterlar ham o‘z ishlarini vijdonan bajarsa, maqsadga tezroq yetishish mumkin.

YOSHLAR TARBIYASIDA QADRIYATLAR VA AXBOROTNING AHAMIYATI

Fayzullaev Ilhom Shukurullayevich,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti
tayanch doktoranti

"Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq birinchi navbatda o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa avvalo insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda", – degan edilar Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xalq kutubxonasining ochilish marosimida. Ana shunday yuksak ma'naviyatli, bilimli, ma'rifatli kishilarni tarbiyalashda intellektual qadriyatlarning roli beqiyosdir.

Intellekt (lot. Intellektus-bilish, tushunish, idrok qilish)-insonning aqliy qobiliyati, hayotni, atrof-muhitni ongda aynan aks ettirish va o'zgartirish, fikrlash, o'qish-o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati, turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqealarni oldindan ko'ra bilish layoqati.[1]

Qadriyatlar deganda inson va insoniyat uchun ijobiy ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar tushuniladi. Insoniyat tarixi unga xizmat qiladigan, o'zi yaratgan, suyanadigan va qo'llab-quvvatlaydigan qadriyatlar dunyosining kengayishi, boyish va takomillashish tarixidir. Insoniyat o'zining kundalik mehnati bilan yaratayotgan sun'iy narsalar dunyosida yashaydi. Biz yaratayotgan ushbu moddiy va ma'naviy boyliklar olamining gultoji, sarasi qadriyatlardir. Qadriyat va qadriyat mezonlari kishilarga, ularning xulq-atvorini tartibga solish va to'g'ri yo'naltirishga hizmat qiladi. Bunday o'ziga xos boshqarishning samaradorligi kishilarimizning qadriyatlar olamini bilishiga bog'liq.[2]

Intellektual qadriyatlar deganda inson aql-zakovati yordamida vujudga keltirilgan g'oya, bilim, axborot tushuniladi. Ma'naviy qadriyatlarning tarkibiga kiradi. Ilm-fan ham intellektual qadriyatlar jumlasidandir.

Fan dunyo haqidagi bilimlar tizimi, ijtimoiy ong shakllaridan biridir. U yangi bilimlarni egallash bilan bog'liq faoliyatni ham, bu faoliyatning mahsuli-olamning ilmiy manzarasi asosini tashkil etuvchi bilimlarni ham o'z ichiga oladi; inson bilimining ayrim sohalarini ham ifodalaydi. Fanning bevosita maqsadi o'zining o'rganish predmeti hisoblangan voqelikning qonunlarini kashf etish asosida shu voqelikning jarayon va hodisalarini ta'riflash, tushuntirish, oldindan aytib berishdir. [3]

Fan-bu odamning oliy faoliyatlaridan biri, o'simliklar va hayvonlar esa bu xislatdan xolidirlar. Odam dunyodagi, koinotdagi, olamdagi barcha narsalarning sirlarini bilib olishag qiziqadi, chunki bu bilimlardan u manfaatdordir. Fan odam, jamiyat hayotida, turmushda doimiy maslahatchi va yordamchidir. Fan bo'lmasa dehqonchilik va sanoat, transport va energetika, informatsion va madaniyat vositalari bo'lmas edi. Fan tabiiy va ijtimoiy jarayonlarning odam miyasidagi in'ikosidir.

O'zbekiston – ilm-fan va madaniyat qadimdan taraqqiy etgan mamlakatlardan biri. O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston hududida ayniqsa, astronomiya, matematika, kimyo, tibbiyot, me'morlik, ma'danshunoslik, falsafa, tilshunoslik, musiqa, adabiyotshunoslik rivojlangan. O'zbekiston olimlari o'z ilmiy asarlari va kashfiyotlari bilan jahon ilm-fani va madaniyatiga munosib hissa qo'shdilar.

Misol uchun "Majlisi ulamo, yoki "Dor ul-hikma va l-maorif" deb nomlangan ilm dargohi hozirgi vaqtda Xorazm Ma'mun akademiyasi rasman qisqa muddat bor-yo'g'i 17 yil faoliyat ko'rsatgan. Lekin bu ilmiy dargoh asrlar osha yetib kelgan katta ilmiy an'analar qudratini shu qadar oqilona ishga soldiki, natijada jahon ilmining keyingi ming yilligi taraqqiyotiga ulkan zamin yaratildi. Ibn Iroq, Beruniy, Masihiy,

Ibn Sino, Hammor va boshqa ko‘plab ulug’ allomalarning ishlarini keyingi avlodlar davom ettirdilar. [4]

Hozirgi davrda fan O‘zbekistonda jamiyat taraqqiyotini olg’a siljituvchi kuch va vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Xalq va millat dunyoqarashini shakllantirish, ta’lim-tarbiya, axloq normalarini vujudga keltirish, ma’naviy barkamol insonni tarbiyalashda alohida o‘rin tutmoqda.

I.Karimov o‘z vaqtida “..ta’lim sohasida zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, internet tizimi, raqamli va keng formatli telekommunikakatsiyalarning zamonaviy usullarini o‘zlashtirish, bugungi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan bunday ilg’or yutuqlar nafaqat maktab, litsey va kollejlar, oliy o‘quv yurtlariga, balki har qaysi oila hayotiga keng kirib borishi uchun zamin tug’dirishning ahamiyati”ning kattaligi to‘g’risida fikr bildirgan edilar.[5]

Axborot ham intellektual qadriyatlar sirasiga kiradi. Bugungi kunda yoshlar asosan axborot manbai sifatida internetga murojaat etishadi. Yurtimizda Internet tizimidan foydalanuvchilar safi jadal sur’atlar bilan kengayib bormoqda. Bugungi kunda ularning soni 20 milliondan ortib ketgani buni tasdiqlab turibdi. Internetdagi faoliyatning ijobiy tomonlari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

1) dunyoqarashning kengayishi;

2) obyektiv va negativ axborotlarni qabul qilib, ularni tahlil qilish imkoniyati (bunda yosh yigit yoki qizning axborotga “to‘q” bo‘lishi va ularni saralay olish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Agar unda axborotga bo‘lgan “did” bo‘lmasa, u axborot oqimida “cho‘kib” ketishi mumkin, ya’ni ta’siriga berilib ketishi mumkin);

3) masofaviy o‘qishlarda ishtirok etish imkoniyati;

4) axborotlarni tanlash imkoniyati borligi.[6]

Shu bilan birga internetning ulkan imkoniyatlari, unda axborot oqimining tezkorligi, auditoriyaning cheklanmaganligi yovuz kuchlarning manfaatlariga ham xizmat qiladi.

Yoshlarni eng avvalo Vatanga e’tiqodli, urf-odat va qadriyalarimizga sadoqatli qilib tarbiyalasakkina, istalgan

ZJV5401

buzg‘unchi axborotlarga nisbatan o‘z axborot immunitetlari shakllanadi. Shuni aytish kerakki, axborotlashuv jarayonlari jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki axborot – bu hozirgi zamon sivilizatsiyasining o‘ziga xos yutug‘i, xalqlar, davlatlar, mamlakatlarni yaqinlashtiradigan, jahon siyosiy ijtimoiy jarayonlarini boshqarishga xizmat qiladigan hodisa ekanligi yaxshi ma’lum. Axborotdan foydalanish madaniyati o‘z-o‘zidan kelmaydi, bunday madaniyat bir qator omillarga bog‘liq. Birinchidan, axborot iste’mol qiluvchi yoshlar shaxsiy yuksak madaniyatga ega bo‘lishlari lozim. Ikkinchidan, ommaviy axborot vositalari va boshqa manbalardan kelayotgan ma’lumotlar mag‘zini chaqib, ularning mualliflari maqsadlarini anglab olish kerak. Uchinidan, kasbiy o‘sish va shaxsiy dunyoqarashni rivojlantiradigan ma’lumotlarni olib, keraksiz axborotni tezda esdan chiqarish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002. B.179

2. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug‘at. T.: Sharq, 1998. B.281

3. Fayzullayev O. Falsafa va fanlar metodologiyasi. T.: Falsafa va huquq- 2006, B.16

4. Is’hoqov M. Sivilizatsion jarayonlar va Xorazm Ma’mun akademiyasi. T.: Fuqarolik jamiyati, 2006 7-son. B.21

5. Karimov I. O‘zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo‘lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustuhkam poydevordir. I.: O‘zbekiston, 2009. B.26

6. Mo‘minov N. Globallashuv jarayoni va axborot xavfsizligi. Infocom Uz veb sayti.

ZJV5401

MA’NAVIY BARKAMOLLIK – ENG YAXSHI QALQON

Karimov Faxriddin Turdaliyevich,
AOKA huzuridagi OKBMM mas’ul xodimi

Qadimdan ajdodlardan avlodlarga meros sifatida o‘tib kelayotgan ko‘pkari va otda chopish poygasi, tosh ko‘tarish, kamon otish, kurash musobaqalari kabi milliy o‘yinlarimiz boy mazmun-mohiyatga ega ma’naviy boyliklarimizdan hisoblanadi. Ular ommaviyligi, zavqu shavqqa to‘la qizg‘in lahzalarga boyligi va eng muhimi – alohida mahorat talab qilishi bilan ham ishtirokchiga, ham tomoshabinga birday rom etadi.

Afsuski, keyinchalik odamlar, ayniqsa, yoshlar orasida “xalq o‘yinlari” niqobi ostida turli parranda va hayvonlarni pul tikib urishtirish, qimor o‘ynash holatlari paydo bo‘la boshladi.

Aslida qimor o‘yinlariga qadimgi davrlardan qiziqish yuqori bo‘lganini arxeologik kuzatuvlar ham tasdiqlaydi. Bu qadar chuqur ildizga ega ijtimoiy xodisa nega kundalik turmushning normal voqeasi sifatida tan olinmagan, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Buning asosiy sababi bunday o‘yinlarning inson hayotida namoyon bo‘ladigan salbiy oqibatlari bilan izohlanadi.

Afsuski, hozirda dunyoning aksariyat mamlakatlarida qimor o‘yinlari ijtimoiy jihatdan me’yoriy va qonuniy faoliyat turi hisoblanadi. Lotereya, kazino, sport musobaqalari natijalari yuzasidan garovlashish kabi qimor va tavakkalchilikka asoslangan turli o‘yinlar kundalik odatiy mashg‘ulotga aylanib ulgurgan. Bunday o‘yinlarga qiziqish va ishtiyoqning ortishi jiddiy oqibatlarga, qaramlik va hatto kasallikka olib borishi mumkinligi haqida har doim ham o‘ylayvermaymiz.

Qimor o‘yinlariga qaramlik qanday yuz beradi?

Uning tibbiy-psixologik ta’siri giyohvandlik va alkogolizmning halokatli oqibatlariga o‘xshashini bilamizmi?

Bu kasallikka qarshi qanday kurashish usullari bor?

ZJV5401

Bu kabi savollarga javob topish uchun qimor va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy va psixologik jihatlarini uyg‘un holda ko‘rib chiqish lozim.

Zamonaviy tibbiyot qimor va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarga qaramlik ham fiziologik, ham ruhiy nosog‘lom ma’naviy muhitning natijasi ekanini e’tirof etadi. Insonning har qanday patologik holati doimo uning hayotida kechgan hodisalar natijasida yuzaga keladi. Faqat uning darajasi har kimda har xil bo‘lishi mumkin. Bunday qaramlikdan qutulish uchun muayyan omillar muhim rol o‘ynaydi.

Qimor o‘yinlariga qaramlikning paydo bo‘lishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar avvalo xohish-istak va his-tuyg‘ular bilan bog‘lik. Tez va katta miqdorda foyda olish istagi, boshqalarning e’tiborini qozonishga haddan ziyod berilish, kutilmagan voqealar markazida paydo bo‘lishsh ishtiyoqi, g‘oliblik nashidasini surishga kuchli havas kabi tuyg‘ular shular jumlasidandir. Biroq, oqibatini hali anglab yetmagan bunday xatarli yo‘lda ayniqsa yoshlar dastlabki qadamlarni tashlashining yana bir muhim jihati borki, u ham bo‘lsa uning o‘z hayotidan noroziligi, yolg‘izlik, yaqinlarining e’tibosizligi, diomo tushkun holatda qolishi shular jumlasidandir.

O‘yinga qaram bo‘lgan odamni har qanday holatda ham yutish, nima qilib bo‘lmasin, boshqalarni ortda qoldirish istagi sehrlab oladi. Bunday patologik darajadagi ishtiyoq nafaqat uning o‘ziga, balki yaqinlariga ham zarar keltiradi. Oilalar buziladi, ish faoliyati izdan chiqadi va alaloqibat insonlar taqdiri xonavayron bo‘ladi.

Albatta, bir qarashda bu biroz ortiqcha vahimadek tuyuladi. Chunki qimor va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar kutilmaganda strategik fikrlashni rivojlantirishga hissa qo‘shishi, mantiqiy va tahliliy tafakkur ko‘nikmalarini paydo qilishi, miyaning umumiy faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ham mumkin.

Ta’kidlash lozimki, qimorga pul tikib, yutqazishni istamaydigan, biroq tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlardan lazzat olish istagida bo‘lganlar uchun tashkil etilayotgan turli

onlayn o‘yinlar yoshlarda asta-sekin moyillikni, kuchli istakni va oxir-oqibatda qaramlikni keltirib chiqaradi.

Qimor o‘yinlariga qaramlikni keltirib chiqaruvchi uchta asosiy omilning birinchisi – insonning o‘ziga nisbatan noto‘g‘ri munosabati. U o‘zining ham ruhiy-fiziologik, ham intellektual imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olmaydi. Oqibatda xayoliy muvaffaqiyatlariga ishona boshlaydi. Va adashadi.

Ikkinchi omil – oiladagi muhit, tarbiya va o‘zaro munosabatlar. Turli kelishmovchiliklar, tushunmovchiliklar, ota-onaning farzandlariga munosabatidagi xatolar bola qalbida aybdorlik, nochorlik va layoqatsizlik hislarini paydo qiladi va oqibatda nimagadir moyillikni, ovunishga intilishni kuchaytiradi.

Uchinchi omil – bolalarning shaxsiy kechinmalari va tevarak-atrofida sodir bo‘layotgan ziddiyatlardan noroziligi, kelajak haqida doimiy xomxayollar bilan yashashi. Shu bois ayrim yoshlar birinchi marta qimor o‘ynaganida bu jarayondan o‘zgacha zavq oladi, hayotidagi birxillikni yengishga harakat qilib, bu ishni davom ettaradi.

Bugungi kunga kelib o‘yinga qaramlik zamonaviy jamiyatlarning jiddiy muammolaridan biriga aylandi. Qimor biznesining nazoratsiz rivojlanishi odamni qashshoqlikka, ba’zi hollarda esa o‘z joniga qasd qilishgacha olib kela boshladi (hozirda qimorga qaram bo‘lgan yoshlarning 25 foizi kamida bir marta o‘z joniga qasd qilishga uringan). Umri davomida qimor o‘yinlariga qaramlik aholining o‘rtacha 2-3 foizida uchraydi va aholining taxminan 1 foizida jiddiy kasallik ko‘rinishigacha yetadi. Kuzatuvlarga ko‘ra, xavf guruhi asosan yoshlar, ko‘pincha erkaklar hisoblanadi.

Tibbiyot nuqtayi nazaridan, insonning nimaga mubtalo bo‘lishi – alkogol, geroin, nikotin yoki qimor o‘yinlari – unchalik muhim emas. Chunki ularning barchasi umumiy xususiyatga ega. Vaqt o‘tishi bilan, garchi hech qanday zavq olmasa ham, odam o‘sha narsani qo‘msayveradigan bo‘lib qoladi.

Qimor o‘yinlariga qaramlik ba’zan “yashirin kasallik” deb ataladi, chunki u giyohvandlik va spirtli ichimliklarga qaram-

lik kabi aniq jismoniy belgilar yoki alomatlarga ega emas. Qimorbozlar odatda o‘z muammolarini inkor etadi yoki boshqalardan yashirishga urinadi.

So‘nggi yillarda fuqarolar orasida keng ommalashib borayotgan qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlar, xususan, onlayn qimor o‘yinlarida ishtirok etgan fuqarolar tomonidan o‘z joniga qasd qilish, firibgarlik, byudjet mablag‘larini talon-toroj qilish va boshqa salbiy holatlar sodir etilmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, qimor o‘yinlari bo‘yicha ma’muriy huquqbuzarliklar soni 2019-yilda qariyb bir yarim mingtani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2020-yilda salkam uch mingtaga, 2021-yilda esa 3 ming 372 taga yetgan. Jumladan, onlayn qimor bilan bog‘liq jinoyatlar ham yildan yilga ortib, unda yutqazgani sababli o‘z joniga qasd qilish holatlari tez-tez sodir bo‘la boshladi. Achinarlisi, ularning aksariyati 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlardir.

Qimor o‘yinlarini tashkil etish bilan bog‘liq jinoyatlar ko‘lamining kengayib borayotgani esa bunday o‘yinlarni uyushtirish bilan bog‘liq noqonuniy faoliyatga qarshi kurashish tizimini takomillashtirishni taqozo etadi. Bunda qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni qonunga xilof ravishda tashkil etish, o‘tkazish yoki ularda ishtirok etish uchun har qanday shaklda ko‘maklashish, shuningdek, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni targ‘ib qiluvchi mahsulotni qonunga hilof ravishda tarqatish, reklama qilish, namoyish etish va shu maqsadda tayyorlash holatlari yuzasidan javobgarlikni kuchaytirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Kazinolar va avtomat-o‘yinlarning keng tarqalishi va unga doir cheklovlarning samarasizligi qimor va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarga mubtalo bo‘layotganlar sonining keskin ortib borishiga sabab bo‘lmoqda. Bundan 40-yil avval AQSH psixiatriya assotsiatsiyasi qimor va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarga mubtalolikni kasallik sifatida ilk bor e’tirof etgan.

Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, keyingi yillarda qimor va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarga mubtalolik kasaliga chalinganlar kattalar orasida 1 – 3, yoshlar orasida esa 2 – 6 foizga yetgan.

Qimor lug‘atda “xatarli” degan ma’noni anglatadi! Istilohda esa kamida ikki tomonning biriga xatar keltiradigan har bir muomalaga – qimor, deyiladi. Shunga ko‘ra, nomi o‘zgarsa-da, ushbu ta’rifga tushgan har qanday narsa qimor hisoblanadi.

Muqaddas islom dinida ham aroq ichish, qimor o‘ynash, butlarga sig‘inish, fol ochish shayton amalidan, deyiladi. Demak qimor – xarom. Chunki, qimor o‘yini oqibati xatarli bellashuvga asoslangan va g‘olibning yutug‘i mag‘lubning mulki evaziga paydo bo‘ladigan munosabatdir. Shuning uchun qimor o‘ynab o‘zgalar molini nohaq egallash niyatida yurganlar alaloqibat boridan ayriladi, o‘zi bexalovat, oilasi parokanda bo‘ladi.

Qimor insonni halol kasb, sabr va shukr qilishdan to‘sadi, tasodifiy omad va quruq havaslarga tobe’ qilib qo‘yadi. Halol mehnat qilmasdan pul topish, dangasalik insonni asta sekin o‘z domiga torta boshlaydi.

Qimorda yutqazgan insonda darhol qayta o‘ynash, boy bergan pullarini qaytarib olish istagi paydo bo‘ladi. Yutib olganida esa, g‘alabadan shavqu zavqqa to‘lib, g‘ururlanadi, yanada ko‘proq pul topish payida o‘yinni yana davom ettiradi.

O‘yin jarayonidagi faxsh so‘zlar ta’sirida kishi qalbi iltifotsiz bo‘lib boradi, ijtimoiy va diniy majburiyatlaridan (oila, ish, namoz va h.z.) chalg‘iydi.

Qimor o‘yinlari halol iqtisodiy faoliyat bo‘lmagani tufayli jamiyatga naf keltirmaydi, ya’ni pullar bir qo‘ldan ikkinchisiga o‘tadi, xolos. Qimor o‘yinlarida yutqazganlar yutganlardan minglab barobar ko‘p bo‘lgani tufayli oilalarning buzilishiga, jinoyatchilikka sabab bo‘ladi.

Qimor o‘yinlari, xususan totalizator o‘yinlari aslida aniq matematik hisob-kitoblarga asoslangan bo‘ladi. Bu kabi aldovdan iborat o‘yinlarda doimo uni tashkil etuvchilar yutadi.

Vashingtondagi Uyitmen kolleji professori, matematik olim Larri Anderson: “Har biriga 100 ming kishi sig‘adigan 35 ta futbol maydonini ko‘z oldingizga keltiring. Har bir muxlis o‘rindig‘ida raqam bor. Shunday qilib, tanlov g‘olibi 3 500 000 raqam ichidan tasodifiy tarzda tanlab olinadi. Telereklamada siz oxirgi lotereya g‘olibi xashamatli va maftunkor dam

olish maskanida ta’tilini qanday o‘tkazayotganini ko‘rib turibsiz. Siz o‘z pulingizni to‘lab, g‘oliblik uchun kurashyapsiz. Ammo o‘yin tugashi bilanoq siz hamma yutqazganlar qatorida qolganingizni anglaysiz…

Shovqin tindi, umidlar sarob bo‘ldi, 3 499 999 kishi bu o‘yinda yutqazdi. Lotereya tashkilotchilari pullarni yig‘ib oldi, biz hech narsa olmadik. Ular bizning his-tuyg‘u va orzu-istaklarimiz bilan o‘ynashdi. Biz mana shunga rozi edik. Lekin hech kim bizga yutish nisbati “3 500 000 ga 1” ekanini aytmadi, o‘zimiz hatto bunga e’tibor ham bermadik”, degan edi.

Darhaqiat, agar e’tibor berganimizda, “3 500 000 ga 1” imkoniyatimiz bilan bir marta yutish uchun eng kamida 9 ming 500-yil kutish kerakligini bilgan bo‘lardik!…

Xulosa sifatida aytish mumkinki, yoshlar tarbiyasida o‘tkinchi xoyu-havaslarga berilish, yengil pul topish yo‘lidan yurish, mehnatsiz daromadni ko‘zlash, mohiyatan halol amallardan chalg‘ish kabi illatlarning oqibatlariga kengroq e’tibor qaratishimiz lozim. Ularda bilim egallash, munosib hulq-atvorga ega bo‘lish, hayotga teran nigoh bilan qarash ko‘nikmalarini shakllantirishga mas’uliyat bilan yondash farzandlarimiz timsolida millatimizni, ta’bir joiz bo‘lsa, davlatimizni asrab qolish bilan barobar ekanini chuqur anglashimiz shart.

Zero, kelajak avlod uchun ma’naviy barkamollik – har qanday mafkuraviy tahdidlarga qarshi eng yaxshi qalqon!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Дудко, Т.Н. Формирование зависимости от азартных игр у молодежи и лиц зрелого возраста / Т.Н.Дудко // Игромания. Мифы и реальность: сб. материалов. Москва. 2004. № 4.

2. Ениколопов С.Н. Психологические проблемы патологического влечения к азартным играм / С.Н.Ениколопов, Д.А.Умняшкина // Вопросы психологии. 2007. №3.

3. Ильин, Е.П. Психология риска/ Е.П.Ильин. С.-Петербург: Питер, 2012.

YOSHLARDA G‘OYAVIY BIRDAMLIK FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISHNING MA’NAVIY-MA’RIFIY ASOSLARI

Sayidov Mahmud Hamidovich,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Avtomaktablar xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi boshlig‘i

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarda g‘oyaviy birdamlik fazilatlarini rivojlantirishning ma’naviy -ma’rifiy asoslari haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada bugungi zamon talabi ta’lim-tarbiya tizimida turgan dolzarb vazifalardan biri mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida yosh avlodni har tomonlama intellektual salohiyatli shaxslar etib tarbiyalash borasidagi fikrlar yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: ta’lim,tarbiya, ma’naviyat, ma’rifat, tafakkup, g‘oyaviy birdamlik, fazilat, qadpiyat, an’ana, upf-odat, intellektual.

Bugungi kunda dunyo miqiyosda globallashuv jarayonlarining shiddatli tus olishi integratsion aloqalarning chuqurlashuvi “milliy chegaralarni” yuvib ketishiga zamin yaratmoqda. Natijada mazkur holat, davlatlarning ichki barqarorligi, milliy birligi va g‘oyaviy birdamligiga tahdid solmoqda. Bunday vaziyatda har bir davlat o‘zining ulug‘vor va startegik maqsadlaridan kelib chiqqan holda jamiyatni birlashtirishi, xalqni yagona g‘oyaga ishontirishi va bu g‘oya orqali barqaror ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlashni maqsad etadi. Zero, “ijtimoiy hamkorlik jamiyatda tinchlik va barqarorlik, yuksak taraqqiyotni ta’minlashning muhim omilidir. Ijtimoiy hamkorlik bo‘lmagan jamiyatda boshboshdoqlik, turli millat va elat vakillari o‘rtasida ishonchsizlik ortib, qarama-qarshilik va ziddiyatlar kuchayishi, bu esa, oxir-oqibatda, og‘ir inqirozga olib kelishi mumkin”. Shu ma’noda jamiyatimizning yangi ta-

raqqiyot bosqichida milliy birlashuv g‘oyasi asosida ijtimoiy hamkorlikka ehtiyoj tobora oshib bormoqda.

Globallashuv sharoitida mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma’rifiy sohalarda yangi imkoniyatlarni ochib berishga zamin yaratmoqda. Ayniqsa, ta’lim sohasida yoshlarga ta’lim va tarbiya berishda yuqori sifat va samaradorlikni talab etmoqda.

Bugungi zamon talabi ta’lim-tarbiya tizimida turgan dolzarb vazifalardan biri mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida yosh avlodni har tomonlama intellektual salohiyatli shaxslar etib tarbiyalashni taqoza etmoqda.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlarda g‘oyaviy birdamlik fazilatlarini rivojlantirish strategiyasi zamirida xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzandlarimizning kuchli, bilimli, dono baxtli bo‘lishi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishga da’vat etadi.

Mamlakatimizda yashovchi millati, tili, dinidan qat’iy nazar, jamiyat a’zolarining ezgu maqsadlari va orzu-intilishlari, tub manfaatlarini yo‘lda xalqni birlashtiradigan, safarbar etib boradigan ijtimoiy birdamlik harakatini shakllantirish ishlari olib borilmoqda. Jamiyatning g‘oyaviy birlashuvi yuksak ijtimoiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi, mamlakatni innovatsion rivojlantirishi, odamlarda faol fuqaroliq pozitsiyasi va tashabbuskorlikni kuchaytirishi, mustaqil dunyoqarash va fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishi, jamiyatda adolat ustuvorligini ta’minlashi, xuquqiy-demokratik davlat asoslarini mustahkamlashi, ijtimoiy hamjihatlik va birdamlikni shakllantiradi. Shu bois, “jamiyatimizda aholi, ayniqsa, yosh yigit-qizlarimizning ma’naviy-ma’rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan dasturiy g‘oya asosida, yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish – o‘ta sharafli vazifadir”. Bunday sharoitda jamiyatimizning g‘oyaviy birlashuvi, ijtimoiy birdamligi va hamjihatligini ta’minlashda yoshlarni ta’lim-tarbiya sohasiga e’tibor qaratish davlatimizning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Bu haqda davlatimiz rahbari Shavkat Mrziyoev ta’biri bilan aytganda: “Yoshlar – xalqimizning asosiy tayanchi va suyanchi. Keng ko‘lamli islohotlarimizni samarali amalga oshirishda ular hal qiluvchi kuch bo‘lib maydonga chiqmoqda. Aynan zamonaviy bilim olgan, ilg‘or kasb-hunarlarni, innovatsion texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta egallagan o‘g‘il-qizlarimiz mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishda yetakchi o‘rin tutadi. Ma’lumki, yoshlar yangicha fikrlashga, yangi-yangi g‘oyalarni dadil o‘rtaga tashlab, ularni amalga oshirishga, muammolarni ijodiy va nostandart yondashuvlar asosida hal etishga moyil bo‘ladi. Shuning uchun hozirgi kunda yosh avlod vakillarining bilim olishi, ilm-fan, innovatsiyalar, adabiyot, san’at va sport sohasidagi iste’dod va salohiyatini yuzaga chiqarishi, ularning jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga ustuvor ahamiyat bermoqdamiz”, – deya ta’kidlagani bejiz emas. Zero, bugungi zamon talabi yoshlarda ma’naviy-g‘oyaviy tarbiya masalasi borasida teran fikrlashni taqozo etmoqda.

Bugungi globallashuv shiddati mamlakatimizni rivojlangan davlatlar darajasiga ko‘tarish, xalkimizning erkin va farovon hayot kechirishida xalq va yoshlarning g‘oyaviy birdamligi asosiy mezon hisoblanadi. Ma’lumki, insonning va jamiyatning intellektual salohiyatini yuksalishida g‘oya asosiy manba hisoblanadi. Chunki, insoniyat va jamiyat ehtiyojlarnning uzluksiz beto‘xtov o‘sib kelishi g‘oya asosida rivojlanib boradi. Bu jarayon o‘z navbatida ehtiyojlarni qondirish borasida yuzaga keladigan muammolar va vazifalarni hal qilishga qaratilgan g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi. Shu ma’noda ham g‘oyani o‘sib kelayotgan ehtiyojlarning in’ikosi va uni qondirish borasidagi muammolar va vazifalar tizimini o‘zida ifoda ettiradi, deyish mumkin. U bu yo‘nalishda istiqbolga xizmat qiluvchi qarashlar, maqsadlar va xulosalar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Zero, “hozirgi vaqtda mintaqamizda va dunyoda hukm surayotgan, oldindan aytib bo‘lmaydigan murkkab sharoitda mamlakatimiz xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta’minlash, jamiyatimizda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini barchamiz

ZJV5401

chuqur anglaymiz. Bu esa o‘tgan davr mobaynida erishgan yutuqlarimiz va yo‘l qo‘ygan kamchiliklarimiz, to‘planib qolgan muammolarni chuqur tahlil qilish, bugun hayotning o‘zi ilgari surayotgan talablarni hisobga olishni taqozo etmoqda”.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha o‘tkazgan videoselektor yig‘ilishida “jahon tarixiga nazar solsak, har bir xalq avvalo ma’naviy birlashuvi, milliy g‘oyasi bilan yuksalganini, bugun yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish yo‘lidan borayotgan mamlakatimizda ham milliy g‘oya masalasi juda muhim ahamiyatga ega” ekanligini alohida ta’kidlab o‘tadi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari o‘z fikrida yana quyidagi fikrlarni ham qo‘shimcha qiladi: “Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan”. Shunday ekan, yangi O‘zbekiston taraqqiyot yo‘li g‘oyaviy birlashuv asosida, milliy birdamlik tamoyillari orqali qurilishi zarurligi kelib chiqadi.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichda ijtimoiy munosabatlar demokratik, huquqiy davlat hamda umuman ijtimoiy hayotning yuksak aql mezonlari asosida tashkil etilishini talab etadi. Bularning barchasi yagona ideologiya “milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” degan g‘oya asosida amalga oshirilmoqda. Maqsadga erishishning turli yo‘llari, turlicha vositalari mavjud. Maqsad – yo‘nalishni belgilaydi, yo‘nalish esa oqilona reja tuzishni talab etadi. Maqsadga erishish obyektiv va suyektiv omillarning to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liq. Aniqlangan yo‘nalish muayyan shart-sharoitlarda amalga oshirilishi mumkin, shuning uchun bu shart-sharoitlarni yaratish zarur. Shart-sharoitlar – yo‘nalishning imkoniyati emas, balki amalga oshishidir. Jamiyatda maqsadlar mushtarakligi ijtimoiy hamkorlikni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy hamkorlik jamiyat barqarorligining asosi hisoblanadi. “Ijtimoiy hamkorlik

ZJV5401

g‘oyasini amalga oshirish yo‘lida g‘ov bo‘ladigan eng xatarli to‘siqlar aqidaparastlik, terrorizm, ekstremizm, ayirmachilik, mahalliychilik, tajavuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday zararli g‘oyalar ta’siriga tushib qolgan jamiyat tabiiy ravishda halokatga yuz tutadi. Bunga uzoq va yaqin tarixdan ko‘plab misollar keltirish mumkin. Mafkuraviy kurashlar kuchayib borayotgan bugungi kunda fuqarolarimiz o‘rtasida ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi”. Shu bois, jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida insonlarni ijtimoiy hamkorlikka undovchi birlashtiruvchi g‘oyaga, hamjihatlikka undovchi g‘oyaviy kuchga ehtiyoj ortib bormoqda.

Jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida g‘oyaviy birlashuv o‘ziga xos milliy mafkuradir, u muayyan mulohaza, qoida, fikrlarda ifodalanadi. Unga erishish ilmiy, texnologik, iqtisodiy, ijtimoiy determinantalar majmui sifatidagi obyektiv shart-sharoitlarga hamda suyektiv omillar, jamiyatda ijtimoiy adolatning ta’minlanishi, ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolarning ijtimoiy faolligi va ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi axloqiy tamoyil va huquqiy normalarga bog‘liqdir. Maqsadga turli vosita, usullar yordamida erishiladi. Maqsadga erishish vositalari ham moddiy, ham ma’naviy bo‘lishi mumkin. Maqsad aloqalari tizimi harakatlar dasturida aks etadi. Maqsad va unga erishish vositasining o‘zaro ta’siri ularning umumiy tomonlari mavjudligi bilan bog‘liq. O‘zaro ta’sir umumiy tomonlar orqali amalga oshiriladi, buning natijasida o‘zaro ta’sir etuvchi tizimlar o‘zgaradi.

Demokratik davlat qurish jarayoni insonlar faoliyatining serqirraligini, turli-tumanligini taqozo etadi. Ushbu jarayonda faoliyat va fikr, manfaatlar, ehtiyojlar, qadriyatlarni tanlash plyuralizmi, ya’ni ko‘pligi bilan belgilanadi. Ular ba’zida bir-birlariga qarama-qarshi bo‘lgan qarashlar, faoliyatlarda namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorlik, milliy xavfsizlik, barcha sog‘lom fikrlovchi fuqarolar, ijtimoiy guruhlar, qatlamlarning ijtimoiy g‘oyaviy mushtarakligiga asoslanadi. Bu borada O‘zbekistonning eng asosiy yutug‘i “ko‘p millatli xalqimizning vujudga kelayotgan qiyinchilik va sinovlarni yengishga qodirligi, zamonaviy dunyoqarashi, siyosiy ongi va ijtimoiy fa-

olligi yuksalib borayotgani, atrofimizdagi voqealarga beparvo bo‘lmasdan, aksincha, daxldorlik tuyg‘usi bilan yashayotganidir”. Demak, ijtimoiy mushtaraklik jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar va ayrim jamiyat a’zolari uchun ma’qul bo‘lib, o‘z maqsadlarini, orzu-niyatlarini amalga oshirishda teng imkoniyatlar va sharoitlarga ega bo‘lishlarining majmuasidir.

Ijtimoiy mushtaraklik, murosa ma’lum bir qadriyatlar tizimiga asoslangan bo‘ladiki, bu qadriyatlar jamiyatning aksariyat qismi uchun maqbul bo‘ladi. Tinchlik, totuvlik, xavfsizlik, barqarorlik, ijtimoiy adolat kabi qadriyatlar shular jumlasidandir. Tinch, farovon yashab, ijtimoiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun fuqaroviy, millatlararo totuvlik, barqarorlik bilan birga ijtimoiy adolat, tolerantlik hamda g‘oyaviy birdamlik munosabatlari mavjud bo‘lishi kerak. Plyuralizmga ustunlik qilgan demokratik davlat, fuqaroviy jamiyatda ijtimoiy mushtaraklikni, fuqarolarni o‘z maqsadlariga erishishda imkoniyat va shartlar tengligi haqidagi ijtimoiy kelishuv deb ham atash mumkin. Bunga misol qilib bir qator tamoyillarni keltirish mumkin, ularni amalga oshirish esa ijtimoiy mushtaraklikning asosi deb qaraladi. Bular barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, erkin tanlash huquqi, o‘z irodasini erkin ifodalash huquqi insonlarning o‘z manfaatlarini himoya qilishi va amalga oshirishi hamda boshqa shaxs huquq va erkinliklarini ta’minlovchi, mulkdorlar sinfi huquq va mavqeyini himoya qiluvchi ijtimoiy adolatni ta’minlovchi tamoyillardir. Ushbu tamoyillarga rioya qilish esa jamiyatda qabul qilingan Konstitutsiya normalari va qonunlarga mos keladigan ijtimoiy mushtaraklik, barqarorlik, xavfsizlik va taraqqiyot kafolatlari deb qarashga imkon beradi. Zero, “bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillarining tinch-totuv hayot kechirayotgani... Millatlararo totuvlikni ta’minlashda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 138 ta milliy madaniy markazning o‘rni behiyos. Aynan shu nuqtayi nazardan kelgusida ham millatlararo totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlash O‘zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib holadi”. Demak, ko‘pmillatli jamiyatning hamjihatligi ularni umumiy madqad

ostida birlashtirish, yo‘naltirish orqali amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshishi, investitsiyalarning ko‘payishi, madaniy-ma’rifiy aloqalarning rivojlanishi va boshqa bir qator sohalardagi yutuqlar jamiyatdagi barqarorlikka, g‘oyaviy birlashuvga bevosita bog‘liqdir.

Hozirgi sharoitda g‘oyaviy birlashuv O‘zbekiston barqarorligi va olg‘a qarab rivojlanishining asosi sifatida jamiyat faoliyatining barcha sohalarida amalga oshmoqda. Bugungi kunda jahonda ham jamiyatlarning g‘oyaviy birlashuvi usutvor vazifalardan biriga aylanmoqda.

Xalqimizni birlashtiradigan, bunyodkorlik faoliyatiga safarbar etadigan, uning ezgu maqsadlari va hayotiy manfaatlarini o‘zida mujassasamlashtirgan milliy birlashuv g‘oyasini yaratish ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy taraqqiyotimizning muhim shartiga aylanmog‘i lozim. Zero, “jamiyatimizda hukm surayotgan o‘zaro do‘stlik va hamjihatlikni yanada rivojlantirish, qaysi millat, din va e’tiqodga mansubligidan qat’i nazar, barcha fuqarolar uchun teng huquqlarni ta’minlash e’tiborimiz markazida bo‘ladi. Ularning o‘rtasiga nifoq soladigan ekstremistik va radikal g‘oyalarni tarqatishga O‘zbekistonda mutlaqo yo‘l qo‘yilmaydi”.

Jamiyat oldida turgan ezgu maqsadlarga erishish, milliy o‘zlikni qayta anglash, unga rahna soluvchi turli “madaniyat”lar xurujidan himoyalanish, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan avlodni voyaga yetkazish zarurati zamon talablariga mos yangi milliy g‘oyani shakllantirishni taqozo etmoqda. Jamiyatning tarixiy ma’naviy ildizlari, urf-odat, an’analariga asoslangan ma’naviy hayotning asosiy tamoyillarini tiklash orqali buyuk kelajak barpo etishni anglash lozim. Xalqning milliy mintaliteti, milliy fazilatlari, o‘zligidan chekinmagan holda umuminsoniy qadriyatlar, dunyo taraqqiyoti tendensiyalari bilan uyg‘unlashgan holda o‘z manfaatlari, ehtiyojlari, maqsad va intilishlarini ta’minlashga xizmat qiladigan ilg‘or, pragmatik milliy g‘oyani tanlash, uni shakllantirish va rivojlantirish naqadar muhimligi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

ZJV5401

MA'NAVIYAT, UNING JAMIYAT VA INSON KAMOLOTIDAGI O'RNI

Shoira Ernazarova,
Respublika musiqa va san'at kolleji

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamiyat ma'naviy taraqqiyotini ta'minlashda ma'naviyatning o'rni hamda uning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. Shuningdek, jamiyat ma'naviy taraqqiyotiga tahdid solayotgan ma'naviy tahdidlar va ularga qarshi kurashishning ijtimoiy zaruriyati to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Tayanch so'zlar: ma'naviyat, ijtimoiy muhit, isloxot, moddiy va ma'naviy hayot, ma'naviy meros, sivilizatsiya.

KIRISH. "Ma'naviyat" ko'p qirrali tushuncha. U insonning zoxiriy va botiniy jihatlarini o'zida qamrab oladi. Shu bois, uning mohiyati, predmeti, tushunchalari va rivojlanish qon uniyatlariga bag'ishlanib respublikamiz ziyolilari o'rtasida qizg'in munozaralar olib borilmoqda."Ma'naviyat" tushunchasiga ilmiy, falsafiy, adabiy, axloqiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko'plab ta'riflarni keltirish mumkin. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, olimlarimiz tomonidan tayyorlangan ilmiy maqolalar, risolalar, o'quv qo'llanmalar, lug'atlarda "Ma'naviyat" tushunchasi va uning tamoyillariga o'ziga xos izoh va ta'riflar berib kelinmoqda. Bunga sabab "Ma'naviyat" tushunchasi keng ma'noda jamiyat hayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o'zida to'la mujassam etgan ijtimoiy-ma'naviy hodisa ekanligidir. Aslida ma'naviyat – insonni jamiki boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan eng baquvvat ma'naviy-ruhiy omil hisoblanadi. Inson – tabiatning, barcha mavjudotning gultoji- deyilganda uning ushbu xislati, ya'ni yuksak ma'naviyat egasi bo'la olish imkoniyati nazarda tutiladi. Bu imkonni boshqa jonzotlarda ko'rmaymiz. Moddiy narsalar odamga

jismoniy oziq va quvvat bersa, ma’naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag‘ishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta’minlanish bilan kifoyalanish – ongsiz va ruhsiz mahluqotlarga xos. Ma’naviyatga intilish esa ruh va ong egasi bo‘lmish odamzotgagina xos fazilatdir. Ma’naviyat odamning aqliy va ruhiy olami majmui kabi murakkab ijtimoiy hodisadir. Ma’naviyat juda keng qamrovli tushuncha bo‘lganligi uchun ham, yuqorida ta’kidlaganimizdek uni bir jumlada ifodalash nihoyatda mushkul. Ma’naviyat ko‘proq inson qalbiga, botiniy dunyosiga qaratilganligi bilan ajralib turadi. SHu ma’noda ma’naviyat inson qalbidagi ilohiy bir nur sanaladiki, bu ilohiy nur hech bir jonzotda yo‘q. Ma’naviyat shunday sehrli tilsimki, uni tugal yechishga bashar qudrati etmaydi. Shunday ekan, «ma’naviyat» tushunchasiga bir yo‘la mukammal ta’rif berish murakkab hisoblanadi.Unga ta’rif berishda Islom Karimovning nazariy qarashlariga, milliy qadriyatlarimizni, tarixiy va madaniy-ma’naviy merosimizni tiklash borasidagi amaliy faoliyatlariga tayanishimiz, uni o‘zimiz uchun dasturulamal qilib olishimiz maqsadga muvofiq. Yurtboshimiz «Yuksak ma’naviyat- engilmas kuch” asarida insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog‘langan bu tushuncha har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan o‘rin tutishligini uqtirib: «Ma’naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon – e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”[2] deb ta’riflagan edilar. Bu ta’rifda inson faoliyatining barcha ma’naviy qirralari qamrab olingan bo‘lib, biz bundan buyon ma’naviyat haqida so‘z yuritganimizda unga metodologik asos sifatida tayanamiz. Mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgunga qadar ilmiy adabiyotlarda “Ma’naviyat” mustaqil ilmiy tushuncha sifatida qo‘llanilmagan edi. Bir qator olimlarimiz anjumanlarda qilgan ma’ruzalarida «ma’naviyat – insondagi axloq, odob, bilim, ilm, iymon, ixlos va insoniyat kamoloti uchun ijobiy ta’sir qiluvchi tizim yoki

ma’naviyat- insonning aqliy, axloqiy, ilmiy, amaliy, mafkuraviy qarashlar yig‘indisi hisoblanib, diniy va dunyoviy qarashlarning aks etish darajasidir», deb ta’rif berib kelmoqdalar. A. Erkaevning fikricha, «Ma’naviyat – insoning ijtimoiy – madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya’ni insonning mehr-muruvvat, adolat, to‘g‘rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go‘zallikni sevish, zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko‘plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuidir».[3] M.Imomnazarov dastlab “Ma’naviyat inson qalbidagi ilohiy nur»,[4] deb yozgan bo‘lsa, keyinchaliklik «Ma’naviyat – inson qalbida, ko‘ngil ko‘zgusida aks etgan haqiqat nuridir, deyilgan ta’rif darhaqiqat, so‘fiyona ramziy ta’rifdir, zotan boshqacha ta’rif bu cheksiz mohiyatni cheklab qo‘yadi», [5] -deb yozadi. E. YUsupov insonda mavjud bo‘ladigan hamma xislatlar va fazilatlar emas, balki ijobiylarigina ma’naviyat bo‘la olishini ko‘rsatib: «Ma’naviyat –inson axloqi va odobi, bilimlari, istedodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e’tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarning bir – biri bila n uzviy bog‘langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir etadigan mushtarak tizimdir»,[6] -deb ta’riflaydi.T. Mahmudov «Ma’naviyat – insonning ma’lum darajadagi jismoniy, aqliy, ahloqiy va ruhiy balog‘ati va dunyoqarashini ifodalovchi tushunchadir», [7] degan ta’rifni beradi. Taraqqiyotning mohiyati hamda uning jadal sur’atlar bilan yuksalib borishi mavjud ijtimoiy-ma’naviy muhitning saviyasi va kamolot darajasiga boliqdir. Qaysi jamiyatda ma’naviy taraqqiyot darajasi yuksak bo‘lsa, bilinki, shu muhitda yashovchi insonlarning intelektual salohiyati ham yuqori bo‘ladi. “Nega insoniyat har doim ma’naviyatga zaruriyat sezib yashaydi?, Ma’naviyatning shaxs kamolotida qanday o‘rni bor?, Ma’naviyatsiz yashash mumkinmi? Mana shu kabi savollar olim va ulamolarning ilm yo‘lida mashaqqat chekishiga hamda insoniyat jamiyatini yaxshilash uchun xizmat qilishiga undagan.”[2;992] Ma’naviyat - odamning ruhiy va aqliy imkoniyatlarini yuzaga chiqa-

ruvchi, inson qalbini eng pokiza tuyg‘ular bilan boyituvchi hamda uni ezgu maqsadlar sari yetaklovchi beqiyos kuchdir. Ma’naviyat inson va jamiyat madaniyatining negizi, inson va jamiyat hayotining muhim yo‘nalishlarini belgilab beruvchi bosh omildir. Ma’naviyat insonlarning ruhiy olamini boyitib, mavjud jamiyatning ma’naviy qiyofasini ko‘rsatib beruvchi mezondir. Ma’naviyat insonlarning ijtimoiylashuv jarayoniga turtki berib, aniq maqsadlar sari harakatga chorlovchi kuch hisoblanadi. Shuni unutmaslik lozimki, ma’naviyatsiz jamiyat insoniyat olamini butkul tanazzulga yetaklaydi. Ma’lumki, inson va jamiyat - bir-biri bilan uzviy aloqada va muayyan qonun-qoidalar asosida rivojlanib boradi. Inson jamiyatdan tashqarida o‘zining haqiqiy mohiyatini yo‘qotadi. Biroq jamiyat insonlarning shunchaki yig‘indisidangina iborat emas. Jamiyat odamlar o‘rtasida amal qiladigan real munosabatlarni ham qamrab oladi. Bunday munosabatlar kishilarni oila, urug‘, qabila, millat, davlat va nihoyat, insoniyat hamjamiyatiga birlashtiradi. Odamlar yig‘indisini xis etish, hamda kuzatish mumkin. Buni iloji bor. Biroq odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy-ma’naviy munosabatlarni ko‘rish, kuzatish yoki aniq xulosa berish murakkab holat hisoblanadi, chunki ularyashirin xarakterga ega bo‘lib, jismsiz, nomoddiy ko‘rinishdadir. Jamiyat hayotida ana shunday munosabatlar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Demak, insonlar bir-birini inkor etishi, o‘zlarini yagona har narsani anglaguvchi, boshqalardan aqlliroq va to‘g‘ri fikr yurituvchi, jamiyatdan alohida individual shaxs sifatida mavjud deb o‘ylashlari mumkin. Lekin har qanday sharoitda ham ular ijtimoiylik munosabatlari ichida qoladilar va jamiyatning g‘oyalari bilan birga yashaydilar. Ana shu jarayonda muayyan bir jamiyatda yashayotgan kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yagona vosita sifatida ma’naviyat masalasi yuzaga keladi. Bunday munosabatlarni yo‘lga soluvchi yagonavosita ma’naviyat ekan, bu tushunchaga kun sayin ortib borayotgan zaruriyat va ehtiyojning oshib borayotganligi bugungi kunda dunyoda bo‘layotgan voqea-

hodisalar misolida ham yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Jamiyat ma’naviy taraqqiyotini ta’minlash borasida davlatimiz tomonidan ham ko‘plab isloxotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, “Mamlakatimizni 2017 – 2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o‘tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.”[3;1] Bundan tashqari, “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” va uning V bobi “Ma’naviytaraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish” masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, 71-78-maqsadlar doirasida jamiyat ma’naviy taraqqiyotini ta’minlash borasida amalga oshirishimiz lozim bo‘lgan vazifalar belgilab berildi. Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil Tarixiy shart-sharoit, davr, davlat tuzimi va o‘sha jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy ta’sirlar uning dunyoqarashi, fikrlash tarzi, tafakkurida o‘z aksini topadi. Bunday ta’sirlarning 3 xil ko‘rinishi mavjud: Mikro bosqichdagi ta’sirlar – bu bevosita inson bolasi tug‘ilib o‘sadigan oila, ta’lim va tarbiya maskanlari, mehnat jamoasi, mahalla va do‘stlar muhitidagi ta’sirlar. Makro bosqichdagi ta’sirlar – bu ijtimoiy, ma’naviy, siyosiy hamda iqtisodiy muhit ta’sirlari. Mega bosqichdagi ta’sirlar – bu keng miqyosda xalqaro maydonda avj olib borayotgan g‘ayaviy ta’sirlar. Mikro, makro va mega bosqichdagi ta’sirlar insonning ijtimoiylashuv jarayoniga aralashib, uning milliy, mintaqaviy hamda xalqaro maydondagio‘rnini belgilashga sabab bo‘ladi. Ma’naviy ta’sirlar bevosita moddiy ta’sirlar bilan uyg‘unlikda rivojlanib boradi. Chunki, jamiyatning moddiy va ma’naviy tomonlarini uyg‘unlashtirish ijtimoiy taraqqiyotning asosi hisoblanadi. Inson ma’naviyatini yuksaltirish orqaligina iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin. Chunki iqtisodiy ne’matlardan unumlifoydalanish hamda ularni oqilona sarflash jarayonlarida shaxsning ma’naviykamoloti asosiy turtki

vazifasini o‘taydi. Insonning haqiqiy mohiyati moddiy ehtiyojlarni madaniy shakllarda qondirilishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Inson aqlli mavjudot sifatida moddiy ehtiyojlarini madaniy shakllarda qondirish uchun tabiat va jamiyat mohiyatini bilishga, tabiat va jamiyatni o‘z maqsadlariga mos ravishda o‘zgartirishga harakat qiladi. Ilm-fan va texnika insonning ma’naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirish quroli, muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Yuksak ma’naviyat tufayligina inson o‘z ehtiyojlarini madaniy shakllarda oqilona va to‘laroq qondirish imkoniga ega bo‘ladi. Har qanday jamiyat hayotida ma’naviyat, ma’naviy ishlab chiqarish hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Kishilar ma’naviy ishlab chiqarish jarayonida olamni, atrof-muhitni to‘laroq biladilar, ijtimoiy hayot qoidalarini o‘zlashtiradilar, birbirlari bilan insonlarcha munosabatda bo‘lishni o‘rganadilar. Ma’naviy ishlab chiqarish jarayonida ilg‘or g‘oya, nazariya va ta’limotlar yaratiladi. Bu esa ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, totuvlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi, Ilm-fan va texnika taraqqiyoti jamiyatning moddiy farovonligini yanada yaxshilash uchun zamin yaratadi. Ta’lim-tarbiya tizimi ham jamiyat ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutadi. Hayotga kirib kelayotgan yosh 54 avlodning ma’naviy qiyofasi, madaniyati, hayotga va odamlarga bo‘lgan munosabati ta’lim muassasalarida shakllanadi. San’at, adabiyot, madaniyat, ilm-fan arboblarining mehnati jamiyatning yuksalishida alohida o‘rin tutadi, shu boisdan ham ularning mehnati qadrlanadi. Jamiyatning moddiy va ma’naviy sohalari kishilarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liq ravishda vujudga keladi.

XULOSA VA MUNOZARA. Xulosa qilib aytganda, jamiyat ma’naviy taraqqiyotini ta’minlashda harbir murabbiy, har bir targ‘ibotchi, jurnalist, ota-ona, mahalla, ta’lim muassasasi o‘zining mustahkam mafkuraviy immuniteti, professional mahorati hamda fuqarolik pozitsiyasi bilan mazkur jarayonni faollashtirishda tayanch vazifasini o‘tab berishi maqsadga muvofiqdir. Zero, jamiyatning ma’naviyatga, axloqiy tarbiya-

ga bo‘lgan munosabatini butunlay o‘zgartirmasdan turib, sohani tubdan takomillashtirish mumkin emas. Chunki jamiyat a’zolarining ma’naviy barkamollik darajasi istiqboldagi jarayonlarning debochasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sputnik O‘zbekiston. Mirziyoyev: Yangi O‘zbekistonni barpo etish ustunlaridan biri – kuchli ma’naviyatdir. 20:11 19.01.2021

2. Mirziyoyev Sh. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish mavzusidagi videoselektor. 2021-yil 19 -yanvar. 2

3. Adashova, M. M. (2022). ABU MANSUR MOTURIDIY FALSAFIY MEROSIDA SHAXS MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISH MASALALARI. Oriental renaissance: Innovative sciences, 2(1), 991-997.

4. Gazeta.uz. 19 yanvar 2021 22:08

5. Begmatov A. Ma’naviyat falsafasi yohud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi. T.; “Sharq”. 2000. – 82-bet.

6. Gadjiev K.S. Politicheskaya filosofiya. – M.”Ekonomika”, 1999.

7. Q.Nazarov, I.Ergashev va boshqalar. Milliy g‘oya va rahbar mas’uliyati. – T.; G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007.

8. Saifnazarov, I., Xujayev, M. (2018) Axmad Zaki Validiy islamic culture. Ekonomika i sotsium, 2, 55-57.

MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Abdugaffarova Ozoda Abdusattarovna,
O'zbekiston Respublikasi Prezdaenti huzuridagi
Boshqaruv Akademiyasi ilmiy izlanuvchisi

Abdugaffarov Abdusattar Abdujabborovich,
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Annotasiya: Ushbu maqolada ma'naviy-ma'rify ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish texnologiyalarining ayrimlari haqida so'z borib, ularni amaliyotga tadbiq etish to'g'risida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: mafkura, pedagogik jarayon, texnologiya, rivojlantirish, immunitet, ma'naviyat,immunitet, g'oya, tarbiya.

Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimida talabalarning mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish metodikalari, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash mexanizmlari, bo'lajak o'qituvchilarning mafkuraviy sifatlarini rivojlantirishning amaliy pedagogik tizimi, o'qitish modellari texnologik taraqqiyot g'oyalari bilan uyg'unlashtirilgan interfaol dasturlar ta'lim jarayoniga tatbiq etilgan. Jahon oliy ta'lim tizimida talabalarni kasbiy ijtimoiylashtirish, ma'naviy-axloqiy va mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish, ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini tarbiyalash metodikasini takomillashtirish, mafkuraviy immunitetini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda[1].

Dunyoning yetakchi, rivojlangan mamlakatlari AQSh, Rossiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Koreya kabi davlatlarida talabalarning tafakkurini o'stirish, qobiliyatlarini erta namo-

yon etish, ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, mafkuraviy immunitetini rivojlantirish mexanizmlari samaradorligini oshirish metodikasini takomil-lashtirishda muammoli o‘qitish, modulli o‘qitish, blended learning (aralash o‘qitish), mahorat darslari, vebinarlar, evristik metodlar, virtual ta’lim texnologiyalarini qo‘llash muhim o‘rin tutadi[2]. Shunday ekan, biz qarashlar, fikrlalar, g‘oyalar, mafkuralar degan tushunchalarga nisbatan o‘z qarashalrimizga ega bo‘lmog‘imiz darkor. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi - bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi - ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat” – deb ta’kidlagan edi [3].

Shu o‘rinda mafkura, ma’naviyat, ma’rifat so‘zlarining izohlari yana bir bor ta’kidlansa maqsadga muvofiq bo‘lardi. Mafkura (arab. – fikrlar majmui) – muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat, davlatning manfaatlari, orzulari, maqsadlari ifodalangan qarashlar va ularni amalga oshirish tizimi. Unda manfaatlari ifodalanayotgan guruh va qatlamlarning o‘tmishi, bugungi kuni va istiqboli o‘z ifodasini topadi. Mafkura. har qanday jamiyat hayotida zarur [3].

Ma’naviyat - inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o‘z ichiga oladi. Ma’naviyat atamasining asosida “ma’no” so‘zi yotadi. Ma’lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo‘y basti, ko‘rinishi, kiyinishi, xatti-harakati va boshqalar kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari, his-tuyg‘ularini o‘z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami ma’naviyatdir [4].

Ma’rifat – kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya. U tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma’lumotlar majmuasini ham bildiradi. Ma’rifat ilmu urfon ma’nosida ham ishlatiladi. Ma’rifat tushunchasi madaniyat, ma’naviyat tushunchalari bilan

bog‘liq. Ma’rifat ma’naviy qaramlikni bartaraf qiladi, insonga kuch-qudrat ato etadi. U kishilarni jaholatdan qutqaradi, buzuq ishlardan qaytaradi, yaxshi xulq va odob egasi bo‘lishga yordam beradi. Ma’rifatli kishilardan tashkil topgan jamiyat ravnaq topadi, kelajagi porloq bo‘ladi. Ma’rifat - bilim va madaniyatning qo‘shma mazmuni bo‘lib, maorif uni yoyish vositasidir. Ma’rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi. Tasavvufda ma’rifat sufiylarning ruhiy kamolotga erishuvining asosiy bosqichlaridan biri sifatida talqin etiladi [4].

Yangi O‘zbekiston sharoitida mafkuramizning tub ma’no-mazmunini belgilab beradigan ana shu maqsad bizning hayotimiz, ong-u tafakkurimizga singib, dunyoqarashimiz, amaliy harakatlarimizning asosiga aylandi va zamonga mos tarzda o‘zgarib bormoqda. Shu yo‘lda yoshlarda mafkuraning mazmun mohiyatini to‘liq shakllantirib, tarixiy ildizlarini asoslab, dunyoqarashni rivojlantirish ta’lim-tarbiyada eng muhim vazifaga aylanlog‘i kerak. Ta’lim jaroyonining ajralmas bir qismi bu ma’naviy-ma’rify ishlar, tadbirlar, qadriyatlar sanaladi. Bu borada ishlarni yanada takomillashtirish borasida Prezidentimiz “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” 2021-yil 26-martda qarorni imzoladi. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomil-lashtirishning ustuvor yo‘nalishlari etib quyidagi vazifalar belgilandi:

1) “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;

2) oila, ta’lim muassasalari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash;

3) targ‘ibot-tashviqot va tarbiya yo‘nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo‘yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish;

4) el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas’uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

5) aholining Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, g‘oyaviy va axborot hurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;

6) madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san’atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma’naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish;

7) geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o‘rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish.

Ushbu vazifalarni amaliyotga joriy etishda pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va shu asosida oily ta’lim muassasalarida mash‘gulotlarni tashkil etish lozim. Shunga muvofiq sanoat sohalari uchun kadrlar tayyorlab beradigan mutasaddi tashkilotlar o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim o‘quv-tarbiya jarayonini yangicha tashkil qilish muammosini hal qilishga bog‘liqdir. Buning yagona yo‘li zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’limtarbiya jarayoniga keng qo‘llash orqali yechiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish ham dolzarb muammo hisoblanadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ta’lim-tarbiya jarayonini ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, dars, darsdan tashqari mashg‘ulotlarni yangicha ijodiy asosda tashkil qilish zarur. Eng muhimi har bir pedagog, rahbar ta’limni yangi metodologik asosda tashkil qilishning tub mohiyatini tushunmog‘i lozim [2].

Yangicha ta’lim eski andozalar asosida olib borilishi mumkin emas. Bundan tashqari ta’limni yangicha tashkil qilishning ilmiy-metodik asoslarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning zaruriy shart-sharoitlarini bilish ham muhim. Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror asosida islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar xalqaro miqyosda e’tirof etilib, o‘zining natijasini bermoqda. Oqibatida O‘zbekistonning iqti-

sodiy va ijtimoiy rivojlanishi ancha tezlashdi. Lekin uning kelgusi taraqqiyoti omillarini inobatga olish jahon ta'lim amaliyotida qo'llanilayotgan yangi va ilg'or fan yutuqlaridan keng foydalanishni taqozo etadi. Chunki zamonaviy texnologiyalar ta'lim oluvchilarning intellektual, ijodiy va axloqiy kamolotining zaruriy sharti hisoblanadi. Faqat shu asosda rivojlanish uzluksiz ta'lim tizimining hamma bo'g'inlarida pedagogik jarayonning chuqur mohiyatini tashkil qiluvchi asosiy tushunchaga aylandiki, uning harakatlantiruvchi kuchi zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Ko'p mamlakatlarda jumladan, bizning respublikamizda o'tkazilgan tadqiqotlar ta'lim tizimining hamma bo'g'ini uchun eng katta kamchilik tahsil oluvchilarning olgan bilimlarini amaliy faoliyatga qo'llay olmaslik, murakkab hayotiy va iqtisodiy vaziyatlardan mustaqil o'zi chiqib keta olmaslik ekanligini ko'rsatdi.

Ta'lim islohotimizda jahon ta'limi rivojlanishining ijobiy xususiyatlarini ta'limni amaliy - inson hayoti, shaxsga yo'nalganlik tajribasini va uni rivojlan-tirishning muhim vositasi zamonaviy pedagogik texnologiyalar ekanligi asosida uni rivojlanishi asosiy yo'nalishlarini belgilash muhim hisoblanadi. Islohot oqibatida ta'lim tizimimiz rivojini jahonga yo'naltirish - yana juda bir muhim vazifa - ta'lim rivojini bozor munosabatlariga moslashtirishning tajribasidan unumli foydalanishdir.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirishda quyidagi texnologiyalarni joriy etish muhimdir. Jumladan: 1) Katta axborot zahirasi bilan shug'ullanishga, bilimlarning aniq tizimini shakllantirish va bilimlarga tayanishga yo'naltirilgan axborot-rivojlantiruvchi texnologiya.

2) Mustaqil fikrlash, faollikni oshirishga yo'naltirilgan muammoli ta'lim texnologiyasi. 3) Kasbiy yoki o'quv faoliyati vositalarini egallashga yo'naltirilgan faoliyat texnologiyasi. 4) Shaxsning kamoloti yoki ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsning faolligini shakllantirishga qaratilgan texnologiya.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayoniga keng qo'llashda axborot texnologiya, xususan kompyuter texnologiyasi muhim ahamiyat

ZJV5401

kasb etadi. Aynan yangi axborot texnologiyalar o‘qitish metodlari hamda pedagogik texnologiyalarning ta’lim-tarbiyaviy yoki ularning pedagogik, didaktik hamda potensial imkoniyatlarini to‘liq ochish va ulardan talabalarni rivojlantirish uchun foydalanishda qulaylik yaratadi. Axborot texnologiyalari pedagogik texnologiyalarning ta’sir kuchini oshirib, ularni qo‘llashdan kutilgan natijaga erishish uchun sharoit vujudga keltiradi. Pedagogik va axborot texnologiyalarni o‘quv-tarbiya jarayoniga qo‘llash asta-sekin avtoritar o‘qitish metodlaridan insonparvarlik pedagogikasiga yoki shaxs manfaati va kamolotiga yo‘naltirilgan o‘qitish tizimiga o‘tish imkoniyatini beradi.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish mazmunini shunday tanlash lozimki, unda faqat mafkuraviy immunitetgina emas, balki shaxsni qobiliyati, intellektual rivoji, uni shakllanishi va o‘zini namoyon qila olishiga zamin hozirlashi lozim.

Xulosa qilib ta’kidlash mumkinki, ma’naviy marifiy ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivochlantirish texnologiyalardan bo‘lajak mutaxassis o‘z imkoniyati, ta’lim mazmuni, o‘quvchilar bilim saviyasi va tajribasini hisobga olib tanlashi kerak. Shundagina har qanday texnologiya yuqorida keltirilgan fikrlarni amalga oshirish vositasi bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni -T.: “O‘zbekiston”, 2020-yil 23-sentabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi nuqti (https://www.gazeta.uz)

4. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti , T.: 975-bet.

ZJV5401

OILADA VATANPARVARLIK TUYG‘ULARINI SHAKLLANTIRISHDA MA’NAVIYATNING O‘RNI

Eshbo‘ri Xudoyberdiyev,
Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi
Surxondaryo viloyat bo‘limi bosh mutaxassisi

Annotasiya: Maqolada “Bir ziyoli – bir mahallaga ma’naviy homiy”, “Har bir nuroniy – o‘n nafar yoshga murabbiy” tamoyillarini amaliyotda qo‘llash orqali oilada sog‘lom psixologik muhitni yaxshilash, mahallalarda aholi o‘rtasida vatanga muhabbat, shukronalik, tinchlik, mamlakatda amalga oshirilayotgan tub islohatlarni daxldorlik tuyg‘ularini shakillantirish kabi yuksak ma’naviy qiyofa ochib berilgan.

Dunyodagi barcha illat, jinoyat, urush va ijtimoiy-siyosiy, ekologik inqirozlarning ildizini shaxs ma’naviyatidan qidirish, barcha muammolarning yechimi ana shunda mujassamligi e’tibordan chetda qoldi. Shaxsning ma’naviy dunyosi uning iqtisodiy va moliyaviy o‘pqoniga tushib ketdi. Yangi asr kishisi butun borlig‘i bilan to‘laligicha global iqtisodiyot hamda insoniyat uchun yagona hukmdor bo‘lgan bozorning quliga aylanib bo‘ldi.

Bu – davrimizdagi eng og‘riqli va xavotirli global muammodir.

O‘zbekiston o‘tgan davr mobaynida jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egallab, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil ilgarilab bormoqda. Ayniqsa, Prezidentimizning har bir so‘zlari xalqimiz qalbida iftixor tuyg‘ularini yanada jo‘sh urdirdi.

Shubhasiz, bundan ruhlangan xalqimiz davlatimizning har qarich yerida yuksalish davri bo‘lishi uchun azmu qaror qilmoqdalar. “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan ustuvor g‘oya asosiy dasturilamalimizdir.

Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, vijdoni, ma'naviyati bor inson Vatanini albatta yaxshi ko'radi. Vijdon, ma'naviyat degani – xalqqa, Vataniga chin yurakdan xizmat qilish deganidir!.

Xalqimizda: "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona", degan gap bejiz aytilmagan. Farzandlarimizning ma'naviy barkamol insonlar bo'lib voyaga yetishi, yosh oilalarning mustahkam oyoqqa turib olishida keksalarimizning pandu nasihatlari, ibratli hayot yo'llari muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu jarayonda Prezidentimizning "Agar jamiyat tanasi iqtisod bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga kirishar ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat", degan purma'no fikrlari soha rivojiga qaratilgan katta e'tibordir.

Aholi o'rtasida ijtimoiy ma'naviy muhitni yaxshilash, milliy g'urur, milliy iftixor, daxldorlik tuyg'usini yanada kuchaytirish uchun Yurtboshimizning "Bir ziyoli – bir mahallaga ma'naviy homiy" g'oyasi muhim o'rin tutadi. Bu ma'naviy tarbiyani mahallalardan boshlash, mahalla fuqarolarini jahon maydonidagi siyosiy voqelikdan xabardor qilib borish, xalqimizga xos milliy urf-odatlar, qadriyatlarni singdirish asosida ajdodlar merosini o'zlashtirish hamda milliy g'oya va ma'naviyat sohasidagi bilimlarni o'rganishga berilayotgan katta e'tibordir.

Shu sababli viloyatdagi mavjud 723 ta mahallaga "Bir ziyoli – bir mahallaga ma'naviy homiy" tamoyili asosida 723 nafar professor-o'qituvchilar va ziyolilar biriktirildi. Ushbu yo'nalishda bugungi kunda amaliy ishlarga o'tilgan.

Hududlardagi mahallalarda aholi o'rtasida vatanga muhabbat, shukronalik, tinchlik, mamlakatda amalga oshirilayotgan tub islohatlarni yetkazish, mahallalarda diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlikni ta'minlash maqsadida "Jaholatga qarshi ma'rifat" va "Ma'naviyatga tahdid – o'zligimiz va kelajagimizga tahdid" g'oyalari asosida 1500 dan ziyod targ'ibot tadbirlari tashkil etildi.

ZJV5401

Shuningdek, “Har bir nuroniy – o‘n nafar yoshga murabbiy” tamoyili asosida 723 ta mahallalardagi keksa yoshdagi, xalq orasida obro‘-e’tibor qozongan 1768 nafar nuroniylarning har biriga 10 nafardan jami 17680 nafar tarbiyasi og‘ir, ma’naviy ko‘makka muhtoj, uyushmagan, ishsiz yoshlar biriktirilib, ular bilan ishlash bo‘yicha yangi tizim joriy etilmoqda.

Bu esa o‘z samarasini berib, “Har bir nuroniy – o‘n yoshga mas’ul” Respublika ko‘rik tanlovida Termiz shahri “Bog‘zor” mahallasiga biriktirilgan nuroniy Chori Jumayev faxrli 1-o‘rinni egalladi. Eng namunali tuman va shahar” respublika tanlovida esa Sariosiyo tumani faxrli 2-o‘rinni egalladi.

Marralar qanchalik baland olinmasin, loyihalar nechog‘li istiqbolli bo‘lmasin, Vatanni sevadigan, chin yurakdan mehnat qiladigan fidoyi insonlarsiz ularni amalga oshirish imkonsiz.

Bugun odamlar ko‘ngliga yo‘l topish, ularning dardu tashvishlariga quloq tutish, muammolariga yechim izlashga qaratilgan ulug‘vor ishlar haqida ko‘p gapirish mumkin. Xo‘sh, ana shu ezguliklar, xayrli tashabbuslar qayerdan quvvat olmoqda? Albatta, ko‘ngildan! Vatanga, xalqqa daxldorlik hissidan!“Elga qo‘shulg‘on esh topti”, deb bejiz aytmagan Hazrat Navoiy.

Loqaydlik – illat. Hamjihatlikda esa hikmat ko‘p. Xo‘sh, odamlarni nima birlashtiradi? Ezgu maqsad! Umummanfaat! Bugun Vatanni obod qilish yo‘lidagi chaqiriqlarga yurtdoshlarimiz nima uchun bir ovozdan “Labbay” deb javob qaytarishmoqda? Chunki yurtning buguni, kelajagiga hamma daxldor!

O‘zbek tilining izohli lug‘atida: Vatan – kishining tug‘ilib o‘sgan o‘lkasi, shahri, ona yurti, diyori, har bir fuqaro uchun mamlakat, turar joy, boshpana, maskan, uy ma’nolarini ifodalashi ko‘rsatilgan.

Inson ulg‘aygan sari uning Vatan haqidagi tushunchalari ham kengaya boradi. Yurtimizda tug‘ilib-o‘sgan har bir inson “Vatanim” deganida o‘z uyini, qishlog‘ini yoki shahrini emas, balki O‘zbekiston Respublikasini nazarda tutadi. Bu esa Vatan tuyg‘usining, vatanparvarlikning xalqimiz qalbidagi ifodasidir.

Vatan tuyg‘usi – bu aziz va go‘zal yurtimizga hurmat va sadoqatli bo‘lish. Vatan tuyg‘usi – bu Turon, Movarounnahr, Turkiston va hozirda O‘zbekiston deya atalgan zaminda yashab kelayotgan xalqimizning oltin merosini, uning tarixini o‘rganishga intilishdir.

Vatan ozodligi uchun jonini fido qilgan To‘maris, Shiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik singari xalqimizning mard va jasur farzandlari biz uchun, o‘sib kelayotgan yosh avlod uchun o‘rnak-namuna timsolidir. Masalan, bobomiz Najmiddin Kubroning o‘chmas jasoratini eslaylik. Bu jasorat zamirida ona Vatanga cheksiz muhabbat va sadoqat tuyg‘usi yotadi.

O‘z davrida “Yurtim, Turonim, sendan ayrilmoq – mening o‘limim, sening uchun o‘lmoq – mening tirikligimdur”, deb yozgan edi Fitrat. Bu so‘zlarda vatanparvar insonning qalb nolalari ifodasini topgan

Vatan ravnaqi – milliy g‘oyamizning yuksak tushunchalaridan biri bo‘lib, u fuqarolarimizning bilimi va kamoliga bog‘liq. Har bir yurtdoshimiz, qaysi sohada xizmat qilishidan qat’i nazar, bu haqiqatni to‘liq anglagan holda, o‘zining ma’naviy kamoloti uchun mas’uliyatni his etishi, shaxsiy manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg‘unlashtirib yashashi va o‘sib kelayotgan yosh avlodni komil inson etib tarbiyalashi lozim. Shuning uchun ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi”, deya bu jarayonga yuksak baho bergan edi.

Zero, ma’naviyat – ochlik, yo‘qchilikka go‘zal sabrni, jahlu nafsni tiyish va yengishni, xullas barcha illatlarga qarshi tura olishni ko‘rsatadi va o‘rgatadi.

Zamonaviy O‘zbekistonning yangi davrini ham ana shunday xislatu fazilatlar sohiblari – fidoyi va vatanparvar yurtdoshlarimiz yaratmoqda. Binobarin, barchamizning dilimizdagi maqsadu muddao mushtarak – O‘zbekistonimiz eng baxtiyor insonlar mamlakatiga aylansin!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. «Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz». Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent O‘zbekiston, 2016.

2. «Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir» Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent O‘zbekiston, 2018.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2021-yil 19-yanvar kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining majlisida so‘zlagan nutqi. – Toshkent, 2021.

4. M.Quronov, A.Mavrulov, Bizni birlashtirgan g‘oya. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2016

5. Internet ma’lumotlari www.ziyo.net www.ma’naviy/milliyg‘oya.uz

MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH – BUGUNGI KUNNING DOLZARB VAZIFASI

Atabayeva Xursanoy Erkinovna,
Uchtepa tumanidani 283-maktab ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchisi

Annotatsiya: Maqolada bugungi murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda har qanday rivojlanayotgan jamiyat o'zining ichki barqarorligini ta'minlashi shartligi, buni amalga oshiruvchi asosiy omillardan biri ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yo'lga qo'yish ekani atroflicha yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: jamiyat, rivojlanish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, barqarorlik, jarayon, tahlikali vaziyat, mafkura, g'oyaviy kurash, geosiyosat, mustaqillik, globallashuv.

Bugungi dunyo qanchalik murakkab rivojlanish bosqichini o'z boshidan o'tkazayotgani barchaga ayon. Tashqi ta'sirlar, geopolitik maqsadlar xuruj qilib turgan bir paytda har qanday rivojlanayotgan jamiyat o'zining ichki barqarorligini ta'minlashi shart bo'lib qoldi. Buni amalga oshiruvchi asosiy omillardan biri ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yo'lga qo'yishdir. Bu o'ta murakkab jarayon bo'lib, butun jamiyat birlikda yagona maqsad sari intilishiga xizmat qiladi. Ana shunday jarayonda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilish, yoshlarni yo'naltirish, mutaxassislarni tayyorlash, xalq bilan tizimli ishlashni yo'lga qo'yish zaruratini talab etadi.

Darhaqiqat, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kun dunyoda globallashuv jarayonlari tig'iz pallasiga chiqqan bo'lib, buning natijasida, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko'payib bormoqda.

Bunday murakkab va tahlikali vaziyat ayniqsa, yoshlar bilan bog'liq sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtiris-

hni taqozo etmoqda. Qolaversa, yoshlarning ongi va qalbida kutilgan darajadagi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda, oila, mahalla va ta'lim muassasalarida yoshlar tarbiyasi, chekka hududlar va mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan maqsadli g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarning yuzaki tarzda olib borilayotgani, jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terroristik harakatlarga adashib qo'shilib qolish, milliy qadriyatlarga e'tiborsizlik, erta turmush qurish, oilaviy ajralishlar kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan targ'ibot ishlarining aksariyat hollarda kutilgan natijani bermayotgani bu masalalarga jiddiy e'tiborni talab etmoqda.

Mana shunday sharoitda yurtimizdagi ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy ishlarni umumplanetar miqyosda mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotgan zamon talablari asosida tashkil etish tobora dolzarblik kasb etyapti. Zero, mustaqillikni asrab-avaylash, istiqlol yillari erishilgan muvaffaqiyat va marralarni saqlash va yanada rivojlantirish, yurtimizdagi barqaror tinchlik hamda osoyishtalikni muhofaza etish, O'zbekistonning farovon kelajagi uchun, xalqingning farovonligi uchun, yurtning tinchligi uchun mehnat qilmoq, kurashmoq [2] – bugungi va kelajak kunlarning eng muhim, dolzarb vazifasidir.

Kun sayin o'zgarib borayotgan zamon, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan fidoyilarcha kurasha oladigan jonkuyar targ'ibotchilarni bu muhim jabhaga safarbar etishni taqozo etadi. Qolaversa, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-mafkuraviy jihatdan tobora globallashayotgan dunyoda voqealar rivojidan bir qadam oldinda yurish, ijtimoiy-siyosiy hodisalarning o'zgarish tamoyillarini ilmiy basharat qilib borish va yoshlarimiz ongi va qalbida o'zga mafkuralar ildiz otmasligi uchun doimiy faoliyatni yo'lga qo'yish shu asosda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish har qachongidan dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Istiqlol yillari mamlakatimizda qaror topgan tinch va osuda hayot, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda

erishilgan ulkan yutuq va natijalarga, barqaror va farovon turmushimizga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan turli xil mafkuraviy harakatlarga qarshi izchil kurash olib borish, o‘tkazilayotgan targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini sifat jihatdan yuqori darajaga ko‘tarish borasida muayyan sa’y-harakatlar amalga oshirilyapti.

Biroq dunyo bir joyda turgani yo‘q. Davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, “Dunyoda hech qachon bir xil tong otgan emas” [1]. Har bir kun, har bir soat o‘zining yangiliklari, yangi muammo va tashvishlari bilan kelmoqda. Bu tashvishlar orasida, afsuski, insoniyat kelajagi va taqdirini xavf ostida qoldirayotgan global muammolar ham tobora ko‘proq kun tartibiga chiqyapti. Bugungi kunda insoniyat ongi va tafakkuriga mafkuraviy ta’sir ko‘rsatish shakllari va mazmuni o‘zgarib bormoqda. Odamlar, xususan, yoshlar ongi va qalbida vayronkor tuyg‘ularni uyg‘otish, indvidualizm, egotsentrizm, diniy aqidaparastlik, kosmopolitizm, fashizm, irqchilik va millatchilik singari illatlarni rag‘batlantirishga bo‘lgan harakatlar avj olmoqda.

Mafkuraviy, g‘oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotgan mana shunday sharoitda yurtimizdagi ma’naviy-ma’rifiy va mafkuraviy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, mustahkam ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash tobora dolzarblik kasb etyapti. Avvalo, xalqimiz asrlar davomida kurashib qo‘lga kiritgan mustaqillikni asrab-avaylash, istiqlol yillari erishilgan muvaffaqiyat va marralarni saqlash va yanada rivojlantirish, yurtimizdagi barqaror tinchlik hamda osoyishtalikni muhofaza etish, yoshlarning ongi va qalbida mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirish – bugungi va kelajak kunlarning eng muhim, dolzarb vazifasi bo‘lib qolaveradi.

Yuqorida bayon etilgan masala va muammolardan kelib chiqib, mamlakatimizda olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarda yoshlar masalasiga alohida e’tibor qaratish, ularning ongi va qalbida kutilgan darajadagi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda uzluksiz ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy

ZJV5401

ishlarni shaxsga yo‘naltirilgan faoliyat tarzida tizimli tashkil etish, rahbarlar, ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha mas’ul xodimlarining ma’naviy-mafkuraviy bilim darajasi, siyosiy savodxonligini doimiy ravishda oshirib borish mexanizmini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi.

Binobarin, har bir jamiyat, har bir davlatning kelajagi o‘sha joyda yashayotgan kishilarning aql zaovati, bilimi va dunyoqarashiga bog‘liq eknligini unutmaslik lozim. Ularning ongi va qalbida ma’naviyat va ma’rifat ustuvor bo‘lsa o‘sha yerda tartibsizlik va urushlar bo‘lmaydi. Aksincha, o‘zaro hurmat va rivojlanish bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T.: O‘zbekiston 2022. -B.4.

2. Mavrulov A.A, To‘rayev Sh.N. va boshq. Ma’naviyat targ‘ibotchisining yordamchi kitobi. -T.: Muharir. 2017. -B.6.

ZJV5401

YANGI TARIXIMIZNI O‘RGANISHNING INNOVATSION USULLARI

Rahmonova Miskina Mamatkarimovna,
Qirg‘iziston Respublikasi Qirg‘iz-o‘zbek universiteti
Tarix-filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli kitobining mazmun-mohiyatini keng aholi qatlamiga yetkazish masalasi ko‘tarilgan. Unda yurtimizda xalqparvar davlat qurish harakatini targ‘ibot qilishning innovatsion yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Innovatsion usullarning samarador shakllari tavsiya qilingan.

Tayanch so‘zlar: Ijtimoiy davlat qurish , adolatli jamiyat barpo etish, zamonaviy targ‘ibot vositalari, mafkuraviy tahdid, iqtisodiy tanazzul, ma’naviy qashshoqlik, targ‘ibot samaradorligi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimi Shavkat Mirziyoyevga o‘tgan davrdan boshlab o‘zbek tarixchiligida ijtimoiy davlat qurish harakati boshlandi. Davlatimiz boshqaruvidagi yangilanishlar xalqparvar davlat, adolatli jamiyat barpo etishga qaratilganligi bilan ahamiyatli. Ijtimoiy hayotimizdagi islohotlar odamlar rozi bo‘lib yashashiga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli kitobida ijtimoiy davlat qurish yo‘llari ko‘rsatib berilgan [1]. Bunday tarixiy jarayonlarni fuqarolar qalbiga singdirish ularning ijtimoiylashuv xususiyatlarini yanada rivojlantiradi.

Shunday bo‘lsa-da, davlatimiz olib borayotgan ichki va tashqi siyosat faqat televidenie, radio, ijtimoiy tarmoqlar, gazeta va jurnallarda muntazam va uzluksiz ravishda yoritilyapti, xolos. Aholi istiqomat qiladigan joylarda, mahallalarda tashkil etiladigan “Ma’naviyat soati” mashg‘ulotlarida xalqimizning

qahramonlarcha mehnati tufayli qo‘lga kiritilayotgan yutuqlari to‘g‘risida Ma’naviyat va ma’rifat markazining joylardagi bo‘limlari, pedagoglar, ziyolilar, nuroniylar tomonidan targ‘ibot ishlari doimiy ravishda o‘tkazilishi talab qilinadi. Targ‘ibotchilar milliy davlatchilik asoslarini, islohotlar samarasini, davlatimiz ichki siyosati inson manfaatlariga qaratilganligini aholiga yetkazishda ko‘rgazmalilik, bahs-munozara, savol-javob, videorolik, Internet, planshet kabi zamonaviy targ‘ibot vositalaridan o‘rinli foydalanishi maqsadga muvofiq [2].

Ta’lim tizimida tarix darslarida dunyoning siyosiy xaritasidan foydalanish, undagi 200 dan ortiq davlatlar hududini qidirib topish, shuncha mamlakatlar ichida O‘zbekiston Respublikasi demokratik tartiblar asosida o‘ziga xos, o‘ziga mos davlat qurayotganligi va jahon maydonlarida yuz berayotgan mafkuraviy tahdidlarga, iqtisodiy tanazzullarga, ma’naviy qashshoqliklarga qaramasdan tarixiy g‘alabalarni qo‘lga kiritayotganligini aytib, o‘quvchilarda o‘z Vatanidan va xalqidan g‘ururlanish hissini paydo qilish mumkin. Kontur xaritalardan foydalanib dunyo mamlakatlarini topish va bo‘yab belgilab ko‘rsatish amaliyotiga o‘quvchilar juda qiziqishadi. Bunda o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, izlanish, ranglardan foydalanish ko‘nikmalari rivojlanadi. O‘quvchilar o‘z mehnati samarasini ko‘rib quvonadi. Xaritadan davlatlarni izlab topish musobaqa usulida o‘tkazilsa, o‘quvchilar jamoa bo‘lib uyushadi, g‘oliblik sari birgalikda harakat qiladi, muvaffaqiyatidan mamnun bo‘ladi, fikri teranlashadi, ma’naviyati boyiydi, dunyoqarashi kengayadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli asari to‘g‘risida ma’lumotlar berishda videoproyektor yordamida slaydlardan foydalanishning samaradorligi yuqori. Chunki mashg‘ulot davomida tinglovch Yangi O‘zbekistonni bapo etish jarayonlarini targ‘ibotchidan eshitadi, tasvirini ekranda ko‘radi; bu - to‘liq bilim olishni ta’minlash bilan birga, tindlovchi ongida uzoq saqlanib qoladi.

Ayniqsa, elektron doska orqali xalqimizning ijtimoiy davlat qurish harakatlari ko‘rsatib berilsa, tinglovchilarning

ZJV5401

diqqati va nigohi faqat o‘rganilayotgan mavzuga qaratiladi. Elektron doskani simsiz aloqaga ulash esa, keng axborot olish imkonini yaratadi. Tinglovchilar har bir viloyatlar o‘zlarining Sitylariga ega bo‘layotganini tomosha qiladi, qardosh xalqlar do‘stligi, turli millatlar hamjihatligi, ishbilarmonlik va tadbirkorlik orqali odamlarning imkoniyatlari ro‘yobga chiqayotgani bilan tanishadi hamda dunyo xabarlaridan voqif bo‘ladi.

Targ‘ibot jarayonlarida bitta usulga mahkam bog‘lanib qolish tinglovchilarda zerikishni hosil qiladi. Shuning uchun bilim berishning katta yoki kichik guruhlarda ishlash, amaliy mashg‘ulot, trening, musobaqa, disput, konferensiya, uchrashuv, bayram, sayohat kabi o‘ylash-izlash-topishga yo‘naltirilgan usullaridan foydalanish ishtirokchilarni faollantiradi. Bunday mashg‘ulotlar maqsadga erishish samaradorligini ta’minlash bilan birga, tinglovchilarda katta taassurot qoldiradi. Va avbatdagi mashg‘ulotlarga qiziqishni namoyon qilib, yana shunday manfaatli tadbir bo‘lishini intizorlik bilan kutadi.

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkin: 1) xalqimiz Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonlarida faol ishtirok etmoqda; 2) ommaviy axborot vositalari yurtimizdagi ijtimoiy voqealarni keng targ‘ib qilmoqda; 3) zamonaviy targ‘ibot usullaridan foydalanish chuqur bilim berish bilan birga, interfaollikni ta‘minlaydi; 4) turli targ‘ibot usullaridan foydalanishning imkoniyatlari yetarli.

Demak, targ‘ibotning interfaol usullari Yangi O‘zbekistonni barpo etish to‘g‘risida ma’lumotlar berishning samarali omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev SH. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. -464 b.

2. Rahmonova M. M. Milliy mushtaraklik zarur/O‘zbekiston Konstitutsiyasi – inson qadri va faolligi qonuniyatlari manbai (ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to‘plami). – Andijon: 2023. -255 b. B. 68-72.

ZJV5401

YOSHLAR KAMOLOTIDA MA'NAVIY TARBIYANING O'RNI

Saparbayev Atabek Sharipbayevich,
O'zDXA Urganch filiali katta o'qituvchisi Shahanov Bobur Choriyevich O'zDXA Urganch filiali "Lazgi" bo'limi boshlig'i

Annotatsiya: Maqola yoshlarning Vatanimiz ravnaqiga o'z hissasini qo'shadigan shaxs sifatida ulg'ayishlari uchun zarur bo'lgan ma'naviy tarbiya va bu tarbiyaning yoshlar kamolotidagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Shu bilan birga globallashuv jarayonida kuzatilayotgan ma'naviy bo'shliqlarni bartaraf etish haqida ma'lumot beriladi.

Tayanch so'zlar: manaviy tarbiya, yosh avlod, globallashuv, insoniylik, odob-axloq, ta'lim, taraqqiyot.

Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga va ularning zamon talablariga mos bilim olishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'g'il-qizlarimizning zamonaviy bilimlarni puxta egallashlari, yuksak ma'naviyatli, iymon-e'tiqodli, jismonan sog'lom bo'lib voyaga yetishishlari hamda Vatanimiz ravnaqiga o'z hissasini qo'shadigan shaxs sifatida ulg'ayishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgani bilan birga ularning orzu-maqsadlarini ro'yobga chiqarish, ilg'or tashabbus va g'oyalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ishlar izchil davom ettirilmoqda. Shu bois, yurtimizda jamiyatning faol qatlami sifatida e'tirof etiladigan yoshlarga yurt ravnaqini ta'minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida ishonch bildirilmoqda. Natijada yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, o'zining qat'iy pozitsiyasiga ega yoshlar mamlakatning ertangi taraqqiyotida hal qiluvchi kuchga aylanib bormoqda.

Hozirgi yoshlarini to'g'ri yo'lga boshlovchi, ularda madaniyat va ma'naviyatni shakllantiradigan muhim omil bu ta'lim-tarbiya tizimidir. Ilm-u ma'rifatga, yashlarning ta'lim-

tarbiyasiga inson kamoloti, millat ravnaqining asosiy sharti deb qarash bugungi kun talabidir. Shu boisdan ham yoshlarning ta'lim-tarbiya masalasi davlat nazoratida ekanligi bosh qomusimizda ham belgilab qo'yilgan.

Yoshlar tarbiyasiga mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab e'tibor qaratib, jismonan sog'lom va ma'nan yetuk barkamol avlodni tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilandi va u davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ona va bola, Yoshlar, Barkamol avlod, Oila, Obod turmush, Yoshlarni qo'llab quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash, Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili nomlari bilan atalgan Davlat dasturlari va ularning amalga oshirilishi, xalqimizning yorqin kelajagi to'g'risidagi ezgu niyatlari ifodasidir desak mubolag'a bo'lmaydi. Dasturlar avvalo jismonan va ma'nan sog'lom, mustaqil fikrlaydigan, ilmiy-zamonaviy dunyoqarashga, chuqur bilimga, vatanparvarlik, millatparvarlik hissiga egalik qiladigan barkamol avlodni shakllantirish vazifalarini belgiladi.

Barchamizga ma'lumki, hozirgi davrda zamon talabi bilan globallashuv jarayoni hayotimizga tez va chuqur kirib kelmoqda. Globallashuv millat va elatlar, mamlakatlarning madaniy, ma'naviy, iqtisodiy jihatidan uyg'unlashuviga olib keladigan jarayondir. Globallashuv-bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi jarayonida, davlatlar o'rtasida turli xil integratsiya va hamkorlikning kuchayishi, zamonaviy axborot texnologiyalari hamda ilm-fan yutuqlarining tezda tarqalishi, xalqlar o'rtasidagi muloqotning yangicha sifat kasb etishi, o'zaro hamkorlik imkoniyatlarining yuzaga kelishi – bu globallashuvning ijobiy ahamiyati, ammo globallashuv jarayonining hozirgi zamondagi yana bir jihati ham borki, u yoshlarga mafkuraviy ta'sir o'tkazishning quroli, har xil siyosiy, diniy-mafkuraviy kuchlarning kurash sahnasiga ham aylanib bormoqda.

Shu sababli yoshlar tarbiyasi davlatimizning doimo diqqat markazida bo'lib, bu jarayon Mustaqillik yillaridan uzluksiz davom etmoqda. Umuman mamlakatimizda qabul qilingan yoshlarga oid qonunlarning barchasida yoshlarimizning puxta bilim olishi bilan bir qatorda xalqaro maydondagi faolli-

gi va ishtirokini ta’minlash, voyaga yetmagan, boquvchisini yo‘qotgan, ko‘p bolali oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy tomondan qo‘llab quvvatlash, iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularga iqtidorlarini rivojlantirish uchun shartoitlar yaratish kabi masalalar doimiy nazorat ostida bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda ota-ona mehridan, ularning tarbiyasidan mahrum bo‘lgan va imkoniyati cheklangan bolalarga alohida e’tibor, mehr, g‘amxo‘rlik ko‘rsatib kelinayotganligi e’tiborga molik. Shu o‘rinda Mehribonlik uylari, maktab internatlarining va maktabgacha tarbiya muassasalarining moddiy-texnik bazasini bosqichma-bosqich mustahkamlash, o‘quv-tarbiyaviy jarayonini tubdan takomillashish masalalari belgilangan. Yangi jamiyat bunyodkorlari hisoblangan yoshlar tarbiyasida oilaning, mahallaning va keng jamoatchilikning o‘rni buyuk.

Yosh yigit-qizlarimiz mustaqil hayotga kirib borishi, yosh oilalarning o‘z o‘rinlarini topa olishida, kishilar o‘rtasida mehr-oqibatning, birodarlikning tarkib topishida mahalla oqsoqollari va nuroniy otaxonlar, onaxonlarning tutgan o‘rinlari muhimligini ta’kidlash lozim. Yoshlar ma’naviy tarbiyasida ota-ona mas’uliyati alohida o‘rin tutadi. Insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk bor hayot to‘g‘risidagi tushunchalar, dunyoqarashlar, yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus, andisha kabi inson uchun zarur bo‘lgan muqaddas tushunchalar dastlab oilada qaror topa boshlaydi va so‘ngra jamoaga ko‘chadi. Ammo, hozirgi globallashuv jarayonida ba’zi bir “qo‘shtirnoq ichidagi” ota-onalar borki, o‘z farzandlarining tarbiyasiga, odob-axloqigi, nima ish qilayotgani-yu qayerga borib, qayerdan kelayotganiga, kimlar bilan do‘st bo‘layotganligiga bee’tiborlik bilan qaramoqdalar. Natijada bunday oilalarning farzandlari ko‘p hollarda bilib-bilmay hayot yo‘llaridan adashib, turli yod g‘oyalarga ishonib o‘z hayotiga, kelajagiga nuqta qo‘ymoqda. “Tarbiyada tanaffus bo‘lmaydi” deydi dono xalqimiz. Shunday ekan yoshlarimizni bunday buzg‘unchi g‘oyalarga aldanib qolmasliklari uchun oila va ta’lim muassasalari hamkorlikda ish olib borishlari, ma’naviy bo‘sh-

liqlarni insoniy fazilatlar, zamonaviy bilim va tushunchalar bilan oziqlantirib borishi maqsadga muvofiqdir.

Yoshlarning ma'naviy ehtiyojlarini to'laroq qondirish uchun ta'lim-tarbiyaga xizmat qiladigan muhim vositalarni yangi sifat bosqichiga ko'tarish, har bir ta'lim muassasasi o'qituvchi dars jarayonlari avvalida, buyuk ajdodlarimiz Al-Xorazmiy, Imom Buxoriy, Abu Mansur al-Moturidiy, Abu Nasr Forobiy, Termiziy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur, Hoja Ahror, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa olim va mutafakkirlarning siymolari haqida yoshlarga yangi-yangi ma'lumotlar berib borishi lozimdir.

Mamlakatimizda yoshlar ma'naviy tarbiyasida falsafiy, ijtimoiy, siyosiy va gumanitar fanlar ahamiyati ham beqiyos, shu sabab bu fanlar vakillari o'zlarining o'ta mas'uliyatli vazifalarini bugungi kun talabi darajasida bajarishlari lozim bo'ladi. Bu sohadagi darsliklar, o'quv qo'llanmalari, adabiyotlarning hamda mutaxassislarning ham saviyasi yuqori bo'lishi talab etiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, xalqimiz, eng avvalo yoshlarimiz ma'naviy olamini kuchaytirish va daxlsizligini asrash uchun bugungi ijtimoiy-madaniy vaziyatda yoshlarning bo'sh vaqtini samarali foydalanishga - umuman olganda, ijtimoiy va atrof muhitni rivojlantirishga, butun hayotimizni ma'naviy yangilashga qiziqtirish asosiy vazifaga aylanmog'i kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. E.Umarov, M.Abdullayev "Ma'naviyat asoslari" Toshkent – 2006.

2. Falsafa: Qomusiy lug'at Toshkent – 2004.

3. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" Toshkent – 2008.

4. M.Allayarova "Ma'naviyatshunoslik". Samarqand – 2021.

5. O.Musurmonova. "Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi" Toshkent – 1996.

SHAXS MA'NAVIY TARBIYASIDA MA'RIFATPARVAR-JADIDLARNING MA'NAVIY MEROSIDAN FOYDALANISH

Nilufar To'rayeva,
135-maktab Ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

O'zbek xalqi ko'p asrlik tarixiy taraqqiyotida katta madaniyatni yaratdi. U yaratgan boyliklar yoshlar tarbiyasida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. O'rta asrning buyuk mutafakkirlarining asarlari orqali yoshlarni go'zal axloq, baxt, insof, poklik, iffat, sabr-matonat, mehr-shafqat, sihat-salomatlik, ota-onani hurmat qilish qoidalaridan boxabar qilish bilan birgalikda ularning ma'naviy tafakkurlari va tasavvurlarini kenggaytirishga erishish mumkin.

Ma'lumki, insoniylik o'z tarkibiga insonning eng yaxshi axloqiy xususiyatlarini, ya'ni odamlar o'rtasida o'zaro yaxshi munosabatda bo'lish, do'stlik, ota-onaga sadoqatlik, mehnatsevarlik, diyonatlilik kabi fazilatlarni qamrab oladi. O'tmish mutafakkirlarining ma'naviy g'oyalari va qarashlarida bolada yoshlikdan ana shu go'zal fazilatlarni qaror toptirish zarurati masalalariga ahamiyat berilgan.

Ma'naviy tarbiya haqida Shayx Sa'diy o'zining «Guliston» asarida shunday deb yozgan edi: «Kimda kim yoshlikdan tarbiya olmasa, katta bo'lgach baxtli bo'la olmaydi. Ho'l novdani istagancha bukish mumkin. quruq novdani esa faqat olovda tovlab to'g'rilash mumkin».

Tarbiya tug'ilgan kundan boshlanmog'i lozim.

Ayniqsa, oila va oilaviy munosabatlarda yoshlarni ma'naviy tarbiyalash vazifasi dolzarb sifatida belgilangan bo'lib, ma'rifatparvar shaxs Abdulla Avloniyning oila pedagogikasi va psixologiyasiga oid fikrlari diqqatga sazovordir. Uning 1913-yilda yozgan va 1917-yilda ikkinchi marta nashr

kilingan “Turkiy Guliston yoxud ahloq” asari, Kaykovusning “Qobusnoma”, Yusuf Xos Xojibning “Qutadg’u bilik”, Nosir Xisravning “Saodatnoma”, Sa’diyning “Guliston va Bo‘ston”, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, Alisher Navoiyning “Mahbub -ul-qulub” asarlari o‘xshash janrda yozilgan bo‘lib, muallif unda oilada bola tarbiyasi va umuman oilaning ijtimoiy rolini ochib bergan. A.Avloniy tarbiya jarayonida oilaning va jamoatchilikning o‘rnini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilarning ta’siri g’oyat katta ahamiyatga ega.

Bolaning shaxs sifatlariga to‘xtalib, unda oilaning rolini ko‘rsatar ekan, «Qush uyasida ko‘rganini qiladur», - deydi. «Inson javxari qobildir, agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go‘zal xulqlarga odatlanib katta bo‘lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo‘lub chiqar...». Demak olim, bola tarbiyasida oilaning rolini birlamchi qilib qo‘yadi: «... tarbiyani tug’ilgan kundan boshlamoq lozim ekan. Tarbiyani kim qilur? Qayda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga “birinchi uy tarbiyasi - bu ona vazifasidir. Ikkinchi maktab va madrasa tarbiyasi - bu ota, muallim, mudarris va xukumat vazifasidir, - degan javob bersak».

Tarbiyani bola tug’ilishidan boshlagan yaxshi, chunki tarbiya bola tug’ilishidan ham muhimroqdir. «Dunyoga keltirgan ota va ona emas, yedirib ichirgan, yaxshi tarbiya bergan ota va ona». Ota bilan ona faqat ota-onagina emas, tug’ilish - bu boshlanishi, ota bilan ona eng avvali tarbiyachilardir, faqat shundagina ular o‘z vazifalarini tugallab, ado etgan hisoblanadilar. «Ota maktabi» otadan ko‘ra muhimroqdir: «Otasi yaxshining bittasi yaxshi, onasi yaxshining hammasi yaxshi», «Onasi miyasiga quyganini ota sug’urib ololmaydi».

Abdulla Avloniy ota-onalar o‘zlari bilimli va tarbiyali bo‘lishlari kerakligini ta’kidlaydi: “Qaysi onalarni aytursiz, bilimsiz, boshi paxmoq, qo‘li to‘qmoq onalarnimi? O‘zlarida yo‘q tarbiyani qayerdan olib berurlar. Qaysi ota? To‘ychi, uloqchi, bazmchi, do‘mbirachi, karnaychi, surnaychi, ilm qadrini bilmagan, ilm uchun bir pulni ko‘zi qiymagan, zamondan

xabarsiz otalarni aytursiz-mi? Avval ularning o‘zlarini o‘qitmoq va tarbiya qilmoq lozimdir” (1).

Ko‘rinib turibdiki, Abdulla Avloniy bolaning mukammal tarbiyasi nafaqat oilaga, balki mak¬tab va jamoat tashkilotlariga ham bog’liqligini e’tirof etib, tarbiya masalasini umuminsoniy vazifalar darajasida talqin etgan.

Abdulla Avloniy yaxshilikni ulug’ fazilat hisoblaydi, insonlarni bir-birlariga yaxshilik qilishga da’vat etadi:

Yaxshilik qilsang, bo‘lur joning omon,
Yaxshilikdan hech kishi qilmas ziyon.
Yaxshi so‘z birlan ilon indan chiqar,
Yomon so‘zga, pichoq qindan chiqar.

Abdulla Avloniy aytganidek: “Ilm insonni yuksaklik sari olib boradi”... “Ilm insonlarning madori, hayoti, porloq kelajagi, rahbari, najotiga aylangan”.

Shu bois ilm inson uchun g’oyat oliy va mukaddas fazilatdir. Shuning uchun avvalam bor ilmli, tarbiyali bo‘lmoq har bir yosh insonning burchi ekanligi ma’rifatparvar shaxs bo‘lgan A.Avloniyning eng sara fikridir.

Ma’rifatparvar alloma Rizouddin ibn Fahruddin “Oila” risolasida “Oila a’zolari orasida ulfatu muhabbat qolmasa, butun dunyoni qo‘rqitib turgan kuchli davlatlar, shuhratning yuqori darajasida bo‘lgan millatlar ham inqirozga uchraydilar. Ulfatsizlik sababidan bunday ulug’ davlatlar oyoqqa tura olmaslar, oralarida ulfat bo‘lmaganida oilalar qanday oyoqqa tura olurlar!”, - deb uqtiradi. Bu orqali oilaning tinchligi va mustahkamligi jamiyatga ta’sir etishini izohlaydi.

Abdurauf Fitratning “Oila yoki oilani boshqarish tartiblari” asarida oilaning paydo bo‘lishi, uning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati, oilada amal qilinadigan ichki tartib va qoidalar to‘g’risida fikr bildirilgan. Ayniqsa, uning “Uylanish yoki uylanmaslik xususida”, “Qalin (puli) va to‘y qanday bo‘lishi lozimligi haqida”, “Er-xotinning qanday yashamoqliklari xususida”, “Oilaning maishati va idorasi” kabi boblarida oila va oilaviy munosabatlarni o‘rnatish masalalari atroflicha yoritilgan.

Abdurauf Fitrat ushbu asarida oilaning moddiy tomonlari, tashkil topgandan boshlab, buzilishigacha bo‘lgan holatlarning axloqiy asoslari to‘g’risida to‘xtalib o‘tadi. A.Fitrat fikricha, mamlakat taqdiri va istiqboli barkamol farzandlarni tarbiyalash bilangina belgilanmaydi. Mazkur asarda millatning ma’rifatparvarligi ayollarga bog’liq ekanligi va ayollarga bo‘lgan munosabatda ham yorqin namoyon bo‘lishi qayta-qayta ta’kidlangani Fitratning naqadar gumanistik va ezgu qarashlar egasi sifatida namoyon etadi. Abdurauf Fitratning axloqiy qarashlarining dolzarbligi shundaki, u o‘z davrining axloqiy hayotini o‘zgartirmoqchi bo‘ladi va uning g’oyalari oilaning axloqiy asoslarini rivojlantiradigan bunyodkor g’oyalardir.

Demak, yoshlarni tarbiyalashda o‘tmish mutafakkirlarining bebaho ma’naviy merosidan foydalanish, o‘git va nasihatlardan o‘z navbatida oilaviy hayot va turmush chorrahalarida xabardor bo‘lish yoshlarga yordam beradi, deb o‘ylaymiz. Yoshlarning dunyoqarashi, e’tiqodi, ma’naviy qiyofasi ular quradigan oila uchun mustahkam asos bo‘la oladi. Chunki ma’naviy dunyoqarashga asoslangan poydevor mustahkam va barqaror bo‘lsa, mamlakatda yuksalish va rivojlanish, tinchlik va farovonlik albatta hukm suradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Avloniy A. “Turkiy Guliston yohud axloq” -T.: O‘qituvchi, 1992. 160 b.

2. Vatan tuyg‘usi. “O‘zbekiston nashriyoti”., 1996 y. -398 b.

3. Munavvarov A.Q. Pedagogika. – T.: “O‘qituvchi”, 1996. 162-bet.

4. Saifnazarova F. O‘zbek oilasi: ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlar. Monografiya. – T.: «YURIST-MEDIA MARKAZI» nashriyoti, 2007. – 128 b.

«SINERGETIKA MADANIYATNING MA'NAVIY KOMPONENTINI O'Z ICHIGA OLADIMI?»

Pirnazarov Nurnazar Rashid o'g'li,
Doktorant, Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola ma'naviyatni madaniyatning komponenti sifatida tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, unda asosan ma'naviyatni hozirgi vaqtda o'z dolzarbligiga ega bo'lgan sinergetik yo'ndashuv asosida tadqiq qilingan.

Tayanch so'zlar: Ma'naviyat, madaniyat, sinergetika, tizimli tahlil, falsafa.

Sinergetika hozirgi kunda dunyoning noklassik bo'lmagan ilmiy kartinasining o'zagi sifatida tobora kuchayib bormoqda, madaniyatda yangi paradigmani shakllantirmoqda. Ushbu yangi paradigmaning shakllanishini tahlil qilib, V.K.Egorov madaniyatdagi sinergetik yondashuv uchun asosiy bo'lgan «madaniy supertizimlar» (P.Sorokin), «birlamchi hodisalar» (O.Spengler) va «mahalliy tsivilizatsiyalar» (A.Toynbi) tushunchalariga ishora qiladi. Shu bilan birga, muallif P.N.Milyukovning unutilgan «Rossiya madaniyati tarixi bo'yicha insholar»asarini eslaydi, unda madaniyatshunoslikning hozirgi islohotchilaridan ancha oldin, «qonuniylik va evolyutsiya tushunchasi» ni «tabiiy fanlar sohasidan gumanitar fanlar sohasiga» yoyish g'oyalari kuchli edi.

E.N.Knyazev zamonaviy ilmiy bilimlarda sinergetik usullarning universalligi uning fanlararoligi, polidisiplinarligi va transdisiplinarligi bilan belgilanishiga diqqat qaradi. Fanlararolik hodisani tushuntirishda turli fanlarning hamkorligini nazarda tutadi, polidisiplinarlik bir vaqtning o'zida bir nechta turli fanlarning ushbu jarayonda ishtirok etishi va transdisiplinarlik kognitiv sxemalar va modellarni bir sohadan ikkinchisiga

ZJV5401

o‘tkazishiga ishora qiladi. Sinergetikaning fanlardan ustunligi haqida ham gapirish mumkin, birinchi navbatda u tomonidan ishlab chiqilgan metatil, ularning tabiatidan qat’i nazar, har qanday murakkab ochiq, chiziqli bo‘lmagan, dissipativ dinamik tizimlarning evolyutsiyasini o‘rganish imkonini beradi.

Madaniyat, albatta, bu belgilarni qondiradi. Chunki bu fan, falsafa, din, san’at, huquq, texnologiya, iqtisod, siyosat va ijtimoiy ongning boshqa shakllarini (tizimlarini) o‘z ichiga olgan supertizim (P.Sorokin bo‘yicha) . Bundan tashqari, u “ochiq nochiziqli tuzilmalarning ham beqarorligi, ham tartibsizliklariga imkon beruvchi ichki va tashqi tebranishlarga duchor bo‘lgan tizim va ularning tartibliligi» hamdir. G.A.Afanasyev, madaniyatning muhim xususiyati shundaki, u «o‘z-o‘zini saqlash yoki oddiy ko‘payish ehtiyojlaridan ortiq miqdorda materiya, energiya, ma’lumotni o‘zlashtira oladi» deb kórsatadi. Ularning ortiqcha qismi o‘zining dissipativ xususiyatlari tufayli madaniyatda tarqaladi.

Madaniyatning barqarorligini belgilovchi o‘ziga xos xususiyati - unda aqliy-ma’naviy, hissiy-sezgi va irodaviy xarakterdagi barqaror naqshlardan tashkil topgan ma’naviy yadro mavjudligidir. P.N.Milyukov bu haqda shunday yozadi.: «Inson sivilizatsiyasining barcha hodisalari ma’naviy muhitda sodir bo‘ladi». Ammo sinergetika usullaridan foydalanib, madaniyatning ma’naviy tarkibiy qismini tasvirlash mumkinmi?

Hozirgi vaqtda san’at asarlari va ijodiy jarayonga sinergik yondashuvning ijobiy tajribasi allaqachon mavjud. Bu yo‘nalishda I.A. Evina, B.N. Poizner va boshqalar asarlari katta hissa qo‘shdi.

Madaniyatning ajralmas qismi sifatida dinni sinergetika nuqtayi nazaridan talqin qilib bo‘ladimi? Ularning bilimga yondoshuvlari juda xilma-xil: birinchisi hissiy-sezgi idrok va e’tiqodga tayansa, ikkinchisi mavhum-mantiqiy fikrlash va xulosalar isbotiga tayanadi. Shunga qaramay, R.A.Braje tomonidan ko‘rsatilgandek, ikkala holatda ham biz haqiqatni

modellashtirish (usuli va aniqligi jihatidan farq qiladi) bilan shug‘ullanamiz. Terminologiya bo‘yicha kelishib, ilohiyotchi va sinergetik bir-birini to‘liq tushunadilar. Masalan, Xudo so‘zi tashqi yo‘naltirilgan energiya ta’siri (Katta portlash energiyasi) deb tushunilsa, Kyuri simmetriya printsipidan kelib chiqqan holda, ta’sir natijasida koinot simmetriyasi (va entropiya) kamayadi va unda tartib sodir bo‘ladi.

Din, falsafa va psixologiyaning asosiy tushunchasi ruhdir. Monoteistik dinlarda bu ruhiy substansiya, Xudo Ruhining bir qismi, u o‘zi yaratgan birinchi insonning yuziga puflagan odamning “hayot nafasi”mi? Hindu dinlarida bu atmanmi? individual ruh, Brahmanning bir qismi? Eng oliy ruhiy modda nima? Ushbu kontseptsiyaning falsafa va psixologiyadagi evolyutsiyasi L.I.Kazakova asarlarida yoritilgan bo‘lib, bu sun’iy intellektni yaratish davrida ayniqsa dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Inson miyasidagi fikrlash jarayonlari, tabiiy intellektning evolyutsiyasi va sun’iy intellektni sinergik modellashtirish muallifning bir qator so‘nggi asarlarining mavzusidir. Hissiyotlar psixikaning tashqi ko‘rinishidir. Psixika, o‘z navbatida, miya tomonidan kiruvchi ma’lumotlarni alohida (assimetrik) qayta ishlash jarayonida shakllanadi: uning bir qismi (odamlarda o‘ng yarim shar) analog ishlov berishni amalga oshiradi, past chastotali filtr funktsiyalarini bajaradi, ikkinchisi (odamlarda chap yarim shar)? raqamli ishlov berish, yuqori o‘tkazuvchan filtr vazifasini bajaradi. Shunday qilib, fikrlash jarayonining o‘zi sinergikdir, chunki u miyaning bir nechta quyi tizimlarining birgalikdagi ishtirokida sodir bo‘ladi, ular qayta ishlanadigan ma’lumotlarning chiziqli bo‘lmagan sintezini amalga oshiradi. Tafakkur natijasida ongning model cheklanganligi va uning psixikaga bog‘liqligi miyada sun’iy (virtual) voqelik yaratilganligini bildiradi. Ushbu virtual haqiqat o‘ziga o‘xshashlik xususiyatiga ega, chunki miyada shakllangan aks ettirilgan dunyoning dastlabki qo‘pol versi-

ZJV5401

yasi (past chastotali filtrdan o‘tgan) vaqt o‘tishi bilan tasvirlarning tarmoqlangan tizimida fraktal tafsilotlarni oladi.

Insonning ijtimoiy tabiatiga ko‘ra, uning ongi nafaqat individual, balki ijtimoiydir, chunki u jamiyatda shakllangan barqaror tasvirlarni yani arxetiplarni o‘z ichiga oladi. Ular madaniyatning ma’naviy tomonini belgilaydi. Fikrlash jarayonlarini, shu jumladan ma’naviy sohada, o‘z-o‘zini tashkil etish nazariyasi nuqtayi nazaridan modellashtirish imkoniyati madaniyatning ma’naviy tarkibiy qismi ham sinergetik tavsif uchun juda qulay ekanligini anglatadi. Biroq, ma’naviy hayotning o‘z-o‘zini tashkil etish jarayonlarini, unda sodir bo‘ladigan bifurkatsiyalarni, keskinlashuv rejimlarini, o‘z-o‘zidan tashkil etilgan tanqidiylikni va yangi tartibning (yangi arxetiplarning) paydo bo‘lishini sinergetik tadqiq qilishda O.N.Kozlova: “Madaniyatning kelajakdagi taqdirini, uning mavjudligi haqiqatini belgilaydigan ushbu tanlov jarayoniga ta’sir ko‘rsatadigan texnologiyalar mavjudmi? Tizim ichidagi nozik o‘z-o‘zini tartibga solishni buzmaydigan bunday texnologiyalar bormi? Va bu texnologiyalar nima? Degan savollar ustida o‘z tadqiqotlarini yurgizgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki madaniyatning ma’naviy komponentini tushinishda sinergetika dialektika bilan birgalikda uni aniqlovchi sifatida hozirgi ilimda juda yaxshi samara beradi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Делокаров К.Х., Демидов Ф.Д. В поисках новой парадигмы: Синергетика. Философия. Научная рациональность. – М., 1999. с. 8.

2. Егоров В.К. Становление новой парадигмы культуры // Синергетика, философия, культура. – М.: Изд-во РАГС, 2001. с. 97 – 107.

3. Князева Е.Н. Синергетика как направление

ZJV5401

универсализма в современно научном знании // с. 9 – 19.

4. Козлова О.Н. Синергетический анализ духовной жизни как «жизни культуры» // Синергетика, философия, культура. – М.: Изд-во РАГС, 2001. б. 139 – 145.

5. Раже Р.А. Синергетика и творчество. – Ульяновск: Изд-во УлГТУ, 1999; Браже Р.А. Новый взгляд на соотношение искусства и науки // Любищевские чтения. – Ульяновск, 2000. – С. 25 – 26; Браже Р.А. Математическая теория катастроф и описание творческого процесса в искусстве // Мат. Межд. НПК «Методы и алгоритмы прикладной математики в технике, медицине и экономике». Ч. 2. – Новочеркасск, 2001. с. 36 – 37.

6. Казакова Л.И. Эволюция понятий дух и душа в истории философии и психологии // Философский век / Альманах. 1998. № 7. Между физикой и метафизикой: наука и философия. – СПб., 1998. Б. 355 – 362.

7. Браже Р.А. Мозг осуществляет вейвлет-анализ сигналов, // Тр. Межд. НТК «Современные информационные технологии». – Пенза, 2000. – с. 17 – 18;

8. Егоров В.К. Становление новой парадигмы культуры // Синергетика, философия, культура. – М.: Изд-во РАГС, 2001. с. 97 – 107.

9. Астафьева О.Н. Культура как целостность: соотношение изменчивости и устойчивости // с. 124.

10. Аванесова Г.А. Культура как самоорганизующаяся система // с. 119.

11. Аванесова Г.А. Культура как самоорганизующаяся система // с. 119.

12. Егоров В.К. Становление новой парадигмы культуры // Синергетика, философия, культура. – М.: Изд-во РАГС, 2001. с. 97 – 107.

13. Евин И.А. Синергетика искусства. – М., 1993; Евин И.А. Что такое искусство с точки зрения физики. – М., 2000.

14. Соснин Э.А., Пойзнер Б.Н. Лазерная модель творчества (от теории доминанты к синергетике культуры). – Томск: Изд-во Том. ун-та, 1997; Пойзнер Б.Н., Ситникова Д.Л. Обновление культуры: (не)цикличность и ветвистость // Мат. пятого Всеросс. научн. сем. «Самоорганизация устойчивых целостностей в природе и обществе». – Томск, 2001. б114 – 117. Хошимов К., Сафо Очил. Ўзбек педагогикаси антологияси. - Т.: «Oʻqituvchi», 1995. 107.

ZJV5401

ZJV5401

ZJV5401

MUNDARIJA

So‘zboshi. *Minhojiddin Hojimatov*.....3

I. SHO‘BA: MA’NAVIY TARBIYANING SAMARALI VA TA’SIRCHAN USULLARI

Ma’naviy va moddiy hayotning uyg‘unligi – taraqqiyotning asosiy drayveri.....6
O‘zbekistonda yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning ustuvor yo‘nalishlari.....13
Jamiyat yuksalishi yoki tanazzulga yuz tutishida farzand ma’naviy-psixologik tarbiyasiga e’tiborning zarurati masalalari.....19
Abdulla Avloniy asarlarida tarbiya masalasi.....26
Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishda sharq mutafakkirlarining oila va farzand tarbiyasiga doir qarashlaridan foydalanish.....31
Ma’naviy va jismoniy sog‘lomlik mustahkam oila garovi 37
Yoshlar ma’naviy merosini shakllantirishda tarixiy tafakkurning ahamiyati.....43
Islom manbalari – ma’naviy tarbiya omili.....47
Globallashuv davrida yoshlarni g‘oyaviy tarbiyalash va mafkuraviy immunitetini shakllantirish masalalari.....53
Ma’naviy tarbiya borasida yettita taklif.....59
Yoshlar tarbiyasi: milliy qadriyat va ma’naviy xavf-xatarlar.....67
Maxsus maktab o‘quvchilariga ma’naviy tarbiyani tashkil etishning psixologik masalalari.....75
Talabalarda kasbga sadoqatni shakllantirish.....78

Yoshlarda hayotiy maqsadlarni
shakllantirish masalasining ma’naviy
tarbiya jarayonidagi o‘rni.....83
Ma’naviy tarbiya samaradorligini ta’minlashning
ayrim jihatlari.....88
Ma’naviy tarbiya omillarini yuksaltirishda
Imom Abu Mansur Moturidiy falsafiy merosini
o‘rganishning ahamiyati.....94
Forobiy: aql va baxt masalasi 102
Yoshlarni vatanparvarlik ruhini
shakllantirishda uzluksiz ma’naviy
tarbiyaning o‘rni.....107
Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida uzluksiz
ma’naviy tarbiya konsepsiysini amalga oshirish.....112
Ma’naviy taraqqiyotning tayanch nuqtasi –
tarbiyadir.....119
Oilada sog‘lom ma’naviy tarbiya va psixologik
muhitni yaxshilashda qadimiy san’at usullarining
o‘rni 124
Yoshlarda ma’naviy tarbiyaning ta’sirchan
usulini amalga oshirishda psixologik xizmatni
tashkil etish masalalari.....132
Ma’naviy tarbiya millat va jamiyat ehtiyoji
sifatida ta’lim muassasalarida tashkil
etish masalalari.....136
Ma’rifatli jamiyat g‘oyasining yoshlar
iste’mol madaniyatini yuksaltirishdagi
strategik imkoniyatlari.....140
Turkiston jadid ma’rifatparvarlari asarlarida
ma’naviy tarbiyaning samarali usullari.....147
Ma’naviy tarbiya – milliy mentalitetdagi
ma’naviy yangilanishning muhim omili 152
Yoshlar tarbiyasidagi ayrim salbiy jihatlar.....157

ZJV5401

Amir Temur va temuriylar davri tarbiyasi.....160
Inson kamolotida ma’naviy tarbiya mezonlari.....164

II SHO‘BA: DUNYONING MAFKURAVIY MANZARASI. TARG‘IBOTNING YANGI TEXNOLOGIYALARI

Populizm – jamiyat ikkiga bo‘linishining asosiy omili.....170
Turkiya va islom: ma’naviyat, qadriyatlar, zamonaviy tendensiyalar.....175
Ommaviy madaniyat transformatsiyasi jarayonlari.....182
Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish va barqarorligini ta’minlash texnologiyalari.....189
Dunyoning mafkuraviy manzarasiga globallashuv jarayonlarining ta’siri.....195
Ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot samaradorligini ta’minlash masalalari.....202
“Ommaviy madaniyat” va uning yoshlar ongiga salbiy ta’siri.....212
Ma’naviy targ‘ibotning zamonaviy yondashuvi hamda ta’sirchan usullari.....217
Mafkuraviy globallashuv jarayonlarini tezlashuvi sabab va oqibatlari.....222
Radikalizm mafkurasi va uni bartaraf etishga qaratilgan usullar.....228
Raqamli jamiyatda yoshlarning siyosiy ongi va faolligi.....237
Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi. Mafkuralar targ‘iboti.....244
Bugungi dunyoning geomafkuraviy manzarasi.....257

ZJV5401

Dunyoning mafkuraviy manzarasi.
Targ‘ibotning yangi texnologiyalari 265
Globallashuv sharoitida markaziy osiyoda
siyosiy axborot makonining
g‘oyaviy-mafkuraviy rivojlanish maqsadlari.....273

III SHO‘BA: IJTIMOIY DAVLAT TUSHUNCHASINING ILMIY, MA’NAVIY VA HUQUQIY ASOSLARI

O‘zbekiston Respublikasi – ijtimoiy davlat:
fuqaroning shaxsiy huquq va erkinliklari:
holat va istiqbollar.....278
Alisher Navoiy tasavvufiy qarashlarida ijtimoiy
davlat xususiyatlarining namoyon bo‘lishi.....285
Ilmiy adabiyotlarda “ijtimoiy davlat”
tushunchasi va uning xususiyatlari.....291
Ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishda
voyaga yetmaganlarda xulq og‘ishini oldini
olishning ijtimoiy-psixologik jihatlari.....297
Ijtimoiy taraqqiyot va inson farovonligini
ta’minlashda mahalla yoshlarining o‘rni.....303
Ijtimoiy davlat – inson manfaatlari ustun
bo‘lgan davlat.....308
Xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy faolligini
oshirishning dolzarb masalalari.....313
Ijtimoiy davlatda – Vatan, jamiyat va
davlat munosabatlari.....320
Yoshlarni ijtimoiy faollashtirishda
innovatsion yondashuv 326
Yangi O‘zbekiston ijtimoiy davlatning
yorqin namunasi.....333
Fuqarolik mas’uliyati – Yangi O‘zbekiston
islohotlarini amalga oshirish garovidir.....336

Ijtimoiy davlatda ma’naviyat masalasi 341

IV. SHO‘BA: IJTIMOIY-MA’NAVIY MUHITNI SOG‘LOMLASHTIRISH METODIKASI VA BAHOLASH MEZONLARI

Ijtimoiy axloq – yangilanayotgan jamiyat orzusi.....346
Kuchli targ‘ibot – kuchli ma’naviyatni yaratadi 358
Abulqosim Qushayriyning qalblarni
ma’naviy sog‘lomlashtirish usuli.....367
Axborotlashgan jamiyatda inson ma’naviy
borlig‘ini himoya qilishda milliy axloqiy
bilimni rivojlantirish.....371
Milliy g‘oya targ‘ibotida xorij tajribasini
o‘rganishning muhim xususiyatlari.....377
Sog‘lom oilaviy munosabatlar shakllanishining
diniy-axloqiy mohiyati.....385

V SHO‘BA: MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI

Ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash konsyepsiyasi –
davlat siyosatini yo‘nalishi sifatida.....390
Missionerlik va prozelitizmga qarshi
kurashning ma’naviy-ma’rifiy omillari.....398
Ma’naviy tahdidlarning zamonaviy ko‘rinishlari.....404
Missionerlik harakatining targ‘ibot usullari.....408
Yangi O‘zbekiston sharoitida rahbarning
ma’naviy-axloqiy sifatlari.....416
Shaxs sanogen tafakkurini rivojlantirishda
oilaviy munosabatlarning ahamiyati.....422
Targ‘ibotni to‘g‘ri tashkil qilish ma’naviy
tarbiyaning samarali va ta’sirchan usullaridan
biri sifatida.....430

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida
ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishning
usul va vositalari.....435
Abu Rayhon Beruniyning falsafiy merosida
«ma’rifatli jamiyat» – «adolatli jamiyat» –
«Fuqarolik jamiyati» g‘oyalarining uyg‘unligi.....442
Yuksak ma’naviyatli yoshlar kelajak poydevori.....449
Sharq mamlakatlari davlat boshqaruvi va
saylov institutining shakllanishida
axloq masalalari.....453
Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda
davlat va nodavlat tashkilotlari hamkorligining
ayrim jihatlari.....461
Zamonaviy targ‘ibot shakllari: ijtimoiy roliklar,
slaydlar, multmediya vositalarining ahamiyati.....466
Yangi O‘zbekistonda millatlararo
munosabatlarni rivojlantirishida OAVning o‘rni.....476
Ijodiy-madaniy ishlar bo‘yicha targ’ibotchi
faoliyatida “talqin” usulidan foydalanish
imkoniyatlari.....484
Jamiyatda g‘oyaviy birdamlikni ta’minlashda
Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining
ahamiyati.....487
Ma’naviyatsizlik tanazzulga yetaklaydi.....494
Talaba-yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy
ishlar samaradorligini oshirish masalalari 507
Yoshlar tarbiyasida qadriyatlar va
axborotning ahamiyati.....512
Ma’naviy barkamollik – eng yaxshi qalqon.....516
Yoshlarda g‘oyaviy birdamlik
fazilatlarini rivojlantirishning
ma’naviy-ma’rifiy asoslari.....522

ZJV5401

Ma’naviyat, uning jamiyat va inson kamolotidagi o‘rni.....529
Ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish texnologiyalari.....536
Oilada vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda ma’naviyatning o‘rni.....542
Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish – bugungi kunning dolzarb vazifasi 547
Yangi tariximizni o‘rganishning innovatsion usullari.....551
Yoshlar kamolotida ma’naviy tarbiyaning o‘rni.....554
Shaxs ma’naviy tarbiyasida ma’rifatparvar-jadidlarning ma’naviy merosidan foydalanish.....558
«Sinergetika madaniyatning ma’naviy komponentini o‘z ichiga oladimi?».....562

ZJV5401

Ma’naviy tarbiya va targ‘ibotning zamonaviy texnologiyalari hamda ta’sirchan usullari

Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari

ZJV5401

Muharrir
Hilola Anvarova

Badiiy muharrir
Avaz Anvarov

ZJV5401

Sahifalovchi
Abduqodir Yo‘ldoshev

ZJV5401

Nashr litsenziyasi: AI № X-25113
2023-yil 5-yanvar sanasida berilgan.
Original maket «AFZALZODA BOOKS» nashriyoti
tahririyatida tayyorlandi, matbaa bo‘limida ofset usulida
chop etildi va muqovalandi.

Bosishga 15.05.2023-yilda ruxsat etildi.
Formati 84x108 1/32. Buyurtma raqami № 55
Bosma tabog‘i 36,0. Adadi 200 nusxa.

ZJV5401